

LUTFIYA KARIMJANOVNA YAKUBOVA



FARMAKOLOGIYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

LUTFIYA KARIMJANOVNA YAKUBOVA

Bilim sohasi -«Djtimoiy ta'minot va sog'liqni saqlash» - 500000

Ta'lif sohasi - «Sog'liqni saqlash» - 510000

FARMAKOLOGIYA

DARSLIK

5510400 –Stomatologiya

5511000 –Bolalar stomatologiyasi

5510100 – Davolash ishi

5111000 – Tibbiy pedagogika

Bakalavriat ta'lif yo'nalishlariga mo'ljallangan

"KALEO PRESS"
Toshkent - 2021

xborot-resurs markaz

16604

UO'K: 615(07)

KBK: 52.81ya7

Ya - 49

Farmakologiyaning jadal rivojlanishi tutayli amaliy tibbiyotda juda ko'pgina yugor samarali dori vositalari bilan boyitildi. Aymiqsa, kasalliklarni davolashda va oldini olishda qo'llash uchun ratsional asos yaratishga qaratilgan fundamental tadqiqot sohasida katta yutuqlarga erishildi. Farmakoterapiyani ko'pgina kasalliklarni davolashda universal usul deb hisoblar ekanimiz, farmakologik bilim har qanday tibbiy xodim uchun o'ta muhimdir. Shuningdek, zamonaviy dori vositalarining juda samaraliligi va ularning noto'g'ri qo'llanishi bemorga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi farmakologiya sohasidagi chueqr bilim naqadar muhimligimning yana bir isboti bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun tibbiyot oliygohi talabalariga farmakologiya borasida chueqr bilim berish nihoyatda muhimdir. Taklif etilgan darslik farmakoterapiyaning ma'lum bir tarkibiy qismlari bilan birlgilikda farmakologiyaning asosini o'z ichiga oladi. U zamonaviy farmakologiyaning eng muhim bo'limlarini va har bir guruhning asosiy dori vositalarini qisqacha muhokama qiladi.

Darslik oliy va o'rta maxsus ta'llim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tibbiyot oliy o'quv yurtlarining bareha fakultet talabalari uchun tayyorlangan. Darslik uch bo'limdan iborat: kirish, umumiylar va xususiy farmakologiya. Xususiy farmakologiya 27 ta bobdan iborat bo'lib, unda dori vositalarining tasniflari, farmakokinetikasi, farmakodinamikasi, qo'llash uchun ko'rsatmalar, qo'llash mumkin bo'limgan holatlar yoritilgan. Darslikdan tibbiyot oliyoholarining bakalavr talabalari taxsil olish uchun foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

1. ToshFarmI farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasи dotsenti, t.f.d.

Fayzieva Z.T.

2. TDSI gistologiya va tibbiy biologiya kafedrasи mudiri, t.f.d. dotsent

Raxmatova M.X.

ISBN 978-9943-7432-5-0

©"KALEON PRESS", 2021 yil.

QISQARTMA SO'ZLAR

| Aa | Ana | Dan (baravariga) |
|--------------|--------------------|---|
| Ae | Acidum | Kislota |
| Amp | Ampula | Ampula |
| Antagonizm | | 2 dori birga qo'llanilganda organizmda qarama qarshi jarayon hosil qilishi. |
| Aq | Aqua | Suv |
| Aq. Dest. | Aqua | Distillangan suv |
| But | Butyrum | Qattiq yog' |
| Cum | Cum | Bilan |
| Comp | Compositus (a um) | Murakkab |
| Caps | Capsula | Kapsula |
| Caps. Amyl. | Capsula Amylum | Kraxmal kapsula |
| Caps. Gelat. | Capsula Gelatinosa | Jelatin kapsula |
| Ch. Cer | Charta Cerata | Mum qog'oz |
| Cito | Cito | Tez |
| Cort | Cortex | Po'stloq |
| D | Da (detur) | Ber, berilsin |
| Dil | Dilutes | Eritish |
| D.K | | O'rtacha davvo kons. |
| Y U S M | | Yuqori sutkalik miqdor |
| D.M | | O'rtacha davvo miqdori |
| Doza | | Bir martada shifobaxsh ta'sir ko'rsatadigan miqdor |

| | | |
|-----------------|--------------------------|--|
| Min. doza | | Farmakologik ta'sir yuzaga chiqadigan minimal miqdor |
| Dav. Ter. Doza | | Rosmona shifo ko'rsatadigan miqdor |
| D.t.d.N | Detur tales dosis numero | Shunday dozalardan Shunchasi berilsin |
| Decoctum | Decoctum | Qaynatma |
| D.S. | Detur signatur | Berilsin, ko'rsatilsin |
| Dragee | Dragee | Draje |
| Empl | Emplastrum | Plastir |
| Emuls | Emulsum | Emulsiya |
| Eliminatsiya | | Dori xususiyatini to'qimada yo'qolishi va organizmdan chiqib ketishi-ekskretsiya natijasi. |
| Extr. | Extractum | Ekstrakt |
| Ex | Ex | Dan |
| Ex tem. | Ex tempore | Zaruriyatga qarab qilsin |
| F | Fiat | Ber |
| Farmakokinetika | | Dori moddalarni organizmg'a yuborish, so'rilishi, taqsimlanishi, organizmdan chiqishini o'rganadi. |
| Farmakodinamika | | Dori moddalarni ko'rsatadigan ta'sirini, kuchini, mexanizmini o'rganadi |
| Fl. | Flos | Gul |
| Fluid | Fluidum | Suyuq |
| Fol. | Folium | Barg |

| | | |
|----------------------------------|------------------|--|
| Gitt. | Gutta | Tomchi |
| Hb. | Herba | O't. giyoh |
| In | In | Da |
| In, Ch, Cer | In charta cerata | Parafinlangan qog'ozda |
| Inf. | Infusum | Damlama |
| Konyugatsiya | | Dori yoki uning metaboliti boshqa kimyoviy guruhlar bilan birikishi. |
| Kumulyatsiya | | Dorini takror qo'llanilganda organizmda yig'ilib ta'sir kuchi va muddatini oshib borishi |
| M. | Misce | Aralashtir |
| M – N xolinomimetiklar | | M- N xolinoretseptorlarga stimullovchi ta'sir etadi |
| M-, N- xolinoblakatorlar | | M – N xolinoretseptorlarni ingibirlovchi ta'sir etadi |
| Metabolik transformatsiya | | Moddalar asosan qaytarilish gidrolizlanish va oksidlanish hisobiga gidrolizga uchrashi. |
| Mucil. | Mucilago | Shilliq |
| M.D.S. | Misce, Da .Signa | Aralashtirish uchun |
| ml | | Millilitr |
| Liq. | Liquor | Suyuqlik |
| Mixt. | Mixtura | Aralashtir |
| O'r ganib qolish. Tolerantlik | | Uzoq muddat takror qo'llanilganda dorining ta'siri susayishi |

| | | |
|------------------|---------------|---|
| Ol. | Oleum | Yog' |
| Pil. | Pilula | Pilyulja |
| pulver. | Pulveratus | Parashoksimon |
| Pulv. | Pulvis | Kukun |
| q.s. | Quantum satis | Kerak bo'lguncha |
| Rad. | Radix | Ildiz |
| Rp. | Recipe | Ol |
| s. | Signa | Belgila ko'rsatib qo'y |
| Sensibilizatsiya | | Organizmga takror dorilganda ularga nisbatan butun organizm sezuvchanligining oshib ketishi |
| Sem. | Semen | Urug' |
| Sinergizm | | Birga qo'llanilganda bir dorini 2-ni tasirini oshirib yuborishi |

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| 1. KIRISH | 12 |
| 1. Farmakologiya predmeti va maqsadi. Uning boshqa tibbiyot fanlari orasidagi orni. Farmakologiya rivojlanishining asosiy bosqichlari..... | 12 |
| 2. Yangi dori vositalarining yaratilishi..... | 20 |
| 3. Farmakologiyaning asosiy bo'limlari..... | 32 |
| Dori vositalarini klassifikasiyalash tamoyillari..... | 33 |
| 2. UMUMIY FARMAKOLOGIYA | 34 |
| 1. Dori vositalari qabul qilish yo'llari. Ularning so'rilishi..... | 35 |
| 2. Odam tanasida dori vositalarining tarqalishi. Biologik to'siqlar. Saqlanishi..... | 41 |
| 3. Dori vositalarining organizmda kimyoviy o'zgarishlari (biotransformasiya, metabolizm) | 44 |
| 4.Dori vositalarining organizmdan chiqarilish yo'llari..... | 48 |
| 5. Dori vositalarining mahalliy va rezorbtiv ta'siri. To'g'ridan-to'g'ri va reflektor ta'sirlar. Qaytar va qaytmas ta'siri. Selektiv ta'siri..... | 54 |
| 6. Farmakoterapevtik samaradorlikning dori vositasining xususiyatlari va qabul qilish usullariga bog'liqligi..... | 65 |
| 7. Dori vositalaring ta'sirida organizmnинг individual xususiyatlari va holatining ahamiyati..... | 77 |
| 8.Dori vositalari bilan davolashning asosiy turlari..... | 80 |
| 9. Asosiy va nojo'ya ta'sirlar. Allergik reaksiyalar. | |
| Idiosinkraziya. Toksik ta'sir..... | 81 |
| 10.Dori vositasi bilan o'tkir zaharlanishni davolashning umumiy tamoyillari..... | 84 |
| 3. Xususiy farmakologiya | 89 |
| <i>4. Afferent innervasiyaga ta'sir etuvchi dori vositalari</i> | 89 |
| 1-Bob.Afferent nerv tolalarining sezuvehanligini kamaytiruvchi yoki ularning kuzgalishiga to'sqinlik qiluvchi dori vositalari | 89 |
| 1.1.Mahalliy anestetiklar..... | 90 |
| 1.2.Burishtiruvchi vositalar..... | 95 |

| | |
|---|------------|
| O'rabi oluvchi vositalar..... | 96 |
| Adsorbsityalovchi vositalar..... | 96 |
| 2-Bob. Nerv oxirlariga ta'sir etuvchi vositalar..... | 99 |
| Ta'sirlovchi vositalar..... | 99 |
| 3-Bob. Xolinergik sinapslarga ta'sir etuvchi dori vositalari..... | 101 |
| 3.1.Muskarin va nikotinga sezgir xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi vositalar..... | 108 |
| 3.2. Antixolinesteraz vositalar | 110 |
| 3.3. M-xolinoretseptorlarga tasir etuvchi vositalar | 115 |
| 3.4.M-xolinomimetiklar..... | 115 |
| 3.5. M-xolinoblorktorlar..... | 117 |
| 3.6.Nikotinga sezgir xolinoretseptorlarga tasir etuvchi vositalar | 122 |
| a) Nikotinga sezgir xolinoreseptorlarni qo'zg'atuvchi vositalar. | |
| N-xolinomimetiklar..... | 122 |
| b) Nerv-mushak o'tkazuvchanligini bloklovchi vositalar..... | 130 |
| 4-Bob. Adrenergik sinapslarga ta'sir etuvchi dori vositalari..... | 137 |
| 4.1. Adrenoreseptorlarni qo'zg'atuvchi dori vositalari (adrenomimetiklar)..... | 137 |
| 4.2. Adrenoreseptorlarni falajlovchi dori vositalari (adrenoblokatorlar)..... | 145 |
| 4.3. Presinaptik ta'sir etuvchi dori vositalari (simpatomimetiklar simpatolitiklar)..... | 149 |
| 5-Bob. Narkoz vositalari (Umumiy anestetiklar)..... | 167 |
| 5.1. Ingalyasion narkoz vositalari..... | 172 |
| 5.2. Noingalyasion narkoz vositalari..... | 184 |
| 5.3. Narkoz vositalarini kombinirlangan holda qo'llanilishi..... | 184 |
| 6-Bob. Etil spirti..... | 186 |
| 7-Bob. Uxlatuvchi dori vositalari | 191 |
| 7.1. Benzodiazepin reseptorlarining agonistlari..... | 191 |
| 7.2. Antidepressantlar..... | 191 |
| 8-Bob. Oq'triq qoldiruvchi dori vositalari (analgetiklar)..... | 204 |

| | |
|---|------------|
| 8.1. Opioid (narkotik) analgetiklar va ularning antagonistlari..... | 208 |
| 8.2. Markaziy ta'sir etuvchi no opioid analgetiklar..... | 223 |
| 8.3. Aralash mexanizmli analgetiklar (opiod va no opioid)..... | 227 |
| 9-Bob. Tutqanoqqa qarshi dori vositalari..... | 228 |
| 10-Bob. Parkinsonizmga qarshi dori vositalari..... | 239 |
| 11-Bob. Psixotrop dori vositalari..... | 248 |
| 11.1. Antipsixotik dori vositalari (neyroleptik moddalar..... | 250 |
| 11.2. Antidepressantlar..... | 261 |
| 11.3. Maniakal holatlarda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 269 |
| 11.4. Trankvilizatorlar | 272 |
| 11.5. Sedativ vositalar..... | 278 |
| 11.6. Psixostimulyatorlar..... | 280 |
| 11.7. Nootrop dori vositalari..... | 285 |
| 12-Bob. Analeptiklar..... | 288 |
| 1. Organ va sistemalar faoliyatini tartibga solib turuvchi dori vositalari..... | 288 |
| 13-Bob. Nafas olish organlari faoliyatiga ta'sir etuvchi dori vositalari..... | 291 |
| 13.1. Nafas olish stimulyatorlari..... | 292 |
| 13.2. Yo'talga qarshi dori vositalari..... | 292 |
| 13.3. Balg'am ko'chiruvchi dori vositalari..... | 295 |
| 13.4. Bronxospazmni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 298 |
| 13.5. O'tkir respirator buzilishlarda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 309 |
| 14-Bob. Yurak-qon tomir tizimini davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 313 |
| 14.1. Kardiotonik moddalar..... | 315 |
| 14.2. Yurak ritmining buzilishini davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 330 |
| 14.3. Koronar qon aylanishining buzilishini davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 354 |
| 14.4. Miyada qon aylanishining buzilishini davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 370 |
| 14.5. Gipotenziv dori vositalari (antigipertenziv dori vositalari)..... | 381 |

| | |
|---|------------|
| 14.6. Gipertenziv dori vositalari (arterial gipertenziyasi davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 386 |
| 15-Bob. Gormonal dori vositalari..... | 394 |
| 15.1. Qalqonsimon bez gormonlari va antitireoid dori vositalari. Kalsitonin..... | 394 |
| 15.2.Oshqozon osti bezi gormonal vositalari va sintetik antidiabetik vositalar vositalari..... | 401 |
| 15.3.Glyukokartikoid..... | 414 |
| 15.4. Jinsiy gormonlar, sintetik vositalar va antagonistlari..... | 421 |
| 16-Bob. Vitaminlar..... | 432 |
| 16.1. Suvda eruvchan vitaminlar..... | 432 |
| 16.2. Yog'da eruvchan vitaminlar..... | 436 |
| 17-Bob. Aterosklerozga qarshi dori vositalari (giperlipoproteinemiyanı davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 445 |
| 18-Bob. Osteoporozni oldini olish va davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 449 |
| 19-Bob. Podagrani davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 457 |
| 20-Bob. Yallig'lanishga qarshi dori vositalari..... | 461 |
| 21-Bob. Immun tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi dori vositalari..... | 477 |
| 21.1. Allergiyaga qarshi dori vositalari. Immunodepressantlar..... | 477 |
| 21.2. Immunostimulyatorlar..... | 486 |
| 21.3. Antigelmint vositalar..... | 488 |
| 22-Bob. Antiseptiklar va dezinfeksiyalovchi vositalar..... | 489 |
| 23-Bob. Antibakterial ximioterapeutik vositalar..... | 500 |
| 24. Antibiotiklar..... | 501 |
| 24.1.Penisillinlar..... | 508 |
| 24.2. Sefalosporinlar..... | 519 |
| 24.3.Tuzilishida β -laktam halqasiga ega bo'lgan boshqa antibiotiklar. Karbapenemlar..... | 526 |
| 24.4. Makrolidlar va azalidlar..... | 528 |
| 25-BOB Tetrasiklinlar..... | 531 |

| | |
|---|-----|
| 25.1. Levomiseten guruhi..... | 535 |
| 25.2 Aminoglikozidlar guruhi..... | 538 |
| 25.3. Siklik polipeptidlar (polimiksinlar va boshqalar) | 543 |
| 25.4. Mahalliy qo'llanadigan antibiotiklar..... | 545 |
| 25.5.Sulfamilamid preparatlar..... | 549 |
| 25.6. Xinolon unumlari..... | 557 |
| 25.7.Turli kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan sintetik. Antibakterial vositalar. 8-oksixinolin unumlari..... | 561 |
| 25.8. Zaxmga qashi vositalar..... | 564 |
| 25.9.Silga qarshi vositalar..... | 565 |
| 26-Bob. Viruslarga qarshi dori vositalari..... | 578 |
| 26-Bob. Zamburug'larga qarshi dori vositalari..... | 595 |
| 27-Bob. Sodda jonivorlarga qarshi vositalar..... | 602 |
| 27.1. Bezgakning oldini olish va davolashda qo'llaniladigan vositalar..... | 603 |
| 27.2. Gematoshizotrop vositalar..... | 605 |
| 27.3. Gistoshizotrop vositalar..... | 607 |
| 27.4. Gamontotrop vositalar..... | 608 |
| 27.5. Amyobiazni davolashda qo'llaniladigan vositalar..... | 610 |
| 27.6. Lyamblioziyi davolashda qo'llaniladigan vositalar..... | 613 |
| 27.7. Trixomoniazni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 615 |
| 27.8. Toksoplazmozni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 617 |
| 27.9. Balantidiazni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 617 |
| 27.10. Leyshmoniozni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 617 |
| 27.11. Triponosomiazisni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari..... | 618 |

KIRISH

Farmakologiya predmeti va maqsadlari. Uning boshqa tibbiyot fanlari orasidagi o'rni. Farmakologiyaning rivojlanishining asosiy bosqichlari

Farmakologiya¹ kimyoviy birikmalar va tirk organizmlar o'ttasidagi o'zaro munosabatni o'rganuvchi fandir. Farmakologiya asosan turli xil kasalliklar va patologik jarayonlarning oldini olish va davolashda qo'llaniladigan dori vositalarini o'rganadi. Farmakologiyaning asosiy maqsadlaridan biri yangi samarali va nojo'yta'siri dori vositalarini yaratishdan iborat.

Farmakologik tadqiqot doirasi juda ham keng. U turli xil murakkablikdag'i biologik tizimlarga – butun bir organizmdan tortib muayyan hujayralar, subhujayrali fraksiyalar, reseptorlar va fermentlargacha – moddalarning ta'siri tadqiqotlarini o'z ichiga oladi. Kimyoviy birikmalar ta'sirida biologik tizimlar funksiyasidagi o'zgarishlar ularning biologik faoliyatining namoyishidir².

Farmakologiya tibbiy-biologik fan bo'lib, u ekperimental va klinik medisinaning turli sohalari bilan bog'liqidir. Shuning uchun, farmakologiya boshqa ko'plab tibbiy-biologik fanlar, ayniqsa fiziologiya va biokimyo fanlarining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, vegetativ innervasiyaga ta'sir etuvechi moddalar neyromediatorlar bilan o'tkazilgan sinaptik uzatish mexanizmini ochib berishga yordam bergan. Bizga muayyan fermentlarni to'xtatish yoki tezlashtirish imkonini beruvechi moddalar fermentologiyaning rivojlanishiga turki bo'lган. Markaziy nerv tizimining murakkab funksiyalarining ko'pchiligi neyrotrop dori vositalari yordamida tadqiqotlar asosida ochilgan.

Farmakologiya klinik tibbiyot uchun juda muhim fandir. Yuqori samarali dori vositalari muhim spektrlarining kashf qilingani tufayli farmakoterapiya ko'pgina kasalliklarni davolashda universal usul bo'lib qoldi.

Markaziy va periferik nerv sistemasini qo'zg'atadigan yoki tinehlantiradigan, arterial qon bosimini ko'taradigan yoki tushiradigan, yurak faoliyati va nafas olishni rag'batlantiradigan, gemopoezni, qonning ivishini, metabolik jarayonlar va organizmdagi turli boshqa holatlarni nazorat qiladigan dori vositalari keng qo'llanilmogda.

Infekcion kasallikkarni oldini olish va davolashda qo'llaniladigan antimikrob va antiparazitar dori vositalari muhim rol o'ynaydi.

Farmakologiyadagi rivojlanish uning klinik fanlar rivojiga shubhasiz muhim ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun narkoz vositalari va mahalliy anestetiklar, miorelaksantlar, ganglioblokatorlar va boshqa dori vositalarining kashf qilinishi jarrohlik sohasidagi yutuqlarga sabab bo'ldi. Psixotrop dori vositalarining kashf qilinishi psixiatriyani yangi bosqichga ko'tardi. Gormonal moddalarning kashf qilinishi va sintezlashdirilishi endokrin buzilishli bemorlarni davolashdagi salbiy ta'sirlarni sezilarli darajada kamaytirdi. Bakterial infeksiyalarning samarali davolanishi faqat antibiotiklar va sulfanilamid dori vositalarining kashf qilinishidan keyingina amalga oshdi. Organlarning trasplantasiyasi immunosupressiv dori vositalari yordamida amalga oshdi. Shunga o'xshash misollar yana talaygina.

Farmakoterapiyaning klinik tibbiyotdagи ahamiyati shuningdek yaqin yillarda klinik farmakologiya (ko'proq patalogik holatdagи) inson organizmini o'rjanadigan alohida fan sifatida bo'linganligi yaqqol dalil bo'la oladi.

Tabiiyki, farmakologiyaning eng asosiy maqsadlaridan biri yangi dori vositalarini yaratish va o'rjanishdir. Bunga erishishning eng optimal yo'lli ularni kimyoviy sintezlashdir. O'simliklardan olingen tabiiy birikmalar, hayvon to'qimalari va minerallar ham qo'llaniladi. Hozirgi kunda qo'llanilayotgan ko'pgina dori vositalari zamburug'lar va mikroorganizmlarning hayot mahsulidir. Hujayra va gen injeneriyasi ham shuningdek muhimdir. Yangi dori vositalarining izlanishi va sinalishi farmasevtlar, kimyogarlar va shifokorlarning yaqin hamkorli giga tayanadi. Bularning barchasi farmakologiyaning turli yo'nalishlarini ko'rsatib turibdi. U dori vositalarining ta'sir etish mexanizmi fundamental asosini yoki hattoki uning yangi dori vositalariga ega bo'lish va ularni tibbiy amaliyotga tanishtirish bilan bog'liq analiy aspektini ham o'rjanadi.

Farmakologiya fanidagi taraqqiyot ba'zi bir ilmiy yo'nalishlar va sohalarning farqlanishiga va ajralishiga olib keldi. Nafaqat eksperimental va klinik farmakologiya, balki farmasevtika³, toksikologiya⁴, immunofarmakologiya,

farmakogenetika, infeksiyalar kimyoqiy terapiyasi, o'simta kasalliklari kimyo terapiyasi shular jumlasidandir.

Farmakologiyaning tarixi insoniyat tarixi kabi qadimiydir. Ko'p astlardan buyon dorilarni tayyorlash va qo'llash (odatda o'simliklardan) empirik tarzda amalgamoshiriladi. Shunday bo'lsada, xattoki 19 - asrda Arablar o'sha vaqtarda qo'llanilgan dori vositalarni tasniflab standartlashtirishga harakat qilishgan.

Bu maqsadda maxsus kitoblar yaratilgan va bugungi kungi farmakopeyaning prototipiga aylangan. Evropada birinchi nashr etilgan farmakopeya Italiyada 15 - asrda bosib chiqarilgan. Keyinchalik farmakopeya Angliyada (17 - asrda), Fransiyada (17 - asrda), Rossiyada (18 - asrda) va AQSHda (19 - asrda) paydo bo'lган. Farmakologiyaning rivojlanishida muhim qadam 19 - asrning boshlarida qo'yilgan. O'shanda tozalangan alkaloidlar (morfin, xinin va boshqalar) ajratib olinib, birinchi organik modda (mochevina) sintezlashtirildi. 19 - asrning boshlarida farmakologik tadqiqotlar uchun birinchi bora hayvonlar qo'llanila boshladi.

1840 - yilda birinchi narkoz moddalar (dietil efiri, xloroform, azot oksidi), uxlatuvchi modda xloralgidrat, mahalliy anestetiklar, antianginal dori vositalaridan nitrogliserin va boshqa moddalar tibbiy amaliyatga ma'lum bo'ldi.

20 asrning 20- yillarida insulin va penisillin, 30 - yillarda sulfanilamidlarning antibakterial ta'siri kashf qilindi. Yuqori samarali dixloro-difenil-trixloroetan (DDT) inseksididi xuddi o'sha vaqtarda qo'lga kiritildi.

40-yillarning eng ahamiyatlari yutug'i penisillin, streptomisin va boshqa antibiotiklarning sintezlashtirilganligi va amaliy qo'llanilishi; yallig'lanishga va allergiyaga qarshi glyukokortikoidlarning ishlab chiqarilishi va qo'llanilishi; azot ipritlarining antiblastomik xususiyati kashf qilinishi; kurarening anesteziologiyada qo'llanilishi va sintetik kuraresimon moddalarning yaratilishi; sintetik V₁₂ vitaminining ajratilishi bo'ldi.

Farmakologiyada katta yutuqqa 50 - yillarda erishildi. Birinchi samarali psixotrop dorilar (xlorpromazin, meprobamat, imipramin va boshqalar) ishlab chiqarila boshladi. Fundamental psixofarmakologiya jadal rivojlanishni boshladi. Birinchi peroral antidiabetik dorilar, birinchi β -adrenoblokatorlar va anabolik steroidlar

ushbu o'n yillik davomida sintezlandi. Alkillaydigan moddalar va antimetabolitlar kabi samarali antiblastom dorilar olindi. Gormonal kontraseptiv dorilar ham shuningdek ichish uchun taklif qilindi.

Keyingi 20 yil ham farmakologiyaning keskin rivojlanishiga guvoh bo'ldi. 60-yillarda yarimsintetik penisillinlar, sefalosporinlar va rifampisin kabi dori moddalarining kashf etilishi antibiotiklar sonining ko'payishiga olib keldi. Kalsiy kanallari blokatorlari kabi yangi muhim dori vositalari guruhi va gistamin H₂-reseptor blokatorlari paydo bo'la boshladi. Yallig'lanishga qarshi faol nosteroid guruh dori vositalari shu yillarda sintezlandi. Benzodiazepinlar guruhiga mansub ko'pgina trankvilizator va shuningdek neyroleptanalgeziya tibbiyot amaliyotiga kirg'izildi. 70- yillarda prostaglandinlar chuqurroq o'rganildi va ulardan ba'zilari akusherlik va ginekologiya amaliyotida qo'llanila boshlandi. Shuningdek, nosteroid yallig'lanishga qarshi dori vositalarining prostaglandin sinteziga ingibitorlik ta'siri kashf qilindi; prostasiklin-tromboksan tizimi birinchi bora ta'riflab berildi; endogen opiod peptidlar ajratib olindi.



Ebers Papiruedan parcha.

(Misr, m.a. XVI asr) Ma'lum
bo'lgan birinchi dorilar tavisi.
Qusishiga qarshi dorilar, ishni
bo'shashtiruvechi (kastor yog'i),
antigelmintik dorilar, jigar
preparatlari (shabko'rlikni
davolash uchun) dorilar bu erda
qayd etilgan.

Birinchi angiotenzin reseptorlar
blokatorlari va angiotenzin

fermenti inibitorlari yaratildi. Gerpesga qarshi yuqori samarali asiklovir dori vositasi sintezlandi. Birinchi xolesterol sintezi (statin) ning ingibitori yaratildi. 80 - yillar ham xuddi shunday unumli bo'ldi. Oshqozon yarasini davolash uchun butunlay

yangi dori vositasi – proton nasos ingibitorlari yaratildi. Kaliy kanalini faollashtiradigan bir qancha dori vositalari yaratildi va ularning arterial gipertenziyani davolashda yuqori samadorligi aniqlandi.



Gippokrat (Gretsiya; m.a. V-IV asrlar) «Libbiyot otasi». U birinchi bo'lib dorilarni ta'siriga qarab klassifikatsiya qilishga harakat qilgan.

Selektiv fibrinolitik dori vositasi profibrinolizin yaratildi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki. NMDA –reseptorlar deb nomlanuvchilar glutamat reseptorlari blokatorlari ishemiyada MNT da neyronlarning degenerativ o'zgarishlarini oldini olar ekan. Samarali antimikrob ta'sirga ega bo'lgan storxinolon guruhi kashf etildi. prostata bezining giperplaziyasini davolashda qo'llaniluvechi 5a- reduktaza ingibitori finasterid dori vositasi kashf qilindi. Xuddi shu yillarda OTTS ni davolashda qo'llaniladigan zidovudin preparati ham sintez qilindi. Inson insulinini biotexnologiya usuli yordamida ishlab chiqarila boshlagan. 90-yillarda yallig'lanishga qarshi yangi guruh selektiv siklooksigenaza-2 ingibitori yaratildi. Ushbu o'n yillikda kashf qilingan dori vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: leykotrien tizimiga ta'sir etuvechi dori vositalari; leykotrien reseptorlar blokatori (zaflukast), angiotenzin reseptorlarining noopeptid blokatori (lozartan), imidozolin reseptorlariga selektiv ta'sir kursatuvechi gipotenziv dori vositalari (moksonidin); Nitrogliserin va nitroprussid natriyning ta'sir etish mexanizmida NO ning roli kashf etildi.





P. Dioskorid (Rim: I asr). Gresiyada tug'ilgan. U o'simlik dorilariga bag'ishlangan risola muallifi (900 dan ortiq tibbiy giyohlar tasvirlangan). Rasmida Dioskorid Mangadora ildizini Kashfiyotlar ma'budasidan olmoqda.

NO-sintezi ingibitorlari ishlab chiqarildi. Trombositlarni aktivlashtiradigan faktor reseptor blokatorlari sintezlashtirildi. Yangi sefalosporinlar, eritromisinning yarim sintetik analoglari va boshqa shunga o'xshash dori vositalari shu davr davomida paydo bo'ldi.



S.Kalenus (135-201 yillard) Pergamda tug'ilgan. Asosan Rimda Tibbiyot amaliyoti bilan shug'ullangan. U birinchilardan bo'lib ballast moddalardan dori xom ashyolarini yaxshilashni taklif qilgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1036 yillard). Arab medisinası atoqli namoyondasi. U dorilarni va ularni qo'llash uchun ko'rsetmalarni klassifikasiyalagan. Layber Kanozis risolasi muallifi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'smalarga qarshi ta'sirga ega monoklonal antitelolar alemtuzumab (kampaz), omalizumab (ksoleyr), adalimimab (xumira) va boshqalar, kardiotonik kalsiy kanallarining antagonistisi (levosimendan), antiaritmik vosita (ivabradin) va ichakda xolesterinni so'rlishini kamaytiradigan dori vositalari (ezetimib) tibbiyot amaliyotiga taqdim etildi. Karbapenemlar (piperipenem, faropenem) va tribaktamlar (trinem, sanfetrinem) kabi yangi antibiotiklar paydo bo'ldi. Mahalliy ta'sir qiladigan glyukokortikoid dori vositalari (loteprednol, siklesonid va boshqalar) sintez qilindi.



Parasels (Filippin Teofrastus Bombastus von Xoxenxeym; 1493-1541)



F.Mugenday (1783-1855 Shvesariya)

Eksperimental farmakologiya. Sifilisni davolash uchun merkuriy tuzini asosiechisi, U strixnin, emetin, Tibbiyot amaliyotiga tanishtirgan, morfin, veratrin va boshqa hayvonlarda va klinikada sinagan.

Respublikamizda farmakologiya fanining rivojlanishi.

O'zbekistonda farmakologiya fanining rivojlananishi XX-asmning 30-yillarida professor N.N.Kompansev (1893-1985y) raxbarligida boshlandi. 1933 yilda O'rta Osiyo tibbiyot institutida farmakologiya kafedrasи mudiri bo'lib ishlay boshladi. Uning ilmiy ishlari O'zbekistondagi dorivor o'simliklardan olinadigan moddalarning organizmga ta'siriga bag'ishlangan.

I.K.Komilov (1909-1985) tibbiyot fanlari doktori, professor. Ko'p yillar davomida ToshMI, ToshFarMillarda kafedra mudiri lavozimida ishlagan. "O'zbekiston o'simliklaridan ajratilgan alkaloid va glikozidlarning farmakologiyasi" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan. Bir qator fan doktorlari va fan nomzodlariga rahbarlik qilganlar (S.F.Faxriddinov, S.S.Azizova, X.U.Aliev, Ma'rupova, Umarova, N.Abdumalikova va boshqalar).

M.B.Sultonov-tibbiyot fanlari doktori, professor. Ilmiy ishlari O'rta Osiyo o'simliklaridan ajratib olingan alkaloidlar farmakologiyasiga bag'ishlangan.

I.F.Fatxullaev - "Yurakning yangi glikozidlarini tajriba yo'li bilan olish va klinik o'rganish materiallari" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

S.F.Faxriddinov-tibbiyot fanlari doktori - "Apomorfin, narkotin, xinolin va xinolon kabi alkaloidlar va ularning hosilalarini farmakologik tekshirish" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

S.S.Azizova-O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tibbiyot fanlari doktori, professor. Ilmiy ishlariда yangi yurak glikozidlarining eksperimental yo'l bilan yurak kasalliklariga ta'sirini o'rgangan va klinikaga tavsiya etgan.

O'.B.Zokirov-tibbiyot fanlari doktori, professor. "Ungerniya turkumidagi o'simliklar alkaloidlari va ular hosilalari farmakologiyasi" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan. 20 tadan ortiq fan doktorlari va fan nomzodlarini etishtirgan. Ko'p yillar mobaynida ToshMIda farmakologiya kafedrasи mudiri lavozimida ishlab kelgan.

H.U.Aliev-tibbiyot fanlari doktori, professor, "Ungerniya va shotara o'simligidan olingan alkaloidlar va ularning xosilalarini aritmiyaga qarshi ta'sirini o'rganish" mavzusida doktorlik dissertasiyalarini yoqlagan. 20 tadan ortiq fan doktorlari va fan nomzodlarini etishtirgan. Uzoq yillar mobaynida Toshkent farmasevtika institutida farmakologiya kafedrasи mudiri lavozimida ishlagan.

2.Yangi dori vositalarining yaratilishi.

Farmakologiyaning rivojlanishi tinimsiz tadqiqotlar va yangi, yanada faol va xavfsiz dori vositalarining yaratilishi bilan harakterlanadi.

So'nggi yillarda fundamental tadqiqot dori kashfiyotining eng muhim qismi bo'lib qoldi. Unafaqt kimyoviy (nazariy kimyo, fizik kimyo va shu kabilar) bilan, balki biologik masalalar bilan ham shug'ullanadi. Molekulyar biologiya, molekulyar genetika va molekulyar farmakologiyadagi yutuqlar farmakologiyaning yangi dorilarni yaratish kabi amaliy aspektiga ahamiyatli ta'sir ko'rsata boshladи. Haqiqatdan ham, endogen ligantlar, ikkinchi tashuvchilar, presinaptik reseptorlar va neyromodulyatorlarning kashf qilinishi; mustaqil reseptorlarning aniqlanishi; ion kanallari va reseptorlar aloqasi funksiyasini o'rganish tadqiqot usullarining rivojlanishi; gen injeneriyadagi yutuqlar va shu kabilar – hammasi dori vositalari rivojlanishi yangi yo'nalishlarining yo'lga qo'yilishida muhim rol o'tynaydi.

Farmakodinamik tadqiqotlar zamонавиј farmakologiyaning amaliy masalalarini echishda juda katta ahamiyatga ega. Jumladan, yallig'lanishga qarshi nosteroid dori vositalarining ta'sir qilish mexanizmining kashf qilinishi bunday dori vositalarining yaratilishi va o'rjanib chiqilishining yo'llarini butunlay o'zgartirib yubordi. Prostaglandinlarning kashfiyoti, atroficha o'rjanilishi va amaliy tibbiyotga joriy etilishi farmakologiyada yangi sahisani ochdi. Prostasiklin-tromboksan tizimining topilishi antiagregantlarning maqsadli o'rjanilishi va amaliy qo'llanilishi uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Enkefalin va endorfinlarning kashf qilinishi turli spektorli reseptor faoliyatga ega opioid peptidlarning tadqiqoti va sintezini rag'batlantirdi. Proton pompaning osiqozon xlorid kislotosi ishlab chiqarilishidagi rolining isbotlanishi oldin normalum bo'lgan dori – proton pompa

ingibitorlarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Endotelial relaksant faktor (NO)ning kashf qilinishi muskarinomimetiklarning qon tomirlarining kengayishtirish xususiyatini tushuntirib berish imkonini berdi. Ushbu yangilik shuningdek nitrogliserin va nitroprussid natriyning tomirlarni kengaytiruvchi xususiyati mexanizmini tushuntirishga yordam berdi. Bu yangi fiziologik faol birikmalar tadqiqot uchun muhim edi. Fibrinolizning mexanizmini o'rganish selektiv fibrinolitik – plazmogen to'qima aktivatorini ishlab chiqarishga imkon berdi. Boshqa borada ko'plab misollar keltirilishi mumkin.

Yangi dori vositalarining yaratilishi odatda kimyogarlar va farmakologlarning asosiy tadqiqotlari bilan boshlanadi. Ularning ijodiy hamkorligi yangi dori vositalari yaratilishining asosi hisoblanadi.

Yangi dori vositalarining yaratilishi ushbu yo'llarda amalga oshiriladi:

I. Dorilarning kimyoviy sintezi.

A. Maqsadli sintez:

- Biogen moddalarni ko'paytirish;
- Antimetabolitlarning yaratilishi;
- Ma'lum biologik faoliyatli molekulyar birikmalarni modifikasiyalash;
- Dori vositasi reaksiyaga kirishadigan substratlar tuzilishini o'rganish;
- Kerakli xossali ikkita birikmaning tarkibiy fragmentlarini birlashtirish;
- Organizmda dori vositalarning bir kimyoviy holatdan boshqa holatga o'tishini o'rganishga asoslangan sintez (biotransformasiyaga ta'sir etuvchi dorilar).

B. Empirik yo'l:


- Tasodifiy topilma;
- Skrining.

II. Dori vositalarini shifobaxsh xomashyolaridan yoki individual moddalardan ajratib olish:

- Hayvonlardan;
- Shifobaxsh o'simliklardan;
- Minerallardan


III. Zamburug'lar va mikroorganizmlarning hayot mahsulidani, bioteknologiya (molekulyar va gen injeneriyasi) usulida olinadigan dori vositalari:

Oldin ham ta'kidlanganidek, bugungi kunda dorilar asosan kimyoviy sintez yordamida olinadi. Maqsadli sintezning asosiy usullaridan biri tirk organizmlarda ishlab chiqariladigan *biogen moddalarining* qayta ishlab chiqarilishidir. Misol uchun, epinefrin, norepinefrin, β -aminomoy kislotasi, prostaglandinlar, bir qancha gormonlar va boshqa fiziologik faol birikmalar shu yo'l bilan sintezlangan. Antimetabolitlarning izlanishi yangi dori vositalarining qo'lga kiritilishiga sabab bo'ldi. Yangi metabolitlar metabolitlarga qarama-qarshi ta'sirga ega tabiiy metabolitlarning tuzilmayıy analoglarining sintezi yordamida yaratilgan. Masalan, antibakterial modda sulfanilamid tuzilishi jihatidan mikroorganizmlar hayot faoliyatları uchun zarur paraaminobenzoy kislotasi (so'ngda qarang) bilan o'xshash antimetabolitlardir. Asetilxolining tuzilishini o'zgartirish shuningdek uning antagonistlarining yaratilishiga olib kelgan. Pastda asetilxololin va uning antagonistı – ganglioblokator gigroniyning tuzilishi ko'rsatilgan. Ikkala holatda ham har bir juft birikma ichida belgilangan struktural analog bor.



Dorilar kashtiyotining eng keng tarqalgan yo'li *ma'lum biologik faoliyatlari* *birikmalarning kimyoviy modifikasiyasidir*. Bunday jarayonning asosiy vazifasi foydaliroq allaqachon ma'lum bo'lgan dorillardan farq qiladigan (yanada faol, kamroq toksik) yangi dorilarni yaratishdir. Boshlang'ich birikmalar shifobaxsh o'simliklardan va hayvonlardan olingan tabiiy moddalar yoki sintetik moddalar bo'ldi. Buyrak ustı bezida ishlab chiqariladigan tabiiy gidrokortizon unga nisbatan faol va suv-tuz muvozanatiga kamroq ta'sirga ega glyukokortikoidlarning sintezi uchun asos bo'ldi. Sulfanilamidlar, barbituratlar va boshqa birikmalarining yuzlab

shakli sintezlandi va faqatgina kerakli farmakoterapeutik xususiyatlarga ega ba'zi moddalargina tibbiyot amaliyatiga tadbiq qilindi. So'nggi yillarda yangi dori vositalarini kashf qilishga yangi yondashuv topildi. Reseptor yoki ferment bilan birika oladigan substrat dori tayyorlanishi uchun asos buladi. Hozirgi vaqtida fermentlar va nuklein kislotalarining ahamiyatli soni haqida ma'lumotlarni o'zida saqlaydigan ma'lumotlar bazasi mayjud.



1.1 Rasm. Sabzavot xomashyolaridan dori tayyorlash va sintetik moddalar yaratish jarayoni(kurarega o'zhash dorilar misoli).

1. Oldin Xindular skelet muskul falajiga olib keluvchi o'q zahar kurareni bir qancha Janubiy Amerika o'simliklaridan olishgan.

a, b – kurare olinadigan o'simlik; s – kurare bilan quritilgan qovoq urug'lari va Xindularning ov quroli; d – kurare yordamida ov. Xindular kichik o'tkir o'qlarning uchini kurare bilan o'rab uzun trubkadan nishonga qarab puflab otishgan, kurare qon orqali hayvonga singib falajni keltirgan va uni ovehilar o'ljasiga aylantirgan.

2. 1935 yilda asosiy kurare alkaloid tubokurarinlardan birining kimyoviy tuzilishi aniqlangan.

$$f_1 \in \mathbb{C}^{\frac{N}{2} \times \frac{N}{2}}$$

3. Alkaloid aralashmasidan tashkil topgan tozalangan kurare (dorilar: kurarin, intokostrin) birinehi bora tibbiyotda 1942- yilda qo'llanilgan. Birinchi foydalaniilgan dori tubokurarin ("tubarin" nomi bilan ham mashxur) bo'lgan. Tubakurarin jarrohlilik amaliyoti o'tkazilayotganda skelet mushaklarini bo'shashtirish uchun qo'llanilgan.
 4. Keyinroq ko'pgina kurarega o'xshash dorilar sintezlashtirilgan. Ularni yaratishda olimlar tubokurarin xloridning bir biridan ma'lum masofada joylashgan ikkita kation markazlari tuzilishiga taqli d'gilishgan (N_+ ; N_+)





Gen injeneriyasi tufayli alohida reseptorlar komponentlari va ularning o'ziga xos juftlari – agonist va antagonistlarining ahamiyatini o'rganishda qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'ldik. Boshqa usullardan bittasi dorilarning organizmdagi *bir kimyoviy holatdan boshqa holatga o'tishidan* foydalanishdir.

«Tashuvechi modda+faol modda» kompleksi deganda odatda yo'naltirilgan transport tushuniladi. «Tashuvechi modda» odatda faol modda bilan kovalent bog'lamlar orqali birikadi. Tashuvechi modda ta'sirida tegishli fermentlar yordamida organizmda faol birikmalar ajralib chiqadi. Tashuvechi modda nishon hujayralar tomonidan tanilganligi tufayli tanjab ta'sir ko'rsatadi. Oqsillar, peptidlar va boshqa birikmalar transport funksiyasini bajarishi mumkin. Masalan, ko'krak bezi epiteliyasining spesifik antigenlariga monoklonal antitanachalar topish mumkin. Ushbu antitanachalar antiblastom preparatlar bilan birlgilikda ko'krak bezi saratoni kasalligini davolashda tadbiq qilinishi mumkin. Oqsil tuzilishli gormonlardan v-melatotropin tashuvechi modda sifatida qo'llanilsa, melanomada atipik hujayralar tomonidan tashilishish mumkin. Glikoproteinlar gepatositlar hujayralariga selektiv ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Buyrak tomirining selektiv kengayishi dotamin ajralishiga olib keladigan, buyrakda metabolik o'zgarishlarga uchraydigan γ -glutamil-DOEA buyurilgandan so'ng kuzatiladi.

Ba'zida «tashuvchi dorilar» dorilarni biologik membranalardan bo'ylab tashish uchun qo'llaniladi. Ma'lumki, ampisillin ichakdan yomon so'rildi (taxminan 40%). Uning esterifisirlangan lipofil prodorisi bakampisillin oshqozon ichak traktidan deyerli butunlay so'rildi (98-99%). Bakampsillin o'zi faol emas, uning antimikrob faoliyatini faqatgina qon zardobida esteramaza yordamida ampisillining parchalanishi tufayligina yuzaga chiqadi. Biologik to'siglardan o'tishni yengillashtirish uchun odatda lipofil birikmalar qo'llaniladi. Masalan, setil chiri, gamma-aminomoy kislota (GAMK) GAMKga nisbatan miya to'qimalariga oson o'tadi.

Yana boshqa bir muhim soha dori vositalarining biotransformasiya mexanizmini o'rganishdir. Dorining metabolizmini o'rganishda fermentativ jarayonni bilish fermentlarning faoliyatini o'zgartiradigan yangi dori vositalarining yaratilishiga imkon beradi. Masalan, asetilxolinesterazaning ingibitorlari (prozerin boshqa antixolinesteraz moddalar) tabiiy neyromediator asetilxolinning faoliyatini uzaytirib, kuchaytiradi. Kashf etilgan MAO fermentining ingibitorlari (nialamid antidepressanti va boshqalar) norepinefrin, dopamin, serotonin inaktivasiyasida ishtirok etadi.

Maqsadli sintezdan tashqari, hali ham muhim rol o'ynaydigan dori kashfiyotining boshqa metodi *empirik usuldir*. Bir qancha dori vositalari tibbiyot amaliyotiga tasodifliy kashfiyot tufayli ma'lum bo'lgan. Masalan, sulfanilamidlarning gipoglikemik xususiyatlari borligi aniqlanishi peroral antidiabetik sulfanilamid xosilalarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Ushbu guruh vositalari hozirgi kunda qandli diabet kasalligini davolashda tibbiyotda keng qo'llanilmoqda (Masalan, butamid va x.k.). Surunkali alkogolizmni davolashda qo'llaniladigan teturam preparati rezina tayyorlash sanoatida qo'llanilganda tasodifan kashf etilgan.

Empirik usulning yana bir turi skrining (inglizcha-tanlash) deyiladi. Tibbiyotda qo'llanilmaydigan ba'zi kimyoviy birikmalar turli xil usullarda biologik faolligi

tekshiriladi. Skrining bu dorilarni kashf etishning ko'p mehnat talab qiladigan kam samarali yo'lidir. Shunday bo'lsada, ba'zida bunday usuldan kimyoviy birikmalarning yangi guruhlarini tekshirish jaryonida foydalanish zarur.

Dori moddalarini orasida shifobaxsh o'simliklardan, hayvonlar organizmidan, minerallardan dori moddalarini sintez qilish alohida o'rinni tutadi. Ushbu yo'l bilan nafaqat galen, novogalen preparatlari balki tibbiyotda keng qo'llaniladigan alkaloidlar ham olinadi. Jumladan, ko'knoridan olinadigan morfin, kodein, papaverin, Rauvolfia serpentine o'simligidan olinadigan preparatlar-rezerpin, raunatin, yurak glikozidlari-digitoksin va digoksin, endokrin bezlaridan olinadigan turli xil gormonlar va hokazolar.

Ba'zi bir dori vositalari zamburug'lar va mikroorganizmlar hayot faoliyatini mahsulidir.

Ushbu yo'nalishning muvaffaqiyatli rivojlanishi zamонавија biotexnologijaning taraqqiy etishiga olib keldi. Biotexnologiya asosida hozirgi kunda dori vositalarining yangi avlodlari yaratilmoqda. Farmasevtika sanoatida shiddatli o'zgarishlar allaqachon sodir bo'lmoqda va yaqin kelajakda yanada radikal o'zgarishlar kutilmoqda. Bu biotexnologijaning jadal rivojlanishi bilan bog'liq. 40-yillarda penisillin mog'or penisillumning ba'zi turlarini fermentasiyalash usuli bilan olinganligi ma'lum.

Tabiiy kelib chiqishli dorilar.

| Dori | Asosiy tibbiy qo'llanishi | Kelib chiqqan mahsuloti |
|-------------|---------------------------------------|-------------------------|
| Pilokarpin | Ko'z ichki bosimini kamayturish uchun | |
| Atropin | Spazmolitik, midriatik | O'simliklar |
| Morfin | Analgetik | |
| Kodein | Qusishga qarshi dori | |
| Digoksin | Kardiotonik | |
| Xinin | Bezgakga qarshi | |
| Vinkristin | O'smalarga qarshi | |
| Penisillin | Antibiotik | |
| Tetrasiklin | Antibiotik | |

| | | |
|---------------|------------------------------------|------------------------|
| Lovastatin | Giperlipidemiyaga qarshi | Mikroorganizmlar, |
| Siklosporin A | Immunosupressant | zamburug lar |
| Antinomotzin | O'smalarga qarshi | |
| Doksorubisin | O'smalarga qarshi | |
| Insulin | Diabetga qarshi | |
| Paratioreodin | Qalkonsimon bez yetishmoychiligida | Hayvon to'qimalaridan |
| Pankreatin | Ovqat hazm qilish fermenti | |
| Sitarabin | Levkemiyaiga qarshi dori | Dengiz organizmlaridan |

Ushbu texnologiya boshqa antibiotiklar biosintezida ham keng qo'llaniladi. Ammo 70- yillarning o'ttalarida biotexnologiyada katta siljish ro'y berdi. Bu ikkita muhim kashfiyot bilan bog'liq: hujayra injeneriyasi va rekombinant DNK usuli (gen injeneriyasi) rivojlanishi hozirgi zamonaviy biotexnologiyasining taraqqiyotiga yo'l ochdi.

Biotexnologiya ko'p qirrali fandir. Uning rivojlanishida molekulyar genetika, immunologiya, kimyoviy turli sohalari va bir qancha texnik fanlar, hamda molekulyar biologiya katta rol o'tynaydi. Biotexnologiyaning asosiy mavzusi biologik tizim va jarayonlarni sanoatda qo'llashdir. Mikroorganizmlar, hujayrali o'simliklar, o'simlik va hayvonlarning to'qimalari odatda kerakli birikmalarni olishda foydalaniładi.

Yuzlab dori vositalari biotexnologiya yordamida yaratilgan. Bunday dorilarning misollar: odam insulini, o'sish gormoni, interferonlar, interleykin-2, qon paydo bo'lishini nazorat qiluvchi o'sish faktori – eritropoetin, filgrastim, molgramostim; antikoagulyant lepirudin (xirudinning rekombinant varianti); fibrinolitik urokinaza; hujayra aktivatori plazmogen alterplaz; antileykemik dori L-asparaginaz va boshqalar.

Monoklon antitanachalar ham ancha istiqbolli. Ular o'simtalarni davolashda qo'llanilishi mumkin (masalan bu guruhdan bo'lgan trastuzumab deb nomlanuvchi dori ko'krak saratonida va rituksimab limfogranulomatozda samarali). Monoklon antitanachalar antiagregant absiksimabni ham saqlaydi. Bundan tashqari, monoklon

antitanachalar antidod sifatida ishlatalishi mumkin, ayniqsa, digoksin va boshqa yurak glikozidlar bilan zaharlanishni davolashda qo'llaniladi. Bunday antidodlarning biri digoksin immun fab (Digibaynd) nomi ostida ishlab chiqariladi. Yangi avlod dorilarni yaratishda biotexnologiyaning roli juda katta.

Potensial dorilarning farmakologik tadqiqoti o'z ichiga dori moddalaring farmakodinamikasini, ya'ni ta'sir mexanizmi, hamda farmakokinetikasini- dori moddasining tanada so'riliши, tarqalishi va biotransformasiyasi va shuningdek chiqarilish yo'llarini o'z ichiga oladi. Alohiba e'tibor dori moddalarining nojo'ya ta'sirlarini o'rghanishga qaratiladi. Masalan, qisqa va uzoq vaqtga buyurilganda toksikligi, teratogenligi, kardiotoksik, gepatotoksik, ototoksik, nefrotoksik, va mutagen ta'sirlari. Tadbiq etilayotgan dori vositasini xuddi shu guruhga mansub o'xshash dori bilan solishtirish ham muhim sanaladi. Birikmalarни farmakologik baholash davomida fiziologik, biokimyoviy, biosizik, morfologik va boshqa tadqiqot usullari qo'llaniladi.

Dori vositalarining samadorligini tegishli patologik holatda o'rghanish muhimdir (eksperimental farmakoterapiya). Shuning uchun antimikrob dorilarning terapeutik ta'siri kasallangan hayvonda, antiblastomik dorilar – eksperimental holatda chaqirilgan o'simtalarda sinaladi. Bundan tashqari, dori vositasi ta'sirining ular qo'llaniladigan patologik jarayon davomidagi (masalan aterosklerozda, miokard infarktida, yallig'lanish jarayonida) o'ziga xos xususiyati haqidagi ma'lumotga ega bo'lish ma'qul hisoblanadi. Ushbu yo'nalish «patologik farmakologiya» deb ataladi. Agar dori vositasi istiqbolli ko'rinsa, ushbu tadqiqotning natijalari turli xil soha mutaxassislar (asosan farmakologlar va davolovechi shifokorlar) dan tashkil topgan Farmakologik Qo'mitaga taqdim qilinadi. Agar Farmakologik Qo'mita tadqiqotni etarli darajada to'liq deb topsa, modda klinik tekshiruvdan o'tish uchun talab etilgan tajribaga ega davolovechi shifokorlarga topshiriladi. Bu juda muhim bosqichdir, chunki davolovechi shifokorlar yangi dori vositasi borasidagi oxirgi hal qiluvechi xulosani beradilar. Klinik farmakologlar ushbu tadqiqotlarda muhim rol o'yaydilar. Ularning asosiy vazifasi dori vositasining farmakokinetikasi va farmakodinamikasini klinik sharoitda o'rghanishdir. Ushbu tadqiqotlar yangi dori

moddalarini yaratishning eng samarali va xavtsiz usullarini rivojlantirishga yordam beradi.

Yangi dorilarning *klinik sinovi* – bir qancha prinsiplarga tayanishi kerak (1.2 Jadval). Birinchidan, ular etarli miqdordagi bermorlarda sinalishi kerak. Ko'pgina mamlakatlarda bu jarayon oldin normal sog'lom odamlarda (volontyorlarda) sinaladi. Har bir yangi dori xuddi shu guruhning ma'lum dorisi bilan solishtirilishi kerak (masalan opioid analgetiklar – morfin bilan, yurak glikozidi – strofantin va digoksin bilan). Yangi dori mavjud dorilardan yaxshi tomonlari bilan ajralib turishi zarur.

Dorilarning klinik sinovida kuzatilgan ta'sirlarning miqdoriy bahosini berishga qodir ob'ektiv usullardan foydalanish lozim. Har bir yangi farmakologik modda bir qancha adekvat uslublarni qo'llab kompleks sinovdan o'tishi kerak.

Dori vositasining samarasini baxolaydigan holatlarda («plasebo effekti») *plasebo*¹ nazorat qiluvchi guruh sifatida ishlataladi. Plasebo – bu real mavjud doriga shakli, hidi, ta'mi jihatidan o'xshash bo'lib, tarkibida dori moddasini saqlamaydi.

1.1. Jadval. Yangi dorining klinik sinovi prinsiplari (ularning farmakoterapevtik samaradorligi, qarama-qarshi va toksik ta'siri).

| |
|--|
| Bermorlarning gomogen ya'ni o'xshash guruhini tanlash |
| Kasallikning aniq shubxasiz diagnostikasi va keyingi xuddi shunday talabchanlik |
| Bermorlar guruhini nazorat qilish |
| O'xshash dorilar dozalari |
| Farmakokinetik tadqiqot |
| Dorining harakatiga vos bo'lgan asosiy ta'sirchan va abamiyati ta'sirini tanlash |
| Ta'sirlarni miqdoriy baholash |
| Tadqiqotlarning statistik etarli darajasi |
| Plasebo guruhsi va «ikkii marta ko'r o'rganish» metodidan foydalanish |
| Guruhning standart dorilari bilan solishtirish |
| Yangi va standart dorilarni bir vaqtning o'zida sinovdan o'tkazish |
| Etika prinsiplariga riyoq qilish |

«Bittali - ko'r - nazorat» qo'ilanilganda, bemor so'f dorini palsebo bilan ma'lum ketma-ketlikda qabul qiladi. Ushbu usulda dori moddasi palsebo bilan almashtirilib berib boriladi. Qachon bemorga palsebo berilayotganini faqat shifokorgini biladi. «Bittali - ko'r - nazorat» da uchinehi tomon (tadqiqotchi emas) bermor faol davolanish yoki palseboni qabul qilayotganini biladi (bo'lim boshlig'i yoki boshqa shifokor). Ushbu usul dori moddasi to'g'risida ob'ektiv ma'lumot beradi, chunki ba'zi holatlarda palsebo ham bemorga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Turli xil usullar bilan olingan ma'lumotlar statistik tasdiqlanishi kerak.

Yangi dorilarning klinik sinovida etika prinsiplariga rioya qilishi muhim. Misol uchun, bermorni yangi dori tadqiqotiga jalb qilish uchun uning shaxsan roziligi bor'lishi shart. Sinov yosh bolalarda, homilador ayollarda yoki ruhiy kasal odamlarda ortkazilmasligi kerak. Plaseboning tayinlanishi agar kasal hayotiga xavf soladigan bo'lsa taqiqilanadi.

Maxsus etika qo'mitasi yangi dorining klinik sinovining tegishli aspektlarini ko'rib chiqadi va mavjud muammolarni echadi.

Ko'pgina davlatlarda yangi dorining klinik sinovi odatda to'rtta fazada amalga oshiriladi.

1- *Faza*. Volontyorlarning kichik guruhi jalb qilinadi. Kerakli effektni beradigan optimal doza tanlanadi. Dori vositasining farmakokinetikasi o'rjaniladi. Ushbu sinovlarni klinik farmakologlar ortkazishi maqsadga muvofiqdir.

2- *Faza*. Ushbu tadqiqotlar yangi dori moddasini qabul qilishi taysiya qilinadigan kasallikka ega bemirlarning kichik guruhi bilan amalga oshiriladi (odatda 100-200 tagacha). Farmakodinamika va farmakokinetika batafsil o'rjaniladi (shu jumladan palsebo); salbiy ta'sirlar ro'y xatga olinadi. Bu faza intisoslashtirilgan klinik markazlarda amalga oshirilishi taysiya etiladi.

Faza. Bu faza klinik (tasodifiy¹ nazorat qilinadigan) bemirlarning ko'p soni bilan amalga oshiriladigan sinovni o'z ichiga oladi. Dorilarning samadorligi va xavfsizligi batavsil tekshiriladi (ikkilik ko'r nazorat bilan). Alovida e'tibor nojoya ta'sirlarga, shu jumladan allergik reaksiyalar va dorining toksikligiga qaratiladi. Ushbu guruh boshqa dorilari bilan solishtiriladi. Agar ushbu tadqiqotning natijasi

yxshi bo'lsa, tadqiqot natijalari yulosa materiallari dorini amaliy qo'llash uchun ishlab chiqarishga ruxsat beradigan va ro'yxatga oladigan rasmiy idoralarga uzatiladi.

4- Faza Ushbu faza dorining ko'p sonli bemorlarda sinaladigan keng qo'llanilishi. Nojo'ya ta'sirlar va toksic ta'sirlari uzoq meddatli sinovdan o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlar dorini ishlab chiqarishga ruxsat beruvechi idoraga hisobot tarzida taqdim etiladi. Ushbu topilmalar dorining kelajagi uchun muhim (uning amaliy tibbiyotda keng qo'llanilishi uchun).

Bosqichli sinovlarning maqsadi 1-fazadan 4-fazagacha tadqiqotlarni bosqichma-bosqich kengaytirish. Maqsad bemorlarga dorining negativ ta'sirini xavfini kamaytirishga va dorini buyurish uchun ko'rsatmalar va qo'llash mumkin bo'limgan holatlarni batafsil tasniflash imkonini beradi.

Bir qancha dorilar multimarkazlashgan xalqaro tadqiqotlar ostida yangi dori xaqida butun ma'lumotni olish uchun sinalgan.

Farmasevtik sanoat tomonidan ishlab chiqarilgan dorilarning sifati odatda Davlat Farmakopeyiyasida kiritilgan kimyoviy va fiziko-kimyoviy usullar yordamida rivojlantiriladi. Ba'zi hollarda, faol moddaning strukturasi no'malum bo'lsa yoki kimyoviy uslublar etarli darajada ta'sirechan bo'lmasa, *biologik standartlashtirish* qo'llaniladi. Dorilarning biologik faolligi biologik ob'ektlarda sinaladi va ularning faolligi TVda belgilanadi. Biologik standartlashtirish usuli va ushbu guruhga kiradigan dori moddalari Davlat farmakopeyada kursatilgan.

Dori vositalarining quyidagi tasniflari mavjud:

1. Alfavit bo'yicha: dori vositalari alfavit bo'yicha joylashtiriladi.
2. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha: bu tasnidda moddalar kimyoviy tuzilishi bo'yicha joylashtiriladi, masalan, imidazol unumlari: bendazol, klotrimazol, metronidazol; fenetiazin unumlari: xlorpromazin, etapirazin va hokazolar.
3. Farmakologik tasnif: ushbu tasnidda dori vositalari katta guruhlarga bo'linib, organizmda ta'sir qiladigan tizimlariga muvofiq joylashtiriladi. Masalan, nafas tizimiga ta'sir etuvechi vositalar, markaziy nerv tizimiga ta'sir etuvechi vositalar va

hokazolar. Bu guruh vositalari o‘z navbatida sinflarga bo‘linadi: nafas tizimiga ta’sir etuvchi vositalar; balg’am ko‘chiruvchi vositalarga, yo’talga qarshi vositalarga va hokazolar. Sinflar esa, guruhchalarga bo‘linadi: masalan, antiaritmik vositalar sinfi beta- adrenoblokatorlar, kalsiy kanallarini salajlovchi vositalar va boshqa guruhchalarga bo‘linadi. Farmakologik tasnif ko‘p bosqiehli tasnif hisoblanadi.

4. Farmakoterapeutik tasnif: uning asosida ma’lum bir kasallikda qo’llaniluvchi vositalar yotadi. Masalan: “Bronxial astmani davolashda qo’llaniladigan vositalar, “Oshqozon va o’n ikki barmoq yarasi kasalligini davolashda qo’llaniladigan vositalar”. Farmakoterapeutik tasnifga turli sinf va guruhchalarga kiruvchi vositalar kirishi mumkin. Ushbu tasnifdan vrachlar keng foydalanishadi.

4. CAS tasnifi (Chemical Abstracts Service). Har bir kimyoviy strukturaga registrasion raqam beriladi, masalan: azitromisining CAS tasnifi bo‘yicha raqami 83905-01-5. Ushbu raqam xalqaro adabiyotlarning hammasiga kiritilgan.

Farmakologiya ikkita qismidan iborat: umumiy va xususiy.

Umumiy farmakologiya dorilar va tirik organizmlar o‘rtasidagi aloqaning umumiy namunalarini o‘rganadi. Xususiy farmakologiya individual farmakologik guruhlar va alohida dorilarni o‘rganadi. Ikkala bo‘limda ham e’tibor dori vositalarining farmakodinamikasi va farmakokinetikasiga qaratiladi. Har bir guruhnning asosiy dorilari haqidagi ma’lumot buyurishga ko’rsatmalar va mumkin bo‘lgan nojo‘ya ta’sirlarni o‘z ichiga oladi.

Dori vositalari asosan sistematik tamoyil asosida klassifikasiyalanadi. Ular quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linishi mumkin:

- Nerv tizimi (periferik va markaziy) faoliyatiga ta’sir etuvchi dori vositalari;
- Asosiy organlar va ularning tizimlariga (nafas olish organlar, qon aylanish tizimi va boshqalar) ta’sir etuvchi vositalar;
- Metabolizm jarayonini boshqarishga ta’sir etuvchi vositalar.

Bundan tashqari, ateroskleroz, yallig‘ianish, allergiya, antimikrob, gjijalarga qarshi va blastomogenez kabi patologik jarayonlarga ta’sir ko’rsatuvchi dori vositalari guruhlari ham mayjud.


3. UMUMIY FARMAKOLOGIYA

Ushbu bo'limda:

1. Dori qabul qilish usullari. Dorining so'riliishi.
2. Tanada dorining tarqalishi. Biologik to'siqlar, saqlanishi.
3. Tanada dorilarning biotransformasiyasi.
4. Dorilarning tanadan chiqarilish yo'llari.
5. Dorilarning mahalliy va sistematik ta'siri. To'g'ridan-to'g'ri va refleks ta'sir. Harakatning mahalliylashuvি va mexanizmi. Dorining «nishoni». Asl holiga qaytadigan va qaytmaydigan faoliyat. Selektiv faoliyat.
6. Farmakoterapevtik ta'sirning dori xususiyatlari va qo'llanilish xossalariiga bog'liqligi.
7. Dori bilan davolashning asosiy turlari.
8. Asosiy va nojo'ya ta'sirlar. Allergik reaksiyalar. Idiosinkrazi. Toksik ta'sirlar.
9. Doridan o'tkir zaharlanishni davolashning umumiy prinsiplari.

Umumiy farmakologiya dori namunalari farmakokinetikasi va farmakodinamikasini o'r ganuvchi fandir. **Farmakokinetika¹** farmakologiyaning organizmda so'riliishi, tarqalishi, to'planishi, metabolizmi va organizmdan chiqib ketish yillarni o'r ganuvchi farmakologiyaning bir qismidir. (2.1 rasm). **Farmakodinamikaning²** asosiy vazifasi moddalarning ta'sir mexanizmini o'r ganishdir.

Dorilarning ta'siri natijalari bu ularning organizm bilan o'zaro aloqasi tufayli yuzaga keladi. Dorining ta'siri shuningdek bu birikmalarni qabul qilish usuli va organizmnning umumiy holatiga ham bog'liq.



1.1. Rasm. Dori moddalarining farmakokinetikasi.

¹ Grekcha *pharmakon* – dori, *kineo* – harakat

² Grekcha *Pharmacocon* – dori, *dynamis* – kuch

Dori vositalarining yuborilishi va so'riliishi


Kasalliklarni davolash yoki profilaktika maqsadida dori moddasi bermorga yuboriladi yoki tana yuzasiga surtiladi. Dori moddasining ta'sirining tez namoyon bo'lishi va ta'sir davomiyligi moddaning yuborilish usuliga bog'liq. Ba'zi hollarda dorini qabul qilish usuli uning xususiyatlarini belgilaydi.

Dorilarni organizmga yuborishning quyidagi usullari mavjud: enteral (me'da-ichak trakti orqali) va parenteral.

Enteral yul orqali: og'iz orqali(*per os*) til ostiga, transsbukkal, o'n ikki barmok ichak orqali va to'g'ri ichak orqali.

Parenteral yo'l nataş yo'llari orqali (ingalyasiyon markoz vositalari), teri orasiga(vaksinalar), teri ostiga, mushak orasiga, vena ichiga, arteriyalarga, suyak orasiga, orqa miya suyukligiga va hokazolar.

Eng keng tarqalgan dori qabul qilish yo'l bu og'iz orqali; ichga. Bu eng qulay va oson yo'ldir. Dorilar bu yo'l bilan qabul qilishda sterilizasiyaga muxtoj emas. Bir qancha moddalarning singishi² (masalan asetilsalisolat kislota, barbituratlar va kislotali tabiatga ega boshqa kuchsiz elektrolitlar) qisman oshqozonda³ ro'y beradi. (2.2. Rasm). Ammo ko'pgina dorilar asosan ingichka ichakda so'rildi. Chunki ingichka ichakning so'riliish maydoni katta (taxminan 200 m²) va qon tomirlari bilan yaxshi ta'minlangan.



R - COOH – kuchsiz kislota

Birikmalar reaksiyasi va harakat-

R - OH – kuchsiz asos

ning asosiy yo'nalishlari

2.2 Rasm. Oshqozondan moddalarning so'riliishi uchun muhit pH ning ahamiyati

1. Ingichka ichakka – hujra. Kuchsiz dölib pezonler pastidalar kabi matodaliklar qabul qilishi. Iltamung faoli komponentlari og'ziga dilliq purda qo'shingdashladi.

2. Formicha pH = daik urinish + qandadish


3. Sheldlerda belgilanganida bu komponentlarning taxminan hujayra membranasi shunchalikli va difuziya-tashishli bo'lsa.

Bir qancha so'riliish mexanizmlari ma'lum.

Passiv diffuziya-dori moddalari hujayra membranasi orqali so'rildi. U birikmaning konsentrasiya gradientiga bog'liq. Lipofil moddalari (asosan qutbsiz) ushbu yo'l bilan osonlikda so'rildi. Moddalarning lipofillligi qancha yuqori bo'lsa u shunchalikli so'rildi ya'ni hujayra membranasi orqali osonlik bilan ichiga kiradi.

Oson *diffuziya*. Bu energiya iste'moli talab qilmaydigan so'rilish turi. Dori moddasining membranalar orasidagi bo'shlqlardan so'riliishi-*filtrasiya usulida kechadi*. Dori moddasining membranalardan qonga so'rilib o'tishi anche yengil kechadigan jarayon hisoblanadi. Dori moddasining bunday yo'l bilan so'rilihidrostatik va osmotik bosimlarga bog'liq. Membrana oralig'i uncha katta bo'limganligidan (taxminan 0.4 nm-nanometr), ular orasidan suv va mayda gidrofil molekulalar, masalan mochevina bemalol o'tadi. Moddalarning bu yo'l bilan qon plazmasiga o'tishi energiya talab qilmaydi. Bunga misol qilib, purinlar, pirimidinlar, nuklein kislotalarning hujayralarga so'riliшини ko'rsatish mumkin.

Faol transprot-dori moddasining ushbu yo'l bilan so'riliishi hujayra membranalarining transport tizimi hisobiga kechadi. Bu jarayon energiya sarflanishi bilan kechadi. Shuning uchun moddalar almashinuvি buzilganda yoki energiya hosil bo'lish jarayoni buzilsa, dori moddasining ushbu yo'l bilan so'riliishi susayadi. Gidrofil qutbli molekulalar, bir qaneha neorganik ionlar, shakar, aminokislotalar va pirimidinlar shu usulda so'rildi.



- modda molekialari

2.3. Rasm. Modda so'riliشining asosiy yo'llari.

Pinositozda¹ birikmalar hujayra membranasining invaginasiyasi tufayli yuzaga keladigan vakuola orqali so'rildi. Bunda dori moddasini tashuvchi yoki o'tkazuvchi hujayra membranasi oldin shishib, so'ngra vakuola hosil qilib, so'ngra siljiy boshlaydi. Bunda dori moddasi hosil bo'lgan vakuolalar ichidagi suyuqlikda joylashgan bo'ladi va protoplazmaga oboriladi. Yuqorida tilga olingan moddalarning membranalar bo'ylab tashilishi mexanizmi universal va turli xil birikmalarning nafaqat singishida, balki tarqalishi va chiqarilishida ham muhim rol o'ynaydi.

Dorining ingichka ichakda so'riliشining asosiy mexanizmi bu passiv diffuziyadir. Faol transport ham muhim rol o'ynaydi, jumladan oqsillarning bir qismi va sianokobalamin kompleksi (Vitamin V₁₂) ichki Kasla omili bilan shu yo'l orqali so'rildi.


Ingichka ichakda so'riliш sekin kechadi. Bu jarayon ichak shilliq qavati funksional holati, motorikasi va pH muhitiga bog'liq. Ingichka ichakdan moddalar jigarga o'tishi (bu erda ularning bir qismining faolligi susayadi yoki safro bilan chiqariladi) va faqatgina shunday keyin umumiyligini qon sirkulyasiyasiga o'tishini unutmaslik lozim. Ba'zi moddalar og'iz orqali buyurilganda samarasiz ekanligi qayd etilgan, chunki ular oshqozon –ichak trakti fermentlari ta'sirida (masalan insulin) va shuningdek oshqozonning kislotali muhiti ta'sirida parchalanib ketadi (masalan benzilpenisillin).

Agar dori moddasi og'iz orqali yuborilganda oshqozon shilliq qavatiga nojo'ya ta'sir ko'rsatsa, maxsus formada (kapsula, draje) ko'rinishida buyuriladi.

Moddalarning hujayra membranasidan so'riliшi va adsorbsiyalanishida maxsus membrana tashuvchilar – R-glikoprotein katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki R-glikoprotein ingichka ichakda, jigarda, buyrakda, oshqozen osti bezida, buyrak ustidagi pustloq qismida va ba'zi o'sma hujayralarida joylashgan. R-glikoprotein dori moddalarining organizmdan chiqib ketishiga yordam beradi. R-glikoprotein funksional to'siq bo'lib hujayralarni toksik moddalardan himoya qiladi.

- Grekechadan pine – ichmoq so’zidan.
- R-glikoprotein tashuvechining asosiy vazifasi dorilar va boshqa ksenobiotiklarni hujayrasidan ajratish (oehib chiqib ketadigan tashuvechi). Uningiehka ichakda, jigarda, buyraklarda, gematoensefalik to’siqda, plasentada, moyaklarda va o’simta hujayralarida shakllanadi. Uning mahalliylashuvi tufayli bu tashuvechi moddaning ingiehka ichakda so’rilishini cheklaydi, moddalarning safro va peshob yo’llari orqali chiqarilishiga yordam beradi, miya, moyak va homila hujayralarini ksenobiotikning keraksiz ta’siridan himoya qiladi. To’qimalarda P-glikoproteinning chiqarilishi maxsus gen tomonidan nazorat qilinadi.



Vaqt, soatlar.

2.4.Rasm. Ichga qabul qilingandan keyin biomayjudlikni aniqlash.

T - Dori konsentrasiyasining yuqori nuqtaga etish vaqtı

TC - Terapeutik konsentratsiya

Izoh. Konsentrasiya egri chizig'i ostidagi maydon (ECHOM) ma'lum bir vaqt davri uchun o'lehanadi.

Dori moddasi til ostidan yuborilganda u tez so’riladi(tabletkalar tomchilar granulular). Modda jigar va MITga bormasdan so’riladi. Ba’zi gormonal moddalar,

nitrogliserin, validol va boshqalar shu usulda buyuriladi. Natijada ularning faolligi yuqori bo'lib, tez ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zi dori vositalari o'n ikki barmoqli ichakdan zond orqali yuboriladi(masalan safro xaydovchi sifatida magniy sulfati).

Rektal (per rectum) qabul qilingandan so'ng dorining anchagina qismi (taxminan 50%) jigarga bormasdan qonga so'rildi va MIT fermentlari ta'siriga uchramaydi. Bu so'riliш osон diffuziya yo'li bilan amalgalashadi. Oqsil tuzilishga ega bo'lgan moddalar, yog'lar, yog'simon moddalar, polikarbon suvlar yo'g'on ichak orqali yaxshi so'rildi. Ushbu moddalar rektal yo'l bilan suppozitoriyalar yoki tibbiy huqqa ko'rinishida yuboriladi.

Rektal qabul qilish shuningdek mahalliy ta'sir uchun ham qo'llaniladi.

Parenental qabul qilish yo'llari teri orasiga, mushak orsiga, vena ichiga, arteriyaga, o'pkaga (ingalyasiya), to'sh suyagiga, qorin va oshqa bo'shlisolarga, subaraxnoidal, subokspital va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Parenental yo'llar ichida eng keng tarqalgani teri ostiga, mushak ichiga va vena ichiga yuborish. Vena ichidan qabul qilinganda ta'sir ayniqsa tez va mushak ichiga va teri ostiga yuborilganda sal sekinroq boshlanadi.

Mushak orsiga va teri ostiga ta'sirlovchi xususiyatlari bo'lgan dorilarni yuborish mumkin emas, chunki ular yuborilgan joyda infiltrat xatto nekroz chakirishi mumkin.

Vena orqali dori moddalar sekinlik bilan jo'natilishi kerak. Vena orqali yog'li eritmalar (emboliya xavfi) qonning ivish jarayonini kuchaytiruvchi vositalar yuborilishi mumkin emas.

Dori steril bo'lishi va tibbiy xodim tomonidan amalgalashishi shart.

Dori moddasini arteriya orqali yuborganda, ushbu arteriya qon bilan ta'minlaydigan sohada dori moddasining yuqori konsentrasiyasiga erishish mumkin. Bu usulda kontrast moddalar yuborilib, o'smalarning joylashuvni, tromblar tomirlarning anevrizmalari aniqlanadi.

To'sh sohasiga dori moddalar yosh bolalarda va qariyalarda yuboriladi. Gazsimon va uchuvchan moddalar uchun qabul qilishning ingalyasion usuli eng asosiyidir.

Nuddi shu usul ba'zi bir aerozollar uchun ham qo'llaniladi. O'pkaning adso:bsiya maydoni keng($90-100\text{ m}^2$) va qon tomirlari bilan yaxshi ta'minlanganligi tufayli ingalyasiya yo'li bilan dorilarning so'riliishi tezda amalga oshadi.

Gematoensefalik to'siqdan yomon o'tadigan dori moddalarini subaraxnoidal, subokspital yoki orqa miya bo'shlig'idan yuborilishi mumkin. Misol uchun, ba'zi bir antibiotiklar miya to'qimalari yallig' langanda shu usulda yuboriladi. Orqa miya anesteziyasida ham mahalliy anestetiklar subaroxnoidal yo'l bilan yuboriladi.

Ba'zi yuqori lipofillikga ega dori moddalarini, odatda teriga surtganda yaxshi so'riliadi va rezorbтив ta'sirga ega (masalan nitrogliserin).

Ba'zi dorilar intranasal – burundan (masalan adiurekrin) qabul qilinadi. Bu holda so'riliish burun shilliq qavati orqali amalga oshadi.

Dori moddalarining organizmda taqsimlanishi. Biologik to'siqlar.

To'planishi.

Dori moddasi so'rildigandan so'ng, qondan turli organ va to'qimalarga boradi. Dorilar asosan organizmda notekis tarqaladi, ba'zi moddalaridan bundan istisno (masalan: ingalyasion narkoz vositalari). Dori moddalarining organizmda tarqalish jarayonida biologik to'siqlar muhim rol o'yynaydi: masalan: kapillyar qon tomir devorlari, hujayra (plazma), gematoensefalik va plasentar to'siqlar.

Dori moddalarining asosiy qismi kapillyar devorlaridan oson o'tadi (membrana diametri taxminan 2nmni tashkil etadi). Plazma oqsillari bundan mustasno. Gidrofil moddalar suvda yaxshi eriganligi tufayli kapillyar devorlari orqali tez so'riliadi. Lipofil moddalar esa kapillyar endoteliysi hamda hujayra membranalari orqali yaxshi so'riliadi. (2.5.Rasm).

Gematoensefalik to'siqdan so'riliish qiyinligi endoteliyning tashqi devori lipid pardalar bilan qoplanganligidir. Miya to'qimalari lipofil molekulalariniga yaxshi o'tkazadi. Shuni eslatib o'tish kerakki, patologik holatlarda, masalan infektion kasallikiarda(meningitda) yallig'ianish tufayli gematoensefalik to'siqning o'tkazuvchanligi oshadi. Miyada pinositoz yo'li bilan so'riliish bo'lmaydi.

Gematoensefalik to'siqdan qutbli birikmalarning so'riliishi qiyin. Miyada so'riliish jarayoni diffuziya yoki faol transport yo'li bilan kechadi (2.5 rasm).

Dorilarning gematoensefalik to'siqdan so'riliish jarayonida R-glikoprotein tashuvchilar tomonidan ham boshqariladi. U' moddalarning miya to'qimalaridan qonga tarqalishida yordam beradi va aksincha birikmalarning qondan MNTga kirishiga to'sqinlik qiladi.

Plasentara to'siq murakkab biologik to'siqdir. Ushbu to'siqdan lipofil birikmalar diffuziya yo'li bilan yaxshi so'rildi.

Ko'pchilik dori moddalari plazma oqsili bilan birikish xususiyatiga ega (90% gacha).

Dorilar biriktiruvchi to'qimalarda (ba'zi qutbli birikmalar, shu jumladan to'rtlamchi ammoniy tuzlari) va suyak to'qimalarda (tetrasiklinlar) to'planishi mumkin.


Yog' depolarida asosan lipofil birikmalar to'planadi masalan: ba'zi narkoz vositalari. Ba'zi dori moddalari masalan: sulfanilamidlar (sulfadimetoksin va boshqalar) qon plazmasida oqsillar bilan mustahkam oqsil bog'lamlari hosil qilish xususiyatiga ega, proteinlari bilan mustahkam birikmalar hosil qilishi natijasida dori vositalarining ta'sir davomiyligi uzayadi. Og'ir metall tuzlari ham organizmda uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ega.

Periferik to'qimalar kapillyarlari

(devor yupqaligi 0.1-0.3 nm)

Miya kapillyarlari

(devor yupqaligi 0.1-0.3 nm)




Moddalar kapillyar de•ordan quyidagilar yordamida o'tadi:

| | |
|---|---|
| 1. Diffuziya yo'li bilan (lipofil moddalar) | 1.Diffuziya yo'li bilan |
| 2. Hujayra ichidagi yoriq orqali | - (hujayra ichidagi yoriqlar yo'q) |
| 3. Kapillyar devorlaridagi yoriqlar orqali | - yoriqlar yo'q |
| 4. Pinositoz yo'li bilan | + - (Pinositoz yo'li bilan kamroq) 5. Asosan aol transport yo'li bilan |

2.5. Dorining ikki tur kapillyarlardan o'tish prinsiplari.

- 1 Qattiq membrana sifatidagi funksiya
- 2 Oddiy kapillyardagidan besh barobar ko'p.

P-gt – P-glikoprotein tashuvchi



2.7. Rasm. Dorining biotransformasiya yo'llari

¹ «Zohiriy» so'zi tana, osonlashtirish uchun, bir butun maydon ssifatida qaralishi mumkinligi uchun ishlataligan (bir bo'linma model).

³ 70 kg li odamda plazma 3 l suvdan iborat. Hujayra tashqarisidagi suyuqlikning umumiy miqdori 12-15 l va suvning umumiy miqdori 41 l.

Dori moddalarining organizmdagi biotransformasiyasi

Dori moddalarining asosiy qismi organizmda biotransformasiyaga uchraydi(2.7. Rasm). Yuqori hidrofillikga ega ionlashgan birikmalargina odatda o'zgarmagan holda chiqib ketadi. Lipofil moddalaridan ingalyasjon narkoz vositalari o'rka orqali

chiqib ketadi. Biotransformasiya jarayonida ko'pgina fermentlar, jumladan jigar makrosomal fermentlari katta rol o'yynaydi. Ular endoplazmatik to'qimada joylashgan bo'lib, organizmga notanish bo'lgan lipofil birikmalarni gidrofil birikmalarga aylantiradi.

Dori moddasi organizmda ikki xil yo'l bilan o'zgarishga uchraydi:

1) Metabolik transformasiya va kon'yugasiya. Metabolik transformasiya oksidlanish, qaytarilish va gidroliz yo'l bilan keehadi. Misol uchun: imizin, esedrin, aminazin, gistamin va kodein shu yo'l bilan oksidlanishga uchraydi. Oksidlanish asosan NADF kislород va R-450. Murakkab esirlar (prokain, atropin, asetilxol ditilin, asetilsalisilat kislotasi) va amidlar (novokainamid) esteraza, karboqsilesterazalar, amidazalar, fosfatazalar ta'siri ostida gidrolizlanadi. Quyidagi misollar buni yaqqol ko'rsatib beradi: (2.8.Rasm):

Kon'yugasiya-biosintetik jarayon bo'lib, dori moddasiga yoki uning metabolitlariga turli kimyoviy birikmalar birikib olishi bilan keehadi. Misol uchun: metillanish (gistamin, katekolaminlar), asetillanish (sulfaniamidlar, glukuron kislotasi bilan birikish (morphin, okzazepam) sulfatlarga birikish (xloramfenikol, fenol) yoki glyutation bilan (parasetamol) bilan birikadi.

Ko'pgina fermentlar kon'yugasiya jarayonida ishtirok etadi: glyukoronil transferaza, sulfotransferaza, transasilaza, metiltransferaza, glutation S-transferaza va boshqalar.

a) Oksidantsiz




Barbituratlar

C₆H₅CO₂⁻ imidosarlari oksidantsiz

b) Qisqarish




Xloramfenikol



Nitro guruhning amino guruhga qisqarishi

c) Gidrolyz



Prokan




Paraaminobenzoik kislotasi

Dietilaminoetanol


2.8.Rasm. Dorilarning metabolik transformasiysi.

Metabolik transformasiya yoki kon'yugasiya yo'li bilan birlashishda dorilar odatda qutbli va gidrofil metabolit va kon'yugatlarga aylanadi.


A) Metillashish (metil guruhining birlashishi)



B) Asetillanish (sirka kislota qoldiqlarining birlashishi)



c) Bi Glukuron kislotaning birlashishi




2.9. Rasm. Dori moddalarining kon'yugasiysi.

Metabolik transformasiya va kon'yugasiya tufayli dori moddalari odatda o'zlerining biologik faolligini yo'qotadi. Bu jarayonlar dori moddalarining organizmdan chiqib ketishini tezlashtiradi. Jigar patologiyalarida mikrosomal fermentlar faolligi susayishi tufayli ba'zi dori moddalarining ta'sir davomiyligi uzayishi mumkin.

Ba'zi holatlarda dori larning organizmdagi biotransformasiyasi tufayli ba'zi birikmalarning faollgi kuchayishi (imizin-dezipramin) yoki toksikligi oshishi (fenasetin-fenetidin) mumkin. Bu shuningdek, dori moddasining ta'sir mexanizmini o'zgartirishi mumkin (silga qarshi ta'sirga ega izoniazid antidepressant iprazid metabolitlaridan biri). Shuningdek, dori birikmlari bitta kimyoviy birikma

ko'rinishidan ikkinchi ko'rinishiga o'tishi mumkin, musbatan (kodein qisman morfinga aylanadi)



2.10. Rasm. Gidrofil va lipofil moddalarning ajralishi.

Dori moddalarining organizmdan chiqib ketishi


Dori moddasi turli xil yo'llar bilan organizm yuborilgach, u qonga va limfaga o'tib, organlarga, torqima va hujayralarga tarqaladi, qolgan qismi esa hech qanday o'zgarishsiz organizmdan chiqib ketadi. Dori moddasining organizmdan chiqib ketishi -eliminasiya deyiladi. Ba'zi dori moddalari ovqat hazm qilish trakti bezlaridan o'tib, ichak bo'shlig'iga ajraladi. Bu sekresiya deyiladi. Agar dori moddasi qaytadan qonga so'rilsa, bu rearbsorbsiya deyiladi. Dori moddalari asosan organizmdan buyrak yoki safro orqali chiqib ketadi.

Dori moddalari hamda asosiy yo'llardan hisoblanib, bunda filtrasiya, sekresiya va rearbsorbsiyalar jarayonlari katta ahamiyatga ega. Chunki, filtrasiya orqali ajralgan peshobning 99% kanalchalar shilliq pardasi orqali qayta qonga so'rildi. Qonda oqsillar bilan bog'lanmagan, erigan holda bo'lgan dori moddalari buyraklarda koptokchalar pardasi yoki kapsulasi orqali (molekulasi katta bo'lмаган бирікмалар)

buyraklar kanalchalariga Bauman-Shumlyanskiy kapsulasi orqali filtrlanadi. Moddalarning buyraklar orqali ajralishi ko'p jihatdan uning kanalchalardan rearbsorbsiyasiga bog'liq.


Ayrim lipofil birikmalar qondan kanalehalar ichiga proksizmal va distal qismlari orqali, dissosiasiyanmagan kuchsiz kislota va ishqorlar, uning devorlari orqali o'tadi. Qutblangan birikmalar kanalehaldan yomon rearbsorbsiyalaniadi. Bunda muhitning ahamiyati katta bo'lib, agar siydik muhiti ishqoriy bo'lsa, asetilsalislat kislotasi, fenobarbital kabi kislotali xususiyatga ega bo'lgan dori moddalari, agarda muhit kislotali bo'lsa, asos xususiyatiga ega bo'lgan fenamin, imizin kabi dori moddalari yaxshi o'tadi. Chunki ular ionlashgan birikmalar bo'lib, rearbsorbsiyalaniymaydi (2.11 va 2.12 Rasmlar).

Ayrim endogen moddalar-aminokislotalar, siydik kislotasi, glyukoza va boshqalarning rearbsorbsiyalishi uchun faol transport sistemasi qatnashishi zarur.



Ajralib chiqish

2.11. Rasm. Farmakologik moddalarning buyrakdan chiqib ketishiga ta'sir etuvchi asosiy jarayonlar.



2.12.Rasm.Buyrakdan chiqib ketish tamoyillari.

Bir qancha dori moddalarining metabolitlari (tetrasiklin, penisillin, kolxisin va boshqalar) jigardan safro orqali ichakka boradi va to^gri ichak orqali chiqib ketadi. Lekin metabolitlarning bir qismi ichakdan rearbsorbsiyalanib, qonga, so^{ngra} jigarga va ichakga o'tadi. Bu jarayon shu tariqa davom etaveradi. Uni "jigar yoki jigar-ichak aylanmasi" deyiladi. 2.13.Rasm.

O'pka orqali asosan gazli va uehuvehan moddalar (masalan, ingalyasion narkoz) chiqib ketadi.

Ba^zi dori moddalari so^lak bezlari (yodidlar), ter bezlari (moxovga qarshi vosita ditofal), oshqozon bezlari orqali (ximin, nikotin), ichak orqali (kuchsiz organik kislotalar) va ko^z yosh bezlari (rifampisin) orqali chiqarib yuboriladi.


Laktasiya davrida ko^{pgina} moddalar emizuvehi onadan sut bezlari orqali chiqarilishini (uxlatuvehi vositalar, opioid analgetiklar, etil spirti, nikotin va boshqalar) unutmaslik lozim. Shuning uchun emizuvehi onaga dori buyurishda juda ehtiyyotkor bo^{lish} kerak. Dori chaqaloq tanasiga sut bilan kirib, noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Dori moddalaring organizmdan chiqarilishi eliminasiya deyiladi. Eliminasiya ekskresiya va biotransformasiya orqali amalga oshadi. Eliminasiya miqdori

quyidagi parametrlar bilan belgilanadi: eliminasiya tezligi konstantasi (K_{el}), «yarim-umri» ($t_{1/2}$) va umumiyl klirens (Cl_r).

Eliminasiya *tezligi konstantasi* (K_{el}) tanadan dorining chiqarib yuborish tezligini ko'rsatadi. Bu formulada tasvirlangan:

$$K_{el} = \frac{0.693}{t_{1/2}}$$



2.13.Rasm. Moddalarning jigar-ichak sirkulyasiyasi

Dori chiqib ketishi «yarim-umri»ni tasvirlash uchun (chiqarib yuborish yarim-umri $t_{1/2}$) parametr ham qo'llaniladi. U qon plazmasidagi dori konsentrasiyasini 50% ga kamaytirish uchun kerak bo'ladiqan vaqt ni ko'rsatadi:

$$t_{1/2} = \frac{0.693}{K_{chq}} = \frac{0.693 \cdot V_d}{Cl_r}$$

Ushbu parametr stabil dori konsentrasiyasiga (baqaror holat) erishish uchun dori dozasi va ularni qabul qilish oraliq'ini o'lehash uchun qo'llaniladi.

Ma'lumki, 90% dori moddalari 4 $t_{1/2}$ ga teng vaqt davomida chiqarib yuboriladi va bu dori dozasida nazarda tutiladi. Shuningdek $t_{1/2}$ nafaqat dorining tanadan chiqib ketishi, balki uning biotransformasiyasi va saqlanishini ham ta'riflaydi deb qaratadi. Dori chiqarilishining tezligining boshqa miqdoriy parametri klirensdir⁷ (Cl_r). U moddaning qondan butunlay chiqib ketish tezligini ko'rsatadi (klirens u vaqt davomidagi miqdor sifatida o'lehanadi yoki kerak bo'lsa, u tana massasi yoki maydoni bilan aloqada ifodalanadi: ml/mm, ml/kg/mm, 1/m²/h). O'lehanadigan parametrlar: umumiy klirens(Cl_T), buyrak klirensi (Cl_r) va jigar klirensi (Cl_K).

$$Cl_T = \frac{\text{Dori eliminasiyasi tezligi}}{\text{Qon plazmasida dori konsentrasiyasi}}$$

Umumiy klirens tarqalish miqdori (V_d), «yarim-umri» ($t_{1/2}$) va eliminasiya konstantasi (K_{chq}) ga bog'liq.

$$Cl_T = V_d \cdot \infty = \frac{V_d \cdot 0.693}{t_{1/2}}$$

Buyrak tozaligini tekshirish siydkda va plazmada dori konsentrasiyasini solishtirish orjali amalga oshiriladi (siydk oqimi tezligini ham hisobga olib).

Jigar tozalanishi dorining yutilishi va uning keyingi gepatositlar tomonidan biotransformasiyasi va shuningdek dorining safro yo'llariga ajralib chiqishi bilan ro'y beradi.

Dori vositalarining mahalliy va rezorbtiv ta'siri. To'g'ridan-to'g'ri va reflektor ta'sirlari. Qaytar va qaytmash ta'sir turlari.

Dorilarning qo'llanilgan joyida ta'sir qilishi mahalliy ta'sir deyiladi. Misol uchun, o'rabi oluvchi dorilar shilliq membranani o'rabi, afferent nerv tugallanmalarini qo'zg'alishlardan asraydi. Mahalliy anesteziyalarda, mahalliy anestetiklarning shilliq membranaga qo'llanilishi sezgir nerv tugallanmalarini faqatgina qo'llanilgan joyda blokadasiga olib keladi.

1

Lotincha clarus – toza so'zidan.

Ammo haqiqiy selektiv mahalliy ta'sir juda kam uchraydi, chunki ko'pgina moddalar xech bo'limganda qisman so'rildi yoki reflektor ta'sirga ega bo'ladi. Dorining ta'siri u so'rilgandan so'ng va qon oqimi bilan to'qimalarga olib borilgandan so'ng rivojlanishi tizimli (rezorbtiv¹) ta'sir deyiladi. Rezorbtiv ta'sir dorining qabul qilish yo'llariga va ularning biologik to'siqlardan o'ta olish qobiliyatiga bog'liq.

Dorilarning mahalliy va rezorbtiv ta'siri to'g'ridan-to'g'ri yoki reflektor bo'lishi mumkin. Birinchisi dorining to'qima bilan eloqaga kirishgan joyida ro'y beradi. Reflektor ta'sir moddalar tashqi va ichki reseptorlarga ta'sir ko'rsatish orqali ma'lum bir organga bo'lgan ta'sirdir. Misol uchun, yallig'lanishda mahalliy davolash uchun xantal qog'oz qo'llanilishi (Xantal yog'i teridagi ekstrareseptorlarini qo'zg'atadi). Venadan yuborilgen lobelin uzunchoq miyadagi nafas markazini qo'zg'atib, nafas olishni tezlashtiradi.

Farmakodinamikaning asosiy maqsadi, dori o'zining ta'sirini ko'rsatish uchun qaerda va qanday harakatlanishini topishdan iborat. Metodologiyaning rivojlanishi tusayli ushbu savollar nafaqat tizimli va organlar darajasida, balki hujayraviy, subhujayraviy, molekulyar va submolekulyar darajada javobini topdi.

Ion kanallari, fermentlar, tashuvechi tizimlar va genlar dorilar uchun «nishon» vazifasini o'taydi.

RESEPTORLARNING TURLARI

Reseptorlar – dori o'zaro ta'sirga kirishadigan substratlar

makromolekulalari faol guruhidir. Dorilarning ta'sirini ifodalashni ta'minlaydigan reseptorlar maxsus deb nomlanadilar.

Reseptorlarning to'rt xil turi mavjud. (2.14.Rasm)


I.Ion kanallari funksiyasini to'g'ridan-to'g'ri nazorat qiluvchi reseptorlar. Bu reseptorlar ion kanallari bilan juftlashadi (nikotinergik xolinoseptorlar, GABA – reseptorlar va glutamat reseptorlar).

II.Ta'sir etuvechi bilan «G-protein-ikkinechi xabarchi» yoki «G-protein-ion kanallari» tizimi orqali juftlashadigan reseptorlar. Bunday reseptorlar ko'pgina gormonlar va nevrotransmitterlarda mavjud (muskarinergik xolinoseptorlar, adrenoseptorlar).

III.Lotimcha resorbio - shimdirish so'zidan

III.Ta'sir etuvechi ferment funksiyasini to'g'ridan to'g'ri nazorat qiluvchi reseptorlar. Ular to'g'ridan-to'g'ri tirozinkinaza bilan bog'liq va proteinlarning fosforlanishini nazorat qiladi. Insulin reseptorlar va ko'pgina o'sish faktorlari xuddi shunday ishlaydi.

IV.DNK transkripsiyasini nazorat qiluvchi reseptorlar ichki hujayraviy reseptorlar deb nomlanadi. (eruvchan sitosolik yoki atom proteinlar) 1-3 tur membranalari turiga o'xshamagan holda. Steroid va tiroid gormonlar bu tur reseptorlari bilan aloqaga kirishadi.



agonist R - reseptor G - G - protein E - fermentlar

Hujayra membranasi, ikkinchi xabarchi, protein fosforlanishi

1.14. Rasm. Agonistlarning reseptorlar nazorat qiluvchi jarayonlariga ta'sir etish prinsiplari.

1-ion kanallari o'tkazuvchanligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir (nikotin xolinoreseptorlari, GABA - reseptorlari); 2 - ion kanallari o'tkazuvchanligiga yoki ikkinchi xabarchi faoliyati shakllanishini nazorat qiluvchi ion kanallari yoki fermentlar o'rtacha ta'siri (G-proteinlar orqali) (muskarinik xolinoseptorlar, adrenoseptorlar), 3 - ta'sirchi ferment tirozinkinaza faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir (insulin reseptorlari, bir qancha o'sish faktorlari reseptorlari); 4 - DNA transkripsiyasiga ta'sir (steroid gormonlar, tiroid gormonlar).

Oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yarasida samarali davolashda qo'llaniladigan gistamin H₂ - reseptor blokatorlari ham bunga misol bo'lishi mumkin. Ushbu yangi dorilar tadqiqoti tibbiyot amaliyotida keng qo'llaniladigan yangi tur selektiv ta'sir ko'rsatuvchi dori guruhining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Postsinaptik reseptorlarga ta'sir ko'rsatadigan dorilar haqida shunday qaydlar qilindi: ham endogen (masalan glisin), ham ekzogen tabiatli dorilar allosterik tarzda birlashishi mumkin (misol uchun benzodiazepim turidan anksiolitiklar: 11.4.bob 11.2 Rasmga qarang).

Reseptorlar bilan allosterik aloqa¹ «signal» tug'dirmaydi. Amme, asosiy neyrotransmitter ta'sir modulyasiyasi ham kuchaytirilishi, ham susaytirilishi mumkin. Ushbu tur dorilarning yaratilishi MNS faoliyatini boshqarish uchun yangi imkoniyatlarni o'chadi. Allestoerik ta'sir neyromodulyatorlarining o'ziga xos xususiyati asosiy o'rta o'tkazishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirga ega emasligi, balki faqatgina uni kerakli tomonga o'zgartirishidir.

1.2. Jadval. Ba'zi reseptorlar va ularning kichik turlari misollari.

| Reseptorlar | Kichik turlari |
|-----------------------------------|---|
| Adenosine | A ₁ , A _{2A} , A _{2B} , A ₃ |
| α ₁ -Adrenoceptors | α _{1A} , α _{1B} , α _{1C} |
| α ₂ -Adrenoceptors | α _{2A} , α _{2B} , α _{2C} |
| β-Adrenoceptors | β ₁ , β ₂ , β ₃ |
| Angiotensin | AT ₁ , AT ₂ |
| Bradykina | B ₁ , B ₂ |
| GABA | GABA _A , GABA _{A_A} , GABA _{A_B} |
| Histamine | H ₁ , H ₂ , H ₃ , H ₄ |
| Dopamine | D ₁ , D ₂ , D ₃ , D ₄ , D ₅ |
| Leukotriene | LTB ₄ , LTC ₄ , LTD ₄ |
| Muscarinic cholinoreceptors | M ₁ , M ₂ , M ₃ , M ₄ |
| Nicotinic cholinoreceptors | Muscular type, neuronal type |
| Opioid | μ, δ, κ |
| Prostanoids | DP, EP, IP, IP ₃ , EP ₃ , EP ₄ , EP ₅ |
| Purine | P _{2X} , P _{2Y} , P _{2Z} , P _{2U} , P _{2P} |
| Excitatory amino acids (non-NMDA) | NMDA, AMPA, kainite receptors |
| Neuropeptide Y | Y ₁ , Y ₂ |
| atrial natriuretic peptide | ANP _A , ANP _B |
| Serotonin | 5-HT _{1A} , 5-HT _{1B} , 5-HT _{1C} , 5-HT _{2A} , 5-HT _{2B} , 5-HT _{2C} , 5-HT ₃ |
| γ-Aminobutyric acid | GABA _A , GABA _B |

1

Grekecha allos – turlicha, stereos – barqaror shax

Presinaptik reseptorlar kashfiyoti (2.2. Jadval) sinaptik uzatish mexanizmini boshqarishni tushunishda muhim rol o'yndadi.

Ta'sir qilish davomida dorining reseptorni qo'zg'ata olish va rag'batlantira olish qobiliyati haqiqiy faollik deyiladi.

Ta'sir davomida maxsus reseptorlardagi o'zgarishiarga olib keladigan biologik ta'sirga ega dorilar *agonistlar* deyiladi (ular o'ziga xos faoliyga ega). Agonistlarning reseptorlarga ta'sirini rag'batlantirish hujayra funksiyasining faollashishga yoki cheklanishiga olib kelishi mumkin. Agar agonist reseptorlar bilan aloqaga kirishib maksimum ta'sirga ega bo'lsa, u butunlay agonist² deyiladi.

| Ta'siri | Presinaptik reseptorlar |
|--|---|
| Neyromediator ozod qiluvchi inhibitor | M ₁ -cholinoceptors α ₁ -Adrenoceptors Serotonin 5-HT ₁ -receptors Purine P ₂ -receptors Prostaglandin receptors Histamine H ₁ -receptors Opioid δ-receptors Dopamine D ₂ -receptors |
| Neyromediator ozod qiluvchi rag'batlantiruvchi | β ₂ -Adrenoceptors Angiotensin II AT ₁ -receptors |

1.3. Jadval. Xolinergik va adrenergik tugallanmalar tomonidan neyromediatorning ozod bo'lishi presinaptik nazorati misollari.

Reseptorlar bilan birlashib, ammo ularni qo'zg'ata olmaydigan dorilar *antagonistlar*³

1. Lotlincha affinis – tegishli so'zidan

2. Grekcha agon - kurashmoq so'zidan

3. Grekcha anti - qarshi, agon - kurashmoq

deyiladi. Ular qo'zg'atuvchi faoliyka ega emas (0ga teng). Ularning farmakologik ta'siri endogen ligand (mediatorlar, gormonlar)va shuningdek ekzogen dor agonistlari bilan antagonizmi orqali belgilanadi. Agar antagonistlar biror maxsus reseptorga bog'lanmagan, ammo unga bog'liq makromolekulaning boshqa tomoni bilan aloqaga kirishsa, ular *raqobatlasha olmaydigan antagonistlar* deb ataladi. Dori bir reseptor kichik turiga agonist va boshqa biriga antagonist sifatida ta'sir

qilsa, bu *agonist-antagonist* de'liadi. Misol uchun, analgetik pentazosin, 8 va b'iqliklari, bu *agonist-antagonist* de'liadi. Misol uchun, analgetik pentazosin, 8 va b'iqliklari, bu *agonist-antagonist* de'liadi.

Opioid reseptorlarning u-antagonist va agonisti.

«Dori-reseptor» aloqasi ichki molekulyar zanjir orqali paydo bo'ladi.

Eng kuchli zanjirlardan bittasi kovalentli zanjirdir. Masalan, a-adrenoblokatorlar, fenoksibenzamin, ba'zi antiblasmotik dori vositalari bunga misol bo'ladi. Oddiy ion zanjirlar mustahkamligi kam, ular dorilarning reseptorlar bilan eletrostatik birikishi tufayli yuzaga keladi. Masalan: ganglioblokatorlar, miorelaksantlar, (kuraresimon vositalar), asetilxolina xosdir.

«Dori-reseptor» zanjiri davomiyligi dori faolligi *qaytar* (ko'pgina dorilarga xos) yoki *qaytmas* (odatda kovalent zanjir holatida) ta'sir etishini belgilaydi.

Agar dori faqatgina ma'lum bir reseptorlar bilan aloqaga kirishsa va boshqa reseptorlarga ta'sir ko'rsatmasa, bunday dorilarning ta'siri *selektiv* deyiladi.

«Selektiv ta'sir» termini ko'pincha «estuvor ta'sir» termini bilan almashtiriladi, chunki dorilarning real to'liq selektivligi yo'q.

Dorining membrana reseptorlari bilan membrananing aloqasini va tashqi sirtidan ichkisiga uzatish signallarini baholash uchun reseptor va ta'sir etuvchini birlashtirib turuvchi vositachini hisobga olish kerak. Ushbu tizimning eng muhim komponenti G-proteinlar¹, ferment guruhni (adenilatsiklaza, guanilatsiklaza, fosfolipaza S) va ikkinchi xabarchilar (siklik adenosin monofosfat – sAMP), sGMP (siklik guonozin monofosfat), IP₃ (inozitol trifosfat) va DAG (diasilglicerol). Ca²⁺. Ikkinchi xabarchilar shakllanishining ko'payishi muhim funksional proteinlar hujayra ichki forsforlanishini ta'minlaydigan proteinkinaza faollashishiga va turli xil ta'sirlarning rivojlanishiga olib keladi.

Murakkab pog'onaning ko'pgina zinalari farmakologik modda ta'sirining nishoni bo'lishi mumkin. Ammo, hozirda ushbu misollar juda kam. Shuning uchun, faqatgina toksinlarning G-proteinlar bilan birlashishi mumkin. Komma basillis toksini G_s-protein bilan va pertussis basilus toksini G_i-protein bilan aloqaga kirishadi.

Dorilar ta'siri uchun muhim «nishon»lardan bittasi ion kanallariidir. Ushbu sohadagi rivojlanish mustaqil ion kanallari funksiyasini yozib borish metodining taraqqiyoti

bilan bog'liq. Bu nafaqat ion kinetikasiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotni rag'batlantirdi, balki ion oqimlarini nazorat qiluvchi yangi dorilarning kashfiyotiga hayrihohlik qildi. (2.4.Jadval).

XX asr o'rtalarida mahalliy anestetiklar kuchlangan Na⁺ kanallarini to'sishi aniqlangan. Ko'pgina aritmiyaga qarshi dorilar Na⁺ kanallari blokatorlaridir. Bundan tashqari bir qancha epilepsiya qarshi dorilar(fenitom, karbamazepin) kuchlangan Na⁺ kanallarini to'sishi aniqlangan va ularning antikonvulsant faolligi ushbu ta'sir bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

¹ G-proteinlar turli va ularning funksiyalari: G- adenil siklazali qo'zg'atuvchi reseptorlar birikmasi; Gi - adenil siklazali ingibitor reseptorlar birikmasi; Go - ion kannalli reseptorlar birikmasi (Ca²⁺ oqimi kamavadi); Gk - fosfolipaz S ni faollashtiruvchi reseptorlar birikmasi; G protein 3 kichik bo'lmlardan tashkil topgan a, v, y

| Na ⁺ kanallari ligandlari | Ca ²⁺ kanallari ligandlari | K ⁺ kanallari ligandlari |
|--|--|--|
| Na kanallari blokatorlari Mahalliy anestetiklar (prokain, lidokain) Antiaritmik dorilar (kuinidin, prokainamidin) Epilepsiya qarshi dorilar (fenitoin, karbamazepin) Na ⁺ kanallari aktivatorlari | Ca ²⁺ kanallari blokatorlari Antianginal, antiaritmik va antigipertenziv dorilar (verapamil, nifedepin, diltiazem) Ca ²⁺ kanallari aktivatorlari Bey K 8644 (digidropiridin; kardiotonik va vazokonstriktor ta'sir) | K ⁺ kanallari aktivatorlari Antiaritmik dorilar (amiodaron) Neyromushak uzatishni osonlashtiruvchi dori (pimadin) Diabetga qarshi dori (glibenklamid) K ⁺ kanallari aktivatorlari Antigipertenziv dorilar (minoksidil) Antianginal dorilar (nikorandil) |

Keyingi 30 - 40 - yillarda Ca²⁺ ning elektrlashgan Ca²⁺ kanallari orqali kirishini oldini oluvchi Ca²⁺ -kanallari blokatorlariga qaratildi. Bu guruh dorilariga yuqori

qiziqish Ca^{2+} ko'pgina fizioligik jarayonlarda ishtirok etishidadir: mushak qisqarishida, hujayralarning ajratib chiqarish faolligida, neyromushak o'tkazishda, trompositlar funksiyasida va boshqalarda.


Bu guruh ko'pgina dorilari stenokardiya, aritmiyalar va arterial gipertensiya kabi ko'p tarqalgan dorilarni nazorat qilishda anchagina samaradorligi isbotlandi. Verapamil, diltiazem, infedepin kabi va ko'pgina boshqa dorilar keng tan olindi. Ca^{2+} kanallari aktivatorlari shuningdek, e'tiborni qaratdi, misol uchun, digidroperin hosilalari. Bunday dorilar kardiotonik, vazokonstriktor, gormonlarni qo'zg'atuvechi dorilar va neyrotransmitterlarni ozod qiluvchi va shuningdek MNS stimulyatorlari sifatida qo'llanilishi mumkin.

Yurak, MNS va turli joyda joylashgan qon tomirlarga (miya, yurak va boshqa) ustuvor ta'sirga ega Ca^{2+} kanallari aktivatorlari va blokatorlari izlanishi ayniqsa muhimdir. Bunga ma'lum bir sabablar bor, chunki Ca^{2+} kanallari geterogendir.

Yaqin yillarda anchagina e'tibor K^+ kanallari funksiyasini nazorat qiluvechi dorilarga qaratildi. Kaliy kanallari o'zining funksional xususiyatlarda anchagina turli tuman ekanligi aniqlandi. Bir tonindan, ahamiyatli darajada farmakologik tadqiqotlarni shart-qiyinlashtiradi, boshqa tonindan u selektiv ta'sirli dorilarni izlashga amaliy shart-sharoit yaratib beradi. Bular kaliy kanallarining aktivatorlari va blokatorlaridir.

Kaliy kanallari aktivatorlari kanallarning ochilishiga sabab bo'ladi va K^+ ning hujayralardan oqib chiqishiga sabab bo'ladi. Agar bu silliq mushaklarda paydo bo'lsa, membrananing repolyarizasiyalanishi kuchayadi, mushak tonusi pasayadi.

Masalan: antianginal dori- nikorandil bunga misol buhlisi mumkin.
Kaliy kanallari blokatorlari antiaritmik dori moddalarini o'z ichiga oladi (amiodaron, ornid, sotalol).



1.15. Rasm. Agonislar, antagonislar va ion kanallari blokatorlari birikishi ehtimoliy joylari.

Oshqozon osti bezidagi AIE qaram kaliy kanallari blokatorlari insulin ajralib chiqishini kuchaytiradi. Bu sulfomocheyina guruhu antidiabetik dorilar (xlorpropamid) ta'siri ostida yotuvechi mexanizmdir.

«Fermentlar» dori ta'siri uchun muhim «nishon» hisoblanadi. Nosteroid yallig'lanishiga qarshi dori moddalarining ta'sir mexanizmi sikloksigenaza fermentini falajlab, yallig'lanish mediatorlarining sintezini kamaytirishga bogliq. Antigipertenziv dorilarning bir guruhি angiotenzinogen fermentiga qarshi ta'sir ko'rsatadi, masalan: kaptopril, enalapril va h.k. Antixolinesteraz dori moddalarini asetilxolinesterazani to'sadi va asetilxolinni barqarorlashtiradi.

Metotreksat-antiblastom dori bo'lib, (folat kislotsasining antagonistи) digidrosolat reduktazani falajlab, tetragidrosolat paydo bo'lishini oldini oladi, bu esa purinnukleotid timidilat sintezi uchun zarurdir. Asiklovir trifosfatga aylanuvechi antigerpetik dori asiklovir virusli DNA polimeraziga to'sqinlik qiladi.

Dori ta'sirining yana bir ehtimoliy «nishon»i qutblи molekulalar, ionlar va kichik gidrofilik molekulalar uchun tashuvechi tizimlardir. Ular dorini hujayra membranasiga olib boruvechi tashuvechi protein deb nomlanuvchini o'z ichiga oladi. Ularning endogen moddalarni tanib oluvechi tarasi bor. Ushbu taraf dorilar bilan ham aloqaga kirisha oladi. Shuning uchun trisiklik antidepressantlar norepinefrinning neyronal yutulishini to'sadi. Rezerpin norepinefrinning pufakchalarda saqlanishini gastritni davolashda yuqori samaradorlikni ko'rsatishdi.

Inson genomi tartiblanishi davomida genlarni nishon sifatida qo'llanilishini o'rjanish borasida keng tadqiqotlar olib boriladi. Shak - shubha yo'q-ki, gen terapiyasi hozirgi va kelajakdagи farmakologiyaning eng muhim yo'nalishlaridir. Ushbu terapiyaning maqsadi etiopatogenetik roli tasdiqlangan genlarning vazifasini

boshqarishdir. Cien terapiyasining asosiy tarmoqllari gen ifodalanishini oshirish, kamaytirish yoki to'xtashishdir va shuningdek mutant genni almashadir.

Ushbu masalalar echimi mavjud tartibli nukleotidli zanjirlarni klonlar imkoniyati tufayli mumkin bo'ladigan bo'ldi. Bundan o'zgartirilgan zanjirlarning tanishtirilishi ushbu patologiyani bildiruvchi proteinlar sintezini normallashtirishni va shu sababdan hujayra funksiyasini qayta qurishni bildiradi.

Gen terapiyasining muvaffaqiyatli rivojlanishida markaziy masala-nuklein kislotasining nishon hujayraga etkazilishidir. Nuklein kislotalalari tashqi hujayraviy joylardan plazmaga olinishi kerak, keyin hujayra membranalaridan o'tib, hujayra yadrosi ichiga kirishi va xromosomalar tarkibiga kirishi lozim. Ba'zi viruslarni tashuvchilar yoki vektorlar sifatida qo'llash taklif etilgan (misol uchun, retroviruslar, adenoviruslar). Gen injeneriyasi tufayli vektor-viruslar nusxa olish qobiliyatidan mahrum qilindilar, ya'ni ular xech qanday yangi virionlar hosil qilmaydilar. Liposoma, proteinli DNK komplekslari, mikrozerralar va mikrosferalar kabi boshqa tashuvchi tizimlar ham taklif etildi.

Tabiiyki, birlashgan gen ko'proq vaqt davomida faoliyat olib borishi kerak, ya'ni genning ifodalanishi turg'un bo'lishi zarur.

Gen terapiyasi qo'llanilishining potensial imkoniyatlari o'z ichiga ko'pgina irlsiy kasalliklarni oladi. Ularga immun tangisligi holatlari (OITS), jigar patologiyalarining ba'zi turlari, gemofiliya, gemoglobinopatiya, o'pkadagi kistali fibroz, mushak distrofiyasi va boshqalar kiradi.

Bir qancha tadqiqotlar gen terapiyasini o'smalarni davolash uchun qo'llashning potensial yo'llarini qidiradi. Ushbu imkoniyatlari o'z ichiga onkogenetik proteinlar ifodalanishini to'sish: o'simtaning o'sishini cheklaydigan genlarni faollashtirish, prodrotilarni saqatgina o'simta hujayralari uchungina toksik birikmalarga aylantiradigan maxsus o'simta fermentlari ishlab chiqarishini rag'baltantirish: suyak iligi hujayralarining antiblasmotik dorilarning to'sqinlik qiluvchi ta'siriga barqarorligini oshirish; saraton hujayrafariga qarshi immunitetni oshirish va boshqalarni oladi.

Mieloid leykemiya va boshqa qon kasalliklarni davolash uchun dorilar yaqinda sintezlandi. Ular hozir klinik sinovdan o'tmoqdalar.

Hozirda genlarni farmakologik ta'sir uchun nishon tarzida ishlatish fundamental tadqiqotlar darajasida. Ushbu dorilardan feqatgina bir nechta istiqbollilari sinov oldi va sinovda turibdi. Ammo, shubha yo'q-ki, shu asrda nafaqatgina irlsy, balki orttirilgan kasalliklar uchun gen terapiyasining samarali dorilari paydo bo'ladi. Bular o'smalar, virusli kasalliklar, immun tanqisligi holatlari, qon va qon koagulyasiyasi buzilishlari, aterosklerozni davolash uchun fundamental yangi dorilar bo'ladi.

Shunday qilib, dorilarning yo'naltirilgan ta'siri uchun imkoniyatlar keng ekan.

Farmakoterapevtik ta'sirning dorining xususiyatlari va qabul qilish usuliga bog'liqligi

A) Dorilarning kimyoviy tuzilishi, fiziko-kimyoviy va fizik xossalari

Dorining xossalari uning kimyoviy tuzilishi, funksional faol guruh ma'sudligi, uning molekulalari shakli va hajmiga qaysidir darajada bog'liq.

Dorining reseptor bilan samarali aloqasi ularning eng yaqin aloqa qilishini ta'minlaydigan tuzilishga ega bo'lishi zarur. Ichki molekulyar zanjirlarning kuchi dori-reseptor o'xshashligi darejasiga bog'liq. Shuning uchun, ion zanjirda ikkita qarama-qarshi zaryadlarning elektrostatik tortish kuchi ular o'rtaсидagi kvadrat masofaga teskari proporsional va Van der Vals kuchi masofaning 6-7chi kuchiga teskari proporsional ekanligi ma'lum.

Agar dori bir nechta funksional faol guruhlarga ega bo'lsa, ularning o'rtaсидagi masofaga e'tibor qaratish kerak. Shuning uchun, bis-to'rtlik ammoniy birikmalar bir qatorlarida 

Birikmalarning kimyoviy tuzilishi va ularning biologik faolligi o'rtaсидagi bog'liqlikni sharhlash yangi dorilarni yaratishda eng muhim yo'nalishlardan biridir. Bundan tashqari, bir xil ta'sir mexanizmli turli xil kimyoviy guruhlar optimal tuzilishini solishtirish bizga dorilar ta'sir etuvechi reseptorlarning tuzilishini tushunishga imkon beradi.

Dori ta'sirining ko'pgina miqdoriy va sifat xususiyatlari suvda va lipidlarda eruvchanlik kabi fizik-kimyoviy va fizik xossalariiga ham bog'liq bo'ladi. Kukunli birikmalar xususiyatlari zarrachalar xajmiga, uchuvchan birikmalarniki – uchish darajasiga bog'liq. Ionlashish darajasi ham ayniqsa muhim. Misol uchun, tuzilish jihatidan ikkilamchi va uchlasmchi aminlar guruhlariga kiruvchi miorelaksantlar butunlay ionlashgan to'rtlamchi ammoniy birikmalarga qaraganda kamroq ionlashgan va kamroq faol.

B) Dozalar va konsentratsiyalar.

Dorilarning ta'siri ularning dozasiga bog'liq. ularning dozasi (konsentrasiysi) dagi o'zgarish ta'sir boshlanish tezligiga, faolligiga, davomiyligiga ta'sir qiladi. Odatda doza (konsentrasiya)ning oshirilishi latent davri kamaytiradi va ta'sir kuchi va davomiyligini oshiradi.

Doza – bu bir qabul qilish uchun moddaning miqdori (odatda bir doza sifatida nomlanadi).

Doza grammarda va grammning ulushida o'lehanadi. Dorilarning yanada aniq dozalanishi uchun har bir kg odam massasi bilan o'lehanadi (misol mg/kg, mikrogramm/kg). Ba'zi hollarda dori dozasi inson tanasi sirtqi maydoni (har 1 m²) bilan o'lehalgani ma'qul.

Dorining asosiy biologik ta'sirini keltirib chiqaruvchi minimal doza cheklangan yoki minimal aktiv deyiladi. Tibbiyot amaliyotida odatda o'rtacha terapeutik dozalarni qo'llaydi, ya'ni bemonlarning ko'pehiligiga farmakoterapeutik ta'sir qilish uchun kerakli dori dozasi. Agar ushbu dozalarni qabul qilgandan so'ng ta'sir sezilarli darajada etarli bo'lmasa, doza maksimum terapeutik darajagacha ko'paytiriladi. Toksik doza dori organizmga zararli toksik ta'sir ko'rsatadigan dozadir.

Minimal terapeutik doza (konsentrasiya) va minimal toksik doza o'rta sidagi interval *terapeutik oyna* deyiladi. Dorilarning xavfsiz qo'llanilishi uchun ushbu interval etarli darajada uzoq bo'lishi kerak.

Xuddi shu dorilar xususiyatlari uchun hayvonlarda o'tkazilgan sinovlar uchun *terapeutik indeks* (TI) atamasi qo'llaniladi. $TI = LD_{50} : ED_{50}$. LD_{50} (o'rtacha halokatli

doza) – 50% hayvonlarda o'lim ko'rsatadigan doza, ED₅₀ (o'rtacha ta'sirhan doza) – 50% hayvonlarda istalgan terapeutik ta'siri beradigan dozadir.

Ba'zi hollarda doza butun davolanish kursi uchun o'lehanadi (kurs dozasi). Bu ayniqsa antimikrob (antibiotik) dorilarni qabul qilishda muhimdir.

Agar tanada dorining yuqori konsentrasiyasiga tezda erishish zaruriyati bo'lsa, birinchi doza (boslab beruvechi) keyingilaridan ko'proq bo'ladi.


Ingalyasion dorilar uchun (masalan umumiy anestesiya uchun gazli va uchuvchan moddalar) nafas olinayotgan havodagi ularning konsentrasiyasi juda muhim (hajm foizida o'lehanadi).

Dorilar ta'sirining


umumiy sxemasi



Dozalar



Morfin ta'sir



no allergik salbiy ta'sirlari

allergik reaksiyalar

toksik ta'sirlar



terapeutik doza ta'siri maydoni

toksik doza ta'siri maydoni

V) Dorilarning qayta qabul qilinishi

Dorilarni qayta qabul qilganda ularning ta'siri yo' shishi yoki kamayishi mumkin. Ko'pgina dorilar ta'sirining oshishi ularning kumulyasiya (toplash¹) qobiliyati bilan bog'liq. Kumulyasiya farmakologik moddaning tanada saqlanishidir. Bu uzoq ta'sir qiladigan, tanadan sekin chiqib ketadigan va barqaror tarqaladigan dorilarga xosdir(misol uchun: yurak glikozidlaridan digitalis preparatlari). Qayta qabul qilingandan so'ng dorilarning to'planishi toksik ta'sirning sababi bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday dorilar to'planishni hisobga olib, dozani sekin-asta ko'tarib yoki dori qabuli intervalini oshirib buyurilishi kerak.

Qayta qabul qilingandan so'ng dori ta'sirining oshishi (*chidamlilik*²) turli xil dorilarda kuzatiladi (opioid analgetiklar, antigipertenzivlar, laksativlar). Bu dori so'rili shining tezligi, faollashish tezligining oshishi va (yoki) chiqib ketishning kuchayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bir qancha dorilarning chidamliligi ularga reseptorlar sezgirligining kamayishi (desensibilyasiya) yoki bu reseptorlar sonining to'qimalarda kamayishi (nazoratning kamayishi).

Chidamlilik rivojlanganda, boshlang'ich ta'sir uchun dori dozasi ko'paytirilishi yoki dori boshqasi bilan almashtirilishi zarur. Almashtirish yo'li tanlansa, xuddi o'sha reseptorlar (substratlar) bilan aloqaga kirishadigan dorilarga kesishma-chidamlilik paydo bo'lishini unutmaslik lozim.

Chidamlilikning maxsus turi – *taxiflaksiya'* – juda tez ro'y beradigan chidamlilik bo'lib, dorini bir marta qabul qilinganda yuzaga keladi. Misol uchun, efedrin 10-20-minutlik intervalda qayta qabul qilinganda, birinchi in'eksiya bilan solishirganda, xuddi o'sha doza arterial qon bosimi oshishiga ta'sir etmaydi.

Ba'zi dorilarning qayta qabul qilinishi (odatda neyrotrop) doriga qaramlikni keltirib chiqaradi. Bu odatda kayfiyatning ko'tarilishi, yaxshi xis qilish va yoqimsiz kechinmalar va simptomlarni kamaytirish ko'rinishida ro'y beradi. Dori mo'ddasiga jismoniy yoki ruhiy qaramlik yuzaga kelishi mumkin.

Ruhiy qaramlik holatida dorining to'xtalishi faqatgina emosional diskomfortini keltirib chiqarishi mumkin(masalen: kokain, gallusinogenlar). Jismoniy qaramlik

ba'zi bir dorilarni qabul qilgandan so'ng paydo bo'ladi(morfin, geroin). Bu qaramlikning og'ir holatidir. Bu holatda dorining to'xtalishi.

¹ Lotinchadan *cumulus* - to'p so'zidan.

² Lotinchadan *tolerare* - chidamoq so'zidan

³ Grekehadan *tachys* - tez, *phylakterion* - ximoya

Nafaqat psixologik, balki, iehki organlari funksiyasining buzilishida aks etadigan og'ir somatik buzilishlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Bu hattoki o'limga ham olib kelishi mumkin. Bu *obstinensiya sindromi*¹ deyiladi.

Doriga qaramlikni oldini olish va davolash jiddiy tibbiy va ijtimoiy masaladir.

| Dorilar | Doriga qaramlik | | Chidamlilik |
|--|-----------------|-------|-------------|
| | fiziologik | fizik | |
| Morfin, kodein va boshqa opioidlar | + | + | + |
| Barbituratlar | + | + | + |
| Benzodiazepinlar | + | + | + |
| Etil spiriti | + | + | + |
| Kokain | + | - | - |
| Hind o'tlari (marixuana,gashish) | + | - | + - |
| LSD-25 (dietilamid lizergik kislotasi) | + | - | + |

2.5.Jadval. Doriga keltirib chiqaradigan dori misollari.

G) Dorilar o'zaro aloqasi

Tibbiyot amaliyotida bemorlar ko'pincha bir qancha dorilarni bir vaqtda qabul qiladilar. Bu dorilar bir biri bilan aloqaga kirishib, o'zaro ta'sir kuchini kuchaytirishi ta'sir davomiyligini uzaytirishi, shuningdek salbiy va toksik ta'sirlarni kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Dorilar o'zaro aloqasi quyidagi yo'l bilan klassifikasiyalanishi mumkin.

Farmakologik aloqa:

- ✓ Dorilar farmakokineticasidagi o'zgarishiga bog'liq

- ✓ Dorilar farmakodinamikasidagi o'zgarishiga bog'liq
- ✓ Tanadagi dorilarning fizik-kimyoviy aloqasidagi o'zgarishga bog'liq

Farmasevtik aloqa:

Turli xil dorilarning kombinasiyasi tibbiy amaliyat uchun foydali ta'sirlarni kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Misol uchun, narkotik analgetiklarning psixotrop dorilar og'riq qoldiruvchi ta'sirini oshiradi. Steroid yallig'lanishga qarshi moddalar antibakterial va zamburug'ga qarshi dorilar bilan yana bir foydali kombinasiya bo'lishi mumkin. Bunaqa misollardan yana ko'p topilishi mumkin. Bir vaqtning o'zida dorilarni aralashtirish salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin, bu *dorilar nomuwofiqligi* deyiladi. Nomuwofiqlik farmakoterapevtik ta'sir harakterining susayishi, umuman yo'qolishi yoki o'zgarishi bilan yoki salbiy va toksik ta'sirlarning kuchayishi (*farmakologik nomuwofiqlik* deyiladi) bilan belgilanadi.

Lutinchadan ab – dan, ferene – ushlab turmaq, Gerekchadan inn – burga chome – surʼummaq

Bu ikki va undan ko'p dorilarni aralashtirganda sodir bo'lishi mumkin. Misol uchun, dorilar nomuwofiqligi qon ketishi, giperglikaezik koma, tutqanoq-gipertenziv krizlar, trompositopeniya va boshqalarni keltirib chiqarishi mumkin. Nomuwofiqlik shuningdek dorilar kombinasiyasining tayyorlanishi va saqlanishida sodir bo'lishi mumkin (*farmasevtik nomuwofiqlik*).

A) Farmakologik o'zaro ta'sir

Farmakologik o'zaro ta'sir bir dori boshqa dorining farmakokinetikasini yoki farmakodinamikasini o'zgartirganda paydo bo'ladi. O'zaro ta'sirning farmakokinetik turi dorilardan birining so'rilib, metabolizmi, biotransformasiyasi, saqlanish va eliminasiyasi bilan bog'liq. O'zaro ta'sirning farmakodinamik turi dorilarning reseptorlar, ion kanallari, hujayralar, fermentlar, organlar yoki fiziologik tizimlar darajasidagi bevosita yoki bilvosita o'zaro ta'siridir. Bu holatda asosiy ta'sir miqdorda (kuchayishi yoki susayishi) yoki sifatda o'zgarishi mumkin.

Shuningdek, kimyoviy va fiziko-kimyoviy dori o'zaro ta'siri ikki yoki ko'proq dorilarni qo'shib qabul qilganda paydo bo'lishi mumkin.

O'zaro ta'sirning farmakokinetik turi xattoki dori so'rilib bosqichida paydo bo'lishi mumkin va u turli sabablarga ko'ra o'zgarishi mumkin. Misollar: shimuvchi modda (faollashtirilgan ko'mir, kaolin) yoki anion o'zgaruvchi smola (misol uchun gipolipidemik xolestiramin) tomonidan dorilarning hazm qilish traktida birlashishi, nofaol xelatlanadigan birikmalar (masalan tetrasiklin antibiotigi va temir, kalsiy va magniy ionlari o'zaro ta'siri). Bu barcha o'zaro ta'sir misollari dori so'rilibini oldini oladi va tegishli ravishda ularning farmakoterapevtik ta'sirini kamaytiradi. Ph muhitini bir qancha dorilarning so'rilibida muhim ahamiyatga ega. Oshqozon shirasining ph muhitini o'zgartirish orqali kuchsiz organik kislotalar so'rilib tezligi va sifatiga ahamiyatli darajada ta'sir o'tkazish mumkin. Ionlashish darajasining kamayishi bunday moddalarning lipotilligi oshishiga olib kelishi aytib o'tilgan edi va bu ularning so'rilibini kuchaytiradi.

Oshqozon ichak trakti peristaltikasidagi o'zgarish dori so'rilibiga ta'sir qiladi. Atropin (muskarerinik xolinoseptorlarni falajlovehi) ichak peristaltikasini kamaytirib, digoksining so'rilibiga yordam beradi.

Barbituratlar zamburug'ga qarshi dori – grizeofulvimumning so'rilibini kamaytiradi). Fermentlar harakatining cheklanishi ham so'rilibiga ta'sir qilishi mumkin.

2.6.Jadval. Farmakokinetik dori o'zaro ta'siri misollari

| Qo'shilgan dorilar guruhi | | I va II guruh dorilarining o'zaro ta'siri natijasi | |
|---|---------------------------------|---|---|
| I | II | ta'sir | Mexanizm |
| Antikoagulyantlar bilvosita ta'siri (varfarin va boshq) | Almagel | I guruh dorilarining antikoagulyant ta'sirini susaytiradi | Almagel I guruh dorilarini me'da-ichak traktidan so'rilishini to'sadi |
| Antikoagulyant-lar bilvosita ta'siri (varfarin va boshq) | Xolisteramid | I guruh dorilarining antikoagulyant ta'sirini susaytiradi | Xolestiramin I guruh dorilarini ichak yo'lida biriktiradi va ularning so'rilishini kamaytiradi |
| Salisilatlar (asetilsalisil kislotasi va boshq) | Fenobarbital | Salisilatlar ta'sirini susaytiradi | Fenobarbital salisilatlarning hepatik metabolizmini kuchaytiradi |
| Opioid analgetiklar (morphin va boshq) | Noselektiv MAO ingibitorlari | Nafas qiyinlashishi bilan I guruh dorilarini ta'sirini oshiradi va uzaytiradi | Noselektiv MAO ingibitorlari I guruh dorilarini hepatik inaktivasiyasini bosadi |
| Sintetik antidiabetik dorilar (xlorpropamid va boshq) | Fenilbutazon | Gipoglikaezik ta'sirni komagacha kuchaytiradi | Fenilbutazon I guruh dorilarini plazma proteinlari bilan birikib surib chiqaradi va ularning qon konsentrasiyasini oshiradi |
| Salisilatlar (asetilsalisil kislotasi va boshq) | Tizimli ta'sirga ega antasitlar | Salisilatlar ta'sirini biroz susaytiradi | Antasitlar salisilatlarning buyrakda qayta so'rilishini kamaytiradi (alkaloz muhitda) va ularning siyidik bilan ajralishini va shu vaqtning o'zida salisilat kasalliklar qon konsentrasiyasini oshiradi |

Ba'zi dorilar (almagel) meda-ichak trakti membranasining yuzasida qatlam hosil qilib dori so'rilishini to'sishi mumkin.

Dori o'zaro ta'siri ularning plazma oqsillari bilan birikishi bosqichida ham sodir bo'lishi mumkin(asosan albumin). Bir dori boshqasini plazma oqsillari bilan kompleksidan siljitishti mumkin. Shuning uchun, yallig'lanishiga qarshi dorilar indometasin va fenilbutazon bilvosita antikoagulyantlarni(kumarin guruhi) plazma

oqsillar kompleksidan azod qiladi. Antikoagulyantlarning erkin ulushi konsentrasiyasi oshadi va bu qon ketishlarga olib ketishi mumkin. Xuddi shunday fenilbutazon va salisilatlar giperglikemik dorilar erkin ulushi plazma konsentrasiyasini oshiradi (xlorpropamid kabi) va giperglikemik komaga sabab bo'lishi mumkin.

Ba'zi dorilar *biotransformasiyasi* bosqichida o'zaro ta'sirga kirishishi mumkin. Jigar makrosomal fermentlari faolligini oshiruvchi (qo'zg'atuvchi) dorilar mavjud. (fenobarbital, grizeovulfin va boshqalar).

Alkogolga qaramlikni davolashda qo'llaniladigan desulfiram asetilaldegidirogenazaga to'sqinlik qiladi va alkogolning metabolizmiga to'sqinlik qilib, uning toksik ta'sirini oshiradi.

Dorilarning chiqib ketishi ham dorilarni qo'shib qabul qilish bilan sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Dorining ionlashishi darajasini uning ph ini o'zgartirib, oshirish yoki kamaytirish mumkin.

Ionlashish qancha kam bo'lsa, dorining liposifligi shuncha yuqori va uning buyrak kanallarida qayta so'rishi shuncha kuchli bo'ladi. Yanada ionlashgan dorilar qiyin qayta so'rildi va siydiq bilan ko'p darajada chiqib ketadi. Natriy gidrokarbonat siydiqni alkalaynlashtirish uchun, ammoniy xlorid uni oksidlash uchun qo'llaniladi (xuddi shu ta'sirga ega boshqa dorilar ham mavjud). Qo'shib dari qabul qilishda ularning buyrak kanallarida ajralishi qiyinlashishi mumkin. Misol uchun, prbenezid penisilinlarning buyrak kanallarida ajralishiga to'sqinlik qiladi va shuning uchun ularning antibakterial ta'sirini uzaytiradi.

O'zaro ta'sirning farmakodinamik turi ularning farmakodinamikasi xususiyatlariga asoslangan. (2.7.Jadval). Reseptoriar darajasida o'zaro ta'sir asosan agonist va antagonistlar bilan sodir bo'ladi. Bir birikma ikkinchi bittasini ta'sirini kuchaytirish yoki kuchsizlantirishi mumkin. Sinergizm holatida dorilar o'zaro ta'siri effekuning kuchayishiga olib keladi.

| Qo'shilgan dorilar guruhlari | | I va II guruh dorilarining o'zaro ta'siri natijasi | |
|---|---------------------------------------|---|--|
| I | II | Ta'sir | Mekanizm |
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| Depolarizasiya ta'sirli Miorelaksantlarning (sukzametonium) | Antixolinoesteraz vositalar | Miorelaksantlarning depolarizasiya ta'sirini sezilarli uzaytiradi va kuchaytiradi | Antixolinoesteraz vositalar asetilxolinning gidrolizini oldimi oladi (ikkala birikma presinaptik membrananing depolyarizasiyasiga sabab bo'ladi) |
| α -Adreno blokatorlar (fentolamin) | Epinefrin | Epinefrin yoki uning «inversiya»si vazopressor ta'sirini kamaytiradi | α -Adrenoblokatorlar α -adrenoreseptorlarga epinefrinning antagonistlaridir α -adrenoreseptorlar to'sulganda, epinefrinning qon tomonlari β -adrenoreseptorlarga qo'zg'atuvechi ta'siri paydo bo'ladi |
| Simpatolitiklar (rezerpin va boshq) | Simpatomimetiklar (efedrin va boshq) | Simpatomimetik ta'sirini kamaytiradi | Simpatolitiklar simpatomimetiklarning adrenergik tugallanmalardan norepinefrinning ozod bo'lishi ta'siri antagonistlaridir |
| Galotan | Epinefrin | Kardio aritmiyalar | Galotan miokardning epinefrin ta'siriga sezuvchanligini oshiradi |
| Asetilsalisilat kislotasi | Antikoagulyantlar (varfarin va boshq) | Qon ketishlar | Asetilsalisilat kislotasi oshqozon shilliq qavatining yarasiga sabab bo'ladi, protrombin konsentrasiyasini kamaytiradi va trombositlar yopishqoqligini kamaytiradi. Ushbu fonda antikoagulyantlar qon ketishini kuchaytiradi |
| Antipsixotik dorilar (xlorpromazin, | Etil spirti | MNS ning etil spirti tomonidan | Antipsixotik va anksiolitiklar etil spirtining MNS ga ingibitor ta'sirini kuchaytiradi |

| | | | |
|--|--|---|--|
| galoperidol) anxiolitiklar (diazepam) | | sezilarli to'silishi | |
| Penisillin | Tetrasiklinlar, Xloramfenikol | Penisillinning antimikrob ta'sirini susaytiradi | Penisillin faqatgina jaraluvchi hujayralarga ta'sir qiladi. Tetrasiklin va xloramfenikol esa mikroorganizmlar bo'linishini to'sadi |
| Aminoglikozid guruhi antibiotiklari (streptomisin, neomisin, kanamisin) | Miorelaksant-lar (kuraresimon) | Miorelaksant-lar mioparalitik ta'sirini kuchayishi | Aminoglikozidlar va miorelaksantlar neyronal uzatishning to'silishida sinergistdir |
| Aminoglikozid guruhdan antibiotiklar | Aminoglikozid guruhdan antibiotiklar | Ototoksik ta'sir ortishi va kurarega o'xhash ta'sir | Bir guruhdan bo'lgan antibiotiklarning sinergizmi (ta'sirlarning birlashish) |
| Sulfanamid dorilar | Prokain | Sulfonamid dorilarning antimikrob ta'sirining susayishi | Prokain gidrolizi sulfanilamid dorilarning raqobatbardosh antagonisti para-amino-benzoy kislotasini ishlab chiqaradi |

2.6. Jadval. Farmakodinamik dorilar o'zaro ta'sirining misollari

Dori sinergizmi¹ ta'sirlarning o'zaro qo'shilishi yoki potensiallashuvida mayjud bo'lishi mumkin. Qo'shilgan (qo'shimcha²) ta'sir alohida dorilar ta'sirlarining haqiqiy yig'indisini bildiradi. Ikkita dorining qabul qilinishi davomida umumiy ta'sir oshib ketsa (ba'zida sezilarli darajada), ikkala dori ta'siri yig'indisi kuchayadi (misol uchun, antipsixotik dorilar umumiy anestetik dorilar ta'sirini kuchaytiradi). Sinergizm bevosita (agar ikkala birikma bitta substratga ta'sir qilsa) yoki bilvosita (agar ularning ta'siri turli xil mahalliy lashishga ega bo'lsa).

Bir dorining ikkinchisining ta'sirini susaytirishi *antagonizm* deyiladi. Sinergizmga o'xshab, antagonizm bevosita va bilvositaga bo'linadi.

Tana muhitida dorilarning *kimyoviy* va *fizik-kimyoviy* o'zaro ta'siri ko'pincha dozaning oshirib yuborilishi yoki o'tkir doridan zaharlanishni davolashda qo'llaniladi. O'rabi oluvchi dorilarning hazm qilish traktidan so'rilib higa to'sqinlik qiluvchi xususiyatiga yuqorida tilga olingan edi. Geparinning dozasining oshirib yuborilishi geparinni bilan elektrostatik o'zaro aloqaga kirishadigan antidot protamin sulfat bilan davolanadi. Bu fizik-kimyoviy o'zaro aloqa misolidir.

Tuz paydo bo'lishi kimyoviy o'zaro aloqaga misol bo'lishi mumkin. Kalsiy ionlari EDTK³ (dinatriy tuzi) (trilon B; Na₂EDTK) bilan bog'lanadi. Qo'rg'oshin, simob, kadmiy, kobalt va uran ionlarni tetasin-kalsiy (CaNa₂EDTK) bilan; mis, simob, qo'rg'oshin, temir va kalsiy ionlari penisiliamin bilan bog'lanadi.

1 Grekchadan syn – birgalikda, ergos - ishlash so'zlaridan

2 Lotinchadan addition - qo'shish, addere - qu'yish

3 Etilen diamin tetauksus kislotosi

Shuning uchun, turli xil farmakologik o'zaro aloqalar mavjud (2.6. va 2.7. Jadvallarga qarang).

Farmasevtik nomuvofiqlik moddalarning kimyoviy, fizik va fizik-kimyoviy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Misol uchun, nomuvofiqlik moddalarning erituvchida etarli darajada yoki butunlay erimaydigan xususiyati sababidan, dori formulirovkasi koagulyasiyasi, emulsion qatlamlanish, kukunlarning gigroskopik xossasi tufayli namlanishi yoki erishi sababidan kelib chiqishi mumkin. Dorilar xatolik tufayli birgalikda buyurilgan bo'lsa, kimyoviy o'zaro aloqa tufayli dori formulirovkasi rangida, ta'mida, hidida yoki konsistensiyasida o'zgarish bo'lishi mumkin.

Dori vositalaring ta'sirida organizmning individual xususiyatlari va holatining ahamiyati. Dori vositalarining yoshga va jinsga bo'lgan ta'siri

A) Yosh

Doriga sezuvchanlikda yoshning ham ahamiyati bor. Shuning uchun ham dorilarning homilaga (homiladorlikning 24 haftasidan to'g'ilgan chaqaloqlar (hayotining 4 haftasigacha) farmakologiyasi ajratiladi. Doriga sezuvchanlik borasida oxirgi trimestrdagi homila va hayotining birinchi oylaridagi chaqaloq kattalardan anehagini farq qiladi. Bu asosan ko'pgina fermentlarning, buyrak funksiyasining y yetishmoychiligi, qon-miya to'sig'i ko'pgagan o'tkazuvchanligi va MNS etarli rivojlanmaganligi tusaylidir. Ushbu hayot davri mobaynida reseptorlar dorilarga turli xil sezuvchanlikka ega. Misol uchun, yangi tug'ilgan chaqaloq MNS ga ta'sir qiluvechi (ayniqsa mortinga) dorilarga o'ta sezgir.

Xloramfenikol ujar uchun juda toksik va hattoki o'llingga olib kelishi mumkin. Buning sababi jigar ularni detoksikasiya qilish uchun etarli fermentlarga ega emasligidir. Kichik yoshli bolalarga bezlarning (bronxial, nazal va boshq.) sekretor faoliyatini kuchaytiradigan dorilar qo'llash mumkin emas, chunki bu nafasni qiyinlashtirishi va nafas olish kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Bolalar organizmiga dorilar ta'sirini o'rjanuvchi farmakologiyaning sohasi – *pediatrik farmakologiya* deb nomlanadi.

Katta yoshli va qari odamlarda dori so'riishi sekinlashadi, ularning metabolizmi va dorilarning eliminasiyasi sust. Umuman olganda, katta yoshli va qari odamlarda dorilarga sezuvchanlik kuchayadi va shuning uchun dozalar kamaytirilishi lozim. Katta yoshli va qari odamlarda dori ta'siri o'ziga xosliklarini bilish muhimdir (*geriatrik farmakologiya*), chunki ushbu guruh ulushi umumiy aholi sonida anehagini oshgan.

B) Jins

Hayvonlarda o'tkazilgan tadqiqotlar erkak kishilarda ayellarga nisbatan bir qancha moddalarga (nikotin, strixin) kamroq sezgirligi ko'rsatdi. Ba'zi dorilar metabolizmidagi farqlar ham jins bilan bog'liq. Bu borada ancha klinik tadqiqotlar

o'tkazilgan. Misol uchun, parasetamoldan tozalanish erkaklarda ayollarga nisbatan tez sodir bo'ladi. Menapauzadagi ayollarda kalsiy ionlarining ichakda so'riliши kechikadi. Verapamilning ta'siri ayollarda erkaklarga nisbatan yuqoriroq. Diazepamning oksidlanishi ayollarda tezroq ro'y beradi. Antiaritmik dorilar erkaklarga nisbatan ayollarda ko'proq aritmogen ta'sirga sabab bo'ladi. Operasiyadan keyingi og'riqlarni kamaytirish uchun erkaklar ayollarga nisbatan ko'proq doza morfinga muhtoj bo'lishadi.

V) Genetik faktor

Bemorlar doriga sezgirlikka genetik moyilroq bo'lishlari mumkin. Bu doriga javob reaksiyasining miqdoriy va sifat ko'rsatgichida belgilanishi mumkin. Misol uchun, gen plazma xolinesteraza yetishmovchiligidagi miorelaksant suksametoniumning ta'sirini 6-8 soatga yoki ko'proqqa uzaytiradi (normal holatda sukzametazonning ta'siri 5-7 minut davom etadi).

Tuberkuloyzga qarshi dori izoniazidning asetillanishi tezligi turlicha o'zgarishi ma'lum. Tez va sust metabolik faollikka ega shaxslar mavjud. Izoniazid sust ta'sir qiluvchi bemorlarda asetillaydigan ferment sintezini nazorat qiluvchi genlar yetishmovchiligi mavjud. Ba'zi bemorlarda dorilarga reaksiya atipik holatda kechadi (idiosinkraziya²). Misol uchun, 8-aminoxinol guruhidan bezgakga qarshi dori vositasi (primain va boshqalar) genetik fermentopatiyalı shaxslarda qon ketishiga sabab bo'lishi mumkin (glyukoza 6-fosfat degidrogenaza fermenti gemolitik faollikka ega kunin ishlab chiqarishiga olib keladi).

¹ Grekchadan – geron - qari odam, iatros - tabib

² Grekchadan – idios - shaxs, syn - birgalikda, krasis - aralashma

Bunda yana potensial gemolitik dorilar mavjud. Ular o'z ichiga aminokuinollar (primaxin, xloroxin), sulfidlar (dapson), sulfanilamidlar (sulfasil sodium, sulfametokssipiridazin), nitrofuranlar (furazolidon, nitrofungin), no opioid analgetiklar (asetilsalisilat kislotasi) va boshqa dorilar (nalidiks kislotasi, xinin, xinidin, xloramfenikol) ni oladi.

individual dorilarga sezgirlikda genetik faktorning rolini aniqlashtirib olish maxsus farmakologik ilm – *farmakogenetikaning* asosiy maqsadidir.

G) Organizmning umumiy holati

Dori ta'siri umumiy holatga, ayniqsa ular qabul qilinayotgan patologiyaga bog'liqdir. Shuning uchun, isitmani tushiruvchi dorilar faqatgina tana harorati ko'tarilgandagina tana haroratini tushiradi(ular tana harorati normal bo'lqanda ta'sirga kirishmaydi). Yurakglukozidlar faqatgina yurak yetishmovchiligidagi qon sirkulyasiyasiga ta'sir qiladi. Ganglioblokatorlarning gipotenziv ta'siri qancha yuqori bo'lsa, simpatik innervasiya ta'siri shunchalik yuqori bo'ladi.

Buyrak va jigar yetishmovchiligi bilan bog'liq kasalliklar dorilarning chiqarilishi va metabolizmini ham o'zgartiradi. Bunda plazmada oqsillarining birikish, biotransformasiyasi va boshqa parametrlar ham o'zgarishi mumkin.

Dori farmakokinetikasi homiladorlikda va semizlikda o'zgaradi.

D) Siklik ritmnинг ahamiyati

Siklik ritm¹ fiziologik funksiya uchun muhim ahamiyatga ega. Hammaga ma'lumki, uyq-oqlik, uyqu almashinuvি nerv sistemasi faoliyatiga va endokrin bezlarga, boshqa organ va tizimlar holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. U shuningdek, organizmning turli dorilarga sezgirligiga ham ta'sir qiladi. Farmakologik ta'sirning siklik ritmiga bog'liqligi borasidagi izlanishlar *xronofarmakologiya* deb nomlanuvchi yangi yo'nalishning asosiy vazifasidir. U orz ichiga *xronofarmakodinamika* va *xronofarmakokinetikani* oladi.

Kunning vaqtiga qarab, dorilarning ta'siri nafaqat miqdoriy, balki ba'zida sifat darajasiga ham ta'sir qiladi. Ko'p hollarda ularning sezilarli ta'siri maksimal faoliyk vaqtiga to'g'ri keladi. (odamlarda – yorug* kunda, kechki hayvonlarda – tunda).

¹ Lom'icha – haqida – kun. Bu 20-28 soat interval o'tasidagi biologik jarayonlarning siklik o'zgarishidur

Misol uchun, odamlarda narkotik anelgetik morfinning ta'siri erta tongga nisbatan kunning ikkinchi yarmida yoki tunda kuehli ta'sir etadi. Bunda anelgetik faoliikkiga ega endogen peptidlar ishlab chiqarilishi kun davomida o'zgarib turadi (enkefalinlar

va endorfinlar). Stenokardiyani davolashda nitroglycerin kunning ikkinchi yarmidan ko'ra, ertalab ko'proq samara beradi.

Dori toksikligi siklik ritm bilan sezilarli darajada o'zgaradi. Shuning uchun, kunning turli vaqtida hayvonlarda o'tkazilgan eksperimentlar letal natija 0 dan 100% gacha o'zgarishi mumkinligini ko'rsatdi.

Farmakokinetik parametrlar ham shuningdek, kunlik ritmga bog'liqdir. Ayniqsa, zamburug'ga qarshi dori grizeofulvinnig odamlarda eng yaxshi so'riliishi taxminan tushlik mahaliga to'g'ri keladi. Metabolizmning faolligi kun davomida o'zgarishi mumkin (misol uchun, geksobarbital metabolizmi). Buyraklar funksiyasi va ekskresiya jarayoni kunning vaqtiga qarab anchagina o'zgaradi. Amfetaminlarning buyrakdan chiqarilishi ko'p miqdor erta tongda kuchayadi (bu ehtimol siyidik ph muhiti o'zgarishi bilan bog'liq). Litiy tuzlari og'iz orqali qabul qilinganda, kunduzgiga qaraganda kechasi kamroq miqdorda ekskresiya buladi.

Shuning uchun, dorilar farmakokinetikasi va farmakodinamikasi siklik ritmga bog'liq. Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, dorilarning o'zlari kunlik ritmning fazalari va amplitudalariga ham bog'liq bo'ladi

Xronofarmakologiyada ma'lumotlar ko'lami cheklangan bo'lsada, uning kerakli qabul qilish vaqtini qo'llab rasional dozasini tanlash katta ahamiyatga ega.

Dori bilan davolashning asosiy turlari

Dori vositalaridan ma'lum kasalliklarning oldini olish uchun foydalanish mumkin. Bu *profilaktik davolash* deyiladi. Dezinfeksiyalovchi, ximioterapeutik dorilar va boshqalar shu maqsadda qo'llaniladi.

Etiotrop² (sabab va natija³) davolash kasallikning sababini yo'qotishga qaratilgan (shuning uchun antibiotiklar bakteriyaga, bezgakga qarshi dorilar – Bezugak plazmodiyalariga ta'sir qiladi).

1 Grekchadan pro - oldin phylaxis - qo'riqchi

2 Grekchadan aitia - sabab, tropos - yo'nash

3 Lotinchadan causa – sabab

Simptomatik davolashning asosiy vazifasi klinik simptomlarni yo'qotishdan iborat (misol uchun, og'riq) va shuningdek, patologik jarayon asosiga ahamiyatli ta'sir

ko'rsatish. Shuning uchun, ko'pgina hollarda simptomatik davolash kasallikning patogenezisini¹ davolash rolini o'ynaydi.

O'rinnbosar davolash tabiiy biologik faol moddalar yetishmovchiligin davolashda qo'llaniladi. Endokrin bezi yetishmovchiligida (diabetda, miksedema) tegishli gormonlar buyuriladi. Bunday davolashning davomiyligi kasallik tashhisiga qarab oyлarda va yillarda o'lehanadi.

Asosiy va salbiy ta'sir. Allergikreaksiyalar. Idiosinkraziya. Toksik ta'sirlar.

Dorilar ma'lum farmakoterapeutik ta'sirga erish uchun qabul qilinadi: misol uchun og'riqsizlantirish, gipotenziv dorilar arterial qon bosimini tushirish uchun qo'llaniladi va h.k. Bu dorining asosiy ta'sirining namoyon bo'llishidir. Tibbiyat amaliyotida dorilarni aynan shu maqsadda qo'llaniladi. Ammo, istalgan ta'sirlar bilan bir qatorda barcha dorilar salbiy ta'sirlarga, shu jumladan, noallergik nojo'ya ta'sirlarga, allergik reaksiyalarga, toksik va boshqa ta'sirlarga ega.

Noallergik nojo'ya ta'sirlar o'z ichiga faqatgina terapeutik dozalarni qo'llaganda va farmakologik faolligi darajasida bo'lган ta'sirlardir (2.15 Rasmga qarang). Shuning uchun, tutqanoqqa qarshi dori sifatida qabul qilingan fenobarbital uyquchanlikka sabab bo'lishi mumkin. Og'riq qoldiruvchi morfin terapeutik dozalarda eyforiyaga sabab bo'ladi va oshqozon ichak sfinkterlari tonusini oshiradi. Nojo'ya ta'sirlar asosiy va ikkilamchi bo'lishi mumkin.

Asosiy nojo'ya ta'sirlar dorining ma'lum substratga bevosita ta'siri ko'rinishida paydo bo'ladi (misol uchun, ko'ngil aynishi va quisish dorilarining oshqozon shilliq qavatini ta'sirlovchi ta'siri natijasida yuzaga keladi). Ikkilamchi nojo'ya ta'sirlar bilvosita rivojlanadigan salbiy reaksiyalarga aloqador bo'ladi (masalan, ichak saprofit florasining antibiotiklar bilan bostirilishi natijasida gipovitaminoz yuzaga kelishi).

Dorilarning salbiy ta'sirlari harakteriga, intensivligi va davomiyligiga ko'ra farqlanadi. Nojo'ya ta'sirlar nerv sistemasi, qon va qon hosil bo'lishi, organlarda qon sirkulyasiyasi, nafas organlari, hazm qilish, buyrak, endokrin bezlarga bo'lган ta'sirlardir.

¹ Grekchadan patheia - azoblanmoq, genesis - sabab.

Dorilar sabab bo'lgan salbiy ta'sirlar yana *allergik/ reaksiyalarni* ham o'z ichiga oladi. Ular dori dozasidan qat'iy nazar ancha tez tez uchraydi. Allergik reaksiyalarda dorilar antigenlar (allergenlar) sifatida faoliyat olib boradi. Dori allergiyalari (gipersezgirlik) odatda 4 ta turga bo'linadi:

1-tur. (tezkor allergiya). Ushbu tur gipersezgirlik IgE-antitanachalarning reaksiyaga qo'shilishi bilan bog'liq. U eshakemi, Kvinke shishi, rinitlar, bronxospazm va anafilaktik shok ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunday reaksiyalar penisillinlar, sulfanilamidlar qabul qilganda paydo bo'lishi mumkin.

2-tur. Bu tur allergiyada IgG va IgM-antitanachalar to'ldiruvchi sistemani faolashtirib, aylanayotgan qon hujayralari bilan o'zaro aloqaga kirishadi va ularning parchalanishiga sabab bo'ladi. Masalan, metildofa gemolitik anemiyaga, — trompositopenik purpuraga sabab bo'lishi va h.k.

3-tur. Bu tur allergiya ehtimol IgG va shuningdek IgM va IgE – antitanachalar (+to'ldiruvchi) o'z ichiga oladi. «Antigen – antitelo – to'ldiruvchi» kompleksi tomir endoteliumi bilan o'zaro aloqaga kirishadi va unga ziyon etkazadi. Penisillin, sulfanilanamidlar, yodidlar va boshqa dorilar bunga misol bo'ladi.

4-tur. Bu holatda reaksiya immunitet hujayra mexanizmi, shu jumladan sezuvchanligi oshgan T-limfositlar va makrofaglar orqali vositachilik qiladi. U dorining mahalliy qo'llanilganidan keyin paydo bo'ladi va kontakt dermatit ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Idiosinkraziya (yuqorida qarang) bir alohida shaxsdagi o'ziga xos salbiy ta'sirni bildiradi. Dori keltirib chiqargan idiosinkrazik reaksiyani juda jiddiy bo'lishi mumkin (gepatitlar, agranulositoz).

Dori moddalari toksik ta'simi ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu odatda bir yoki bir nechta organlar va tizimlar funksiyasi buzilishiga sabab bo'ladi (eshitish qobiliyatining pasayishi-ototoksik ta'sir, vestibulyar buzilishlar, ko'z nervi shikastlanishidan kelib chiqadigan ko'rlik, miokard o'tkazuvchanligining sezilarli buzilishi, jigar shikastlanishi, gematopoetik muammolar, uzunchoq miya hayotiy markazlarining faoliyatining susayishi).

Homiladorlik paytida qabul qilingan dorilar embrion va bachelonga tasir etishi mumkin. Bu tasirlar har xil nuqsonli nogiron bolalarning tug'ilishiga olib keladigan dorilarning *teratogen* ta'sirlarini o'z ichiga oladi.

Shuning uchun dori moddalari homiladorlik paytida juda ehtiyojkorlik bilan qo'llanilishi zarur.

Terotogenlik xavfini aniqlash qiyin bo'lgani uchun, ayollar homiladorlikning 1-trimestrida embrionning asosiy organlari rivojlayotganda, majburiy holatlardan tashqari, dorilar qabul qilishdan qochishlari maslaxat beriladi. Homiladorlikning birinchi uch oyligi teratogen ta'sir uchun juda xavfli davr hisoblanadi (ayniqsa, 3-8 haftalarda –organogenez davrida). Bu davrda embrionda nogironliklar paydo bo'lishi xavfi yuqori.

Bir paytning o'zida dorilar embrion va bachelonga teratogen ta'sir tusayli organogenez buzilishi bilan bog'liq holda nojoya ta'sir etishi mumkin. Dori moddasining nojoya ta'siri agar homiladorlikning 12 haftaligidan oldin ro'y bersa, bunday holat *embriotoksik*, keyinroq bo'lsa – *fetatoksi¹* ta'sir deb ataladi.

1. Grekechadan terasatos - maxluq, genesis - paydo bo'lish

2. Fokomeliya – suzgichhlarmigiga o'xshash oyoglar. Grekechada phoke - muhi, melos - oyog

3. Amela – oyoglarning bo'lmasligi

Dorilarni homilador ayollarga buyurilganda, ularning plasentadan o'tib homilaga ta'sir qilishini inobatga olish kerak. Shuning uchun homilador ayollarga buyurilgan streptomisin embrionni karlikka olib kelishi mumkin (8- just kranial nervga toksik ta'sir tusayli). Tetrasiklin embrion suyagining rivojlanishiga tasir o'tkazadi. Agarda homilador ayol narkotik moddalarga o'r ganib qolgan bo'lsa, yangi tug'ilgan chaqaloqda ham narkotik moddalarga jismoniy qaramlik kuzatiladi. Agar ayol tug'ishidan oldin antikoagulyant qabul qilgan bo'lsa, yangi tug'ilgan chaqaloqda qon ketishi mumkin.

Shuningdek dorilar ona sutidan emizikli bolaga o'tishini ham hisobga olishi kerak. Misol uchun, penisillin allergik reaksiyalar, sultanilamidlar – gemolitik anemiya, antikoagulyantlar – qon ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yangi dori ishlab chiqarayotganda kimyoviy mutagenlik va kanserogenlik kabi jiddiy salbiy ta'sirlarning ham potensial ehtimoli borligini yodda tutish lozim. *Mutagenlik*¹ dorining bolada genotip o'zgarishiga sabab bo'ladigan nojor'a ta'sir. *Kanserogen*² ta'sir-onkologik o'smalar rivojlanishiga sabab bo'ladigan ba'zi moddalar tufayli yuzaga keladi (masalan, chekuvchilarda nikotinning o'rka raki chaqirishi).

Dori moddalari bilan zaharlanishda davolashning umumiy prinsiplari.

O'tkir kimyoviy zaharlanish, shu jumladan dorilar moddalari bilan zaharlanish tez-tez ro'y beradi. Zaharlanish tasodifiy, oldindan ko'zlangan (suisidal³) va kasbga oid xavflar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Eng ko'p uehraydigan zaharlanish etil spirti, fosfoorganik birikmalar bilan zaharlanishdir.

Maxsus toksikologik markazlar va bo'limlar kimyoviy zaharlanishni davolash uchun barpo etilgan. O'tkir zaharlanishni davolashning asosiy vazifasi intoksikasiyaga sabab bo'lgan dorini tanadan chiqarib yuborishdir. Og'ir holatlarda bu avval hayotiy sistemalar funksiyasini, nafas olish va qon sirkulyasiyasini yaxshilashga qaratilgan umumiy terapeutik va reanimasiya chora-tadbirlar bilan boshlanishi kerak.

Detoksikasiya prinsiplari quyidagilardan iborat:

Zudlik bilan dorining so'rilibi, kirish yo'llarini to'sish zarur. Agar dori qisman yoki to'la so'rilib bo'lgan bo'lsa, uning tanadan chiqarib yuborilishi tezlashtirilishi, antidotlar yuborish, toksik ta'sirlarni neytrallashtirish va yo'qotish lozim.

¹ Lotinchadan fetus - surriyot; Grekehadan toxicon - zahar

Toksik moddalarning qonga so'rilibini to'xtatish.

Ko'p hollarda o'tkir zaharlanish dori qabusi sababidan ro'y beradi. Shuning uchun detoksikasiyaning eng muhim usullaridan biri-oshqozonni yuvishdir. Avval oshqozon ichidagilar moddalar chiqarib tashlanadi, keyin oshqozon issiq suv bilan

yuvib tashlanadi, natriy klorining izotonik eritmasi yoki faollashtirilgan ko'mir va boshqa antidotlar qo'shilgan kaliy permanganatini eritməsindən ham foydalaniлади. Oshqozon bir necha marta yuviladi (har 3-4 soatda).

Iehakdan dori so'rilişini to'sish uchun, adsorbentlar (faollashtirilgan ko'mir), Iehak yuvilishi ham shuningdek amalga oshiriladi.

Agar intoksikasiyaga sabab bo'lgan dori teriga yoki shilliq qavatlarga so'rigan bo'lsa, ularni yaxshilab oqar suvda yuvish zarur.

Agar toksik modda nafas olingen bo'lsa, uning nafas olinishi to'xtalishi lozim (jabrlanuvchini zaharlangan atmosferadan uzoqlashtirish yoki gaz-maska taqdirish). Toksik moddaning teri ichiga yuborilgan hollarida, uning qo'llanilgan joyidan so'rilişini susaytirish uchun epinefrin eritmasi in'eksiyasini o'sha joy atrofiga yuborish yoki o'sha joyni sovitish orqali ham (teriga muzli xaltacha qo'yildi) orqali kechiktirish mumkin. Bu barcha amallar dorining rezorbtiv toksik ta'sirini kamaytiradi.

B) Toksik moddaning tanadan chiqarilishi

Agar dori moddasi yoki toksik modda qonga so'rigan bo'lsa, birinchi yordam uni organizmdan chiqarib yuborilishiga qaratilgan bo'lishi zarur. Kuchli diuretiklar (furosemid, mannitol) yuborish, peritoneal dializ, gemodializ, gemosorbsiya, qon o'mini bosuvechi vositalar shu maqsadda qo'llaniladi.

Diuretiklar plazmada oqsillar bilan va yog'lar bilan bog'lanmagan moddalarni chiqarishga qodir. Bu usul qo'llanilganda, elektrolitlar balansiga e'tibor berish kerak, chunki bu moddalar organizmdan ko'p ionlarning chiqib ketishi sabab bo'lishi mumkin. O'tkir yurak-tomir yetishmovechiligidə, o'tkir buyrak yetishmovechiligidə diurez taqiqlanadi.

Gemodializ va peritonial dializ¹ shu maqsadda qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, *gemodializda* (sun'iy buyrak) – qon yarim o'tkazuvechi membrana bilan dializator orqali o'tadi va oqsilga bog'langan toksik moddalardan organizmdan chiqarib yuboriladi, (misol uchun, barbituratlar). Gemodializ arterial qon bosimining keskin tushishida taqiqlanadi.

Peritoneal dializ elektrolit eritma bilan peritoneal yuvishdir. Zaharlanish turiga qarab dorilarning qorin bo'shilig'iga eng tez chiqarilishiga yordam beradigan ma'lum dializ suyuqliklarni qo'llashdir. Dializ eritmalaridan tashqari, antibiotiklar infeksiyani oldini olish uchun buyuriladi. Ushbu usullarning yuqori samaradorligiga qaramasdan, ular universal emas, chunki barcha kimyoviy birikmalar ham yaxshi dializ bo'lmaydi (gemodiliaz davomida ya'ni dializ uskunasi yerim o'tkazuvchan membranasidan yoki peritoneal dializda qorindan o'tolmaydi).

Boshqa detoksikasiya usuli *gemosorbsiyadir*. Bu usulda qonda mavjud toksik moddalar maxsus shimuvcilarga shmdiriladi. (misol uchun, qon oqsili qoplamali granulali faollashgan ko'mirga). Bu metod antipsixotik dorilar, anksiolitiklar va fosfoorganik birikmalar bilan zaharlanganda tanani detoksikasiya qilishda samarali natija beradi. Ta'kidlash lozimki, bu usul shuningdek, qiyin dializ qilinadigan va gemodiliaz ijobjiy natija bermaydigan dorilarda ham samaralidir (shu jumladan, qondagi oqsillar bilan birikadigan dorilar).

O'tkir zaharlanishlarni davolashda qonni almashtirish ham qo'llaniladi. Bunday hollarda qonning chiqarib yuborilishi donor qon quyilishi bilan birlashtiriladi. Bu usul asosan bevosita qonga ta'sir qiladigan dorilarga qarshi amalga oshiriladi, misol uchun, metgemoglobin shakllanishiga sabab bo'ladigan (nitritlar, nitrobenzinlar va boshq).

1. Dializ (Grekcha dia - orqali, lysis - ozod qilish - engan moddadan kelloid zarrachalarini ajratib olish)

Shuningdek ushbu usul plazma oqsillari bilan mustahkam birlashgan og'ir molekulyar vaznli birikmalar bilan zaharlanishni davolashda samaralidir. Bu usui qon sirkulyasiyasi buzilishlarida va tromboflevitda taqiqlanadi.

Oxirgi yillarda *plazmoferez'* ma'lum dorilar bilan zaharlanishni davolashda keng qo'llanila boshladi. Plazmoferezda plazma boshqa qon birikmalaridan xoli ravishda olib tashlanadi. Undan so'ng, plazma donor plazmasi bilan yoki albuminli elektrolit eritma bilan almashtiriladi.

Agar zaharlanish o'pka bilan chiqarib yuboriladigan modda bilan sodir bo'lgan bo'lsa, majburiy nafas oldirish bunday terdag'i zaharlanishni davolashning eng

muhim yo'lidir, (misol uchun, ingalyasion moddalar bilan). Giperventilyasiya nafas stimulyatori – karbogen, shuningdek sun'iy ventilyasiya orqali amalga oshirilishi mumkin.

Toksik moddalarning tanada biotransformasiyasini kuchaytirish o'tkir zaharlanishni davolashda xech qanday ro'l o'ynamaydi.

V) So'rilgan toksik birikma ta'siriga qarshi vositalar

Agar toksik modda qonga so'rilgan bo'lsa, organizmning detoksikasiyasi uchun antidotlar² qo'llaniladi.

Antidotlar kimyoviy zaharlanishni maxsus davolash uchun qo'llaniladigan dorilardir. Ular toksik modda bilan kimyoviy yoki fizik o'zaro aloqaga kirishib noaktivlashtiradi, yoki bo'lmasa farmakologik antagonist ta'sir ko'rsatadi (reseptorlar darajasida)³. Masalan, og'ir metall tuzlari bilan zaharlanganda notoksi kompleks hosil qiladigan birikmalardan foydalilaniladi (misol uchun, unitiol).

1 Grekcha plasma - plazma, apharesis - chiqarib yuborish

2 Grekchadan antidoton - zaharga qarshi

3 Batafsilroq, antidotlar zahar bilan faqatgina kimyoviy-fizik o'zaro aloqaga kirishadigan birikmalardir (so'rilish, cho'kma hosil bo'lishi yoki no-faol komplekslar). Fiziologik mexanizmga asoslangan ta'sirli zaharga qarshi birikmalar (misol uchun «nishon» substrat darajasidagi antagonistik ta'sir) amaliyotda ta'sir mexanizmiga qaramasdan barcha zaharga qarshi birikmalar odatda antidotlar deyiladi.

O'tkir zaharlanishda, farmakologik antagonistlar keng qo'llaniladi (atropin, antixolinesteraz ta'sir ko'rsatsa, naloksin morfin bilan zaharlanishda qo'llaniladi).

G) O'tkir zaharlanishda simptomatik davolash

Sимптоматик даволаш о'tkir zaharlanishni davolashda muhim rol o'yнaydi. Bu ayniqsa maxsus antidotlari bo'limgan dorilar bilan zaharlanishni davolashda muhimdir.

Birinchi navbatda, hayotiy funksiyalarni – qon sirkulyasiyasiini va nafas olishni yaxshilash zarur. Yurak glikozidlari, gipotenziv yoki gipertenziy vositalari qo'llash,

periferik to'qimalarda mikrosirkulyasiyan yaxshilaydigan dorı moddaları va kislородли терапија ушбу мақсадда тез-тез қолланылади. Тутқаноq анксиолитик diazepam – tutqanoqqa qarshi sezilarli ta'sirga ega dorı bilan тоxtalishi mumkin. Miya shishida degidrasion терапија амалга ошырылади (mannitol va mannit bilan). Kuchli og'riqlarda наркотик analgetiklar yuboriladi (morfin, promedol va h.k.). Alohida e'tiborni kislota-ishqor muvozanatini tiklashga qaratish lozim.

D) O'tkir zaharlanishni oldini olish

Eng asosiy мақсад о'tkir zaharlanishni oldini olishdir. Bunga erishish uchun dorı moddalarini to'g'ri dozalarni buyurish va ularni tibbiyot bo'limgarida va uyda to'g'ri saqlash zarur. Dorilar shkaflarda yoki muzlatgichda ovqatlar bilan birgalikda saqlanmasligi lozim. Dorilarni saqlash joylari bolalar qo'li etmaydigan joylarda bo'lishi zarur. Uyda keraksiz dorilarni saqlash shart emas. Muddati o'tgan dorilardan foydalanmaslik kerak. Dorilar nomlari yozilgan tegishli etiketkalarga ega bo'lishi kerak. Dorini qabul qilayotganda shifokor maslahatlariga amal qilish va dozani oshirib yubormaslik kerak. O'zboshimcha davolanish mumkin emas, chunki bu odatda o'tkir zaharlanishga va boshqa salbiy ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Ushbu talablarga rioya qilish sezilarli darajada o'tkir zaharlanishlarni kamaytiradi.

XUSUSIY FARMAKOLOGIYA

Xususiy farmakologiya dori moddalarini guruhlari va tibbiyot amaliyatida alohida ahaliyatga ega dori vositalarining farmakodinamikasi va farmakokinetikasini o'rjanadi.

Neyrotrop dori moddalar

Ushbu bo'lim xususiy farmakologiyaning anchagini katta bo'limi organizm funksiyalarini nazorat qiluvchi markaziy nerv tizimiga ta'sir qiluvchi dori moddalariga bag'ishlanadi.

Neyrotrop dori moddalarini ikki guruhga bo'linadi:

1. Periferik innervasiyaga ta'sir etuvchi dori moddalar;
2. Markaziy nerv tizimiga ta'sir etuvchi dori moddalar;

Periferik innervasiyaga ta'sir etuvchi vositalar 2 ta guruhga bo'linadi:

- A. Afferent innervasiyaga ta'sir etuvchi dori moddalar;
- B. Efferent innervasiyaga ta'sir etuvchi dori vositalari

1 – BOB. Afferent innervasiya sezuvchi nerv oxirlari va sezuvchan nerv tolalaridan iborat.

Sezuvchan nerv oxirlari (sezuvchan reseptorlar) to'qimalarda va organlarda joylashgan bo'lib, ta'sirlarni impulslar orqali markaziy nerv tizimiga sezuvchan nerv tolalari orqali tarqatadi. Sezuvchi reseptorlarga og'riq sezuvchi reseptorlar (noniseptorlar), tana haroratini, taktil, xid sezuvchi, tam sezuvchi va boshqa reseptorlar kiradi.

Afferent innervasiyanı falajlovechi dori moddalar.

Ushbu guruhga afferent nerv oxirlarida sezuvchanlikni susaytiruvechi yoki falajlovechi vositalar kiradi(maxalliy anestetiklar). Bundan tashqari ushbu guruhga sezuvchan nerv oxirlariga ta'sirlovechi omillarni falajlovechi vositalar (ta'sirlovechi, or'rab oluvechi, burishtiruvechi, adsobsiyalovechi) kiradi.

Mahalliy anestetiklar

Mahalliy anestetiklari(grekcha: Anesthesia-og'riq, an-inkor) ular nafaqat sezuvechan nerv tolalari orqali qo'zg'aluvchanlikning o'tishini falajlash, balki harakatlantiruvchi nerv tolalarini ham falajlaydi. Mahalliy anestetiklar birinchi navbatda og'riq sezuvechi reseptorlarni, keyin boshqa reseptorlarni falajlaydi. Shuning uchun, ushbu guruh vositalari mahalliy og'riq qoldiruvchi- anestetiklar sifatida qo'llaniladi. Maxalliy anestetiklar kuchsiz asoslar hisoblanib, ular ionlashmagan holda hujayra membranalari orqali eksonlarga surilib, ionlashadi. Natriy kanallarini falajlab. Na'nинг hujayra ichiga surilishga va depolyarizasiya jarayoniga to'sqinlik qiladi. Natijada, impulsarning nerv tolalari orqali o'tishi falajlanadi. Mahalliy anestetiklarning ta'siri qaytar ta'sir bo'lib, ularning ta'siri ph past muhitda sust bo'ladi. (**1.1-rasm**).

Mahalliy anesteziyaning quyidagi turlari mavjud:

Yuza (terminal) anesteziya


Ushbu anesteziya turida yuzadan tez suriluvechi dori moddalari ishlataladi. Ushbu anesteziya qo'llanilganda oldin og'riq sezish yo'qoladi keyin sovuq va issiq sezish undan so'ng, taktil sezuvechanlik yo'qoladi. Terminal anesteziyadan oftalmologiyada kon'yuktivani og'rizsizlantirishda, otolaringologiyada keng foydalaniлади. Mahalliy anestetiklarning ta'sir davomiyligini uzaytirish uchun adrenomimetiklar(adrenalin)lar bilan birqalikda qo'llaniladi.

O'tkazuvechi anesteziya ma'lum nerv tolalari atrofidagi to'qimaga yuboriladi. Sezuvechan nerv tolalari falajlanadi. Ushbu anesteziya turidan jarrohlik operasiyalarida, stomatologiya amaliyatida keng foydalaniлади. O'tkazuvechi anesteziyaga epidural(peridural) va orqa miya anesteziyasini ham kiradi. Epidural anesteziyada anestetik orqa miya qattiq to'qima oralig'iga yuboriladi. Natijada tananing pastki sohasida sezuvechanlik yo'qoladi. Orqa miya anesteziyasida esa, anestetik orqa miya bel sohasida orqa miya suyukligiga yuboriladi. Natijada tananing pastki sohasida sezuvechanlik yo'qoladi. Infiltrasion anesteziya-keng qo'llaniladigan anesteziya turi hisoblanib, to'qimaga anestetikni qavatma-qavat yuborish yo'li bilan erishiladi. Infiltrasion anesteziya uchen anestetiklarning past


konsentrasiyalarda(0.25-0.5%) katta miqdorda(200-500 ml) yuboriladi. Ushbu anesteziya turidan ichki organlar operasiyalarida foydalaniлади.

Hozirgi kunda tibbiyotda qo'llaniladigan anestetiklar quyidagi turlarga bo'linadi:

A



B



quyidagi turlarga bo'linadi:

A) Murakkab efirlar: kokain, tetrakain, benzokain, prokain;

B) Kislota amidlari: lidokain, trimekain, bupivakain, mepivakain, bumekain, artikain;

Amiddar qon plazmasi va to'qimalarda esteraza ta'sirida gidrolizlanmaydi, shuning uchun ularning ta'siri murakkab effirlarga nisbatan davomli. (1.1-rasm).

Tibbiy amaliyotda qo'llanilgan birinchi og'riqsizlantiruvchi vosita kokain – erit Oqsilon koka (janubiy Amerika o'stiriladi) o'simligi alkaloidi bo'lgan. Benzoy kislotosi va metilekgoninning murakkab effiri hisoblanadi. Yuqori anestetik faolligiga ega bo'lib, bu borada novokaindan ham o'tadi (1.1-jadva!). Kokain shilliq qavatlardan tez so'rilib, rezroptiv ta'sir ko'rsatadi. Uning toksik ta'siri yuqori qavatlardan tez so'rilib, rezroptiv ta'sir ko'rsatadi. Uning toksik ta'siri yuqori

1.Yuza-terminal anesteziyada

qo'llaniluvchi vositalar:

kokain, tetrakain(dikain),

benzokain(anestezin),

bumekain(piromekain);

2.Infiltrasion va o'tkazuvchi

anesteziyada qo'llaniluvchi

vositalar: prokain(novokain),

trimekain, bupivakain,

mepivakain(izokain),

artikain(ultrakain);

3.Anesteziyaning hamma

terlari va qo'llaniluvchi

vositalar: lidokain(ksikain);

Kimyoviy tuzilishi bo'yicha


bo'lganligi tufayli tibbiyotda keng qo'llanilmaydi. Asosan oftalmologiyada kon'yuktivaga tomizish uchun qo'llaniladi. Anesteziya 1 soat davom etadi. U sklera tomirlarini kuchli toraytirib, qorachiqni kengaytiradi. MNSga stimullovchi ta'sir ko'rsatib, eyforiya chaqiradi, psixomotor qo'zg'alishlar yuzaga keladi. Katta dozalarda nafas markazini falajlaydi. Taxikardiya chaqirib, qon bosimini ko'tarishi mumkin.

1.1-jadval. Ba'zi anestetiklarning nisbiy og'riqsizlantiruvchi faolligi va zaharliligi

| Preparat | Anesteziya vaqtida faolligi | | | Zaharliligi |
|-----------|-----------------------------|--------------|-------------|-------------|
| | yuzaki | infiltrasion | o'tkazuvchi | |
| Kokain | 1 | 3-5 | 1-9 | 3-5 |
| Dikain | 10-20 | 10-20 | 10-20 | 10-15 |
| Novokain | 0.1 | 1 | 1 | 1 |
| Trimekain | 0.4 | 3-3.5 | 2.5-3.5 | 1.2-1.4 |
| Lidokain | 0.5 | 2-4 | 2-3 | 1.5-2 |

Drugs of plant origin


Benzoylcegonine ester




Cocaine

Synthetic drugs

α -amino benzoid acid ester



Substituted anesthetics



Kokain bilan o'tkir zaharlanishda eng avvalo uning yuborilgan joyida uning so'rilishini kamaytirish kerak bo'ladi. Agar bu ovqat hazm qilish trakti bo'lsa oshqozonni yuviladi (0,05-0,1% li kaliy permanganati), adsorbsiyalovchi va tuzli surgi vositalari beriladi.

Yuza anesteziya uchun qo'llaniladigan preparatlarga dikain (tetrakain gidroxlorid) ham kiradi. Bu kimyoiy paraaminobenzoy kislotasi bo'lib, suvda va spirtda tez eriydi. Faolligi bo'yicha u kokaindan 10 barobar kuchliroq, lekin 2-5 barobar zaharlairoq hamdir (1,1-jadval). Dikaindan ko'z ichki bosimini o'lehashda 0,1% li eritmasidan, oftalmologiya operasiyalarida 0,5% li eritmalaridan foydalaniadi. Dikain tomirlarni kengaytiradi, shuning uchun shilliq qavatlarning anesteziyasida uni adrenalin yoki boshqa adrenomimetiklar bilan birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ba'zi hollarda dikainni epidural anesteziyaga qo'llanadi.

Bumekain(piromekain)dan stomatologiya amaliyotida yuza anesteziyasida 0,5-2% li eritmasi yoki 5% li surtmasidan foydalaniadi.

Benzokain rektal shamehalar shaklida proktologiya amaliyotida ham qo'llaniladi, masalan: "Anestezol" shamchasi.

Asosan infiltrasion va o'tkazuvchan anesteziya uchun novokain qo'llaniladi.

Novokain (prokain) – paraaminobenzoy kislotasining β -dietilaminoetilli esfridir. Tibbiyot amaliyotida gidroxlorid ko'rinishida ishlataladi. Ta'sir davomiyligi 30-60 min. Toksik ta'siri kam. (1,1 jadvalga qarang).

Kokaindan farqli ravishda novokain tomirlarni toraytirmaydi. Ullarning tonusi o'zgarmaydi yoki biroz pasayadi, shuning uchun tez-tez novokainning eritmalariga adrenomimetiklar qo'shiladi (masalan adrenalin). Tomirlarni toraytirib va novokainning so'rilishini sekinlashtirib, adrenomimetiklar uning og'riqsizlantruvchi ta'sirini kuchaytiradi va davomiyligini oshiradi, shuningdek uning zaharliligini ham kamaytiradi.

Novokainning yurak qon tomir tizimiga gipotenziv ta'sir ko'rsatadi, shuningdek qisqa muddatli antiaritmik ta'sirga ega. Organizmda novokain to'qimalarda tezda gidrolizlanadi. Uning asosiy metaboliti bo'lib dietilaminoetanol va paraaminobenzoin kislotalar hisoblanadi. Shuni hisobga olish kerakki, oxirgisi

sulfanilamid guruhidan bo'lgan antibakterial vositalarning antagonist raqobatchisi hisoblanadi.

Bupivakain gidroxloridi (merkain) keng qo'llaniladi. Kimyoviy tuzilishi va farmakologik hossalariga ko'ra lidokainga yaqin turadi. Yuqori faollikkha ega va uzoq muddatli ta'sirga ega mahalliy og'riqsizlantiruvchi vosita hisoblanadi. O'tkazuvchi (ayniqsa orqa miya) va infiltrasion anesteziya uchun qo'llaniladi. Ta'siri 5-10 daqiqa davomida rivojlanadi. Epidural yuborilganda anesteziya 3-4 soat davomida saqlanadi, qovurg'alararo nervlarning blokadasida 7-14 soatgacha davom etadi. Nojo'ya ta'sirlari: kardiotoksik(yurak qorinchalarining aritmiyasi, QRSning uzaytirilishi va miokard qisqarishning pasayishi bilan ifodalanadi) va MNT ga (uyquchanlik, nistagm, tirishish va h.k.) xossasiga ega. Bu holatlар uning dozasini oshirib yuborilganida paydo bo'ladi.

Anesteziyaning barcha turlarida lidokain keng qo'llaniladi. Shuning uchun ham universal anestetik deb hisoblanadi (ksikain, ksilokain). U yuza, infiltrasion, o'tkazuvchan, peridural, subaraxnoidal va boshqa turdag'i og'riqsizlantirish uchun mo'ljallagan.

Og'riqsizlantiruvchi faolligi novokaindan 2.5 barobar kuchli va 2 barobar davomiyroq. Shunday qilib, novokainning adrenomimetiklar bilan birgalikda qo'llanishi 1.5-2 soat davomiylikka ega og'riqsizlantirishni yuzaga keltiradi. Lidokain esa – 2-4 soat (0.5% eritma).

Lidokain to'qimaga qichishtiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Kon'yuktivit bo'shiligiga tomizilganda qorachiqning hajmi va tomirlar tonusiga ta'sir o'tkazmaydi.

Lidokainni adrenalin bilan birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq (bunda zaharliik darajasi kamayadi va anesteziyaning davomiyligi oshadi).

Lidokain bilan zaharlanishda uyquchanlik, ko'rish qobiliyatining buzilishi, ko'ngil aynishi, qaltiroq, tirishish kuzatiladi. Og'ir holatlarda yurak qon tomir buzilishlari, nafas olishning qiyinlashuvi holatlari yuzaga keladi.

Lidokain va uning metabolitlari sulfanilamidlar bilan raqobatli ta'sirga kirishmaydi. Lidokainni (yoki trimekain) qo'llash asosan novokain va boshqa paraaminobenzoin kislotasining mahsullarini individual qabui qila olmaslik holatlarida ham tavsiya

etiladi. Lidokain aritmiyaga qarshi samarali vosita sifatida ham qo'llaniladi. Barcha turdag'i anesteziyada tuzilish jihatidan lidokain bilan o'hshash trimekain ham ishlataladi. Preparat novokaindan 2-3 barobar faolroq, biroq zaharlilik darajasi biroz Yuqoriroq. Novokaindan ko'ra davomliroq ta'sir etadi (2-4soat). Terini qichishtirmaydi. Tez-tez adrenalin bilan birga qo'llaniladi. Yuza anesteziya uchun samarasini kamroq.

Trimekain bosh miya po'stlog'i va miya stvolining retikulyar formasiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Tinchlantiruvechi, uxlatuvechi, tirishishga qarshi dori vositasi hisoblanadi. Trimekainni asosan infiltration va o'tkazuvchi anesteziyalarda qo'llaniladi.

Kuchsiz antiaritmik ta'sirga ega. Narkotik, uxlatuvechi, antipsixotik vositalar ta'sirini kuchaytiradi.

Burishtiruvchi vositalar

Ularni teri va shilliq qavatning yallig'lanish jarayonida davolashda qo'llaniladi. Ushbu preparatlar yuborilgan joyda kolloidli plyonka hosil qilib, nerv oxirlarida qo'zg'алишнинг oldini oladi va og'riq hissini kamaytiradi. Bundan tashqari, tomiriarning mahalliy toraytirib, ularning o'tkazuvchanlik kamaytiradi. Ekssudasiya jarayonini susaytiradi. Bularning barchasi yallig'lanish jarayonining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Burishtiruvchi vositalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

A) organik

Tanin - eman po'stlog'i qaynatmasi

1) yunonchadan, *phlogizo-alangalantirmoq*

2) noorganik

Qo'rg'oshin asetat

rux oksidi

Vismut nitrati asosiy

sink sulfat

Achehiqtosh

mis sulfat

Kumesh nitrat

Tanin – gallodubil kislota. Osiyo emani oиласига mansub о'simliklar bo'lgan mozi (gallaе түрсіке) dan olinadi. Eritmalar va surtma ko'rinishida qo'llaniladi. Ularga noorganik birikmalardan eng ko'p e'tibor rux preparatlariga qaratiladi – rux asetat [Pb(CH₃COO)₂·3H₂O]; vismut–vismut nitrati BiNO₃(OH)₂·BiONO₃ va BiOOH; alyuminiy – acheniqtoш KAl(SO₄)₂·12H₂O; rux – rux oksidi (ZnO) va rux sulfat (ZnSO₄·7H₂O); mis – mis sulfat (CuSO₄·5H₂O); kumush – kumush nitrat (AgNO₃). Kam konsentrasiyalarda ular burishtiruvchi ta'sir ko'rsatadi, yuqori konsentrasiyalarda esa kuydiruvchi (albuminatlar hosil bo'lib oqsillar cho'kadi). Burishtiruvchi vositalarni teri va shilliq qavatning yallig'lanishida malham, surtma, chayish uchun, bosim ostida suv purkab yuvish tarzida beriladi. Bundan tashqari ovqat hazm qilish traktining yallig'lanish jarayonlarida (enterit, kolit) ularni ichga ham qabul qilinadi. Tanin eritmاسини kuygan joylarga mahalliy qo'llaniladi. Bundan tashqari, og'ir metall tuzlari bilan zaharlanishda va alkaloidlar tuzlari bilan zaharlanishda ichga qabul qilinadi (agar oshqozonda bo'lsa). Oxirgi moddalar bilan tanin erimaydigan birikmaga kirishib, ularning so'riliшiga to'sqinlik qiladi. Biroq ba'zi alkaloidlar (morphin, atropin va boshqalar) bilan turg'un bo'limgan komplekslar hosil qiladi. Shuning uchun ham oshqozonni zudlik bilan yuvish kerak bo'ladi.

Qamrab oluvchi vositalar

Qamrab oluvchi vositalar shilliq qavatni o'rab olib sezuvchan nerv tolalarining qo'zg'алишига to'sqinlik qiladi (1.2. rasmga qarang). Qamrab oluvchi moddalarga kraxmal shilimshig'i, zig'ir shilimshig'i va boshqalar kiradi. Ularni asosan oshqozon ichak traktining yallig'lanish jarayonlarida, shuningdek ta'sirloвchi hususiyatга ega bo'lgan moddalar qabul qilinganda oshqozon shilliq qavatini himoyalash maqsadida bиргаликда qabul qilinadi. Qamrab oluvchi vositalar rezorbтив ta'sirga ega bo'lmaydi.

Adsorbsiyalovchi vositalar

Adsorbsiyalovchi vositalar o'zida suvdа erimaydigan va to'qimalarni qichishtirmaydigan, katta miqdorda so'ruchanlik xossasiga ega bo'lgan yuzali, kukunsimon moddalardan iborat. Teri yoki shilliq qavatga surtilganda ular o'z yuzasiga kimyoviy birikmalarni so'rib, ayni shu yo'l bilan sezuvchan nerv

tolalarining oxirlarini qo'zg'alishdan himoya qiladi. Bundan tashqari teri qoplamasi va shilliq qavatni yupqa qavat bilan qoplab so'ruechi vosita mexanik tarzda sezuvechan nerv tolalarining oxirlarini himoya qiladi (1.2. rasmga qarang). Masalan, talk ($4\text{SiO}_2\text{-}3\text{MgO}\text{-}\text{H}_2\text{O}$) teriga surtilganda bezlarning ajratmasini so'rib oladi, terini quritib, uni mexanik qizarishlardan saqlaydi. Kimyoviy birikmalar bilan zaharlanish vaqtida adsorbsiyalovchi vositalar (masalan, faollashtirilgan ko'mir) dan foydalanish o'ta muhim sanaladi. Faollashtirilgan ko'mir ichga qabul qilishga taysiya qilinganda, zaharli moddalarni so'rib olib, ularning organizmga so'rilingning sekinlashtiradi yoki to'htadi va shu yo'l bilan o'tkir zaharlanishni kamaytiradi. Bundan tashqari adsorbsiyalovchi vositalarni diareya vaqtida (zaharli moddalarni so'radi), meteorizmda (vodorod sulfidni so'radi) qo'llaniladi.

Preparatlar

| Nomlari | Kattalar uchun o'rtacha terapeutik doza | Chiqarilish shakli |
|---------------------------------------|--|--|
| 1 | 2 | 3 |
| Og'riqsizlantiruvchi vositalar | | |
| Dikain - <i>Dicainum</i> | kon'yunktivitlar bo'shlig'iga 2-3 tomchi 0.25-2% li eritma, otorinolaringologiyada 2-3ml, 0.5-1% eritma | kukun, dikainli ko'z plenkalari |
| Anestezin <i>Anaesthesia</i> | - ichga 0.3g, to'g'ri ichakka 0.05-0.1g, shilliq qavatlarga 5-20%li yog'simon eritma, teriga 5-10%li maz va sepki | Kukun, 0.3g li tabletkalar; 5%li maz |
| Novokain <i>Novocainum</i> | - infiltration og'riqsizlantirish uchun 0.25-0.5%li eritma; o'tkazuvchan og'riqsizlantirish uchun 1-2%li eritma, peridural og'riqsizlantirish uchun 2%li eritma, orqa miya og'riqsizlantirishi uchun 5%li eritma, terminal anesteziya uchun 10-20%li eritma, ichga 30-40ml 0.25-0.5%li eritma (sekin!) | Kukun; 0.25-0.5%li eritmalar 1,2,5,10 va 20ml li ampulalarda, 1-2%li eritmalar 1,2,5,10 va 20ml li ampulalarda, 0.25-0.5%li sterilangan eritmalar 200 va 400ml li flakonlarda; 5 va 10%li mazlar; 0.1g li to'g'ri ichak qalamchalari |

| | | |
|---|---|---|
| trimekain <i>Trimecamum</i> | infiltrasion og riqsizlantirish uchun 0,125-0,25% - 0,5%li eritma, o'tkazuvchan og riqsizlantirish uchun 1-2%li eritma, peridural og riqsizlantirish uchun 1 - 1,5 - 2%li eritma, orqa miya og riqsizlantirish uchun 5%li eritma, yuzaki og riqsizlantirish uchun 2 - 5%li eritma | Kukun, 0,25%li eritmalari 10 ml li ampulalarda, 2, 5 va 10 ml li ampulalarda 0,5%li eritma, 2%li eritmalar 1,2,5 va 10 ml li ampulalarda, 5%li eritma 1 ampulalarda, 5%li eritma 1 va 2ml larda |
| Lidokam gidroxlorid - <i>Lidaciam hydrochloridum</i> | infiltrasion og riqsizlantirish uchun 0,25-0,5%li eritma, o'tkazuvchan og riqsizlantirish uchun 1-2%li eritma, terminal anesteziya uchun 1-5%li eritma, | 0,25-0,5%li eritmalari 1,2,5,10 va 20ml li ampulalarda, 1-2%li eritmalar 1,2,5,10 va 20ml li ampulalarda |
| Burishtiruvchi vositalar | | |
| Tanin - <i>Tannumum</i> , | og'iz, burun, halqum, inqildiq chayish uchun 1-2%li eritma (suvi, gisirimli), shikastlangan yuzalarga surtish uchun 3-10%li eritma va maz | Kukun, 4%li spirh eritmasi 25mlli flakonlarda |
| ceman po'stlog'i damlamasi - <i>Decoctum cortices Quercus</i> | chayish uchun damlama 1 10, sirtga (kuygan joylarni davolashda) 1 50 damlama | damlamalar 1 10 va 1 5 |

2-BOB. NERV OXIRLARIGA TA'SIR ETUVCHI VOSITALAR

Ta'sirlovchi vositalar

Xantal qog'ozlari (gorechichniklar), mentol, novshadil spirti, kamfora spirti, garmdorili plastir teri va shilliq pardalardagi sezuvchan nervlarni ta'sirlab, mahalliy hamda reflektor ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, teri va shilliq pardalarda reseptorlar ko'p, ularga og'riq, harorat, kimyoviy omillar tanlab ta'sir ko'rsatadi. Reseptorlar o'tkazuvchi tizimlar orqali nerv markazlari bilan bog'langan. Ushbu reseptorlar ta'sirlansa, impulslar oqimi markaziy nerv sistemasiga ko'tariladi, unga javoban reflektor jarayonlar quyida joylashgan a'zolarga, to'qimalarga, qon tomirlariga etib keladi. Reflektor ta'sir bo'lishi uchun modda jarohatlangan a'zo bilan orqa miyaning bir xil segmentidan terining trofik (sezuvchan) innervasiya oladigan joyiga qo'yiladi. Masalan: biron a'zoda yallig'lanish jarayoni bo'lsa, shu erdan og'riq impulsleri orqa miya segmentiga, u erdan markaziy nerv sistemasiga etib boradi, nerv markazlarida qo'zg'alish o'choqlari paydo bo'ladi. Agar terining kerakli joyiga xantal qo'yilsa, shu erda yangi impulsler nerv sistemasining boshqa markazlariga reflektor yo'llar orqali o'tib, qo'shimcha qo'zg'aluvechan o'choq hosil qiladi, shu tufayli og'riq berib turgan o'choqlar esa so'na boshlaydi, og'riqlar kamayib boradi. Reflektor jarayonda somatik va vegetativ nervlar qatnashadi. Vegetativ nervlar qo'zg'alishi tufayli jarohatlangan a'zolarning qon bilan ta'minlanishi o'zgaradi, yallig'lanish jarayoni ham kamayib boradi.

Ta'sirlovchi moddalar mahalliy ta'sirga ega, ba'zilari terida gistamin, bradikininlarni ajratib, qon tomirlami kengaytiradi, teri qizaradi, to'qimalaming oziqlanishi yaxshilanadi. Ba'zi moddalar (mentol) qo'yilgan joyni sovitib, shu erdag'i qon tomirlami qisqartiradi.

Ba'zi ta'sirlovchi vositalarning kimyoviy tuzilishi



Allilizotiosianat.

Xantal qog'ozlari xantal urug'ining kukuni surtilgan qog'ozlardir. Xantal glikozid sinegrin va ferment mirozindan iborat. Xantal qog'ozlari iliq (40°) suvda ho'llanganda mirozin fermenti ta'sirida sinegrin parchalanadi va ta'sirlaydigan xantal — efir moyi hosil bo'ladi. Xantal qog'ozlari ta'sirlashi uchun ularni albatta iliq suvda ho'llab, keyin kerakli joyga qo'yish kerak. Xantal qog'ozlari nafas a'zolari kasalliklarida, stenokardiya (yurakda qattiq og'riq paydo bo'lganda), mialgiya, nevralgiyada qo'llaniladi. Xantal qog'ozlari «chalgitish» xususiyatiga ega. Masalan: stenokardiyada xantal yurak atrofiga qo'yilgandan keyin reflektor yo'l bilan yurak toj tomirlarini kengaytiradi, miokardni qon bilan ta'minlanishi yaxshilanadi va og'riq kamayadi, xantal yuqori nafas yo'llari yalligianishida qo'yilganda ham reflektor yo'l orqali shu joylarda qon bilan ta'minlanish oshib boradi. Gipertoniya krizlarida xantal qog'ozlari oyoq tagiga qo'yilsa, bosh miya tomirlarida qon kamayib, qon bosimi biroz bo'lsa ham pasayadi. Ta'sirlovchi moddalar a'zolar to'qimalarida moddalar almashinuvini oshiradi. Efir moylari, masalan, *mentol* teri shiliqlarida joylashgan «sovuuq» reseptorlami qo'zg'atadi, modda qo'yilgan joy keskin soviydi, shu erda joylashgan yuza qon tomirlari torayadi, reflektor yo'l orqali yurak va miya tomirlari kengayadi. Shuning uchun tarkibida mentol bo'ladigan moddalar, masalan: validol stenokardiya kasalligida til ostiga qo'yiladi. (8 bo'limga qarang)


Mentolning suvli, spirtli eritmalari va malhamlari quloq, burun, og'iz, teri kasalliklarida qo'llanadi, bunda shish, yallig'lanish va og'riq kamayadi. Nevralgiya, mialgiya va artralgiyalarda mentolning spirtli eritmasi va moydag'i suspenziyasi teriga surtiladi.

Novshadil spirti ham ko'p qo'llanadigan ta'sirlovchi modda hisoblanadi. Modda hidlanganda nafas yo'llaridagi reseptorlar qo'zg'aladi va impulslar reflektor yo'l bilan markaziy nerv sistemasiga o'tib, uzunchoq miyadagi nafas markazini qo'zg'atadi, nafas olish tezlashadi, chuqurlashadi. Novshadil spirti hemor hushdan ketganda, alkogol va boshqa markaziy nerv sistemasini tormozlovlachi moddalar bilan

zaharlanganda hidlatiladi hamda og'izga to'mehikab yuboriladi. Yuqori konsentrasiyada uzoq vaqtgacha qo'llanganda nafasni to'xtatib qo'yishi mumkin. Novshadil spirti mikroorganizmlarga qarshi xususiyati bo'lganligi tufayli xirurgiyada antiseptik modda sifatida ham qo'llaniladi. Achehiq, surgi, safro haydovechi, balg'am ko'chiruvechi moddalar ham ta'sirlovchi xususiyatga ega.

3-BOB. XOLINERGIK INNERVATSIYAGA TA'SIR ETUVCHI MODDALAR

Efferent innervatsiyaga vegetativ nervlar (ichki organlarni, qon tomirlarni, ichki sekretsiya bezlarini innervatsiya qiladi) va mushaklarni harakatlantiruvechi nervlar kiradi. Vegetativ innervatsiyada neyroeffektor sinapslarda ajratilinuvechi mediatorlar bilan bog'liq ravishda nervlar quyidagilarga ajraladi: xolinergik yoki parasimpatik (mediator - atsitsilxolin) va adrenergik yoki simpatik (mediator-noradrenalin). Vagitativ nervning efferent yo'li ikki neyronidan tashkil topgan: preganglionar va ganglionar. Xolinergik (parasimpatik) innervatsiyasida preganglionar neyronlar tanasi kraniosakral lokalizatsiyaga ega (1-rasm). Kranial yadrolar o'rta va uzunchoq miyada joylashgan. Shunga ko'ra xolinoergik tolalar bosh miya suyagidan chiquvchi III(n.oculomotorius), VII(n.facialis), IX(n. glossopharyngeus) va X(n. vagus) juft nervlar bilan birgalikda chiqadi. Sakral qismida esa preganglionar neyronlar orqa miya kulrang moddasining yon shoxlaridan boshlanadi.



1-rasm. Xolinergik va adrenergik innervatsiyaning umumiy sxemasi. Orqa miyaning C, Th, L, S - segmentlari

Adrenoergik innervatsiyada preganglionar neyronlar asosan orqa miyaning tarakalumbal bo'limi (C_8 - Th_1 - L_3) yon shoxlarida joylashgan.

Xolinergik va adrenoergik innervatsiyasining preganglionar neyronlarning aksonlari vegetativ gangliylarda tugaydi, va erda ganglianar neyronlar bilan sinaptik (kontakt) aloqa o'rnatadilar. Simpatik gangliyalar organlardan tashqarida, parasimpatiklar esa ko'pincha organlar ichida joylashadi. Simpatik va parasimpatik ganglia larning asosiy mediatori bo'lib asetilxolin hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, vegetativ xolinoergik va adrenoergik innervatsiya 2 neyronidan tashkil topgan. Xromofill hujayralardan tashkil topgan byurak ustı bezi mag'iz moddasining effernt nervlari bundan mustasno. Shuning uchun byurak ustı bezi mag'iz moddasini innervatsiyasida faqat "preganglionar" (xolinoergik) neyronlar, uning mediatori bo'lib asetilxolin hisoblanadi.

Ichki organlar innervatsiyasida *purinergik sistema* ham ishtirok etishi aniqlangan. Ma'lumki, xolinoergik va adrenoergik totalarda vezikula holda ATP mavjud bo'ladи, buni o'z navbatida mediator deb hisoblash mumkin(yoki ko-mediator). Periferik

nerv oxirlaridan ajralgan ATP va uning parchalanishidan hosil bo'lgan oxirgi mahsulot adenozin bo'lib, u o'z navbatida ichak silliq mushaklarni qisqarishlariga susaytiruvechi ta'sir ko'rsatadi, shuningdek bronx mushaklarini bo'shashtiradi, qon tomirlarini kengaytiradi, qovuqqa qisqartiruvechi ta'sir ko'rsatadi. Maxsus Purinergik tolalar borligi qayd etilgan. 2 tipdag'i purinergik reseptorlar bor deb hisoblanadi. P₁ (adenazinga ko'proq sezgir bo'lgan), P₂ (ATP ga ko'proq sezgir bo'lgan). O'z navbatida P₁ reseptorlar yana 2 guruhga bo'linadi: adenazinli A₁ reseptorlar (adenilatsiklazani ingibitorlovechi) va A₂ reseptorlar (adenilatsiklazani aktivlashtiruvechi). Presinaptik ta'sir etib, adenozin mediatorlari hosil bo'lismeni susaytiradi. Shuni qayd etish kerakki, adenozin afferent nerv oxirlaridagi reseptorlarni stimullaydi.

Bundan tashqari, periferik *dosaminergik neyronlari* ham mayjud. Simpatik gangliylarda dosaminergik neyronlar borligi ayon. Shu bilan birga, maxsus dosaminergik neyronlar aniqlanib, ular o'z navbatida musbat inotrop ta'sirni namoyon etib, buyrak, yurak, miya qon tomirlariga kengaytiruvechi ta'sir ko'rsatadi. Dofamin reseptorlari besh guruhga bo'linadi: D₁-reseptori (guruhechalarga-D₁, D₅) va D₂ reseptori (guruhechalarga- D₂, D₃, D₄). D₁ reseptori (adenilatsiklazani aktivlaydi va siklik AMF miqdorini oshiradi) asosan postsinaptik to'rmozlanishlarni keltirib chiqaradi(asosan MNS). D₂ reseptorlar (adenilatsiklazani ta'sirini susaytiradi) pre-va postsinaptik tormozlanish keltirib chiqaradi. Presinaptik dofaminli D₂-reseptorlari MNS da mediatorlarni ajralishini susaytiradi va periferiyada ham. Periferik effektorlar (musbat inatrop va qon tomirlarni kengaytiruvechi ta'sir etadi). D₅ reseptorlar aktivatsiyalanishi bilan bog'liq. Ammo presinaptik dofaminli reseptorlarga stimulovechi ta'sir namoyon bo'lishi nerv oxirlaridan dofamin(noradrenalin) ajralishi susayishi bilan bog'liq.

Periferik innervatsiya(va MNS)da serotonin ham muhim ro'l o'ynaydi. Ushbu monoamin xromaffin hujayralarda (90%) hamda neyronlarda (serotoninergik neyron) uchratish mumkin. Serotoninning quyidagi reseptorlari mayjud: periferik neyronlardagi serotonin reseptorlari (5-HT₁ reseptorlar), periferiyadagi va MNS dagi presinaptik serotonin reseptorlari (5-HT₂ reseptorlar), MNS va silliq mushaklarda

joylashgan postsinaptik serotonin reseptorları (5-HT₂ reseptorları). Shuningdek, serotoninning 5-HT₁ reseptorları (5-HT₁ ham) ovqat hazm qilish kanalining intramural neyronlarda joylashgan. Serotonin shu reseptorlarni qo'zg'atib asetilxolin ajralishini ta'minlaydi va iehak peristaltikasini oshiradi. Presinaptik 5-HT₁ reseptorlarning qo'zg'alishi serotonin (noradrenalin) ajralishini susaytiradi. Serotonin silliq mushaklarning 5-HT₂ reseptorlariga ta'sir ko'rsatib, ularning qisqartirishini ta'minlaydi. Bundan tashqari shu aniqlandiki serotonin afferent nerv oxirlaridagi reseptorlar sezuvchanligini oshiradi, u erda 5-HT₂ reseptorlari borligi aniqlangan.

Hozirgi kunda *azot oksidi (NO)* ko'p e'tiborni jalg etib kelmoqda. Azot oksidi MIT, kichik chanoq bo'shlig'i va traxeya innervatsiyasida ishtirok etuvchi nervlar tomonidan ishlab chiqariladi va u erda mediator ro'lini o'ynaydi. Azot oksidi mediator neyronlar nitrergik (yoki nitroksidergik) deb nomlash tavsiya etilgan. Organizmda azot oksidi NO-sintetaza ishtirokida L-arginindan xosil bo'ladi.

Juda ko'p turlardagi *peptidlar* moddalar almashinuvni va iehki a'zolar funksiyasining boshqaruvida muhim rol o'ynashi aniqlangan. Ularning ayrimlari mediator yoki modulyator sifatida qo'zg'alish uzatadi. MIT ning intermural gangliyalarida taxikininlar topilgan (Masalan: P- substansiya). Ular iehak motorikasini stimullaydi. Yurak - qon tomir innervatsiyasida ishtirok etuvchi periferik neyronlar tarkibida neyropeptid Y bo'ladi va noradrenalin bilan birga adrenergik nervlari varikoz kengliklarining yirik vezikulalarida depolanadi. Neyropeptid Y vazokonstriksiya keltirib chiqaradi, bu ta'sirni adrenoblokatorlar bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Bitta neyronda ikki va undan ortiq mediator (modulyator) bo'lishi keng tarqalgan. Keltirilgan misol adrenergik innervatsiyaga xos. So'lak bezlarini innervatsiyalovchi xolinergik innervatsiyada atsitsitxolin vazoeaktiv intestinal peptid(VIP²)lar bilan birga neyronlarda bo'ladi. Ikkala birikma xolinoergik nerv oxirlaridan ajraladi. Bunda asetilxolin so'lak ajralishini stimullaydi. VIP bo'lsa vazodilatatsiya chaqiradi, bu esa so'lak bezlarining gipersalivatsiyasida ularni qon bilan ta'minlanishi adekvat javob.

Skelet mushaklarini innervatsiya qiluvchi harakatlantiruvchi neyronlar xolnergik nerv hisoblanadi (nerv-mushak o'kazuvchanlik asetilxolin ta'sirida bo'ladi). Bu neyronlar tanasi orqa miyaning oldingi shoxlaridan, shunindek bosh miya nervlari yadrolaridan chiqib, ularning aksonlari uzilmasdan skelet mushaklariga boradi.

Kimyoviy birikmalar sinaptik o'tkazuvchanlikni turli bosqichlariga ta'sir etishi mumkin. Shuni etiborga olish kerakki, bu vositalar uchun nishon bo'lib turli sistemadagi reseptor va effektor aloqasining turli bosqichlari bo'lishi mumkin. Ma'lumki hujayra membranasi fermentlari reseptorlar bilan maxsus boshqaruvoqsillari bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Masalan: Adenilatsiklazaning aktivligi agonistlarning o'ziga mos reseptorlarga ta'sirida G-oqsillar (guaniinli nukleotidlarni bog'lovechi oqsil) bilan boshqariladi u esa o'z navbatida reseptor qo'zg'alishi natijasida aktivlashadi. G-oqsili mavjud bo'lib, adenilatsiklazani aktivlovechi (Gs) va ingibirlovechi (G_s) turlari mavjud. Shular ma'lum bo'ldiki, G_s-oqsili bilan xolera toksini, G_s-oqsili bilan ko'kyotal toksinlari bog'lanar ekan. Shunday qilib, G-oqsillariga kimyoviy moddalari ta'sir etishi mumkinligi aniqlandi, lekin dori vositalarining bu tipdagisi ta'siri xali topilgani yo'q. Bundan tashqari bevosita fermentlarga ta'sir etishi ham mumkin.

Adenilatsiklazaga to'g'ridan to'g'ri stimulovechi ta'sir ko'rsatuvchi (reseptorni va G-oqsilini o'tib) modda mavjud bo'lib, bu diterpen o'simlik tabiatli forskolin (eksperemantal tekshiruvlarida qo'llaniladi). Fosfodiestrazani ingibirlovechi (masalan metilksantinlar) modda mavjud bo'lib sAMFni 5'AMF ga aylantiradi. Forskolin va metilksantillar hujayrada sAMF miqdorini oshiradi; forskolin metilksantin gidrolizini tormozlash yo'li bilan sAMF hosil bo'lishini stimullaydi.

Bu bo'limda dori vositalarni sistemalash efferent innervatsiyaga ta'sir etuvechi vositalarning sinapslarga bo'lgan ta'siri nerv qo'zg'alishlarini atsitsilxolin va noradrenalin amalga oshiriladi. Moddalar ikkita asosiy guruhlarga bo'linadi:

1) xolinoergik sinapslarga ta'sir etuvechi vositalar

2) adrenergik sinapslarga ta'sir etuvechi vositalar

Bu guruh vositalari chuqur o'rganilgan va tibbiyot amaliyotida keng qo'llaniladi.

Xolinergik sinapslarda qo'zg'alishlarning o'tishi asetilxolin vositasida amalga oshadi. Asetilxolin nevronlar oxirlarining sitoplazmasida sintezlanadi. U xolin va atsetilkoenzim A dan xolinatsetilazaning sitoplazmatik enzimi ishtirokida hosil bo'ladi. Atsetsilxolin sinaptik pufekchalarida (vezikulalarda) depolanadi. Ularning har birida minglab asetilxolin molekulalari joylashgan bo'ladi. Nerv impulslariga javoban asetilxolin sinaptik bo'shliqqa ajraladi, shundan so'ng xolinoreseptorlar bilan bog'lanadi.

Xolinoreseptorlar strukturasi oxirgacha o'rjanilmagan. Ma'lumotlarga ko'ra nerv-mushak xolinoreseptor sinapslari ion (natriy) kanalini o'rab olgan va lipid membranasining orasidan o'tgan 5 ta oqsilli subbirlikdan iborat: (*a,a,B,y,b*). **Asetilxolin** *a*-subbirliklari bilan o'zaro ta'sir ko'rsatib, ion kanalining ochilishiga postsinaptik membrananing depolyarizatsiyasiga olib keladi.

Turli xil loklizasiyasiga ega xolinoreseptorlar farmokologik moddalarga bir xilda javob ko'rsatmaydi. Shunga asosan muskarinka va nikotinga sezgir xolinoreseptorlar (m-xolinoreseptorlar va n-xolinoreseptorlar)ga ajratiladi.

M-xolinoreseptorlar effektor a'zolarning postganglionar xolinergik (papasimpatik) tolalarining postsinaptik membranasi hujayralarida joylashgan. Bundan tashqari ular vegetativ gangliyalarda va MNS (bosh miya po'stlog'da, retikulyar formatsiya)da bor. Har xil lokalizasiyadagi M-xolinoreseptorlarning farmakologik moddalarga har xil sezuvchanlikka ega ekanligi aniqlandi. M-xolinoreseptorlar joylashishiga qarab M_1 , M_2 , M_3 -kenja turlariga bo'linadi. M_1 -xolinoreseptorlar (vegetativ gangliyalar va MNS) da, M_2 -xolinoreseptor (asosan yurakda), M_3 -xolinoreseptorlar (silliq mushaklarda va ko'pgina ekzokrin bezlarda). Moddalarning M-xolinoreseptorlariga bo'lgan ta'siri asosan M_2 va M_3 xolinoreseptorlari bilan bog'lanishi tuflayli kelib chiqadi, oddiy qilib aytganda xolinoreseptorlarning tartiblarini keltirmasdan M xolinoreseptorlar deb ataladi.

H-xolinoreseptorlar ganglionar nevronlarning hamma preganglionar tolalarining oxirlaridagi postsinaptik membranada joylashgan (simpatik va parasimpatik gangliyalarda), buyrak ustii bezining mag'iz qismida, sinokarotid zonada, skelet mushaklarda va MNS da (neyrogipofiz, renshou hujayralarda va boshqalar). N-

xolinoreseptorlar farmakologik moddalarga har xil sezuvchanlikka ega. Shuningdek, vegetativ gangliyalarning N-xolinoreseptorlari (neyronal turdagı xolinoreseptorlar) skelet mushaklarining N-xolinoreseptorlaridan (mushak tipidagi N-xolinoreseptorlar) keskin farq qiladi. Shuning uchun ba'zi preparatlar gangliyalarni (gangliyablokator moddalar), boshqalari nerv mushak o'tkazuvchanligini (kuraresimon vositalar) tanlab bloklaydi.

Asetilxolin ta'siri juda qisqa, u asetilxolinesteraza fermenti (masalan nerv-mushak sinapslarida) ta'sirida gidrolizlanadi (vegetativ gangliyalarda). Asetilxolinni gidrolizi natijasida xosil bo'lgan xolinning 50%i presinaptik oxirlarda qoladi, qolgani sitoplasmaga tashilib u erda yana asetilxolin sintezi uchun ishlataladi. Shunday moddalar borki ular sinaptik o'tkazuvchanlikning turli jarayonlariga ta'sir qiladi:

- 1) asetilxolin sinteziga;
- 2) mediator ajralishiga;
- 3) asetilxolinni xolinoreseptorlar bilan o'zaro ta'siriga;
- 4) asetilxolinning enzimatik gidroliziga;
- 5) asetilxolin gidrolizidan xosil bo'lgan xolinning presinaptik nerv oxirlarida tutib qolinishiga.

Ba'zi moddalar xolinoreseptorlarga stimullovchi (xolinomimetik), boshqalari tormozlovchi (xolinobloklovchi) ta'sir ko'rsatadi. Bu moddalarning tasnifi asosan ma'lum xolinoreseptorlarga yo'naltirilgan ta'siridan kelib chiqadi.

I. M va N-xolinoreseptorlariga ta'sir etuvchi vositalar.

1. M, N-xolinomimetiklar

Asetilxolin, karbaxolin

2. M, N-xolinoblokatorlar

Siklodol

II. Antixolinesteraz vositalar

Fizostigmin salitsilat, prozerin, galantomin gidrobromid, armin.

III. M-xolinoreseptorlariga ta'sir etuvchi vositalar

1. M-xolinomimetiklar (muskarinomimetik vositalar)

Pilokarpin gidroxlorid, aseklidin

2. M-xolinoblakatorlar (antixolinergik, atropinsimon vositalar)

Atropin sulfat, skopolamin gidrobromid, platifillin gidrotartarat, metatsin.

IV. N-xolinoreseptorlariga ta'sir etuvchi vositalar

1. N-xolinomimetiklar (nikotinomimetik vositalar)

Sititon, lobelin gidroxlorid

2. N-xolinoblakatorlari

a) Ganglioblakator vositalar

Benzogeksoniy, pentamin, gigroni, pirilen, arfonad

b) Kurarasimon vositalar (periferik ta'sirli miorelaksantlar)

Tubokurarin xlorid, pankuroniya bromid, pipekuroniy bromid

**MUSKARINGA VA NIKOTINGA SEZGIR XOLINORESEPTORLARGA
TA'SIR ETUVCHI VOSITALAR**

M-va N-xolinoreceptorlarni qo'zg'atuvchi vositalar.

Ushbu guruhg'a asetilxolin va uning analoglari kiradi. Asetilxolin xolinergik sinapslar mediatori bo'lib, murakkab esfir-xolin va sirka kislatasidan tashkil topgan bo'lib, to'rtlamchi mono-ammoniyli birikmadir. Dori vositasi sifatida qo'llanilmaydi, chunki uning ta'siri juda qisqa (bir necha daqiqa) bo'ladi. Asetilxolin eksperimental fiziologiya va farmakologiyada keng qo'llaniladi.

Asetilxolin M va N xolinoreceptorlarga to'g'ridan-to'g'ri stimulovchi ta'sir ko'rsatadi. Asetilxolin sistemali ta'sir ettirilganda M- xolinomimetik ta'sir ustun keladi: bunda yurak urishi sekinlashadi (bradikardiya), qon tomirlar kengayadi, MIT tizimi va bronx mushaklari tonusi va qisqaruvchanligi oshadi hamda sekretsiyasi kuchayadi. Asetilxolining M-xolinomimetik ta'siri parasimpatik nervlarning qo'zg'alishidagi ta'sirga o'xshaydi (jadval).

**Xolinoergik nervlarni ta'sirlanishi tufayli yuzaga chiqadigan ta'sirlar
M-va N-xolinomimetiklar**

3.2. Jadval. Xolinergik asablar qo'zg'alganda kuzatiladigan asosiy ta'sirlar

| Qo'zg'atuvchi ta'sirlar | Falajlovchi ta'sir |
|---|---|
| Yurak | |
| Yurak bo'lmlarida o'tkazuvchanlik tezligi oshishi. | Bradikardiya, yurakni to'xtab qolishi. Yurak bo'lmlarining qisqaruvechanlik faolligini pasayishi. Atrioventrikulyar tugunning bloki. Yurakning o'tkazuvechi tizimida qo'zg'alishni o'tish tezligi pasayishi. |
| Qon tomirlari | |
| | Skelet mushaklari, so'lak bezlari tomirlarining kengayishi |
| Silliq mushaklar | |
| Bronxlar, oshqozon, ichak, o't pusagi va o't yo'llari, qovuq, rangdor parda aylanma mushaklari, ko'zning kipriksimon mushaklarining qisqarishi (harakatchanlikning, faoliyning oshishi) | Me'da, ichaklar, qovuq sfinkterlarini (klapanli tuzilmasini) bo'shashadi. |
| Bezlar | |
| Bronxlar, oshqozon, ichak, so'lak, ko'z yoshi bezlарidan va burun - halqum bezlарidan sekresiyasi kuchayadi. | |

Teri bezlарini va sochlarni asab hujayralari bilan ta'minlovchi xolinergik toflar simpatik (sezuvehan) innervasiyaga taaluqli.

Asetilxolining M-xolinomimetik ta'siri uning N-xolinomimetik ta'sirini to'sib qo'yadi. Agar M-xolinoreseptor atropin bilan felajlantirilsa, unda asetilxolining N-xolinomimetik ta'siri sezilarli bo'ladi. Shu yo'sinda agar asetilxolin yuqori dozalarda qo'llasak u qon tomir bosimini tushurish o'tniga aks ta'sir ko'rsatadi. ushbu effekt buyrak ustı bezining mag'iz qavati va simpatik gangliyalardagi N-xolinoreseptorlar ko'zgalishlar hisobiga namoyon bo'ladi.

Asetilxolin skelet mushaklaridagi N-xolinoritseptorlariga stimulovchi ta'sir ko'rsatadi. MNS da ham xolinoreseptorlar mavjud bo'lib, ular asetilxolining sezgir bo'ladi. Shuni yodda tutish kerakki, asetilxolining yuqori konsentratsiyasi xolinoergik o'tkazuvchanlikni tormozlaydi.

Amaliyotda glaukomada asetilxolin analogi **karbaxolin** ishlataladi. Karbaxolin asetilxolindan ta'sir davomiyligi bilan farqlanadi. U asetilxolinesteraza ta'sirida gidrolizlanmaydi, shuning uchun asetilinga nisbatan davomli ta'sir ko'rsatadi.(1-1,5 soat). Karbaxolin nafaqat xolinomimetik ta'sir ko'rsatibgina qolmay balki presinaptik tolalardan asetilxolin ajralishini stimullaydi. Karbaxolining farmakologik ta'siri asetilxolinikiga o'xshash bo'ladi. M va N-xolinoreseptorlarga ta'siri bilan aniqlanadi.

ANTIXOLINESTERAZ VOSITALAR.

Asetilxolining (parchalanishini) inaktivatsiyalanishini amalga oshiruvchi asosiy ferment asetilxolinesterazadir. Ma'lumki, xolinesteraza fermenti asetilxolin ajraladigan joylarda, (xolinergik postganglionar tolalarning oxirlarida, harakatlantiruvchi nervlarning oxirlarida, MNS da, vegetativ gangliyalarda va boshqalar) postsinaptik membranalarda mavjud. Bu asetilxolinni tez enzimatik gidroliziga, ya'ni, asetilxolinni xolin va sirkal kislotaga parchalanishiga olib keladi. Asetilxolinesteraza asetilxolin molekulasining 2 ta joyida - anion va esteraz markazlari bilan bog'laydi. Anion markazi bilan asetilxolining musbat zaryadlangan to'rtlamchi azot atomi, esteraz markazi bilan karbonil turkumining uglerodi bog'lanadi. (3,5-rasm) ushbu bog'lanishlar tufayli asetilxolin parchalanib ketadi.

Shu ayonki, xoñnergik o'tkazuvchanlik ajraladigan asetilxolinni konsentratsiyasi va asetilxolinesterazaning aktivligi nisbatiga yuqori darajada bog'liq. Impulslarni o'tish imkoniyatlarini yengillashtirish asetilxolinesteraza fermentini bloklashdan iboratdir. Shu maqsadda antixolinesteraza vositalari qo'llaniladi. Ularning asosiy ta'sirlari asetilxolinesterazani bloklash bilan bog'liq bo'lib, asetilxolinni gidrolizlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa asetilxolinning xolinoreseptorlarga samarali va davomli ta'siri bilan namoyon bo'ladi. (3.6-rasm) Shunday qilib, preparatlar M-, N- xolinomimetiklarga o'xshash, lekin antixolinesteraz vositalarining ta'siri asetilxolin orqali namoyon bo'ladi. Alovida preparatlar (masalan, prozerin) ba'zi bevosita xolinomimetik ta'sirlarni ko'rsatadi.

Asetilxolinestraz fermenti bilan hosil qiladigan birikmasining tabiatiga qarab antixolinesteraz vositalar 2 ga bo'linadi:

1-gaytar ta'sir ko'rsatuvchi preparatlar: fizostigmin salitsilat, prozerin, galantamin gidrobromid.

2-gavtmas ta'sir ko'rsatuvchi preparatlar: armin, fosfakol, fosfor organik birikmalar.

Antixoliesteraz vositalarining asetilxolinesterazani falajlashi fermentning asetilxolin bilan bog'lanuvchi joylarida yuz beradi. Ba'zi bir preparatlar anion va esteraz markazlar (prozerin) bilan bog'lansa, boshqalari faqat anion (edrofoni) yoki faqat esteraz markaz (fosfor organik birikmalar) bilan bog'lanadi. Bundan tashqari ta'sirlar mehim rol o'ynaydi. Asetilxolinesteraz vositalar asetilxolin gidroliziga to'sqinlik qilib, uning muskaringa va nikotinga o'xshash ta'sirlarini uzaytiradi. M-xolinomimetik ta'sir bir qator silliq muskullar (ko'zning aylana va kipriksimon muskullari, bronxlar, MIT va boshqa muskullar) ning tonusi va qisqarish aktivligini oshirishi bilan namoyon bo'ladi. Antixolinesteraz vositalar terapeutik dozalarda bradikardiya chaqiradi, yurak ishining pasaytiradi, yurakning o'tkazuvchi yo'lleri bo'yicha impuls o'tishini sekinlashtiradi, arterial bosim pasayadi. Yuqori dozalarda esa taxikardiya chaqirishi mumkin (uni yurak qisqarishlari chastotasiga ta'siri, uning faqat M-xolinoreseptorlarni qo'zg'alishlari bilan bog'liq bo'lmasdan, balki simpatik

gangliyalar xolinoreseptorlarini, buyrak ustı bezi mag'tiz moddasini va uzunchoq miya markazini stimullash bilan ham bog'liq bo'ladi). Antixolinesteraz vositalar xolinergik innervatsiyaga ega bo'lgan bezlarni (bronx, ovqat hazm qilish, ter va boshqa bezlarni) sekresiyasini kuchaytiradi.

Antixolinesteraz vositalarning nikotinsimon ta'siri nerv-mushak sistemasi o'tkazuvchanligi va vegetativ gangliyalarda namoyon bo'ladi. Kichik dozalarda antixolinesteraz vositalar skelet mushaklarida va vegetativ gangliyalarda qo'zg'alishlar o'tishini osonlashtiradi, katta dozalarda esa susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Antixolinesteraz vositalar kichik dozalarda MNS (elektroensefalogrammaning disinxronizatsiyasi vujudga keladi, qator reflektor reaksiyalar vaqt qisqaradi) ni stimullaydi. Katta dozalarda, ayniqsa toksik dozalarda bu moddalar MNS ni susaytiradi.

Antixolinesteraz vositalarni ko'zning ba'zi funksiyalariga, MIT va siyidik pufagining tonusi va motorikasiga, nerv-muskul o'tkazuvchanligiga va MNS ga ta'sirlari tibbiyat amaliyotida katta ahamiyatga ega.

Antixolinesteraz vositalar ko'zga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi: (rasm.3.7.)

a) qorachiqni toraytiradi (mioz) bu rangdor pardada joylashgan ko'zning aylana muskullaridagi M-xolinoreseptorlarni qo'zg'alishi va muskulning qisqarishi bilan bog'liq;

b) ko'zni ichki bosimini pasaytiradi. Bu miozning natijasidir. Bunda rang parda yupqalashadi, ko'zning oldingi kamerasi burehagi kattalashadi va buning natijasida ko'zning ichki suyuqligi oqishi Fontan bo'shlig'idan Shlemov kanaliga oqishi osonlashadi;

c) akkomadatsiya spazmini chaqiradi. Bu holatda modda ko'zning kipriksimon muskuli M-xolinoreseptorlarni stimulyatsiyasi tufayli yuz beradi, chunki bu erda faqat xolinergik innervatsiya mavjud. Ko'zning aylana mushaklari bo'shashi, ko'z gavharini qavariqligini oshiradi. Ko'z yaqin masofadan ko'rishga moslashadi:

Antixolinesteraz vositalarning ko'zni ichki bosimini pasaytirishi glaukomani davolashda keng qo'llaniladi. MIT motorikasiga antixolinesteraz vositalar

stimullovechi ta'sir ko'rsatadi. Siyidik qop i muskullarining tonusi va qisqarish aktivligi kuchayadi. Bu ta'sirlar iehak va qovuq atoniyasini bartaraf etish uchun qo'llaniladi.

Antixolinesteraz vositalar nerv-mushak o'tkazuvchanligini osonlashtirganligi sababli miosteniyada, shuningdek antidepolyarizatsiyalovechi (raqobat) turidagi kuraresimon vositalar bilan zaharlanishda antagonist sisatida qo'llaniladi. Preparatlarni tanlashda, ularni faolligi, zaharliligi, dozasi, ta'sirini davomiyligi, har xil bar'erlardan o'tish qobiliyatiga ahamiyat berish kerak. Glaukomani davolashda prozerin (neostigmin metilsulfat), fizostigmin, armin ishlataladi. Galantamin bu maqsadda qo'llanilmaydi, chunki u konyuktivaga ta'sirlovechi ta'sir ko'rsatib, konyuktivani shishiga olib keladi.

Rezorbtiv ta'siri uchun (miosteniyada, iehak va siyidik pufagi atoniyalarida, polimielitda antidepolyarizatsiyalovechi kuraresimon vositalarining antagonist sisatida) preparatlarning kam toksik vositalar prozerin va galantamin, kamroq hollarda fizostigmin tanlanadi. Galantamin (nivalin) va fizostigmin (uchlamehi amin) gemato-ensefalik barerdan o'tadi. Shu sababli o'tkazilgan polimielitning qoldiq asoratlarini davolashda, qachonki xolinergik o'tkazuvchanlikni saqat periferiyada emas, balki MNS da ham aktivlashtirish lozim bo'ganda, asosan galantamin qo'llaniladi.

Mayjud ma'lumotlarga ko'ra, progressiyalanuvchi demensiyani boshlang'ich bosqichida (Alsgeym er kasalligida) keksalarda fizostigmin xotirani yaxshilaydi. Bu maqsadda galantamin ham qo'llash mumkin. Rezorbtiv ta'siri maqsadida piridostigmin bromid (mestinon) va oksazil (ambenoniya xlorid) qo'llash mumkin. Bular prozeringa nisbatan davomliroq ta'sir ko'rsatadi.

Edrofoniy (tenzilon) juda qisqa muddat ta'sir ko'satadi va antidepolyarizatsiyalovechi miorelaksantlar antagonist sisatida ishlataladi.

Ba'zan antixolinesteraz preparatlari bilan zaharlanish kuzatiladi. Bu asosan organizmda asetilkolinni katta kontsentratsiyada to'lanishi, yoki xolinoreseptorlarning qo'zg'alishi bilan bog'liq. Kop hollarda zaharlanish FOB (fosfor organic birikmalar) qo'llanilishi tusayli kuzatilishi mumkin, chunki ular

yuqori darajadagi lipofillikka ega bo'lib, juda tez organizmga so'rildi va uzoq muddatga asetilxolinesterazani faolsizlantiradi. FOB bilan o'tkir zaharlanish vrachning kechiktirib bo'lmaydigan yordamini talab qiladi. Eng birinchi qilinadigan ish FOBni tushgan joyidan chiqarib tashlash. Bu teri yoki shilliq qavatlar bo'lsa, ularni 3-5% li natriy gidrokarbonat eritmasi bilan tozalab yuvishi lozim agar modda MIT ga tushsa me'da yuviladi, sifon xuqna, adsorbsiyalovchi va surgi vositalar buyiriladi. Intoksikatsiya simptomlari yo'qolguncha bu tadbirlar bir necha marotaba takrorlanadi. Agar FOB qonga so'rilgan bo'lsa uni siyidik orqali chiqarilishini tezlashtirish lozim. Qonni FOBdan tozalashning samarali usullariga gemosorbsiya gemodializ peritoneal dializ kiradi. FOBdan o'tkir zaharlanishni davolashning muhim omillaridan biri M-xolinoblokatorlar (atropin va atropinsimon moddalar) va xolinesteraza reaktevatorlaridan foydalanishdir. Ularga molekulasida oksim(-NOH) guruhini tashkil qiluvchi bir qator birikmalar kiradi: dipiroksim (trimedoksimbromid, TMV-4) izonitroxin. Ular asetilxolinesteraza bilan bog'langan FOB qoldiqlari bilan birikib fermentni erkin holatga o'tkazib, fiziologik aktivligini qayta tiklaydi. Dipiroksim to'rtlamchi ammoniyli birikma bo'lib MNS dan yomon, uchlamchi amin izonitroxin yaxshi o'tadi. Xolinesteraza reaktivatorlari zaharlanishning ilk davrlarida qo'llanilganda yuqori ta'sirga ega bo'ladi. Keyinroq esa ular faqat asetilxolinning oz miqdorini qayta tiklaydi. Shuning uchun FOB dan o'tkir zaharlanganda xolinesteraza reaktivatorlarini M-xolinoblokatorlari bilan birga qo'llash yuqori samara beradi. Xolinesteraza reaktivatorlari parenteral qo'llaniladi. Kerakli holatlarda ularni bir necha marotaba qo'llash lozim. Bundan tashqari simptomatik davo choralarini qo'llash lozim. Bemorni nafas olishini doimo tekshirib turish lozim. FOB so'lak bezlarining gipersekratsiyasini yuzaga keltirganligi sababli og'iz bo'shlig'i, traxea va bronxlarni so'lakdan tozalab turish lozim. Kerakli holatlarda sun'iy nafas oldirish lozim. Psixomotor qo'zg'alishlarda aminozin, diazepam, natriy oksibutirat va boshqa preparatlarni yuborish lozim.

M-XOLINORESEPTORLARGA TA'SIR ETUVCHI VOSITALAR

M-xolinoreseptorlarni qo'zg'atuvchi vositalar.

(M-xolinomimetiklar)

M-xolinomimetiklar m-xolinoreseptorlarga to'g'ridan-to'g'ri stimullovchi ta'sir ko'rsatadi. Alkaloid muskarin – m-xolinoreseptorlarga tanlab ta'sir qiluvechi moddalarning etaloni bo'lib xizmat qiladi.

Muxomor qo'ziqorinning tarkibida bo'luechi muskarin o'tkir zaharlanishlarning sababchisi bo'lishi mumkin. Dori modda sifatida ishlatalmaydi.

Tibbiyot amaliyotida m-xolinomimetiklardan pilokarpin va aseklidin juda keng qo'llanadi, ular uechlamechi aminlarga kiradi.

Pilocarpin – alkaloid. Janubiy Amerikada o'sadigan Pilocarpus pennatifolius Jaborandi o'simligidan olinadi. Sintez yo'li bilan ham olingen bo'lib, metilimidazol hosilasi hisoblanadi. Bevosita m-xolinomimetik ta'sir ko'rsatadi. Vegetativ xolinergik nervlar ta'sirlanganda kuzatiladigan holatlar uning ta'sirida ham namoyon bo'ladi. (1-jadval)

1-jadval. M-xolinoreseptorlari agonist va antagonistlarining ayrim ta'sirlari.

| A'zolar | Ko'rsatkichlar | Samara | |
|----------------|---|--|--|
| | | agonistlar | antagonistlar |
| Ko'z | Rangdor parda aylana muskulining tonusi | Oshadi (mioz) | Pasayadi (midriaz) |
| | Ko'zning ichki bosimi | Pasayadi | Ko'tariladi |
| | Kipriksimon muskulning tonusi | Oshadi (akkomodatsiya spazmi, yaqindan ko'rish) | Pasayadi (akkomodatsiya paralichi, uzoqdan ko'rish) |
| So'lak bezlari | Sekretsiya | Oshadi | Pasayadi |
| Yurak | Ritm | Pasayadi (bradikardiya) | Oshadi (taxikardiya) |
| | Bo'lmachalar qisqaruvehanligi | Pasayadi | Oshadi |

| | | | |
|------------------------|--|--|----------------------|
| | Atrioventrikulyar o'tkazuvchanlik | Pasayadi (atrioventrikulyar blokadagacha) | Engilashadi |
| Tomirlar | Silliq mushaklar tonusi | Pasayadi | |
| Traxeya, bronxlar | Silliq mushaklar tonusi | Oshadi | Pasayadi |
| | Bronzial bezlar sekretsiyası | Oshadi | Pasayadi |
| Oshqozon va ichaklar | Motorika Ekskretor bezlar sekretsiyası | Kuchayadi Kuchayadi | Susayadi Susayadi |
| O't pufagi va yo'llari | Silliq mushaklar tonusi | Oshadi | Pasayadi |
| Siydik pufagi | Devorining tonusi va motorikasi | Oshadi | Pasayadi |

Ayniqsa, pilokarpin bezlar sekresiyasini oshiradi. U qorachiqni toraytiradi, ko'zning ichki bosimini pasaytiradi. Bundan tashqari, u akkomodatsiya spazmini chaqiradi. Shunday qilib, antixolinesteraz vositalar ta'sirida ro'y bergen xodisalar namoyon bo'ladi. Ularning o'rtaqidagi asosiy farq shundan iboratki, pilokarpin ko'z mushaklarining m-xolinoreseptorlariga bevosita ta'sir ko'rsatsa, antixolinesteraz vositalar esa asetilxolinesterazani bloklab, bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Tibbiyot amaliyotida pilokarpin faqat mahalliy ko'z tomchilari ko'rinishida glaukomani davolashda qo'llaniladi. Zaharliligi yuqori bo'lganligi sababli parenteral qo'llanilmaydi.

Aseklidin – bevosita ta'sir qiluvehi sintetik m-xolinomimetik. U 3-oksixinuklidinin murakkab esridir. Mahalliy va rezorbtiv ta'sirlari uchun ishlataladi. Aseklidin glaukomada(konyuktivani biroz ta'sirlashi mumkin), MIT, siydik pufagi va bachardon atoniyalarda buyuriladi. Aseklidin va boshqa m-xolinomimetiklarning dozasi oshirib yuborilganda antagonist sifatida M-xolinoblokatorlar(atropin va atropinsimon moddalar) qo'llaniladi.

M-xolinoreseptorlarni falajlovchi vositalar.

(M-xolinoblokatorlar yoki atropinsimon vositalar)

M-xolinoblokatorlar – m-xolinoreseptorlarni bloklovchi moddalaridir. Ulardan eng yaxshi o'rganilgani atropin – bu guruhning tipik vakili hisoblanadi. Shuning uchun M-xolinoblokatorlarni atropinsimon moddalar deyiladi. M-xolinoblokatorlarning asosiy ta'sirlari, ularni m-xolinoreseptorlarning effektor hujayralari membranalarini bloklashi bilan bog'liqdir (xolinergik nervlarning postganglionar tolalari oxirlarida). Bundan tashqari, ular MNS dagi m-xolinoreseptorlarni ham bloklaydi (agar gematoensefalik barerdan o'tsa).

M-xolinoblokatorlarning ta'sir prinsipi shundan iboratki, ular m-xolinoreseptorlarni bloklaganligi sababli mediator asetilxolinning reseptor bilan o'zaro ta'siriga to'sqinlik qiladi.

M-xolinoblokatorlar xolinergik (parasimpatik) nervlarning ta'sirlanish xususiyatlariiga va m-xolinomimetik faollikka ega bo'lgan moddalarining (asetilxolin va uning analoglari, antixolinesteraz vositalar, shuningdek muskarinomimetik moddalar) ta'sirlariga to'sqinlik qiladi.

Kimyoviy jihatdan m-xolinoblokatorlar uchlamchi aminlar va to'rtlamchi ammoniyli birikmalar hisoblanadi.

Atropin – yuqori tanlab ta'sir ko'rsatuvchi, m-xolinoblokator bo'lib, belladonna (Atropa belladonna), mingdevona (Hyoscyamus niger), bangidevona (Datura stramonium) kabi o'simliklardan olinadigan alkaloiddir.



3.8 rasm. Oddiy krasavka (belladonna). Atropa belladonna L. (atropin, gistoamin, skopolamin kabi alkaloidlar tarkibida mavjud).

Keyinchalik sintetik yo'l bilan ham olingan. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha tropin va D, L-tropokislotasining murakkab esri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa atropinda spazmolitik xususiyat kuchli ifodalangan. M-

xolinoreseptorlarni falajlab, atropin xolinergik (parasimpatik) nervlarning silliq

mushakli organlarga ko'rsatadigan stimullovchi ta'sirini bartaraf etadi. Atropin ta'sirida MIT, o't yo'llari va o't qop, bronxlar, siyidik pufagi mushaklarining tonusi pasayadi. Atropin ko'z mushaklarining tonusiga ham ta'sir qiladi. Ko'zning rangdor pardasi aylana mushaklarining m-xolinoreseptorlarining bloklanishi natijasida qorachiq kengayadi (midriaz). Ko'z oldingi kamerasidan suyuqlik oqishi qiyinlashadi va ko'zning ichki bosimi ortadi (ayniqsa glaukomada). Kipriksimon mushaklar m-xolinoreseptorlarining bloklanishi uni bo'shashtiradi, qin boylamni taranglashib, ko'z gavhari qavariqligi kamayadi. Akkomodatsiya falaji vujudga keladi va ko'z uzoqdagi buyumlarni aniq ko'rib, yaqindagilar xiralashadi.

Atropinning yurak-qon tomir sistemasiga ta'siri, asosan yurakka ta'sirida namoyon bo'ladi. Adashgan nervning yurakka bo'lgan xolinergik ta'sirining pasayishi tufayli taxikardiya yuz beradi. Bu holatda adrenergik (simpatik) innervatsiyaning tonusi ustun turadi. Atrioventrikulyar o'tkazuvchanlik yaxshilanadi. Qon tomirlariga va arterial bosimga atropin ta'sir qilmaydi, lekin xolinomimetik vositalarning gipotenziv ta'siriga qarshilik qiladi.

Atropinning muhim xususiyatlaridan biri bezlar sekretsiyasini kamaytirishidir (bronxlar, burun-halqum, so'lak, MIT, ter va ko'z yosh bezlari). Bu esa og'iz, terining qurishiga, o'zgarishiga olib keladi. Ter ajralishining kamayishi tana haroratining oshishiga olib kelishi mumkin. Bezlarning xolinergik innervatsiyasining blokadasidan tashqari, atropin ularga xolinomimetik vositalarning stimullovchi ta'sirini ham yo'qotadi. Ba'zi bir bezlar sekretsiyasi boshqa mexanizm bilan stimullanadi. Bunday holatlarda atropin yuborilganda o'zgarish ro'y bermaydi. Shu sababli, gormonlar bilan boshqariluvchi sut bezlari sekretsiyasi o'zgarmaydi. Atropin anestetik faoliikkaga ega ekanligini mahalliy ishlatilganda ko'rish mumkin. Atropin endogen asetilxolin va antixolinesteraz vositalarning MNS m-xolinoreseptorlarining qo'zg'alishi bilan bog'liq bo'lgan ta'sirlarini yuzaga chiqishiga to'sqinlik qiladi. Atropin markaziy xolinoblokatorlik ta'siri bilan birga ba'zi bir harakat buzilishlarida (parkinsonizmda) ekstrapiramidal sistemaning xolinoreseptorlarini blokada qilib, shisobansh ta'sir ko'rsatadi.

Atropin MIT dan, shilliq qavatlardan yaxshi so'rildi. Atropin va uning metabolitlari asosan buyraklar orqali chiqariladi. Rezorbtiv ta'sirining davomiligi – 6 soat. Ko'zning shilliq pardasiga tomizilganda akkomodatsiyaning buzilishi 3-4 kun davom etadi, midriaz 7 kun ya undan ortiq saqlanadi.

Atropin spazmolitik vosita sifatida MIT, o't yo'llari kolikalarida qo'llaniladi. Og'riqlar (kolikalar) bilan kuzatiladigan spastik holatlar atropin qabul qilingandan so'ng kamayadi yoki yo'qoladi. U bronxospazmlarda ham samarali. Atropinning bezlar sekretsiyasini pasaytirish xususiyati parkinsonizmda, og'ir metal tuzlari bilan zaharkanganda, me'da va o'n ikki barmoqli ichak yarasi, o'tkir pankreatit kabi kasallikkarni davolashda ishlataladi. Atropinni premedikatsiyada keng qo'llanilishi, uning so'lak, burun-halqum va traxo-bronxial bezlarning sekretsiyasini pasaytirishi bilan bog'liq. Bundan tashqari yurakning M-xolinoreseptorlarini bloklab (vagolitik ta'sir), atropin uning reflektor to'xtab qolishiga olib keluvechi salbiy reflekslarning oldini oladi (masalan, yuqori nafas yo'llarini ta'sirlovchi ingalyasion narkoz vositalar qo'llanilganda).

Ko'z amaliyotida atropin diagnostika maqsadida (ko'zning to'ri pardasini tekshirishda, ko'zoynak tanlashda) va ko'zning bir qator kasalliklarini davolashda (iridosiklit va boshqalar.) ishlatalidi.

Atropin m-xolinomimetiklar va antixolinesteraz vositalar bilan zaharlanishlarda qo'llaniladi.

Atropinni nojo'ya ta'sirlari uning m-xolinoblokatorlik ta'siri tufayli yuzaga chiqadi. Ko'p hollarda og'iz qurishi, akkomodatsiyanig buzilishi, taxikardiya kabilar bilan namoyon bo'ladi. Ko'z ichki bosimining ko'tarilishi (atropinni glaukomada ishlatib bo'lmaydi), obstinensiya, siyidik ajralishining buzilishi kuzatilishi mumkin.

Atropin bilan zaharlanish simptomlari, uning xolinergik innervatsiyani bloklashi va MNS ga ta'siri bilan bog'liq bo'ladi. Og'iz, tomoqni qurishi, yutishning va nutqning buzilishi, terinig qurishi, tana temperaturasining ko'tarilishi, ko'z qorachig'ining kengayib ketishi, fotosobiya (yorug'likdan qo'rqish). Harakat va nutqning qo'zg'alishidan xotira va orientasiyaning buzilishi, gallyusinasiyalar kuzatildi. Zaharlanish o'tkir psixoz shaklida o'tadi. Atropin bilan o'tkir zaharlanish bolalar

o'rtaida ko'proq uchraydi, chunki ular atropinga sezuvchan bo'ladilar. Bu preparat dozasini oshirib yuborilganda, yoki ushibu alkaloid saqlovechi o'simlik (bangidevona, mingdevona) mevalarini iste'mol qilishdan yuzaga chiqadi. Davolash hazm bo'limgan atropinni MIT dan chiqarib tashlash (oshqozonni yuvish, tanin, aktivlangan ko'mir, tuz surgi vositalari), moddani organizmdan chiqarishni tezlashtirish (diurezni oshirish, gemosorbsiya) va fiziologik antagonistlarini (masalan: MNS dan yaxshi o'tuvchi antixolinesteraz vositalar) kuchli ifodalangan qo'zg'alishlarda diazepam (sibazon), ba'zi hollarda qisqa ta'sir qiluvchi barbituratlar buyuriladi. Yurakning tez urishini kamaytirish uchun β -adrenoblokatorlar qo'llaniladi. Haroratni tushirish uchun tashqi sovitish choralarini ko'rildi. Kerak bo'lsa sun'iy nafas oldirish yo'lga qo'yiladi. Yorug'likdan qo'rqish holati bo'lganligi sababli bemor qorong'i xonaga joylashtiriladi. Atropin saqlovechi dori vositalaridan belladonnaning quruq ekstrakti spazmolitik va og'riq qoldiruvchi modda sifatida oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yarasida, o't pufagi yallig'langanda - xolesisitda va boshqa silliq mushakli a'zolar qisqarishida qo'llaniladi.

Tabiiy atropinsimon alkoloidlarga skopolamin (L-giotsin) kiradi. Kimyoviy tuzilishi jihatidan skopin va L-trop kislotanining murakkab efiri xisoblanadi. Skopolamin Mandragora Scopolia camiolica va oz miqdorda atropin saqlovechi o'simliklar tarkibida bo'ladi. Kuchli ifodalangan M-xolinoblokatorlik xususiyatiga ega. Agar atropin yurakka, bronxlarga, MIT ga kuchliroq ta'sir qilsa, skopolamin ko'zga va ekskretor bezlar sekretsiyasiga ta'sir qiladi. Skopolamin atropinga nisbatan qisqaroq ta'sir qiladi. Skopolamin MNS ga ta'siri bo'yicha atropindan farq qiladi. Terapevtik dozalarda skopolamin asabni tinchlantiradi, uyqu keltiradi. Ektrapiramidal sistemaga va piramidal yo'llardan mononeyronlarga qo'zg'alish o'tkazishiga to'sqinlik qiladi.

Qo'llanilishi atropinga o'xshash, operatsiyalardan oldin premedikatsiya maqsadida (odamda morsin bilan birga), shuningdek dengiz va xavo kasalliklari profilaktikasi uchun ("Aeron" tabletkalari tarkibiga kiradi), ba'zan parkinsonizmda. Ko'z amaliyotiga sintetik atropinsimon preparat gomotropin (tropin va mindal kislotanining

murakkab efiri) taklif etilgan. U ko'z qorachig'ini kengaytiradi va akkomodatsiya falajini keltirib chiqaradi. Atropinga nisbatan qisqaroq ta'sir qiladi (15-20 soat). Tropikamid preparati yanada qisqa ta'sir qiladi (2-6 soat).

O'simliklardan olinuvchi tabiiy alkoloидlar guruhiga platisillin kiradi. U keng bargli krestovnik (*Senecio platyphyllus*) o'simligi tarkibida bo'ladi. M- xolinoblokatorlik aktivligi atropindan pastroq o'rtacha. Kamroq me'yorda gangliylarni falajlaydi va bevosita lipotrop-spazmolitik (papaverinsimon) ta'sirga ega. Qon tomirlarni qo'zg'atuvchi markazni tinehlantiradi. Platisillin asosan spazmolitik sifatida oshqozon, ichak, o't-safro yo'llari qisqarganda, miya, toj tomirlari tonusi oshib ketganda - gipertoniyada, stenokordiyada hamda miya tomirlari qisqarganda qo'llaniladi. Ba'zan platisillin oftalmologiyada ishlatiladi. U qisqa muddatga qorachiqni kengaytiradi. Akkomodatsiyaga kamroq ta'sir etadi. Glaukomada, jigar, buyrak kasalliklarida platisillin qo'llash man etiladi.

Ko'zga bo'lgan ta'sirning davomiyligiga qarab preparatlar quyidagicha joylashadi:
atropin>skopolamin>gomotropin>platisillin>tropikamid.

Metasin sintetik modda bo'lib, atropindan kuchli xolinolitik xususiyatga ega. U to'rtlamchi ammoniyli birikma bo'lganligi uchun gematoensefalik to'siqdan o'tolmaydi. Shuning uchun faqat periferik M-xolinoblokatorlik xususiyatga ega. MNS ga ta'sir etmaydi. Metasining bronxolitik ta'siri atropinga nisbatan kuchliroq ifodalangan. Uning ko'zga ta'siri atropindan pastroq. Metasin bronxlar, qizilo'ngach, oshqozon, ichak silliq mushaklarini bo'shashtiradi. So'lak va bronxial bezlar sekresiyasini kamaytiradi. U bronxial asthma, oshqozon o'n ikki barmoqli ichak yaralarida jigar va buyrak sanchiqlarida keng qo'llaniladi.

Premedikatsiya uchun atropinga nisbatan metasinni qo'llash afzalroq, chunki bronx silliq mushaklarini atropinga nisbatan yaxshiroq bo'shashtiradi. yurak urishini atropinga nisbatan kamroq tezlashtiradi.

To'rtlamchi ammoniyli birikmalarga iprotropiya bromid va traventol kabi preparatlar kirib, bronxlarni kengaytirish uchun ishlatiladi. Yuqorida aytib o'tiigan preparatlar tanlamasdan ta'sir ko'rsatadigan M-xolinoblokatorlardir. Shunday preparatlar sintezlanganki, ular ko'proq M-xolinoreseptorlarni falajlaydi (masalan, preparatlar sintezlanganki, ular ko'proq M-xolinoreseptorlarni falajlaydi (masalan,

pirenzepin). Bu preparat oshqozon va o'n ikki barmoqli iehak yara kasalligini davolash maqsadida qo'llaniladi.

NIKOTINGA SEZGIR XOLINORESEPTORLARGA TA'SIR QILUVCHI VOSITALAR

Nikotinga sezgir xolinoreseptorlar (*N*-xolinoreseptorlar) turli xil lokalizatsiyaga ega. Ular vegetativ gangliylarda, buyrak ustti bezi mag'iz qismida, nerv mushak sinapslarida, carotid koptokchalarida va MNS da efferent impulslarni o'tkazisgda ishtrok etadi. Har xil lokalizasiyadagi *N*-xolinoreseptorlar turli strukturaviy tuzilishga ega ekanligi sababli kimyoviy moddalarga turliche sezgir bo'ladi. Vegetativ gangliyalarga nerv-mushak sinapslarining xolinoreseptorlariga, MNS ga tanlab ta'sir ko'rsatuvchi dori vositalarini olish imkoniyati shunga asoslangan.

N-xolinoreseptorlarni stimullovchi vositalar *n*-xolinomimetiklar (nikotinomimetiklar), falajlovchilar esa *n*-xolinoblokarorlar (nikotinoblikatorlar) deyiladi.

A) Nikotinga sezgir xolinoreseptorlarni qo'zg'atuvchi vositalar.

***N*-xolinomimetiklar**

Ushbu guruhga quyidagi alkaloidlar mansub *nikotin*, *lobelin* va *tsitizin* kiradi. Bu guruh dori vositalarini *n*-xolinoreseptorlarga bo'lgan ta'siri 2 bosqichli bo'lib, avval qo'zg'atadilar, keyin esa falajlaydilar.

Nikotin- tamaki bargi (*Nicotiana tabacum*, *Nicotiana rustica*) alkaloidi bo'lib, piridinmetilpirrolidin hosilasi hisoblanadi. Zaharli bo'lgani uchun tibbiyotda qo'llanilmaydi. Eksperimental farmakalogiyada dori vositalarini ta'sir mexanizmini o'rGANISHDA qo'llaniladi. Bundan tashqari, tamaki chekish keng tarqalganligi sababli nikotinni farmakodinamikasi va farmakokinetikasini o'rGANISH katta ahamiyatga ega. Nikotin ham periferik ham markaziy xolinoreseptorlarga ta'sir etadi. Ayniqsa, unga vegetativ gangliylardagi *N*-xolinoreseptorlar sezgirdirlar, bunda nikotin 2 ta fazali ta'sir ko'rsatadi. 1-faza (qo'zg'alish) ganglionar neyronlar membranalarining depolyarizatsiyasi bilan harakterlansa, 2-faza (tormozlanish) asetilxolina nisbatan raqobatli antagonist sisatida belgilanadi. Nikotin asetilxolining sinteziga, ajralib

chiqishiga va gidrolizlanishiga ta'sir qilmaydi. Nikotin sinakarotit sohaning xemoreseptorlariga stimullovehi ta'sir qilib nafas va tomirlarni harakatlantiruvchi markazlarni reflektor qo'zg'atadi. Tormozlanish fazasi qonda nikotin katta konsentrasiyada yig'ilganida vujudga keladi. Kichik dozalarda nikotin buyrak usti bezi xromaffin hujayralarini N-xolinoreseptorlarini qo'zg'atadi, shu sababli adrenalinni ajralishini ko'paytiradi, katta dozalarda-teskari ta'sir ko'rsatadi. Vegetativ gangliyalarga ta'sir qiluvchi dozaning oshib ketishi ta'sirining boshlanishida nerv-mushak o'tkazuvehanligini osonlashtiradi, so'ngra susaytiradi. Markaziy nerv sistemasiga nikotin juda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunda ham 2 ta fazali ta'sir namoyon bo'ladi: uni kichik dozalarda ishlatilganda qo'zg'alish ustun kelsa, katta dozalarda-tormozlanish. Bosh miya po'stlog'iga nikotinning ta'siri tusayli subektiv holatni yaqqol o'zgartiradi. Nikotin nafas markazini kuchli qo'zg'atadi (katta dozalarda uni tormozlaydi). Katta dozalarda nikotin tirishishni keltirib chiqiradi.

Nikotinni antidiuretik ta'siri uning markaziy ta'siri bilan bog'lanadi (Gipofizni orqa bo'lagidan antidiuretik gormon ajralishi kuchayadi). Nikotinni har xil organlarga va sistemaiarga ta'siri uning ham periferik ham markaziy ta'siriga bog'liq. Yurakning qisqarishlar chastotasi boshida sekinlashadi (adashgan nerv markazi va intramural parasympatik gangliyalarning qo'zg'alishi) so'ngra tezlashadi (moddaning simpatik gangliyalarga ta'siri va buyrak usti bezi mag'iz qavatidan adrenalining ajralishi).

Kichik dozalarda nikotin arterial bosimni oshiradi. Bu preparatning simpatik gangliyalarni va tomir harakatlantiruvchi markazning qo'zg'alishi, adrenalin ajralishining kuchayishi va to'g'ridan-to'g'ri miotrop tomirlarni qisqartirish ta'siri bilan bog'liq.

Nikotin ta'sirida ko'pincha ko'ngil aynish (markaziy), quisish kuzatiishi mumkin. Ichak motorikasi kuchayadi. Katta dozalarda nikotin ichak tonusini pasaytiradi. So'lak va bronxial bezlarning secretor funksiyasi avval kuchayadi, so'ngra tormozlanish fazasiga o'tadi. Sekinlik bilan nikotinga o'rGANISH paydo bo'ladi.

Nikotin shilliq qavat va terida yaxshi so'riladi. Uning katta miqdori asosan jigarda, shuningdek o'pka va buyraklarda biotransformatsiyaga uchraydi. Nikotin va uning hosilalari 10-15 soat mobaynida siyididan ajraladi. Emizish davrida nikotin sut bezlari orqali chiqariladi.

Nikotindan o'tkir zaharlanishda gipersalivatsiya, ko'ngil aynishi, quish, diareya kuzatiladi. Bradikardiya taxikardiya bilan almashinadi. Arterial bosim ko'tarilgan, nafas olish yetishmovchiligi yo'qolishiga almashinadi. Dastlab qorachig'lar torayadi, keyin kengayadi. Ko'rishning, eshitishning pasayishi, shuningdek tirishishlar kuzatiladi. Beriladigan yordam asosini nafas olishni taminlashdan iborat, chunki nafas markazining falajlanishida o'lim kuzatilishi mumkin. Nikotin organizmdan batamom chiqib ketgunga qadar sun'iy nafas oldirishni davom ettirishi lozim.


Nikotindan surunkali zaharlanish tamaki chekish bilan bog'liq. Shuni esda tutish lozimki, tamaki tutuni bilan nikotindan tashqari boshqa zaharli moddalar – fenol, uglerod oksid, sinil kislota ajraladi. Tamaki tutunida radiaktiv moddalarning izlari va benzpiner borligi aniqlangan, ular esa kanserogen modda xisoblanadi. Surunkali zaharlanishning simptomatikasi har xil bo'lishi mumkin. Nafas yo'llari shilliq pardalari yallig'lanish holatlari bo'ladi, gipersalivatsiya kuzatiladi. Oshqozon shirasining kislotaligi kamayadi. Yo'g'on ichak motorikasi kuchayadi.

Qon aylanish sistemasidagi o'zgarishlar – arterial bosim ko'tarilshi va yurak qisqarishlar ritmining tezlashishlaridan tashqari, ekstrasistoliya, paroksizmal taxikardiya bo'lishi mumkin. Nikotin stenokardiya xurujlarini keltirib chiqarishga sabab bo'ladi, bazida so'rishni pasaytiradi. Oliy nerv faoliyati tomonidan jiddiy o'zgarishlar kuzatiladi.


Tamaki chekish sog'liqqa katta zarar keltiradi. U yurak ishemik kasalliklari, o'pka rakni, surunkali bronxit emfizemasi va boshqa kasalliklarni keltirib chiqaradi. Chekishning oqibatida shaxsning barvaqt o'limi va nogironlik holatlari kuzatilishi mumkin.

N – xolinomimitiklardan bazilarining kimyoviy tuzulishi
O'simliklardan olingan preparatlar (alkaloidlar)

Lichamchi aminalar




REFERENCES



REFERENCES AND NOTES

Ikkilamchi amin



Цветы из кри

N- xolinomimetiklardan dori modda sisatida lobelin va sitizin ishlatalidi, ular reflektor ta'sir qiluvchi nafas analeptiklari xisoblanadilar.

Lobelin – Lobelia inflate o'simligi tarkibidagi alkaloiddir. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha uchlamechi aminlarga mansubdir. Preparat karotid koptokekalar reseptorlariga xolinomimetik ta'sir ko'rsatib, reflektor tarzda nafas markazini qo'zg'atadi (uzunchoq miyada joylashgan boshqa markazlarni ham). Avval, qisqa muddatga arterial bosimni pasaytiradi (markazlarni va adashgan nerv gangliyalarni aktivlaydi), so'ngra uni ko'taradi (asosan simpatik gangliyalar va buyrak ustı bei mag'iz moddasiga stimullovchi tasir tusayli).

Kuchli ifodalangan nafasning qo'zg' alishi nafasning qo'zg' alishi raktitnik (*Cytisus labicum*) va termopsis (*Thermopsis lanceolata*) o'simliklari tarkibida saqlanuvchi alkaloidlar sitizin qo'llanilganda namoyon bo'ladi. Kimyoviy tuzulishi bo'yicha sitizin ikkilamchi aminlar guruhiга kiradi. Uning ta'siri N-xolinoreseptorlarning stimulyatsiyasiga bog'liq bo'lib, lobelinga o'xshaydi. Katta konsentratsiyalarda bu alkaloidlar N-xolinoreseptorlarni salajlaydi. Sitizinning 0,15% li eritmasi Sititon nomi bilan chiqariladi.

Ikkala preparat ham nafasni stimullash uchun qo'llaniladi (agar nafas markazining reflektor qo'zg'aluvchanligi saqlangan bo'sa). Vena ichiga yuboriladi. Ta'sir davomiyligi juda qisqa. Bundan tashqari, bu ikki alkaloid chekishga bo'lgan xumorlikni chalg'itish maqsadida beriladigan preparatlarning asosiy komponentidir (sitizin "Tabeks", lobelin esa "Lobesil" tabletkalari tarkibida bo'ladi).

Nikotinga sezgir xolinoreseptorlarni falajlovchi vositalar.

Ushbu guruhga ganglioblokatorler, nerv – mushak sinapslarini falajlovchi va ayrim markaziy ta'sir etuvechi xolinoblokatorlar mansub.

a) Vegetativ gangliyalarda qo'zg'alish o'tishini bloklovchi vositalar (ganglioblokatorlar).

Ganglioblokator vositalar simpatik va parasimpatik gangliyalarni, shuningdek buyrak ustı bezi mag'iz moddasi hujayralari va karotid koptokechalari N-xolinoreseptorlarini falajlaydi.

Kimyoviy tuzilishi bo'yicha ganglioblokatorlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:


1. Bis - to'rtlamchi ammoniyli birikmalar - benzogeksoniy, pentamin, gigroniyl.
2. Uchlamchi aminlar – pirilen, paxikarpin gidroyodid.

Bazi ganglioblokator vositalarining kimyoviy strukturasi


Bis – to'rtlamchi ammoniyli birikmalar



Benzogeksoniy




Pentamin



Gigroniyl


Uchlamchi amin



Pirilen

Tibbiyot amaliyatida qo'llaniladigan ganglioblokatorlar ta'sir mexanizmi bo'yicha antidepolaryarizatsiyalovchi moddalar hisoblanadi. Shunday ma'lumotlar borki, bir qator gangliobokatorlar (geksoniy, pirilen) n-xolinoreseptorlarni emas, baki ochiq ion kanallarini bloklaydi. Shu bilan birga ba'zi ganglioblokatorlar (masalan afromad) n-xolinoreseptorlarni bloklaydi.

Ganglioblokatorlar rezorbтив ta'siri tufayli yuzaga keladigan farmakoterapeutik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy ta'sirlari quyidagilar hisoblanadi. Simpatik



gangiylarni susayishi natijasida qon tomirlar kengayadi, arterial va venoz qon bosimlari pasayadi. Periferik qon tomirlarni kengayishi shu sohadagi qon aylanishni yaxshilaydi. Parasimpatik gangliyalarda impuls o'tkazilishini buzilishi so'lak va

me'da bezlari

sekretsiyasini

kamayishi.

hazm qilish

tiziminining

ovqat

motorikasini tormozlanishi bilan ko'rinadi. Ganglioblokatorlarning vegetativ gangliylarni bloklovchi ta'siri ichki a'zolarning reflektor reaksiyalari susayishiga sabab bo'ladi. Ganglioblokatorlik effektni ifodalanishi shu sohani boshqaruvchi markazlarning boshlang'ich tonusiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqliqdır. Agar tajribada tomirlarni harakatantiruvchi markazlarni ishini buzilsa, ganglioblokatorlar arterial bosimni tushirmaydi. Aksincha, adrenergik innervatsiyani tonusi yuqori bo'lsa, bu ta'sir aniq ko'rinadi.

Preparatlarning ikki xil turi mavjud. Ulardan biri uzoq ta'sir qilish uchun tavsiya qilinadi. Bu vositalarga qo'yiladigan talablar quyidagilardir. Ular har-xil kiritish yo'llarida ham yuqori aktivlikka ega bo'lishlari, uzoq ta'sir muddatga, past toksiklikka ega bo'lishlari va jiddiy nojoya ta'sirlarga ega bo'lamasliklari lozim. Iloji boricha preparatga o'r ganib qolish sekin rivojlanishi yoki butunlay bo'lmasligi lozim. Yuqorida ketirilgan uzoq muddat ta'sir qiluvechi preparatlardan uchlamechi aminlar, masalan pirilen (pempidin tonsilat)ni qo'llanishi qulay. U me'da ichak traktida yaxshi so'rildi, yuqori aktivlikka va uzoq ta'sir muddatiga (8 soat va undan ortiq) ega. Aktivligi bo'yicha benzogeksoniyga o'xshash, lekin kam zaharli. Uchlamechi aminlarni tavsiya etilganda to'rtlamchi ammoniy tuzlaridan farqli, ular gematoensefalik to'siqdan oson o'tishlarini hisobga olish lozim. Bu xususiyat ularning MNS ga salbiy ta'sirining sababi bo'lishi mumkin (pirilenn qabul qilinganda ba'zida tez o'tadigan psixik buzilish, tremor va boshqalar). Uchlamechi aminlarga ganglioblokatorlardan paxikaroin gidroyodid ham taaluqli. Bu alkaloid tuzi semiz mevali Sosora (Sophora pachycarpa) tarkibida bo'ladi. Past ganglioblokatorlik va uzoq bo'lmanan ta'sir davomiylik bilan harakterlanadi. Miometriya stimullovchi ta'sir ko'rsatadi. Ingichka ichakda yaxshi so'rildi. Bis to'rtlamchi ammoniyli tuz – benzogeksoniy yuqori aktivlikka, ifodalangan tanlab ta'sirga ega, lekin ta'sir davomiyligi uzoq emas (3-4 soat). Bundan tashqari, me'da-ichak traktidan yomon so'rildi. Shuning uchun faqat parenteral qo'llaniladi, bu uning asosiy kamchiligi xisoblanadi. Pentamin (azameton bromid, pendiamid) benzogeksoniyga o'xshash xususiyatlarni namoyon qiladi. U aktivligi va ta'sir davomiyligi bo'yicha benzogeksoniydan past.

Ko'rib o'tilgan ganglioblokator me'da va o'n ikki barmoqli yara kasalligida, obliteratsiyalovchi endoartritda, o'pka shishida, arterial emboliyada, kam xollarda gipertoniya kasalligida (asosan gipertonik krizlarda) qo'llaniladi.

Tibbiyot amaliyatida qisqa ta'sir etuvechi preparatlar katta ahamiyatga ega. Bunday holatlarda asosan qisqa muddat ta'sir etuvechi (10-20 minut) ganglioblokatorlar ishlataladi. Ularga gigrony va arfonad (trimetafan kamforsulfonat) kiradi. Boshqa ganglioblokatorlar singari, ular asosan simpatik gangliyalarni susaytirishi natijasida arterial bosimni pasaytiradilar. Arfonad gistamin ajralishini ta'minlaydi va bevosita miotrop tomirlarni kengaytirish xususiyatiga ega. Gigrony tanlab ganglioblokatorlik ta'sirga ega ekanligi bilan harakterlanadi. Bundan tashqari u arfonadga nisbatan 5-6 marta kamroq zaharli.

Qisqa ta'sir qiluvchi ganglioblokatorlar boshqariluvechi gipotensiya xosil qilishda ishlataladi. Venaga tomechilab yuboriladi. Preparatni kiritish to'xtatilsa tezda (10-15 minutdan so'ng) qon bosimi o'z holatiga qaytadi. Xirurgiyada boshqariluvechi gipotensiya yurak-qon tomirlarda o'tkaziladigan operatsiyalarda yaxshi natija beradi va periferik to'qimalarning qon bilan taminlanishini yaxshilaydi. Arterial bosimni pasayishi va operatsiya maydonidagi qon tomirlarda qon ketishining kamayishi tireoidektomiya, mastektomiya kabi operatsiyalarni amalga oshirishni osonlashtiradi. Neyroxirurgiyada shu muxumki, bu vositalarning gipotenziv effekti bosh miya shishi paydo bo'lish imkoniyatini kamaytiradi. Bundan tashqari, ganglioblokatorlarning ishlatalishi jaroxlik jarayonlarida yurak, qon tomirlar va boshqa ichki organlarga boruvechi salbiy reflekslarni ma'lum darajada oldini oladi. Ganglioblokatorlar qo'llanganda kuzatiladigan nojo'ya ta'sirlar vegetativ gangliyalarning susayishi bilan bog'liq. Ganglioblokatorlarning tipik nojo'ya ta'sirlaridan biri ortostatik kollaps hisoblanadi. Utana holatini birdan o'zgarishidan vujudga keladi (masalan, tanani gorizontal holatdan vertical holatga tezda o'tilishi keskin kamayishi va gipotensiya sababli hushdan ketish kuzatiladi). Miyada qon arterial bosimni tez va ko'p miqdorga tushib ketishiga olib keladi. Miyada qon keskin kamayishi va gipotensiya sababli hushdan ketish kuzatiladi. Ortostatik kollapsni oldini olish maqsadida bemorga preparat qabul qilingandan so'ng ikki soat mobaynida yotish tavsiya qilinadi.

Ganglioblokator qo'llagan vaqtida me'da-ichak tizimi motorikasi susayishi mumkin, bu esa qabziyat (obstipasiya) ga olib keladi. Bularidan tashqari arterial bosimning keskin tushib ketishi, paralitik ileus (ichak tutilishi), midriaz, akkomodatsiyaning buzilishi, dizartriya va disfagiya (nutq va yutishning buzilishi) va siyidik to'xtashi mumkin.

Ganglioblokatorlar qo'llanilganda jiddiy asoratlar kam uchraydi. O'lim holati nafas susayishi bilan bog'liq bo'ladi.

Ganglioblokatorlarning dozasi oshib ketganda beriladigan yordam kislorod berish, sun'iy nafas oldirish, bu moddalarning antagonistini bo'lmish analeptiklar va prozeta yuborishdan iboratdir. Arterial bosimni ko'tarish maqsadida α -adrenomimetiklardan foydalanish lozim. M-xolinoreseptorlarni qo'zg'atuvchi vositalar (masalan, karboxolin, aseklidin)ni akkomodatsiya buzilganda, qorachiq kengayib ketganda, shuningdek, meda-ichak trakti motorikasi susayganda, siyidik pufagi atoniyasida qo'llash foydali hisoblanadi.

Ganglioblokatorlarni uzoq muddat qo'llanilganda odatda ularga o'rGANISH rivojlanadi (to'rtlamchi ammoniyli birikmalarga qaraganda pirlenga o'rGANISH sekin kechadi). Ganglioblokatorlarni gipotensiya holatlarida, aterosklerozda, koronar qon aylanish yetishmovchiligidagi, glaukomada, buyrak funksiyasi buzilganda, miokardning organik buzilishlarida qo'llash mumkin emas.

B) Nerv-mushak o'tkazuvchanligini bloklovchi vositalar

(kuraresimon vositalar yoki periferik ta'sir etuvchi miorelaksantlar).

Bu farmakologik vositalar guruhining asosiy xususiyati nerv-mushak o'tkazuvchanligiga bloklovchi ta'siri tufayli skelet mushaklarining bo'shasnishidir. Birlamchi bunday xususiyat kurareda topilgan, shuning uchun, bu guruh moddalari kuraresimon vositalar deyiladi. Kurare Janubiy Amerikada o'sadigan Strychnos u Chondadendron turlariga turlariga mansub o'simliklardan olingan ekstrakt hisoblanadi. Bir necha yuz yilliklar davomida kurare kamon o'qini zahari sifatida ishlatalishgan. XX asrning 40-yillarda tibbiyotda ishlata boshlaganlar. Kurare turli xil alkaloidlar saqlagan bo'slib, asosiyalaridan biri tubokurarin hisoblanadi (ushbu

o'simlik mahsulotidan olinadi). Bundan tashqari, kuraresimon preparatlarning boshqa turlari mayjud bo'lib ular sintetik, yarimsintetik va o'simliklardan olingan. Ularning hammasi harakatlantiruvechi nervlardan skelet mushakkariiga qo'zg'alish o'tishini bloklaydilar. Kimyoviy tuzilishiغا ko'ra ko'pehilik kuraresimon vositalar to'rtlamchi ammoniyni birikmalaridir. Keng qo'llaniladigan preparatlar quyidagilardir: tubokurarin xlorid (tubarin), pankuroniy bromid, pipekuroniy bromid, atrakuriy, ditilin (dixlorid va dibromidları: suksuksametoniy xlorid, listekon, miorelaksin, suksinilxolin xlorid va boshqalar).

Ba'zi bir kuraresimon vositalarning kimyoviy strukturasi.

To'rtlamchi ammoniy birikmalar.

O'simliklardan olingan preparatlar:



Tubokurarin

Sintetik vositalar:



Pankuroniy



Anakuroniy




Ditilin

To'rtlamchi ammoniyli birikmalarda 2 ta kationli markaz mavjud bo'lib (musbat zaryadli azot atomi). Kuraresimon vositalarning aktivligi kation markazlardiagi zaryadlarning konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Moddalarning N-xolinoreseptorlar 132

anion strukturalari bilan qutbli bog'lanishi kation markazlari hisobiga yuzaga keladi. Bundan tashqari, qutbsiz bog'lanishlar ham ma'lum rol o'yynaydi. Ko'pchilik kuraresimon vositalar uchun azot atomlari orasidagi optimal masofa 1,4-1,5 nm. Kuraresimon vositalar N-xolinoreseptorlar bilan o'zaro ta'sir qilib, postsinaptik membrana sohasida nerv-mushak o'tkazuvchanligini susaytiradi. Har xil kuraresimon vositalar chaqirgan nerv-mushak to'siq har xil kelib chiqishga ega bo'lishi mumkin. Kuraresimon vositalar tasnifi shunga asoslangandir.

Ta'sir mexanizmiga ko'ra ular quyidagi guruhlarga bo'linadilar (rasm -3.):

- 1) Antidepolyarizatsiyalovchi (depolyarizatsiyaga qarshi) vositalar – tubokurarin xlorid, pankuroniy bromid, pipekuroniy bromid.
- 2) Depolyarizatsiyalovchi vositalar – ditilin.
- 3) Aralash ta'siriga ega vositalar – dioksoniy



(rasm -3.) Antidepolyarizatsiyalovchi preparatlar

N-xolinoreseptorni bloklaydi va asetilxolining depolyarizasiyalovchi ta'siriga to'sqinlik qiladi. Ion kanallariga bloklovechi ta'sir ikkilamchi ahamiyatga ega.

Antidepoliarizatsiyalovchi vositalar raqobatli va raqobatsiz N-xolinoblokatorlarga bo'linadi. Shunday, haqiqiy raqobatli antagonism N-xolinoreseptorlarga ta'siri bo'yicha kuraresimon vositalar (m-n. Tubokurarin) va asetilxolin o'ttasida bo'ladi. Tubokurarin bilan chaqirilgan nerv-mushak blokadasi sonida N-xolinoreseptorlar sohasining oxirlaridagi plastinkalarida asetilxolin konsentrasiyasini sezilarli darajada ko'tariladi. Bu nerv-mushak o'tkazuvchanligini qayta tiklanishiga olib keladi (raqobatli ta'sir qiluvchi asetilxolin xolinoreseptorlar bilan bog'langan tubokurarinni siqib chiqaradi). Agar bu holatda yana ma'lum miqdorda tubokurarinning konsentratsiyasini oshirilsa, yana bloklovchi ta'sir rivojlanadi. Shu prinsip asosida ta'sir qiluvchi moddalar raqobat turidagi kuraresimon vositalar deyiladi. Rاقوبات turidagi preparatlarga pankuroniy (pavulon), pipekuroniy (arduan), vekuroniy, atrakuriylar kiradilar. Bundan tashqari, raqobatsiz turidagi preparatlar mavjud (m-n. prestonal). Rاقوباتsiz turdag'i antidepoliarizatsiya preparatlarning miorelaksatsiya chaqirish xususiyati asetilxolin ta'siriga ega preparatlarning miorelaksatsiya chaqirish xususiyati asetilxolin n-konsentratsiyasiga bog'liq emas. Bunda kuraresimon preparat va asetilxolin n-xolinoreseptorlarning har xil, lekin o'zaro bog'liq bo'lgan joylari bilan bog'lansa kerak.

Antidepoliarizatsiyalovchi kuraresimon vositalarning ta'sir faolligi va davomiyligi narkoz vositalari ta'siri ostida o'zgarishi mumkin. Efir va ozroq darajada florotan antidepoliarizatsiyalovchi vositalarning mioparalitik ta'sirini kuchaytiradi va davomiyligini uzaytiradi; azot (I) oksidi va siklopropan esa ular faolligiga ta'sir ko'rsatmaydi. Geksenal yoki tiopental-natriy sonida antidepoliarizatsiyalovchi preparatlarning bloklovchi ta'siri qisman kuchayishi mumkin.

Depolyaziratsiyalovchi vositalar (m-n. ditilin) n-xolinoreseptorlarni qo'zg'atadi va postsinaptik membrananing turg'un depolyaziratsiyasini keltirib chiqaradi, reseptorlarning asetilxolingu nisbatan sezuvehanligi yo'qoladi. Membrana repolyarizatsiya holatiga o'tolmaydi, kelayotgan yangi impulsmani qabul qilolmay qoladi. Depolyaziratsiyasining rivojlanishi mushaklarni biroz qisqarishi (fibrillyasiya) – past sirkulyatsiya (nerv mushak o'tkazuvchanligi qisqa muddatga

osonlashadi) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Qisqa vaqt o'tgandan so'ng mioparalitik ta'sir boshlanadi (depolyaziratsiya bloki hosil bo'ladi).

Bazi bir kuraresimon vositalar aralash turda ta'sir qilishi bilan harakterlanadi (depolyaziratsiyalovchi va antidepolyarizatsiyalovchi xususiyatlari birlashadi). Masalan, dioksoniy avval qisqa muddatli depolyaziratsiyalovchi falajlab, keyin konkurent blok paydo qiladi. Yuqorida aytildigidek, kuraresimon vositalarning mioparalitik ta'siri ularning asosiy hususiyati hisoblanadi. Aktivligi bo'yicha (moddalar dozalari solishtirilganda) asosiy preparatlarni quyidagi tarkibda joylashtirish mumkin: pipekuroniy > pankuroniy > tubokurarin > ditilin > milliktin. Kuraresimon vositalar mushaklarni ma'lum tartibda bo'shashtiradi. ularning ko'pchilgi birinchi navbatda yuz va bo'yin, so'ngra qo'l-oyoq va tana mushaklarining nerv mushak sinapslarini bloklaydilar. Nafas mushaklari preparatlarni ta'siriga chidamli. Eng oxirida diafragma mushaklari falajlanadi, natijada nafas olish to'xtaydi. Mioparalitik ta'sir kengligi preparatlarni uchun muhim harakterli hususiyat hisoblanadi. Bu preparatning mushaklarini unga eng sezgir dozasi bitan nafas olishni to'liq to'xtatuvchi dozasi orasidagi diapazondir. Qo'laniladigan preparatlarni mioparalitik ta'sir kengligining kamligi bilan harakterlanadi (masalan, tubokurarin, pankuroniy, pipekuroniy). Kuraresimon vositalar mioparalitik ta'siri davomilgi bo'yicha shartli uch guruhga bo'linadi:

- qisqa muddatli ta'sir qiluvchilar (5-10 daq.) – ditilin;
- o'rtacha muddatli ta'sir qiluvchilar (20-30 daq.) – atrakuri, vekuroniy;
- uzoq muddatli ta'sir qiluvchilar (30-40 daq. va uzoq) – tubokurarin, pipekuroniy, pankuroniy.

Kuraresimon moddalarga antagonist tanlash miorelaksantlarning ta'sir mexanizmiga asoslanadi. Antidepolyarizatsiyalovchi (raqobatli) vositalarga antixolinesteraz vositalari (prozerin, galantamin) aktiv antagonistlardir. Antixolinesteraz vositalari asetilxolinesterazani bloklab, sinaptik yoriqiarda asetilxolin konsentrasiyasini anchagina oshiradi. Bu aytib o'tilganidek, n-xolinoreseptorlar bilan bog'langan kuraresimon birikimalarni siqib chiqaradi va nerv-mushak o'tkazuvechanligini qayta tiklaydi. Bundan tashqari, antagonist sifatida

pimadindan (4-aminopiridin) foydalanish mumkin, u harakatlantiruvchi nerv oxirlaridan asetilxolin ajralishini taminlaydi.

Depolyarizatsiyalovchi miorelaksant vositalarning antagonisti yo'q. Antixolinesteraz vositalar bu maqsadda ishlatilmaydi, chunki ular depolyarizatsiyalovchi kuraresimon vositalarni bloklovchi ta'sirini yo'q qilibkina qolmay, uni kuchaytiradi ham. Tibbiyotda keng qo'laniqidigan depolyarizatsiyalovchi vosita ditilinning ta'siri yangi sitratli qon quyish yo'li bilan to'xtatiladi. Qon plazmasi tarkibida xolinesteraza mayjud bo'lib, ditilinni gidrolizlaydi.

Ko'pehilik kuraresimon vositalar asosan nerv-mushak sinapslarigd yuqori darajada tanlab ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ularning bazilari boshqa xolinergik sinapslarga ham ta'sir qiladi. Bir qator antidepolyarizatsiyalovchi vositalar kuchsiz gangliobloklovchi ta'sir ko'rsatadi (asosan tubokurarin), buning ko'rinishlaridan mag'iz qavatining n-xolinoreseptorlariga susaytiruvechi ta'siridir. Ba'zi bir vositalarda (masalan, pankuroniy) yurakga nisbatan kuchli ifodalangan m-xolinoblokatorlik (vagolitik) ta'sir kuzatilib, bu taxikardiyaga olib keladi. Tubokurarin va ba'zi boshqa preparatlar gistogram ajralishini kuchaytirishi mumkin, bu esa arterial bosimning pasayishiga bronx mushaklari tonusini oshishiga olib keladi.

Depolyarizatsiyalovchi kuraresimon vositalar elektrolit muozanatiga ma'lum miqdorda ta'sir ko'rsatadi. Postsinaptik membrananing depolyarizasiysi natijasida kaliy ionlari skelet mushaklaridan ajralib chiqadi va ekstrasellyulyar suyuqlikda va qon plazmasida ularning miqdori oshadi. Bu yurak aritmiasiga sabab bo'lishi mumkin.

Narkozdan keying davrda depolyarizatsiyalovchi vositalar qo'lanilganda ba'zan mushaklarda og'riqlar kuzatilishi mumkin. Bu depolyarizatsiyalovchi preparatlar ta'siri bilan bog'liq bo'lgan ularning fassikulyasiysi vaqtidagi mushaklarning mikrotravmasi natijasi hisoblanadi. Depolyarizatsiyalovchi vositalar ganglioblokatorlik ta'sir ko'rsatmaydi. Katta dozalarda ular gangliyalarning

buyrak usti bezi mag'iz qavati n-xolinoreseptorlarini qo'zg'atib, arterial bosimni oshiradi. Depolyarizatsiyalovchi kuraresimon vositalar skelet mushaklarining annuspiral oxirlarini stimullaydi. Bu proprioceptiv tolalarning afferent impulsasiyasini kuchaytiradi va monosinaptik reflekslarni susayishini chaqirishi mumkin.

To'rtlamchi ammoniyli birikmalar guruhidagi kuraresimon vositalarning ko'pehiligi MNSga ta'sir qilmaydi (gematoensefalik to'siqdan yomon o'tadi). Bu guruh preparatlari MITda yomon so'rildi, shuning uchun ular parenteral qo'laniadi, asosan vena ichiga. Ba'zi preparatlar organizmda fermentative parchalanishlarga uchraydilar. Yuqorida aytib o'tilganidek, ditilin qon plazmasining xolinesterazasi bilan gidrolizlanishi uni qisqa muddat ta'sir qilishiga sabab bo'ladi. Kuraresimon vositalar va ularning metabolitlari asosan buyraklar orqali chiqariladi.

Kuraresimon preparatlar anestezalogiyada jarrohlik muolajalarini bajarish uchun keng qo'laniadi. Ular skelet mushaklarini bo'shashini taminlab, ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i a'zolari, shuningdek qo'l va oyoqlardagi ko'pgina operasiyalarni bajarilishini onsonlashtiradilar. Ular traxeya intubatsiyasida, bronxoskopiyada, chiqqan va singan suyaklarni o'z joyiga joylashtirishda ishlatiladi. Bundan tashqari bu preparatlar qoqshol kasaligini davolashda, elektrotirishish muolajasida qo'laniadi. Jarrohlik muolajasini qancha muddat davom etishi hisobga oigan holda preparatning kerakli ta'sir davomiyligiga ega bo'lGANI qo'laniadi.

Kuraresimon vositalarning nojuya ta'sirlari havfli hususiyatga ega emas. Arterial bosim ularning ta'sirida pasayishi (tubokurarin) va ko'tarilishi (ditilin) mumkin. Bir qator preparatlarga taxikardiya hosil bo'lishi harakterli (pankurony). Gohida yurak aritmiyasi (ditilin), bronxospazm (tubokurarin), ko'zning ichki bosimni oshishi (ditilin) kuzatiladi. Depolyarizatsiyalovchi vositalar uchun mushak og'riqlari harakterli. Qon plazmasidagi xolinesterazaning genetik yetishmovchiligi bo'lgan shaxslarda ditilin uzoq mudatli apnoeni chaqiradi (odatdag'i 5-10 daqqa o'rniga, 6-8 soatgacha va undan ortiq). Kuraresimon vositalarning jigar, buyrak kasaliklarida hamda keksa yoshli insonlarda qo'llashda extiyot bo'lish lozim. Shuni esda tutish kerakki, yuqorida ko'rsatilgan vositalar nafasni susaytirishi va butunlay to'xtatishi

mumkin. Shuning uchun ular tibbiyot amalyotida ishlatalganida ularning antagonistlari va sun'iy nafas oldirishga kerakli sharoit bo'lishi lozim.

Asetilxolin xolinergik innervasiya mediatori bo'lib, tibbiyotda qo'llanilmaydi. Tibbiyot amalyotida glaukomada kamdan - kam holatlarda asetilxolining analogi karbaxolinni qo'llaniladi ($R=NH_2$ $G=Cl$ tuzilishga qarang). Karbaxolin asetilxolindan barqarorligi bilan ajralib turadi. U asetilxolinesteraza bilan gidrolizlanmaydi va shuning uchun juda uzoq muddat ta'sir etadi (1 – 1.5 soat mobaynida). Karbaxolin nafaqat to'g'ridan - to'g'ri xolinomimetik ta'sir ko'rsatadi deb hisoblashadi, balki presinaptik uchlardan asetilxolinni chiqarilishiga yordam beradi. Karbaxolining farmakologik ta'sir ko'lamni asetilxolinniki bilan bir xil. U M- va N- xolinreceptorlarga ta'siri bilan aniqlanadi.

M- va N-xolinoblokatorlar

"Parkinsonga qarshi vositalar" 10 bobga qarang.

Asetilxolin mediatorini falajlash asosan asetilxolinesteraza fermenti tomonidan amalga oshiriladi. U ko'p miqdorda asetilxolin ajralib chiqadigan joylarda, presinaptik membranada bartaraf etiladi (ganglionar xolinergik tolalar oxirlarida, harakatlantiruvchi tolalar oxirlarida, MNT, vegetativ gangliyalarda va bosh.). Bu asetilxolining enzimatik gidroiiziga tezda yordam beradi. uni xolin va sirkakislotasiga aylantirgan holda.

ADRENERGIK SINAPSLARGA TA'SIR ETUVCHI DORI VOSITALARI

4.1. ADRENOSEPTORLARNI QO'ZGATUVCHI MODDALAR

ADRENOMIMETIKLAR

4.1.1. α va β — adrenoreseptorlarni bevosita qo'zg'atuvchi moddalar

Adrenalin gidroxlorid, noradrenalin gidrotartrat

Adrenalin adrenomimetiklarning asosiy moddasi bo'lib, α va β — adrenoreseptorlarni qo'zg'atadi. Adrenalin yurakda, yurak o'tkazuvehan sistemasida joylashgan β — adrenoreseptorlami qo'zg'atib, yurak urishini tezlashtiradi, musbat — inotrop, musbat — xronotrop ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan

birga miokardning kislородга бо'лган етийони, ғон босимини, асосан sistolik босими оширади.

Qon босими qisqa muddatga ko'tariladi, chunki pressor jarayonda tomirlaming mexanoreseptorlari reflektor bradikardiyani paydo qiladi. Adrenalin ehetda joylashgan tomirlaming umumiy qarshiligini kamaytiradi, bu holat mushak tomirlarining β — adrenoreseptorlarining qo'zg'alishi, ularning kengayishi bilan bog'liq, shu tufayli diastolik босим pasayadi. Venoz босимини adrenalin оширади, teri, ichak, buyrak tomirlarini qisqartiradi, skelet mushaklarining tomirlarini, тоj tomirlami kengaytiradi, miya, o'rka tomirlariga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Adrenalinning yuqori miqdori umumiy periferik qarshilikni ошириб yuborishi mumkin.

Adrenalin bronxlarni silliq mushaklarida joylashgan β_2 — adrenoreseptorlarni qo'zg'atib, mushaklarni bo'shashtiradi, bronxlarni kengaytiradi. Radial mushaklarda joylashgan α — adrenoreseptorlami qo'zg'atib, qorachiqni kengaytiradi. Adrenalin ichakda joylashgan α hamda β — adrenoreseptorlarni qo'zg'atadi, ichak tonusini hamda peristaltikasini kamaytiradi. Qora taloq hamda sfinkterlarda joylashgan α adrenoreseptorlar qo'zg'alishi tufayli, ular qisqaradi. Adrenalin modda almashinuviga ta'sir ko'rsatadi, glikogenoliz va lipolizlarda qatnashadigan adrenoreseptorlami qo'zg'atib, qondagi qand hamda erkin yog' kislotalar miqdorini оширади. Bu jarayon adenilasiklaza mexanizmi tufayli amalg'a ошади: adrenoreseptorlami qo'zg'atib, adenilasiklaza fermenti faolligini оширади, shuning uchun siklik AMF konsentrasiyasi ошиб, fosforilaza hamda trigliseridlipaza fermentlarining faolligini оширади. glikogenni glyukoza — 6 fosfatga, trigliseridlami gliserin hamda yog' kislotalarga parchalaydi.

10 jadval

Adrenalin va noradrenalinning yurak va qon tom irlar faoliyatiga ta'siri

| Ko'rsatichlar | Adrenalin | Noradrenalin |
|----------------------|-----------|---------------------------|
| Yurak urishi tezligi | kuchayadi | sal kamayadi |
| Zarb hajmi | kuchayadi | Kuchayadi |
| Minutlik hajmi | ortadi | o'zgarmaydi yoki kamayadi |
| Sistolik bosim | kuchayadi | Kuchayadi |
| Distolik bosim | kamayadi | Kuchayadi |

Adrenalin vegetativ nervlar oxirida mediatorlar asetilxolin va noradrenalinning ajralishini hamda nervlardan mushaklarga (ayniqsa, mushaklar toliqqanda) o'tkazuvchilikni oshiradi. Adrenalin gistogramming erkin holda ajralishini kamaytiradi, mikrosirkulyasiyaga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Adrenalin ozroq bo'lsa ham gematoensefalik to'siqdan o'tib, markaziy nerv sistemasini, asosan gipotalamusni qo'zg'alishga olib keladi. Bunda bezovtalik, qaltirash, qusish markazini ishga soladigan sohani rag'batlantirish hollari kuzatiladi. Gipotalamus qo'zg'alishi tufayli ichki bezlarning sekresiyasi oshadi, termoregulyasiya markazi qo'zg'atadi.

Adrenalin kattalar va bolalarda bronzial astma xurujlarida, insulin miqdori oshishi tufayli ro'y beradigan gipoglikemik holatlarda, mahalliy anestetiklarning ta'sir muddatini uzaytirish uchun ular bilan qo'llanadi. Adrenalin miokardning kislородга bo'lgan ehtiyojinini oshiradi, shu tufayli hozirgi kunda shok, kollapsda deyarli qo'llanilmaydi.

Adrenalinning qorachiqni kengaytirish xususiyati bor, shuning uchun ochiq burchakli glaukomada qo'llaniladi, chunki adrenalin bezlar sekresiyasini hamda ko'z ichida suyuqlik hosil bo'lishini kamaytiradi.

Shuningdek, adrenalin bolalar amaliyotida nafas yorullari torayganda qo'llaniladi, chunki bronxlar shilliq mushaklarini bo'shashtiradi hamda shu erdag'i qon tomirlarini qisqartiradi.

Adrenalinni gipertoniya kasalligida, buyrak va jigar xurujlarida, tireotoksikoz, gemotransfuzion shok, qandli diabet, feovromositomada, homiladorlik davrida qo'llash man etiladi.

Adrenalin teri ostiga, mushaklar orasiga, venalarga hamda mahalliy qo'llaniladi, shilliq pardalarga tomchi shaklida, ba'zan to'g'ri yurak mushaklariga ham yuboriladi, me'da-ichak shirasida parchalanadi, shuning uchun og'iz orqali yuborilmaydi.

Adrenalin qisqa muddat ta'sir qiladi, teri ostiga yuborilganda ta'siri 30 daqiqa, venalarga yuborilganda 5 daqiqa davom etadi, chunki nevronlar adrenalinni qaytadan o'ziga tezda qamrab olishi va KOMT, MAO fermentlar ishtirotkida parchalanishi mumkin. Adrenalin o'zgarmagan holda va uning metabolitlari organizmdan siyidik orqali chiqib ketadi.

Keyingi ma'lumotlarga ko'tra, organizmda hosil bo'ladigan va dori sifatida yuborilgan adrenalinni yurak tanlab parchalashdan saqlaydigan oqsillar bilan bog'lab oladi. Simpatik innervasiya tonusi oshganda (stress) bog'langan adrenalini erkin holatda ajralib, yurakda moddalar almashinuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi, stenokardiya, miokard infarktining kelib chiqishi omillaridan hisoblanadi.

Adrenalin qo'llanganda quyidagi noxush asoratlar kuzatiladi: yurak urishi tezlashadi, uning qon bilan ta'minlanishi izdan chiqadi, qonda qandning miqdori oshadi, ko'ngil aynaydi. Organizm adrenalinga tez o'rorganadi, ya'ni taxifilaksiya paydo bo'ladi, tez-tez takroran yuborilganda uning ta'siri kamayib boradi. Ko'rsatib o'tilgan noxush asoratlar bolalar va kattalarda ham uchraydi. Adrenalin yurakning notekis urishiga ham olib keladi, aritmiyalar — qorinchalar ekstrasistolalari paydo bo'ladi, bu ko'pincha adrenalinga yurakning sezuvechanligini oshiradigan moddalar (*storotan, siklopropan*) qo'llanganda ro'y beradi.

Adrenalin miqdori oshganda yurak tez uradi, ekstrasistolalar, xatto qorinchalarda fibrillyasiya hosil bo'ladi. Umumiy qon bosimi hamda kichik qon aylanishdag'i

bosim oshib ketadi, yurakka tushadigan yuklama oshadi, yurak yetishmovchiligi ro'y beradi, o'pka shishi hamda miyaga qon qo'yilishi mumkin. Bu holatlarda adrenolitiklar qo'llamiladi, o'pka va boshqa a'zolar shishida ganlioblokatorlardan foydalaniлади.

a - (3— adrenomimetiklardan *noradrenalin* bevosita qon tomirlarda joylashgan a adrenoreseptorlarni qo'zg'atib, arteriola va venulalaming silliq mushaklarini toraytiradi, arterial hamda venoz bosimi oshiradi, qon bosimi qisqa muddatga ko'tariladi, keyin pasayadi.

Ilgari noradrenalin asosan a - adrenoreseptorlarni qo'zg'atadigan modda hisoblanardi, keyingi vaqtida bu moddaning yurakdag'i β - adrenoreseptorlarga ta'siri ma'lum bo'ldi, shuning uchun noradrenalin a - hamda β - adrenoreseptorlarga bevosita ta'sir etuvchi moddalar orasida o'z o'rmini oldi.

Noradrenalin yurakdag'i a-adrenoreseptorlami adrenalinga nisbatan kuchsizroq qo'zg'atadi, yurak zARBining hajmi oshsa ham yurak urishi tezlashmaydi, hatto biroz sekinlashishi mumkin, chunki yurakdan katta zarb bilan chiqqan qon aortadagi baroreseptorlami qo'zg'atib, reflektor yo'l bilan vagus nervi faolligini oshirib yuboradi. Noradrenalin yuborilganda yuz beradigan bradikardiyaning oldini olish uchun atropin qo'llash mumkin.

Noradrenalin qon bosimi keskin pasayib ketganda — qon tomirlar kollapsida qo'llaniladi: kardiogen shok hamda qon quyilganda ro'y beradigan gemotransfuzion shoklarda noradrenalinni qo'llash man etiladi.

Noradrenalin faqat venaga tomehilatib yuboriladi, og'iz orqali yuborilsa, parchalanib ketadi, teri ostiga yuborilsa qon tomirlarini keskin toraytirib, to'qimalarda nekroz hosil qilishi mumkin. Noradrenalinning faolligi tezda kamayib uning metabolitlari buyrak orqali chiqib ketadi. Noradrenalin bilan davolanganda noxush asoratlari uchraydi — hemorning boski og'riydi, nafas olishi ham beradi, noradrenalin teri ostiga tushsa, nekroz yuz berishi mumkin.

4.1.2. a — va β— adrenoreseptorlarni bilvosita qo'zg'aluvchi moddalar

Efedrin gidrokslorid

Alkaloid efedrin *Ephedra* o'simligidan olingan, bu modda mediator noradrenalining vezikulalardan ajraljshini oshiradi hamda mediatorning qayta so'riliishiga to'sqinlik qiladi — sinaptik oraliqda uning hajmi, adrenoreseptorlarga bo'lган ta'siri oshib boradi. Shu bilan birga efedrin adrenoreseptorlarning mediatorlarga nisbatan sezuvchanligini ham oshiradi. Efedrin asosan presinaptik, katekolaminlaming ajralishiga, qayta so'riliishiga ta'sir ko'rsatadi, ularning miqdorini oshirib, adrenoreseptorlami bilvosita qo'zg'atadi.

Efedrinning asosiy ta'siri adrenalinga o'xshab ketadi. Yurak faoliyatini, qon bosimini oshiradi, bronxlarni, qorachiqni kengaytiradi, ko'z bosimiga akkomodasiyaga ta'sir qilmaydi, skelet mushaklari tonusini, qonda qand miqdorini oshiradi, ichak peristaltikasini kamaytiradi.

Adrenalinga nisbatan ta'siri sekinroq boshlanadi, lekin davomli bo'ladi. Efedrin gematoentsefalik to'siqdan yaxshi o'tib, markaziy nerv sistemasiga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi. Efedrin og'iz orqali yuborilganda uning ta'siri saqlanib qoladi, chunki bu modda ferment monoaminokisidazaga chidamli bo'ladi. Jigarda bir qismi boshqa fermentlar hisobidan dezaminlanishga uchraydi, efedrin 40% o'zgarmagan holda buyrak orqali organizmdan chiqib ketadi, enteral va parenteral yo'llar orqali yuboriladi. Efedrin asosan bronzial astmani oldini olish hamda astmoid holatlami davolash uchun, gipotoniyada, atrioventrikulyar blokda qo'llaniladi. Chaqaloqlarda hamda bir yoshgacha bo'lган bolalarda katekolaminlaming miqdori va ulaming transport mexanizmlari to'liq rivojlanmagan, shuning uchun ularda efedrinning ta'siri kamroq bo'ladi.

Efedrin tez orada takror va takror yuborilganda unga organizm tez o'rganib qoladi, ya'ni taxifillaksiya paydo bo'ladi, pressor ta'siri kamayib boradi. Efedrin qo'llanilganda uyqusizlik, bezovtalik, ko'ngil aynishi, taxikardiya paydo bo'ladi. 5 yoshdan oshgan bolalarda efedrin miqdori oshganda bezovtalik, taxikardiya yuz beradi. 5 yoshdan kichik bolalarda esa markaziy nerv sistemasi faoliyati susayishi, hatto uyquchanlik kuzatilishi mumkin.

4.1.1. a — adrenoreseptorlarni bevosita qo'zg'atuvchi moddalar

Mezaton, naftizin, galazolin

Mezaton asosan qon tomirlardagi α — adrenoreseptorlarni qo'zg'atib, qon bosimini oshiradi. β — adrenoreseptorlarga deyarli ta'sir qilmaydi, ko'z qorachig'ini kengaytiradi. Mezaton pressor modda sifatida gipotoniyalarni davolashda qo'llaniladi.

Qon bosimini noradrenalin adrenalinga nisbatan kuchli oshiradi, ta'siri davomliroq bo'ladi, chunki kimyoviy jihatdan katekolaminlardan farq qiladi, katekolaminlarni parchalaydigan KOMT fermentiga nisbatan chidamliroq bo'ladi. Mezaton rinitlarni davolashda hamda mahalliy anestetiklar bilan birga qo'llaniladi.

Mezatonni gipertoniya, ateroskleroz kasalliklarida qo'llash man etiladi: gipertireoz, yurak kasalliklarida, qariyalarda ehtiyojkorlik bilan qo'llaniladi; mezaton og'iz orqali, teri ostiga, mushaklar erasiga, venalarga yuboriladi. Rinitlarda tomchi sifatida ham qo'llaniladi.

a — adrenomimetiklar naftizin va galazolin o'tkir rinitda, burundan qon oqishini to'xtatishda qo'llaniladi. Bu moddalar qon tomirlarni keskin va davomli qisqartiradi, shuning uchun faqat mahalliy qo'llaniladi, surunkali rinitlarda hamda takroriy yuborilganda ta'siri kamayishi mumkin, shuning uchun 5-6 kundan keyin qo'llanishdan tanaffus qilinadi. Galazolin naftizinga nisbatan to'qimalarga ko'proq qo'llanishdan tanaffus qilinadi. Naftizin «ehtiyojsizlik bilan qo'llanganda burun shilliq pardasidagi qon o'tkazadi, yosh botalarla uzoq muddat qo'llanganda burun shilliq idan bo'lishi mumkin». Naftizin «ehtiyojsizlik bilan qo'llanganda burun shilliq idan qonga so'rilib, hamma tomirlar umumiy qisqarishi mumkin, shu tufayli I yoshgacha bo'lgan bolalarga naftizinni qo'llash man edladi».

4.1.4. β — adrenoreseptorlami bevosita ta'sir etuvchi moddalar

β — ADRENOMIMETIKLAR

Izachrin, saibutamol, alupent

Moddalar tanlab β_1 va β_2 — adrenoreseptorlarni qo'zg'atib, asosan yurakka, bronxlargaga va qon tomirlarga ta'sir ko'rsatadi. Yurak va yurakning o'tkazuvchan sistemasiidagi β — adrenoreseptorlarni qo'zg'atib yurak kuchini, urish tezligini,

atrioventrikulyar o'tkazuvchanligini, avtomatizmini, sistolik bosimni oshiradi. Qon tomirlarda joylashgan β_2 — adrenoreseptorlarni qo'zg'atib, ularni kengaytiradi, diastolik bosim pasayadi. Chetda joylashgan qon tomirlarning umumiy qarshiligini pasaytiradi, venalar qisqaradi. Izadrin yurak mushaklarining kislородга bo'lган ehtiyojini oshirishi tusayli gipoksiya yuz berishi mumkin. Izadrin bronxlardagi β_2 — adrenoreseptorlarni qo'zg'atib, ularni kengaytiradi. Moddalar almashinuviga adrenalinga o'xshab ta'sir ko'rsatadi, qand va erkin yog' kislotalar miqdorini oshiradi. Giperglykemiya adrenalinga nisbatan kamroq bo'ladi. Yurak mushaklarining hujayralarida kreatinfosfat, ATP, kaliy miqdori kamayadi. Yosh bolalarda izadrinning moddalar almashinuviga ta'siri kattalarga, ayniqsa, qariyalarga nisbatan kamroq bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va emizikli bolalarda katekolammlaming qaytadan neyronlar bilan qamrab olinishi, MAO va KOMT fermentlarining faoliyatini kamroq bo'lishi tusayli izadrin ta'siri ularda davomliroq bo'ladi. Izadrin boshqa a'zolarda joylashgan β_2 — adrenoreseptorlarni ham qo'zg'atib, me'da-ichak, bachadon tonusini susaytiradi, skelet mushaklarini bo'shashtiradi, markaziy nerv sistemasini qo'zg'atadi.

Izadrin bronzial astma xurujlari, astmoid bronxitlarni, atrioventrikulyar bloklarni davolash uchun asosan aerozol hamda til osti tabletkalari shaklida qo'llaniladi.

Izadrin ta'sirida quyidagi noxush asoratlar ro'y beradi: yurak tez uradi, aritmiyalar paydo bo'ladi, bemor qaltiraydi, boshi og'riydi. Ingalyasiyani, ayniqsa, bolalarda ehtiyyotlik bilan o'tkazish lozim, chunki bolalarga izadrin nazoratsiz tez-tez qo'llanilsa, yurak tomirlarida og'ir asoratlar, o'pkada havo almashinuvining o'zgarishi, hatto hayot uchun xatarli holatlar ro'y berishi mumkin.

Bronzial astma astmoid holatlarda qollanilganda noxush asoratlar kelib chiqadi, masalan, taxikardiya, taxiaritmiya paydo bo'lishi mumkin, shuning uchun ushu kasalliklami davolashda tanlab, asosan bronxlarda joylashgan β — adrenoreseptorlarga ta'sir etuvehi moddalarni izlash zarur bo'ladi. Salbutamol, alupent moddalari shu talablarga qisman javob berishi mumkin. Bular kimyoviy tuzilishidan izadringa o'xshaydi.

α va β - adrenoreseptorlarni bilvosita falajlovehi moddalar. Simpatolitiklar Rezerpin, oktadin

Simpatolitiklar adrenergik nervlarning presinaptik tolalarida katekolaminlar almashinuviga, hosil bo'lishiga, to'planishiga hamda ajralishiga ta'sir ko'rsatadi, bevosita adrenoreceptorlarga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Bularning ta'sirida bevosita adrenomimetiklarni (*adrenalin, nOredrenalin*) ta'siri kyapmutayaNyap, hatto oshib boradi, bilvosita adrenomimetiklar (*efedrin, fenamun*) ta'siri kamayadi. Simpatolitiklarning presinaptik ta'sir mexanizmlari turliha bo'ladi, ba'zilari noradrenalining hosil bo'lishiga, ba'zilari uning to'planishiga to'sqinlik qiladi.

Rezerpin Hindistonda o'sadigan *rauwolfiya* o'simligidan olingan alkaloid, kimyoviy tuzilishi indol unumlaridan, rezerpin katekolaminlarning vezikulalarda bog'lanishini izdan chiqaradi, shu tufayli ular sitoplasmaga chiqadi, MAO fermenti ularni parchalaydi, katekolaminlarning vezikulalarda to'planishiga ham to'sqinlik qiladi. Rezerpin katekolaminlardan noradrenalin, boshqa aminlardan serotonin, gistogram hamda asetilxolinning to'planishiga to'sqinlik qiladi. Rezerpin tufayli qon tomirlarda, yurakda, buyrak usti bezining miya qismida va boshqa a'zolarda noradrenalin miqdori kamayadi. Natijada chetda joylashgan tomirlar, ayniqsa, arteriolalar qarshiliqi, qon bosimi pasayadi. Qon bosimining pasayishi bilan bradikardiya ro'y beradi, chunki asetilxolinning ajralishi ko'payadi, vagusning yurakka bo'lgan ta'siri oshib boradi. Umuman rezerpin simpatik innervasiyani falajlashi tufayli xolinergik innervasiya kuchayadi.

Rezerpin gematoentsefalik to'siqdan oson o'tib, markaziy nerv sistemasida noradrenalin, serotonin mediatoriali hajmini kamaytiradi, tinchlantiruvehi ta'sir ko'rsatadi, yengil psixozlarga qarshi neyroleptik ta'siri bor, uyqu keltiradi, uxlatuvehi va narkoz uchun qo'llanadigan moddalarning ta'sirini oshiradi, haroratni bir oz tushiradi, shuning uchun rezerpin boshqa moddalar ta'siri bo'limganda, ko'pineha qariyalarda uehraydigan psixozlarda neyroleptik sifatida qo'llaniladi. Rezerpin gipotenziv modda, simpatolitik hamda markaziy nerv sistemasiga tinchlantiruvehi ta'siri bor. Gipertoniya kasalliklarini davolashda buyuriladi, og'iz

va parenteral yo'llar orqali qo'llaniladi, qon bosimi asta-sekin pasayadi, bir necha marta qo'llangandan keyin uning ta'siri sezilarli bo'ladi.

Rezerpin pediatriyada ham antigipertenziv modda sifatida qo'llanadi, bolalar rezerpinga juda sezuvchan bo'ladi, chunki ularda katekolaminlaming to'planish mexanizmlari hali yaxshi rivojlanmagan, ayniqsa, rezerpinga yangi tug'ilgan chaqaloqlar organizmi sezgir bo'ladi. Agar rezerpin homiladorlikning oxirgi kunlarida qon bosimi ko'tarilgan ayolni davolash uchun qo'llanilgan bolsa, chaqaloq og'ir depressiya holatida tug'ilishi mumkin. Emzikli onadan rezerpin sut bilan chaqaloqqa o'tadi, natijada bolaning burun shilliq qavati shishib, nafas olishga qiynaladi. Homiladorlikning oxirgi oylarida, emzikli ayollarda, bola hayotining birinchi yilda rezerpinni qo'llash ancha xavflidir.

Rezerpinning salbiy ta'sirlari moddaning xolinergik hamda, markaziy nerv sistemasiga ta'sir qilishiga bog'liqidir; bunda oshqozon sekresiyasi, me'da-ichak peristaltikasi oshadi, bradikardiya, uyquchanlik yuz beradi. Rezerpin yuqori miqdorda va davomli qo'llanilsa, depressiya, ekstrapiramid o'zgarishlar — parkinsonizm holatlari ro'y beradi. Yurak, qon tomirlar, buyrak yetishmovchiligidagi, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasida rezerpinni qo'llash man etiladi.

Gipertoniya kasalligini davolashda rauvolsiya o'simligining alkaloidlari yig'indisidan tayyorlangan *rannatin* tabletkalari qo'llaniladi, ular tarkibida rezerpin ham bor, gipotenziv, aritmiyaga qarshi hamda tinehlantiruvchi ta'sirga ega, noxush asoratlari rezerpindan kamroq.

Simpatolitik *oktadin* sintetik modda bo'lib, noradrenalinning nevronlarga qayta so'rilihiga to'sqinlik qiladi, chunki oktadinning o'zini nevronlar qamrab oladi. Adrenergik nerv tolaiari oxirida oktadin miqdori oshib, noradrenalinning granulalardan sitoplazmaga ejralishi oshiradi, sitopiazmada esa noradrenalinni MAO parchalaydi, uning miqdori kamayadi, shuning uchun chetda joylashgan qon tomirlar qarshiligi, reninning ejralishi kamayadi, yurak urishi sekinlashadi, qon bosimi pasayadi. Oktadin gematoentsefalik to'siqdan o'tmaydi, markaziy nerv sistemasiga deyarli ta'sir qilmaydi. Bu modda ham gipertoniya kasalligini davolashda qo'llaniladi, og'iz orqali yuhorilganda, gipotenziv ta'siri asta-sekin 1-2

Nafas olgandan so'ng anestetik o'pkadan qonga diffuziyalanadi. Dorining singishi uning nafas olgan havodagi konsentrasiyasiga, nafas olish hajmi va tez-tez takrorlanishiga, yuza hududi va alveolinning o'tkazuvchanligiga, anestetikning erishiga bog'liq.

Biokimiyoviy nazariya ham taqdim etilgan. Unga ko'ra markaziy nerv sistemasidagi moddalar almashinuvini tormozlaydi. Haqiqatdan ham qator preparatlar bosh miya to'qimasini O_2 ga bo'lgan talabini kamaytiradi (masalan natriy tiopental) lekin bu barcha narkotik moddalarga xos emas. Bundan tashqari neyronlardagi biokimiyoviy o'zgarishlarni narkozning sababi emas balki natijasi deyish mumkin.

Oxirgi yillarda narkoz berish resepti va ta'sir qilishi haqida ko'plab ma'lumotlar paydo bo'lmoqda.

NIKOLAY IVANOVICH PIROGOV (1810- 1881).



Atoqli rus jarrohi. 1847- yildan boshlab efir narkozini jarrohlik amaliyotida qo'llab kelgan. U harbiy- dala jarrohi bo'lgan. Bir necha og'retqiszlantirish usullari haqidagi kitoblarning muallifi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, asosan ingalyasion (uchuvechan suyuqliklar) va noingalyasion vositalar (ketamindan boshqa) narkotik konsentrasiyalarda GAMKA- benzodiazepinbarbiturat reseptorlari bilan bog'lanib GAMK

tasirini oshiradi. Natijada reseptor komplekslariga bog'liq holda aktiv xlor ionasor holatining vaqtı uzayadi. Azot oksidini GAMKA reseptorlariga ta'sir ko'rsatmaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek ketamin ma'lum tipdag'i glutamat reseptorlariga antagonist hisoblanadi.

Narkoz vositalarini boshqa tipdag'i reseptorlariga ta'siri borligini unutmaslik kerak. Masalan efir va metaksifluran, asetilxolinning hidlov markazini kuchaytiruvchi ta'siriga va L- glutamatning shu markazni susaytiruvchi xossalasigi turli xil ta'sir qilishini keltirish mumkin. MNSning turli xil mafosfunktsional tuzilmalari va sinapslarining narkoz vositalariga sezgirligi turlichadir. Shuning uchun ularning ta'siri turli darajada namoyon bo'ladi.

Quyidagi bosqichlar farqlanadi:

I - analgeziya bosqichi¹;

II - Qo'zg'alish bosqichi;

III - xirurgik narkoz bosqichi;

I- yuzaki narkoz. 2-engil narkoz. 3- chugur narkoz. 4- o'ta chugur narkoz

IV - agonial bosqichi;

Bu keltirilgan narkoz bosqichlari umumiylsxemaga to'g'ri keladi, chunki qator preparatlarni qo'llaganda, qo'zg'alish davri ko'pincha kuzatilmaydi, analgeziya

bosqichi kuchliroq namoyon bo'ladi. Yuqoridagi bosqichlar efir narkozida yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Narkoz vositalari turli xil kimyoviy brikmalar sinfiga kiradi (strukturasiga qarang). Ammo kimyoviy tuzilishi va narkotik aktivligi o'rtasidagi bog'liqlik o'r ganilmagan. Quydagilar ma'lumki, birikmalarning alohida guruhlari da bog'liqlik bor (uglevodorodlar, barbituratlar).

¹ Analgeziya- og'riqning yo'qolishi grekcha an - inkor, algos- og'riq

Amaliyotda qo'llanilishi bo'yicha narkoz uchun moddalar quydagi guruhlarga bo'linadi:

I. Ingalyasion narkoz uchun: suyuq uchuvchan moddalar (fitorotan, enfluran, izofluran, narkoz uchun efir). Gazsimon moddalar: Azota (1) oksidi.

II. Noingalyatsion narkozda qo'llaniladigan moddalar: propanidil, teksinol, propafol, natriy oksibutirat, tiopental- natriy, ketamin¹.

Bu preparatlarga aloxida talab bor. Bu moddalarni qo'llaganimizda qo'zalish fazasi bo'lmasdan birdaniga narkoz holatiga o'tishi kerak. Operatsiyaga optimal qulaylik yaratish uchun chuqur narkozni boshqara olish lozim. Hoji boricha bemor narkozdan tez asoratsiz chiqishi kerak. Bu narkozdan keyingi davrni yengillashtiradi.

¹ Tasnifga shartli kiritilgan, chunki ketamin xirurgik narkoz chaqimaydi. Ketamin asosan umumiy og'riq qoldirish uchun qo'llaniladi.

Narkoz preparatlariiga keng ma'noda quydagilar xos, konsentrasiya orasidagi diapazon, preparatni qancha dozada narkoz keltirib chiqarishi va unung minimal toksik konsentrasiyasi, uzunchoq miya markazini so'nishga olib kelishi. Ingalyasion narkozda uni konsentrasiyasi nafas olishga qarab belgilanadi. Noingalyasion narkozda esa qancha dozada jo'natishga qarab, agar narkotik kenglik qancha yuqori bo'ssa preparat shuncha xavfsiz bo'ladi. Nojo'ya effekt bo'lmasligi kerak yoki minimal bo'lishi kerak.

Narkotik moddani qo'llaganimizda texnik jihatdan qulay, xavfsiz, yonib ketmasligi va portlamasligi kerak. Hozirgi paytda asosiy ahamyat shundan iboratki, har xil aparaturalarning bo'lishi yonishga olib kelishi mumkin. Amaliyotda bu preparatlarni qo'llaganda ularning narxlarini ham bilish kerak.

Preparat iqtisodiy jixatdan arzon, korxonalar ishlab chiqarishiga qulay bo'lishi kerak.

INGALYASION NARKOZ UCHUN MODDALAR

Ingalyasion narkoz uchun uchuvechan suyuqliklardan foydalilanadi. (storatan, narkoz uchun efir va boshqalar) bular osongina gaz holatiga aylanishi kerak. Uchuvechan suyuqliklardan tashqari gaz hosil qiluvchi preparatlar ham bor. (azot oksidi, sikloprapan). Asosan maxsus narkoz aparatlaridan foydalilanadi. Narkozni nafas bilan olganda, diffuziya yo'li bilan o'pkalardan qonga o'tadi. Preparatning absorbsiyasi nafas olinayotgan havoning konsetrasiyasiga, nafasning miqdori va chastotasiga, alveoilarning yuzasi va o'tkazuvchanligi, qonda narkoz vositasining erishi va kichik qon aylanish doirasidagi qon ogimining tezligiga bog'liq. Bularning barchasini preparatning qon va to'qimalardagi konsentrasiyasi o'sish tezligi aniqlab beradi, narkozning ta'sir tezligi ham shunga bog'liq.

Ko'pgina ingalyasion narkoz uchun vositalar organizmda ko'proq yoki kamroq miqdorda taqsimlanadi. Ayrim farqlar organizmlarda va to'qimalardagi bir xil bo'limgan qon ta'minoti bilan bog'liq. Bu moddalar asosan o'zgarmagan holda, yengil ajraladi. Bartaraf etilish tezligi aynan mana shu faktorlarga bog'liq, absorbsiyasi ham. Narkoz uchun asosan gazzimon moddalar tez ajralib chiqadi.

5.1.1. SUYUQ UCHUVCHAN MODDALAR.

Bu guruhga *storotan*, *enfluran*, *izofluran*, *narkoz uchun efir* va boshqa preparatlar kiradi.

Storotan (galotan, fluotan) anesteziologiyada keng qo'llaniladi. Storotan stor saqllovchi va alifatik birikmalar tarkibiga kiradi(tuzilishi bo'yicha). Narkoz Yuqori dorivor fa'olligi bilan harakterlanadi (efirdan 3-4 martiga yuqori). Narkoz tez sodir bo'ladi (3 -5 daq.sohng) juda qisqa uyg'onish bosqichi bilan. Narkozga kirish 4 % atrofidiagi (yutilgan havoda) storotan konsentrasiyasi bilan amalga oshiriladi. Narkozni boshqarish uchun storotanning 0,5-2,5 % atrofidiagi ingalyasiyasi yetarlidir. Storotan orqali narkoz yengil boshqariladi. Preparatdan

nafas olish to'xtatilgandan so'ng bemor 5-10 daqiqada tuyg'onadi. Ftorotanning dorivor kengligi yuqori (xuddi efir kabi).

Narkoz mushaklarning qoniqarli bo'shashishi bilan yaxshi foyda qiladi. Ftorotan, depolirizasiyaga qarshi moddalarning mushaklarni salajlash ta'sirini efirga nisbatan kamroq oshiradi. Ftorotanning ta'siri bradikardiya bilan ifodalananadi, asabning vaqtinchalik tonusini oshishi bilan bog'liq (atropinining kirishida ogohlantiriladi). Ftorotan arterial bosimni tushuradi (jad.5.1). Bu holat to'qima markaziga ta'sir qilib simpatik gangliyalarga (ftorotan sezilarli ta'sir qiluvchi gangliobloklaydigan modda), hamda to'qimalarga miotrop to'g'ri ta'sir qiladi. Ftorotan qabul qilinganda yurak aritmiyasi yuzaga kelishi mumkin. Bu ftorotanning miokard mushaklariga to'g'ri ta'sir qilishi bilan hamda adrenalinga sezuvchanligini oshirishi bilan bog'liq. Shu o'rinda Ftorotanli narkozda adrenalin, noradrenalin va efidrinni qo'llash mumkin emasligi ko'rsatilgan. Agar pressor moddalar kerak bo'lib qolsa, u holda α -adrenomimetikdan (mezaton) qabul qilishga to'g'ri keladi. Ftorotan so'lakning sekretor aktivligida, bronx va oshqozon bezlari shirasida eriydi. Mayjud ma'lumotlarga ko'ra ftorotan jigarning funksiyasini, xech buzmagan, narkoz uchun boshqa vositalarga qaraganda. Qo'zg'atuvcchi ta'sirga ega emas, asidozni keltirib chiqarmaydi. Narkozdan keyin ko'ngil aynishi va qayt qilish holatlari juda kam kuzatiladi.

Ftorotanning sezilarli darajasi organizmda biotransformatsiyaga uchraydi (taxminan 20%).

Ftorotan efirdan farqli ravishda yonuvchanlik xossasiga ega emas.

Ftor tutuvchi alifatik birikmalarga enfluran, izofluran, dezfluran kiradi. Ular nojo'ya tasiri va farmakokinetik xossalari bo'yicha ftoratandan farq qiladi. Ularni xossalari ko'ra nisbiy harakteristikasi quyidagi (5.1 jadvalda) keltirilgan.

Sevolluran ftor tutuvchi yangi birikma bo'lib, mukammalroq dori vositasi hisoblanadi. U tez ta'sir etuvchi narkoz vositasi bo'lib, bemor xushiga tez keladi, yuqori nafas yo'llariga zararli ta'sir etmaydi, ichki a'zolar faoliyatiga

salbiy ta'siri juda kam. Qon aylanish tizimiga, miyada qon aylanishiغا hamda nafas olishiga katta ta'sir ko'rsatmaydi. Dori kimyoviy jihatdan turg'un, yoyimli hidga ega, yonuvehan emas. Klinikada va ambulatoriyada ishlataladi. Narkoz uchun ishlataladigan efir kimyoviy strukturasiga ko'ra dietil efirdir (strukturasiga qaralsin). U kuchli narkoz vositasi, keng ta'sir doirasiga ega, zararli ta'siri kam,

Jadval 5.1. Ingalyasion narkoz uchun vositalarning solishtirma jadvali.

¹Qays ichida hajm foizda preparatlarning (minimal alvolyar konsentratsiyasi-MAK) keltirilgan, 5000 km⁻¹ -ga jekab qazapti muskullar go'zg'alishi bilan javob bermaydi. MAK qancha kam

bo "Isa dorı yositasi shuncha kuchli tasirga ega bo'laadi. Koeffisient
o'szianti ko'rsatilgan (qon gaz (havo).

Qays ichida dori muddasining qondagi tarqalish koefisienti ko'prosiga qarab qayta qo'shiladi. «+»-ta 'siri borligi; «»-ta 'siri quymati qanicha kichik bo'lsa, narkozdan chiqish shuncha tez bo'ladi.

Efir narkoz oson boshqariladi lekin boshqa gazu
storatan uning analoglaridan qiyinroq.

Bemorning sezuvchanligi va narkoz usuliga qarat olinayotgan havodagi esfirning konsentrasiyasi 2-4 dan 10-12 hajmiy ulushni tashkil etadi. Efirdan foydalilaniganda narkoz bosqichlari yaxshi farqladi.

Analgeziya bosqichida og'riqni sezish yo'qoladi. Bu afferent yo'llardagi neyronlararo sinaptik o'tkazuvchanlik hamda miya po'stlog'idagi neyronlar faoliyati kamayadi. Es-hushi saqlangan lekin orientasiya yo'qoladi. Tipik amneziya¹.

Efir narkoz uchun uzoq qo'zg'alish xos (10-12 minutgacha). Bu narkozga kirishni ancha qiyinlashtiradi. Qo'zg'alish bosqichi miya po'stlog'i faoliyatining falajlanishi. MNSning boshqa bo'limlarini miya po'stlog'i nazorat qilmay qo'yishi bilan bog'liq. Es-hushi butunlay yo'qoladi. harakati oshib ko'p gapiradi. ko'z qorachig'i kengayadi. nafas olish tezlashadi. Taxikardiya. arterial bosim o'ynaydi orqa miya reflekslari oshadi. Efir shilliq pardalarni ta'sirlovehi xususiyatga ega bo'lganligi sababli yo'tal paydo bo'ladi, so'lak oqishi, efir so'lak bilan oshqozonga tushsa bemor quishti mumkin. Yuqeri nafas yo'llarida reflektor tarzda nafas va yurak urishi kamayishi mumkin, apnoe kuzatiladi, hattoki yurak to'xtashi mumkin. Bu effektlarni bartaraf etish uchun atropin yuboriladi.

Bosh miyaning boshqa bo'limlari falajlanib boradi. es-hushi yo'qoladi, og'riq sezish ham yo'qoladi, reflektor faoliyat susayadi. Vegetativ reflekslar to'xtatilmaydi. Qorachiqlar toraygan. puls kamaygan (2-bosqichga nisbatan) arterial bosim turg'unlashadi. Nafas olish bir tekis. Narkoz chuqurlashgan sari yurak urishi o'zgaradi, aritmiyalar kuzatilishi mumkin. Arterial bosim susayadi, nafas olish bir tekis . narkoz chuqurlashgan sari yurak urishi o'zgaradi. Skelet muskullari relaksatsiyasi kuzatiladi. Bu operasiya o'tkazishni osonlashtiradi. Miorelaksasiya esirni nafaqat markaziy balki nerv-muskul sinapslariga ta'siri natijasida bo'ladi. Efir depolirizatsiyaga qarshi kuraresimon moddalar ta'sirini oshirib yuboradi. (3; 3.4.2 bo'limlarga qaraisin).

Efir qo'llanganida simpato-adrenal sistemaning markaziy pog'onasi aktivlashadi. Bu esa buyrak ubti bezidan adrenalin ishlab chiqarilishiga olib keladi. Miokard va jigarning funksiyasi shikastlanmaydi. Bazida tez o'tuvechi

sariqlik kuzatiladi. Buyraklar funksiyasi pasayadi. Albuminuriya kuzatiladi, chiqur narkozda asidoz rivojlanadi. Qonda keton tanachalari to'planadi.

Qo'zg'алиш bosqichi. Narkozdan keyin o'pkadan esir or'zgarmagan holda chiqib ketadi (taxminan 30 min mobaynida). Lekin bosh miya funksiyasi tiklanishiga bir necha soat ketadi. Analgeziya uzoq vaqt saqlanadi. Narkozdan keyingi bosqichda qayt qilish kuzatiladi. Esir narkozi tasirida nafas yo'llari kuchli ta'sirlanishi tufayli operasiyadan keyingi pnevmoniya bo'lishi mumkin. Dozaning oshishi natijasida **agonal bosqich** yuzaga keladi. Bunda nafas va qontomirning uzunchoq miyadagi markazi birdaniga tormozlanadi. Nafas olish chastotasi va hajmi kamayadi, asfiksiya kuzatiladi. Yurak yetishmovchiligi yuzaga keladi. Qon bosimi tushadi, agonal bosqichda ko'z qorachig'i kengayadi. Agar kerakli chora-tadbirlar ko'rsatilmasa bemor nafas markazi paralichi va yurak to'xtashidan, o'lim kuzatiladi.

Exoensefalogrammadan narkoz bosqichlarini aniqlashda foydalaniлади. Esir narkozining 1-va 2-bosqichida biopotensialning desinxronizatsiyasi kuzatiladi. Past amplitudali ko'p tebranishlar kamayadi.

Agonal bosqiehdha to'lqinlar amplitudasi birdan tushib ketadi. Bioelektrik aktivlik 0 gacha tushadi. Analogik o'zgarishlar ko'pehilik narkoz moddalarini uchun xos. Lekin har bir modda uchun EEG dinamikasida o'ziga xoslik bor.

5.1.1. GAZSIMON MODDALAR

Bu guruhga azot (1) oksidi, siklopropan, etilen kabi moddalar kiradi. Bu guruh preparatlar tibbiyot amaliyotida juda ko'p qo'llaniladi.

Azot (1) oksidi (N_2O) -kattalar va bolalar anesteziologiyasida ko'p qo'llanadigan gazli modda. Azot (1)- oksidi inert gaz, yonmaydi, portlamaydi, esir hamda siklopropan bilan alanga hosil qiladi. Narkoz uchun azot (1)- oksid albatta kislorod bilan aralashgan holda (80% azot (1)- oksid, 20% kislorod) bolalar uchun 1:2, 1:1 nisbatda qo'llanadi.

Eng yaxshi sharoitda uning ta'siri, xirurgik narkoz bosqichining boshlanishicha holatidagidek bo'ladi. Shundan kelib chiqib, N_2O odatda boshqa fa'olroq vositalar bilan birga qo'llaniladi (masalan, storotan bilan). Skelet muskullarining etarlicha

bo'shashishini, ta'minlash maqsadida azot (I) oksidi ko'pehilik hollarda kuraresimon moddalar bilan birga qo'llaniladi. Azot (I) oksidini ingalyasiya qilishni to'xtatish hech qanday noxush holatlarsiz uyg'onishga olib keladi. Ushbu modda o'pkadan o'zgarmagan holda chiqariladi. Operasiyadan so'ng ko'ngil aynishi va quşish holatlari kuzatilishi mumkin.

Azot oksidi nafaqat jarroxlik muolajalarini o'tkazish mobaynida, balki miokard infarkti va boshqa kuchli og'riq bilan kechuvchi holatlarda ham qo'llaniladi. Bu holatda ushbu vosita ko'p soatlar davomida qo'llaniladi. Biroq shuni ham inobatga olish kerakki, azot oksidini ko'p vaqt davomida ingleyatsiya qilish leykopeniya, megaloblastik anemiya, neyropatiyaga olib kelishi mumkin. Bu B₁₂ vitamini molekulasiagi kobaltning oksidlanishi bilan bog'liq, va bu o'z navbatida DNK sintezida qatnashuvchi metioninsintetaza faolligining buzilishiga olib keladi. Shuning uchun azot oksidini analgeziya maqsadida juda uzoq vaqt davomida qo'llash mumkin emas¹.

¹ Ayrim manbalarga ko'ra, N₂O ni xavfsiz qo'llash vaqt 6 soat bilan cheklangan (Og'riqni o'rganish bo'yicha xalqaro jamiyat), boshqa manbalarga ko'ra esa - 48 soat bilan (Amerika tibbiyot birlashmasi).

Shu bilan birga, bunaqangi qo'shimcha ta'sirlar. N₂O ko'p qo'llaniladigan jarroxlik bo'limalrida ishlovchi tibbiy xodimlarga nisbatan ham nazarda tutish kerak. Azot oksidi tez alanga olmaydi, biroq yonadigan xususiyatga ega.

5.2. Noinglyasion narkoz uchun vositalar

Noinglyasion narkoz uchun vositalar odatda parenatal va kam hollarda enteral tartibda qo'llaniladi. Parenatal kiritish uslublaridan vena ichiga kiritish uslubi keng tarqalgan. Vena orqali narkozga tushirish uchun qo'llaniladigan mavjud vositalar ta'sirining davomiyligiga ko'ra quyidagi gurularga bo'linadi:

- 1) qisqa muddatli ta'sirga ega bo'lgan vositalar (vena orqali kiritilganda narkozning davomiyligi - 15 daqiqa gacha) - propanidid, propofol, ketamin.
- 2) o'rta muddatli ta'sirga ega bo'lgan vositalar (narkozning davomiyligi - 20-30 daqiqa) - tiopental-natriy, geksenal;
- 3) uzoq muddatli ta'sirga ega bo'lgan vositalar (narkoz davomiyligi - 60 va undan

ortiq daqqa) - natriy oksibutirati:

Propanidid yog'li suyuqlik bo'lib, qolgan vositalar kukunsifat vositalardir. Ushbu vositalar noinglyasjon narkozda eritmalarida qo'llaniladi.

Ushbu vositalar noinglyasion narkozda etibarlasa Propanidid (epontol, sombrevin) qo'zg'yalish bosqshichisiz narkozning tez boshlanishi bilan ajralib turadi. Xirurgik narkoz bosqichi taxminan 3 daqiqa davom etadi, va yana 2-3 daqiqadan so'ng bemor xushiga qaytadi. Propanididni "ultraqisqa" ta'sirga ega bo'lgan noingalyatsion narkoz vositasi deb bejizga aytishmaydi. Propanididning qisqa muddatli ta'sirining sababi qon plazmasidagi xolinesterazaning tez gidrolizidir. Narkozdan keyingi davrda markaziy nerv tizimining to'xtashi, tormozlanish holati kuzatilmaydi. Narkoz boshlanishidan oldin qisqa apnoye bilan birga kuzatiluvchi giperventilyatsiya vujudga kelishi ehtimoli mavjud. biroq xirurgik narkoz davrida nafas olish normallashadi. Jiddiy bo'limgan taxikardiya, qisqa muddatli gipotensiya kuzatilishi mumkin. Vositaning ta'siri boshlanganda ayrim bemorlarda muskullarning titrashi (qaltirashi) kuzatiladi. Propanidid odatda giperemiya va vena tomirlarida og'riq hissi orqali namoyon bo'ladigan mo'tadil darajadagi qo'zg'atish ta'sirini ko'rsatadi. Tromblarning hosil bo'lishi ehtimoli bor. Allergik ta'sirlar bo'lishi operatsiyalarni o'tkazishda qo'llaniladi. Ayniqsa u ambulator amaliyotda juda qo'l keladi, negaki 20-30 daqiqadan so'ng psixomotor funksiyalar to'liq tiklanadi.

tiklanadi. Vena ichi narkozida ko'pgina hollarda proposol (rekofol) ham qo'llaniladi. Opiyning kimyoviy tuzilishiga ko'ra - bu 2,6-diizopropilfenol. Suvda erimaydi, shuning uchun u emulsiya shaklida kiritiladi. Ushbu vosita minimal qo'zg'алиш bosqichi bilan kechuvchi narkoz holatiga kirishning tezgina induksiyasini ta'minlaydi (20-30 soniya). qisqa muddatli apnoye vujudga kelishi mumkin. Narkozdan chiqish juda tez kechadi. Proposolning uzoq muddatli diffuziyasi taqdirda ham ushbu bosqichi 10-15 daqiqadan oshmaydi. Bir martalik in'yeksiyaning ta'siri davomiyligi dozasiga ko'ra 3 daqiqadan 10 daqiqani tashkil etadi ("ultraqisqa ta'sir"). Dozasida narkotik

modda tarkibi 2-5 marta kam, ayrim holatlarda sedativ vosita sifatida o'pkani sun'iy ventilyatsiya qilish, intensiv terapiya va shu kabi hollarda qo'llaniladi. Vosita vena orqali in'yeksiya yoki diffuziya yo'li orqali kiritiladi. To'planib qolmaydi, qusishga qarshi yo'naltirilgan faollikka ega.

Qon plazmasida profol asosan oqsilar bilan qo'shiladi (98% gacha). Jigar ichida va tashqarisida almashiniladi. Metabolitlar buyrak tomonidan ishlab chiqariladi. Qo'shimcha ta'siri sifatida bradikardiya, mo'tadil gipotensiya, nafas olishning qiyinlashishi, miyadagi qon aylanishining sustlashishi kuzatiladi, ba'zida tortishish holati vujudga keladi, allergik tasirlanish va kiritilgan joyda qichishish ehtimoli bor.

Yanada davomiy narkoz barbiturat kislatasining oqsilalari, tiopental-natriy, geksenal orqali ta'minlanishi mumkin.

Tiopental-natriy (pentotal-natriy) vena ichiga kiritilganda qo'zhalish bosqichisiz 1 daqiqadan so'ng narkoz holatiga olib keladi. Narkozning davomiyligi 20-30 daqiqli tashkil etadi. Ta'sirning qisqa muddatiyligi moddaning organizmda qaytadan taqsimlanishi bilan bog'liq, xususan uning ko'p miqdorda yog' to'qimalarda to'planishi sababli. Tiopental-natriyning faolsizlanishi asta-sekin jigarda sodir bo'ladi. Moddani kiritishda muskullarning tortishishi kuzatilishi mumkin. Ba'zi bemonlarda laringospazm vujudga kelishi mumkin. Tiopental-natriyni juda sekin kiritish lozim, negaki konsentratsiyaning juda tez quyilishida uning nafas va qon-tomir markaziga hamda yurakka tormozlovchi ta'siri namoyon bo'ladi. Moddani tez yuborganda apnoe va kollaps kuzatilishi mumkin, asosan kirish narkozida yoki kichik operasiyalar vaqtida qo'llaniladi.

Geksenal, barbiturat kislatasi (*geksabarbital-natri*, *evipan-natri*) farmakodinamik va farmakokinetik jihatdan tiopental-natriyga analog xisoblanadi. Shuni hisobga olish kerakki geksenal yurakka sezilarli darajada yomon ta'sir qilish xususiyatiga ega. Tiopental-natriyga nisbatan tezroq, qo'zg'alish davri bo'limgan narkoz chaqiradi. Xuddi tiopental-natriyga o'xshab qo'llaniladi.

Natriy-oksibuterat uzoq muddat ta'sir qiladi. MNSdagi tabiy metabolitning sintetik analogi hisoblanadi. Gematoensefalik to'siqdan yaxshi o'tadi. Tinchlantiruvchi, uxlatuvchi, narkotik va antigipoksik ta'sirga ega. Og'riq qoldiruvchi ta'siri kam darajada namoyon bo'ladi. Boshqa narko'z vositalari bilan qo'llanilganda, zaharli ta'sir qilmasdan balki, ularning faolligini oshiradi. Skelet mushaklarini sezilarli bo'shashtiradi. Miya va yurak to*qimasini gipoksiyaga chidamliligin oshiradi. Natriy-oksibuteratning narkotik faolligi yuqori emas, shuning uchun uni ko'p miqdorda yuborish kerak. Odatda qo'zg'alish holatini yuzaga chiqarmaydi. Tez yuborilganda ba'zida qo'zg'alish va mushaklarning tutqanoqdagidek qisqarishi bo'lishi mumkin. Xirurgik narkoz holati tomirdan yuborilganda 30-40 daqiqadan so'ng boshlanadi. Narkoz davomiyligi 1.5-3 soat.

Natriy-oksibuterat ichishga ham buyuriladi. U ingichka ichakdan yaxshi so'riladi va 40-60 daqiqadan so'ng narkoz boshlanadi. Narkoz 1.5-2.5 soat davom etadi. Natriy-oksibuteratning zaharliliği kam. Nafas havosi va qondagi narkoz chaqiruvchi miqdori nojo'ya ta'sir ko'rsatmaydi. Qayd qilishi mumkin. Ba'zan gipokalimiya yuzaga chiqishi mumkin. Ortiqcha yuborilganda nafas markazining susayishi kuzatiladi.

Preparat asosan quydagi holatlarda qo'llaniladi: kirish va asosiy narkozda, tug'ruqda og'riqsizlantirish uchun, miyaning gipoksik shishlarida, shokka qarshi vosida sifatida, tinchlantirish va uxlatish maqsadida.

Ketamin (*ketalar, kalipsol*)-kukunsimon modda bo'lib, eritib vena ichiga va mushaklar orasiga yuboriladi. Ketamin faqatgina umumiy og'riqsizlantiruvchi va xotiraning qisman yo'qolishi bilan yuzaga chiqadigan, yengil uxlatuvchi ta'sir qiladi (*neyroleptanalgeziya holatidagidek*). Ketamin ta'sirida xirurgik narkoz yuzaga chiqmaydi. Ketamining to'liq ta'siriga nisbatan "dissosiyativnaya anesteziya" atamasini qo'llash mumkin. Bir narsani xisobga olish kerakki ketamin kabi moddalar faqatgina MNSga ta'sir qilib boshqa joylarga ta'sir qilmaydi, ya'ni ularning ta'sirida aniq bir dissosasiya bor. Vena joylarga ta'sir qilmaydi, ya'ni ularning ta'sirida aniq bir dissosasiya bor. Vena ichiga yuboriladi, ta'siri 30-60 soniyada boshlanadi va 5-10 daqiqqa davom etadi.

Mushak orasiga yuborilganda 2-6 daqiqada ta'sir etib, 15-30 daqiqaga davom etadi. Ketamin jiga'da parchalanadi.

Ketamin ta'sirida skelet mushaklari bo'shashmaydi, lekin ularning ixtiyersiz harakatlari kuzatilishi mumkin. Yutish, halqum, yo'tai reflekslari saqlanadi. Arterial bosim ortadi, puls tezlashadi, so'lak miqdori ortishi mumkin. Ko'z ichki bosimi biroz ko'tariladi.

Operasiyadan keyingi davrda (ayniqsa kattalarda) tez-tez yoqimsiz tushlar, psixomotor reaksiyalar, gollyutinasiyalar kuzatiladi.

Ketamin qisqa vaqtli og'riqli muolajalarda ham ishlatish mumkin (masalan: kuygan sohani antiseptik tozalashda).

5.3. Narkoz vositalarini birgalikda qo'llanilishi.

Zamonaviy anesteziologiyada bitta narkoz vositasini (NV) qo'llash kamdan-kam kuzatiladi. Odatda -3 xil NV birgalikda ishlatiladi, noingalyasion narkoz uchun noingalyasion va ingalyasion NV lari birga qo'llaniladi.

Bunday aralashtirishdan maqsad tez va qo'zg'alishlarsiz narkoz chaqirishdir. Bunday narkozni yuzaga keltirishda ko'pincha tiopental-natriyni venaga yuborishdan boshlanadi. Ayniqsa yuqori qo'zg'alish chaqiradigan vositalar (masalan, efir) bilan birga noingalyasion NV lari amalyotda ko'p qo'llaniladi. NV larini birgalikda qo'llashning yutug'i shundaki, komponentlar miqdori alohida yuborilgandan ko'ra kamroq bo'ladi. Bu esa moddaning zaharliligi va nojo'ya ta'sirini kamayishiga sabab bo'ladi.

Hozirda birgalikda ko'p qo'llaniladigan NV.lari quydagilar: noingalyasion narkoz uchun, barbiturat yoki boshqa tez ta'sir qiluvechi preparat + floratan (enfluran, izofluran) + azot bir oksidi.

NV larini birga qo'llashda, shunga e'tiber qilib kerakki operasiyaning asosiy bosqichi yaxshi boshqariladigan vositalar (*gazsimon NV, floratan, enfluran, izofluran, desfluran*) ta'siri ostida o'tishi kerak.

5.4. Boshqa farmakologik guruh vositalarining, NV lari bilan birga qo'llanilishi.

NV.larining boshqa turii xil dorı vositalari bilan birga qo'llanilishi, narkotik ta'sirning kuchayishiga yoki nojo'ya effektlarning kamayishiga olib keladi. Bemorni operasiyaga tayyorlashda (premedikasiya) uchun tinchlantiruvchi moddalar (anksiolitiklar, antipsixotrop moddalar), og'riq qoldiruvchilar (opoidlar) hamda atropin va atropinsimon moddalar qo'llaniladi, shuningdek yurak va nafasni qo'zg'atuvchi reflekslarni, bronx, so'lak bezlaridan so'lak ajralishini kamaytiruvchi moddalar qo'llaniladi.

Ba'zan narkozni osonlashtirish va premedikasiya uchun benzadiazepin unumlaridan midozalam(*dormikum*) ishlataladi.U suvda yaxshi eriydi, shuning uchun t'i va m/o yuborish mumkin (!1.4 bo'limga qaralsin). Benzadiazepin reseptorlarini kuehli agonisti hisoblanib, uyqu chaqiruvchi va tinchlantiruvchi xususiyatga ega. Bundan tushqari midozalam amneziya ho'latini yuzaga chiqarishi ham mumkin, amimo og'riq qoldirmaydi, xirurgik narkozni chaqirmaydi. Uyqu effekti 2 daqiqadan so'ng hosil bo'ladi. Preparat qisqa muddat ta'sir qiladi. Venaga yuborilganda 2 daqiqqa davom etadigan apnoe holatini chaqiradi. Yurak qon-tomir tizimiga ta'sir qilmaydi. Agar amneziya yuzaga kelsa 6 soat davom etadi.

Preparat 95% qon plazmasi oqsillari bilan bog'lanadi. Midozalam jigarda metabolizmga uchraydi. metabolitlari buyraklar orqali chiqib ketadi.

Midozalamning antoganisti flumazenil nisoblanadi.(11.4 bo'limga qarang). Narkoz vaqtida mushaklarni bo'shashtirish uchun ko'pincha *tubokurarin xlorid, ditilin* qo'llaniladi. Agar narkoz holatida boshqariladigan gipotensiya kerak bo'lsa, vena ichiga qisqa muddatli ganglioblokatorlardan (*gigroniy*) yuboriladi. Narkoz vositalari bilan birga neyrolept-analgitik preparatlar ko'p qo'llaniladi. Neyroleptoanalgeziya uchun, oxirgi paytlarda (fentanil + droperidol) ko'p qo'llanilmoqda. Bu esa umumiyoq og'riq qoldirishga, vegetativ reaksiyalar kamayishiga, psixik tormozlanishga, katta dozalarda es-hushning yo'qolishiga olib keladi. (sm. glavu 8).

Препараллар

| Моддаларининг номи | Микдорлар, канцентрациялар, изборини йўзлари | Чиқариладиган шакллари |
|--|---|--|
| 1 | 2 | 3 |
| Наркозучунэфир - Aether pro narcosi (Б) | НК: 2-4 жам% аниятгезиявас сүнгийукотиш; 5-8 жам% юзаркоз; 10-12 жам% чукурнаркоз | 100-150 мл ли флоконларда |
| Фторотан - Phthorothanum (Б) | НК: 3-4 жам% - наркозига киритиш учун; 0,5-2 жам% - наркознинг хирургик даврини чўзиш учун | 50 мл ли флоконларда |
| Ноингалиацион наркоз учун моддалар | | |
| Пропанидид - Propanididum (Б) | НМ: 0,005-0,01 г/кг - в/и 5% ли эритма 10 мл ли ампулаларида | |
| Тиолентал натрий - Thiopentalum sodium (Б) | НМ: 0,4-0,6 г/кг - в/и ЮМ: 1 г/кг - в/и Болаларга: 5% р-р 0,04 г/кг (3 ёшчана), 0,05 г/кг (3-7 ёшчана) | 0,1-1 г флоконларда |
| Жадвалнинг давоми | | |
| 1 | 2 | 3 |
| Пропофол - Propofol | Чена ичига 4-12мг/кг 1 соатига | 1%-20мл сувили (изотоник еритмадаги) эмульсия |
| Оксигубутират натрий - Natrioxybutyras (Б) | НМ: 0,07 - 0,12 г/кг - в/и 0,1-0,2 г/кг - ичишга. Болаларга: 150 мг/кг ичишга; 100 мг/кг 5% ли глюкозада, в/и | Кукун; 20% ли эритма 10 мл ли ампулалардо; 5% ли шарбат 400 мл ли флоконларда |
| Кетамин - Ketaminum (Д) | НМ: 0,005 г/кг - в/и 0,007 г/кг - в/и | 20 мл ли флоконлар (1 мл да 0,01 г молдло); 10 мл ли флоконлар (1 мл да 0,05 г молдло) |

6-BOB. ETIL SPIRTI

Etil spirti narkotik tasiriga ega bulgan tipik maxsulotdir. MNSga so'ndiruvchi ta'sir etadi. Ulardan tashqari etil spirti maxalliy qo'llanganda antiseptik xususiyatga ega. Tabobat amaliyotida etil spirtini ahamiyati katta. Asosan antiseptik maqsadida ishlatalidi (26-bobga karalsin). Spirtli ichimliklarni ichish o'tkir va surunkali zaharlanishni keltirib chiqargani tufayli ijtimoiy o'rinda (aspekt) sezilarli ko'zga tashlanadi.

Etil spirti ichilganda asosan ingichka ichak va qisman 20% oshqozonda so'rildi. So'rilishning tezligi oshqozon-ichak tizimida saqlagan moddaga va ichak peristaltikasiga bog'liq. Etil spirtini rezorbtiv ta'siri asosan och qoringa

istemol qilinganda kuzatiladi. Yog'lar va uglevodlar spirt so'riliшини sezilarli susaytiradi.

Etil spirtini 90 % organizmida SO_2 va suvg'a metabolizasiyalanadi (o'rtacha tezlikda 10 ml/s). Jigarda etil spirtini oksidlanish jarayoni kuzatilib ma'lum mikdorda energiya ajraladi (7.1kkal/g). Uzoq muddat qabul qilish oqibatida jigar fermentlari induksiyasi kuzatiladi, natijada etil spirti inaktivasiya tezligi oshadi.

O'zgarmagan holatda o'pka, buyrak, ter bezlari orqali ajraladi.

Etil spirtini rezorbtiv ta'siri asosan MNS ga qaratilgan. Etil spirtini qonda va miya to'qimasida konsentrasiyasini oshish borishi MNS ni so'ndiruvchi xususiyatga ega.

3 ta asosiy bosqiehdha kechadi (6.1rasmi): 1 qo'zg'alish, 2 narkoz, 3 agonol.

Qo'zg'alish bosqichi, miyada tormozlanish jarayonini so'nishi natijasida kuzatiladi. Eyforiya, xushkayfiyat, suxbatga tez kirishuvchanlik kuzatiladi. Shuningdek psixomotor reaksiyalar izdan chiqadi. Xulq-atvori o'zgaradi. O'zini idora etish, atrof-muhitni adekvat baxolash va ish qobilyati pasayadi.

Etil spirtini qondagi konsentrasiyasini oshishi analgeziya, uyquchanlik, keyinchalik hushni yuqorilishiga olib keladi. Spinal reflekslar so'nadi.

Davomiy bo'limgan narkoz bosqichi boshlanib, va u tezda agonol bosqichga o'tadi. Narkotik ta'sir doirasini torligi sababli narkoz moddasi sifatida ishlatilmaydi.

| | | | |
|----------------------|------------------|----------------|------------------|
| Наркоз учун модда | Күзгалиш бошқичи | Наркоз босқичи | Агонол босқич |
| Ухлатувчи модда | Уйқу босқичи | Наркоз босқичи | Агонол босқич |
| Этил спирти | Күзгалишбосқичи | Наркоз босқичи | Агонол босқич |

Rasm. 6.1. Turli narkotik moddalarning, narkozga kirish bosqichlari.

Etil spirtini markazga ta'sir qilishini ko'rinishlaridan biri bu ko'p miqdorda issiqlik ajralishi natijasidagi issiqlik regulyasiyasi (qon-tomir markazining

falajlanishi natijasidagi teridagi tomirlarning kengayishi bilan bog'liq). Etil spirtini qabul qilgandan so'ng issiqlik oshgandek tuyuladi, bu esa teri tomirlarining kengayishi bilan bog'liq, lekin tana haroratining umumiy oshishi bilan bog'liq emas. Etil spirtini siydk xaydash ta'siri – markazlashgan (gipofizning orqa bo'lagidagi antidiuretik gormoning ishlab chiqarilishi susayadi).

Etil spirti hazm qilish sistemasiga sezilarli tas'ir ko'rsatadi. U oshqozon bezi va so'lak bezlari sekresiyasini kuchaytiradi. Buning natijasida bezga u psixogen, reflektor, hamda to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ko'rsatadi. Etil spirtini oshqozon bezining shilliq qavatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri natijasida gumoral moddalar ajralishi (gastrin, gistamin) natijasida sekresiyasi kuchayadi. Shuni inobatga olish lozimki, etil spirti HCL ning ham sekresiyasini kuchaytiradi. Pepsinning aktivligi uning past konsentrasiyasida (10%gacha) o'zgarmaydi, uning konsentrasiyasi oshganda esa pasayadi. Taxminan, etil spirtining 20% li konsentrasiyidan boshlab HCL kislotasining sekresiyasini pasaytiradi, hamda oshqozon shirasining hazm aktivligini ham pasaytiradi, bu holat ayniqsa 40% va undan yuqori bo'lgan spirtli ichimliklarni iste'mol qilganda yaqqol bilinadi. Bu yuqori konsentrasiyalı etil spirtining oshqozon shilliq qavatiga qo'zg'atuvchi ta'siriga javoban oshqozon shilliq qavati shilliq ishlab chiqarishni oshiradi. Shilliq moddasi oshqozon yuza qismini qoplab olib etil spirt ta'sirini kamaytiradi. Oshqozonning motorikasi ham o'zgaradi. Etil spirtining etarlicha yuqori konsentrasiyasi privratning spazmini chaqiradi va oshqozonning motorikasini pasaytiradi.

Etil spirti ichakning funksiyasiga kam ta'sir ko'rsatadi. Sababi u oshqozonda uning shirasi bilan aralashib, ichakka kam-kam miqdorda tushadi.

Tibbiyat amaliyotida etil spirtining rezorbtiv ta'siri kamdan-kam hollarda ishlatiladi. Ba'zan uni shokka qarshi modda sifatida (og'riqqoldirish ta'sirini hisobga olgan holda), kamdan-kam hollarda uxlatuvchi yoki sedativ modda sifatida ishlatiladi. Ba'zi holatlarda etil spirtini (past konsentratsiyalarda) ozg'in bermorlarga tavsiya qilinadi. Bunday holatda u energetik ta'sir ko'rsatadi. Shuni

aytish kerakki, etil spirti ozuqa mätsuoti emas. U to'qimalarning plastik materiali hisoblanmaydi, depolanmaydi lekin, toksik ta'sirga ega.

Etil spirtini uzoq vaqt qabul qilganda unga o'rghanish va qaramlik yuzaga keladi (ruhiy hamda jismoniy).

Spirtlı ichimliklarni qabul qilganda o'tkir zaharlanish holatlari kuzatiladi, uning darajalari etil spirtini qondagi konsentrasiyalariga bog'liq. Konsentrasiyasi 1-2 g/l (100-200 mg%) bo'lganda mastlik holati boshlanadi. Konsentrasiyasi 3-4 g/l (300-400 mg%) bo'lganda kuchli intoksikasiya kuzatiladi. 5 dan 8 g/l gacha (500-800 mg%) bo'lganda o'llim konsentrasiyasi hisoblanadi.


Alkogol komasida birinchi navbatda adekvat nafas olishni yo'lga qo'yish lozim. Og'iz bo'shlilini artib yuvilgach, yuqori nafas yo'llari tozalanadi. So'lak bezlarini va bronx bezlarini sekretsiyasini pasaytirish maqsadida atropin qo'llaniladi. Kislorod ingalyasiyasi buyuriladi. Lozim bo'lganda o'pkani sun'iy ventilyasiyasi amalga oshiriladi. Analeptiklarni (korazol, kordiamin, kofein va b.) tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Gemodinamik buzilishlarda simptomatik davo muolajalari qilinadi. Oshqozonni ham yuvish lozim. Bundan tashqari kislota-ishqor balansini korreksiya qilish kerak (v/i natriy gidrokarbonat yuboriladi). Bemorni og'ir holatlarida gemodializ buyuriladi.

Ko'ngil aynash holatlarida quisishga qarshi moddalar qo'llaniladi (metoklopromid va b.). Termoregulyasiya buzulishi bilan bog'liq hollarda bemorlarni issiq xonalarga joylashtiriladi. Alkogol bilan surunkali zaharlaganda (alkogolizm) har-xil simptomatik holatlar kuzatiladi. Ayniqsa, bosh miya nerv faoliyatı salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aqliy qobiliyat, diqqat, xotira susayadi. Psixik buzilishlar ham kuzatilishi mumkin (korsak psixozi). Periferik innervasiya falajlanadi (polinevritlar). Ichki organlarda jiddiy buzilishlar kuzatiladi. Masalan, ichkilikbozlik surunkali gastrit, jigar sirrozi, yurak, buyrakning yog'li distrofiasiga olib keladi. Alkogolizmda sekin-astalik bilan psixik va jismoniy degradasiya kuzatiladi.

Alkogolizmni davolashdan asosiy maqsad shundaki: spirtlı ichimliklarni ichishni to'xtatish, spirtlı ichimlikka nisbatan salbiy munosabatni uyg'otishdan iborat. Spirtlı ichimliklarni to'xtatish sekin-astalik bilan olib borish zarur, chunki, tezkor

to'xtatish og'ir kechadi ya'ni psixik kasalliklarni qo'zatishi mumkin.

Ichkilikbozlikni dori-darmonlar bilan davolash bilan birga psixoterapiya muoljasи ham zarur. Ichkilik bozlikni davolashda qo'llaniladigan dori-darmonlardan teturam (antabus, disulfiram) qo'llaniladi.



Тетурам

Teturam oz mikdorda etil spirti bilan birgalikda buyuriladi. Teturam ta'siri kuyidagilardan iborat, u etil spirtining oksidlanishini to'xtatib qo'yadi va asetaldegid xosil qiladi (extimol, aldegid gidrogenaza xalakit beradi).

Asetaldegidning organizmda to'planishi organizmni intoksikasiyalanishiga olib keladi va natijada bemorda qo'rquv hissi, yurak soxasida og'riq, bosh og'riq, gipotensiya, ko'p terlash, ko'ngil aynishi va quşish kuzatiladi.

Teturamning qo'llanilishi

Teturam bilan davolash kursi organizmda etil spirtiga salbiy refleksini rivojlandiradi. Teturam bilan davolash extiyotkorlik va shifokor nazoratida o'tkazish kerak. Bemor teturam bilan davolanayotgan paytida oz miqdordagi etil spirti o'limga olib kelishini bilishi kerak.

Teturam 50 yoshdan oshganlarga, yurak qon-tomir kasalligida, buyrak va jigar patologiyasida, va moddalar almashinushi buzilganda tavsiya etilmaydi. Teturamning uzoq ta'sir qiluvchi turlariga esperal (radoter) kiradi. Esperal tabletkalarini teri ostiga tikib qo'yiladi.

Ba'zida salbiy refleks chaqirish uchun markaziy ta'sirga ega quşish vositasi apomorfin ishlatiladi (etyl spirti bilan birgalikda kullanadi). Bundan tashkari alkogolizmni davolash uchun opioid antagonistisi naltrekson va boshka

psixotrop moddalar qo'llaniladi.

Afsuski, etil spirtiga tobekni yo'qotadigan samarali dori vositalari hozircha yok.

7-BOB. Uxlatuvchi vositalar

Uxlatuvchi vositalar uyqu chaqirish xususiyatiga ega va uyquning zarur davomiyligini ta'minlaydi.

Uxlatuvchi vositalar sifatida turli farmakologik guruh preparatlaridan foydalaniadi. Qadimdan qo'llaniladigan an'anaviy uxlatuvchi vositalar (barbituratlar, ayrim alifatik birikmalar) markaziy asab tizimiga ta'sir ko'rsatadi va tanlangan ta'siri yo'qligi narkotik turdag'i moddalarga kiritiladi. Kichik dozalarda ular sedativ (tinchlantiruvchi) o'rta dozada - uxlatuvchi, katta dozada - narkotik ta'sirga ega bo'ladi. Narkoz uchug ular kichik narkotik doira va uzoq vaqt qo'llanilishi- chuqur narkozni boshqarish mumkin emasligi sababli qo'llanilmaydi lot. *sedatio-* tinchlantirish. (rasm. 6.1).

Hozirgi kunda uxlatuvchi ta'sirga ega preparatlardan asosan psixotrop moddalarga kiritiluvchi benzodiazepin qator anksiolitiklari tayinlanadi (qarang bob 11.4).

Uxlatuvchi vositalar MAS turli to'qimalarida (masalan bosh miya, afferent yo'llari, limbik tizim) nevronlararo uzatishda siquvchi ta'sir ko'rsatadi.

Uxlatuvchi vositalarning har bir guruhni uchun ma'lum ta'sirlar xos bo'ladi. Uxlatuvchi faoliikkha ega preparatlar ularning ta'siri va kimyoviy tuzilishidan kelib chiqib tasniflanadi.

I. Uxlatuvchi vositalar - benzodiazepin reseptor agonistlari

1. Hosilaviy benzodiazepin Nitrazepam, Lorazepam, Nozepam, Temazepam, Diazepam, Fenazepam, Flurazepam
2. Turli kimyoviy tuzilishga ega preparatlar («nobenzodiazepin» birikmalar)
Zolpidem, Zopiklon

II. Narkotik ta'sirga ega uxlatuvchi vositalar

1. Geterodavriy birikmalar Hosilaviy barbiturali kislotalar (*barbiturat*)

Etaminal-natriy

2. Alifatik birikmalar Xloralgidrat

Uyquni me'yorlashtirish uchun shuningdek uxlatuvchi xususiyatga ega bo'lgan boshqa guruhning alohida preparatlari ham ishlataladi: *blokatorlar gistamin N-reseptorlar* (dimedrol; bob 25), ichga qabul qilganda narkoz uchun samarali vositalar (natriyoksibutirat; bob 5: 5.2). Uzoq vaqt uyqu buzilganda gormon episiz preparatlari- melatonin tavsiya qilinadi (bob 20.2).

O'tkazilgan tadqiqotlar yirik hajmda ekanligiga qaramasdan uxlatuvchi vositalarning harakat mexanizmi to'g'risida faqat taxminan fikr bildirish mumkin. Bundagi asosiy qiyinchilik shundan iboratki, fiziologik uyquning rivojlanish mexanizmi noma'lumdir.


Zamonaviy tushunchalarga ko'ra uyqu- bu faol jarayon bo'lib, bunda bosh miyaning gipnogen tuzilmalari ko'tariladi, faollashtiruvchi retikulyar formasiya – pasayadi. Ko'rinish turibdiki, uyqu vositalari ta'siri ostida bu ikkita tizimning ta'siri gipnogen foydasiga o'zgaradi. Uyqu vositalaridan ko'pchiligi masalan barbituratlar uyqu rivojlanishiga qulaylik tug'diruvchi miyadagi faollashtiruvchi retikulyar formasiyalarga ta'sir ko'rsatadi. Ammo bu ehtimoliy hodisalarning faqat bittasi bo'lib, ammo uxlatuvchi vositalar harakatining yagona mexanizmi emas. Uyquni rivojlantirishga qodir bo'lgan benzodiazepin qator anksiolitiklari barbituratlardan farqli ravishda limbik tizimga yaxshi ta'sir ko'rsatadi va hushyorlik va uyquning davriy almashinuvini ta'minlaydigan bosh miyaning boshqa bo'limlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

¹ grek. *hypnos*- uyqu. Gipnogen hududga retikulyar formasiyaning talamus gipotalamus va kaudal bo'limlari kiradi;


² Retikulyar formasiyaning rostral qismi

³ Ayrim uxlatuvchi vositalarning kimyoiy tuzilishi

⁴ Geterodavriy birikmalar *xosilaviy benzodiazepin*




Hosilaviy barbitura kislota




$\text{Sn} - \text{Sn}_2 - \text{Sn}_2 - \text{Sn}_3$
 Sn_3

nal-natriy

turli kimyoviy tuzilish



Zopiklon



Alifatik birikmalar

$\text{S}_1\text{S}-\text{SN}(\text{ON})_2$

Xloralgidrat

Miya to'qimalarini shakllantiruvchi va uxlatuvchi faoliikkka ega bo'lgan moddalar katta e'tiborni jallb qiladi (masalan, peptid b-sna). Gipnogen xususiyatga ega bo'lgan endogen birikmalarni ajratish nafaqat uyquning rivojlanish mexanizmini tushunish balki yangi turdag'i dori vositalarini yaratish uchun ham ahamiyatga ega.

Shuni hisobga olish kerakki, o‘z davriyligi ko‘ra uxlaturchi vositalar chaqiruvchi uyqu tabiiy uygudan farqlanadi. Ma’lumki odatiy sharoitda uyqu davomida bir necha marta sekin uyqu¹ (ortodoksal, miya oldi, sinxronlashtirilgan; non-REM-sleep) va tezkor uyqu (paradoksal, orqa miya, desinxron; ko‘z olmasining tezkor harakati bilan kuzatiluvchi uyqu son: REM-sleep²) sodir bo‘ladi. Benzodiazepinlarning sedativ, uxlaturchi va boshqa ta’sir mexanizmi maxsus benzodiazepin reseptorlar bilan ularning o‘zaro ta’sirini bog’laydi¹. So‘nggisi

¹ O‘z navbatida sekin uyquda 4 ta faza ajratiladi: I faza - EEG - a-, v- va 0-ritmlar, II faza - EEG 0-ritm, K-majmualar, III faza - EEG 0- va b-ritmlar, veretena, IV faza - EEG b-ritm, III va IV fazasi - b-uyqu

² REM (ko‘zning o‘chishi tuyqutangl) – ko‘z olmasining tezkor harakati bilan kuzatiladigan uyqu

Bu uyqu davomiyligining 20-25% ini tashkil qiladi. Bu fazalarning har biri mobaynida davomiylikning buzilishi organizm holatida aks etadi (axloqiy, ruhiy buzilishlar paydo bo‘ladi). Ko‘plab uxlata digan vositalar uyqu tuzilishini sezilarli o‘zgartiradi. Bu eng avvalo tezkor uyquga tegishli bo‘ladi. Uxlaturchi vositalardan voz kechish samara hodisasi bilan kuzatilishi mumkin bo‘lib, bu preparat dozalari va ularni qo’llash muddatlariga bog’liq bo‘ladi. Bunda tezkor uyquning davomiyligi odatiy miqdordan oshadi, latent davri qisqaradi, tush ko‘rish qayd qilinadi. Shu sababli uyqu fazasi nisbatiga ta’sir ko’rsatmaydigan yoki minimal ta’sir ko’rsatadigan va tabiiy uyquga yaqin bo’lgan uyquni rivojlantirishga qodir uxlata digan vositalar e’tiborni jalb qiladi.

Tezkor uyquga natriy oksibutirat va xloralgidratning ta’siri qayd qilinmagan yoki bu ta’sir kichik bo‘ladi, ammo ikkita preparat bir qator kamchiliklarga ega. Zolpidem va zopiklon uyqu tuzilishiga kam ta’sir ko’rsatadi. Benzodiazepin guruhidagi preparatlar (nitrazepam, diazepam, barbituratlarga qaraganda kam darajada tezkor uyqu fazasini kamaytiradi).

7.1. Benzodiazepin reseptor agonistlari

Hosilaviy benzodiazepinga kiradigan ko‘plab anksiolitiklar uxlaturchi faoliikkaga ega bo‘ladi (nitrazepam, diazepam, senazepam i dr.). Ularning asosiy ta’siri psixik kuchlanishga ta’sir ko’rsatishdan iboratdir. Bunda keiuvchi xotirjamlik

uyquni rivojlantirishga qodir bo' ladi.


Benzodiazepin qator anksiolitiklari (bobga qarang 11; 11.4) anksiolitik, uyqu chaqiruvechi, sedativ, titrashga qarshi, mushaklarni toraytiruvechi va amnestik faollikkiga ega bo' ladi. Anksiolitik va uyqu chaqiruvechi ta'sirlar limbik tizimga ularning tinchlantiruvechi ta'siri va bosh miyada retikulyar formasiyani faollashtiruvechi ta'siri bilan bog'liq bo' ladi. Mushaklarni toraytiruvechi ta'siri polisinaptik spinal refleks bilan asoslanadi. Titrashga qarshi ta'sir mexanizmi miyada to'xtash jarayonlarini faollashtirish natijasi bo'lib, patologik impulsasiya tarqalishini cheklaydi.

Benzodiazepinlarning sedativ, uxlatuvechi va boshqa ta'sir mexanizmi maxsus benzodiazepin reseptorlar bilan ularning o'zaro ta'sirini bog'laydi¹. So'nggisi Makromolekulyar majmua o'z ichiga pikrotoksin kompleks pikrotoksin alohida uchastkasini oladi (xlor kanallarini yopuvechi analeptik,).

GAMK ga ta'sirchan reseptorlar, benzodiazepin va barbituratlar, shuningdek xlor ionoforlarini o'z ichiga oluvechi GAMKA-reseptor makromolekulyar majmuasining bir qismi sanaladi (rasm. 7.1)². Maxsus reseptorli benzodiazepinlar bilan allosterik o'zaro ta'sir hisobidan GAMK GAMKA-reseptorlari affinetit oshadi va GAMK sekinlashish ta'siri kuchayadi. Xlor ionoforlarining ancha katta ochilishi sodir bo' ladi.

¹ Benzodiazepinlar tanlanmagan holda benzodiazepin reseptorlarning turli xillari bilan o'zaro ta'sirga kirishadi (ularning kamayishi BZ₁, BZ₂, BZ₃, yoki mos ravishda sh₁, sh₂, sh₃ bilan belgilanadi).

² Makromolekulyar majmua o'z ichiga pikrotoksin kompleks pikrotoksin alohida uchastkasini oladi (xlor kanallarini yopuvechi analeptik,).



Rasm. 7.1. Benzodiazepin va barbituratlarning GAMK-mimetik harakat tamoyili. GAMK_A-benzodiazepin-barbiturat xlor ionosforli reseptor majmuaning shartli sxemasi keltirilgan.

I –tinch holat; II - GAMK ta'siri ostida xlorli kanallar o'tkazuvchanligi oshishi. Benzodiazepinlar (III) va barbituratlar (IV) GAMK ta'siri kuchaytiradi. Xlor ionlarining ichga kelishi ko'payadi , tormoz effekti kuchayadi. GAMK_A-R - GAMK_A-reseptor; BD-R - benzodiazepin reseptor; B-R - barbiturat reseptor.

Xlor ionlarining ichga kelishi kuchayadi, bu tormoz

postsinaptik salohiyat oshishiga olib keladi.

Qo'llaniladigan benzodiazepinlar asosan farmakokinetik nuqtai nazardan farqlanadi. Ulardan bir qismi uzoq vaqt faol shakllangan biotransformasiyaga uchraydi (flurazepam, diazepam). Bunday preparatlarda ta'sirning umumiyligi davomiyligi tashqi moddalar va uning metabolitlari ta'sir davomiyligidan kelib chiqadi.

Bir qator benzodiazepinlar faol metabolitlarni shakllantirmaydi yoki tezkor faollashadi (lorazepam, temazepam). Bu turdag'i preparatlardan uxlatuvchi vosita sifatida afzal ko'rildi, ularning oqibatlari kam aks etadi. Hosilaviy benzodiazepinlar psixosedativ ta'sir davomiyligiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratilishi mumkin

1. O'rtacha ta'sir davomiyligiga ega preparatlar.

A ($t_{1/2} = 12-18$ ch): lorazepam (ativan), nozepam (okszepam, tazepam), temazepam (restroil).

V ($t_{1/2} \sim 24$ ch): nitrazepam (radedorm, eunoktin).

2. Uzoq ta'sirga ega preparatlar ($t_{1/2} = 30-40$ ch va ortiq): fenazepam, flurazepam (dalman), diazepam (sibazon, seduksen).

Barcha keltirilgan benzodiazepinlar 6-8 soat davom etuvchi uyquni chaqiradi.

Ammo preparatning ta'siri qancha uzoq bo'lsa sedativ ta'sir, harakot reaksiyalarining sekinlashishi, xotira buzilishi kabi oqibatlar ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi. Takroran tayinlanganda preparatlar kumulyasiyasi sodir bo'lib, bu ularning ta'sir davomiyligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

3. Mo'ljallash uchun preparatlarning yarim hayat davrini aks ettiruvechi raqamlar keltirilgan ($t_{1/2}$).

Preparatdan birdan voz kechgandagi samara hodisasi qisqa vaqt ta'sir ko'rsatuvchi benzodiazepinlar uchun ancha xos bo'ladi. Mazkur asoratlarni oldini olish uchun benzodiazepintar bosqichma-bosqich bekor qilinishi kerak.

Mazkur guruh preparatlarining bizning mamlakatimizda keng qo'llaniladigan turlaridan biri nitrazepamdir. Uni ichga qabul qilgandan so'ng uyqu chaqiruvechi ta'siri 30-60 minutdan so'ng keladi va 8 soatgacha davom etadi. Nitrazepam narkoz uchun etil spiriti kabi vositalar ta'sirini kuchaytiradi. Sog'lom insonning yurak-qon tomir tizimiga amalda ta'sir ko'rsatmaydi.

Ichakdan yaxshi so'riladi. Preparat to'planadi, takroran qo'llaganda o'rganib qolish sodir bo'ladi.

Barbituratlardan nitrazepam quyidagi belgilarga ko'ra yaxshi tomonga farqlanadi: a) uyqu tuzilishini kam darajada o'zgartiradi; b) keng terapevtik ta'sirga ega bo'lib, shuning uchun kuchli zaharlanish xavfi kam bo'ladi; v) jigarning mikrosomal fermentlari induksiyasi kam aks etadi; g) doriga qaramlik rivojlanish xavfi kam bo'ladi (ammo buni hisobga olish zarur).

Nitrazepamga o'xshash tarzda temazepam va flurazepam asosan uxlatuvchi

vosita sifatida foydalaniladi. Qolgan preparatlar ancha keng qorllaniladi: epileptik statusda va bir qator boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha anksiolitiklar kabi (bob 14.4).

Hozirgi vaqtida benzodiazepinlar uxlaturvchi vosita sifatida qorllash uchun eng optimal preparatlar sirasiga kiritiladi. Ular ayniqsa ruhiy buzilish, halovatsizlik, vaxima bilan bog'liq bo'lgan uyqu buzilishlarida foydalidir.

| Preparatlar | Zolpidem | Zopiklon |
|--------------------------------------|----------------|----------------|
| OIT da chiqarilishi Bio kirish, % | tezkor ~ 70 | tezkor ~ 80 |
| Qonda maksimal konsentrasiya | do 3 | do 2 |
| Singish davri* (<), ch | -2.5 | 3.5-6.5 |
| Jigardagi bio formasiyalar, % | - 100 | 75-80 |
| Chiqarish | buyrak, ichak | ichak, buyrak |
| Uyqu tuzilishiga ta'siri | Kam yoki yo'q | Kam yoki yo'q |
| Doriga o'rGANIB qolishg. | + | + |

Boshqa preparatlarning faramakologiyasi 14.4 bobda keltirilgan.

Benzodiazepin agonist antagonistlar flumazenil sanaladi.

So'nggi yillarda benzodiazepinlarga kirmaydigan ammo benzodiazepin reseptor vositalariga ega bo'lgan uxlaturvchi vositalar sintezlangan. Bu guruh preparatlariga zolpidemvazopiklon kiradi (jadval. 7.1). Benzodiazepin reseptorlar bilan ularni bog'lanish joyi benzodiazepinlarnikidan farqlanadi. Ammo ular GAMKA-reseptorlar faollashishiga olib keladi

Jadval 7.1. zolpidemvazopiklonning taqqoslama baholari

Tormozlashishi jarayoni kuchayadi va rivojlanuvchi uyqu chaqiradigan va sedativ ta'sir asosida yotadi.

Zolpidem (ivadal) hosilaviy imidazopiridin sanaladi. Uyqu chaqiruvchi va sedativ ta'sir ko'rsatadi. Kichik darajada anksiolitik, mushak kuchsizlantiruvchi, titrashga qarshi va amnestik ta'sir ko'rsatadi.

Benzodiazepin reseptorlarning birinchi turi bilan o'zaro munosabatga kirishadi (BZ1-, yoki sh1-podtip). Uyqu fazasiga kam ta'sir qiladi.

Qo'shimcha ta'sirlardan allergik reaksiyalar, gipotensiya, asabiy lashish,

gallyusinasiya, ataksiya, dispepsik hodisalar, kunduzgi vaqtida uyquchanlik kuzatilishi mumkin. Uzoq vaqt qabul qilganda odatlanish va doriga qaramlik paydo bo'ladi, shuning uchun preparatni kam muddat davomida qabul qilish maqsadga muvoziq (ko'pi bilan 4 hafta).

Zolpidem preparatiga zopiklon preparati o'xshash bo'ladi. Bu hosilaviy siklopirrolondir. Uyquchanlik, sedativ, anksiolitik, mushakkuchiszlantruvchi va titrashga qarshi ta'sirga ega.

Aminazin yurak va qon tomir sitemasiga ham ta'sir ko'rsatadi – qon bosimini pasaytiradi, gipotenziv ta'sir mexanizmi ancha murakkab: qon tomirlarini alfa – adrenoreseptorlarni bog'lash, gipotalamus markaziari faoliyatini kamaytirish, miotrop, spazmolitik, tomirlarni toraytiruvchi kompensator reflekslarni susaytirish hamda yurakni zarbali kuchining kamayishi bilan bog'liq. Shu bilan birga aminazin aritmiyaga ham qarshi ta'sir etadi: yangi tug'ilgan chaqaloqlarda kuzatiladigan pilorospazmni yo'qotadi, pilorik sfinkterda joylashgan adrenoreseptorlarni bog'lab, ularning qisqarishini bartaraf etadi.

Aminazin ruhiy kasallikkarda: shizofreniya, psixomotor qo'zg'alishlarda, maniakal-depressiv psixozlarda, quishni, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda uchraydigan pilorospazmni davolashda, neyroleptoanalgeziyada qo'llanadi.


Aminazin og'iz yoki parenteral yo'llar orqali yuboriladi. Terapeutik ta'sir davomiyligi bir martalik yuborishda taxminan 6 s tashkil qiladi. Oshqozon ichak traktida preparat to'laligicha so'rilmaydi. Aminazin (uning ta'sirlovchi ta'sirini inobatga olgan holda) venaga asta sekinlik bilan yuboriladi. Jigarda ko'p miqdorda to'planadi, biotransformasiyaga uchraydi, o'zi hamda metabolitlari asta-sekin buyrak va ichak orqali chiqib ketadi.

Uzoq muddat mobaynida qo'llanganda aminazinga o'rganib qolinadi, uning ta'siri kamayib boradi. Aminazinning sedativ, gipotenziv, quishga qarshi xususiyatlariga nisbatan o'rganish kuzatiladi, psixozga qarshi ta'siriga o'rganish paydo bo'lmaydi. Aminazin qo'llanganda kuzatiladigan nojo'ya ta'sirlari: qon bosimining pasayishi, ortostatik kollaps holati, agranulositoz, jigarda o'zgarishlar (sarg'ayish) paydo bo'lishi hamda asosiy nojo'ya ta'sir – neyroleptik sindrom, ya'ni ekstrapiramid o'zgarishlar – parkinsonizm holatlari ro'y berishi mumkin. Bolalarda ekstrapiramid o'zgarishlar kattalarga nisbatan ertaroq paydo bo'ladi.

Piperazin sikli bo'lgan yon zanjirida azot atomi bilan bog'langan fenotiazin birikmaları katta ahamiyatga ega bu guruh triflazin, fторfenazin va b.sh larni o'z ichiga oladi.

Triflazinning (trifluoperazina gidroxlorid, stelazin) psixozga qarshi ta'siri aminazindan ancha kuchli: neyroleptik ta'sir bilan birga nerv sistemasi faoliyatini

oshiradi; shizofreniyani klinikasida gallyusinasiya, vasvaslik bolsa, bu modda tinehlantiradi.



Adrenolitik ta'siri aminazinga nisbatan kamroq, spazmolitik, talvasaga, gistograminga qarshi xususiyatlari yo'q, uxlaturvchi moddalar ta'sirini kamroq oshiradi, kuchli kataleptik xususiyatga ega. Trifstazinning nojo'ya ta'sirlari; ekstrapiramid o'zgarishlar aminazinga nisbatan ko'proq uchraydi, agranulositoz, gepatotoksisik ta'siri aminazinga nisbatan kamroq.

Ftorsenazinning (flufenazina gidroxlorid, moditen) psixozga qarshi xususiyati etaperazin, triflazinga o'xshab ketadi, ularga o'xshab markaziy nerv sistemasiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ftorsenazin ham ekstrapiramid o'zgarishlar, talvasa va allergiya jarayonlarini qo'zg'ashi mumkin. Prolengirlangan preparat fторсеназин деканат о'llанилади, та'siri 7-14 kun va undan ortiq davom etadi.

Fenotiazin qatori preparatlari turli nojoya ta'sirni chaqirishi mumkin. Bular, umumiy holsizlik, uyquchilik, og'iz qurishi, yurak sohasida noqulaylik, gipotensiya, ortostataik kollaps bo'lishi mumkin. Ba'zida turg'un sariglik rivojlanishi mumkin (odatda, aminazin qabul qilganda). Fenotiazin qatoridagi

antipsixotik vositalar uchun (ayniqsa, giperazin sikli saqlovechi) ekstrapiramid o'zgarishlar xos (parkinsonizm va b.sh). Uzoq vaqt fenotiazin antipsixotik vositalar qo'llash (ko'p oy yoki yil) kechki diskeniziyan keltirib chiqarishi mumkin. Ular bo'yusunmaydigan xoreotik yuz, til va oyoq qo'llar va tana mushaklari qisqarishi bilan xarakterlanadi. Ko'pineha keksa bemorlarda kuzatiladi. Kechki diskeniziyan dori vositalari bilan davolash kam samaralidir. Bunday hollarda antipsixotik vositalar bekor qilinadi yoki dozasi kamaytililadi. Kamdan-kam holatda xavfli neyroleptik sindrom rivojlanishi mumkin. U belgilangan preparatga idiosinkarziya oqibati hisoblanadi. Mushak rigidligi, keskin tana harorati ko'tarilishi, qon tomir tizimi funksiyalyari buzilishi, ong buzilishi va boshqalar yuzaga keladi. 10-20% bunday bemorlar o'ladi. Bu asoratlarni davolash uchun diape zam, bromokriptin, dantrolen qo'llaniladi. Tana harorati ko'tarilganda tanani tashqi fizik sovutish amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda dispepsik buzilishlar – ishtaha yo'qolishi, quish kuzatiladi. Fenotiazin teri va shilliq qavatlarni ta'sirlantirishi chaqiradi. Preparatni yuborish yo'llarida ham (vena, mushak, enteral) ta'sirlantirishi chaqiradi. Dermatitlar, teri fotosensibilizasiyasini bo'lishi mumkin. leykopeniya va agranulositozog'ir asoratlari hisoblanadi. *Tioksanten unumlariga* xlorprotiksen (truksal) kiradi. Kimyoviy jihatdan aminazinga o'xshab ketadi, modda psixozga qarshi hamda tinchlanuvchi ta'sir etadi, biroq fenotiazin unumlariga nisbatan ta'siri kamroq. Uxlatuvchi va og'riq qoldiruvchi moddalar ta'sirini oshiradi, quishni qoldiradi, adrenolitik, ozroq bo'lsa ham talvasaga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Xlorprotiksenning depressiyaga qarshi xususiyati ham bor.

Xlorprotiksen psixoz va psixonevrozlarda, alkogol psixozida qo'llanadi. aminazinga nisbatan kam zaharli, ekstrapiramid o'zgarishlar nisbatan kamroq bo'ladi, ba'zida uyquchanlik, taxikardiya, gipotoniya, og'iz qurish hollari kuzatiladi. Kamdan-kam teri pigmentasiyasini va fotosensibilizasiyasini keltirib chiqaradi.

Jadval 11.3. Antipsixotik qatoriga kiruvchi moddalarning farmakokinetikasi

Жадвал 11.3. Актическіе фармакокинетичные параметры антидепрессантов

| Препарат | Виды группы при инъекции | Время поглощения | Фармакокинетика | | Вид |
|-------------|--------------------------------|---------------------|---|--|-----|
| | | | концентрация вещества в плазме крови, нг/мл | Связывание с белками плазмы крови, % | |
| Аминазин | 15-50 | 1-4 | 95-98 | 25-35 | 4 |
| Флорексапон | 17-4,5 | 1-4 | 3 | 8-10 | 1 |
| Галоперидол | 40-30 | 0,5-0,7 | 90-94 | 12-22 | < |
| Клоzapин | 42-37 | 1,1-2,7 | 295 | 8-16 | 1 |
| Рисперидон | 40-90 | ~1 | ~90 | 2,4-4* | * |

* u₂ aktivnogo metabolita - 20-24 ch.

¹ Ayrim holatlarda diskenziyaning kamayishi qo'llanilayotgan antipsixotik preparat dozasi oshganda kuzatiladi.

² Dantrolensarkoplazmatik retikulumga ta'sir qilib va undan kalsiy ionlari chiqishiga to'siq qo'yib mushak relakasasiyasini chaqiradi. Xavfli gipertermiyada qo'llaniladi.

Butyrofenon unumlaridan galoperidol(galofen) faol neyroleptik modda hisoblanadi. Ta'siri nisbatan tez va uzoq muddatlidir. Ichga yuborilganda qon zardobida maksimal konsentrasiya 2-6 soatdan so'ng kuzatiladi va 3 sutkadan yuqori miqdorda saqlanadi. 5 sutkadan so'ng yuborilgan moddaning 40%ga yaqini buyraklar orqali chiqariladi.

Galopiredolning yuqori antipsixotik faolligi sedativ effekt bilan bog'liq. Ta'sir mexanizmi markaziy noradrenergik, ayniqsa, dopaminergik reseptorlarni bog'lab, psixozga qarshi va sedativ ta'sir ko'rsatadi.

Galoperidolning psixozga qarshi ta'sir mexanizmida uning biologik membranalar o'tkazuvchanligiga, ayniqsa, gamma-aminomoy kislota joylashgan reseptorlarga bo'lgan ta'siri ahamiyatga ega. Odatda, bosh miyada GAMK bilan glutamin kislota dopaminergik sinapslar modulyatori (ularning ta'sirini ro'yobga chiqaradigan) hisoblanadi. Glutamin kislota nevronlarni qo'zg'atsa, uning metaboliti GAMK sinaptik o'tkazuvchanlikni tormozlaydi.

Ba'zi tajribalarga ko'ra, galoperidol dofaminoreseptorlardan glutamin kislotani chiqarib tashlash xususiyatiga ega, uning qo'zg'atuvchan ta'siriga to'sqinlik qiladi. markaziy nerv sistemasida tormozlanish jarayonlari oshib boradi.

Galoperidol kuchli quisishga qarshi ta'sirga ega, narkotik ta'sir qiladigan moddalar bilan qo'llanganda potensirlash xususiyati bor, periferik M-xolinolitik, gangliylarni falajlovchi ta'sirlari yo'q. Galoperidol shizofreniya xurujlarida, ayniqsa, maniakal holatlarda qo'llanadi. Boshqa neyroleptiklar ta'siri bo'limganda galoperidol ta'siri ko'pincha natijali bo'ladi, gallyusinasiyalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Modda qo'llanganda bemorlarda bo'shashish, befarqlik holatlari yuz bermaydi, aksincha uning faollowchi xususiyati bor.

Nojo'ya ta'sirlari: galoperidol qo'llanilganda ekstrapiramid o'zgarishlar ko'proq uchraydi. Teri reaksiyalari bo'lishi mumkin. Kamdan-kam leykopeniya rivojlanadi. Doza oshib ketganda qo'rquv, vaxima, uyqusizlik paydo bo'ladi.

Butirofenon unumlariga droperidol ham kiradi, modda juda qisqa vaqt ta'sir etadi, kuchli periferik alfa – adrenolitik xususiyatga ega. Narkotik analgetik fentanil bilan neyroleptoanalgeziya, toj tomirlar o'tkir yetishmovchiligidagi og'riq sindromini goldirish uchun hamda gipertonik krizlarda qo'llanadi.

Almashgan benzamid unumlariga sulpirid kiradi. U dosaminli D₂-reseptorlariga falajlovchi ta'sir kiladi. Yaqqol antipsixotik faollikka ega, quisishga qarshi xususiyat xos. Sulprid qabul qilinganda kichik gipotensiya bo'lishi mumkin. ekstrapiramidal o'zgarishlar sezilvrsiz darajada. Oshqozon ichak traktida yomon so'riladi. t_{1/2} = 5-10 s.

Dibenzodiazepin unumlariga klozapin (leponeks, azaleptin), kiradi, modda kuchli psixozga qarshi hamda sedativ ta'sirga ega. Dofamin D₄-reseptori D₂-reseptori serotonin 5-HT_{2A}- reseptorlarga yuqori affinitet aniqlangan. Klozapinning kuchli markaziy xolinolitik xususiyati bor, balki shu tufayli bu modda qo'llanganda ekstrapiramid o'zgarishlar, parkinsonizm holatlari kuzatilmaydi. Kataleptogen ta'siri yo'q, ba'zi holatlarda boshqa neyroleptiklar ta'siri bo'limganda klozapin yaxshi natija beradi. Bemorlar klozapinni yaxshi ko'taradilar, hazm qilish traktida yaxshi so'riladi, prolaktin ishlab chiqarilishiga

ta'sir ko'rsatmaydi, modda qo'llanganda qon hamda yurak va qon tomirlar faoliyatini tekshirib turish lozim, chunki ularga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuni aytib o'tish joizki klozapin "tipik" antipsixotik vositalarga sezgir bemorlarda samaralidir. Lekin davolashda periferik qon tarkibini tekshirib turish lozim, chunki agranulositoz holatlari aniqlangan. Shuningdek, gipotensiya, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, gipersalivasiya, tana og'irligining oshishi, ba'zan, klonikotonik talvasalar kuzatilishi mumkin. Leykopoezga salbiy ta'siri tufayli kam qo'llaniladi. Shuningdek, narxi ham qimmat.

"Atipik" antipsixotik vositalar guruhiiga risperidon(risperidol) kiradi. Benzizoksazol unumi hisoblanadi. dofaminD₂- reseptorlar bilan bir qatorda, serotonin 5-HT_{2A}-reseptorlarni salajlaydi.

Kuchli antipsixotik ta'sirga ega. Kuniga 1-2 marta qabul qilinadi. Kam dozada deyarli ekstrapiramidal o'zgarishlarga olib kelmaydi, ammo yuqori dozalarda olib kelishi mumkin. Shuningdek, gipotensiya, uyqusizlik, dispepsik buzilishlar, allergik reaksiyalar kuzatilishi mumkin.

Neyroleptiklarga *Rauwolfia o'simligidan olingan rezerpin alkaloidi* ham kiradi, ammo hozirgi kunda deyarli qo'llanilmaydi. moddaning tinchlantiruvchi xususiyati ko'proq, bosh miyada katekolaminlar va serotonin almashinuviga ta'sir ko'rsatadi. Rezerpin mediatorlarning nerv hujayralarida to'planishini va hajmini kamaytiradi, shu tufayli ularning markaziy nerv sistemasiga faollowchi ta'siri pasayib ketadi.

Rezerpin og'riq qoldirmaydi, analgetiklar, talvasaga qarshi moddalarning ta'sirini kamaytiradi. Boshqa neyroleptiklarni ko'tara olmaganda, qon tomirlarning o'zgarishi, ateroskleroz, gipertoniya kasalliklari tufayli kelib chiqqan surunkali ruhiy o'zgarishlarda rezerpinni qo'llash samarali bo'ladi. Rezerpin va uning asosida olingan moddalar qon bosimi oshganda gipertoniya kasalligida qo'llanadi. Rezerpin davomli qo'ilanilganda simpatik nerv sistemasi tonusini kamaytirib, parasimpatik sistemasi tonusini oshirib yuboradi – qorachiq torayadi, bradikardiya, iehak peristaltikasi, oshqozon shirasining ajralishi ko'payadi, qon bosimi pasayadi.

Antipsixotik vositalarni psixozlarda ko'rsatiladi. Bundan tashqari, ular opioid analgetiklari etil spirti keltirib chiqargan qaramlikni davolash kompleksida ishlataladi. Fenotiazin va butirofenon unumlari quisishga qarshi, turg'un hiqichqoq tutganda qo'llaniladi. Narkoz, narkotik uyqu dorisi va opioid analgetiklar ta'sirini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Uzoq muddat qo'llanilganda ko'p antipsixotik vositalarga o'rganib qolish rivojlanadi, doriga qaramlik yuzaga kelmaydi.

Dori moddalar

| Moddalarning nomi | Kattalar uchun o'rtacha terapevtik miqdor, yuborish yo'llari | Chiqariladigan shakillari |
|--|--|---|
| Aminazin- <i>Aminazinum</i> | Ichishga 0,025-0,1 g. mushak orasiga 0,1 g. vena ichiga 0,025-0,05 g | Draje 0,025, 0,05 va 0,1 g, 2,5 % li eritma 1, 2, 5 va 10 ml li ampulalarda |
| Trifazin- <i>Trifazinum</i> | Ichishga 0,005-0,01 g. mushak orasiga 0,001-0,002 g | Tabletka, qobiqli tabletka - 0,001; 0,005 va 0,01 g; 0,2 % - 1 ml li eritma ampulalarda |
| Ftorfenazin - <i>Phthorphenazinum</i> | Ichishga 0,002-0,005 g; mushak orasiga 0,00125-0,0025 g | Tabletkalar 0,001; 0,0025 va 0,005 g; 0,25 % - 1 ml eritma ampulalarda |
| Xlorprotiksen - <i>Chlorprothixene</i> | Ichishga 0,005-0,05 g, mushak orasiga 0,025-0,05 g | Tabletkalar (draje) 0,015 va 0,05 g; 2,5 % - 1 ml eritma ampulalarda |
| Galoperidol - <i>Haloperidole</i> | Ichishga 0,0015-0,005 g, mushak orasiga 0,002-0,005 g | Tabletkalar 0,0015 va 0,005; Flakonlarda (ichish uchun) 0,2 % - 10 ml li eritma; 0,5 % - 1 ml li eritma ampulalarda |
| Sulpirid- <i>Sulpiride</i> | Ichishga va mushak orasiga 0,1-0,2 g | Kapsulalarda 0,05-0,1-0,2 g; 5 % - 2 ml eritma ampulalarda; 0,5% eritma flakonlarda |

11.2. ANTIDEPRESSANTLAR

Antidepressantlar deb depressiyani davolash uchun qo'llaniladigan moddalarga aytildi. Ular quyidagi guruhlar bilan taqdim qilinadi (rasm. 11.1). I. Monoaminlар bilan neyronal qamrab olishni berkituvchi moddalar

1. Serotonin va noradrenalin bilan neyronal qamrab olishni berkituvchi tanlanmagan ta'sir

Imizin, Amitriptilin

2. Belgilangan ta'siri

A. serotonin berkituvchi neyronal qamrab olish: Fluoksetin


B. noradrenalin berkituvchi neyronal qamrab olish: Maprotilin

I. Ingibitorlar monoaminoksidazlar (MAO)

1. Tanlanmagan ta'sir (ingibitorlar MAO-Ai MAO-B) Nialamid Transamin

2. Tanlangan ta'sir (ingibitorlar MAO-A) Moklobemid

Tibbiy amaliyotda keng qo'llanilishi trisiklik antidepressantlar hisoblanuvchi birinchi guruh dori vositalari bo'ldi (tuzilma). Ular teskari neyronal qamrab olish va serotonin va noradrenalin bilan berkituvchi tanlanmagan ta'sirga ega antidepressantlarga kiradi.



Rasm. 11.1. Antidepressantlar ta'siri asosiy yo'nalishi.

¹ Sedativ ta'sirga ega antidepressantlar ba'zan timoleptiklar (grek. *thymos-rux, dux, leptos* - yupqa), shuningdek, rag'batlantiruvchi - timeretiklar (grek. *ereto-qo'zg-atish*) deb ataladi.


Ularning vakillaridan biri - imizin (imipramin, melipramin, tofranil). U kuchsiz sedativ ta'sir bilan birga antidepressiya xususiyatiga ega bo'ladi. SHu bilan birga ma'lum holatlarda ruhiy kuchaytiruvchi komponentlar aniqlanadi (ba'zan ayrim qo'zg'atuvchanlik, uyqusizlik kuzatilishi mumkin; rasm. 11.2).

Imizinning ta'sir mexanizmi bir qator sikrlar bilan ifodalanadi. Eng ko'p qabul qilingan gipotezalardan biri noradrenalin va serotonin bilan neyronal qamrab olishni tinchlantiruvchi xususiyati bilan uning depressiyaga qarshi ta'siri bog'liqligidir¹. Bu reseptorlar sohasida katta miqdorda mediator konsentrasiyasi to'planishi va ularning ta'siri o'sishiga olib keladi. Ayniqsa, limbik tizimga serotoninning sekinlashtiruvchi ta'sirining oshishi imizinning antidepressiv ta'siri muhim mexanizmlaridan biridir.

Preparat shuningdek, presinaptik α_2 -adrenoreseptorlar (noradrenalin chiqarishni kuchaytiradi), serotoninovlare ($5HT_{1A-1D}$) va gistograminreseptorlar ta'siriga ham ega.

Imizinning markaziy ta'siri bilan bir qatorda ayrim periferik m-xolinolitik (atropinsimon), α_1 -adrenolitik, papaverinsimon va gistograminga qarshi ta'sirga ega bo'ladi.

Oshqozon-ichak traktidan imizin yaxshi chiqariladi. Jigarda katta miqdorda parchalanadi. Uning metabolitlaridan biri - dezmetilimipramin (dezipramin) – antidepressiv faoliッka ega bo'ladi va tibbiy amaliyotda foydalaniлади. Metabolitlar, konyugatlar va orzgarmas shakida asosan buyrakda (40% - 1-sutkada), qisman ichaklarda sodir bo'ladi.



Rasm. 11.2. Antidepressantlarning psixotrop ta'siri klinik xususiyatlari.

¹ Ruhiy sekinlashishni bartaraf qilish.

² Yomon kayfiyatni bartaraf qilish.

³ Qo'rquv va vahimani bartaraf qilish.

Ingibitorlar MAO – tanlanmagan ingibirlovchi monoaminoksidaz moddalardir.

¹ Imizin va bunday turdag'i boshqa antidepressantlarning depressiyaga qarshi ta'siri markaziy asab tizimiga SNS serotonin 5-HT₂-receptorlar, α₂- va betta-adrenoreseptor barqarorligi pasayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Depressiyada imizindan foydalanganda davolovchi ta'siri 2-3 haftadan so'ng keladi. Qo'shimcha ta'siri imizinning atropino xususiyati bilan bog'liq bo'ladi (og'iz bo'shlig'idagi quruqlik, taxikardiya, qabziyat, siyidik ajratish buzilishi). YUrak-mushak tizimida buzilishlar qayd qilinadi. Iimzin terapevtik dozada arterial bosimni kamaytiradi. Uning ta'sirida ba'zan ortostatik gipotenziya rivojlanadi. Katta dozada ular taxikardiya, aritmijani chaqirishi mumkin. Ruhiy faoliyatning salbiy ta'sirlari ehtimoli mavjud. Bu haddan ortiq sedativ ta'sir, yoki aksincha uyqusizlik, gallyusinasiya, qo'zg'alish bo'lishi mumkin. Iimzin qabul qilganda bosh og'rig'i, terining allergik reaksiyalari, sariq kasalligi, ba'zan leykopeniya va agranulositoz bo'lishi mumkin. Preparat tana massasi oshishiga olib kelishi mumkin.

Imizin glaukoma, prostata bezi gipertrofiyasi bilan bog'liq siyidik ajratish buzilganda qo'llash mumkin emas. Uni turli ta'sirga ega bo'lmagan MAO ingibitorlar bilan aralashtirish mumkin emas. Agar bu ikki turdag'i antidepressant

ketma-ket tayinlansa oraliq MAO ingibitorni qabul qilgandan so'ng kamida 1.5-2 g'rafta bo'lishi kerak.

Kломипримин имизин препарати билан о'xhash bo'ladi. Серотонинни qamrab olishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Амитриптилин (триптизол) тузилишига ko'ra имизин билан о'xhash bo'ladi. Amitriptilin va imizinning farmakodinamikasi va farmakokinetikasi o'xhash bo'ladi. Amitriptilindagi antidepressiv faollik bilan birga psixosedativ ta'sirga ega bo'ladi. Unda kuchaytiruvchi ta'sir mavjud emas. (rasm. 11.1). Bundan tashqari u imizinda gistaminga qarshi ta'sir bo'yicha ustunlik qiladi. Amitriptilin eng faol antidepressiv vositalarga kiritiladi. Uning davolash ta'siri 10-14 kundan so'ng namoyon bo'ladi.

Трисиклик antidepressantlarga shuningdek, azafen (piposezinum) kiradi. U o'rtacha antidepressiv faollikka ega va sedativ ta'sir ko'rsatadi. Keltirilgan antidepressantlardan m-xolino berkituvchi xususiyati yo'qligi bilan farqlanadi. Preparat yaxshi singadi. Qo'shimcha ta'sirlar faqatgina alohida holatlarda kuzatiladi, shuning uchun azafen ba'zan katta yoshli bemonlarga tavsiya qilinadi. Uni ichga yutish tayinlanadi.

Belgilangan preparatlar serotonin va noradrenalinni neyronal qamriba olishga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga turli ta'sirga ega preparatlar yaratilgan. Серотонинни neyronal qamrab oluvchi tinchlaniruvchi ta'sirga ega birikmalar sintezlangan. Bunday preparatlardan biri fluoksetin (прозак, фрамекс). Кимовий тузилишига ko'ra u hosilaviy fenoksipropilamin sanaladi. Yuqori antidepressiv faollikka ega bo'ladi. Ta'siri bosqichma-bosqich rivojlanadi (1-4 hafta davomida). Trisiklik antidepressantlardan farqli ravishda ularda sedativ ta'sir yo'q va odatda ruhiy kuchaytiruvchi ta'sir aniqlanadi. Fluoksetikn qo'llaganda gemodinamika barqaror bo'ladi. Tana massasi oshmaydi. Bundan tashqari past zaharliligi bilan xarakterlanadi.

Ichga qabul qilganda yaxshi singadi. Jigarda parchalanadi. Uning metabolitlaridan biri bo'lgan norfluoksetin yeqori antidepressiv faollikka ega. Fluoksetina uchun $t_{1/2}=1-3$ kun (norfluoksetin uchun - 7-15 kun bo'ladi).

Metabolitlarlar buyrakdan o'zgarmagan preparatlarni ajratadi.

Qo'shimcha ta'sirlardan ishtaha buzilishi, asabiylik, bosh og'rig'i, uyqusizlik qayd qilinadi. Fluoksetinni MAO turlicha ta'sirga ega bo'lмаган ingibitorlar bilan qo'llash mumkin emas, chunki serotonin ortiqcha konsentrasiyasi to'planishi bilan bog'liq serotonin sindromi rivojlanishi mumkin. Bu gipertermiya, yurak-qon tomir faoliyatining susayishi namoyon bo'lib, u hayot uchun xavflidir. Fluoksetin va MAO ingibitorlarni qo'llash oraliq'i kamida 2 hafta bo'lishi kerak .

Fluoksetin uchun haxm qilish ingredientlari bilan o'zaro ta'siri qayd qilinmagan .

Fluoksetin depressiv holatlarni davolashda tibbiy amaliyotda keng qo'llaniladi .

Turlicha ta'sirga ega ingibitorlardan bir qator yangi turdag'i preparatlar - setralin, paroksetinva boshqalar taklif qilingan. Eng katta ta'sirga paroksetin (paksil). Tajribalarda serotoninining noradrenalinga qaraganda teskari qamrab olishi 320 marta kuchliliqi aniqlangan (setralin - 190 marta, fluoksetin - 20 marta). Paroksetin yuqori antidepressiv va anksiolitik faollikka ega bo'ladi. Kam miqdorda m-xolin berkituvchi ta'sirga ega.

Enteral kiritganda to'liq singadi. Preparat sutkada bir marta kiritiladi. Ta'siri 1-4 hastada rivojlanadi. Davolash davomiyligi depressiya turiga bog'liq holda oylar bilan o'chanadi. Paroksiten yaxshi singadi. Qo'shimcha ta'sirlar juda kam kuzatiladi. Toshmalar, bosh og'rig'i, uyquechanlik, bosh aylanishi va boshqalar kuzatilishi mumkin.

Shuningdek, norarenalin neyronal qatlamini berkituvchi preparatlar - maprotilin (ludiomil) sintezlangan. Farmakologik xususiyati va qo'llash ko'rsatmalari bo'yicha imizin bilan o'xshash bo'ladi.

Hazm qilish traktidan sekin chiqariladi. Jigarda biotransformasiyaga uchraydi. Asosan buyrakdan maprotilin va uning metabolitlari chiqariladi.

Dezipramin ham asosan noradrenalinning neyronlardan qayta neyronal so'rilib shoga ta'sir ko'rsatadi. Dezipramin imizinni metaboliti hisoblanadi.

Jadval 11.4. Bir qator antidepressantlar farmakokinetikasi – monoaminlarni neyronlar orqali tutib qoluvchilarini ingibitorlari

| Modda | Enteral yuborilganda biologik faoliyi | Qon plazmasida moddani maksimal to'planish | Oqsillarning qon plazmasi bilan bog'lanishi | Qon plazmasida moddani konsentrasiyası | Buyraklar orqali chiqib ketishi. | Faol metabolitlar |
|--------------|---------------------------------------|--|---|--|----------------------------------|---|
| Imizin | 40 - 45 | 2 - 6 | 90 - 92 | 14-18 | <2 | Dezipramin |
| Amitriptilin | 25 - 70 | 2,2 - 5 | 92 - 95 | 16-26 | 0 | Nortriptilin |
| Fluoksetin | - 70 | 6 - 8 | -94 | 20-90 | <2,5 | Norfluoksetin ¹ |
| Paroksetin | - 50 | 5 - 5,5 | -95 | 12-20 | <2 | |
| Maprotilin | 66 - 75 | 9 - 16 | -90 | 43-51 | <1 | Dezmetilmapprotilin ² , mapro- |

¹t_{1/2} ~ 4-9 kun

t_{1/2} ~ 60-90 s

MAO ingibitorlar guruhidagi antidepressantlar tanlanmagan va tanlangan ta'sir preparatlariga bo'linadi.

Hozirgi vaqtida **MAO turlicha ta'sir qilmaydigan ingibitorlar** (MAO-A va MAO-V) ancha yuqori zaharlilik natijasida kam qo'llaniladi. Antidepressantlarni tanlashda qoidaga ko'ra monoaminlarning neyronal qamroviga ta'sir qiluvchi preparatlar afzal ko'riladi.

MAO turlicha ta'sir qilmaydigan ingibitorlar noradrenalin va serotoninni oksidlanish jarayonini tinchlantiradi, bu ularning bosh miya to'qimalarida katta miqdorda to'planishiga olib keladi.

Bu guruhdagagi ko'plab preparatlar MAO ni teskari berkitadi. Shu sababli MAO ni tiklash uchun u katta vaqtini olib yana sintezlanishi kerak (2 hafta). Uning maksimal siqilishi MAO ingibitorlar chiqarilgandan so'ng bir necha soat o'tib sodir bo'ladi. Ammo antidepressiv ta'sir 7-14 kun o'tib rivojlanadi.

MAO ingibitorlarning antidepressiv ta'siri bilan birga ruhiy kuchaytiruvchi xususiyati bilan xarakterlanadi (uyqusizlik, eyforiya, qo'zg'alish rasm. 11.1).

MAO ingibitorlar ta'sirida oziq-ovqat mahsulotlarida bo'luvchi

simpatomimetiklarning ta'siri kuchayadi (fenamin, efedrin, tiramin). Bu moddalar MAO natijasida to'planuvchi noradrenalinning ortiqcha miqdorini chiqarishga qodir bo'ladi. Bunda gipertenziv kriz paydo bo'ladi.

Uning ingibitorlar ta'siri nafaqat MAT ga balki periferik to'qimalarga ham bo'ladi. Bundan tashqari bunday preparatlar boshqa ferment tizimi qatorlariga ham ega bo'ladi.

MAO ingibitorlari gipotenziv faollikka ega. Stenokardiyada ular og'riq hissiyotlarini kamaytiradi. MAO ingibitorlar hazm qilish traktidan yaxshi chiqariladi. Buyraklarda ajratiladi. Ular nisbatan yuqori zaharlilikka ega. Bu asosan jigar bilan munosabatda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ular MAT ni qo'zg'atib, uyqusizlikning sababi bo'lishi mumkin. Bu moddalarning qo'llanilishi ortostatik gipotensiya bilan kuzatilishi mumkin.

MAO ingibitorlarga doriga qaramlik rivojlanmaydi.

MAO ingibitorlar sifatida ko'p miqdordagi hosilaviy gidrazin sintezlangan. Ammo hozirgi vaqtida tibbiy amaliyotda yagona gidrazin preparatlar, masalan nialamid (niamid, nuredal) foydalaniladi. Bu eng kam samarali antidepressantlardan biri sanaladi. Ammo uning jigarga zaharli ta'sir va boshqa qo'shimcha ta'sirlari kam darajada namoyon bo'ladi.

Kimyoviy birikmalarning boshqa sinsiga transamin (traniisipromin, parnat) kiradi. U fenilsiklopropilamin sanalib, tarkibiga ko'ra fenilalkilamin (fenamin) ga o'xshash bo'ladi. Transamin – kuchli MAO ingibitor sanaladi. U bu guruhdagi eng samarali antidepressantlarga kiradi. Terapeutik ta'siri ko'plab gidrazinlarga qaraganda ancha tez keladi (nialamid - 12-14 kun, transamina -2-7 kun).

Transaminning Farmakodinamikasi transamina analogichna takovoy drugix ingibitorov MAO boshqa ingibitorlariga o'xshash bo'ladi. Bunga ayrim simpatomimetik ta'simi qo'shish mumkin.

Nogidraziv birikmalarda gepato zaharlilik gidrazin guruhi preparatlariga qaraganda kam darajada aks etadi.

So'nggi yillarda V posiednie godlar privlekii vnimanie *Preparatlar, obratimo ingibiruyuviye preimuiuestvenno MAO-A teskari ingibirlovchi*

preparatlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Ularga moklobemid (aurotiks), *pirazidolkiradi.* Ular Oni deystvuyut bolee kratkovremенно, chem neobratimlare ingibitorlar MAO teskari bo'lmasan ingibitorlarga qaraganda ancha qisqa vaqt ta'sir qiladi. Bundan tashqari ular qo'llanganda gipertenziv kriz rivojlanish ehtimoli pasayadi.

¹ Oddiy sharoitda tiramin ichak devori va jigarda parchalanadi.

² Bunday o'zaro ta'sir pishloq ta'siri deb ataladi (*«cheeseeffect»*, angl.).

(tiramin). Moklobemid yavlyaqetsya hosilaviybenzamiddir.

Pirazidol - tetra davriy birikmadir. Kimyoviy tuzilishiga ko'ra u hosilaviy indolga kiradi. Pirazidolning antidepressiv ta'siri bemorning holatiga bog'liq bo'ladi. Uning antidepressiv ta'sir mexanizmi MAO-A da teskari ingibirlovchi ta'sir va noradrenalin neyronal qamrab olish qobiliyati bilan tushuntiriladi. Preparat yaxshi singadi. Qo'shimcha ta'sirlar juda kam paydo bo'ladi. Pirazidol ichga qabul qilinadi.

Preparatlar

| Moddalarning nomi | Kattalar uchun o'rtacha terapevtik miqdor; yuborish yo'llari | Chiqariladigan shakkari |
|---------------------------------|---|---|
| Imizin - Imizinum | Ichishga 0,025-0,05 g; mushak orasiga 0,025 g | Tabletkalar, qobiqli tabletkalar 0,025 g; 1,25 % – 2 ml li eritma ampulalarda |
| Amitriptilin - Amitriptyline | Ichishga 0,025-0,05 g; mushak orasiga va vena ichiga 0,025 g 0,04 g | Tabletkalar 0,025 g; 1 % – 2 ml li eritma |
| Azafen - Azaphenum | Ichishga 0,025- 0,05 g | Tabletkalarda 0,025 g |
| Fluoksetin - Fluoxetine | Ichishga 0,02 g | Kapsulalarda 0,02 g |
| Maprotilin - Maprotiline | Ichishga 0,05-0,3 g; vena ichiga 0,05 g - 0,15 g | Draje 0,01; 0,025 va 0,05 g; 1,25 % - 2 ml eritma ampulalarda |
| Pirazidol - Pyrazidolum | Ichishga 0,075- 0,15 g; | Tabletkalarda 0,025 va 0,05 g |

| | | |
|------------|-----------------|-----------------------|
| Nialamid - | Ichishga 0,025- | Tabletkalarda (draje) |
| Nialamidum | 0,01 g. | 0,025 g |

Maniyani davolashda qo'llaniluvchi vositalar

Maniyani davolashda antipsixotik vositalar va litiy tuzlaridan foydalanish mumkin. Antipsixotik vositalar nafaqat vasvasada balki turli kelib chiqish sababiga ega buzilishlarda ham foydalidir. Ularning ta'siri umumiyl tinchlanirish, uyquchanlikda oamnyon bo'ladi. Ular vasvasada farmakoterapevtik ta'sir ko'rsatib, ruhiy holatni u yoki bu darajada me'yorlashtiradi, ammo umumiyl sekinlashishga olib kelmaydi. Kam miqdorda sedativ ta'sir kuzatilishi mumkin.

Litiy tuzlari

Litiy tuzlari asosan vasvasini davolash va oldini olish uchun foydalaniladi (sxema 11.1).

Vasvasa - yuqori darajada qo'zg'alganlik holatidir; uning fazalaridan biri maniakal depressiv psixoz sanaladi (grek. *mania*- aqlsizlik).

Ajitasiya (fran. *agitation*) – kuchli hayajonlanish holati.

| Osnovnlare vidlar psixicheskix | Asosiy psixopatologicheskie | Guruh psixotropnlarx |
|-----------------------------------|--------------------------------|-------------------------|
| rasstroystv | sindromlar | tarkibi |



Sxema 11.1. Psixotrop moddalar ta'sirining asosiy yo'nalishi.

Litiyning harakat mexanizmi tushunarli emas. Uning imkoniyatlaridan biri Na^+ tokiga ta'siri bilan bog'liq. Bir valentli kation bo'lgan Li^+ tezkor natriy kanallari orqali kataklar ichiga o'tadi. Ammo litiy ionlari kinetikasi natriyning bunday ionlaridan farqlanadi. Li^+ kataklardan ancha sekin chiqadi va depolyarizasiya jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Monoaminlar almashinuviga litik ionlarining ta'sir istisno emas. Shuningdek, litiy noradrenalin va dofamin chiqarilishini kamaytirishi to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Bundan tashqari litiy ikkilamchi datchiklarga ta'sir qiladi. U fosfoinozitol yo'llarni berkitishi va inozitoltrifosfatva diasilgliserol shakllanilishini kamaytirishi aniqlangan. Litiy ikkilamchi peredatchikni miqdorini kamaytirishi mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar bor.

Litiy tuzlarini enteral kiritganda ingichka ichakdan yaxshi chiqariladi.

Organizmda teng miqdorda tarqaladi. Gemato encefalik to'siq orqali o'tadi.

Orqa miyada litiy suyuqligi qon plazmasiga qaraganda ikki marta kam bo'ladi. Filtrlash yo'li bilan litiy buyrakdan chiqariladi.

Plazmada litiy miqdori taxminan 24 soat mobaynida 50% ga kamayadi. Uning eliminasiysi tezligi natriy xlorid tarkibli dietada sezilarli ravishda oshishi mumkin. Natriy xloridni kiritish kamayganda yoki litiy ortiqacha chiqarilganda

intoksikasiyaga olib kelishi mumkin (masalan siydiq haydovechi vositalar qo'llaganda). Laktasiya davrida litiy ionlarining belgilangan miqdorida sut bezlari ajratilishini hisobga olish kerak .

Tibbiy amaliyotda turli litiy tuzlari qo'llaniladi (karbonat, xlorid, yodid, asetat, sitrat). Eng keng tarqalgan preparat litiy karbonat sanaladi (Li_2CO_3). U faqat enteral tarzda kiritiladi.

Yuqorida qayd qilganimizdek litiy tuzini qo'llashga muhim ko'rsatma vasvasani davolashdir. Antipsixotik vositalardan litiy tuzining ta'sirining ancha sekin rivojlanishi (2-3 hasta), sedativ ta'sir yo'qligi bilan farqlanadi.

Katta miqdorda qo'rquvni oldini olish, shuningdek, depressiya uchun litik tuzlari samarali bo'ladi.

Litiy tuzining terapevtik doirasini kamligini hisobga olish kerak . Shuning uchun litik tuzini qo'llaganda qonda ularning miqdorini doimiy nazorat qilish kerak (u 1,6 mekv/l dan oshmasiiji kerak).

Litiy tuzlarini qo'llanilishi turli qo'shimcha ta'sirlar bilan kuzatilishi mumkin: dispepsik buzilishlar, mushaklarning kuchsizlanishi, poliuriya, chanqoqlik. Ba'zan notoksic bo'qoq rivojlanishi mumkin. Litiy tuzi buyrakning ajratish funksiyalari buzilganda qo'llash mumkin emas. Oshqozon va o'n ikki barmoqlik ichakning yara kasalliklarida, xolesistitda litiy tuzini ehtiyyotkorlik bilan qo'llash kerak .

Litiy tuzlari bilan kuchli zaharlanish qayt qilish, diareya, ataksiya, dizartriya bilan namoyon bo'ladi. Og'ir holatlarda halokatli koma rivojlanishi mumkin. Kuchli zaharlanishni davolash organizmdan litiy chiqarilishini tezlashtirishga qaratilgan. Shu maqsadda osmotik diuretiklar, natriy gidrokarbonat qo'llaniladi, zarur bo'lganda gemodializ topshirish mumkin.

Maniakal-depressiv holat rivojlanishini oldini elish uchun shuningdek, epilepsiyaga qarshi preparatlar carbamazepin, natriy valproat, gabapentin qo'llaniladi.

Dori moddalar

11.1. ANKSIOLITIKLAR (TRANKVILIZATORLAR)²

Moddalar uchun anksiolitik (trankvilizatorlik) ta'sir asosiy ta'sir hisoblanadi. Qo'rquv, hayajon, bezovtalik, ruhan ezilish, g'am-tashvish tuyg'ularini kamaytiradi. Bundan tashqari ko'p anksiolitiklar edativ ta'siriga ega. Anksiolitiklar asosan nevrotik va nevroz (reakтив) holatlarda qo'llaniladi. Moddalar vegetativ innervasiyaga (amizildan tashqari) ta'sir ko'rsatmaydi; anksiolitiklar ekstrapiramid o'zgarishlar chaqirmaydi.

Lot. *anxius* - bezovta, qo'rquv, vahima, grek. *lysis* - parchalanish. Anksioliklarning atarakтик ta'siriga ega bo'lib (grek. *ataraxia* – xotirjamlik, ruhiyatni tinchlantiruvchi), trankvilizator, psixosedativ, psixostabillovchi, antinevrotik moddalar.

Lot. *tranquillium* – tinchlik, xotirjamlik.

Anksiolitiklar 3 ta guruhga bo'linadi:

1. **Benzodiazepin reseptor agonistlari** (diazepam, fenazepam va boshqalar).
2. **Serotonin reseptor agonistlari** (buspiron).
3. **Turli xil ta'siriga ega moddalar** (amizil va h.k.).

Benzodiazepin reseptor agonistlari eng ko'p ishlataladigan. Kimyoviy tuzilishi jihatdan benzodiazepin unumlaridan iborat.

Benzodiazepin anksiolitiklar ta'sir muddati bo'yicha tasniflanadi. Bunda asosiy moddalarning umumiy davomiyligi, va organizmda hosil bo'ladijan metabolitlarini effektlari hisobga olingan.

Ta'sir da'vemiyliги bo'yicha keyngi guruhlarga bo'linadi:

1. **Uzoq ta'sir etuvchi moddalar** ($t_{1/2} = 24-48$ s)

Fenazepam, Diazepam (sibazon, seduksen, valium), Xlordiazepoksid (xlozepid, elenium).

2. **O'rtacha ta'sir etuvchi moddalar** ($t_{1/2} = 6-24$ s) Nozepam (oksazepam, tazepam), Lorazepam, Alprazolam.

3. **Qisqa ta'sir etuvchi moddalar** ($t_{1/2} < 6$ s) Midazolam (dormikum)

Benzodiazepin moddalarni ta'sirlari:
• anksiolitik,


- sedativ,
- uxlatuvchi,
- mushaklarni bo'shashtiruvchi,
- talvasaga qarshi.
- amnestik.

Bu benzodiazepinlar kuchli anksiolitik va sedativ ta'srlariga ega. Anksiolitik, sedativ ta'sir tufayli bu moddalar uyquga ketishni osonlashtiradi, davomli tinch uyqu keltiradi. Moddalarning psixotrop anksiolitik ta'siri limbik sistema bilan bog'liq. Benzodiazepinlar ko'proq gippokampni neyronlar aktivligini kamaytiradi, gipotalamus va retikulyar farmasiyasiga kamroq ta'sir ko'rsatadi. Limbik sistemada va gipotalamusda ko'zg'aluvchanlikni kamaytiradi. Retikulyar farmasiyaga tinlantiruvchi ta'siriga ham bog'liq degan ma'lumotlar bor, chunki benzodiazepinlar, retikulyar farmasiyani qo'zg'alishiga javoban, EEngning faolligini kamaytiradi.

Benzodiazepinlarning ta'sir mexanizmi, moddalarning anksiolitik ta'siri limbik sistema bilan bog'liq, shu yerda o'ziga xos benzodiazepin reseptorlarni bog'lab, ularni qo'zg'atadi. Benzodiazepin reseptorlari esa GAMK reseptorlarining modulyatori hisoblanadi. Shu tufayli benzodiazepin reseptorlarining qo'zg'alishi GAMK ergik to'qimalari faolligini oshiradi, GAMK – mimetik ta'sir ko'rsatadi, neyronlar faolligini susaytiradi (rasm. 11.3). Natijada Cl⁻ ion kanallari ochilishi oshib, Cl⁻ ionlari kirishi ko'payadi. Hujayra membranalari giperpolyarizasiyaga uchrab neyronlar aktivligi pasayadi.

Fenazepam yuqori darajada anksiolitik ta'siriga ega. Anksiolitik va talvasaga qarshi relaksant ta'siri bo'yicha boshqa benzodiazepin moddalardan eng kuchlisi hisoblanadi. Anksiolitik va uxlatuvchi ta'siri bo'yicha diazpeamdan kuchli.

Benzodiazepinlarni yuqori anksiolitik ta'siriga ega moddalar va sedativ-gipnotik ta'siri kam bo'lgan moddalarga bo'linadi. Seativ ta'siri kam bo'lgan moddalar kunduzgi trankvilizatorlar(anksioitikiar) deb ataladi.



Rasm. 11.3. ГАМК-рецептор ва уларни antagonisti flumazenilni ta'sir qilish joyi.

BD – benzodiazepin birikma GAMK-mimetik aktivligi. Plyus - stimullovchi (aktivlovchi) ta'sir, minus - salajlovchi.

Kunduzgi tranquilizatorlarga mezepam (rudotel) kiradi.

Benzodiazepinlar polisinaptik spinal reflekslarni tormozlab, mushaklarni bo'shashtiradi, bular markaziy ta'sir etuvchi relaksantlar deb atalishi mumkin. talvasaga qarshi hamda narkotik moddalar ta'sirini oshiradi. Katta dozalarda amneziyani chaqirishi mumkin. Trankvilizatorlar skelet mushaklarini, ayniqsa. ularning tonusi oshganda bo'shashtiradi, bolalardagi ko'k yo'talda talvasali yo'tal hurujida, astmaga naf qiladi. Trankvilizatorlar vegetativ inervasiyaga ta'sir ko'rsatmaydi. (m-xolinolitik, gangliolitik va adrenobloktor ta'sirlari yo'q). Qon bosimiga terapeutik dozalarda ta'sir ko'rsatmaydi.

Benzodiazepinlar lipofil modda bo'lib gematoensefalik to'siqdanva boshqa biologik barerlardan oson o'tadi. Me'da ichak traktidan yaxshi so'rildi, asosan o'n ikki barmoq ichakdan so'rildi.

Moddalardan diazepam tez absorbsiyaga uchraydi, alprazolam, midazolam e'ttacha, nozepam, lorazepam sekin absorbsiyaga uchraydi.

Organizmda benzodiazepinlar biotransformasiyaga uchraydi. Ba'zi metabolitlari kuchli anksiolitik ta'siriga ega (sxema 11.2). Misol qilib

Xlordiazepokksida va diazepamga V metaboliti - N- dezmetildiazepam (nordiazepam), qon plazmasida 50% ($t_{1/2}$)ga 40-200 s diapazonda o'tadi (jadval. 11.3).

Benzdiazepin va ularni metabolitlarini ko'p qismi plazma oqsillari bilan bog'lanadi (70-90%). Lipofil modda bo'lgani uchun ko'p qismi yog' to'qimalarida depolanadi.

11.3. jadval. Ba'zi benzodiazepin anksiolitiklarni farmakokinetikasi

| Dori vositasi | Enteral berilganda Biokirishchanlik . % | Qon plazmasida maksimal yig'ilgan | Qon plazmasida oqsillar bilan bog'lanishi.% | Ba'zi aktiv metabolitlari ($t_{1/2}$, . coat) | Umumiy ta'sir qilish vaqt, soat |
|---------------|---|-----------------------------------|---|---|---------------------------------|
| Lin IC IYAM | 90 100 | 11.5 | 97-99 | Dezmetildiazepam (40) 120 | 24 48 |
| Flurazepam | ya | 0.5 1 | -97 | Dezalkil Flurazepam (47) 100 | 24 48 |
| Alprazulam | 75 100 | 0.5 3 | '70 | | '24 |
| Klonazepam | 70-100 | 1.5 3 | '86 | | -24 |
| Lora zonam | 90 100 | 1.2-2.6 | -90 | - | 12-18 |
| Nitrazepam | 54-98 | 2-3 | -87 | - | 18-24 |
| Nozsnam | <100 | 1.4 | -97 | - | 12 18 |
| Tema | <100 | 1.2 | '96 | | 12 18 |

* Flurazepam aktiv metabolit shaklida sirkulyasiya sistemasiga tushadi.


Metabolitlari, konyugatlari (glyukuronidlar) va qisman preparatlari o'zgarmagan holda buyraklar va ichak orqali organizmdan chiqadi. Benzodiazepinlar kam zaharli. Moddalar kam zaharli bo'lsa ham davomli qo'llanganda nojotya ta'sirlar: bosh og'rig'i, uyquehanlik, ko'ngil aynishi, diplopiya, ayollarda hayz siklining o'zgarishi, erkaklarda potensiyaning kamayishi, bolalarda diqqat-e'tibor, xotiraning susayishi, terida toshmalar kuzatiladi. Davomli qo'llanganda (6 oy mobaynida) muddalarga o'rjanib, tobe bo'lib qolish mumkin. (psixik va fiziq) ularning teratogen ta'siri ham bor. Benzodiazepinlarni uzoq muddat qo'llanilganda (6 oy davomida) muddalarga o'rjanib qoladi. ruhiy va jismoniy tobelik paydo bo'ladi. Olib tashlash sindromi barbituratlarni jismoniy tobelikidan engilroq o'tadi. Benzodiazepiniarni spesifik antagonist Flumazenil hisoblanadi. Flumazenil

benzdiazepin reseptorlarni bloklab trankvilizatrolarni markaziy va anksiolitik ta'sirlarini kamaytirib yo'qotadi.


Flumazenil benzodiazepinlarni ta'sirlarini kamaytirish uchun ishlataladi (masalan, xirurgik praktikada, diagnostik maqsadlarda ishlataliganda). benzdiazepinlarni dozasi oshib ketganda yoki o'tkir zaharlanishda. Preparat vena ichiga yuboriladi, og'iz orqali yuborilganda ko'r qismi jigarda metabolizmga uchraydi. Flumazenil qisqa vaqt davomida ta'sir qiladi - 30-60 daqiqa, shuning uchun agar kerak bo'lsa, u qayta qo'llaniladi. Serotonin reseptorlar agonistiga (qisman) buspiron kiradi. Kimiyoviy tuzilishi jihatidan azaspirodekandionlardan hisoblanadi. Bosh miyadagi 5-HT podtipdag'i serotonin reseptorlarga o'xshaydi.

Химические структуры некоторых анксиолитиков

Производные бензодиазепина



Производное азаспироdekандиона



Ta'sir effekti sekin boshlanadi (1-2 haftadan keyin). Moddani sedativ, uxlatuvchi, talvasaga qarshi va miorelaksant ta'siri yo'q. Izlanish natijalariga ko'ra buspiron o'rGANIB qolish va tobeklini keltirib chiqarmaydi.

Me'da ichak traktidan yaxshi so'riladi, ko'r qismi jigarda o'zgarishga uchrab (birodostupnost 4%ni tashkil qiladi). Qoda ko'r qismi oqsillar bilan bog'lanadi (95%).

Oxirgi izlanishlarga ko'ra, somatodendrit autoreseptorlarga kiradi. Ularni qo'zg'алиши natijasida autoingibirlik effekt kuzatiladi, natijada yadroda neyronlardan serotonin sintezi va ajralishi kamayadi. Bundan tashqari, buspiron dofamin reseptorlari bilan bog'lanadi. Benzodiazep reseptorlar bilan bog'lanmaydi. GAMK mimetik ta'siri yo'q. Yuqori anksiolitik aktivligiga ega.

Buspironni qon plazmasida 50%ga 4-8 soatda kamayadi. Jigarda intensiv metabolizga uchrab (90%); metabolitlari buyraklar orqali chiqadi.

Nojo'ya ta'sirlaridan jizzakilik, bosh aylanishi, bosh og'rishi, paresteziya, ko'ngil aynishi, diareya kuzatiladi. Bemorlar moddani yaxshi ko'taradilar.

Kimyoviy tuzilishi turlichcha bo'lgan anksiolitik moddalar kimyoviy tuzilishi va ta'sir mexanizmi bo'yicha farqlanadi.

Difenilmetan hosilasi amizil (benaktizin) boshqa guruh moddalardan ajralib turadi. Markaziy xolinoblokator guruhiiga kiradi. Sedativ ta'siri bosh miyani retikulyar formasiyasida joylashgan m-xolinoreseptorlarni salajlashi bilan bog'liq. M-xolinomimetiklar ta'sirida amizilni EEGni aktivligini pasaytirishi xususiyati bilan sedativ ta'sirini tushuntirish mumkin. EEG natijasiga ko'ra amizil sinxron ta'sirini kelitirib chiqaradi: yuqori voltli sekin tebranilishi kuzatiladi.

Amizil narkotik opioid analgetiklarni ta'sirini oshiradi. Talvasaga qarshi xususiyatiga ega. Yo'tal refleksini kamaytiradi.

Amizil pereferik m-xolinolitik ta'siriga ega (markaziy m-xolinolitik ta'siridan kamroq). Bu ta'sirini natijasida silliq mushaklar spazmini bo'shashtiradi, qorachiqni kengaytiradi, bezlar sekresiyasini. Bundan tashqari, amizil gistaminga qarshi va anestetik ta'siriga ega.

Amizil ichakdan yaxshi so'rildi. Ta'siri bir necha soat davom etadi. Siyidik orqali chiqib ketadi.

Nojo'ya ta'sirlari atropinsimon ta'siri bilan bog'liq (og'iz qurishi, taxikardiya, qorchiq kengayishi va h.k.). Glaukomada moddani ishlatish man etiladi.

Anksiolitiklarga trioksazin, oqsilidin (benzoklidina gidroxlorid) va boshqa moddalar kiradi.

V-adrenoblokatorlarda ham anksiolitik ta'sirlari aniqlangan.

Moddalar nevrozlarda va nevroz holatlarida qo'llaniladi. Premedikasiya uchun xirurgik operasiyalardan oldin qo'llaniladi. Uyqusizlikda keng ishlatiladi. Benzodiazepinlar epileptik statusada samarali natija beradi (vena ichiga yuboriladi), skelet mushaklari tonusi oshishi bilan bog'liq nevrologik o'zgarishlarda qo'llaniladi. Kasbi ziyraklikni talab qiladigan bemorlarga (masalan, transport haydovchilari)

benzodiazepinlar ambulator holatda tavsiya etish man qilinadi.

Yangi anksiolitik moddalarni izlaganda ular tanlab har xil mediatorlik sistemasiga ta'sir ko'rsatishi kerak va nojo'ya ta'sirlari kam bo'lishi. Serotonin reseptorlarga va turli serotoninergik sistemasiga ta'sir etuvchi xlesistokinin antagonistlari katta qiziqish uyg'otadi va h.k.

Preparatlar

| Номлари | Үйралч төрлөвчилик доза магнитдор урун; грам киргизилиши | Медиаторлик тақдим |
|----------------------------|---|--|
| Диназепон - Дизерат | Инициял 0,005-0,015 г; ш/ш 0,01-0,02 г; в/и 0, 01-0,03 г | Таблетка по 0,005 г; сашпула 0, 5% крептеси |
| Сеназепон - Римокарпант | Инициял 0,00025-0,0005 г | Габлетка по 0,0005 и 0,001 г |
| Нозепон - Нозерат | Инициял 0,01-0,03 г | Габлетка по 0,01 г |
| Мизапам - Мизорант | Инициял 0,005-0,01 г | Габлетка по 0,01 г |
| Лоризепон - Лозегарт | Инициял 0,00125-0,005 г | Габлетка по 0,0025 г |
| Букспирон - Бакрионе | Инициял 0,001 г | Габлетка по 0,005 и 0,01 г |

11.5. SEDATIV MODDALAR

Sedativ moddalarga brom tuzlari (bromidlari), valeriana moddalari, arslonquyruq moddlari kiradi. Moddalar tinchlaniruvchi xususiyatiga ega.

Brom tuzlaridan ko'proq natriy brom va kaliy bromidlar qo'llaniladi. Moddalar miya po'stlog'ida tormozlanish jarayonlarini oshirib, ularni jamlab chuqurlashiradi, markaziy nerv sistemasiga tinchlaniruvchi ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, nerv sistemasi qo'zg'aluvchanligi oshganda sezilarli bo'ladi. tormozlovchi va qo'zg'aluvchanlik jarayonlari muvozanati to'g'rilanadi. Moddalarning ta'siri nerv sitemasining turi hamda faolligiga bog'liq. Nevroz holatlarida bromidlarni ta'siri yaxshi namoyon bo'radi. Bromidlarni qarshi xususiyatiga ega, lekin epilepsiya qarshi moddalardan kuchsizroq.

Me'da-ichakdan brom tuzlari yaxshi, organizinda xloridlarga o'xshab (asosan, ekstrasellyulyar). Buyraklardan uzoq muddat mobaynida so'rildi. Bromidlarni qon plazmasida 50%ga kamayishi 12 kunni tashkil qiladi. Brom izlari 1 oydan keyin ham

aniqlanadi. Buyraklardan tashqari, brom tuzlari ichaklardan, ter bezlaridan va sut bezlari orqali chiqadi.

Sedativ moddalar nevroz, nevrasteniya, uyqusizlikda qo'llanadi. Epilepsiyaga qarshi moddalar sifatida kam ishlataladi (asosiy epilepsiyaga qarshi moddalar ta'siri bo'lmaganda, qo'shimcha moddalar sifatida buyuriladi).

Davomli qo'llanganda bromidlar organizmda to'planib qolishi natijasida surunkali zaharlanish mumkin, bunda "bromizm" holati ro'y beradi. Bromizm holatida organizm tormozlanadi, bo'shashish, xotiraning susayishi, diqqatning kamayishi, tumov, konyunktivit, terida qichishish, toshmalar paydo bo'ladi (*acne bromica*). Bromizmni davolash uchun katta miqdorda xloridlar – natriy xlorid (10-90 r sutkaga) bilan suv (3-5 l sutkaga) qo'llanadi. Teri, og'iz, ichakni vaqtı-vaqtı bilan tozalab turish kerak. Siydk haydovchi moddalar ham qo'llanadi. Bolalar amaliyotida qo'llash uchun brom eritmasi mevalar sharbatı bilan birga qo'shilgan holda chiqariladi.

Valeriana moddalaridan o'simlikning damlamasi, nastoykasi, ekstrakti qo'llanadi, ular valeriana ildizi, o'q ildizidan tayyorlanadi, bu moddalar spazmolitik ta'sir etuvchi borneol va izovalerian kislotaning murakkab efir moyidan iborat. Valeriana moddalari ayniqsa, yurak nevrozida samarali ta'sir ko'rsatadi. Kombinirlangan suyuqliklar – valosedan, korvalol, valokordinlar tarkibi asosan valerianadan iborat.

Arslonquyruq (*leonuri serdechnogo Leonurus cardiaca*) o'tidan tayyorlangan damlama va nastoykalar markaziy nerv sistemasini tinchlantiradi, ta'siri valeriana moddalariga o'xshab ketadi. Ularni tarkibida efir moylari, alkaloidlar, saponinlar va burushturuvchi moddalar tutadi.

| Moddalar nomlari | O'rtacha terapeutik doza kattalar uchun, Yuborish yo'llari | Chiqarilish shakli |
|--|---|--|
| Natriya bromid - <i>Natrii bromidum</i> | Ichishga 0.1 - 1 g | Poroshok: tabletki po 0.5 g; 3% rastvor |
| Nastoyka valerianlar - <i>Tinctura Valerianae</i> | Ichishga 20-30 tomchi | 30 ml flakonda |

| | | |
|------------------------|-----------------------|----------------|
| Nastoyka pustlarmika - | | |
| Tinctura Leonuri | Ichishga 20-50 tomchi | 25 ml flakonda |

11.6. PSIXOSTIMULYATORLAR

Moddalar markaziy nerv sistemani yuqori bo'limlari tonusini oshirib, kayfiyatni, psixomotor faollikni, aqliy va jismoniy faoliyatni (ayniqsa, toliqqanda) ko'taradi, uyquga ehtiyojni, narkotik va uxlaturvchi moddalar ta'sirini kamaytiradi.

Kimyoviy jihatdan 4 guruhga bo'linadi.

Fenilalkilamin unumlari – fenamin.

2. Piperidin unumlari – meridil.

3. Sidnomimin unumlari – sidnokarb.

4. Ksantin unumlari – kofein.

Fenamin – fenilalkilaminlarning unumi bo'lib, kimyoviy tuzilishiga ko'ra adrenalin, noradrenalinga o'xshab ketadi, gematoensefalik to'siqdan oson o'tib, markaziy nerv sistemasiga ta'sir ko'rsatadi.

¹ Sinonimlar: psixotoniki, psixoanaleptiki, psixomotornare stimulyatorlar, psixoenergiziruyuviye sredstva.

² Sredstva, vzbadirivayuviye utomlennlary organizm, poluchili nazvanie "doping" (ot angl. *to dope* - davat narkotiki).

Fenamining markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi ta'siri retikulyar formasijaning bosh miyaga faollovchi ta'sirini oshirishi bilan bog'liq. Mediatorlar noradrenalin va dofaminni presinaptik nerv oxirlaridan, ayniqsa, miyaning katekolaminlarga boy bo'limlaridan – o'rta miya, gipotalamusdan ajralishini oshiradi, shuning uchun fenamin markaziy ta'sir etuvchi bilvosita adrenomimetik deb ataladi. Katekolaminlar ajralishining ko'payishi neyrenlararo o'tkazuvchanlikni oshiradi. Fenamining ta'sir mexanizmida kimyoviy jihatdan bevosita qo'zg'atishi mumkin. Fenamin miya po'stlog'iga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi, kichik miqdori shartli reflekslarni oshirib yuboradi. Moddalarning

ta'siri nerv sistemasining turi hamda faelligiga bog'liq.

Fenamin qo'llanilganda tabiiy uyqu bosqichlari o'zgaradi, tez uyquning vaqtı kamayadi, qo'llash to'xtiligandan keyin uyquning normal holatga kelishi bir necha oy larga cho'zilib ketadi. Fenamin tufayli aqliy va jismoniy faoliyat oshsa ham, murakkab masalalarni yechishda xatolar foizi kamaymaydi. Fenamin nafas markazini, orqa miyaning polisinaptik, monosinaptik reflekslarini qo'zg'atadi, gipotalamusdagi ovqatga tegishli markazga ham ta'sir etib, ishtahani kamaytiradi (15; 15.1-bobga qarang), lekin kuchli markaziy qo'zg'atuvchi bo'lgani uchun ishtahani kamaytiradigan modda sifatida qo'llanmaydi (12 bobga qarang).

Fenamin saqat markaziy nerv sistemasidagi adrenoreseptorlarni emas, chetdagi α - va β -adrenoreseptorlarni ham qo'zg'atadi. Fenamin simpatomimetiklarga kiradi (adrenergik tolalarni varikoz pufakchalaridan noradrenalinni ajralishi). Fenamin to'g'ridan-to'g'ri adrenoreseptorlarga ta'sir etadi, lekin bu ta'siri ahamiyatga ega emas. Simpato- va ad-renomimetik ta'siri natijasida qon bosimi ko'tariladi. Bu ta'siri bo'yicha fenamin adrenalindan 100-150 barobar kam ta'sir etadi, lekin pressor ta'siri davomli bo'ladi. Boshqa silliqmushaklm a'zolarga ta'siri adrenalinga uxshab ketadi, lekin kamroq namoyon bo'ladi.

Me'da ichak traktidan yaxshi so'rildi. Gematoensefalik to'siqdan tez utadi.

Uzoq vaqt qo'llanganda fenamin organyzmda to'planadi – kumulyasiyaga uchrayli, bu moddaga o'rghanish ba'zi holatlarda tobelikka olib keladi. (ruhiy va jismoniy).

Fenaminning miqdori oshganda uyqusizlik, bezovtalanih, taxikardiya, yurakning notejis urishi paydo bo'ladi, moddani ateroskleroz, gipertoniya, qandli diabetda, qariyaiarda qo'llash man etiladi.

Ba'zi hojatlarda fenaminni наркотик analgetiklar bilan zaharlanganda analeptik sifatida qo'llaniladi. Ishtahani kamaytirish uchun fenamin qo'llanilmaydi, chunki qo'zg'aliuvehanlikni va qon bosimini oshiradi, tobelikni keltirib chiqaradi. Bolalarga ayniqsa, 10 yoshgacha fenamin, umuman psixostimulyatorlar kam qo'llanadi, chunki bolalarda fenamin butunlay teskari parodoksal ta'sir ko'rsatishi, tobelik paydo qilishi mumkin.

Shuning uchun hozirgi vaqtida fenamin chiqarilishi man etilgan.

Piperidin unumlaridan piridrol (piradol), meridil (metilsenidata gidroxlorid. sentedrin) markaziy nerv sistemasini qo'zg'atish xususiyati jihatidan fenaminga yaqin turadi, moddalarning periferik adrenomimetik ta'siri deyarli yo'q. yurak va qon tomir sitemasiga nojo'ya ta'sirlar ko'rsatmaydi. Qo'zg'atuvchi ta'siri bo'yicha piridrol fenaminga o'xshaydi. Meridilni ta'siri fenamindan kamroq.

Yuqori psixostimulovchi ta'siriga ega bo'lган sidnomimin unumlaridan sidnokar (mezokarb) kiradi. Sidnomimin unumlaridan sidnokarbning ruhiyatni qo'zg'atuvchi ta'siri asta-sekin boshlanib, uzoqroq davom etadi hamda periferik ta'sir ko'rsatmaydi. Eysoriya va qo'zg'aluvchanlikni kuzatilmaydi. Ta'sir mexanizmi noradrenergik sistemani aktivligini oshirishi bilan bog'liq. Fenamindan farqi pereferik ta'sirlari yo'qligi. Bemorlar sidnokarbni yaxshi ko'taradi. Dozasi oshganda bemorda qo'zg'aluvchanlik, bezovtalik, uyquvsizlik va qon bosimini ko'tarilishi kuzatiladi. Sidnokarbni kechqurun berish man etiladi, chunki uyqvsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ksantin unumlariga choy bargi (*Thea sinensis*), kofe (*Coffea arabica*), kola (*Cola acuminata*), kakao (*Theobroma sasao*), urug'idan olinadigan kofein alkaloidi kiradi. Kofeinni sof psixostimulyator deb atab bo'lmaydi, chunki bu moddaning analeptik xususiyati ham bor – yurak, nafas va qon tomirlar markazini qo'zg'atadi.

Kofein to'g'ridan-to'g'ri miya po'stlog'iga stimullovchi ta'sir ko'rsatadi. Kofeinning ruhiy faoliyatni qo'zg'atishi, aqliy va jismoniy faoliyatni, tetiklik va bardamlikni paydo qilishi, uyquni qochirish mexanizmi yuqorida keltirilgan psixostimulyatorlardan farq qiladi.

Kofeinni oliy markaziy nerv sistemasiga ta'siri uni dozasiga va nerv sistemasini turiga bog'liq bo'ladi. Kichik dozalarda kofein qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi, katta dozalarda esa tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Kofein muddasining analeptik xususiyati ham bor – uzunchoq miyadagi yurak, nafas va qon tomirlar markazini qo'zg'atadi. Nafas markazi falajlanganda kofein nafasni tezlashtiradi. chuqurlashtiradi. Bundan tashqari kofein adashgan nervni markazlarini qo'zg'atadi. Orqa miyaga katta dozalarda ta'sir ko'rsatadi.

Neyronlararo qo'zg'luvchanlikni oshirgani uchun orqa miya reflekslarini kuchaytiradi.

Kofein yurak qon tomir sistemasiga ta'siri bo'yicha alohida o'rinni tutadi. Bu ta'siri pereferik va markaziy ta'sirlari bilan bog'liq. Kofein to'g'ridan-to'g'ri miokardga qo'g'atuvechi ta'sir ko'rsatadi. Lekin shu bilan birga adashgan nerv markazlari ham qo'zg'aladi, shuning uchun organizmning qaysi nerv faoliyati usunligiga bog'liq bo'ladi. Katta dozalarda kofein taxikardiyani chaqiradi (pereferik ta'siri ustun bo'lganda), ba'zida aritmiya keltiradi.

Kofeinni markaziy va pereferik ta'siri tomirlar tonusini holatiga bog'liq. Qon tomir markazini ko'zg'algatib kofein tomirlar tonusini oshiradi, silliq mushaklarni bo'shashtirish natijasida tomirlar tonusini kamaytiradi.

Kofein har xil tomirlar sohasiga xilma xil ta'sir ko'rsatadi. Masalan, toj tomirlar kengayadi (yurak zarbasi oshganda). Shu bilan birga miya tomirlari tonusini pasayadi. Kofeinni bu ta'siri migrenda ishlatalidi. Boshqa silliq mushaklari a'zolarga kofein miotrop spazmolitik ta'sir ko'rsatsa, skelet mushaklarini stimullovchi ta'sir ko'rsatadi (markaziy va bevosita)

Qon bosimini o'zgarishiga kofeinni ta'siri yanayam murrakab, kardiotrop va tomirlar effektlariga bog'liq bo'ladi. Agar qon bosimi normada bo'lsa, kofein qon bosimiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi, gipotenziv holatda yuborilsa, qon bosimini ko'tarib normag olib keladi.

Kofein asosiy almashinuvni oshiradi. Glikogenolizni oshiradi, giperglykemiyani chaqiradi. Lipolizni oshiradi (plazmada erkin yog' kislotalarni miqdorini oshiradi). Katta dozada buyrak usti bezini mag'iz qismidan adrenalinni ajralishini oshiradi.

Kofeinni ta'sirida kuzatiladigan markaziy ta'sirlari, silliq va targ'il ko'ndalek mushaklarga, moddalar almashinuviga ko'rsatadigan ta'sirlarini ba'zi olimlar SAMFni ko'payishi bilan tushuntirishadi. Kofein fosfodiesteraza fermenti faolligini kamaytirib, hujayralarda siklik AMF hajmini oshiradi. Siklik AMF esa ikkilamehi mediator hisoblanadi, modda tufayli biogen dori moddalarining ta'siri yuzaga chiqadi; siklik AMF to'qima va a'zolarda glikogenoliz, metabolik jarayonlarni oshiradi. Ayniqsa, bosh miyadagi va yurakdagi fosfodiesterazani juda katta

terapeutik dozadan yuqori miqdorda ingibirlaydi. Kofeining kimyoviy tuzilishi adenozinga o'xhash bo'lgan tufayli uning o'rniغا (konkurent antagonizm) miyadagi adenozin reseptorlarni bog'lab oladi. Adenozin esa miyada qo'zg'alish jarayonlarini kamaytiradigan omil hisoblanadi. Kofein adenozinning o'rniغا adrenoreseptorlarni bog'lagani tufayli qo'zg'atish jarayonlari oshib boradi. Bu ta'siri metilksantinlarni terapeutik dozalarda kuzatiladi. Metilksantin va adenozin bir biriga qarama qarshi ta'sir ko'rsatadi. (tabl. 11.4). Metilksantinlar adenozin A₁-i A₂-reseptorlarni bloklaydi (adenozinga konkurent antagonist hisoblanadi).

11.4. jadval. Metilksantinlarni ta'sirlari (kofein, teofillin) va adenozin

| Ta'sir qilish yo'naliishi | Met.shsintinlar | Adenozin |
|---|-----------------|-------------|
| Markaziy nerv sistemasi | Qo'zg'alish | Falajlanish |
| Katexolaminlarni ajralishi | Kuchayadi | Kamayadi |
| Yurakni qisqarish kuch va soni | Ko'payadi | Kamayadi |
| Buyrak qon aynalishi va renin ajralishi | Ko'payadi | Kamayadi |

Kofein ta'sirida oshqozon bezlar sekresiyasi oshadi. bu ta'siri diagnostik maqsadda qo'llaniladi. Me'da ichak kasalliklarda (gastrit, oshqozon yara kasalligi, xavfli usmalar) kofein funksional va organik patologiyani aniqlashda yordam beradi.

Kofein buyrak kanalchalarini proksimal va distal qismida natriy va suvni reabsorbsiyaga ta'sir qilib oz bo'lsa ham diurezni oshiradi. Buyrak kanalchalarida qon tomirlarni kengaytirib filtrasiyani oshiradi.

Kofeining suvda eriydigan tuzlari ichakdan yaxshi so'riladi, enteral hamda parenteral yo'llar orqali qo'llaniladi. Ko'pincha kofein og'riq qoldiruvchi kombinirlangan tabletkalar tarkibida bo'ladi (tabletka «Sitramon-P» va «Kofetamin»). Kofein bosh miyaning ichki bosimini pasaytiradi, shuning uchun markaziy nerv sistemasi shikastlanganda, infeksiya bilan zararlanganda qo'llaniladi. Asosiy qismi biotransformasiyaga uchrab, 10% buyraktardan uzgarmagan holda chiqib ketadi.

Kofeingu, ayniqsa, achchiq choy (*teizm*, kofe ichishga o'rjanib qolish, psixik tobelik paydo bo'lishi mumkin. Kofein quyidagi nojoya ta'sirlar: ko'ngil aynish,

qusish, bezovtalik, yurakning tez urishi, uyqusizlik kabi holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Kofeinni qon bosimi osinganda, ateroskleroz, uyqusizlik, glaukomada qo'llash man etiladi.

Preparatlar

| Nomi: | O'RТАЧА ТЕРАПЕВТИК DOZA KАTTALAR UCHUN YUBORISH YО'LLARI | Chiqarilish shakli |
|-----------------------------------|--|---------------------------------------|
| 1 | 2 | 3 |
| Meridil - Meridilutn | Ichishga 0,015 g | Tabletka 0,01 g |
| Sipn&varb - <i>Syntocarbum</i> | Ichishga 0,05 - 0,25 g | Tabletka (1,005 : 0,11 i) 11,025 g |
| Kofein - SySepsht | Ichishga 0,05 -OD g | kukun |

11.7. NOOTROP VOSITALAR¹

Mazkur guruhgaga bosh miyaning oliy integrativ funksiyalarini faollashtiruvchi moddalar kiradi. Nootroplar ta'sirini asosiy namoyon bo'lishi ular buzilganda o'qitish va xotiraga ta'siri bilan belgilanadi. Nootrop vositalar ko'rsatilgan funksiyalarni tiklash, bosh miyaning degenerativ shikastlanishi, insult, intoksikasiya, aqliy qoloq bolalardagi nevrologik nuqsonlar. Alsgeymer kasalliklarida qo'llaniladi. Ko'plab nootrop vositalar gipoksik faollikka qarshi ta'sirga ega.

Sog'lom hayvonlar oliy nerv faoliyatini va sog'lom inson psixikasiga bu preparatlar ta'sir ko'rsatmaydi. Ular me'yorda bo'lganda ko'plab axloqiy reaksiyalarni, shartli reflekslarni, bosh miyaning bioelektrik faolligi, harakat faolligini o'zgartirmaydi.

Patologiyada nootroplarning farmakoterapeutik ta'siri asosida miyaning almashuv jarayonlariga qulay ta'siri yotadi² (makroenergetik fosfat, oqsillar sintezini kuchaytirish, bir qator fermentlarni faollashtirish, shikastlangan neyron membranalarini faollashtirish). Amaliy tibbiyotda qo'llaniladigan ayrim nootrop vositalar GAMK metabolik ta'siriga imitasiya qilinadi.

Nootrop vositalar faqat uzoq vaqt qo'llaganda aqliy qoloqlikda davolovchi

ta'sirni ko'rsatadi, katta miqdordagi latent davriga ega. Bu preparatlar bir qator holatlarda boshqa psixotrop moddalar bilan birgalikda qo'llaniladi (ruhiy kasallarni davolashda).

Ko'pgina ma'lum nootrop vositalar shuningdek, antigipoksik ayrimlari esa tomir tortishiga qarshi ta'sirga ega.

Nootrop vositalar guruhiga piraset, aminalon, pantogam, piriditol kiradi. Eng keng tarqalgani pirasetamdir.

Pirasetam (nootropil) davriy hosilaviy GAMK sanaladi. U aqliy faoliyat (fikrlash, o'rghanish, xotira) ga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Pirasetamning muhim xususiyati uning antigipoksik ta'siridir. Bunda gipoksiyaga miya to'qimalarining barqarorligi oshadi . Bundan tashqari pirasetam o'ttacha titrashga qarshi ta'sirga ega bo'lib, titrash faolligini tarqalishiga yo'l qo'yaydi.

Pirasetam to'qimalar to'sig'i orqali yengil o'tadi. Ichaklardan tez chiqariladi. gematoensefalik va plasentar to'siqlar orqali o'tadi.

¹ grek. *noos* -ruh, fikr, *tropos* -yo'nalish. Nootroplar shuningdek, kognitiv funksiyalar kuchaytirgichi deb ham nomlanadi» (cognitive enhancers; ing. cognitive anglash, enhance - kuchaytirish).

² Bu guruh preparatlari shuningdek, psixometabolik stimulyatorlar deb ham ataladi (mediator jarayonlarga ta'sir qiluvchi psixomotor stimulyatorlardan farqli ravishda).

Organizmdan asosan o'zgarmagan shaklda buyrakdan chiqariladi.

Bosh miyaning degenerativ shikastlanishi va davriy tomirlar bilan bog'liq bo'lgan aqliy qoloqlikda pirasetam qo'llaniladi (keksalik bilan bog'liq aqliy zaiflik, ateroskleroz, alkogolizm, bosh suyagi jarohatlari.).

Pirasetam ichga bir oydan bir necha oygacha parenteral qabul qilinadi.

Qo'shimcha ta'sirlardan ba'zan dispeptik buzilish, uyqu buzilishi qayd etiladi.

Aminalon (gammalon, ganevrin) GAMK preparati sanalib, MAT da shakllanadi. GAMK tormoz mediatori funksiyasini bajaradi, shuningdek, nerv to'qimalarini almashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. So'ngisi to'qimalar nafas olishini rag'batlantirishda paydo bo'ladi (GAMK nafas olish substratasi sifatida

chiqadi va Krebs davri fermentlarini faollashtiradi). GAMK metabolitik faolligi va uning psixotrop ta'siri asosida yotadi. Gematoensefalik to'siq orqali preparat yomon o'tadi. Ammo miyaning organik shikastlanishlarida aminalon o'tkazuvchanligi gematoensefalik to'siq orqali o'sadi.

Aminalonning muhim xususiyati uning miyada qon aylanishini oshirish va miya to'qimalarida kislород kuchlanishini oshirish, shuningdek, o'rtacha antigipoksik faollikkadir. Bundan tashqari, aminalon kichik miqdorda titrashga qarshi faollikkha ega bo'lib, miya to'qimalari va ayniqsa, epileptogen o'choqdagi GAMK miqdorini me'yorashtirish bilan bog'liq bo'ladi.

Aminalon arterial bosimning kam miqdorda pasayishiga olib keladi. Gipotenziv effekt gipertensiya fonida yaqqol aks etadi .

Qonda qand miqdori yuqori darajada bo'lganda gipoglikemik effekt kuzatiladi. Aksincha u me'yoriy darajada bo'lsa aminalon ba'zan o'rtacha giperglykemiyaga olib keladi (glikogenolizom bilan bog'liq).

Miyada qon aylanishi buzilishi, alkogolga zaiflik va bolalarda aqliy qoloqliq bilan asoslanadigan aqliy nuqsonlarda pirasetam qo'llaniladi. Ba'zan aminalon epilepsiyaning kompleks terapiyasida foydalaniładi . Gipotenziv ta'siri arterial gipertensiya bemorlarini davolashda foydalaniłishi mumkin .

Preparatning ta'siri bosqichma-bosqich oshib boradi. Davolash kursi bir necha oy davom etadi. Aminalon ichga va ichki vena orqali qabul qilinadi.

U yaxshi singadi. Uzoq vaqt qo'llaganda dispepsik buzilishlar, uyquning buzilishi, ba'zan arterial bosimning o'zgarishi kuzatilishi mumkin.

Fenil hosilaviy GAMK – fenibut preparati - nootrop komponentlarga ega va anksiolitik faollikni namoyon qiladi.

Nootrop guruhiiga shuningdek, bir qator hosilaviy preparatlar kiradi: pantogam (kalsiy gomopantotenat) va piriditol (ensefabol, piritinol). Pantogamda GAMK qoldiq pantoten kislota tuzilmasiga qoshkiladi. Piriditol disulfid bilan birikkan Piridoksin 2 molekulasi qoldig'idan iborat bo'ladi. Ikkita preparat bosh miyaning metabolitik jarayonlariga qulay ta'sir ko'rsatadi va antigipoksik xususiyatga ega. Bunda guruhiiga pikamilon va nikotin kislotani kiritish mumkin. Nootrop faoliyka

ega, mijada qon aylanishini yaxshilaydi.

Hozirgi vaqtida turli ta'sir mexanizmleriga ega bo'lgan nootrop vositalarni keng izlash amalga oshirilmoqda (mediator/modulyator tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi, ion kanallari va ion toklari, oqsillar sintezi va ularning fosforlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi.

Preparatlar

| Nomlari | O'rtacha terapeutik doza kattalr uchun; yuborish yo'llari | Chiqarilish shakli |
|---------------------------------|---|--|
| Pirasetam - <i>Pyracetam</i> | ichishga, mushak orasiga va vena ichiga 0,4-1,2 g | Tabletka, qobiqli, 0,2 g; kapsula 0,4 g; ampula 5 ml 20% eritma |

12-BOB. ANALEPTIKLAR

Analeptiklar MNS ga umumiy ta'sir ko'rsatuvchi stimulyatorlar hisoblanadi. Ular qo'zg'alish jarayonini kuchaytiradi, neyronlararo (sinapslararo) nerv impulsleri o'tkazilishini engillashtiradi. Tormozlanish jarayonlarinibloklab qo'yadi. Analeptiklar MNS ning hamma bo'limlariiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir dori muddasi MNS ning ma'lum bir bo'limiga ta'siri kuchliroq namoyon bo'ladi. Aniqlanishicha ba'zi bir dori muddalar boshqalaridan farqli faqat uzunchoq miyadagi markazlarga ta'sir ko'rsatadi (Korazol, bemigrid, kordiamin), boshqa bir dori muddalar ko'proq orqa miyaga ta'sir ko'rsatadi (strixin). Kofeinni analeptik deb qaralsa bo'ladi, uning psixostimulyator ta'siri ustun turadi, bu esa uning bosh miya po'stlog'iga ta'siri bilan bog'liq.

Analeptiklarning dozasini oshirilishi qo'zg'alish jarayonining generallizatsiyalanishiga olib keladi, refektor qozg'aluvchanlik oshishi yuz beradi. Analeptiklarning toksik dozasi talvasa keltirib chiqaradi, shu sababli uni ba'zida talvasa zahari deb ataladi. Talvasa ko'p miqdordagi analeptiklarning qo'zg'aluvchanlikning irradiatsiyasi natijasida shakllanadi. Analeptiklarning bloklanishi natijasida yuzaga keladi. Pikrotoksin, xlor ioni kanallarini bloklaydi, tormozlovchi ta'sirini bartaraf etadi. Strixinin postsinaptik tormozlanish

jarayonlarini susaytiradi, bu jarayonda mediator glitsin hisoblanadi (glitsin reseptorlari bloklanishi hisobiga). Strixnin GAMKning tormozlovchi xususiyatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Talvasa bosh miya qo'zg'alishi bilan bog'liq bo'lganda klonik xarakterli (kamfora, bemigrid, kordiamin ta'siriga mos), orqa miya qo'zg'alishi bilan bog'liq bo'lganda tetonik xarakterlidir (Masalan strixnin bilan zaharlanganda). Analeptiklar yuqori dozada asosan bosh miyaga ta'sir ko'rsatib, klonik-tonik talvasa yuzaga keladi.

Amaliyotda eng ko'p tarqalgan analeptiklar quyidagi siniflarga birlashtirilgan. (strukturaga qarang).

¹Strixnin(chilibuxa urug'idan olingan alkaloid – (Strychnosnuxvomisa) ozirgi vatda deyarli qo'llanilmaydi, uncha katta bo'limgan terapeutik kenglikka ega. Ayrim hollatlarda strixnin preparati parez va paralichlarda, shuningdek, ko'rish qobiliyatining funksional buzilishida buyuriladi (bosh miya po'stlog'idagi ko'ruv markazini, shuningdek, to't pardani stimullaydi).

Kislotaning alkillangan amidi

Kordiamin (niketamid, koramin)

Bisiklik ketonlar

Kamfora¹

Glyutarimidlar

Bemigrid (megimid)

Analeptiklarning² hayotiy muhim markazlarga: nafas va qon tomirlarni harakatlantiruvchi markazlarga stimullovchi ta'siri eng muhim ahamiyatga ega. ayniqsa, shu markazlar ta'sirlanishida yaqqol namoyon bo'ladi.


Analeptiklar nafas markazining qo'zg'aluvchanligini oshiradi. Tegishlichal nafas markazining nerv impulsiga va gumoral qitilovchilarga(CO₂) sezuvchanligini oshiradi. Bir qator preparatlar (bemigrid, kamfora) faqatgina nafas markaziga to'g'ridan – to'g'ri ta'sir etadi. Bir qancha analeptiklarning markaziy ta'siri reflektor tarzda amalga oshadi (sinokarotid sohadagi xemoreseptorlar). Bu kabi moddalarga kordiamin ta'luqlidir(shuningdek, karbonat kislota). Karotid

koptokchaning denervatsiyasi uning nafas markaziga faollovchi ta'sirini kamaytiradi. Analeptiklarning nafas markazini qo'zg'atishi nafas amplitudasi va chastotasining ortishiga olib keladi.


Analeptiklar faqatgina nafas markazini emas, balki qon –tomir harakati markazini ham qo'zg'atadi. Ular qon tomirlarning periferik qarshiligini oshiradi va qon bosimini ko'taradi. Umumiyligi qon aylanish yaxshilanadi, bunda qon bosimining ortishi muhim rol o'yнaydi. Analeptiklar yurakka to'g'ridan –to'g'ri ta'siri

Ba'zi analeptiklarning kimyoviy strukturası

Синтетические средства



Средство растительного происхождения



buriluvchi kamfora olinadi.

² Grekcha *analambano-* ko'tarmoq, kuchaytirmo, sog'aymoq.

Kamfora yurakka stimullovchi ta'sir ko'rsatadi. adrenergik innervasiyaning qo'zg'atuvchi ta'sirini oshiradi (kofein 11; 11.60·limga qaralsin).

Hisoblashlarga qaraganda analeptiklar (bemigrid, kordiamin, kamfora) nafas va qon-tomir harakati markazini stimullovchi dozasi bilan talvasa chaqiruvchi dozasi orasidagi chegara judayam yaqin.

Analeptik faolligiga ko'ra dori moddalarini quyidagi ketma-ketlikda joylashtirish mumkin: bemigrid>kordiamin>kamfora.

Analeptiklar narkotik moddalar va narkoz chaqiruvchi moddalarga funksional antagonist hisoblanadi (analeptiklarning "uyg'otuvchi ta'siri"). Amimo uning bu sabab bo'lishi mumkin.

aniqlanmagan, kamfora va kofein bundan mustasno.

Kamfora

¹ Kamfora – tabiiy o'ngga buriluvchi kamfora lavradan (*Sinnamoniumpcamphora Sueb*) yoki bazilikadan (*Osimummentipholumochst*) olinadi. Pixta moyi yoki skipidardan sintetik chapga buriluvchi kamfora olinadi.

Shu sababli, analeptiklarning tetiklantiruvechi ta'siri narkotik moddalar bilan zaharlanganda ahamiyatga ega emas. Bunday holatlarda faqat uzunchoq miyadagi markazlarni qo'zg'atuvchi analeptiklarni qo'llash mumkin. Narkozdan keyingi davorda psixomotor reaksiyalarni tezlashtirish uchun MNS stimulyatorlarini qo'llash mumkin (analeptiklar "narkozdan chiqish" ga olib keladi).

Bemigrid va kordiamin turli yo'llar bilan qabul qilinganda yaxshi so'rildi.

Kamfora moyli eritma holida sekinlik bilan so'rildi.

Dorilarni parenteral yo'l bilan yuborilganda analeptik ta'siri aniq namoyon bo'ladi. Buyraklar orqali chiqarib yuboriladi.

Analeptiklar - narkoz chaqiruvchi, uxlatuvchi narkotik moddalar, etil spirti bilan yengil darajada zararlanganda, shuningdek, boshqa etiologiyali tashqi nafas faoliyatining buzilishida (masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqlar asfaksiyasida) ishlataladi!

Kordiamin va kamfora shuningdek, yurak - qontomir yetishmovchiligidagi ishlataladi (dorilarning bu ta'siri yurak -qon tomir yetishmovchiligining barcha turlariga mos kelavermaydi)².

MNS stimulyatorlariga shuningdek, korazol, sekurenin, barvinkan gipoxlorid kirdi. Boshqa dorilardan farqli ravishda etimizol nafas stimulyatori hisoblanadi (13. 13.1 bo'limlariga qarang).

Preparatlar

| Nomi | Kattalar uchun o'rtacha terapevtik dozasi, qabul qilish yo'li | Chiqarilish shakli |
|-------------------------|---|---|
| Bemigrid - bemigridum | 0.01-0.05g v/i | 15% 10ml li ampulalarda |
| Kordiamin - cordiaminum | 30-40tomchi ichishga: 1ml – v/i, m/i, t/o | 15ml li flakonlarda (ichish uchun); 1-2 ml li ampulalarda, 1ml shprits |
| Kamfora - camphora | 0.2-1g teri ostiga | 20% 1-2 ml yog'li eritma ampulalarda |

² Pri tyajellarrx ottavleniyax sredstvami dlya narkoza, snotvorlarmi

sredstvami narkoticheskogo tipa analeptiki protivopokazanlar.

² *Kamfora okazlarvaet mestnoe razdrazayuuee, slaboe anesteziruyuuee i nekotoroe antisepticheskoe deystvie. V syazi s etim ona ispolzuetysa dlya vitraniy pri vospalitelnlarx prosessax.*

13-BOB. NAFAS A'ZOLARI FA'OLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI DORI VOSITALAR.

Bu bo'limga quyidagi guruhi lar kiradi:

- 13.1. Nafas stimulyatorlari
- 13.2. Yo'talga qarshi moddalar
- 13.3. Balg'am ko'chiruvchi moddalar
- 13.4. Bronxospazmda qo'llaniluvchi moddalar
- 13.5. O'tkir nafas yetishmovchiligidagi qo'llaniluvchi vositalar.

13.1. Nafas stimulyatorlari



Nafas stimulyatorlari asosiy yo'nalishi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi (13.1-rasm):

1. *Nafas markazini to'g'ridan-to'g'ri faollashtiruvchi moddalar: - hemegrid, kofein, etimizol.*
2. *Nafas markazini reflektor ravishda faollashtiruvchi vositalar, - sititon, lobelin, gidroxlorid.*
3. *Aralash tipda ta'sir qiluvchi moddalar (1+2) - kordiamin, uglekislota.*



Nafas markaziga to'g'ridan-to'g'ri qo'zg'atuvchi ta'sirga ega bo'lgan moddalarga psixostimullovchi va analeptik moddalar kofein (11, 11.6-boblar), analeptik bemigrid (12-bob) va etimizol kiradi. Oxirgi preparat markaziy ta'sir qiluvchi nafas stimulyatorlari ichida alohida o'ringa ega. Preparat miyaning po'stloq osti tuzilmalarini va uzunchoq miya markazlarini faollashtiradi. Lekin oddiy analeptiklardan farqi miya po'stlog'iga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun tibbiyot amaliyotida sagat nafas stimulyatori sifatida emas, balki psixiatriyada qo'zg'alganlik holatida tinchlantiruvchi vosita sifatida ham qo'llaniladi. Preparat ichishga va paraenteral yo'l bilan yuboriladi.

Reflektor ta'sir qiluvchi nafas stimulyatorlariga N-xolinomimetik sititon va lobelin gidroxlorid kiradi (3. 3.4-bo'lim). Bu moddalarni ta'sir qilish mexanizmi shundan iboratki, sinokarotid sohadagi N-xolinoreseptorlarai qo'zg'atadi, u joydan afferent impulslar uzunchoq miyaga boradi, va nafas markazi faoliyatini oshiradi. Ko'rsatilgan N-xolinomimetiklar qisqa vaqt ta'sir ko'rsatadi (bir necha minut davomida). Bu preparatlarni faqat vena ichiga yuboriladi.

Nafas olish a'zolariga ta'sir qiluvchi
ba'zi moddalarning strukturasi



Prostoglandinler orasida




См. структурни хотимаси 3.3.11.6-а маддаларни оларданча оларданча 3.4.1-

ataladi. Sog'lim odamlar karbogen bilan ingalyasiya qilinganda nafas hajmi 5-8 marta oshadi. Diamida imidazoldikarbon kislota unumi (strukturaga qarang). Nafasni qo'zg'alishi - nafas markazida rN muxitini kameyishi, N⁺ ionlarini to'planishiga bog'liq.

Ma'lumki, vodorod ionlari nafas markazlarini to'g'ridan-to'g'ri qitiqlamasdan balki, uzunchoq miyadagi nafas markaziga yaqin joylashgan maxsus

Aralash tipda ta'sir qiluvchi moddalarning markaziy ta'siri, karotid koptokchadagi xemoreseptorlarni qo'zg'atishi bilan tushuntiriladi. Bunday preparatlarga analeptik kordiamin (12 bobga qaralsin) va uglekislota. Ma'lumki, uglekislota nafasni fiziologik qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. Tibbiyot amaliyotida 5-7% SO₂ va 93-95% O₂ aralashmasi qo'llaniladi. Bunday aralashma karbogen deb

xemoreseptorlarni qo'zg'atishi bilan tushuntiriladi. SO₂ ni nafasga ta'sirida sinokarotid refleks orqali ta'siri ahamiyatga ega. SO₂ ni nafasga qo'zg'atuvchi ta'siri 5-6 minut ichida kelib chiqadi va umumiy qon aylanish ham yahshilanadi. SO₂ ni miya qon aylanishini oshiruvchi ta'siri haqida ma'lumotlar mavjud. Nafas stimulyatorlari opioid analgetiklari, uglerod oksidi bilan engil zaharlanganda, yangi tug'ilgan chaqaloqlar asfiksiyasida, narkozdan so'ngi davrda o'rka ventilyasiyasini tiklash uchun qo'llaniladi.



13.1. Yo'talga qarshi moddalar

Yo'talga qarshi moddalar ikki guruhga bo'linadi (13.1 rasm).

1. Markaziy ta'sirga ega bo'lgan moddalar.

A. *Opioid (narkotik) preparatlar:* kodein, etilmorfin hidroxlorid.

B. *No opioid (nonarkotik) preparatlar:* glansin hidroxlorid, tusupreks.

2. Periferik ta'sirga ega bo'lgan: libeksin.

Tibbiy amaliyotda uzunchoq miyada joylashgan, markaziy yo'tal reflekslarini susaytiruvchi, markaziy ta'sirga ega bo'lgan preparatlar keng qo'llaniladi. Bu

13.1.Rasm. Nafas a'zelari funksiyasiga ta'sir qiluvechi moddalarning asosiy yo'nalishlari.

Demak, nafas stimulyatorlari kamdan-kam hollarda ishlatiladi. Gipoksik holatlarda odatda yordamchi vositalardan yoki sunniiy nafasdan foydalilanadi.

guruhgaga kodein, etilmorfin gidrokslorid kiradi. Kodein (metilmorfin) senantren qatoridagi opiy alkaloidi hisoblanadi (8: 8.1-boblar). Opoid reseptorlar agonisti hisoblanib, yo'talga qarshi yuqori faollikga, kuchsiz og'riq qoldiruvchi ta'sirga ega. Kodein terapevtik dozada nafas markazini susaytirmaydi yoki bu ta'sir ahamiyatsiz darajada bo'lishi mumkin. Preparatni sistematik qo'llash natijasida qabziyat kelib chiqishi mumkin. Kodeinni uzoq vaqt qo'llash esa doriga nisbatan o'r ganib qolish va ba'zi bir hollarda dori vositasiga (ruhiy va jismoniy) qaramlik rivojlanishi mumkin.

Preparat sifatida kodein va kodein fosfat ishlab chiqariladi. Bundan tashqari kodein bir qancha kombinirlangan preparatlar tarkibiga kiradi, masalan: Bexterev aralashmasi (bahorgi Adonis o'ti damlamasi, natriy bromid va kodein), «Kodterpin» (kodein, balg'am ko'chiruvchi natriy gidrokarbonat va terpingidratdan iborat) tabletkasi va boshqalar.

Shu guruhgaga morfindan sintez yo'li bilan olingan etilmorfin gidrokslorid ham kiradi. Opioid reseptorlar agonisti bo'lib, yo'tal markaziga ta'siri bo'yicha etilmorfin gidrokslorid kodeinga o'xshash. Opioid analgetiklar (morfin gidrokslorid) yo'talga qarshi kuchli ta'sirga ega. Lekin ular nafas markazini susaytirishi mumkin. Bundan tashqari bu preparatlar dori vositasiga qaramlikni keltirib chiqarishi bo'yicha xafli hisoblanadi. Shuning uchun bu preparatlarni boshqa preparatlar yordam bermaganda qo'llash afzal.

Bugungi kunda yo'tal markazini tanlab susaytiruvchi va dori vositasiga qaramlikni keltirib chiqarmaydigan bir qator preparatlar yaratilgan. Bunday preparatlar noopiod yo'talga qarshi moddalardir (nonarkotik)

Bu guruhgaga glausin gidrokslorid (glauvent), okseladin sitrat (tusupreks) kiradi. Glausin – o'simliklardan olingan alkaloid, tusupreks sintetik yo'l bilan olingan. Bemorlar preparatlarni yaxshi ko'tara oladilar. Glausin bosh aylanishi, ko'ngil aynishini chaqirishi mumkin.

Periferik ta'sirga ega bo'lgan yo'talga qarshi moddalarga libeksin kiradi. Preparatni ta'sir qilish mexanizmi, yuqori nafas yo'llarini shilliq qavatlarini anesteziyalash va ba'zi bir bronxolitik xususiyati bilan tushuntiriladi. MNS ga ta'sir

qilmaydi, doriga qaramlik kelib chiqmaydi. Shunday qilib, libeksin ham, no opioid (nonarkotik) yo'talga qarshi dori vositalarga kiradi.

Bronx shilliq qavatlari quruq, bronx sekretor bezlari yopishqoq va quyuq bo'lganda, yo'talni bronx sekretor bezlarini sekresiyasini oshirish yoki suyultirish hisobiga ham kamaytirish mumkin. Shu maqsadda balg'am ko'chiruvchi va ishqoriy suyuqliklarni ingalyasiya yo'li bilan yuborish mumkin.

13.2. **Balg'am ko'chiruvchi vositalar**

Bu guruh moddalar bronxial bezlar tomonidan ishlab chiqilgan shilimshiqni, balg'amni, ko'chishini engillashtiradi. Balg'am ko'chiruvchi moddalar ikki guruhga bo'linadi (13.1 rasm): 1. Reflektor ravishda ta'sir qiluvchi 2. To'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi moddalar

¹ Grekchadan *kodeia* – mak boshchasi.

² Etilmortin gidroxloridni qitiqllovchi ta'siri anesteziyalovchi ta'sir bilan almashinadi. Shuning uchun preparat oftalmologiyada keratitni va bir qancha ko'z kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

³ Ba'zi bir surunkali yo'tallarda sedativ ta'sirga ega bo'lgan preparatlar ham ijobji ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ipekakuana va termopsis preparatlari (damlama, ekstraktlar) reflektor ta'sirga ega.

Bu preparatlar tarkibidagi alkaloidlar va saponinlar, preparat qabul qilinganda oshqozon reseptorlarini qitiqlaydi, natijada reflektor ravishda bronx sekretor bezlari faoliyati, xilpilllovchi epiteliy faoliyati oshadi, bronx silliq muskularini qisqarishi kuchayadi. Balg'am ko'payadi, yopishqoqligi kamayadi, va yo'tal bilan ko'chishi osonlashadi.

Ko'rsatilgan preparatlar katta dozalarda reflektor ravishda quşishni chaqiradi. lekin preparatlar bu maqsadda ishlatilmaydi.

To'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi balg'am ko'chiruvchi preparatlarga balg'amni suyultiruvchi (mukolitik¹) vositalar ham kiradi.

Faol mukolitik moddalarga asetilsistein (bronxolizin, mukosolvin) kiradi.

Bu preparatlarni samarasi molekulasida erkin sulfgidril gruppasi tutishiga bog'liq bo'lib, proteoglikanlarni disulfid bog'larini buzishi natijasida, balg'amni yopishqoqligini kamaytiradi va depolimerizasiyaga olib keladi.

Balg'amni suyulishi, hajmini oshishi uni engil ko'chishiga olib keladi. Asetilsistein ingalyasion ba'zan parenteral yo'l bilan yuboriladi. Uzoq vaqt ta'sir qiluvchi ichish uchun mo'ljallangan preparatlar ham yaratilgan (ASS-100, ASS-200, ASS-long). Asetilsistein ichakdan to'liq so'rildi, lekin biodostupnostligi 10% ni tashkil qiladi, chunki jigardan o'tayotgan vaqtda ko'p qismi metabolizmga uchraydi.

Tuzilishi va ta'siri o'xshash bo'lgan preparatlarga karbosistein (bronxokod, mukodin) kiradi. Samarador mukolitik va balg'am ko'chiruvchi moddalarga kimyoviy tuzilish yaqin bo'lgan ambroksol (ambrobene) va bromgeksin kiradi. Preparatlarning mukolitik ta'siri balg'am tarkibidagi mukoproteinlar va mukopolisaxaridlarni depolimerizasiya qilib, balg'amni suyultirishiga olib keladi. Har bir preparatning farmakologik samaradorligi alveolar hujayralarda hosil bo'luchchi sirt-faol modda surfaktant hosil bo'lushini jadallashtirishiga bog'liq. Natijada bronxial bezlar sekresiyasi normallashadi, balg'amni reologik xususiyatlari yaxshilanadi, yopishqoqligi kamayadi, va balg'amni bronxlardan ko'chishi engillashadi. Effekti 30 minutdan so'ng rivojlanadi va 10-12 soat davom etadi. Preparatlar ichishga buyuriladi. Ba'zan nojo'ya effektlaridan: ko'ngil aynish, qayd qilish, allergik reaksiyalar kuzatilishi mumkin SHu guruhga proteolitik fermentlardan – kristall holdagi tripsin, ximotripsin, dezoksiribonukleaza (DNKaza) lar kiradi. Rekombinant a-DNK aza preparati pulmozim nomi bilan ishlab chiqariladi. Preparat mukolitik sifatida mukovissidozda qo'llaniladi. Ingaiyasion yo'l bilan yuboriladi.

Bronx sekretor bezlari sekresiyasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi preparatlardan kaliy yodid ham keng qo'llaniladi. Natriy gidrokarbonat ham balg'amni suyultiradi, bronxial sekresiyani oshiradi. Kaliy yodid va natriy gidrokarbonat ichishga va ingalyasion, tripsin, ximotripsin eritmaları, DNK-aza esa ingalyasion yo'l bilan yuboriladi. Balg'am ko'chiruvchi moddalarga altey, tog' jumrut, chuchukmiya ildizidan tayyorlangan preparatlar, hamda terpingidrat va

natriy benzoat preparatlari kiradi.

I lotincha. *mucus* - shilliq.

13.4. BRONXOSPAZMIDA QO'LLANILADIGAN MODDALAR

Normada bronx silliq muskullari xolinergik ta'sirot bilan ushlab turiladi. bu nervni qo'zg'alishi bronxospazmni chaqirishi mumkin. Bronxlarda simpatik innervasiya yo'q. Lekin bronxlarda innervasiya olmaydigan R adrenoreseptorlar mavjud bo'lib, ularga adrenalin va tashqaridan yuboriladigan adrenotrop moddalar ta'sir qiladi. V₂ adrenoreseptorlarni stimullah bronxodilatasiyaga olib keladi.

Bronxospastik holatni rivojlanish jarayonida, shu bilan birga bronxial astmada, bronxospazmni qo'zg'atuvchi turli xil faktorlarga bronxlarda giperreaktivlik kelib chiqadi. Ushbu faktorlarga allergenlar, infeksiya, kimiyoiy moddalar, sovuq xavodan nafas olish, stress va boshqalar misol bo'lishi mumkin.

Yallig'lanish reaksiyasini shakllanishida, bronxlar giperreaktivligini asosida - yallig'lanish mediatorlari katta rol o'ynaydi. Ular bronxlar epiteliyasining hujayralarida, semiz hujayralarda, alveolalar makrofagida, neytrofilarda, eozinofillarda, monositlarda hosil bo'ladi. O'pkaning semiz hujayralari gistamin, adenozin, neytrofil va eozinofillar uchun esa xemotaksik faktorlarni tutadi. Yallig'lanish jarayoni boshqa yallig'lanish mediatorlarini ishlab chiqarilishini kuchaytiradi, masalan: leykotrienlar, prostaglandinlar, tromboksan, trombositlarni faollashtiruvchi faktorlarni va boshqalarni. Bu moddalar bronxospastik ta'sir ko'rsatadi, bronxlar shilliq qavati shishini chaqiradi, tomirlar o'tkazuvchanligini oshiradi, shilliq qavatlarda leykositlar infiltrasiyasini va shilliqlarni gipersekresiyasini chaqiradi. Bular hammasi bronxospazmni kechishini susaytirishga emas, balki bronxolitik vositalarni qo'llash va yallig'lanish jarayonini susaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shundan kelib chiqqan holatda bronxial quyidagi guruhlarga bo'linadi.

I. *Bronxlarni kengaytiruvchi moddalar (bronxolitiklar).*

1. V₂ -adrenoreseptorlarni qo'zg'atuvchi moddalar (salbutamol, fenoterol).

terbutalin, izadrin, orsiprenalin sulfat, adrenalin gidrokslorid).

2. M-xolinoblokatorlar (atropin sulfat, metasin, ipratropiya bromid).

3. Miotrop ta'sir qiluvchi spazmolitiklar (teofillin, eufillin).

II. *Yallig'lanishga qarshi va bronxolitik faoliyga ega bo'lgan moddalar.*

1. Steroid tuzilishdagi yallig'lanishga qarshi moddalar (gidrokortizon, deksametazon, triamsinolon, beklometazon).

2. Allergiyaga qarshi moddalar (kromolin-natriy, ketotifen).

3. Leykotrienlar tizimiga ta'sir qiluvchi moddalar.

A. Leykotrienlar biosintezini ingibitorlari (5-lipoksigenaza ingibitori) (zileuton).


B. Leykotrien reseptorlarining blokatorlari (zasirlukast, montelukast).

Bronxolitiklar guruhidan V₂-adrenoreseptorlarni¹ qo'zg'atuvchi moddalar katta ahamiyatga ega. ¹(4; 4.2 bob; 13.2 rasm).

Hozirgi kunda bronxospazmini davolashda V₂ -adrenoreseptorlarni qo'zg'atuvchi preparatlar – salbutamol (ventolin, salben, salgim, saltos), fenoterol (berotek N) qo'llaniladi. Bu preparatlar tanlab ta'sir qilmaydigan V-adrenomimetiklarga qaraganda, kam darajada taxikardiya chaqiradi. Bu preparatlarni odatda ingalyasion yo'l bilan yuboriladi.

¹ Silliq muskullardagi V₂-adrenoreseptorlar (bronxiolalardagi ham) innervasiyaga ega emas.

13.2. Rasm. Bronxolitik moddalarni asosiy ta'sir qilish yo'nalishlari.



β_2 -Adrenomimetiklar tez ta'sir qiluvchi bronxdilatatorlar bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari bu preparatlar balg'amni ko'chishiga yordam beradi.

Oxirgi yillarda uzoq vaqt ta'sir qiluvchi β_2 -adrenomimetiklar salmeterol (serevent)¹, formoterol (foradil) va boshqalar yaratilgan. Salmeterol bilan qilingan ingalyasiyada bronxlarni kengaytirishi effekti 12 soat davom etgan, salbutamol ta'siri 4-6 soat bilan cheklangan. Bronxial astmani davolash uchun salmeterol va glyukokortikoidlardan iborat bo'lgan, mahalliy ta'sir qiluvchi flutikazon propionat (fiksotid) taklif qilingan.). Shunday kombinirlangan preparat seretid multidisk deb ataladi.

¹ Kukun xolida ingalyatorda, dozalangan qurilmada ishlab chiqariladi.

Salmeterolni bronxlarni kengaytiruvchi ta'siri flutikazonni yallig'anishga qarshi ta'siri bilan birgalikda namoyon bo'lib, bronxial astmani samarali davolashda maqsadga mufoviquqdir.

β_2 -adrenomimetiklar titroq, taxikardiya, xavotirlik, aritmiya va boshqa nojo'ya effektlarni chaqiradi.

Bu guruhlarga izadrin (izoprenalin gjdroklorid) ham kiradi, bu preparat α_1 - va β_2 -adrenozeptorlarni stimullaydi. Izadrin bronxospazmni to'xtatish uchun foydalaniadi. Shu maqsad uchun preparat eritmasi ingalyasion yo'l bilan yuboriladi.

Izadrin yurakdagi β_2 -adrenozeptorlarga ta'sir qilganligi tufayli, yurak urishi va kisqarish kuchi oshadi. Izadrin qo'llanilganda qon bosimi deyarli o'zgarmaydi. Bronxlardagi adrenozeptorlarga ta'siri bo'yicha α -adrenomimetik orsiprenalin sulfatni (alupent) sezgirligi yuqori.

Bronxolitik effekti bo'yicha izadrin ga o'xshash, lekin ta'sir qilish davomliligi uzoq, β_2 - va α_1 - adrenozeptorlarga ta'sir qiladi. Orsiprenalin ichish uchun.

parenteral ,aerazol holatda ingalyasion yo'l bilan yuboriladi. Bronxospazmada ba'zan a -va v adrenoreseptorlarga ta'sir qiluvchi adrenalindan (v_1 va v_2 -adrenoreseptorlari) foydalaniлади. Adrenalin teri ostiga yuborilganda turli xil sabablarga ko'tra yuzaga kelgan bronxospazmni bartaraf qiladi. shilliq qavatlar shishitni kamaytiradi. Davomliligi qisqa. Nojo'ya effektlariga qon bosimini ko'tarilishi, taxikardiya, yurak minutlik xajmini oshishi.

Bronxolitik sifatida ba'zan simpatomimetik efedrin (bilvosita ta'sirga ega bo'lgan) a- va v-adrenomimetik) ishlataladi. Efedrin faolligi bo'yicha adrenalindan kuchsiz lekin uzoq vaqt ta'sir qiladi, va profilaktik maqsadda ishlataladi. Adrenalin yuqorida ko'rsatilgan nojo'ya effektidan tashqari MNS ni qo'zg'atishi mumkin. Agar bu ta'sir yuqori darajada kuzatilsa tinchlantiruvchi yoki uxlaturvchi dori vositalari bilan kamaytirish mumkin.Shuni hisobga olish kerakki, efedringa nisbatan dori vositasiga karamlik kelib chikadi.

Shunday qilib, bronxospazmni bartaraf qilish yo'li bronxdagi v_2 -adrenoreseptorlarni faollashtirish va u bilan bog'liq bo'lgan adenilatsiklazani jadallashtirish lozim, bu esa hujayra ichidagi sAMF miqdorini oshiradi, o'z navbatida hujayra ichidagi kalsiy ionlari kamaytirib, bronx silliq muskullari tonusini pasayishiga olib keladi. SHu bilan bir vaqtida, v_2 -adrenomimetik moddalar ta'sirida, semiz hujayralardan bronxiolalarni spazmini chaqiruvchi (gistamin, sekin kelib chiquvchi anafilaksija substansiysi va boshqalar) birikmalarni ishlab chiqishi kamayadi

Bundan tashqari, boshqa prinsip ham ishlatalishi mumkin. Bronxlardagi xolinergik innervasiyani falajlovchi m-xolinoblokatorlar ham bronxolitik xususiyatga ega (3 bob,13.4 rasm).

Semiz hujayralardan spazmogen moddalarni ajralib chiqishi ham kamayadi. Bronzial astmani bartaraf qilishda faolligi bo'yicha m-xolinoblokatorlar adrenomimetiklarga qaraganda kuchsiz. Bu guruhlardan atropin sulfat, platifullin, metasin, va ipratropiya bromid tanlab bloklamaydigan m-xolinoreseptorlarga kiradi (neallergik tipdagи, xolinergik innervasiyani tonusi oshishi tufayli yuzaga chiqqan bronxospazmada) qo'llaniladi.

¹ Teri ostiga yoki mushak ichiga adrenalinni yuborish maxalliy qon tomirlarni spazmiga olib keladi, shuning uchun dori vositasini so'riliishi sekinlashadi (dori yuborilgan joyni engil massaji absorbsiya ni tezlatishi mumkin).


² Sekin sezuvchi anafilaksiya substansiyasiga (MRS-A yoki SRS-A) kiradi leykotrienlar LTS₄, LTB₄ va LTE₄ (25 bob va 17.1 sxema).

³ leykotrienlar LTS₄, LTB₄ i LTE₄ (25. bob va 17.1 chizma).

Adrenomimetik va xolinoreseptorlarni bloklovchi moddalarni bronxolitik ta'sir qilish sxemasi.

MRS-A – sekin sezuvchi anafilaksiya substansiyasi (leykotrienlardan tashkil topgan);

Plyus – stimullovchi ta'sir; minus – susaytiruvchi ta'sir



Slizistaya jeleza

M₁, - M₃ – podtiplar m-xolinoreseptorov (+) – stimuliruyuviy effekt (-) – ugnetyauviyi effekt

Rasm. 13.4. M-xolinoreseptorlarni nafas yo'llarida joylanishi.

Bu guruh preparatlarini kamchiligi: bronx, so'lak va boshqa bezlarning sekresiyasini kamayishi, taxikardiya, akkomodasiyani buzilishi (metasin va ipratropiya qo'llanilganda bu nojo'ya effektlar kamroq kuzatiladi) mumkin. Ipratropiya (atrovent) ingalyasiya qilinganda yuqori natija olinadi. Bu preparatning ta'siri adrenomimetiklarga qaraganda sekin kelib chiqadi va 6 soat davom etadi. MNS ga (to'rtlamchi ammoniy birikma bo'lganligi uchun) o'tmaydi.

Ipratropiy fenoterol bilan kombinasiya holatida (berodual N) ishlab chiqariladi.

To'rtlamchi ammoniyli birikmalar guruhidan bronxoitiklarga metasin va iprotropiydan tashqari yangi tiotropiy preparati kiradi (tabl. 13.1).

13.1-jadval. Nafas yo'llaridagi M-xolinoreseptorlar

| Resepto rlar podtipla ri | M- xolinoreseptorlarni jadallashtirish effektlari | | | Bronxial astma va o'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklarida M- xolinoblokatorlar samaradorligi | |
|-----------------------------------|---|---|----------------|---|---|
| | Neyrotrop | Nafas yo'llari silliq | | Neyrotrop | Nafas yo'llari silliq |
| M ₁ | Parasimpatik gangliyalardagi qo'zg'atuvchi reseptorla; bu reseptorlarni qo'zg'alishi gangliyalardan impuls o'tishini osonlashtiradi va | Funksiyasi noma'lum | M ₁ | Parasimpatik gangliyalardagi qo'zg'atuvchi reseptorla; bu reseptorlarni qo'zg'alishi gangliyalardan impuls o'tishini | Funksiyasi noma'lum |
| M ₂ | Presinaptikpostganglionar parasimpatik nerv oxirlarda joylashgan autoreseptorlar; bularni qo'zg'alishi bronxospazmni kamaytiradi | | M ₂ | Presinaptikpostg anglionar parasimpatik nerv oxirlarda joylashgan autoreseptorlar; bularni qo'zg'alishi bronxospazmni | |
| M ₃ | | Qo'zg'atuve hi reseptorlar; ularni qo'zg'alishi bronxospaz | M ₃ | | Qo'zg'atuvchi reseptorlar; ularni qo'zg'alishi bronxospazm chaqiradi |

¹ V stenkax alveol obnarujenlar M₄-xolinoreseptorlar. Funksiya ix neizvestna.

² Krome togo, okazlarvaet miotropnoe spazmoliticheskoe ganglioblokiruyuuce deystvie.

³ Blokiruet M₃-xolinoreseptorlar v 2.5 raza bolee prodoljitelno, chem M₁-xolinoreseptorlar.

⁴ Preparat m₃- i m₁-xolinoreseptorlarga ta'sir qiladi, lekin davomli va chidamli ravishda m₃- xolinoreseptorlar bilan bog'lanadi. Shuning uchun bu preparat m₃-xolinoreseptorlarni bloklovchi guruhga kiradi. Preparat ipratropiyiga qaraganda faolroq va davomli ta'sir ko'rsatadi. Lekin effektni tez kelib chiqishi bo'yicha ipratropiy yuqori. Tiotropiyni maksimal effekti 1.5-2 soatdan so'ng kelib chiqadi. Tiotropiy bir kunda bir marta ingalyasion (kukun holatda maxsus ingalyatorda) yo'l bilan yuboriladi. Asosiy nojo'ya effekti og'iz bo'shlig'ini qurishi.

⁵ Bronxlarni kengayishi, ularni innervasiyasigagina emas, bronxiolalar silliq muskullariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi preparatlarni qo'llanilishiga ham bog'liq. Bronxolitik ta'sir ko'rsatuvchi miotrop spazmolitik preparatlarga teofillin va eufillinidan foydalaniлади.

Aminofillin teofillin (1,3-dimetilksantin) va 1,2 -etilendiamin aralashmasidan iborat.

Aniqlanishicha, teofillin katta konsentrasiyalarda fosfodiesterazani ingibrlaydi, va shuning natijasida sAMF ni miqdorini oshiradi. V₂-adrenomimetiklar kabi, teofillin hujayra ichidagi kalsiy ionlari konsentrasiyasini kamaytirib, bronx mushaklarini bo'shashtiradi. Bu holatni teofillinni bronxolitik ta'siri sababli deb tushuntirilgan. Keyinchalik aniqlandiki, teofillin terapeutik konsentrasiyadan yuqori miqdorda fosfodiesteraza fermentini bloklaydi. Taxminlarga ko'ra teofillinni terapeutik konsentrasiyadagi bronxolitik ta'siri bronxiolalardagi adenozin reseptorlarini bloklashi bilan tushuntiriladi. Ba'zi bir avtorlar fikricha, teofillin semiz hujayralardan adenozin tufayli gistogram ajralib chiqishiga to'sqinlik qiladi. Lekin bu gipoteza ishonarli emas edi. chunki teofillinga yaqin birikma (3-propilksantin) sintez qilindi, bu modda bronxiolalardagi adenozin reseptorlarini falajlash xususiyatiga ega emas edi.

Teofillin kichik qon aylanish sistemasida qon bosimni pasaytiradi, yurakda-

buyrakda, bosh miyada qon aylanishi yaxshilaydi (qon tomirlar torayganda). Kuchsiz diuretik ta'sirga ega. Miokard faoliyatini jadallashtiradi, yurakni kislorodga bo'lgan talabini oshiradi. MNS ga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda teofillin, uzoq vaqt ta'sir qiluvchi preparat sifatida (8,12 va 24 soat davom etuvchi) bronxospazmni profilaktika qilish maqsadida keng qo'llaniladi.

Effektivligi bo'yicha teofillin preparatlari v-adrenomimetiklar bilan raqobatdosh. Lekin teofillinni terapeutik kengligi katta emas. Preparatni toksik konsentrasiyasi terapeutik konsentrasiyadan atigi 2-4 marta yuqori.

Shuning uchun preparatni dozalashda ehtiyojkorlikni talab qiladi. Preparatni optimal dozasi tanlanganda, moddaning qondagi konsentrasiyasi va effekti hisobga olinadi. Teofillinni uzoq vaqt qo'llanilganda, doimiy ravishda qon plazmasidagi konsentrasiyasini aniqlash maqsadga musfoviq bo'ladi, chunki preparatni absorbsiyasi va $t_{1/2}$ keng chegarani tashkil qiladi. Teofillin ovqat hazm qilish tizimidan to'liq so'rildi, jigarda metabolizmga uchraydi. buyraklar orqali organizmdan chiqib ketadi. Shuni hisobga olish kerakki, teofillin plasentara barerdan oson o'tadi va emizuvchi ayollarda sut bilan ajralib chiqadi.

Teofillinning uzoq vaqt ta'sir qiluvchi preparatlariga «Teobiolong», teodur, teotard, durofillinretard kabi tabletkalar kiradi. Teofillin preparatlari ichishga, rektal, va vena ichiga yuboriladi. Ichishga qo'llanilganda ular dispeptik o'zgarishlarni chaqirishi mumkin. Eufillinni to'g'ri ichakga yuborilganda qitiqlovechi ta'sir ko'rsatadi.

Preparatni nojoya effektlari turli xil bo'lib, bularga: bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, quşish, siyidik tutilishi, aritmiya, qo'zg'aluvechanlik, uyqusizlik, toksik dozalarda titroq.

Bronzial astma, allergik tabiatdagi bronxospazmlarda haqiqiy bronxolitiklardan tashqari, yallig'lanishga, allergiyaga qarshi moddalar keng qo'llaniladi (25 bob). Shunday preparatlarga glikokortikoidlar kiradi. Bu guruhdagi preparatlar semiz hujayra va ularning granulalarini membranasini mustaxkamlaydi. V₂-adrenoreseptorlarni sezuvechanligini oshiradi va to'g'ridan-

to'g'ri bronxolitik ta'sir ko'rsatadi. Glyukokortikoidlarni ahamiyatli tarafi, yuqori yallig'lanishga qarshi, immunodepressiv faoliyiga ega, shuning uchun bronxial astma kechishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Glyukokortikoidlar aerozol (beklometazona dipropionat¹, flutikazona propionat², budesonid³) holatida, ichish uchun (deksametazon, triamsinolon) qo'llaniladi.

Deksametazon va triamsinoloni ingalyasyon yo'l bilan yuborish ham mumkin. Kerak bo'lgan holatlarda gidrokortizonni vena ichiga yuboriladi. Glyukokortikoidlarni aerozol holatda yuborilganda, og'iz bo'shlig'i va tomoqda kandidamikoz rivojlanishi, yo'tal kelib chiqadi.

Sintetik allergiyaga qarshi preparatlar kromolin-natriy (dinatriy xromoglikat, intal, kropoz) ham katta qiziqishga ega. Gipotezalarga ko'ra, bu preparatni ta'sir qilish mexanizmi, semiz hujayralar va ularning granulalarini membranasini mustaxkamlab kalsiy ionlarini hujayra ichiga kirishiga to'sqinlik qilishiga asoslangan. Bular hammasi birgalikda semiz hujayralar degranulyasiyasiga to'sqinlik qilib, spazmogen moddalarni (gistamin, MRS-A) ajralib chiqishini kamaytiradi. Bunday qarash biroz shubhaga olib ke'ishi mumkin, chunki inson o'pkasidan ajratib olingan kromolin natriy semiz hujayralarga juda kuchsiz va muntazam ta'sir qilmaydi (salbutamol bunday tekshirishlarda yuqori faoliyiga ega). Kromolin-natriy bronxial astma xurujini oldini olish uchun qo'llaniladi. Ingalyasjon yo'l bilan yuboriladi. Kromolin natriya o'xshash bo'lgan preparat nedokromildir.

Allergiyaga qarshi preparatlarga ketotifen (zaditen) kiradi. Preparat semiz hujayralardan allergiya mediatorlarini ajralib chiqishini bloklaydi. Preparatni bronxial astma xurujini to'xtatish, hamda senna lixoradkasi, rinit va boshqa sekin kechar allergik reaksiyalarda qo'llaniladi. Nojo'ya effektlariga sedativ ta'sir va trombositopeniya kiradi.

Preparat kuniga 2 marta ichishga buyuriladi. Ta'siri sekin boshianadi: yuqori effekti 3-4 haftadan so'ng kuzatiladi.

Bronxial astmada N₁-gistamin reseptorlarini salajlovchi moddalar kam samara beradi.

¹ Dozalangan qurulmali ingalyatorda kukun holda quyidagi preparatlar (bekotid).


bekodisk, bekloforte) ishlab chiqqaziladi.

² Flutikazona propionat (fliksotid) ham kukan holatda, ingalyatorda dozalangan qurilmada ishlab chiqariladi.

³ Benakort preparati (ingalyasiya uchun quruq poroshok) ishlab chiqilgan.

Bronxial astmani davolashda leykotrein sistemaga ta'sir qiluvchi preparatlar alohida o'rin tutadilar (sxema 24.1). Ma'lumki leykotreinlar fermentlar ishtirokida araxidon kislotasidan hosil bo'ladi. Bu yo'lda asosiy fermentlardan biri 5-lipoksigenaza².

13.5) Zileuton 5-lipoksigenazani tanlab tormozlaydi (13.5 rasm), bu preparat siklooksiyenzaga ta'sir qilmaydi. Shuning uchun zileutonni hamma efektlari leykotrienlarni biosintezini susaytirishiga bog'liq. Natijada, preparat asosan yallig'lanishga qarshi, va bronxlarni kengaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi.



13.5. rasm. Leykotrien sistemasiga ta'sir qiluvchi moddalarning yo'naliishi.

¹ Araxidon kislotasidan lipoksigenaz yo'li bilan bir qancha leykotrienlar (LT) hosil bo'ladi. LTV₄ asosan neyrofillar tomonidan ishlab chiqariladi. LTS₄, LTD₄ va LTE₄ - eozinofillar, semiz hujayralar, bazofillar va makrofaglar tomonidan hosil bo'ladi. Oxirgi 3ta leykotrieni sisteinil-leykotrieni (SisLT; CysLT)

deb yuritiladi. Bular CysLT-reseptorlar bilan o'zaro ta'sir qiladi (avval ularni LT-reseptorlar deb yuritilgan).

² LTV₄ uchun boshqa tip reseptor - BLT- reseptor (boshqacha nomi - 1₋TV₃-

reseptorlar).

³ 5-Lipoksiogenaza asosan neytrofilarda, eozinofillarda, monositlarda, makrofaglarda va semiz hujayralarda bo'ladi.

Preparat ichish uchun buyuriladi, oshqozon ichak tizimidan tez so'rildi. Yog'li ovqatlar zileutonni absorbsiyasini yaxshilaydi. Preparat jigarda jadal ravishda metabolizasiyaga uchraydi (glyukuronoidlar hosil bo'ladi).

Qon plazmasida preparatning yuqori konsentrasiyasi 0.8-2,5 soatdan so'ng aniqlanadi. Preparatni 93% qon plazmasidagi oqsillar bilan bog'lanadi, metabolitlari (90-95%) asosan buyrak orqali organizmdan chiqib ketadi. $t_{1/2} = 1-2.3$ soat.

Preparat asosan, bronxial astmada qo'llaniladi, revmatoid artrit, yarali kolitda ham ishlatalishi mumkin. Nojo'ya effektlaridan isitma, mialgiya, charchoqlik, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, dispepsiya kuzatilishi mumkin.

Ikkinchchi guruhga leykotrienlar blokatorlari kiradi. Bu guruhga zafirlukast preparati kirib, leykotrien reseptorlarini (LTD₄, LTE₄) uzoq vaqt, tanlab samarali bloklaydi, va kuchli yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Bronxial astmada bu holat qon tomirlar o'tkazuvchanligini pasayishi, bronx shilliq qavatlarida shishlarni yo'qolishi, quyuq, yopishqoq balg'amlarni sekresiyasini susayishi kuzatiladi. Bir vaqt ni o'zida bronxiolalarni kengayishi (LTD₄-reseptorlarni bloklanishi) kuzatiladi.

Preparatni ichishga (ingalyasiyada ham samarali) buyuriladi, yuqori konsentrasiyasi 3 soatdan so'ng aniqlanadi. Zafirlukas preparatini naxorga buyuriladi, chunki ichakdagi ovqat qoldiqlari preparatni so'rilihini 40%ga kamaytirishi mumkin. Qon plazmasidagi oqsillar bilan 99% bog'lanadi. Gematoensefalik to'siqdan yomon o'tadi, hosil bo'lgan metabolitlari organizmdan ichak (90%) va buyrak (10%) orqali chiqib ketadi. $t_{1/2} \sim 10$ soat.

Aniqlanishicha, zafirlukast mikrosomal fermentlarni bloklaydi, shuning uchun metabolizmga, va boshqa preparatlarning farmakokinetikasiga ta'sir qiladi.

Klinik effekti sekin rivojlanadi (1 sutka davomida), shuning uchun zafirluaksi bronxial astmani uzoq davolashda va profilaktika uchun qo'llaniladi.

Bronxial astma xurujini tuxtatish uchun preparat ishlatalmaydi. Preparat tez ta'sir qiluvechi antiastmatik preparatlar bilan birgalikda ishlataladi (adrenomimetiklar).

glyukokortikoidlar). Zafirlukast allergik rinitlarni davolashda qo'llanilishi mumkin.

Kuzatilishi mumkin bo'lgan nojo'ya effektlari: bosh og'rig'i, gastrit, faringit, mialgiya, artralgiya va boshqalar. Leykotrien reseptorlari blokatorlariga montelukast (singuler) ham kiradi. Preparat leykotrien D₄ (nTD₄) tanlab ta'sir qiluvchi antagonist hisoblanadi. Zafirlukastdan farq qilib, jigar mikrosomal fermentlarini tormozlamaydi, shuning uchun boshqa preparatlarni ta'sir qilish davomliligiga ta'sir qilmaydi.

Ichish uchun buyuriladi, yaxshi so'rildi, ovqat tarkibi montelukast absorbsiyasiga ta'sir qilmaydi. Preparat jadal ravishda metabolizmga uchraydi, organizmdan ichak orqali chiqib ketadi; t_{1/2} ~ 2.7-5.5 soat. Preparat bronxial astmani profilaktikasi va uzoq vaqt davolash uchun qo'llaniladi. Bemorlar preparatni yaxshi ko'tara oladilar, nojo'ya effektlariga bosh og'rig'i, dispeptik o'zgarishlar, bosh aylanishi, teri toshmalari kiradi. Trombositlar faolligiga antagonist bo'lgan faktorlar, yallig'lanish mediatorlari bo'lib, bronxlarni toraytiradi, leykotrien PE_{2a} va tromboksan ajralishiga olib keladi. Shunday ta'sir qiluvchi preparatlar olingan va klinik sinovga topshirilgan.

13.5. O'TKIR NAFAS YETISHMOVCHILIGIDA QO'LLANILUVCHI MODDALAR

O'tkir nafas yetishmovchiligi kelib chiqishining sababi o'pka shishidir. Bu kasallik yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, yuqumli kasalliklar, o'pkani ximik moddalar bilan zaharlanishi, buyrak, jigar kasalliklari, va miya shishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Keltirilgan sabablar ro'yxati to'liq bo'lmasligi mumkin, shuning uchun bu og'ir patologik holatni davolash uchun asosiy kasallikni yoki zaharalnish xarakterini hisobga olish kerak. Kardiogen o'pka shishi va u bilan bog'liq bo'lgan gipoksiyani patogenetik terapiya prinsiplariga e'tibor berish kerak ahamiyatga ega. O'pka shishini davolashda opioid analgetik preparatlar: morfin, fentanil, talamonal keng ishlataladi. Opioid analgetiklarni bu patologiyalarda samaradorligi quyidagicha tushuntiriladi: bu preparatlar periferik arteriya va vena qon tomirlarini kengaytiradi, natijada yurakga kelayotgan venoz qon xajmi kamayadi. Qonning qaytadan taqsimlanishi yuz berib, kichik qon aylanish tizimida bosim kamayadi. Natijada

o'tkir o'pka shishida ijobiy effekt kuzatiladi. Yuqori arterial qon bosimida o'pka shishini kamaytirish uchun qon bosimni pasaytirish zarur. Shu maqsadda gangliolarni bloklovchi vositalar (gigroniy, pentamin, benzogeksoniy), qon tomirlarni kengaytiruvchi miotrop moddalar (natriya nitroprussid), a-adrenoreseptorlarni bloklovchi (fentolamin, kichik dozada aminazina, diprazin) vositalar qo'llaniladi. Arterial bosimni tushishi natijasida, umumiy gemodinamika me'yorlashadi, yurak faoliyat samaradorligi oshadi, kichik qon aylanish tizimida qon bosimi tushadi. O'pka kapillyarlarida qonning gidrostatik bosimini pasayishi, patologik jarayonni jadallahini pasaytiradi va o'pka shishini kamaytiradi. Bu shunga bog'liqki o'pka kapillyarlaridan suyuqliknin transsudasiyasi susayadi, suyuqlik rezorbsiyasi va tomirlarda qon oqishi oshadi. O'pka shishini sirkulyasiya qiluvchi qon hajmini tez ta'sir qiluvchi siydik haydovchi (furosemid, etakrin kislota) moddalar hisobiga ham kamaytirish mumkin, chunki bu preparatlar gipotenziv faollikga ega.

Alveolalar shishida va ular bo'shilg'ida ko'piklanish bo'lqanda gipoksiya rivojlanadi, bunda tez yordam choralarini talab qilinadi. Bunday holatlarda yuqorida ko'rsatilgan preparatlardan tashqari ko'piksizlantiruvchi moddalardan ham foydalanish mumkin. Bu guruhga etil spiriti kirib, ingalyasion yo'l bilan yuborilganda ko'pik puffakchalarini yuza tarangligini pasaytirib suyuqlik holatiga o'tkazadi va alveolarni nafas olish yuzalari ochiladi. Etil spiriti parlari kislorod bilan burun kateterlari yoki maska bilan yuboriladi. Etil spiritini kamchiligi shundan iboratki, u nafas yo'llari shilliq qavatlarini qitiqlovchi xususiyatga ega.

O'pka shishini kompleks davolashda glyukokortikoidlardan foydalaniadi, chunki bu preparatlar yallig'lanishga qarshi va immunodepressiv ta'sirga ega. Hamma holatlarda ham o'pka shishini universal davolash metodiga oksigenoterapiya kiradi.

Bundan tashqari aniq ko'rsatmalar bo'yicha, o'pka shishini bartaraf etish uchun yurak glikozidlaridan foydalaniadi (yurak yetishmovchiligi holatida, shuni hisobga olish kerakki, agarda mitral klapani stenozi kuzatilsa, yurak glikozidlari bilan yurak faoliyatini oshirish, kichik qon aylanish tizimida qoa dimlanishi va

o'pka shishini kuchayishiga olib keladi).

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda o'tkir nafas etishmasligini ko'rinishi respirator distress sindromini kuzatilishi bilan ifodalananadi. Odatda, o'pkaning maxsus alveolar hujayralarida yuza – faol modda surfaktant (fosfatidilxolin, sfingomielin) ishlab chiqariladi, bu moddalar o'pka suyuqligini sirt tarangligini kamaytiradi, va o'pka alveolasi elastikligida katta ahamiyatga ega. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda o'pka surfaktantini yetishmasligi, ularda respirator distress sindromini rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bu interstisial o'pka shishi va ko'pgina atelektazlar bilan namoyon bo'ladi. Shunda xavoni alveolar-kapilyar membranalardan diffuziyasi buziladi, va o'tkir nafas yetishmovchiligi kelib chiqadi. Bunday holatlarda sunniy o'pka ventilyasiyasi bilan birga endogen surfaktant yetishmovchiliginи to'ldiruvchi preparatlar qo'llaniladi. Bunday preparatlarga kolfosseril palmitat (pediatrik ekzosurf) kiradi. Preparat intratracheal yo'l bilan, kuniga 2 marta yuboriladi.

Bundan tashqari, ba'zida yirik qora mollar o'pkasidan ajratib olingan surfaktant –alveofakt qo'llaniladi.

Kelib chiqishiga ko'ra turli xil respirator distress-sindromi kattalarda ham (masalan, barbituratlar, opioidlar bilan zaharlangunda, va ba'zi bir infeksiyalarda) kuzatilishi mumkin. Kasallikni sababini aniqlash katta ahamiyatga ega, va shunga ko'ra patogenetik va simptomatik terapiya olib boriladi. Hamma holatlarda sun'iy o'pka ventilyasiyasi, oksigenasiya o'tkazilishi zarur.

Preparatlar

| Dori ivosalari nomi | Kattalar uchun o'rtacha terapeutik miqdori, yuborish yo'li | Ishlab chiqarish shakli |
|--|--|-------------------------|
| Etimizol- Aethimizolum | Ichishga 0.1; m/i va v/i 0,03-0,06g | Kukun, tabletkada 0,1 |
| Kodein fosfat –Codeini phosphas | | |
| Glausin gidroxlorid - Glauclini hydrochloridum | Ichishga 0.05g | Tabletkada 0,05g |
| Libeksin – Libexin | | |

| | | |
|----------------------------------|--|-------------------------|
| Dori ivositalari nomi | Kattalar uchun o'ttacha terapeutik miqdori, yuborish yo'li | Ishlab chiqarish shakli |
| Etimizol- Aethimizolum | Ichishga 0,1; m/i va v/i 0,03-0,06g | Kukun, tabletkada 0,1 |
| Kodein fosfat - Codeini phosphas | | |

Balg'am ko'chiruvchi moddalar

| | | | | | |
|---|--|------------------|--|--|---|
| Termopsis o'ti damlamasi- Infusum herbac Thermopsidis | Ichishga 15 ml damlama 1:300- 1:200 | Damlama 1:200 | Termopsis damlamasi- Infusum herbac Thermopsidis | Ichishga 15 ml damlama 1:300-1:200 | Damlama 1:300- 1:200 |
| Asetilsistein- Acetylcysteineum | Ingalyasiya uchun 0,4- 1,0g; m/i 0,1-0,2g | | Ampulada 5va 10ml 20% eritma ingalyasiya uchun, ampulada 2 ml | Asetilsistein Acetylcystei num | Ingalyasiya uchun 0,4-1,0g; m/i 0,1- 0,2g |

¹ Ot angl. *distress* - tyajeloe nedomoganie.

Davomi

| | | |
|---|---|--|
| Termopsis o'ti damlamasi- Infusum | Ichishga 15 ml damlama 1:300- 1:200 | Damlama 1:300-1:200 |
| Asetilsistein- Acetylcysteineum | Ingalyasiya uchun 0,4-1,0g; m/i 0,1-0,2g | Ampulada 5va 10ml 20% eritma ingalyasiya uchun, ampulada 2 ml |
| Termopsis o'ti damlamasi- Infusum herbac Thermopsidis | Ichishga 15 ml damlama 1:300- 1:200 | Damlama 1:300-1:200 |

Bronxospazmda qo'llaniluvchi moddalar

| | | |
|---|---|--|
| Eufillin - Euphyllinum | Ichishga 0,1-0,15g; rektal 0,3- 0,5g; m/i 0,24-0,36g; v/i 0,12- 0,24g | Kukun, tabletkada 0,15g. ampulada 1ml 24%eritma(m/i yuborish uchun) 10 ml 2,4% |
| Kromolin natriy- Cromolynum -natrium | Ingalyasiya uchun kapsula tarkibida 0,02g | Kapsuvida 0,02g kromolin natriy va 0,0001g izadrin saqlovchi |

| | | |
|--------------------------|---------------------|-------------------------------|
| Ketotifen- Ketotifenum | Iehishga 0,001g | Kapsula va tabletka da 0,001g |
| Zafirlukast -Zafirlucast | Iehishga 0,02-0,04g | Tabletkada 0,02-0,04g |
| Zileuton- Zileuton | Iehishga 0,6g | Tabletkada 0,6g |

¹ Vkluyuchaya bronzialnuyu astmu.

14-BOB. YURAK QON-TOMIR SISTEMASIGA TA'SIR ETUVCHI MODDALAR

Qon aylanishini yaxshilovchi moddalar, yurak faoliyati buzilganda va qon tomirlari tonusi o'zgarganda keng qo'llaniladi. Klinik qo'llanilishiga qarab, bu moddalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- i. Yurak faoliyati o'zgarganda qo'llanadigan moddalar:
 - a) Yurak yetishmovchiligidagi qo'llanadigan moddalar;
 - b) Aritmiyaga qarshi modalar;
 - v) Miokardda qon aylanishi yetishmovchiligidagi qo'llanadigan moddalar.

ii. Qon tomirlar tonusi o'zgarganda qo'llanadigan moddalar, qon bosimi o'zgarishi bilan kechadigan kasalliklarda:

- a) Arterial gipertoniya;
- b) Gipotenziv holatlarda.

Yurak yetishmovchiligi (dekompensasiya serdsasi) miokard faoliyati buzilishiga bog'liq, umumiyligida va regionar qon aylanishining buzilishiga olib keladi. Yurak yetishmovchiligi miokardni organik o'zgarishiga, yurak klapanlari va qon tomirlarini boshqaruvchi mexanizmlarni balansini buzilishiga olib keladi. Shuning uchun yurak yetishmovchiligin davolashda qo'llaniladigan dori moddalarini yurakka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmasdan, reguliyator ta'sirini normallashtirishga qaratilgan (asosan surunkali yurak yetishmovchiligidagi). So'nggi ta'sirini amalga oshirish uchun yurakka ko'rsatadigan manfiy ta'sirni kamaytirish kerak yoki bartaraf etish kerak, yoki yurakka musbat – ijobjiy ta'sirlarini oshirish lozim. Masalan, yurakning surunkali yetishmovchiligidagi adrenergik va renin-angiotenzin sistemasini faolligi kompensator ravishda oshadi, dastlab ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, so'ngra yurak

dekompensasiyasini chuqurlashtiradi. Shuning uchun bunday patologiyalarda bu tizimni susaytiruvchi dori moddalarini keng qo'llash maqsadga muvosiq.

Yurak glikozidlari 200 yildan ortiq vaqt davomida yurak dekompensasiyasi bo'lgan bemorlarni davolash uchun asosiy preparatlar bo'lib kelgan. Lekin, oxirgi 10-20 yillar davomidagi kuzatuvalar natijasida yurak surunkali kasalliklarini kelib chiqish mexanizmida, yurak glikozidlarini, boshqa kardiotoniklarni samaradorligini va xavfsizligini solishtirma tekshirish surunkali yurak yetishmovchiligin davolashda ularni ahamiyatini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etadi. Kardiotoniklar ma'lum bir vaqtida bemorlarni hayot tarzini yaxshilagan, lekin bemorlarda uzoq umr ko'rishi uzaymagan. ko'pgina glikozid strukturaga ega bo'lmagan preparatlarni qo'llash ularni umrini qisqartirgani aniqlangan (qisman aritmogen ta'siri tufayli).

Hozirgi vaqtida shunga qaramasdan, kardiotoniklar surunkali yurak yetishmovchiligin davolashda asosiy preparatlar bilan birlgilikda qo'llanilib kelinmoqda. Bu patologiyada farmakoterapiyaning asosiy vazifasi yurak ishiga optimal sharoit yaratib berish. Yurak ishini oshirish faqat kardiostimullovechi ta'siri bilan emas, balki uning miokard qisqaruvchanligiga bo'ladigan ortiqcha zarbni kamaytirish maqsadga muvosiq. Keng ma'noda olganda moddalar kardioloprotector ta'sirga ega. Bunga erishish uchun miokardda qon aylanishini va metabolizmini yaxshilab, yurakka bo'ladigan zarbni kamaytirib, miokard qisqaruvchanligini pasaytirib, yurak ritmini normallashtirib qon aylanishini umumiy hajmini kamaytirib va qon ivish sistemasini normallashtirish va hokazo.

Hozirgi vaqtida surunkali yurak yetishmovchiligin davolashda angiotenzinhosil qiluvchi ferment ingibitorlari, vazopeptidaza ingibitorlari, angiotenzin reseptolari ingibitorlari, vazodilyatatorlardan NO-donatorlari, adrenoreseptor blokatorlari, aldosteronning antagonist – spiranolakton va boshqa diuretiklar, kardiotoniklar (asosan yurak glikozidlardan digitoksin) va boshqalar. Shuningdek, vazopressin antagonistlari, endotelin-1 antagonistlari, natriyuretik peptidlar va boshqalar.

Shunday qilib, surunkali yurak yetishmovchiligin rasional farmakoterapiyasiga ko'p kompleksli har xil ta'sirga ega bo'lgan dori moddalar

qo'llaniladi. (14, 16, 19) bo'lmlarda shu garuh moddalarga aniq ma'lumotlar berilgan. Bu bo'linda kardiotonik moddalar haqida ma'lumot berilgan.

O'tkir yurak yetishmovchiligidagi qisqa ta'sir etuvchi, parenteral yuboriladigan glikozid va noglikozid kardiotoniklar qo'llaniladi. Ularda minimal latent davri va yuqori samarali ta'sirga ega bo'lib, kislorodga bo'lgan ehtiyojni oshirmasdan aritmiyani chaqirmsligi kerak.

14.1. KARDIOTONIK MODDALAR

Yurak faoliyatini yaxshilovchi moddalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Yurak glikozidlari
2. Glikozid strukturaga ega bo'limgan moddalar

Ta'sir mexanizmiga ko'ra kardiotonik moddalar quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1. Hujayra ichida Sa ionlarini oshiruvchi moddalar
2. Na⁺, K⁺-ATFazani falajlovchi yurak glikozidlari:

Digoksin, Selanid, Strofantin, Korglikon

3. sAMF miqdorini oshiruvchi moddalar. Adenilatsiklaza reseptorlarini faollashishi.

A. β_1 -adrenoreseptorlarni stimullovchi moddalar: Dofamin, Dobutamin.

B. Fosfodiesteraza III ni falajlash hisobiga

Amrinon, Milrinon

III. Sa ionlariga miofibrillalar sezuvechanligini oshiruvchi moddalar

Levosimendan

YURAK GLIKOZIDLARI

Yurak glikozidlari - bu moddalar o'simliklardan olinadigan kardiotonik ta'sirga ega bo'lgan moddalardir. Ular miokarda ish faolitini oshirib, yurakni tejamligini va samaradorligini ta'minlaydi. Yurak glikozidlari, ko'pincha yurakni ishemik kasalliklari natijasida, har xil etiologiyali miokardni jarohatlarida, yurak qisqaruvchanligi ritmi buzilganda qo'llaniladi.

Yurak glikozidlari qandsiz qismi (aglikon yoki genin) va qandli (glikondan) iborat. Aglikon glikozidlarning asosiy qismi steroid - siklopantanopergidrofenantrendan iborat. Steroidning 17-holatida to'yinmagun 5-

a'zolik laktон halqa, ba'zi glikozidlarda to'yinmagan 6-a'zolik lakton halqa qo'shilgan bo'ladi. Yurak glikozidlarini glikon qismi har xil qandlardan iborat: D-digitoksoza, D-glyukoza, D-simaroza, D-ramnoz va boshqalar. Molekuladagi qandlar 1 tadan 4 tagacha bo'lishi mumkin.

Ba'zi bir holatlarda qandli qismiga sirkal kislota qoldig'i biriktirilgan bo'ladi. Kardiotonik ta'sirini aglikon qismi bilan bog'liq. Yurak glikozidlarini qandli qismi ularning eruvchanligiga va to'qimalarga birikishiga javob beradi. Yurak glikozidlarini glikon qismi ularning faolligi va zaharlilikiga javob beradi.
V.UITERING (1741-1799). Tibbiy amaliyotga angishvonagul dori moddalarini qo'llashni kashf qilgan. (1785).

¹ Ot grech. *glykys* - shirin.

² Ot grech. *genos* – nasl, kelib chiqishi.

Yurak glikozidlari oson gidrolizga uchraydi (enzimatik kislotalik va ishqoriy). O'simliklarni o'zida yurak glikozidlarini gidrolizlaydigan fermentlar mavjud. Bularni saqlash va tayyorlash jarayonida birlamchi genlashgan glikozidlar o'simliklarni o'zida gidrolitik parchalanishga uchraydi. Bu jarayonni oldini olish uchun fermentlarni ingibirlash mumkiny

Ba'zi bir yurak glikozidlarini asosiy ximiya viy o'zgarishlari 14.1-sxemada ko'rsatilgan. Ular farmasevtik sanoatda o'simliklardan yurak glikozidlarini olishda ishlataladi (ayniqsa, ikkilamchi chidamlı glikozidlar). Tibbiyot amaliyotida quyidagi o'simliklardan olinadigan yurak glikozid moddalarini ishlataladi:

- Angishvonagul yirik gulli (*Digitalis purpurea*; 14.1 rasm) - digitoksin;
- Sxema 14.1. Angishvonagul glikozidlarini, strofantin, marvaridgulni parchalanishi;
- strofant Kombe (*Strophanthus Kombe*) - strofantin K¹;
- Marvaridgul (*Convallaria*) - korglikon;
- Bahorgi adonis (*Adonis vernalis*) – adonis o'ti damlamasi.

Yurak glikozidlari o'simliklardan olinadigan dori moddalarini, ularning ta'sirini boshalanishi 14.1² jadvalda ko'rsatilgan. Individual glikozidlarni ta'siri ko'proq qiziqtiradi. Oddiy, galen va novogalen moddalarini o'ziga xosligi kamayib bormoqda.

Yurak glikozidlarini asosiy xususiyatlari tanlab yurak mushaklariga ta'sir ko'rsatishi. Yurak glikozidlarini asosiy farmakoterapeutik ta'siri sistolani kuchayishi bilan yuzaga kelib, (kardiotonik ta'sir, musbat inotrop ta'sir) dori moddalarni yurakka to'g'ridan-to'g'ri ta'siri bilan bog'liq. Sistoiik qisqarishi tezlashib kuchi oshadi.

Yirik gulli angishvonagul - *Digitalis purpurea L.* (birlamchi glikozid saqlaydigan angishvonagul – yirik glikozidlar A va V, angishvonagulni quritish jarayonida ikkilamchi yurak glikozidlariga aylanadi - digitoksin va gitoksin).

14.1-Jadval. Yurak glikozidlari saqlovchi o'simliklar va dori moddalar

| O'simliklar | Dori moddalarini tayyorlash uchun o'simlik nizomlari | Dori moddalarini | | Yurak glikozidlari saqlovchi novogalen moddalarini va individual glikozidlarini |
|---|--|-----------------------------|--|--|
| | | Oddiy, Galen va damlamalari | Novogalen individual glikozidlar | |
| Angishvonagul yirik gulli (<i>Digitalis</i>): (<i>purpurea</i>) Rjaviya(<i>Ferrugiea</i>) | Barglar | Kukun Ekstrakt | Digitoksin Gitoksin Kordigit Digalen-neo Lantozid Digoksin Selanid | Angishvonagul yirik gulli (<i>Digitalis</i>): (<i>purpurea</i>) Rjaviya(<i>Ferrugiea</i>) Sertukli (<i>lanata</i>) |
| Silliq Strofant (<i>Strophanthus gratus</i>) Strofant Kombe (<i>Strophanthus</i>) | Urug'i | | Strofantin G (uabain) Strofantin K | Silliq Strofant (<i>Strophanthus gratus</i>) Strofant Kombe (<i>Strophanthus Kotbe</i>) |
| Marvaridgul (<i>Convallaria</i>) | O'tlar (barglar va gullari) | Nastoyka | Korglikon | Marvaridgul (<i>Convallaria</i>) |
| Bahorgi adonis o'ti (<i>Adonis vernalis</i>) | O'tlar | Damlama Ekstrakt | Adonizid | Bahorgi adonis o'ti (<i>Adonis vernalis</i>) |
| Dengiz piyozi (<i>SCILLA MARITIMA</i>) | Piyozi | Nastoyka | Ssillaren | Dengiz piyozi (<i>Scilla maritima</i>) |


: Strofanta Kombe urug'lari bilan yurak glikozidlarini aralashmasi (asosan piyozi K va K- strofantozid).

² To'liqroq jadval shu kitobning 1- va 2- nashrlarida berilgan (1980, 1981).

³ Grekcha so'zdan. *is* (qaratqich kelishikda - *inos*) - tola, muskul, *tropos* - yo'llanma.

EKG da *Q-T intervali qisqaradi*; qorincha kompleksida S-T segmentini izoelektrik chiziqdandan pasayishi kuzatiladi. T - tishchasini kichrayishi, yoki silliqlanishi kuzatiladi.

Yurak yetishmovchiligidagi, yurak glikozidlari yurakni minutlik va zarbdor xajmini ko'rinarli darajada oshiradi. Eng asosiysi yurak ishini kislorodga bo'lgan talabini oshirmsandan turib yaxshilaydi (vaqt birligida).



Eslatma. Dobutamin va dobutaminni tuzilishi 4-bo'limga qarang.

Yurak glikozidlarni kardiotonik ta'sir mexanizmi kardiomiosit membranalaridagi Na^+, K^+ -ATF-az ani ingibirlashi bilan bog'liq. (14.2-rasm). Buni natijasida Na^+ i K^+ ionlarini yo'nalishi o'zgaradi. Natijada kardiomiositlarni membranasi ichida K^+ kamayadi, Na^+ oshadi. Bunda hujayra ichidagi va tashqarisidagi Na^+ konsentrasiyasi kamayadi, membranalararo $\text{Na}^+/\text{Ca}^{2+}$ almashinuvini kamaytiradi. Ca^{2+} ni intensiv chiqishini kamatiradi, shuning natijasida sarkoplazmatik retikulumda Ca^{2+} miqdori oshib ketadi. Buning natijasida

kardiomiositlarga qo'shimcha Ca^{2+} ionlarini kirishi, kalsiy L- kanallari orqali kirishini oshiradi. Natijada sarkoplazmatik retikulumdan qo'shimcha Ca^{2+} ni ajralishi oshadi. Bunda Ca^{2+} ionlari erkin holda oshib, kardiotonik ta'sirni ta'minlab beradi. a-v – yurak glikozidlarini ta'sir qilish bosqichlari: minus – falajlovchi ta'siri; (\uparrow) – ionlar miqdorini oshishi; (\downarrow) – ionlar miqdorining kamayishi.

Ca^{2+} ionlari troponin kompleksi bilan birikib, miokardni qisqartiruvchi oqsil ta'sirini yo'qotadi. Aktin bilan miozin bog'lanib miokardni tez va kuchli qisqarishi yuzaga keladi (14.2-rasmga qarang).

Muhim tomoni shundaki, yurakni urish ritmini pasayishi hisobiga yurakni ishi oshadi (mansiy xronotorop ta'sir) va diastola uzayishi kuzatiladi. Bu yurakni samarali ishlashiga olib keladi: kuchli sistolik qisqarishi "dam olish" davri bilan almashib turadi (diastola), miokarda energetik manbani tiklanishiga olib keladi. Yurak qisqarishlar sonini kamayishi kardio-kardial refleks bilan bog'liq. Yurak glikozidlari ta'sirida yurak sezuvchan nervlari oxirini qo'zg'atib reflektor yo'l bilan adashgan nerv orqali bradikardiya chaqiradi.


Kuchli sistola vaqtida qon yurakdan chiqib, sinoortal sohasidagi mexanoreseptorlarni qo'zg'atishi natijasida, qon bosimini oshiradi. EKG da R-R tishlari oralig'i uzayadi.

Bundan tashqari yurak glikozidlari yurak o'tkazuvchan sistemasiga to'g'ridan – to'g'ri ta'sir ko'rsatib, o'tkazuvchanlikni pasaytiradi va adashgan nerv tonusini oshiradi, qo'zg'aluvechanlikni pasaytiradi (mansiy dromotrop ta'sir). Bo'l macha-qorincha (atrioventrikulyar) tugunida, refrakter davri va qorincha-bo'l macha tutamii (Gis tutamida) uzayadi. R-Q intervali anchaga uzayadi. Yurak glikozidlari toksik dozada bo'l macha – qorincha blokini hosil qiladi.

Grekcha so'z. *chronos* - vaqt.

¹ Grekcha so'z *dromos* - yo'l.

² Yuqori miqdorda yurak glikozidlari yurak avtomatizmini oshiradi. Qo'zg'aluvchi ektopik o'choqlarni hosil bo'lishiga olib keladi, bu esa sinus tugunidan impulslarni tarqalishiga bog'liq bo'l magan yuz beradi. Natijada, aritmiya (ko'proq ekstrasistoliya) hosil bo'ladi.



14.2.Rasm. Yurak glikozidlarini taxminiy kardiotonik ta'sir mexanizmi.

Kichik miqdorlarda yurak glikozidlarini laborator hayvonlarga yuborilgan

miokard qisqaruvechanligini oshiradi (musbat batmatrop ta'sir). Bu miokard qo'zg'aluvchanligi bo'sag'asining pasayishiga javoban kelayotgan qisqarishi hisobiga. Yuqori miqdorda yurak glikozidlari yurak mushaklari qo'zg'aluvchanligini pasaytiradi.

Suunday qilib, qo'zg'aluvchanlik va avtomatizm-ikki xil parametr bo'lib, yurak glikozidlari ta'sirida o'zgaradi. Avtomatizm va qo'zhaluvchanlikni o'zgarishi lo'g'ridan-to'g'ri yurak glikozidlarni miokardgako'rsatadigan ta'siri.

Yurak yetishmovchiligidagi yurak glikozidlari ta'sirida yurakni minutlik hajmini oshishi, umumiy qon aylanishiga ijobjiy ta'si ko'rsatadi (14.2 jadval). Yurak dekompensasiyasida, yurak glikodidlarning asosiy ta'siri.

Jadval 14.2. Yurak yetishmovchiligidagi yurak glikozidlarni ta'sirlari

| Parametr va vazifalari | Yurak yetishmovchiligidagi yurak-qon tomir tizimidagi | Yurak yetishmovchiligidagi yurak glikozidlarni ta'sirlari |
|---|--|---|
| Yurak faoliyatidagi o'zgarishlar | | |
| Sistola | Susayadi | Kuchayadi va qisqaradi |
| Diastola | Qisqaradi | Uzayadi |
| Yurak razmeri | Kattalashadi | Normaga yaqinlashadi |
| Zarbalij hajmi | Kamayadi | Kuchayadi |
| Minutlik hajmi (yurak zarbi) | Ko'payadi | Kamayadi |
| | Tezlashgan | Susagan |
| Qon aylanishidagi o'zgarishlar | | |
| Venoz qon bosimi | Oshadi | Normaga yaqinlashadi (pasayadi) |
| Arterial qon bosimi | Ba'zan pasayadi | Normaga yaqinlashadi (oshadi) |
| Yurakni qon bilan ta'minlanishi | Yetishmovchiligi | Normaga yaqinlashadi |
| A'zolar va to'qimalarning qon bilan ta'minlanishining o'zgarishi | | |
| To'qimalarda ekstrasellyulyar suyuqlik Siydik ajralishi Ba'zi ichki organlarning funksiyasi (jigar, orshqozon ichak trakti va b.) | Shishlar Kamayadi (oligouriya) Buziladi (venoz dimlanish hisobiga) | Shishlar yuqolishi Normaga yaqinlashadi (oshadi) Normaga yaqinlashadi |

¹ Ot grech. *Oligos*-kichik, *iron*-*peshob*

² Ot grech. *bathmos* – bo'sag'a.

Venoz bosimini kamayishi bilan bog'liq. Natijada, venoz bosimi kamayib shishlar asta sekin yo'qoladi. Venoz dimlanishni kamayishi hisobiga, yurak ritmi reflektor tezlashadi. (Beynbridja refleksi). Arterial qon bosimi o'zgarmaydi yoki oshadi (agarda pasaygan bo'lsa). Umumiy qon-tomirlar pereferik qarshiligi pasayyadi, qon bilan ta'minlanish yaxshilanib, to'qimalarda kislorod bilan ta'minlanish yahshilanadi. Ichki organlar faoliyati buzilgan bulsa (jigar, me'da ichak trakti va b.) tiklanadi. Yurak glikozidlarni qon bilan ta'minlanishini yahshilaydi, umumiy gemodinamikani yahshilanishi hisobiga (angishvona gul dorilarini yuqori miqdorda yuborilganda toj tomirlarni qisqartiruvchi ta'siri bilinar bilinmas darajada aniqlangan)

Yurak glikozidlari umumiy gemodinamikani yaxshilab – siyidik ajralishini yaxshilaydi. Diurez kuchayadi. Angishvonagul preparatlari va strosantin bo'yurakga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilib, natriy ionlarining qayta so'riliishi tusqinlik qiladi. Bu ikkinchi darajali ahamiyatga ega.

Diurezning kuchayishi organizmda tuplangan suyuqliklarni chiqib ketishiga sharoit yaratadi. Bu ta'sirlarning natijasida qon aylanishi engillashib, umumiy qon xajmi kamayib, yurakga keladigan qon hajmi kamayadi va yurakning ishi engillashadi. Bundan tashqari, to'qimalarda shishlar kamayadi yoki butunlay yo'qoladi.

Hozirgi davrgacha yurak glikozidlarining umumiy xususiyatlari haqida so'z bordi. Har xil moddalar o'zlarining alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu ularning faolligiga ta'sirining tezligiga, davomiligiga hamda dori moddasining farmakokinetikasiga bog'liq.

Yurak glikozidlarining faolligiga qarab farqlanadi. Dori moddasini faolligini aniqlashda ularning va boshqa maxsulotiga (galen, novogalen va b.) biologik standartizasiya qo'llaniladi. Bu holatda yurak glikozidlarning faoliigini aniqlashda baqa ta'sir birligi qo'llaniladi LED¹ (Baqalar ta'sir birligi).

Quyida yurak glikozidlari tarkibidagi o'simliklar va ularning faolligi berilgan.

Dorivor o'simliklar

1 g angishvonagul bargi saqlaydi 50-66 LED

1 g adonis o'ti saqlaydi 50-66 LED

1 g marvaridgul o'ti saqlaydi 120 LED

1 g strosfant urug'i saqlaydi 2000 LED

Individual glikozidlari

1 g digitoksin saqlaydi 8000-10 000 LED

1 g selanid saqlaydi 14 000-16 000 LED

1 g konvaliyatoksin saqlaydi 63 000-80 000 LED

1 g strosfantis K saqlaydi 44 000-56 000 LED

Shunday qilib, strosfantis K va konvaliyatoksin biologik faolligi digitoksin va selanidga qaranganda yuqori hisoblanadi.

Klinikada yurak glikozidlari faolligiga qarab ularni vena ichiga yuborilganida ta'siri ko'rindi.

Yurak glikozidlarning farqlanishi latent davrning davomiyligiga va ta'sir qilish tezligiga qarab farqlanadi.

Vena orqali yuboriganda strosfantis va konvaliyatoksin yurakka 5-10 minutdan keyin ,selanit esa 5-30 minutdan keyin ta'sir qila boshlaydi.

YAHB (Yashirin harakat birligi) ko'pgina tajriba qurbaqalarida sistola vaqtida yurak urishni o'xtatadigan standart preparatning minimal dozasiga bog'liq. Undan tashqari mushuklar va kaptarlarning harakat birligidan ham foydalaniadi. MHB (Mushuklar harakat birligi) KHB (Kabutarlar Harakat Birligi)

Lotinchada : latent-yashirin

30 daqiqadan keyin rivojlanadi, digitoksin qabul qilgandan so'ng taxminan 2 soatda. (Jadval 14.3)

Bir xil ta'sir doirasiga ega bo'lgan moddalarni organizimga 1 xil usulda yuborilsa (vena ichiga), asosan strosfantis va konvaliyatoksinning maksimal effekti darhol bilinadi (30-min-1.5 soatda). undan keyin selanid va digoksin (1-5 soat) keyin digitoksin(4-12 soat). Kardiotrop effektaing rivojlanish tezligi bo'yicha

yurak glikozidlarini quydag'i qatorda keltirish mumkin: strosantin = konvallyatoksin>selanid>digoksin>digitoksin.

Yurak glikozidlarning kordiotonik ta'sirining davomiyligi ularning organizimda inaktivasiyasining tezligi, plazma oqsillari bilan bog'lanishi va yuborish tezligi bilan aniqlanadi (14.3-jadvalga qarang).

Strosanta, angishvonagul va marvaridgul preparatlari odatda kun davomida yoki undan ko'proq vaqt davomida yuboriladi. Asosan davomli ta'siri angishvenagul glikozidi bo'lgan purpurdegitoksin (elimenasiysi 2-3 hafta) ko'rsatadi.

O'rtacha ta'sini angishvonagul glikozidlaridan digoksin vaselanid ko'rsatadi.(chiqarilish vaqt 3-6 kun)

Yurak glikozidlarning asosiy xarakteristikasi bo'lib, ularning kumulyasiya qilish qobiliyati hisoblanadi. Yurak glikozidlari qancha davomli ta'sir qilsa, ular shuncha ko'p kumulyasiyalanadi.

So'z kumulyasiya haqida borganda, bunda asosan, moddalar organizimda to'planadi.

Asosan yaqqol ifodalangan kumulyasiya digitoksinlarda ko'rindi. (Gap moddiy kumulyasiya xaqida borvotti, aniqroq aytganda moddaning organizimda to'planishi.) Bu inaktivasiya jarayonining sekin kechishi va digitoksinning organizimdan chiqarilishiga bog'liq ($t_{1/2} \sim 160$ soat).

Digoksin va selanid kam kumulyasiya buladi. (Digoksin bilan Selanid nishbatan kamroq kumulyasiyaga uchraydi.)

Taxminan strafantinning yuborilgan 7/8 dozasi birinchi 24 soat davomida chiqariladi, shuning uchun ham uning qabul qilinishida kumulyasiya kam bosqichda ifodalangan bo'ladi.

14.3. Yurak glikozidlari naperstyanka va strofantani taqqoslash xarakteristikasi)

| | Ichak orgali so'rilihi | Latent Davr | | Maksimal Effekt rivojlanish tezligi | | Yuborilish tezligi | | | Kumulya siyaning namoyon bo'lishi |
|------------|------------------------------|---------------------------|--------------------------------------|---|-------------------------------------|----------------------|------------------------------------|---------------------------------------|--|
| Preparat | | Ichga yuboril ganda | Vena orgali jo' natilgan da | Ichga yuborilg anda | Vena orgali jo'natilga nda | 24 s. Ichida % | Qon plazmas idagi miqdori | To'liq chiqarib tashlani shi | |
| Digitoksin | 90-100 | 2 ch. | 30-90 Min | 12 ch. | 4-12 ch. | 7-10 | 8-9 kun | 2-3 Hafta | ++++ |
| Digoksin | 50-80 | 30 min - 2ch. | 5-30 Min | 6-8ch. | 1-5 ch. | 20-30 | 34- ch. | 2-7 kun | +++ |
| Strofantin | 2-5 | Qo'llani Imaydi | 5-10 Min | Qo'llanil maydi | 30 - 90 Min | 85 - 90 | 8 ch. | 1-3 kun | + |

¹ Bu novogalen moddasi korglikongayam tegishli, uni ta'siri asosida konvallyatoksin etadi.

Bu novogalen modda bo'lgan korglikonga ham bog'liq, bularning biri konvallyatoksin hisoblanadi. Ta'sir davomiyligi bo'yicha quydagi tartibda joylashtiriladi. Digitoksin>digoksin>selanid>strofantin. Angishvonagul va landish preparatlari strofantinga nisbatan kam kumulyasiya qiladi. Yurak glikozidlari preparatlari oshqozon-ichak traktidan bir xilda so'rilmaydi. Liposif bo'lgan digitoksin (90- 95%) va digoksin (50-80%), o'rtacha selanid(20-40%). Juda yomon so'rildigan va qisman o'zgarishga uchraydiganiga strofantin(2-5%) kiradi. Ladesh glikozidlari hazm traktida ma'lum bir miqdorda o'zgarishga uchraydi. SHuning uchun ham asosan angishvonagul preparatlarini (digoksin) qo'llash maqsadga muvofiqdir. Baxorgi adonis preparatlari ham ichga qabul qilinadi.

Yurak glikozidlari so'rildandan so'ng turli xil organlar va to'qimalarda har xil tarqaladi. Yuborilgan dozani 1% ga yaqini yurakda aniqlanadi. Shunga ko'ra yurak glikozidlarining asosiy yo'nalgan ta'siri bu guruh dorivor moddalariga yurak to'qimalarining yuqori sezuvchanligi bilan tushuntiriladi.

Yuborilgan glikozidlarning bir qismi plazmadagi Albumin bilan bog'lanadi (masalan digoksin 30-35%, strofantin 5%).

Yurak glikozidlari asosan jigarda biotransformasiyaga uchraydi. Kimyoviy

o'zgarishlarga uchrashining asosiy prinsiplari shundan iboratki. bunda shakar molekulalari glikonlardan shakar bo'lмаган qism aglikon ta'sir qiladi. Undan tashqari ularning gidroksillanishi va qisman konyugatlar hosil bo'lishi kuzatiladi.

Yurak glikozidlari va ularning maxsulotlari asosan buyraklar orqali hamda o't orqali ajraladi. Buyraklar patalogiyasida yurak glikozidlarning ta'sir davomiyligi oshadi.

Digitoksin metabolitlar va konyugatlar ko'rinishida ajratiladi. Digoksinning faqat ko'p bo'lмаган qismi kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi. Strofantin o'zgarmagan holda ajratiladi.

Yurak glikozidlari asosan o'tkir va surinkali yurak yetishmovchiligidagi qo'llaniladi. O'tkir yurak yetishmovchiligidagi yurak glikozidlarni qisqa latent davri bilan yuboriladi (strofantin, korglikon). Surunkali yurak yetishmovchiligidagi asosiy preparat bo'lib digoksin hisoblanadi. Ba'zida glikozidlarni yurak aritmialarda ham buyiriladi (hilpillowchi aritmiya, paroksizmal taxikardiyada).

Ko'rsatilgan aritmialarda glikozidlarning ta'siri adashgan nervning tonusini oshishi va yurakning o'tkazuvchi sestemasida qo'zg'alishlarning kamayishi bilan bog'liq bo'ladi (14.2-jadvalga qarang).

Yurak glikozidlari kopincha ichishga (angishvona gul, marvarid gul preparatlari), vena ichiga (strofantin, digoksin, silanit, korglekon). Ba'zida mushak orasiga va rektal yo'l bilan yuboriladi. Teri ostiga ineksiya qilish maqsadga muvosif emas chunki ular turli xil reaksiyalar-yuborilgan sohada qizarish va absesslarga sabab bo'lishi mumkin.

Yurak glikozidlarni qabul qilishga qarshi ko'rsatmalarga: to'liq bo'lмаган bo'l macha-qorincha bloki, yaqqol bradikardiya o'tkiri nfektion miokardit kiradi. Ehtiyyotkorlik bilan yurak glikozidlarni gipokolemiya holatida kaly bilan qo'llash kerak. Bu qon zardobida kalsiy ionlarining ko'p miqdorda saqlanishini, yurak glikozidlariiga miokard sezuvchanligining oshib ketishi bilan bog'liq bo'lib, bunga bog'liq holda ushba preparatlarning toksik ta'siri oshib ketishi mumkin. Analogik shakilda yurak glikozidlarning o'zgarishi kaly ionlarining miqdori kamayib ketganda kuzatiladi.

Toksik holatlar yurak glikozidlaring dozasi oshirib yuborilgan xolarda kuzatiladi. Ko'p hollarda bu yaqqol kumlyasiyaga ega bo'lga angishvona gul preparatlari qo'llanilganda kuzatiladi. Angishvona gul preparatlari tufayli kelib chiqqan intoksikasiya kordial va ekstrakordial uzilishlar bilan kechadi. Bunda turli xil aritmiyalar, bo'lakli umumiylar bo'lmacha-qorincha bloke rivojlanadi. Ko'p hollarda o'lim sababchisi-qorinchalar hilpillashi hisoblanadi.

Boshqa sistemalar tomonidan ko'rishning pasayishi (rang ko'rinishini ham), holsizlik, mushaklar holsizligi, despeptik o'zgarishlar (ko'ngil aynishi, qayt qilish, diarealar), psixik buzulishlar (qo'zg'alishlar galyusinasiyalar), bosh og'rig'i teri toshmalari kuzatiladi.

Digitalis o'ti preparatlari va boshka yurak glikozidlardan zaharlanishni davolash birinchi navbatda yurak vazifalaridagi yomon uzgarishlarni yukatishga karatilgan. Bu preparatlarni bekor qilganda yoki miqdorini kamaytirganda, ularning fiziologik antagonistlari ishlatiladi. Yurak glikozidlari kardiomiositlarda kaliy ionlarining miqdorini kamaytirishini hisobga olgan holda, kaliy preparatlarini qo'llash tavsiya etiladi (kaliy xlorid, kaliy normin va b.). Ularni ichishga yoki vena ichiga shunday etiladi (kaliy xlorid, kaliy normin va b.). Ularni ichishga yoki vena ichiga shunday miqdorda yuboriladiki, qon zardobidagi odatdagagi kaliyning miqdoridan oshib ketmasligi uchun. Kaliy preparatlari glikozidlarning yurakka toksik ta'sirini ogohlantirish uchun, asosan yurak qisqarish ritmining buzilishlarida qo'llaniladi. Xuddi shu maqsadda magniy preparatlari buyuriladi (magniy orotat), shuningdek, panangin (u o'z tarkibida kaliy asparaginat va magniy asparaginat saqlaydi) va unga tarkibi buyicha analog bulgan tabletkalari "Asparkam". Shuningdek, panangin va asparkam vena ichiga yuborish uchun ampulalarda ham ishlab chiqariladi. Shuni asparkam venasiga yuborish uchun ampulalarda ham ishlab chiqariladi. Shuni hisobga olish kerakki, qonda kaliy ionlari konsentrasiyasini kamaytiruvchi moddalar (siyidik haydovchilar, kortikosteroidlar) yurak glikozidlarning kardiotoksik ta'sirini yuzaga chiqaradi.

Aritmiyalarda aritmiyalarga qarshi ta'sir kursatuvchi disenin, lidokain, amiodaronlar ishlatiladi. Yurakoldi-qorincha blokida adashgan nervni yurakka ta'sirini chetlatish uchun atropin buyuriladi. Yurak glikozidlarning intoksikasiyalarida monoklonal antitelolarni ham

qo'llash mumkin. Chunki digoksin antidoti bo'lgan Digoxinimmunesab (Digibindi) preparati ham shulardan biri.

Bazi o'zining molekulasida sulfgidril guruhini tutuvchi unitiol ham yurak glikozidlari intoksikasiyalarida musbat samaraga egadirlar. Miokard hujayrasini yurak glikozidlari ingibirlanishi transport ATPazani reaktivlanishi sabab buladi. Birok uni kamdan-kam qo'llaniladi.

Yurak glikozidlari ta'sirini amalga oshishida kalsiy ionlarining roli kattaligi sababli kon zardobida kalsiy ionlarini miqdorini kamaytiruvechi yoki ularni boglovchi preparatlarni qo'llash tavsiya etiladi. Bu xususiyatga etilendiamintetrasirka kislotanin dinatriyli tuzi ega (EDTA dinatriyli tuzi, edetat dinatriy, trilon B) va shuningdek, sitratlar ham.

Yurak glikozidlari tufayli kelib chikadigan aritmiyalarda EDTA dinatriyli tuzi vena ichiga yuboriladi. Ammo uning ta'siri katta darajada sezilmaydi va davomli emas, shuning uchun uni kamdan-kam qo'llaniladi.

¹*Digitalis o'ti preparatlarni qo'llaganda asosan quşish markazini qo'zgalishidan va qisman-ovqat hazi qilish sistemasidagi shilliq qavatlarni qitiklashi natijasida ko'ngil aynishi ,quşish kuzatiladi*

²*Pananginda kaliy ionlari (0,158g kaliy asparaginat 1 tab.) miqdorini hisobga olgan holda va Asparkam (0,175g kaliy 1 tab.) tabletkalari ham odatdagagi dozada yurak glikozidlarning toksik ta'sirini bartaraf etishga yetarli emas. Kaliy-normin 1 tabletkasi 1g kaliy xlorid saqlaydi.*

Adrenomimeiklar, dosamin, metilksantinlar, glyukagon ham yurakni stimullovchi xususiyatga ega. Lekin ularning yurak-qon tomir sistemasiga ko'pgina nojoya effektlari bor (taxikardiya, aritmiya) bu esa kardiotonik sisatidagi ta'sirini kamaytiradi. Boshqacha mexanizmda ta'sir qiladigan moddalar ham kashf qilindi (masalan, kardiomiositlarning Ca²⁺ sezuvchanligini stimullaydigan). Noglikozid moddalar kardiomiositlarga ta'sir qilish mexanizmi bo'yicha quyidagi moddalar kardiomiositlardagi SAMF va Ca ionlarini oshiradi.

I.V.adrenoreseptorlarni stimullaydigan moddalar - Dofamin va Dobutamin

2. Fosfodiesterazani ingibitorlari – Amrinon, Milrinon, Dofamin va Dobutamin kardiotonik ta'siri ular yurakdagagi adrenoreseptorlarga ta'siri bilan bog'liq. Bunda adenilatsiklaza aktivlanadi, bu esa kardiomiositlardagi sAMFni oshishiga va Ca ionlari konsentrasiyasining oshishiga olib keladi. Oxir-oqibatda yurakning qisqarish kuchi oshib boradi.

Dofamin (dopmin) dofaminoreseptorlarga ta'sir qiladi, hamda α va β -reseptorlarni ketma-ket stimullaydi, noradrenalinning oldingi mahsulotini hisoblanadi. O'rtacha terapevtik dozada dofamin ijobjiy inotrop ta'sir ko'rsatadi (yurakdagagi V_I reseptorlarni qo'zg'atadi), buyrak va mezenterial qon tomirlarni kengaytiradi (silliq mushaklarga ta'sir qiladi). Dofamin kardiogen shokda qo'llaniladi. Bu preparat taxikardiya, aritmiya periferik qon tomirlarni qarshiligini va yurak ishini oshirishi mumkin.

Dofamin, Dobutamin - V_I adrenomimetik hisoblanadi ko'proq tanlab ta'sir ko'rsatadi. U kardiotonik ta'siri bilan ajralib turadi. Dobutamin yurakning dekompensasiya holatida qisqa muddat stimullovchi ta'sir ko'rsatadi.

Dobutamin taxikardiya, aritmiya, gipertensiya va boshqa nojoya ta'sirlarni keltirib chiqaradi.

Dofamin va Dobutamin vena ichiga yuboriladi.

Oxirgi yillarda taxikardiya, aritmiya chaqirmaydigan, arterial bosimni o'zgartirmaydigan sintetik kardiotonik moddalar bo'yicha chuqr izlanishlar olib borilmoxda. Moddalarning inontrop ta'siri va toj arteriyalarida qonning aylanishini yaxshilashi, yurakni kislorodga bo'lgan extiyojini oshishi bilan mos ravishda kashfi qilinmoda. Shu talablarni qoniqtirgan holda Amrinon va Milrinon kashf qilindi.

Moddalar fosfodiesteraza III ni ingibirlash hisobiga sAMF ni oshiradi, sAMF inaktivatsiya prosessini bloklaydi. sAMF ni yig'ilishi Ca ionlarini konsentrasiyasini oshishiga olib keladi, bu esa ijobjiy inontrop ta'sirga sabab bo'ladi. Shunday qilib bu moddalar mexanizmi bo'yicha yurak glikozidlari va katekolaminlardan ajralib turadi.

Amrinon- (bispiperidin unumi) miokardni qisqarish aktivligini oshiradi va vazodilatatsiya chaqiradi. Hozirgi kunda bu moddani qisqa muddatli ta'sirda (vena ichiga) yurakning o'tkir yetishmovchiligidagi qo'llaniladi.

Strukturasi va ta'siri bo'yicha analogi milrinon hisoblanadi.

Noglikozid kardiotonik prepatlar. shu bilan birga miofibrillalarni Ca ionlariga sezuvchanligini oshirish xususiyatiga ega.

Bu guruhning birinchi nomzodi va sintetik birikmasi bo'lib *Levosimendan* (simdaks-piridazinondinitrilning unumi) kiradi. Mexanizmi bo'yicha bu modda yurak miofibrillalarining Ca ionlariga sensibilizatsiyasini yakunlaydi. shartli ravishda bu modda troponin C ni bog'laydi. Bu esa miokardni kislorodga extiyojini oshirmagan holda, yurakni qisqarish kuchini oshirishiga olib keladi. Bundan tashqari, *levosimendan* toj tomirlarni va boshqa qon tomirlarini kengaytiradi. Bu qon tomirlar silliq muskullida K_{ATP}-ionlarini aktivlaydi. Bu preparat endotelin-1 ni ajralishiga ko'maklashishihaqida ma'lumotlar ham bor. Yuqori konsentrasiyada u fosfodiesteraza III ni ingibirlaydi. *Levosimendan*ning tomirlarni kengaytiruvchi ta'siri yurakning nagruzkadan oldingi va keyingi holatida toj tomirlarida qon aylanishini yaxshilanishiga, umumiy periferik qon tomirlarni qarshiligini kamayishiga, yirik tomirlardagi va o'pka arteriyalaridagi bosimni pasayishiga olib keladi. Bularning hammasi yurak yetishmovchiligidagi uning ish faoliyatini yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Terapevtik dozada qo'llanilganda odatda, aritmik xususiyati sezilmadi.

Organizmda *levosimendan* to'liq metabolizmga uchraydi. Moddaning 5% ga yaqini aktiv metabolitga aylanadi. 97-98% iqondagi plazma oqsillari bilan bog'lanadi. Bir soat ichida tezda eliminasiya bo'ladi.

14.2. YURAK RITMI BUZILGANDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARI

Miokardning ritmi faolligi yurak ritmi va o'tkazish tizimi holati, miokard bioximizmi, uning qon ta'minoti va boshqa omillarga bog'liq. Shuningdek, neyrogen va gumoral ekstrakardial ta'sir ham muhim ahamiyatga ega. Bu murakkab tizimning alohida bo'g'inlaridagi buzilishlar yurak ritmining patologik o'zgarishlariga olib

kelishi mumkin.

Yurak aritmiasining sabablari ko'p. Ular miokard ishemiyasi, yurak porogi, elektrolit buzilishlar, kislota asos holati o'zgarishi, kimyoviy moddalar intoksikasiyasi, yurak innervasiyasi buzilishi, endokrin va yuqumli kasalliklar bilan bog'liq.

Yurak qisqarishi ritmining buzilishi avtomatizm va yurakning o'tkazish tizimi hamda mushak kataklari o'tkazuvchanligi o'zgarishi bilan asoslanadi (rasm. 14.3).

Avtomatizmning patologik o'zgarishlari ritmning fiziologik darajasidagi impulslar generasiyasi buzilishi yoki ritmning ektopik urishi paydo bo'lishi bilan bog'liq (sinoatrial tugun va sinus bo'lmachali tugun asosiy hisoblanadi). Ritmning ektopik urishi va razryadlar chastotasining ko'tarilishi elektrofiziologik tarzda diastolik depolyarizasiya tezligini oshishi, tineh membrana salohiyati pasayishi, faoliyat salohiyati pasayishi bilan bog'liq (rasm 14.4.), membrana tinchlik potensialini pasayishi (maksimal diastolik potensial; elektromansiy potensial hosil bo'ladi) va bo'sag'a potensialini kamayishi (bo'sag'a elektromansiy tomonga suriladi). Ko'rsatilgan o'zgarishlar aritmiya rivojlanishiga xos bo'ladi.

O'tkazuvchanlikning buzilishi yurakning o'tkazish tizimidagi o'tkazish blokining turli darajalarida namoyon bo'ladi. O'tkazuvchanlik to'g'rasmida faoliyat salohiyati amplitudasi o'sish tezligi bo'yicha sifr bildirish mumkin (faza 0). O'tkazuvchanlik pasayganda sistologik depolyarizasiya tezligi - faza 0 (V_{max}) - kamayadi (harakat potensiali ta'siri maksimal miqdorda erishiladi). EKG da yurak bo'lmasi tugunidagi o'tkazuvchanlik buzilishi *P-R* oraliq oshishi, qorinchalar ichi davomiyligi - *QRST*. Funksional blok bir tomonlama bo'lishi mumkin (rasm. 14.5).

bunday holatda aritmiya qayta kirish mexanizmi bo'yicha rivojlanadi (yoki qaytar qo'zg'алиш). Shunday yo'l bilan yurak bo'lmasi va qorinchalar aritmiasini paydo bo'lishi mumkin.


Aritmiya rivojlanishi uchun samarali refrakter davr miqdori muhim ahamiyatga ega². U kamayganda ekstrasistola va ko'plab xususiy stimullar ko'tariladi.

Yurakning o'tkazuvchan sistemasi. Ko'rsatkichlar oldingiday 0-4 xuddi

¹ Ingliz tili adabiyotlarigda bu tipdag'i aritmialar *reentry arrhythmias* deb


bilishadi (angl. soz *reentry* – qayta kirish).

Samarali refrakter davri ikkita stimul orasidagi minimal vaqt intervali bilan xarakterlanadi, qo'zg'alishlar tarqalishini chaqiradigan (harakat potensiali).



Rasm. 14.4. Sun'iy chaqirilgan automatizmda xinidin sulfatni ajratilgan Purkinje tolasini harakat potensialiga ta'siri (sxema).

SRD - samarali refrakter davri: 0-4 - harakat potensial fazalari; 0 -tez depolyarizasiya; 1-3 - repolyarizasiya fazalari; 4 - sekin (diastolik) depolyarizasiya.



Rasm. 14.5. Qayta kirish mexanizmi bo'yicha aritmiyani hosil bo'lishi (b), davolash prinsiplari (v, g).

Repolyarizasiya fazasining qisqarishiga (fazalar 2 va 3) va harakat potensialini davomiyligiga mos ravishda. EKG da *Q-T* oraliq kamayishi kuzatiladi. Ammo shuni hisobga olish kerakki yurak qisqarishi ritmi buzilishi nafaqat bevosita

miokard va o'tkazuvchi tizim funksional holati balki yurakning adrenergik va xolinergik innervasiyasi o'zgarishi bilan ham bog'liq (jadval. 14.4).

Jadval 14.4. Aritmiyaga qarshi moddalarning ta'sir qilish yo'nalishi

| Guruh, modda | Ion kanallari | | | reseptorlar | |
|---|-----------------|------------------|----------------|-------------|------|
| | Na ⁺ | Ca ²⁺ | K ⁺ | β-AR | M-XR |
| Natriy kanallarini blokatorlari | | | | | |
| Xinidin | | | | | |
| Novokdiamid | | | | | |
| Dizopiramid | | | | | |
| Lidokain | | | | | |
| Flekainid | | | | | |
| Propafenon | | | | | |
| Etmozin | | | | | |
| Kaliy kanallari blokatorlari (venestva, prolongiruyu div repolyarnzapit) | | | | | |
| Amiodaron | | | | | |
| Kalsiy kanallari blokatorlari (L-tipa) | | | | | |
| Verapamil | | | | | |
| Diltiazem | | | | | |
| β- adrenoblokatorlar | | | | | |
| Apaprilin | | | | | |

Eslatma. AR - adrenoreseptorlar; XR - xolinoreseptorlar; q.a. - qisman agonist. Plyuslar soni salajlovchi faoliyini ko'rsatadi.

Yurak adrenoreseptorlarining neyrogen qo'zg'alishi diastolik depolyarizasiyani tezlashtiradi (faza 4), ritm tezlashishiga olib keladi. Sinussimon yurak bo'lmasi va yurak bo'lmasi-oshqozon uzelidagi o'tkazuvchanlik yaxshilanadi. Repolyarizasiya va ta'sir salohiyati davomiyligi qisqaradi. Qondagi aylanuvchi katekolaminlar bo'lishi ham mulim ahamiyatga ega, ortiqcha konsentrasiya aritmiyaga olib kelishi mumkin. Ritmnинг buzilish yurak adrenoreseptorlar sinsibilizasiyasida paydo bo'lishi mumkin (masalan, gipertireozda).

Xolinergik innervasiya (asetilxolin) ko'plab parametrlariga aks ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib sinus-yurak bo'lmasi va yurak bo'lmasi-oshqozon uzeli avtomatizmi pasayadi va yurak qisqarishi ritmi kamayadi. Yurak bo'lmasi-qorincha tugunidagi o'tkazuvchanlik yomonlashadi, uning samarali refrakter davri cho'ziladi, yurak bo'lmasi-qorincha bloki rivojlanishi mumkin. Yurak bo'lmasi hujayralarida o'tkazuvchanlik engillashadi, samarali refrakter davr qisqaradi. Sayyor nervlar qo'zg'alganda eng ko'p sinus yurak tuguni o'zgarishi aks etadi.

Suunday qilib turli xildagi aritmiya shakllanganda ham kardial ham ekstrakardial mexanizmlar ishtiroki qabul qilinadi.

Yurak qisqarishlar ritmi buzilishini oldini olish va davolashda ko'pgina dori vositalaridan foydalaniлади. Ularni asosiy yo'nalishi va ta'sir mexanizmiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

I. Kardiomiositlarda ion kanallarini falajlovchi moddalar (yurakning o'tkazuvchi sistemasi va miokard qisqaruvchanligiga qarab).

1. Natriy kanallarini falajlovchi moddalar (membranalarni mustahkamlovchi moddalar; I -guruh)

I A. Kichik guruh (xinidin va xinidinsimon moddalar):

Xinidin sulfat, Dizopiramid, Novokainamid, Aymalin.

I B: Kichik guruh: Lidokain, Difenin.

IC: Kichik guruh: Flekainid, Propafenon, Etmozin, Etasizin.

2. Kalsiy kanallarini falajlovchi moddalar L-turkumi (IV guruh): Verapamil, Diltiazem.

3. Kaliy kanallarini falajlovchi moddalar (repolyarizasiya jarayonini uzaytiruvchi moddalar va harakat potensialiga ko'ra (III guruh): Amiodaron, Ornid, Sotalol.

4. Na⁺-K⁺ kanallarini tanlab falajlovchi moddalar (I_f) sinusli tugun (V guruh: bradikardiya chaqiruvchi moddalar): Ivabradin, Falipamil, Alinidin.

II. Asosan yurak efferent innervasiysi reseptorlariga ta'sir etuvchi moddalar.

Adrenergik ta'simi pasaytiruvchi moddalar (II guruh)

β-Adrenoblokatorlar: Anaprilin va boshqalar.

Adrenergik ta'sirni oshiruvchi moddalar

β -Adrenomimetiklar: Izadrin

Simapatomimetiklar: Efedrin

Xolinergik ta'sirni pasaytiruvchi moddalar M-xolinoblokatorlar: Atropin.

III. Aritmiyaga qarshi faollikka ega boshqa vositalar.

Kaliy va magniy moddalari. Yurak glikozidi. Adenozin

Turli sifsdagi birikmalarga kiritiluvchi aritmiyaga qarshi faollikka ega kimyoiy vositalar. Farmakologik tegishliligi bo'yicha moddalarning ko'plab guruh vakillari. Xinidin, novokainamid, etmozin, etasizin va aymalim faqatgina aritmiyaga qarshi vosita sifatida foydalaniлади.

I aritmiyaga qarshi vositalarning quyidagi tasnididan ko'pincha foydalaniлади (ayniqsa, dastlabki to'rt guruhga bo'linish; . jadval. 14.5):

I gruppasi - natriy kanallari blokatorlari (kichikguruh IА - xinidin va xiniding o'xshash vositalar; kichikguruh IB- lidokainvadifenin; kichikguruh IC- flekainid, enkainid.);

II gruppasi - yurakka adrenergik ta'sir ko'rsatuvchi vositalar (v-adrenoblokatorlar);

III gruppasi - repolyarizasiya jarayoni davomiyligini oshiruvchi va ta'sir salohiyatini uzaytiruvchi vositalar (amiodaron, ornid, sotalol);

IV gruppasi - kalsiy kanallarini berkituvchi vositalar (verapamil);

V gruppasi - tanlangan bradikardik vositalar (alinidin, ivabradin);

VI gruppasi - yurak glikozidlari (digoksin, digitoksin);

VII gruppasi - supraventrikulyar taxikardiyada nervlar ta'sirini kuchaytiruvchi vositalar (mezaton, edrofoniy).

Kaliy xlorid gipokaliemiyaning barcha holatlarida tayinlanadi, ammo asosan yurak ritm buzilishida qo'llaniladi. Lidokain (ksikain) mahalliy anestetik sifatida ma'lum, anaprilin (propranolol) - β -adrenoblokator, yurak glikozidlari yurak yetishmovchiligin davolashda qo'llaniladigan dori vositalari sanaladi. Bundan tashqari quyidagilar aritmiyaga qarshi xususiyatlarga ega: epilepsiyaga qarshi

preparatlar difenin va karbamazepin; stenokardiyani davolash uchun birinchi tavsija qilingan preparatlar, verapamil (izoptin); ornid (bretiliy tozilat), simpatolitik vosita sifatida ma'lum.

Bradiaritmada va o'tkazuvchanlik buzilganda m-xolinoblokatorlar va adrenomimetiklar qo'llaniladi.

Aritmiyaga qarshi moddalar qo'llanilishi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

A. Taxiaritmada va ekstrasistoliyada qo'llaniladigan moddalar

Natriy kanallarini salajlovchi moddalar

Kalsiy kanallarini salajlovchi moddalar

Kaliy kanallarini salajlovchi moddalar

Bradikardik vositalar

β -Adrenoblokatorlar

YUrak glikozidlari (Angishvonagul moddalar)

Adenozin

Kaliy va magniy preparatlari

B. Bradiaritmada va o'tkazuvchanlik buzilganda qo'llaniladigan vositalar

M-xolinoblokatorlar

β -Adrenomimetiklar

Aritmiyaga qarshi vositalarni umumiylash aritmianing turli shakllarida ularning o'ziga xos samaradorligi va noqulay ta'sirlar chastotasidan kelib chiqadi. Barcha aritmaya qarshi vositalarda u yoki bu darajada bo'ladigan aritmogen ta'sirga katta e'tibor qaratiladi. U mayjud aritmoya davomida yomonlashishi yoki aritmianing yangi tahlili namoyon bo'lishi. Shuningdek, sinoatrial va atrioventrikulyar blokada bilan kuzatilishi mumkin. Ba'zan bu bemor hayoti uchun xavf tug'diradi, masalan polimorf oshqozon taxikardiyasi paydo bo'lganda. Aritmiyaga qarshi vositaning bemorga ta'sirini oldindan aytishning amalda imkoniy yo'q. Shuning uchun preparatni aritmogen nisbatda xavfsiz tanlash va uni dozalashdir necha kun davomida EKG uzuksiz qayd qilinganda klinikada yuritiladi.

Kardiomiositlarda ion kanallarini falajloveli vositalar (yurakning o'tkazuvchan sistemasi va miokard qisqaruvchanligi)

Bunday aritmiyaga qarshi vositalarning farmakoterapevtik ta'siri ularning avtomatizmini boshqarish, o'tkazuvchanlikka ta'sir qilishiga va samarali refrakter davrni uzaytirishga asoslangan. Bunday parametrlarning o'zgarishi reparatlarning ion kanallariga ta'siri bilan bog'liq, bundan tashqari ular yurakdagi adrenergik va xolinergik reseptorlariga ta'siri bilan to'ldirilishi mumkin (jadval. 14.4).

Yurak hujayralari avtomatizmi mazkur guruhdagi aritmiyaga qarshi vositalar ta'siri ostida pasayadi. Bu asosan diastolitik depolyarizasiya kengayishi va qo'zg'aluvchanlik oshishi bilan bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi yurakning tabiiy ritmi faollashishiga to'siq qo'yadi va qo'zg'atishning ektopik o'choqlari paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Ko'plab aritmiyaga qarshi vositalar masalan xinidin, novokainamid, o'tkazuvchanlikni kamaytiradi. Bu tezkor depolyarizasiya tezligi kamayishi (faza 0) va umuman depolyarizasiya-repolyarizasiya jarayoni sekinlashishiga olib keladi. EKG da *P-Q* oraliq cho'zilishi va qorincha majmuasi kengayishi bilan o'tkazuvchanlik pasayishi aks etadi. O'tkazuvchanlik siqilishining ijobiy ta'siri yurak bo'lmasi taxiaritmiyasida namoyon bo'ladi.

O'tkazuvchanlikni yo'qotish qobiliyatি takroriy kirish mexanizmi bo'yicha rivojlanayotgan aritmiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatda bir tomonlama blok ikki tomonlamaga o'zgaradi (rasm. 14.5).

Shuningdek, muhim parametr samarali refrakter davr hisoblanadi. Ko'plab aritmiyaga qarshi preparatlar ta'siri ostida (xinidin, xinidinga o'xshash vositalar) u oshadi. Odatda, bu ta'sir harakat potensiali davomiyligi oshishi bilan bog'liq bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, samarali refrakter davr cho'zilishi tarqatiluvchi stimul chastotasini cheklaydi. Aritmiyaga qarshi vositalardan foydalanganda ularidan ko'pehiligi miokardni qisqaruvchanligini kamaytiradi. Miokardning qisqaruvchanligini kamayishi yurakning funksional faoliyatiga, ayniqsa, yurak yetishmovchiligidagi salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aritmiyaga qarshi vositalarning karditrop ta'sirini baholashda adashgan nerv

va simpatik nervlar orqali amalga oshuvchi ekstrakardial ta'sir o'zgarishini hisobga olish mumkin emas. Ma'lumki adashgan nervlardan yurakka impulslar o'tishini pasayishi (m-xolinoblokator ta'siriga ko'ra) sinus ritmini oshiradi, yurak bo'lmacha va qorincha tugunida o'tkazuvchanlikni yaxshilaydi va uning refrakter davrini qisqartiradi. Ayniqsa, agar gap xinidin va bir qator xinidinga o'xshash moddalar to'g'risida ketsa bunda ularning vagolitik ta'siri bu moddalarning aritmiyaga qarshi ta'sirini ta'minlovchi yurakdag'i ta'sirini kuchsizlantiradi. Adrenergik innervasiyadan ion kanallarini berkituvchi guruhlaridan alohida aritmiyaga qarshi vositalarning ta'siri bunda kam aks etadi va asosan aritmiyaga qarshi ta'sir ko'rinemaydi yoki u kam bo'ladi.

Shunday qilib aritmiyaga qarshi vositalar ta'siri nafaqat ion kanallariga kardiomisitlarning bevosita ta'siri balki ularning efferent innervasiyasi o'zgarishi bilan ham bog'liq.

a) natriy kanallarini blokllovchi vositalar (membranalarni mustahkamlovchi moddalar; guruh I)

I A kichik guruhidagi aritmiyaga qarshi vositalarning eng namunaviy vakili xinidin hsioblanadi. Tibbiy amaliyotda xinidin sulfatdan foydalaniladi. Natriy kanallarini bloklab, xinidin natriyni kirishini kamaytiradi, harakat potensiali tarqalishini bloklaydi (faza 0). Xnidin yurakning barcha bo'limlariga ta'sir ko'rsatadi. Avtomatizmni yo'qolishi, repolyarizasiya davomiyligini oshishi va shunga mos tarzda samarali refrakter davrni oshishi va o'tkezuvchanlikni kamaytirib xinidinni aritmiyaga qarshi ta'siri namoyon bo'ladi, avtomatizm va o'tkazuvchanlikni buzilishiga bog'liq aritmiyalarda qo'llaniladi (jadval. 14.5). EKG da *P-R*, *QRS*, *Q-T* ning kichik kengayishi kuzatiladi.

Xinidin adashgan nervdan yurakka qo'zg'aluvchanlikni o'tishini kamaytiradi. (m-xolinolitik ta'siri tufayli) va kardiotrop va simpatik (adrenergik) ta'sirlarni birmuncha kamaytiradi. α -adrenozeptorlarni falajlovchi ta'siri tufayli periferik qon tomirlarida (birmuncha umumiyl periferik qarshilikni pasaytiradi). Xnidin miokard qisqaruvchanligini sezilarii ravishda kamaytiradi.

Xinidin odatda, ichishga qabul qilish uchun tavsiya qilinadi. U oshqozon-ichak

traktidan to'liq so'rildi. Preparat jigarda parchalanadi, uning ta'sir davomiyligi ko'p jihatdan jigar funksiyalariga bog'liq (odatda 6-8 s). O'zgarmagan xinidin (~ 20%) va uning o'zgargan mahsulotlari asosan buyrak orqali chiqariladi (jadval. 14.6). Ta'sir muddati uzaytirilgan xinidin preparatlari mavjud.

Xinidin qo'llanganda har xil nojo'ya va zaharli ta'sirlar paydo bo'lishi mumkin: qulqlarda shovqin, bosh og'rig'i, ko'rishning buzilishi. Ba'zan ich ketishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish kuzatiladi. Idiosinkraziya qayd qilinadi. Og'ir asoratlari trombositopenik purpura sanaladi. Bo'lmacha-qorinchacha va qorinchalararo blok bo'lishi mumkin, hamda toksik taxiaritmiya kuzatilishi mumkin.

Jadval 14.5. Bir qator aritmiyaga qarshi vositalarning yurak elektrofiziologik parametrlariga ta'siri

| Guruh (kichik guruh) | Yurakka ta'siri (asosiy elektrofiziologik parametrlari) |
|--|--|
| Natriy kanallarini falajlovehilar IA: xinidin, novokainamid, dizopiramid | Avtomatizmni pasaytiradi ¹ ; o'tkazuvchanlikni sekilashtiradi; repolyarizasiyani uzaytiradi va samarali refrakter davrini oshiradi Avtomatizmni pasaytiradi ¹ ; o'tkazuvchanlikka kam ta'sir qiladineznachitelno vliyayut na provodimost; repolyarizasyani tezlashtiradi. |
| IV: lidokain, difenin | Avtomatizmni pasaytiradi; o'tkazuvchanlikni deyarli pasaytiradi; repolyarizasiyagava samarali refrakter davriga kam ta'sir qiladi |
| Kalsiy kanallarini falajlovehilar (L-tipa) | Avtomatizmni pasaytiradi ² ; o'tkazuvchanlikni pasaytiradi, samarali refrakter davrini oshiradi (AV- |
| Kaliy kanallarini falajlovehilar (repolyarizasiyani uzaytiruvchi moddalar) | Avtomatizmni pasaytiradi ¹ ; o'tkazuvchanlikni sekilashtiradi; repolyarizasiyani uzaytiradi va samarali refrakter davrini oshiradi |
| V-adrenoblokatorlar Anaprilin, metoprolol | Avtomatizmni pasaytiradi ² ; o'tkazuvchanlikni pasaytiradi, samarali refrakter davrini oshiradi (AV-tugunda) |

¹ Purkine tolalariga tegishli

² Sinus tuguniga tegishli

³ Bu guruhga aralash ta'sir etuvchi etmozin (IC/IB/IA.) va etasizin (IC/IV)

⁴ Bu guruh moddasini vakili ornid (bretiliy) va aralash ta'sir etuvchi (II/III) sotalol (sotaleks).

Primechanie. AV – atrioventrikulyar; SRD – samarali refrakter davri

Gemorragik sindrom – trombositlarni kam miqdorda bo'lishi.

Jadval 14.6. Aritmiyaga qarshi moddalarni farmakokinetikasi (enteral yuborilganda).

¹Lidokain vena ichiga yuboriladi, qolgan preparatlar - *peros*.

²Vena ichiga dori modda yuborilish to'xtatilgandan keyin.

³Dori modda tez metabolizmga uchraganda.

⁴Dori modda sekin metabolizmga uchraganda.

Xinidin arterial bosimni pasaytiradi (qon-tomirlar umumiy qarshiligi pasayadi).

Agar yurak qulqichalarida tromblar kuzatilsa emboliyaga olib keladi (bo'lmachalardan titroq sinus ritmiga o'tishida).

Novokainamid (prokainamida xlorid) farmakologik xususiyati, elektrofiziologik parametrlarga ta'siri va qo'llash ko'rsatmalari bo'yicha xinidin bilan o'xshash bo'ladi. Miokard qisqaruvchanligini xinidinga nisbatan kam darajada pasaytiradi. Vagolitik faolligi xinidinga nisbatan ancha kam aks etadi (α -xolinoblokatorlik va ganglioblokatorlik ta'siri uyg'unlashadi); yurakka bo'lgan simpatik ta'simi kamaytiradi α -adrenoblokator ta'sirga ega emas. Novokainamid enteral va parenteral yuboriladi (vena ichiga, mushak ichiga), oshqozon-ichak traktidan xinidinga nisbatan tez chiqariladi. Turli bermorlarda novokainamid metabolizmi tezligi bo'yicha sekin va tezkor asetylitorlar ajratiladi. Buyraklar orqali chiqib ketadi.

Novokainamidni bermorlar odadda yaxshi ko'taradi. Xinidinga o'xshash tarzda o'tkazuvchanlikni buzilishiga olib kelishi mumkin. Aritmogen ta'sirga ko'ra xinidinga o'xshab ketadi. Ichishga qabul qilinganda xinidinga nisbatan arterial bosimni kam darajada pasaytiradi. Ammo bir qator holatlarda novokainamid ko'ngil aynishga, qayt qilish, ich ketish va sudorgiga sabab bo'lishi mumkin.

Novokainamidni parenteral yuborilganda (asosan vena ichiga) ko'plab salbiy reaksiyalar enteral yuborgandagiga ko'ra paydo bo'lishi mumkin.

Asosiy muammo novokainamidga yuqori ta'sirchanlik bo'lib, sanchiqlar, bo'g'imlar va mushaklar sohasidagi og'riqlar, terida toshmalar, kam holatda agranulositoz va qizil volchanka sindromi rivojlanishi mumkin.

Xinidin va novokainamid idisinkraziyada va yurak bo'l macha-qorincha blokida qo'llanmaydi. Yurak yetishmovchiligidagi, gipotonik holatlarda bemorlarga bu moddalar ehtiyojkorlik bilan tayinlanadi.

Aritmiyaga qarshi ta'sirga dizopiramid (ritmilen) ham ega. Xinidinga o'xshab miokardning barcha qisqartiruvchi bo'limlariga va o'tkazuvchi tizimiga ta'sir ko'rsatadi.

Ichakdan yaxshi so'rildi. Asosan buyrak orqali chiqariladi. Preparat ko'pincha qorincha aritmiyasida qo'llaniladi. Dizopiramidni buyurilganda miokardni qisqartiruvchi aktivligini hisobga olgan holda buyurish kerak. Uning salbiy xususiyatlariga m-xolinoblokatorlik faolligini kiritish mumkin, bu og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi qurishi, ko'zda akkomadasiyani o'zgarishi, siyidik ajralishining qiyinlashishiga olib keldi. Ko'ngil aynib, qayt qilish ehtimoli mavjud.

Aymalin (aritmal) – ilonsimon rauvolliya alkaloidi sanaladi. Xinidinga o'xshab yurakning asosiy funksional parametrlarini o'zgartiradi, ammo miokard qisqartiruvchanligini kam miqdorda kamaytiradi. Aymalin tizimli arterial bosimni kam miqdorda pasaytiradi, yurakda toj-tomir qon aylanishini yaxshilaydi. O'simlik xomashyosidan olinuvchi rezerpindan farqli ravishda aymalin tinchlantiruvchi va simpatolitik ta'sirga ega emas. Oshqozon-ichak traktidan yomon so'rildi, shuning uchun uni parenteral yuborish maqsadga muvofiq (mushak ichiga va vena ichiga); $t_{1/2} = 15$ s. Aymalin ekstrasistoliyada, yurak bo'lmasi paroksizmal titroq aritmiyasida qo'llaniladi. Uni odatda yaxshi ko'taradi. Ba'zan dispeptik holatlar, umumiy holsizlikni chaqiradi.

Natriy kanallarini bloklovchi vositalarga shuningdek, lidokain, meksiletin va disenin kiradi. Ammo bir qator xususiyatlariga ko'ra xinidindan farqlanadi. Ba'zi bir qator ta'sirlari bilan xinidindan birmuncha farqlanadi. Shuning uchun ularni IB

guruhiiga kiritadi.

Lidokain (ksikain, ksilokain) nafaqat mahalliy anestetik balki aritmiyaga qarshi vosita sifatida ham qo'llaniladi. Rezorbiv ta'sirida u avtomatizmga pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi (4-depolyarizasiya fazasi kamayadi). Ektopik o'choqlarda qo'zg'aluvchanlikni pasaytiruvchi xususiyatga ega. Tezkor depolyarizasiya tezligida (0 faza) u Purkine tolalariga ta'sir qilmaydi yoki kam miqdorda pasaytiradi. Xiniidindan farqli ravishda harakat potensiali davomliroq (repolyarizasiya fazasi) va samarali refrakter davrni lidokain kamaytiradi (asosan o'tkazuvchi sitemada va qorincha mushaklarida). EKG da *Q-T* oraliq qisqarishi kuzatiladi. Lidokain miokard qisqaruvchanligini o'zgartirmaydi yoki birmuncha pasaytiradi. Unda vagolitik xususiyatlar mavjud emas. Qon aylanishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Lidokain odatda vena ichiga yuboriladi

Preparat tez rivojlanuvchi va qisqa muddatli ta'sir bilan xarakterlanadi (bir marta yuborilgandan so'ng 10-20 minut davomida ta'sir ko'rsatadi). Lidokainning katta qismi jigarda parchalanadi. Jigar patologiyasi va uning qon aylanishi buzilganda preparatning metabolizmi kamayadi. Uni qo'llashga asosiy ko'rsatma qorincha aritmiyasida (ekstrasistoliya va taxikardiyada, miokard infarktida, yurakni ochiq operasiyasida, operasiyadan so'ng). Preparatni odatda yaxshi ko'taradi.

Lidokain unumlariga meksiletin kiradi va aritmiyaga qarshi vosita hisoblanadi. Lidokaindan farqli ravishda bu dori modda enteral yuborilganda samarali ta'sirga ega bo'ladi. Meksiletin ichakdan yaxshi so'rildi. Uzoq vaqt ta'sir qiladi (6-8 soat), ammo uning terapeutik kengligi katta emas. Yurak va gemodinamika tomonidan nojo'yta'sirlarni chaqirishi mumkin, shuningdek, nevrologik o'zgarishlar ham kelib chiqishi mumkin. Qorincha ekstrasistoliyasida qo'llaniladi.

Disenin (difenilgidantoin, fenitoin) epilepsiyaga qarshi vosita hisoblanadi.

Shu bilan birga unda lidokainga o'xshab aritmiyaga qarshi faollikkha ega. Preparat Purkine tolalaridagi diastolik depolyarizasiya tezligini kamaytiradi (qorincha-bo'l macha tugunida emas), va avtomatizmni pasaytiradi. Ama'da o'tkazuvchanlikka ta'sir qilmaydi. Lidokain kebi disenin samarali refrakter davriga

nisbatan harakat potensialini toraytiradi. *Q-T* oralig'ini qisqartiradi. SHunday qilib, disenin faqatgina avtomatizmni susaytirish xususiyati bo'yicha xinidin bilan o'xshash bo'ladi. Miokardni qisqaruvchi aktivligiga va qon bosimiga terapevtik dozalarda ta'sir ko'rsatmaydi. MNS ta'siri natijasida yurakni innervasiya qiladigan efferent, adrenergik totalarda impulsasiyani kamaytiradi.

Difenin oshqozon-ichak traktidan sekin so'rildi. Plazmada disenin asta-sekin kamayadi, shuning uchun kumulyasiya ehtimoli mavjud. Difenining asosiy miqdori jiga pardorishiga parchalanadi ($> 95\%$). Uning o'zgartirilgan mahsulotlari buyrakdan orqali chiqib ketadi. Difenin ichishga ba'zan vena ichiga qabul qilinadi, natriyli tuz shaklida yuboriladi.

Yurak glikozidlari bilan zaharlangandagi taxiaritmiyalarda disenin qo'llaniladi. Bunday holatlarda disenin avtomatizmni pasaytirib, ritm buzilishini bartaraf qiladi lekin, yurak glikozidlarini inotrop ta'siri saqlanib qoladi va yurak o'tkazuvchanligiga ta'sir ko'rsatmaydi. Difenin har xil turdag'i qorinchalar aritmiasida faol modda hisoblanadi.

Difenin vena ichiga qo'llanganda o'tkir nojo'ya ta'sirlar aritmija, gipotensiya kuzatiladi. Uzoq vaqt enteral yuborilganda preparat turli nojo'ya ta'sirlarni ko'rsatishi mumkin (9 bobga qarang).

I S guruhni natriy kanallarini blokatorlari flekainid, propafenonni o'z ichiga oladi. Bu guruhga aralash turdag'i ta'siriga ega preparatlar etmozin (I S/IV/IA) va etasizin (IC/IV) ni kiritish mumkin. Ularning barchasi yurak bo'limalariga ta'sir ko'rsatadi. Ular qorinchalar va qorinchalar usti taxiaritmiyasida qo'llaniladi. Ammo bu preparatlarni ehtiyojkorlik bilan qo'llash kerak, chunki ular aritmogen ta'siriga ega. Qorincha taxiaritmiyasida ularni alohida hayotiy holatlarda qo'llaniladi, boshqa aritmiyaga qarshi vositalar samarasiz bo'lganda foydalaniladi. Infarktdan keyingi davrda qorincha taxiaritmiyasini oldini olish uchun I S guruh preparatlaridan qo'llash man etiladi, chunki ular o'lim holatiga olib kelish extimoli katta.

Flekainid asetat o'tkazuvchanlikning pasayishiga olib keladi. Bu tezkor depolyarizasiya tezligi kamayishida namoyon bo'ladi (V_{max}). Shuningdek, atrioventrikulyar tugunda, Gis tutamida, Purkine tolasi va yurak larorinchalarida

o'tkazuvchanlik pasayadi. EKG da bu *P-R* va *QRS* majmuasi oshishi bilan namoyon bo'ladi.

Flekainid qorinchalarda repolyarizasiya tezligini o'zgartirmaydi. Sinoatrial tugunda avtomatizm birmuncha kamayadi. Miokard qisqaruvchanligi birmuncha pasayadi.

Preparat hazm qilish traktidan yaxshi so'rildi. Dori moddani birinchi marta yuborilganda jigarda biotransformasiyaga uchramaydi. O'zgarmagan preparat va metabolitlari buyrak orqali chiqib ketadi.

Flekainid qorinchalar va qorinchalar usti aritmiyasida qo'llaniladi. Ichiga va ba'zan vena ichiga yuboriladi. Nojo'ya ta'sirlardan bosh aylanishi, ko'rishning buzilishi, ko'ngil aynish, bosh og'riq dispnoe kuzatiladi. Aritmogen ta'siri kuchli.

Preparatni yurak bloki va kardiogen shokda qo'llash tavsiya qilinmaydi.

Shuningdek, bu guruhga propafenon (ritmonorm) ham kiradi. Natriy kanallarini bloklash bilan birga u β -adrenoblokatorlik ta'sirga ega va kalsiy kanallariga ham kam miqdorda falajlovchi ta'sir ko'rsatadi. Assosiasiya va dissosiasiya jarayonlari natriy kanallarida sekin kechadi. Preparat sinoatrial va ektopik tugunlarni avtomatizmini pasaytiradi. Atrioventikulyar tugunda, yurak bo'l machalarida, qorinchalarida, Giss va Purkine tolalari sistemasida o'tkazuvchanlikni pasaytiradi. Samarali refrakter davrni oshiradi (yurak bo'l machalarida, Giss va Purkine tolalarida, qorinchalarda). EKG da R-R oraliq va *QRS* majmuasining oshishi qayd qilinadi. Yurak yetishmovchiligi fonida yurak urishi pasayishi namoyon bo'ladi.

Preparat ichakdan yaxshi so'rildi, ammo jigar to'siplari orqali o'tganda uning katta qismi parchalanadi. Shuning uchun propafenoning biokirishuvchanligi yuqori emas va 3-40% oralig'ida o'zgaradi. Bemorlarni orasida propafenonni 90% da tez va 10% sekin metabolizmga uchraydi. Birinchi guruh uchun $T_{1/2}$ 5.5 soatga teng, ikinci guruh uchun 17.2 soatga teng. Metabolizm tezligidagi tafovutlar genetik holat bilan asoslanadi.

Propafenon asosan qorinchalar usti aritmiyasi shuningdek, qorinchalar aritmiyasida boshqa preparatlar samarasiz bo'lqanda qo'llaniladi (ichisinga va ba'zan

vena ichiga buyuriladi).

Nojo'ya ta'sirlari tez-tez kuzatiladi ($\frac{1}{2}$ - $\frac{1}{3}$ bemorlarda). Ko'ngil aynish, qayt qilish, qabziyat, holsizlik, bronxospazm va b. Kuchli aritromogen ta'sirga ega.

Propafenonni o'tkazuvchanlik buzilganda, yurak yetishmovchiligidagi kardiogen shokda qo'llash tavsiya qilinmaydi.

Bu guruhga fenotiazin unumlaridan etmozin va etasizinni kiritish mumkin. Ikkalasi aralash ta'sirga ega preparat sanaladi. Etmozin natriy kanallarini bloklovchi barcha uch guruh xususiyatlarini birlashtiradi (IC, IB, IA). Etasizin nafaqat natriy balki kalsiy kanallarini ham bloylaydi (IC, IV).

Etmozin yurak bo'l macha-qorincha tugunida, Gis tutamida va Purkine totalarida o'tkazuvchanlikni pasaytiradi. Amalda repolyarizasiya tezligini o'zgartirmaydi.

Arterial bosim va yurak qisqarishi chastotasi sezilarli oshadi. Yurak toj tomirlarida qon aylanishi biroz yaxshilanadi. Miokard qisqaruvchanligiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Hazm qilish traktidan yaxshi so'rildi. Biokirishuvchanligi 40%. Jigarda to'liq metabolizmga uchraydi. Metabolitlari buyraklar orqali chiqariladi.

Preparat qorinchalar va qorinchalar usti aritmiasida samarali ta'sir ko'rsatadi. Ammo etmozinning yuqori aritmogen ta'sirga ega bo'lgani sababli qorinchalar aritmiasida boshqa dori moddalari ta'sir qilmaganda qo'llaniladi.

Nojo'ya ta'sirlari 2-5% bemorlarda kuzatiladi. Bosh aylanishi, bosh og'rig'i, holsizlik, dispnoe, taxikardiya, parestesiya, qorin sohasidagi og'riq, mialgiya, diareya va hokazolar kuzatiladi.

Etasizin kuchli aritmiyaga qarshi ta'sirga ega. Avtomatizm va o'tkazuvchanlikni pasaytiradi. Kalsiy kanallariga bloklovchi ta'sir ko'rsatgani uchun miokardni qisqaruvchanligini kamaytiradi.

Qo'llanilishi va qo'llash man etiladigan holat etmozinga o'xshash. Nojo'ya ta'sirlari etmozinga nishbatan ko'proq kuzatiladi (bosh aylanishi, quloq shang'illashi, ko'rishni buzilishi, parestesiya va hokazo). Eng ko'p uchraydigan nojo'ya ta'sirlar etasizinni vena ichiga yuborilganda namoyon bo'ladi. Shuning uchun preparatni

entral yuborish maqsadga muvofiqdir.

Natriy kanallari blokatorlariga shuningdek, allapinin ham kiradi. U lappakonitin alkaloidi gidrobromidi hisoblanadi. Eksperimentlarda yaxshi o'rganilmagan. Yurak bo'l machasi va qorinchalardan qo'zg'aluvchanlik o'tishini sekinlashtiradi. Miokardning qisqaruvchanlik aktivligiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Gipotenziyani chaqirmaydi. Qorincha ustii va qorinchalar ekstrasistoliyasida hamda taxiaritmiyada qo'llaniladi. Ichishga qabul qilinadi. Allapinin ko'pincha nojo'ya ta'sirlarni chaqiradi (bosh aylanishi, diplopiya, bosh og'rig'i, aritmiya, allergik reaksiyalar).

b) L-turidagi kalsiy kanallarini bloklovchi vositalar (kalsiy antagonistlari, sust kalsiy kanallarini bloklovchi moddala)

Kalsiy ionlari yurak-qon tomir tizimi funksiyalarini boshqarishda muhim o'rinnegallaydi. Ma'lumki yurak va vena qon tomirlari tonusi faoliyatni ko'p jihatdan kalsiy ionlari almashinuviga, ayniqsa, ularning hujayra ichi va hujayradan tashqari taqsimlanishiga bog'liq. Shuning uchun kalsiy ionlari kinetikasini boshqarish imkoniyati katta ahamiyat kasb etadi. Bunday yo'llardan biri kalsiy kanallarini bloklashdir. So'nggi yillarda kalsiy kanallarini ko'plab bloklovchilari yaratildi va tibbiy amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Kimyoviy tuzilishidan kelib chiqib, L-turidagi kalsiy kanallari blokatorlari quyidagi guruhlarga bo'linadi :

disenilalkilaminlar (**verapamil**);

benzotiazepinlar (**diltiazem**);

digidropiridinlar (**nifedipin**, **isradipin**, **nikardipin**, **nimodipin**, **amlodipin**);

difenilpiperazinlar (sinnarizin, **flunarizin**).

Aritmiyaga qarshi faollikkha ega kalsiy kanallarini bloklovchilari guruhiga (IV guruh), verapamil (izoptin, finoptin), diltiazem (kardil) va boshqa bir qator preparallar kiritiladi. Ular shuningdek, yurak-qon -tomir yetishmovchiligidagi diltiazem esa arterial gipertenziyada samarali ta'sir ko'rsatadi.

Kalsiy kanallari blokatorlarining asosiy ta'siri, kalsiy kanallarini bloklashni hisobiga (tashqaridagi kalsiy ionlarini hujayra ichiga kirishini qiyinlashtiradi) potensial qaramlik kalsiy kanallarini bloklashi bilan aniqlanadi

¹Kaisiy kanallarining bir nechta turlari ajratiladi. Asosiysiga kiritiliadi: L (angl. *Large* - katta; kanallar o'tkazuvchanlikka ega), T (ing. *transient*-tez o'tuvchi; kanallarni ochilish tezligiga bog'liq), N(ing. *neuronal*- neyronal; asosan kanallarni taqsimlanishi inobatga olingan). Bundan tashqari. R-kanallar mavjud (miyachani Purkine hujayralarida topilgan va b.). Yurakda va silliq mushaklarda asosan L-kanallar mavjud.

Shu kanallar hujayra membranalari depolyarizasiyasida ochiladi. Turli xil tuzilishga ega preparatlar kalsiy kanallarida o'zining bog'lanish joyiga ega. Reseptorlar bilan bog'langan kalsiy kanallari kam darajada bloklanadi. Natijada bo'l macha va qorincha tugunida o'tkazuvchanlik salajlanib, samarali refrakter davr uzayishi kuzatiladi (moddalar Purkine tolalariga kam ta'sir etadi). Bu ta'sirga ko'ra kalsiy kanallarini bloklovchilar yurak qorinchalariga yuqori chastotali stimullarni kirishiga yo'l qo'ymaydi, natijada yurak faoliyati normallashadi, bundan tashqari kalsiy kanallari blokatorlari sinus-bo'l macha tugunida avtomatizmni pasaytirib, diastolik depolyarizasiyanı tezligini pasaytiradi (faza 4).

Ularning sinus-bo'l macha va bo'l macha-qorinchalaridagi asosiy ta'siri, kalsiyning kirishini hisobiga ikkala tugunni aktivlashi kuzatiladi. Mushak hujayralariga kalsiy ionlarini kirishini kamayishi, miokard qisqaruvechanligini pasaytirib, yurak – toj tomirlarini kengayishi namoyon bo'ladi (periferik tomirlarga kam darajada ta'sir etadi).

Aritmiyada keng qo'llaniladigan modalarga verapamilni kiritish mumkin. U ichakdan yaxshi so'rildi. O'zgarmagan shaklda siyidik va safro bilan chiqib ketadi.

Verapamil supraventikulyar aritmiya va stenokardiya da qo'llaniladi (paroksizmal taxikardiya va mersal aritmiya). Ichishga va vena ichiga yuboriladi.

Nojoya ta'sirlari: (gipotensiya, yurak yetishmovchiligin kuchayishi, atrioventrikulyar blok, ko'ngil aynish, qayt qilish, bosh aylanishi, allergik reaksiyalar).

Aritmiyaga qarshi ta'sirga ega kaisiy kanallarini blokatorlariga diltiazem ham kiradi. U me'da-ichakdan yaxshi so'rildi. Faol asetillanadi. Diltiazem va uning metabolitlari asosan ichak orqali chiqib ketadi.

Diltiazemning nojo'ya ta'sirlari: bosh og'rig'i, bosh aylanishi, yurak urishini tezlashishi, taxikardiya, holsizlik, mushaklar spazmi, shishler va h.k.


v) Kaliy kanallari blokatorlari (repolyarizasiya jarayonini uzaytiruvchi, harakat potensiali davomiyligini oshiruvchi moddalar)

Shunday preparatlardan biri amiodaron (kordaron) hisoblanadi. U aritmiyaga qarshi faollikka ega. Shuningdek, yurak toj-tomirlari yetishmovchiligidagi ham qo'llaniladi. Aritmiyaga qarshi ta'siri sekin rivojlanadi. Uzoq vaqt qo'llanganda amiadaron bo'l machalarda, bo'l macha-qorincha tugunida va qorinchalarda harakat potensiali va samarali refrakter davri davomiyligini uzaytiradi. Repolyarizasiya ham sekinlashadi. EKG da *Q-T* oralig'i oshadi. Amiodaronning asosiy aritmiyaga qarshi ta'siri avtomatizmning pasayishi, o'tkazuvchanlik va qo'zg'aluvchanlik bo'l macha, bo'l macha-qorincha tugunida pasayishi kuzatiladi.

Harakat potensiali davomiyligi oshishi ta'sir mexanizmi kaliy kanallari bloki bilan bog'liq (kardiomisitdan kaliy ionlarini chiqarish pasayadi). Bundan tashqari, amiodaron natriy kanallarini bloklab, shuningdek, β -adrenoreseptorlarni nokonkurent bloklaydi, qisman kalsiy kanallarini bloklaydi. I, II, III va IV guruh preparatlarning xususiyatlari mos keladi.

Stenokardiyada uning ijobjiy ta'siri asosan miokardni kislorodga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi. Amiodaron yurak va yurak toj-tomirlariga adrenergik ta'sirni pasaytiradi (α va β adrenoreseptorlarni nokonkurent bloki hisobiga), glyukagon antagonisti hisoblanadi va kalsiy kanallarini kuchsiz bloklaydi. Yurak qisqarishlar sonini kamaytiradi va arterial bosimni pasaytiradi. Yurak toj-tomirlari qon aylanishini yaxshilaydi, yurak toj-tomirlari qarshiligini kamaytiradi.

Amiodaron oshqozon-ichak traktidan taxminan 50% ga so'rildi. Sutkada bir marta buyuriladi. Maksimal ta'siri bir necha haftadan so'ng rivojlanadi¹. Jigarda parchalanadi. Asosan ichaklardan sekin chiqariladi. Supraventikulyar va qorinchalar aritmiyasida va stenokardiyada qo'llaniladi.



Rasm. 14.6. Aritmiyaga qarshi faollikka ega bir qator vositalarning asosiy yo'nalishi va ularning qo'llanilishi.

SA - sinoatrial tugun (sinus-bo'l macha tuguni); AV - atrioventrikulyar tugun (yurak bo'l macha-qorinchay tuguni); PG - Gis tutami (yurak bo'l macha qorinchay tutami) va uning shoxlari; VP - Purkine tolasi.

Nojo'ya ta'sirlardan dispeptik holatlar, kuchli bradikardiya, bo'l macha-qorinchay bloki, shox pardasida qaytar mikrokristallarni yig'ilishi, teri pigmentasiysi (kulrang - ko'k rangga bo'yaladi), fotodermatitlar, qalqonsimon bez funksiyalari buzilishi kuzatiladi. Ba'zan fibroz rivojlanadi. Katta dozada turli nevrologik buzilishlar kuzatilishi mumkin (paresteziyalar, tremor va h.). Preparatni qabul qilish to'htatilgandan so'ng nojo'ya ta'sirlari ancha uzoq saqlanadi.

Bu guruhga aritmiyaga qarshi vosita sifatida qo'llaniladigan simpatolitik ornid¹ kiradi (bob 4; 4.3). Ornid Purkine tolalari va qorinchalar mushagida harakat potensialini va samarali refrakter davrini uzayishiga olib keladi.

¹ Ichki kiritishda ta'sir tez rivojlanadi (1-2 soat mobaynida)

² Ornid bromid shaklida ishlab chiqariladi n-toluol-sulfonat shaklidagi o'xshash preparat tozilat bretiliy nomini olgan

Sinus ritmini soni pasayadi. Yurak bo'l macha-larorinchalar tugunidagi o'tkazuvchanlikni bloklaydi. Miokard qisqaruvchanligi o'zgarmaydi.

Ornid oshqozon-ihak traktidan yomon so'rildi. Shuning uchun u vena ichiga yoki mushaklar orasiga yuboriladi. Asosan o'zgarmagan shaklda buyrakdan

chiqariladi.

Qorinchalar aritmiyasida qo'llaniladi, aritmiyaga qarshi boshqa moddalarni ta'siri bo'lmagan qorinchalar aritmiyasida qo'llaniladi.

Nojo'ya ta'silari orasida – ortostatik gipotensiya, ko'ngil aynish, qayt qilish, qulqoldi bezida og'riqli sanchiqlar kuzatiladi.

Bu guruh vakillariga izomerlar aralashmasini o'zida aks ettiruvchi sotalolni kiritish mumkin (sotaleks). L-sotalol β adrenoblokatorlik faollikka, d-sotalolkaliy kanallari blokatori hisoblanadi. Shunday qilib amaliyotda qo'llanilayotgan sotalol rasemat aralash turdag'i ta'sirga ega aritmiyaga qarshi vosita sanaladi (II/III). Kaliy kanallarini bloklab va β_1 va β_2 adrenozeptorlarni bloklab, repolyarizasiya jarayonini uzaytirib, sinoatrial tugundagi avtomatizmni kamaytiradi, atrioventrikulyar tugunda o'tkazuvchanlikni kamaytirib samarali refrakter davrni oshiradi. Miokardda qisqarishlar sonini kaiyatiradi.

Hazm qilish traktidan yaxshi chiqariladi. Biokirishuvchanligi 90-100%. O'zgarmagan shaklda buyrakdan chiqariladi.

Yuqori aritmiyaga qarshi ta'siri bilan xarakterlanadi. Qorinchalar va qorinchalar ust'i aritmiyasida qo'llaniladi. Sutkada 2 marta ichishga buyuriladi.

Nojo'ya ta'sirlardan preparatning aritmogenligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, sinusli bradikardiya kuzatiladi, holsizlik, dispnoe, miokardning qisqaruvchi faolligini pasayishi. Buyrak yetishmovchiligi sonida nojo'ya ta'sirlar kuchli ko'rindi.

Yuqori aritmiyaga qarshi faollikka ega kaliy kanallari blokatorlari (III guruh) hozirda katta e'tiborni jalg qiladi. Minimal salbiy ta'sirga ega bo'lgan amiodaronga o'xshash turdag'i preparatni yaratish vazifasi qo'yilgan.

Shuningdek, qalqonsimon bez faoliyatini buzmaydigan va yod atomlari molekulasida mavjud bo'lmagan birikmalar olish ham muhimdir. Bunday preparatlardan biri dofetilid (tikozin) hisoblanadi. U yurakning kaliy kanallarini tanlab bloklovchi ta'sirga ega. Natriy va kalsiy kanallariga, α va β -adrenozeptorlarga ta'sir qilmaydi. Samarali refrakter davrini uzaytiradi, repolyarizasiya jarayonini uzaytiradi va mos ravishda harakat potensiali

davomiyligini oshiradi. Qorinchalar dan impulslarni o'tkazuvchanligiga ta'sir qilmaydi. Kichik miqdorda mansiy xronotrop ta'sir ko'rsatadi.

Miokardning qisqartiruvchi faolligi pasaymaydi. *P-R* intervali va *QRS* kompleksi o'zgarmaydi. Sistemali gemodinamikaga amalda ta'sir qilmaydi. Me'da-ichak traktidan yaxshi so'riiladi. Biokiruvechanligi > 90%. Qon plazmasidagi maksimal konsentrasiyasi 2-3 soatdan keyin kuzatiladi, stabil konsentrasiyaga - 2-3 kundan so'ng erishadi: $t_{1/2} \sim 10$ soat.

Jigarda qisman metabolizmga uchraydi (taximinar 20%). O'zgarmagan moddalar va metabolitlar asosan buyrakdan chiqariladi. Dofetilid asosan supraventikulyar aritmialarda qo'llaniladi (mersal va bo'l machalar titroq aritmiyasida).

Preparatning asosiy kamchiligi qorinchalar taxiaritmiasini keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, o'tkazuvchanlik buzilishi, bradikardiya ehtimoli mavjud.

Nokardial nojo'ya ta'sirlaridan bosh og'rig'i, bosh aylanishi. Ko'krak qafasidagi og'riqlar va h. kuzatiladi.

Bu guruhg'a nibentan kiradi. U kaliy kanallarining faol blokatori sanaladi, paroksizmal va supraventrikulyar aritmialarni bartaraf qilishda qo'llaniladi (taxikardiya, bo'l macha titrog'ida va hilpillashida ishlataladi). EKG nazoratining majburiy monitoringida vena ichiga yuboriladi (1 sutka mobaynida). Nibentan yuqori aritmogen faollikka ega.

d-sotalol kaliy kanallarini tanlab bloklovchi modda hisoblanadi. U aritmiyaga qarshi vosita sifatida klinik sinovlardan o'tmoqda.

Aritmiyaga qarshi ta'sirga ega mazkur guruh moddalari asosan yurakka efferent neyrogen ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Bu moddalar yurakning xolino va adrenoreseptorlariga ta'sir qiladi.

a) Kardiomiositlarni β -adrenoreseptorlariga ta'sir qiluvchi moddalar

Ma'lumki yurak funksiyasi regulyasiyasida adrenergik (simpatik) innervasiya muhim o'rinn egallaydi (14.7-jadval). Uning qo'zg'alishi yurak bo'l machasi va qorincha chastotasi va kuchi oshishi bilan kuzatiladi. Sinus bo'l macha va qorincha

tugunlarida impulslar o'tish tezligi oshadi. Avtomatizm oshadi. Bu o'zgarishlar yurakni β_1 adrenozeptorlarini qo'zg'alishi bilan bog'liq.

Adrenergik innervasiya tonusi oshishi va ko'p miqdorda buyrak usti bezidan adrenalinni ko'p miqdorda ajralishi, miokardni katekolaminlarga sezuvchanligini oshishi yurak aritmiyasi kelib chiqishi mumkin, shuning uchun β -adrenoblokatorlar aritmiyaga qarshi vosita sifatida katta ahamiyatga ega (gruppa II: . bob 4; 4.2). Tibbiy amaliyotda anaprilin (propranolol, inderal) keng qo'llaniladi. Uning antiaritmik faolligi asosan β -adrenozeptorlarni bloklashi bilan bog'liq, shuning uchun adrenergik innervasiyani yurakka ta'siri kamayadi va qondagi adrenalinni ta'siri kamayadi. Sinus tugunchasi faolligi pasayib, ektopik o'choqlarda qo'zg'aluvchanlik kamayadi. Anaprilinning juda yuqori dozasi natriy kanallariga kam ta'sir ko'rsatib, amaliy ahamiyati deyarli yo'q. Umuman olganda anaprilin yurak qisqarishi ritmini kamaytiradi, bo'imacha-qorinchalar tugunida samarali refrekter davrni uzaytiradi, yurak hujayralarda avtomatizni kamaytiradi, bo'imacha-qorinchalar tugunida o'tkazuvchanlik va va qo'zg'aluvchanlikni kamaytiradi. Anaprilin qo'llanilganda miokard qisqaruvchanligi kamayadi. Yurak ishi kamayadi. Anaprilin supraventikulyar va qorinchalar aritmiasida qo'llaniladi.

Aritmiyaga qarshi vosita sifatida shuningdek, β_1 -adrenoblokatorlardan (masalan, talinolol, atenolol, metoprolol) va simpatomimetik faolligiga ega bo'lgan β -adrenoblokatorlar (oksprenolol) qo'llaniladi (bob 4; 4.2)

Jadval 14.7. Adrenergik va xolinergik ta'sirlarni yurak faoliyatiga ta'siri

| Yurak bo'limlari | Parametr | Adrenergik stimullar ¹ | Xolinergik stimullar ² |
|-------------------------|---|--|--|
| Sinus- bo'imacha tuguni | Yurak urishi soni Avtomatizm Samarali refrakter davr O'tkazish tezligi | Oshishi Oshishi Qisqarishi | Kamayishi Pasayishi Qisqarishi |
| Bo'imacha mushaklari | Avtomatizm Samarali refrakter davr O'tkazish tezligi Qisqaruvchanlik | Ko'payishi Oshishi Qisqarishi Ko'payishi Ochishi | Kamayishi Pasayishi Qisqarishi Kamayishi Pasayishi |

| | | | |
|---|--|--|--|
| Bo'lmacha-qorincha tuguni | Avtomatizm Samarali refrakter davr O'tkazish tezligi | Oshishi Qisqarishi Ko'payishi | Pasayishi Uzayishi Kamayishi |
| Gis tutami (bo'lmacha-qorincha tutami) Purkine tolalari | Avtomatizm Samarali refrakter davr O'tkazish tezligi | Oshishi Ko'payishi Qisqarishi yoki o'zgarishlar | Bu bo'limlarda xolinergik innervasiya bo'lmaydi. |
| Qorincha mushaklari | Samarali refrakter davr O'tkazish tezligi Avtomatizm Qisqaruvchanlik | Qisqarishi Ko'payishi Oshishi | |

Ektopik tugunlarda avtomatizm qo'zg'alishi.

2 α -adrenomimetiklar shunga o'xshash ta'sir ko'rsatadi

3 M-xolinomimetiklar va xolinesteraziga qarshi meddalarga o'xshash ta'sir

β adrenoblokatorlarni afzalligi ular miokardni qisqaruvchanlik faoliyatiga kam darajada ta'sir ko'rsatadi (simpatomimetik ta'siri bo'lganligi uchun).

Bradiaritmiya va o'tkazuvchanlik buzilganda, masalan bo'lmacha-qorinchalar blokida β adrenoreseptorlarni qo'zg'atuvchi moddalar samarali ta'sir ko'rsatadi. Ilgari qayd qilganimizdek, adrenergik innervasiya tonusi oshganda yurakdan qo'zg'aluvchanlikni o'tishini oshiradi. Shu maqsadda β -adrenomimetiklardan (izadrin) yoki, α va β - adrenomimetiklardan (adrenalin gidroxlorid) va simpatomimetiklardan (efedrin gidroxlorid) yuboriladi (14.7-jadval).

b) Kardiomiositlardagi m-xolinoreseptorlarga ta'sir qiluvchi vositalar

Xolinergik innervasiyani yurakka ko'rsatadigan ta'siri katta ohamiyatga ega. O'ng adashgan nerv yurak sinus – bo'lmacha tugunida, chapi esa yurak bo'lmacha – qorincha tugunida salajlanishiga olib keladi. Adashgan nerv tonuslari oshganda yurak qisqarishi soni kamayadi va yurak bo'lmacha qisqaruvchanligi kamayadi va qorinchalarda ham kamayishi mumkin. Yurak bo'lmacha hujayralarida avtomatizm pasayadi, yurak bo'lmacha-qorincha tugunidagi o'tkazish tezligi kamayadi. Adashgan nervning haddan tashqari tonusi oshganda yurak bo'lmacha-qorincha bloki paydo bo'lishi mumkin.

Bradiaritmialarda sinus-bo'lmacha yoki sinus-qorincha bloki paydo bo'lsa adashgan nervni yurakka bo'ladigan tormozlovchi ta'sirini kamaytiradigan M-xolinoblokatorlar qo'llaniladi. Ulardan ba'zan atropin qo'llaniladi. MNS ga o'tmaydigan atropin va skopolaminning to'rtlamchi ammoniy tuzlarini (yoki boshqa M-xolinoblokatorlarni) tayinlash maqsadga muvofiq .

Ayrim holatlarda masalan supraventrikuylar aritmiyada adashgan nerv tonusini oshirish zaruriyati paydo bo'ladi. Bu maqsadlar uchun dori vositalaridan ba'zan qisqa muddat ta'sir ko'rsatuvchi antixolinesteraz edrofoniy yoki α -adrenomimetik guruhidan vazopressor moddalaridan (mezaton)ishlatiladi. Ma'lumki edrofoniy endogen asetilxolinni kuchaytiradi, shuning hisobiga vagus ta'siri oshadi. Mezaton arterial bosimni oshirishi natijasida adashgan nervlarni reflektor tarzda tonusini oshadi. Bu moddalar xolinoreseptorlarga ta'sir etib, mediator asetilxolinni sinaptik bo'shilqda oshirib va shuning uchun ta'siri oshadi. Adrenomimetik, adrenoblokator, simpatomimetik, xolinoblokator va antixolinesteraz vositalar to'g'risida anche batafsil ma'lumotlar tegishli bo'limlarda keltirilgan.

14.3. KORONAR QON AYLANISHI YETISHMOVCHILIGIDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Koronar yetishmovchilik bilan bog'liq patologik hollarni "ishemik yurak kasalligi" (yoki yurak koronar kasalligi) termini yordamida birlashtirishadi.

Ishemik yurak kasalliklari sirasiga keng tarqalgan patologiya – stenokardiya ("ko'krak baqasi") va miokard infarkti kiradi. Bu bo'limda stenokardiya farmakoterapiyasи prinsiplariga asosiy e'tibor qaratiladi.

STENOKARDIYANI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR (ANTIANGINAL VOSITALAR)

Koronar yetishmovchilik, shu jumladan stenokardiya, yurakning yetarlicha kislород олмаслиги (qon orqali) tufayli paydo bo'ladi. Bundan kelib chiqib stenokardiyanı davolashda ishlatiluvchi preparatlarning asosiy prinsiplari quyidagilar. Ular yoki yurak ish faoliyatini va uning kislородга bo'lgan ehtiyojini pasaytirishi, yoki yurakni yetarlicha kislород билан та'minlashlari darkor.

“Ko’krak baqasi”ning lotincha nomlanishi – *angina pectoris*. Shuning uchun bu kasallikni davolovchu preparatlar ko’pincha antianginal yoki antianginoz deb nomlanadi.

Yurak ish faoliyati kamaytirilishi va uning kislородга bo’lgan muhtojligi turli yo’llar bilan erishiladi (14.8-jadval). Masalan yurakka bo’lgan bosimni venoz yoki arterial qon bosimi pasaytirish orqali erishish mumkin (bu nitrogliserinning asosiy ta’sir mexanizmi hisoblanadi). Venoz qon bosimining pasayishi yurakka bo’lgan og’irlilikni sustlashtiradi. Arterial qon bosimi pasayishi esa umumiylar perifirik qarshilik kamayishi tufayli qonning yurakka yetib borishini osonlashtiradi va natijada yurakka bo’lgan bosim pasayadi. Bunday bosimning tushishi miokard devorlari tarangligini kamaytiradi. Bularning barchasi yurakning kislородга bo’lgan muhtojligini ancha pasaytiradi. So’nggisi adrenergik innervasiyaning o’chishi bilan ham amalga oshadi (masalan β -adrenoblokatorlar yordamida) Miokard hujayralarida kalsiy ionlari kamaysa ham shu hol kuzatiladi (kalsiy kanallari blokatorlari ta’siri ostida). Yurak qisqaruvchanligi sustlashganda ham uning kislородга bo’lgan ehtiyoji kamayadi (bradikardik preparatlar yordamida). Miokard metabolizmi sustlashishi ham shu natijaga olib keladi.

14.8-jadval. Yurakning kislородга bo’lgan muhtojligi va unga kislород yetkazilishini taqozo etuvchi omillar.

| O ₂ ga bo’lgan muhtojlik | O ₂ yetkazilishi |
|--|--|
| Diastolik bosim (old-bosim) | O ₂ ning qondan ekstraksiya qilinishi (%) Koronar qon oqimi |
| Sistolik bosim (post-bosim) | Aortadagi diastolik bosim, Arteriolalar qarshiligi |
| Miokard devorlari tarangligi, Yurak qorinchalar hajmi, Yurak hajmi (radius) Qorincha bosimi, Yurak qisqarishlari chastotasi | Metabolik autoregulyasiya (adenozin) Endokardial-epikardial qon oqimi, Koronar kollateral qon aylanishi |
| Qisqaruvchanlik | Yirik koronar arteriyalar diametri |

Koronar qon oqimini va miokard oksigenasiyasini koronar tomirlarni kengaytirish yo’li bilan oshirish mumkin. Odatta, bu vositalarning tomirlar silliq



mushaklariga bo'lgan bevosita ta'siri natijasi hisoblanadi. Qisman bu tipdagi vositalar sirasiga mushak hujayralari ichiga kalsiy ionlarining kirib borishini sustlashtiruvchi vositalar (verapamil) kiradi. Bundan tashqari, antianginal vositalar miokardda endogen koronar-kengaytiruvchi moddalarning yig'ilishiga olib kelishi mumkin (masalan, adenozinni). Bu prinsip asosida dipiridamol ta'sir qiladi. Shu bilan birga koronar tomirlar spazmlarini reflektor bartaraf etuvchi moddalar ham mavjud (validol). Koronar tomirlarni toraytiruvchi reflekslarni sustlashtirish orqali koronar tomirlarni kengaytirish imkoniyatini alohida qiziqish uyg'otadi (bunday reflekslarni nitrogliserin, morsin bloklaydi). Koronar qon aylanishini oshiruvchi yana bir muhim omil qorinchalarning diastolik tarangligini kamayishidir (yurak tomirlarining ekstravazal kompressiyasini pasayishi). Yurak tomirlari kengayishi modda almashinuvি jarayonining natijasi bo'lishi ham mumkin. Kuzatishlar shuni isbotlaydi-ki, yurakning kislorodga bo'lgan muhtojligi oshganda uning tomirlari kengayadi, bu hol eusellin qo'llanilganda namoyon bo'ladi. Yurakning kollateral qon aylanishini kuchaytirish ham stenokardiyaga qarshi qo'llaniladigan preparatlarning ijobiya ta'sirlaridan biri sanaladi.

Yuqoridaagi prinsiplar asosida antianginal vositalarning bu guruhni klassifikasiyasini tuzilgan.

Lekin, shuni aytib o'tish joizki, stenokardiya farmakoterapiyasi kompleks xarakterga ega. Shuning uchun yuqoridaagi antianginal vositalardan tashqari boshqa ta'sirga ega preparatlar ham qo'llaniladi. Bu patoloniyanı davolashda quyidagi preparatlar qo'llaniladi.

- Yurakning kislorodga muhtojligi va unga kislorod yetkazilishi o'rtaqidagi mutanosiblik buzilishini normallashtiruvchi preparatlar.
- Kardioprotektor vositalar.
- Tromblarning paydo bo'lishini oldini oluvchi preparatlar (19.1 bobga qarang).
- Gipolipidemik vositalar (22 bobga qarang).
- Psixotrop vositalar (11.2 va 11.4 boblarga qarang).

Ba'zi antianginal vositalarning strukturasi



Izoh: Boshqa antianginal vositalar tegishli bo'limlarda keltirilgan (β -adrenoblokatorlar, antiaritmik vositalar, Ca^{2+} -kanallari blokatorlari).

Miokardning kislородга бо'лган муҳтоjlигини камайтируvчи va uning qon aylanishini yaxshilovchi vositalar.

Bu guruh o'z ichiga organik nitratlarni, kalsiy kanallari blokatorlarini, kaliy kanallari aktivatorlarini va amiodaronni o'z ichiga oladi.

A) Organik nitratlar

Stenokardiyan davolovchhu turli preparatlar sirasiga tarkibida nitrogliserin bor xilma-xil vositalar kiradi.

Nitrogliserin nitratlar guruhi vakili sanaladi (azot kislotasi efiри va gliserin). Uning davolovchi ta'sir mexanizmi o'z ichiga bir qator komponentlarni oladi. Uzoq

vaqt davomida uning ta'siri ostida bevosita miotrop koronar-kengaytiruvchi ta'sir yotadi, deb hisoblashgan.

Ammo koronar sinus kateterizasiyasi shuni ko'rsatdiki, nitroglisirin stenokardiya kuzatilgan bemonlarga sublingval tarzda kiritilganda, garcha yirik koronar tomirlarni kengaytirsa-da koronar qon aylanishini deyarli yaxshilamaydi. Shu bilan birga bemonlarning bevosita chap koronar arteriyasiga kiritilgan nitrogliserin koronar sinus qon aylanishini yaxshilasa-da, stenokardiya tufayli paydo bo'lган og'irlikni bartaraf qilmagan. Keyinchalik nitrogliserinni venaga yuborilishi kerakli natija bergen. Bulardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, nitrogliserinning antianginal ta'siri asosan uning ekstrakardial ta'siriga bog'liq.

Nitrogliserin yordamida stenokardiyani davolashning asosiy sababi, preparatning arterial va venoz qon bosimini pasaytirib, yurakka bo'lган og'irlikni bartaraf eta olish xususiyatidir. O'z navbatida, bu yurakning ish faoliyatini yengillashishiga va uning kislorodga bo'lган muhtojligini kamayishiga olib keladi. Bunday holda yurakning kislorodga bo'lган muhtojligi va uning kislorod bilan ta'minlanishi qoniqarli bo'ladi va gipoksiya yo'qoladi. Tomirlarning nitrogliseringa nisbatan bo'lган sezuvchanligigi ko'ra ular quyidagi ketma-ketlikda joylashishadi: tomirlar > arteriyalar > arteriolalar va kapillyar sfinkterlar.


Silliq mushaklar relaksasiyasi nuqtai nazaridan nitrogliserin endotelial bo'shashtiruvchi faktor (NO) singari ta'sir qiladi. Organizmda nitrogliserindan (va boshqa nitratlardan) azot oksidi ajralib chiqadi, undan esa o'z navbatida, S-nitrozotiolalar paydo bo'ladi. Bu birikmalar eruvchan chitozol guanilatsiklazani faollashtiradi. So'nggisi sitozol ozod Ca^{2+} -ionlarini miqdorini kamaytiradi va bu tomirlar silliq mushaklarini bo'shashtiradi. (14.7 rasm)

SHunisi muhimki, nitrogliserin miokardning ishemiyaga uchragan bo'limini qon aylanishini yaxshilaydi. Bu bir qator ta'sirlar tufayli amalga oshadi. Masalan, qorinchalarning diastolik tarangligini sustlashishimiokardning subendokardial bo'limida qon aylanishini yaxshilaydi. YUqorida aytib o'tilgan yirik koronar tomirlarning kengayishi ijobiyligi ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa ularning okklyuziya joyidagi kengayishi alohida ahamiyatga ega. Bunday tashqarini nitrogliserin

kollateral qon aylanishini yaxshilashi isbotlangan, shu bilan birga u tomirlarning torayishiga sabab bo'luvchi reflekslarni markaziy zanjirlarini bloklash qobiliyatiga ham ega. (14.2 sxema)

Nitrogliserin miyaning, ko'zning va ichki organlarning tomirlarini ham kengaytiradi. Miotrop ta'sirli spazmoletik bo'lib, u ichki organlar silliq mushaklarining tonusini kamaytiradi (hazm qilish traktini, bronxiolalarni va h.k.).

Nojoya ta'sirlarga keladigan bo'lsak, u reflektor taxikardiyani (arterial qon bosimi tushishi tusayli kelib chiquvchi kompensator reaksiya), bosh og'rig'i, bosh aylanishini paydo qilishi mumkin. Bu omillar ayniqsa, preparatning ilk qo'llanilishidan so'ng namoyon bo'ladi. Bosh og'rig'i vaqt o'tgani sayin kamayadi va yo'qoladi.



14.7-rasm. NO donatorlari va ayrim endoteliya reseptorlarini faollashtiruvchi vazodilatatorlarining ta'sir mexanizmi.

Plus – faollashtiruvchi ta'sir; (\uparrow) – oshishi; (\downarrow) tushishi.

¹ Tomir yopilib qolishi; lot. occlusion –yopilib qolmoq

Nitrogliserinning ehtimoliy antianginal ta'sir mexanizmlari

Stenokardiyani bartaraf etish qobiliyati esa saqlanib qoladi. Nitrogliserin qo'llanilganda, ayniqsa uning miqdori haddan tashqari oshirilganda, arterial qon bosimi o'ta tushib ketishi kuzatilishi mumkin. Nitrogliserin faqat uzoq muddat qo'llanilgandagina bemorda ruju paydo qiladi (masalan infuziya orqali yuborilganda ruju 24 soatdan so'ng paydo bo'ladi). Preparatning vaqtiga-bilan qo'llanilganida bu amaliy ahamiyat kasb etmaydi.

Tez va qisqa muddatda ta'sir qiluvchi nitrogliserin mavjud stenokardiya qo'zg'aluvini bartaraf etish uchun qo'llaniladi. Uni odatda, til ostiga tabletka yoki

kapsula (nitrogliserinning yog'li eritmasi, uni tishlab ezib tashlash kerak) shaklida, yoki spirt eritmasi ko'rinishida (bir qand bo'lagiga 1-2 tomchi) qo'llaniladi. Nitrogliserin tez simiriladi (uning ta'siri 1-2 daqqa ichida rivojlanadi) va stenokardiyani yo'qqa chiqaradi. Ta'siri uzoq emas (30 daqiqagacha). Boshqa preparatlar samara bermagan hollarda nitrogliserinni maxsus tomirga yuboriluvchi shakli qo'llaniladi (hamda miokard infarktida, agarda yaqqol gipotensiya kuzatilmasa). Bundan tashqari maxsus idishlarda ingalyasiyalar uchun mo'ljallangan nitrogliserin ham sotuvda mavjud.

Stenokardiya qo'zg'aluvlarini oldini olish uchun uzoq ta'sir qiluvchi nitrogliserin preparatlari qo'llaniladi. Maxsus mikrokapsulalangan va preparatning asta-sekin simirilishini ta'minlovchu boshqa ishlab chiqarish shakkari yaratilgan. Bunday preparatlardan biri – sustak bo'lib u nitrogliserinning sekin simiriluvchi tabletka ko'rinishidir. Ta'sir 10-15 daqiqadan keyin bosilanadi va taxminan 4 soat davom etadi. Nojo'ya ta'sirlari nitrogliserinni qabul qilinganiga qaraganda kamroq namoyon bo'ladi.

Davomiyligi bo'yicha analogik ta'sirni trinitrolong o'tkazadi.



Mixail Petrovich Nikolaev (1893-1949).

Yurak-qon tomir tizimining turli patologiyalarini davolashda turli farmakologik vositalar ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan izlanishlari katta qiziqish uyg'otadi.

Uni polimer plastinka shaklida milkka surtishadi. Nitrongning ta'sir davomiyligi undan ham uzoqroq (7-8 soatgacha). Uni ichga tabletkalar shaklida qabul qilishadi. Uzoq ta'sirni 2% nitrogliserin surtmasi o'tkazadi.

Ta'sir 15-20 daqiqadan keyin boshlanadi va 5 soatgacha davom etadi.

Nitroglycerinli plastirlar ham qo'llaniladi. Garchi, ular nitroglycerinini organizmga beto'xtov yetkazib turishsa-da, tez ruju qo'yilishi sabab bo'lishadi (8-24 soat). Shuning uchun plastirni 12 soatdan ko'p qo'llab bo'lmaydi. Bu nitroglycerinning mazkur shaklda qo'llanilishi samarasini yo'qqa chiqarmaydi.

Nitroglycerin bilan ishlovchu farmasevtik va harbiy xodimlarda unga nisbatan ruju qo'yish kuzatilishi mumkin.


Uzoq muddatli nitratlar sirasiga nitrosorbid (izsorbid dinitrat)¹, erinit (pentaeritritil, tetranitrat, nitropenton) va izosorbid mononitrat(monochinkve)ham kiradi. Ularning ta'siri davomiyligi oshirilgan nitroglycerin preparatlariga qaraganda qisqaroq. Ichga qabud qilinganida ular 30 daqiqadan so'ng ta'sir qilishni boshlashadi va ta'sir 1-4 soat davom etadi. Nitrosorbid va izosorbid mononitrat ta'siri uzaytirilgan shaklda ham ishlab chiqariladi (6-8 soat). Preparatlar qon plazmasi oqsillari bilan bog'lanadi. Yaxshi qabul qilinishadi. Nojo'ya ta'sirlari nitroglycerinnikiga xos ammo kaniroq namoyon bo'ladi. Dispepsik holatlar kuzatilishi mumkin. Uzoq muddatda qo'llanilganda ruju qo'yish ehtimoli bor. Nitratlarga bo'lgan qarama qarshi ruju qo'yish ham ehtimoldan holi emas.

B) Kalsiy kanallarini bloklovchi vositalar (kalsiy antagonistlari).

Stenokardiya kuzatilganda qo'llaniladigan L tipli kalsiy kanallari blokatorlari sirasiga verapamil, diltiazem, nisedipin (fenigidin), amlodipin, (normodipin) va boshqa preparatlari kiradi. Ularning ta'siri asosan kalsiy ionlarini yurak va tomirlar mushaklari hujayralariga ekstrasellyular bo'shlig'lardan L kanallar orqali kirib borishiga yo'l qo'ymasligiga bog'liq.

Bunday preparatlar bir vaqtning o'zida yurak ish faoliyatini kamaytirib koronar tomirlarni kengaytiradi, natijada yurakning kislorodga bo'lgan muhtojligi va unga tushayotgan og'irlik kamayadi. Miokard hujayralariga kalsiy ionlarining kam miqdorda kirib borishi fosfat birikmalarining quvvati yurakning mexanik faoliyati uchun kamroq qo'llanilishi olib keladi (14.8 rasm). Bunda yurak qisqarishlari kuchi va uning ish faoliyati kamayadi. Yurakning kislorodga bo'lgan muhtojligi ham o'z navbatida pasayadi. Yurak ish faoliyati sustlashishi.

¹ Nitrosorbid (izosorbid dinitrat) ichga, sublingval, ingalyasion, tashqi transbukkal, ampulalar va flakonlar hamda venagayuboriluvchi ampula shaklida ishlab chiqariladi.



14.8-rasm. Arteriyalarning silliq mushaklaridagi kalsiy kanallari blokatorlarining ta'siri joylashuvi periferik arteriyalar kengayishi va arterial qon bosimi tushishi bilan ham bog'liq (qon oqimiga nisbatan qarshilik

sustlashadi va yurak faoliyati osonlashadi). Yurak qisqarishlari chastotasi kalsiy kanallari blokatorlari ta'siri ostida barqaror o'zgarmaydi. (14.9-jadval). Buning sababi shundaki, kalsiy kanallari blokatorlari yurakka salbiy xronotrop ta'sir o'tkazib, u yoki bu darajada gipotenziv ta'sirga javob sifatida reflektor taxikardyani paydo bo'lishiga olib keladi. Kalsiy kanallari blokatorlarining antianginal ta'siri koronar tomirlarning kengayishi orqali ham namoyon bo'ladi. Bu esa kislородning yurakka etib borishini faollashtiradi. (14.3 sxema). Kalsiy kanallari blokatorlari subendokardial qon oqimini yaxshilaydi va balki, kollateral qon aylanishini oshiradi. Bir qator antianginal vositalarning yurak qon tomir tizimiga ta'siri.

L-tipidagi kalsiy kanallari blokatorlarini yurak qon tomir tizimiga ta'siri.

Nifedipin (fenigidin, adalat, korinfar) koronar tomirlarini kengaytirib, arterial qon bosimini pasaytiradi. Yurakka salbiy inotrop ta'sir o'tkazadi ammo reflektor taxikardiya tufayli bu ta'sir sezilmaydi. Natijada, nifedipinning asosiy antianginal ta'siri koronar tomirlarning kengayishi deb xulosa chiqarsak, adashmagan bo'lamiz. Bundan tashqari, yurakning ish faoliyati kamayishi va natijada uning kislородга bo'lgan ehtiyoji ham pasayishi muhim hisoblanadi. Preparatning asosiy qo'llanilish sababi – stenokardiya va arterial gipertensiya. Nifedipinning antiaritmik ta'sirlari yaxshi rivojlanmagan va deyarli qiziqish uyg'otmaydi. Oshqozon ichak traktidan yaxshi simiriladi. Ta'siri 15-20 daqiqadan so'ng namoyon bo'ladi, cho'qqisiga 1-2

soatdan soʻng etib, 6-8 soat davom etadi. Preparatning taxminan 90% plazma oqsillari bilan birikadi. Buyraklar orqali organizmni tark etadi. Ichga va sublingval qoʻllaniladi. Nojoʻya taʼsirlari: bosh ogʼrigʼi, reflektor taxikardiya, shishishlar, gohida teri toshmalari, isitma.

Verapamil (izoptin) va diltiazem farmakologiyasi 14.2-bobda ham keltirilgan.

Yurak qon tomir tizimi boshqaruvida nafaqt L tipidagi kalsiy kanallari, balki T tipidagi tranzistor kanallari¹ ham katta ahamiyatga egadir. Bu kanallar potensial-qaram kalsiy kanallari sirasiga kiradi. Yurakda ular sinus-yurak oldi, yurak oldi-qorinchali tugunlarda hamda Purkine tolalarida joylashadi. T tipidagi kalsiy kanallari ritmnинг sinus boshqaruvchisini faollashtirishda yaʼni yurak qisqarishlari ritmini nazorat qilishda muhim rol oʻynaydi. Bundan tashqari ular yurak oldi-qorinchali tugundagi oʻtkazuvchanlikni boshqarishda ham muhim hisoblanishadi. T tipidagi kalsiy kanallarini past-chegarali kanallar deb atashadi. Negaki ular potensiallar farqi -40 mV boʻlganda ochiladi. L tipidagi kalsiy kanallari yuqori-cheгарали boʻlib, ular -20mV da ochiladi.

Qorinchalarning qisqaruv miokardida T kanallari deyarli kuzatilmaydi, shu bois uning funksiyalariga sezilarli taʼsir oʻtkazmaydi. Bunday hollarda asosiy rolni L kanallar bajarishadi.

Tomirlarda T va L kanallari mavjud boʻlib, ularning faollashuvi silliq mushakli hujayralarga kalsiy ionlari kirishini taqozo etadi, bu esa oʻz navbatida, ularning qisqarishiga olib keladi.

T tipidagi kalsiy kanallari talamusda va turli xil sekretor hujayralar va boshqa toʼqimalarda topilgan.

Asosan T tipidagi kalsiy kanallarini bloklovchi preparat – mibefradil yaratilishiga muvaffaq boʻlindi. Unga nisbatan sezuvchanlik T kanallariga qaraganda Lkanallarida 20-30 baravar kamroq. Preparatning asosiy taʼsiri – koronar va periferik kanallarning kengaytirilishidir. Shuning uchun uni – antianginal va gipotenziv vosita sifatida qoʻllashadi. Ammo preparatning amaliy ishlab chiqarilishi toʼxtatilgan, negaki u jiddiy nojoʻya taʼsirlarga sababchi boʼladi. Bunga qaramay, T

kanallari blokatorlarini izlash va ishlab chiqarish hozirda ham katta qiziqish uyg'otmoqda.

V) Kaliy kanallari aktivatorlari

Bu guruhga mansub preparatlar (pinasidil, nikorandil va h.k), ochilishi hujayra ichra ATF tomonidan boshqariluvchi kaliy kanallarini ochadi (K_{ATF} kanallari). Bunda silliq mushakli hujayralardan kaliy ionlari ajralib chiqib, giperpolyarizasion jarayon boshlanadi. Natijada, potensial-qaram kalsiy kanallari ochilmaydi va hujayralar ichra kalsiy ionlari miqdori kamayadi. Bu esa tomirlar silliq mushaklari tonusi sustlashishiga olib keladi.

Bu preparatlar guruhining ilk vositasi pinasidil sanaladi. U koronar va periferik tomirlarni kengaytiradi. Yurak ish faoliyatini kamaytiradi. Yurak qisqarishlari chastotasini oshiradi. Qon plazmasida holesterin va trigliseridlar sonini kamaytiradi. Nojo'ya ta'sirlar chastotasi sezilarli, bu hol preparatning monoterapiyada qo'llanilishini chegaralaydi. Ular sirasiga shishishlar, bosh og'rig'i, yurak urishi, taxikardiya, gipertrixoz va boshqalar kiradi. Gohida stenokardiyaning vazospastik shaklida hamda yurak yetishmovchiligidagi qo'llaniladi.

Yaqqol antianginal ta'sirga nikorandil ega bo'lib, u kaliy kanallarini faollashtirib, NO donatori hisoblanadi (nitratosifat ta'sir). Koronar tomirlarni kengaytiradi. Arteriyalar va tomirlar tonusini pasaytirib, yurak faoliyatini yengillashtiradi. Yurak qisqarishlari chastotasini oshiradi. Barqaror va vazospastik stenokardiyada, arterial gipertenziyada qo'llaniladi.

Nojo'ya ta'sirlar sirasiga aritmogen ta'sirlar, bosh og'rig'i (ko'pincha), bosh aylanishi, yurak urishi, dispepsik holatlari va boshqalar kiradi. Kaliy kanallari kardioprotektor ta'sirga ega, degan fikr mavjud.

G) Antianginal ta'sirga ega turli preparatlar. Klassifikasiyada ko'rsatilgan amiodaron (kordaron) farmakologik xususiyatlari yuqorida keltirilgan (14:14.2 bobga qarang). Amiodaron antianginal va antiaritmik vosita sifatida qo'llaniladi.

Miokardning kislородга бо'лган муҳтоjligini kamaytiruvchi vositalar.

Bu guruhning asosiy vakillari β -adrenoblokatorlar hisoblanishadi. Ularning antianginal xususiyatlari asosan ularning β adrenobloklovchi qobiliyati va

adrenergik ta'sirlarni bartaraf yetishiga bog'liq. (14.4-bobdag'i 14.4-sxemaga va 14.9-rasmga qarang).

Bu yurak qisqarishlari chastotasi va kuchi kamayishi orqali namoyon bo'ladi. Yurak ish faoliyatini kamayadi, natijada, miokardning kislorodga bo'lgan muhtojligi ham pasayadi. β -adrenoblokatorlarning gipotenziv ta'siri ham yurak faoliyatini yengillashtiradi. Koronar qon aylanishi yaxshilanmaydi va hattoki birmuncha yomonlashishi ham mumkin¹. Shunday qilib, yurakning kislorod bilan ta'minlanishi va uning kislorodga bo'lgan muhtojligi orasidagi nomutanosiblik yuqoridagi muhtojlikni kamaytirish yo'li bilan bartaraf etiladi. Anksiolitik ta'sir ko'rinishida namoyon bo'luechi, β -adrenoblokatorlarning MAT ga bo'lgan ta'siri ham farimakoterapevtik ahamiyatga ega.

Rasm 14.9. β -adrenoblokatorlarning antianginal ta'sir prinsipi.

Stenokardiyani davolash uchun β -adrenoblokatorlarni noselektiv harakatli (anaprilin) va β_1 -adrenoblokatorlar (talinolol, metoprolol, atenol, 4:4.2-bob) qo'llaniladi.

β -adrenoblokatorlarning nitratlar bilan qo'shib ishlatish juda maqsadga muvosif, chunki bu har qaysi guruhdan vositalarining qator nojoya ta'sirini yo'qotadi (14.10-jadval).

Brakardik vositalar antianginal vositalarning yangi sinfi hisoblanadi. Ularning farqli xususiyatlari shundaki, yurak qisqarishi sonini (albatta, yurakning kislorodga talabini ham) kamaytiradi, gemodinamika va yurak faoliyatiga amalda ta'sir qilmaydi.

¹ Koronar tomirlar kengayishi β_1 -adrenoreseptorlari hisobiga yuz beradi. boshqa tomirlarda β_2 -adrenoreseptorlar ustunlik qiladi. Koronar va boshqa ko'pgina tomirlarning torayishi α -adrenoreseptorlar (α_1 va α_2) bilan bog'liq.

Faqat α_1 -adrenoreseptorlar qo'zgalishlarni qabul qiladi. α_2 -adrenoreseptorlar esa gumoral ta'sirlarni qabul qiladi. O'xshash qonuniyat qator to'qimalardagi β_1 -adrenoreseptorlar (innervasiyalanadi) uchun va β_2 -adrenoreseptorlar (innervasiyaga ega emas) uchun ham amal qiladi.

Jadval 14.10. Nitrat va β -adrenoblokatorlarning birligida ta'siri.

| Parametr | Nitratlar | V-adrenoblokatorlari | Nitratlar V-adrenoblokatorlari |
|---|-------------------------------------|----------------------|------------------------------------|
| Yurak qisqarishi oralig'i | (-) (Reflektor) Odatiy ko'taradi | Pasaytiradi | Pasaytiradi |
| Miokard qisqarishi | (-) Odatiy ko'taradi | Pasaytiradi | O'zgartirmaydi |
| Sistola mavsumi | Kamaytiradi | (-) Ko'taradi | O'zgartirmaydi |
| Diastolik miokardning perfuziya mavsumi | (-) Kamaytiradi | Ko'taradi | Ko'taradi |
| Yakuniy diastolik bosim | Pasaytiradi | (-) Oshiradi | O'zgartirmaydi yoki pasaytiradi |
| Arterial bosim | Pasaytiradi | Pasaytiradi | Pasaytiradi |

Ilova (-) yoqimsiz harakat.

Bunday vositalarga ivabradin (prokoralan), alnid, falipamil kiradi. Ayniqsa, ivabradin juda yaxshi o'rganilgan. Aniqlanishicha, uning bradicardiya chaqiruvchi ta'siri sinus tugunida aralashgan Na^+-K^+ ning kiruvchi oqimini tanlab to'sadi (1).¹ Vosita IF-ochiq kanallari orqali o'tadi va ichidan ularni bekitadi. Bu sekin diastolik depolyarizasiyani uzayishida namoyon bo'ladi (faza 4), sinusli tuguni avtomatizmi susayadi va bradicardiya rivojlanishiga olib keladi. Bunda diastolik vaqt uzayadi va yurakning kislorodga talabi kamayadi. Bir vaqtning uzida yurakda, ayniqsa endokardda qon aylanishi yaxshilanadi (diastolik koronar perfuziya vaqtini uzaytirishi hisobiga.) Ivabradin to'g'ridan-to'g'ri koronar tomirlarga ta'sir ko'rsatmaydi. Vosita repolyarizasiyani arzimas uzaytiradi. Muhimi shuki, ivabradin miokardning qisqaruvchanligi va o'tkazuvchanligiga ta'sir qilmaydi. β -adrenoceptorlar va kalsiy kanallariga susaytiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi.

Uni kuniga 2 mahal enteral qabul qilinadi. Ivabradin yurakning ishemik kasalligini va surunkali yurak yetishmovchiligini davolash uchun tavsiya etilgan. Preparat yaxshi o'zlashtiriladi. Ba'zida ko'rishning buzilishi yuz berishi mumkin. Preparatni birdan to'xtatilganda "berish" fenomeni kuzatilmaydi. Bradikardik vositalar aritmiyaga qarshi faoliyka ham ega.

Bu guruhga koronar tomirlarni kengaytiruvechi yoki kornarspazmalarni yo'qotuvechi vositalar kiradi. Ular silliq mushakli tomirlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishi yoki gumoral va neyrogen omillar orqali bilvosita ta'sir qilishi mumkin.

a) Koronar tomirlarni kengaytiruvechi miotrop ta'sirga ega vositalar.

Bu guruh vositalarga dipiridamol kiradi.

Dipiridamol (kurantil) pirimidinning hosilasi hisoblanadi. Uning asosiy ta'siri tomirlarning qon oqimiga qarshiligini pasaytirishga, koronar tomirlarda oqib o'tayotgan qon hajmini oshirish va kislorodning yetkazilishini yaxshilashga qaratilgan. Bu o'zgarishlar miokardning mayda rezistiv tomirlariga taalluqli. IF:Engl. funny-kulgili: bunday belgilanish boshqa har xil kiruvechi toklardan farqli giperpolizasiyada IF aktivirlanadi (boshqa toklar-depolyarizasiyada).

Dipiridamolning yurakka qon ta'minlashni unumli ta'sirini adenozinning teskari bosimini yanchilishi (miokard bilan, eritrosidlar bilan) va adenozindezamidazlar fermenti ingibirashi bilan bog'laydilar. Natijada, miokarda adenozinning yuqori konsentrasiyasi yig'ilib qoladi, ma'lumki bu sezilarli koronar kengaytiruvechi samaraga ega va miokardning gipoksiyasida ajraladi. Tizimli gemodinamikaga dipiridamol kam ta'sir qiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, dipiridamol trombosidlar agregasiyasiga to'xtatuvchi ta'sir ko'rsatadi (19:19.1. bob), miokardning mikrosikulyasiyada ijobjiy seziladi.

Vositani stenokardiyada koronar tomirlar aterosklerozi yo'q holatlarda qo'llanadi. Okklyuzi koronar shoxchalari ateromatoz blyashkasida dipiridamol ishemik qismga kislorod ta'minlashni yaxshilanishiga emas, balki uning qon ta'minlashni yomonlashtirishi mumkin. Ishemik miokarda mayda koronar tomirlar maksimal kengayganligi bilan tushuntiriladi (gipoksiyaga kompensator reaksiya). Agar dipiridamol yuborilsa, kollateramiy va arteriollar kengayishi miokardning o'zgarmas qismida va bu esa yanada ko'proq qon va kislorodni ishemik joyga borishni kamaytiradi (o'g'rakash sindromi yuz beradi). Bu harakat xususiyatlarni dipiridamolni inobatga olib, uni ba'zida yashirin koronar yetishmovchiliginini aniqlashda qo'llaniladi.

Umuman, dipiridamol yuqori bo'lmagan antianginal faollikka ega. Ichga qabul qilinadi. Nojo'ya ta'sirlaridan dispezik hodisalar, bosh og'rig'i, gipotensiya kuzatiladi.

b) Koronarospazmni bartaraf qiluvchi reflektor harakatli vositalar. Validol shunday vositadir. 25-30% mentola suyuqligini mentil esiri izovalerian kislotadan tarkib topgan. Validolning samarası antianginal vosita sisatida past. Stenokardiya birinchi hurujlar paydo bo'lganda, shuningdek uning yengil ko'rinishlarida tavsiya qilinadi. Validoldan bir necha tomchi oq qand bo'lagiga tomiziladi, tabletka yoki kapsulali vositani til tagiga joylashtiriladi (to'liq so'rilmuncha). Og'iz bo'shlig'ini shillik kavatini ta'sirlantirib, odatiy krornar qon aylanishini yaxshilaydi. Agar 2-3 dakikadan keyin ogrik utib ketmasa validol ta'sir kilmagan deb hisoblab, uni nitroglisirin bilan almashtirish kerak.

KARDIOPREKTOR VOSITALAR.

Yurak ishemik kasalliklarini davolashning puxta yo'nalishidan biri kardiositolarning ishemiyasiga chidamliligini oshiruvchi karioprektor vositalarning yaratilishidir. Bu guruh vositalaridan biri trimetaziddir (preduktal), ishemiya sohasida kardiomiositlarga to'g'ri harakat ko'rsatuvchi va ularning energetik munosobatliligini me'yorlovchidir. Uning kardiotrop harakati hujayra darajasida umumiy gemodinamikaga qandaydir ta'sir ko'rsatishi bilan kuzatilmaydi. Vosita ishemiyada yuz beruvchi kardiomiositlarda ATP tarkibini pasayishi ogohlantiriladi. Bu hujayra energetik resurslarni saqlaydi. ion kanallari funksiyasini va ion kinetikasini me'yorlashtiradi. Sinov natijalari asosida quyidagi taxmin aytildi. trimetazidin kardioprektor harakati mexanizmlaridan biri, uzun zanjirli izofarma fermenti 3-ketoasil KOA tiolaziga uning ingibir ta'siri, natijasida yogli kislotalar taxirlashishi bosiladi. Shuning ta'sirida glyukoza taxirlanishi faollashadi, miokard funksiyasiga unumli ta'sir qiladi.

Keyinga yillarda trimetazidining yangi dori turi yaratilgan (reduktal MV), uzoq ta'sir harakati bilan ajralib turadigan va kun davomida moddalarning muntazam konsetrasiyasini ta'minlovchidir. Bu esa uning ishemiyaga qarshi samarasiga unumli ta'sir qiladi. Vositani kuniga 3 m, preduktal MV-2 m tavsiya

kilinadi. Ovqat hazm qilish yo'lida vosita tez va butunlay so'riladi. Taxminan yuborilgan dozaning yarmi jigarda metabolizasiyalanadi. Qonning oksil plazmalari bilan arzimas bog'lanadi (-1%). Trimetazidin va uning metabolitlari asosan buyraklar orqali chiqariladi. Vosita yaxshi o'zlashtiriladi va amalda hech qanday nojo'ya ta'siri yo'q.

Trimetazidinning stenokardiyada klinik o'rGANishlar kuzatuvlari, aortokornar va boshqa holatlarda guvohlik beradi, uning qo'llanishi maqsadga muvofiqligi monoterapiya ko'rinishidagi miokard ishemiyasida yoki antianginal boshqa vositalar bilan birga ishlatilganda ko'rindi.

MIOKARD INFARKTIDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Miokard infarkti, agar u kardiogen shoki bilan murakkablashgan bo'lsa dori vositalari kompleksi ishlatiladi. Og'riq sindromini yo'qotish uchun opioid analgetiklar (fenanil, morfin, promedol) va narkoz azoti uchun vosita zakis tavsiya etiladi. Neyroleptanalgeziya (talamonal) yaxshi og'riq qoldiruvchi samara beradi. Agar gitoptenziya ko'rinishi bo'lmasa, ba'zida nitrogliserin ishlatiladi. Infarkt miokarda artimiya yuz beradi, bu patalogiyada keng qo'llaniladi, artimiyaga qarshi vositalar (masalan, lidokain). Buzilgan gemodinamikani tiklash uchun, munosib ko'rsatgichlar asosida yurak glikozidlari (strovantin) vazopressorli vositalar (noradrenalin, mezaton) ishlatiladi. Ishemiya to'qimalarda va arterial spazmda a-adrenoblokatorlari foydali bo'lishi mumkin (fentolamin, aminazin kichik dozalarda). Tromb paydo bo'lishi provelaktikasi uchun antikoagulyantlarni (geparin va boshk 19: 19.1-bob) va antiagregantlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Toza tromb xavfi borligida fibrinometik vositalar (masalan, streptokinazani: 19:19.1 bob) yuboriladi. Bundan tashqari, qator simptomatik vositalar qo'llaniladi, kislotno-asosli korrektorlar holati, plazma o'rindoshlar va boshq. Kerakli vositalar tanlash, har bir alohida holatda kasalning ahvolidan kelib chiqadi.

Dori vositalar

| Nomi | O'rtacha terapeutik doza kattalar uchun: yuhorish yo'llari | Chiqarilish formasi |
|--------------------------------------|--|--|
| Nitroglycerin-Nitroglycerinum | Til ostiga 1-2 tomchi 1% suyuqlik: $\frac{1}{2}$ tab: 1 kapsula | 5 ml 1% flakon suyuqlik tab 0,0005 g: 1% suyuq yog'da, kapsulada 0,0005, 0,001 |
| Sustak-Sustac-mite Sustac - forte | Ichga 1 tab Ichga 1 tab | Tab 2,6 mg nitroglis. Tab 6,4 mg nitroliserin |
| Trinitrolong-Trinitrolong | Applikasiya og'izning shillik katlamiga 0,001-0,002 g | Applikasiya uchun plastinkalar. 0,001-0,002 g nitroglycerini bor |
| Erinit-Erynitum | Ichga 0,01-0,02 g | Tab 0,01 va 0,02 g dan |
| Nitrosorbi-Nitrosorbidum | Ichga 0,005-0,001 g | Tab 0,005 va 0,01 g dan |
| Nifedipin -Nifedipine | Ichga 0,01-0,02 g | Tab (drajje) 0,01 g dan |
| Validol-Validolum | Til ostiga 4-5 tomchi | 5 ml 1 flakonlar: tab 0,006 g dan: kapsula 0,05 va 0,1 dan |
| Trimetazidin-Trimetazidine | Ichga 0,02 g | Tab 0,02 g dan |

I Verapamil dozalari 14-20oda ko'rsatilgan

14.4. MIYADA QON AYLANISHI BUZILGANDA QO'LLANADIGAN VOSITALAR

Miyada qon aylanishni farmakologik boshqarish tibbiyotning dolzarb muammolaridan biridir. Bu miyada qon aylanishni o'tkir va surunkali buzilishlari aholi urtasida o'lim va nogironlikning asosiy sabablaridan biri ekanligi bilan bog'liq.

Serebrovaskulyar patologiya ichida miyaning ishemik kasalliklari, jumladan ishemik insult asosiy o'rin egallaydi. Miya boshqa tuqimalarga nisbatan ishemiyaga ko'prok sezgir. Shu sababli ishemiya kelib chiqqanda miyada qon aylanish buzilishini bartaraf etish yoki kamaytirishning shoshilinch choralar ko'rildi.

Miya qon aylanishining patologiyasi funktsional va organik buzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin (tomirlar spazmi, emboliyalar, ateroskleroz, gemorragiyalar).

Ko'p hollarda ishemik insultlarning sababi tomirlarning, ayniqsa uyqu va umurtqa arteriyalarining aterosklerozdan shikastlanishi hisoblanadi. Bunday

hollarda insult kelib chiqishining oldini olish uchun antiagregantlar (asetilsalisil kislota, tiklopidin, klopidogrel) tavsiya etiladi.

Miya qon aylanishining o'tkir buzilishlari ichida subaroxnoidal va miya ichiga qon quyilishlar ko'proq uchraydi. Gemorragik insultlarning rivojlanish sabablariga arterial gipertenziya, anevrizmlar, jumladan mikroanevrizmlar, angiomalar kiradi. Gemorragik insultlarda vazokonstriktor reaksiyalar yaqqol ifodalangan bo'ladi. Bunday bemorlarni davolashning usullaridan biri – gematomani jarrohlik yo'li bilan olib tashlash (agar mumkin bo'sa).

Ishemik insultlarning ko'p uchraydigan sabablari miya tomirlarining ayrim shoxlarini bekitib qo'ygan embol va tromblardir. Bunday hollarning oldini olish va qayta takrorlanmasligi uchun odatda, bevosita va bilvosita antikoagulyantlar (geparin, geparinni kichik molekulali preparatlari varfarin, sinkumar, fenilin) ishlataladi.

Miya qon aylanishining o'tkinchi buzilishlari (tranzitor ishemik xurujlar) miya tomirlari spazmi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday holla oldini oluvchi chora sifatida antiagregantlar va antikoagulyantlar ishlataladi. Bu ikkala guruh preparatlari ham qon quyilishlarda yoki ularning kelib chiqish xavfi bo'lganda man etiladi. Bundan tashqari miya tomirlari tonusini pasaytiruvchi preparatlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

Turg'un va yaqqol ishemiyalarda miya to'qimasi nekrozi rivojlanadi.

Miyaning ishemiya bilan bog'liq o'tkir shikastlanishlarida, ko'pincha miyada qon aylanishning surunkali yetishmovchiligi uchraydi. Bunda xotira, intellektual va ruhiy qobiliyat, xarakter va motor reaksiyalar ham buziladi. Bu salbiy ko'rinishlar odatda kuchayib boradi va yosh va qo'shilib kelayotgan patologik jarayonlar bilan bog'liq (tomirlar aterosklerozi, arterial gipertenziya, metabolizm buzilishi va boshq.).

Miyada qon aylanishning yetishmovchiligini oldini olish va davolashning asosiy prinsiplaridan biri – miya tomirlarini kengaytirishdir. Bunday samara olish uchun periferik tomirlarning tonusini pasaytiruvchi tomir kengaytiruvchi vositalar ishlataladi. Lekin bunday preparatlari umumiy gipotenziya chaqirib, miyani qon bilan

ta'minlanishini pasaytiradi, oxirgi natija ijobjiy bo'lmasligi mumkin. Shu sababli miya tomirlarini tanlab kengaytiradigan, umumiy qon aylanishga sezilarli ta'sir etmaydigan moddalar talab etiladi. Bunday vositalarni yaratish esa ancha murakkab.

Ma'lum dori vositalaridan faqat nimodipin, vinposein (kavinton) va pikamilon miya tomirlariga nisbatan tanlab ta'sir qiladi.

Miya tomirlari patologiyasini davolashning yana bir prinsipi asab hujayralarining ishemiyaga nisbatan turg'unligini oshirishdir, gap neyroprotektor ta'sirga ega preparatlar ustida bormoqda.

Miya ishemiyasida qon aylanishni yaxshilovchi vositalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

I. Qonning agregasiyasi va ivishiga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar:

- Antiagregantlar;
- Asetilsalisl kislota;
- Tiklopidin Klopidoqrel;
- Antikoagulyantlar;
- Geparin;
- Past molekulalgi geperin;
- Varfarin;
- Sinkumar;
- Fenilin.

II. Miyada qon aylanishni kuchaytiruvchi vositalar:

- L-tipdagisi kalsiy kanali blokatorlari;
- Nimodipin;
- Sinnarizin;
- Flunarizin

Ishemik insultlarda fibrinolitikiarni qo'llash maqsadga muvofiq emas, chunki qon ketish xavfi tug'iladi.

Barvinka o'simligi alkaloidi hosilalari (Kavinton).

Qoramug' alkaloidlari hosilalari (Nisergolin).

Nikotin kislota unumlari (Ksantino! nikotina).

GAMK va uning hosilalari (Aminalon Pikamilon).

Purin alkaloidlari hosilalari (Pentoksinfillin).

izohinolin katori opiy alkaloidlari (Papaverin gidroxlorid).

Miyadagi qon aylanishiga ko'proq ta'sir qiladigan L-tipdagi kalsiy kanali blokatorlariga nimodipin kiradi. U 1,4-digidropiridin hosilasi hisoblanadi. Miya arteriolalari tonusini pasaytiradi. Miya to'qimalari oksigenasiyasini kuchaytiradi. O'tkir miya ishemiyasini o'tkazganda, subaroxnoidal qon quyilishlarda, miyaning surunkali ishemiyasida ishlataladi. Keksalarda miya faoliyatini yaxshilaydi. nojo'ya ta'sirlari bosh og'rig'i, dispeptik buzilishlar, venaga yuborilganda – gipotensiya.

Disenilpiperazin qatoriga kiruvchi kalsiy kanali blokatorlari – sinnarizin (stugeron), flunarizin (sibellum) ham miya qon aylanishiga ijobjiy ta'sir qiladi. Umumiy qon aylanishga ular kam ta'sir qiladi. Miya tomirlari spazmi, ateroskleroz vestibulyar buzilishlar, insult o'tkazilganda, bosh miya jarohatlarida qo'llanadi.

Preparatlar yaxshi qabul qilinadi. Uyquchanlik, sedativ ta'sir, og'iz qurishi, dispepsiyalar kuzatilishi mumkin. Ular etil spiriti ta'sirini uzaytiradi.

Barvinka o'simligi (Vincaminor) alkaloidlari hosilalari vinposestin (kavinton) ham miya ishemiyasida keng ishlataladi. U devinkan alkaloidi yarimsintetik hosilasi hisoblanadi. Spazmolitik ta'sir ko'rsatadi. Ko'proq miya tomirlarini kengaytiradi. Vinposetinni miya qon aylanishi ta'siri mexanizmi oxirigacha o'r ganilmagan. Ko'pchilik bu bevosita miotrop ta'sir deb hisoblaydi. Preparat neyronlar natriy kanallarini bekitishi to'g'risida ma'lumotlar bor. bu ishemiyaga qarshi faollikda ma'lum ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari vinposetin miya to'qimalarida modda almashinuvini me'yoriga keltiradi. Trombositlar agregasiyasini kamaytiradi. Qonni patologik oshgan ivish xususiyatini kamaytiradi.

Preparat hazm yo'llarida yaxshi suriladi. Biosamaradorligi 57 % -5 s. Insultdan so'ng miya faoliyati buzilganda. miya qon aylanishining surunkali yetishmovchiligidagi, ko'z to'qimalari ishemiyasida, tomirlarga yoki zaharlanishga bog'liq eshitishning pasayishida, xotira susayganda, bosh aylanishlarida ishlataladi.

Preparat yaxshi qabul qilinadi. Vena orqali yuborilganda gipotensiya, taxikardiya chaqirishi mumkin.

Nisergolin (sermion) qoramug' va nikotin kislota alkaloидларининг о'зida jamlagan, α -adrenobloklovchi va spazmolitik faollikkha ega.

Periferik va miya tomirlarini kengaytiradi. Uni miyada qon aylanishi buzilganda, migrenda, periferik gemodinamika buzilishlarida, ko'z nervi ishemiyasida ishlatiladi. Nojo'ya ta'siri: gipotensiya, bosh aylanish, teri qizarishi, qichishish, dispepsiylar.

Miya ishemiyasida nikotin kislota hosilalari ham qo'llanadi. Ular butun periferik tomirlar va miya tomirlariga kengaytiuvchi ta'sir ko'rsatadi. Lekin nikotin kislota ko'plab nojo'ya ta'sirlarga ega, shu sababli periferik va miya tomirlari spazmida xavfsizroq bo'lgan uning hosilalarini ishlatiladi. Shulardan biri ksantinol nikotinat (komplamin), tarkibida nikotin kislota va teofillin elementlari mavjud. U periferik va miya qon aylanishini yaxshilaydi.

Shuningdek, tarkibida nikotin kislota va boshqa spazmolitiklar saqlagan kombinirlangan preparatlar – nikoverin (nikotin kislota va papaverin), nikoshpan (nikotin kislota va no-shpa) ishlatiladi.

GAMK va uning hosilalari (aminalon, pikamilon) miyada qon aylanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aminalon GAMK hisoblansa, pikamilon tarkibida GAMK va nikotin kislota mavjud. Har ikkala preparat miyada qon aylanishini va miya to'qimasida metabolik jarayonlarni yaxshilaydi. Pikamilon miya tomirlarini sezilarli kengaytiradi.

Purin hosilalari (kosein, teobromin) miyada qon aylanishni kuchaytirishi avvaldan ma'lum. Hozirda miyada qon aylanishni yaxshilash uchun shu guruhdan pentoksifillin (agapurin, trental) ishlatiladi. U tomirlarni biroz kengaytirib, trombositlar agregasiyasini kamaytiradi, eritrositlar pardasi elastikligini oshiradi, mikrosirkulyasiyani yaxshilaydi. Tomirlarni kengaytiuvchi samarasni adenozin reseptorlarini falajlanishi bilan bog'liq. Preparat bundan tashqari fosfodiesterazani ingibirlab, trombositlarda SAMF miqdorini oshiradi. Pentoksifillin periferik qon aylanishi buzilganda, diabetik angiopatiyalarda, ko'zda qon aylanishi buzilganda ishlatiladi.

Nojo'ya ta'sirlari: dispepsiylar, bosh aylanishi, yuz terisi qizarishi.

Miya ishemiyasi farmakoterapiyasining yana bir yo'nalishi neyronlarning gipoksiyaga chidamliligini oshiruvchi neyroprotektor preparatlarni yaratishdan iborat.

Miya ishemiyasida neyronlarning shikastlanishi ko'plab sabablarga metabolizm buzilishi, asidoz rivojlanishi, mediatorlar ajralishining o'zgarishi (glutamat va b.), kalsiy ionlarining hujayra ichiga tez kirishi, erkin radikallar ajralishi, proteoliz va boshqalar. Shu sababli neyroprotektor vositalarni ta'sir prinsipi turli xil bo'lishi mumkin.

Metabolizmn susaytiruvchi va miya to'qimalarini gipoksiyaga chidamliligini oshiruvchi vositalarga barbituratlar kiradi. Natriy oksibutirat ham antigipoksik ta'sirga ega. Qo'zgatuvchi aminokislotalar samarasini susaytiruvchi vositalar, NMDA – reseptorlari antagonistlari- dizosillin (MK 801) va boshqalar e'tiborga molik. Xuddi shu yo'nalishda tutkanokka qarshi vosita - natriy kanallari blokatori lamotridjin ishlataladi. Lekin hozircha bu guruh vositalar izlanish bosqichida, miya ishemiyasida ulardan foydalanish haqida yagona fikr yo'q. GAMk hosilasi bo'lgan ko'p preparatlar asab to'qimasida almashinuv jarayonlariga ijobjiy ta'sir etadi (aminalon, pikamilon va b.). Ular miyada qon aylanishni ham yaxshilaydi. L-tipdag'i kalsiy kanallari blokatorlari nimodipin, sinnarizin, flunarizin ham yaqqol samara berishi aniqlangan. Bu preparatlar potensialga bog'liq kalsiy kanallarini to'sadi va neyronlar ichiga kalsiy ionlari kirishini kamaytiradi, neyrotrop samara ko'rsatadi. Bundan tashqari ular miya tomirlarini kengaytiradi, asab to'qimalari oksigenasiyasini yaxshilaydi, metabolizmni mo'tadillashtiradi. Nimodipin olingan ma'lumotlarga ko'ra ishemiya kelib chiqishi xavfini kamaytiradi va subaroxnoidal qon quyilishi tufayli buzilgan neyronlar faoliyatini tiklashga yordam beradi. Vinposein miya to'qimasi metabolizmiga ijobjiy ta'sir ko'rsatib, neyroprotektor va tomirlarni kengaytiruvchi samara beradi. Barbituratlar, natriy oksibutirat va umumiy narkoz uchun vositalar faqat miyada metabolizmga ijobjiy ta'sir ko'rsatib, neyroprotektor samara beradi.

Migrenning rivojlanish mexanizmi aniqlanmasdan qolmoqda. Genetik omillar, neyrogen va tomirli buzilishlar, perivaskulyar to'qimalarga plazma


transsudasiyasining ahamiyati muhokama qilinmoqda. Biroq, qaysi mexanizm birlamchi ekanligi hozircha nomalum. Shunga qaramasdan, migren patogenezida serotoninergik sistemaning muhim roli umumiy tan olingan.

Serotonin tomirlar tonusini hamda markaziy va periferik nerv sistemalarining funksiyalarini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. U yirik tomirlar – arteriyalar va venalarning torayishini chaqiradi (serotoninli 5-HT2A- reseptorlarga ta'sir qilishi hisobiga). Shu bilan birga, 5-HT1-reseptorlarini qo'zg'atib, serotonin periferik tomirlarni kengaytiradi, miya tomirlarini esa toraytiradi. Sezilarli ta'simi serotonin mikrosirkulyasiyaga ko'rsatadi. U arteriolalarni kengaytiradi va venulalarni toraytiradi, bu esa kapillyarlarda bosimning oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, serotonin oqsil molekulalari uchun kapillyarlar o'tkazuvchanligini oshiradi, buning natijasida suyuqlikning atrofdagi to'qimalarga chiqishi kuchayadi.

I Instenon tarkibiga geksobendin, etamivan va etofillin kiradi. Geksobendin [N,N-etilen-bis (3-metilaminopropil) -3,4,5-trimetoksibenzoat] spazmolitik va koronar tomirlarni kengaytiruvchi ta'sirlarga ega. Miya to'qimasining ishemiyasida miya qon oqimini kuchaytiradi va metabolik jarayonlarni faollashtiradi (masalan, anaerob glikoliz). Etamivan (vanilin kislotasining N,N-dietilamid) MNS qo'zg'atadi va ta'sir qilishi bo'yicha analeptiklarga kiritilishi lozim (kordiamin singari). Etofillin (gidroksietileofillin) o'z xususiyatlari bo'yicha teofillinga xos. Miya qon aylanishini yaxshilaydi, kardiotonik va bronxolitik ta'sir ko'rsatadi.

14.4 Miya qon aylanishiga ta'sir qiluvchi ba'zi vositalarning kimyoviy tuzilishi

Markaziy asab sistemasida serotonin post- va presinaptik reseptorlariga ta'sir qiladi. Ayrim neyronlarga susaytiruvchi, boshqalarga esa rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Presinaptik serotonin reseptorlariga ta'sir qilib (5-NTIV, 5-NT1D), u serotonin chiqarilishini kamaytiradi. Bundan tashqari, serotonin reseptorlari (5-NT3) og'riqni sezishda qatnashuvchi neyronlarning oxirlarida topilgan.



Migrenda samarali bo'lgan serotonergik vositalarni yaratish asosiy g'oyasi, migren patogenezida katta rol o'yinaydigan serotonin reseptorlariga tanlab ta'sir qiluvchi moddalarning sintezidan iborat. Hozirgi paytda, bundaylarga 5-NTsh va 5-NTIV reseptorlarni

kiritish kerak, deb hisoblanadi. Bunday reseptorlarning birinchi agonisti olingan – Sumatriptan, u migrenning o'tkir hurujlarini bartaraf qiluvechi juda samarali preparatdir. Migrenda ishlatiladigan vositalar ikki guruhga bo'linadi.

I. O'tkir migren hurujlarni bartaraf qilish uchun dori vositalari:

- Qoramug' alkaloidlari va uning hosilalari – Ergotamin, Digidroergotamin

(digidergot):

- Indol hosilalari – Sumatriptan (Imigran)

- No-opioid (nonarkotik) analgetiklar – nosteroid yallig'lanishiga qarshi dori vositalari:

- Parasetamol, Asetilsalisil kislotasi, Naproksen, Indometasin, Ibuprofen;
- Qusishga qarshi moddalar (yordamehi vositalar), Metoklopramid.

II. Migren hurujlarini oldini oluvchi dori vositalari

- β -adrenoblokatorlar: Anaprilin, Atenolol, Metoprolol;
- Uch-siklik moddalar: Pizotifen (sandomigran);
- Lizergin kislotasi hosilalari: Metisergid (Lizeril);
- Nosteroid yallig'lanishga qarshi dori vositasi: Naproksen;
- Uch-siklik antidepressanlar: Amitriptilin;
- Antiepileptik vositalar: Karbamazepin, Klonazepam

Migrenni oldini olish va davolash eng samarali dorilarni yakka tartibda tanlanishini talab qiladi.

Migren hurujlarini bartaraf qilish uchun azaldan qorakuya alkaloidlari va ularning digidrogenlangan hosilalari qo'llanilgan (15 va 4,2-hobga qarang). Eng samaralisi – Ergotamin. U serotonin reseptorlarining qisman agonisti bo'sib hisoblanadi. 5-HT1A-t-reseptorlarini tanlamasdan bloklaydi. Bundan tashqari, α -adrenoblokator ta'sirga ega. Katta konsentrasiyalarda dopamin reseptorlarini ham susaytiradi. Ehtimol, Ergotamining migrenda samaradorligi, uning vazokonstriktor ta'siri va miya tomirlarining puls tebranishlari amplitudasining kamayishi bilan bog'liq. Shuningdek, Ergotamin miyaning qattiq pardasida kapillyarlar orqali plazma transsudasiyasini pasaytiradi, degan faraz bildirilgan. Dori ichish uchun, til ostiga va to'g'ri ichak orqali yuboriladi.

Migren hurujini tez bartaraf qilish uchun Digidroergotamin mezilatni aerozol ko'rinishida burunga yuborish (digidergot burun spreyi) taklif qilingan. Digidroergotamin serotonin reseptorlarining (ayniqsa, 5-HT1D kichik turini) agonisti hisoblanadi. Bundan tashqari, u kuchli α -adrenoblokator ta'sirga ega. Periferik tomirlarga spastik ta'siri kam ifodalangan. Terapevtik ta'siri tez rivojlanadi. Qon plazmasidagi eng yuqori konsentrasiyasi taxminan 45 daqiqadan keyin aniqlanadi. Biologik o'zlashtirilishi taxminan 40%. Ta'sir qilish vaqt 10-12 soat. Nojo'ya ta'sirlari: ko'ngil aynishi, qayt qilish, paresteziyalar, to'sh ortidagi

og'riqlar, burun bitishi hissi va boshqalar bo'lishi mumkin. Migrenni oldini olish uchun dori ishlatilmaydi.

Serotoninli 5-NT1D reseptorlarning selektiv ta'sirli agonisti – Sumatriptan (Imigran) hisoblanadi. Serotoninli reseptorlarning ushu kichik turiga migrenda neyrotomirli kasalliklar rivojlanishida muhim ahamiyat beriladi. 5-NT1V reseptorlarning kichik turi Sumatriptanga taxminan 5 barobar kam ta'sirchandir (5-NT1 reseptorlarining boshqa kichik turlari yanada kam ta'sirchan). 5-NT2-5 serotoninli reseptorlar, adreno-, xolino-, dofamin, GAMK, benzodiazepin reseptorlariga ta'sir qilmaydi.

Migrenda dorining samaradorligi miya tomirlarining vazokonstriksiyasi bilan bog'liq (5-NT1 reseptorlari funksiyasi bilan bog'liq va boshqa tomir sohalarida tomirlarning torayishi 5-NT2 reseptorlarini qo'zg'atish tufayli). Bundan tashqari, sumatriptan, presinaptik reseptorlariga ta'sir qilib, serotonin va boshqa mediatorlar ajralishini kamaytiradi. Agar bu perivaskulyar bo'shliqda sodir bo'lsa, u holda bir qator neyromediatorlar ajralishining kamayishi, og'riq kamayishining sabablaridan biri bo'lishi mumkin. Sumatriptan ichish uchun, teri ostiga va burun ichiga yuboriladi. Ichish uchun (enteral) qabul qilinganda uning biologik o'zlashtirilishi past (taxminan 14%), teri osti esa - taxminan 97%. Enteral qabul qilinganda ta'siri 30 daqiqada, teri ostiga - 10 daqiqadan keyin rivojlanadi. Dori qisman oqsillar (15-20%) bilan bog'lanadi; $t_{1/2} \sim 2$ soat. Umumiy ta'sir qilish vaqt - 12 soatdan kam. U jiga metabolizmga uchraydi. Metabolitlari buyraklar orqali chiqariladi.

Dori faqat migren hurujlarida yordam uchun ishlatiladi. Oldini olish maqsadida ishlatilmaydi.

Sumatriptanning eng jiddiy nojo'ya ta'siri – toj tomirlar spazmini chaqirish xususiyatidir. Shuning uchun yurak ishemik kasalligi va toj tomirlar torayishi rivojlanishi imkoniyatida uni buyurish tavsiya etilmaydi. Shuningdek, ko'ngil aynishi, qusish, ta'm buzilishi, bosh aylanishi, charchoq, harorat hissi va boshqalar kuzatiladi.

Migren oldini olish uchun tavsiya etilgan, ma'lum bo'lgan dorilardan biri – Metisergid. U serotoninli 5-NT2 reseptorlarning antagonistidir (ayrim MNS

tomirlari va bo'limlarida qisman agonisti sifatida ta'sir qiladi). Bemorlarning katta foizida samarali hisoblanadi. Biroq, uning qo'llenilishi cheklangan, chunki uzoq muddat foydalanganda (5-6 haftadan ortiq), u buyrak yetishmovchiligi, retroperitoneal fibrozga olib kelishi mumkin. Boshqa nojo'ya ta'sirlari ham kuzatilgan: ko'ngil aynishi, quşish, ich ketishi.

Tasniflash ro'yxatida keltirilgan boshqa dorilar tegishli bo'limlarda keltirilgan.

Dori preparatlari

| Nomi | Kattalar uchun o'rtacha davolash dozasi, yuborish yo'li | Chiqarish shakli |
|---|--|--|
| 1 | 2 | 3 |
| Nimodipin – <i>Nimodipine</i> | Ichish uchun 0,06 g; Tomir ichiga 0,001-0,002 g | Tabletkalar 0,03 g, 0,02% eritma flakonlarda 50 ml dan tomir ichiga quyish uchun |
| Sinnarizin – <i>Cinnarizine</i> | Ichish uchun 0,025-0,075 g | Tabletkalar 0,025 g; kapsulalr 0,075 g; eritma flakonlarda 20 ml dan tomir ichiga quyish uchun 20 ml (1 ml – 0,075 g) |
| Vinposetin – <i>Vinpocetine</i> | Ichish uchun 0,005 g; tomir ichiga (tomchilab) 0,01-0,02 g | Tabletkalar 0,005 g; 0,5% eritma ampulalarda 2 ml |
| Nisergolin – <i>Nicergoline</i> | Ichish uchun 0,01 g | Tabletkalar 0,01 g |
| Pentoksifillin – <i>Pentoxifylline</i> | Ichish uchun 0,1 g; tomir ichiga 0,1 g | Tabletkalar (draje) 0,1 g; 2% eritma ampulalarda 5 ml |
| Pikamilon – <i>Picamilone</i> | Ichish uchun 0,02-0,05 g | Tabletkalar 0,01-0,02 va 0,05 g |
| Sumatriptan – <i>Sumatriptane</i> | Ichish uchun 0,05-0,1 g; teri ostiga 0,006 g; intranasal 0,01-0,02 g | Tabletkalar 0,05-0,1 g; ampulalar 0,5 ml (0,006 g); |

intranasal sprey 0,01 g yoki 0,02

g

14.5. GIPOTENZIV VOSITALAR (ANTIGIPERTENZIV VOSITALAR)

Antigipertenziv dori vositalari tizimli arterial bosimni pasaytiradi. Ular asosan arterial gipertoniyada qo'llaniladi.

Qon bosimi juda ko'p omillarga bog'liq: yurak ishi, periferik qon tomirlar tonusi va ularning elastikligi, hajmi, aylanma qonning elektrolit tarkibi va yopishqoqligi. Bularning barchasi neyrogumoral nazorat ostidadir (14.11-jadval).

Tomir tonusiga ta'sir ko'rsatuvchi endogen moddalar

| Vazokonstriktorlar (tomir toraytiruvchi) | Vazodilatatorlar (tomir kengaytiruvchi) |
|---|---|
| Adrenalin | Adrenomedulin |
| Angiotenzin II | Asetilxolin |
| Vazopressin(antidiuretik gormon) | Bradikinin |
| Neyropeptid Y | Vazoaktiv intestinal peptid (VIP) |
| Noradrenalin | Gistamin |
| Prostaglandin G' | Natriyuretik peptidlari (V- i S-) |
| Tromboksan | Azot oksidi(NO; endotelialrelaks omil) |
| Endotelinlar | Prostasiklin (RGL) |
| | Purinlar (adenozin, ATF) |
| Dofamin Serotonin (5-HT) Prostaglandin E2vaD2 | |

I Neyromediatorlar, neyromodulyatorlar, gormonlar va boshqa biologik faol moddalar keltirilgan.

Tomirlar tonusini boshqarishda simpatik (adrenergik) innervasiya² va organizmda hosil bo'luvchi vazoaktiv birikmalarning katta miqdori ishtirok etadi (14.11.jadvalga qarang). Oxirgilar qatoriga endotelial moddalar, shuningdek qonda aylanuvchi gormonlar va boshqalar kiradi.

1 Yunoncha *hypo* I - ostida, pastda, *tonos* - taranglashish.

2 Ko'pchilik tomirlarning tonusini ushlab turuvchi neyrogen mexanizmlarda eng asosiy rolni adrenergik nervlar o'yнaydi. Faqat bir necha tomirli sohalarning (masalan, skelet mushaklari) qo'shaloq innervasiyasi bor – adrenergik va xolinergik.

Oxirgisini qo'zg'atish, tegishli tomirning kengayishiga sabab bo'ladi. Tomirlar tonusi shuningdek, dofaminergik va purinergik nervlari bilan boshqariladi.

Biologik faol moddalar. Ma'lumki, tomirlar endoteliysida ham vazodilatatorlar (masalan, azotoksi, prostasiklin, prostaglandin E2, natriyuretik peptid C), ham vazokonstriktorlar (endotelinlar) hosil bo'ladi. Bundan tashqari, tomirlar tonusini ko'p jihatdan qonda aylanuvchi ko'pgina vazoaktiv birikmalarining, ham vazokonstriktor, ham vazodilatator ta'siri bilan bog'liq. Shunday qilib, qon tomirlar sathida mahalliy va tizimli ta'sirga ega bo'lgan moddalarning o'zaro ta'siri ro'y beradi.

Tomir mushaklari tonusining oshishi, odatda hujayra ichidagi kalsiy ionlarining oshishi natijasida sodir bo'ladi. Bu reseptorlar orqali boshqariladigan, potensialga bog'liq kanallar yoki kalsiy kanallari orqali Ca^{2+} + yanada jadal oqimi tufayli bo'lishi mumkin. Ca^{2+} + konsentrasiyasi (endoplazmik retikulumdan ajralish, masalan, G-oqsillar bilan birikkan ko'p reseptorlarning faollahishida hosil bo'lувчи inoziltrifosfat uzatuvchisi ta'sirida) hujayra ichidagi depo hisobidan oshishi mumkin. Bunday yo'llar bilan vazokonstriksiyani angiotenzin II, endotelinlar va boshqalar chaqiradi.


Tomir silliq mushaklarining relaksasiyasi, o'z navbatida, hujayrada Ca^{2+} miqdori pasayishi bilan sodir bo'ladi. Misol uchun, bu kalsiy kanallarining blokida va tashqaridan Ca^{2+} kirishining kamayishidan ro'y berishi mumkin. SHunga o'xhash ta'sir Ca^{2+} kanallarning L-turidagi bevosita blokatorlari (masalan, Nifedipin) qo'llanilganda, yoki K^{+} kanallarining (minoksidil, diazoksid kiradi) faollahishi orqali va bunda paydo bo'ladigan giperpolarizasiya natijasida ham kuzatiladi. Oxirgi bilvosita tarzda potensialga bog'liq kalsiy kanallarining blokiga olib keladi.

Tomir silliq mushaklarining relaksasiyasini, hujayralardagi ikkilamchi o'tkazgichlar – sAMF (prostasiklin shunday ta'sir qiladi) yoki sGMF (masalan, NO donatorlari bilan: Nitratlar, natriynitroprussidlar)ning biosintezini oshirish bilan chaqirish mumkin. Shuningdek, fosfodiesterazani susaytirish yo'li bilan hujayra ichida siklik nukleotidlarning miqdorini oshirish mumkin (milrinon va boshq.). Bu ferment sAMF va sGMF ning faolsizlanishini boshqaradi.

Bunday barcha qonuniyatlar arteriya va venoz tomirlarga ham taailuqli.

Vazokonstriktorlar va vazodilatatorlardan tashqari, aralash ta'siri moddalar ham bor. Masalan, serotonin tomiriarning ko'philigini (qorin bo'shlig'i organlari, buyrak, o'pka va miya qon tomirlari) toraytiradi va ba'zilarini esa - (yurak, skelet mushaklari) kengaytiradi. Dofamining tomirlarga ta'siri dozasiga bog'liqidir. Kichik dozalarda, qo'shni tomir D1-reseptorlarini qo'zg'atib, qon tomirlarni (ayniqsa, buyrak, mezenterial) kengaytiradi. Biroq, yuqori dozalarda dofamining qon tomir α -adrenergik reseptorlariga ta'siri ustun turadi (shujumladan, undan noradrenalin hosil bo'lishi tufayli), bu esa vazokonstriksiya va umumiyl periferik qarshilik o'sishiga olib keladi. E2 va D2 prostaglandinlar, faol vazodilatator bo'lgan holda, qon bosimini pasaytiradi. Shu bilan birga, ba'zi bir tomir sohalarida ular vazokonstriksiyani chaqiradi. Masalan, prostaglandin D2 o'pka tomirlar tonusini oshiradi.

Gipotenziv dori vositalar ta'siri qon bosimi boshqarilishi fiziologik tizimining turli bo'g'inalariga qaratilgan bo'lishi mumkin (14.10 rasm). Shunday qilib vazokonstriktor va yurak-adrenergik ta'sirni kamaytiruvchi neyrotrop moddalar muhim rol o'yaydi. Ular ham vazomotor markazlariga, ham adrenergik (simpatik) innervasiyasingen periferik qismlariga – gangliyalar, postganglionar tolalari va adrenoreseptorlariga ta'sir qilishlari mumkin, bu esa qon tomirlar kengayishiga va yurak ishining susayishiga olib kejadi.



kamaytirish mumkin (masalan, ion kanallariga ta'sir qiluvchi moddalar, NO ajratuvchi moddalar va boshqa miotrop ta'siri spazmolitik dorilar yordamida).

Qon bosimini kamaytirishning mumkin bo'lgan usullaridan biri ham, aylanma qon hajmini kamaytirish va uning elektrolitlar tarkibini o'zgartirish hisoblanadi.


Taklif qilinayotgan, arterial gipertoniyanı davolashda ishlataladigan gipotenziv vositalarning klassifikasiyası ushbu tamoyillarga asoslangan.

I. Yurak-qon tomir tizimiga adrenergik innervasiyasining qo'zg'atadigan ta'sirini kamaytiruvchi dori vositalari (neyrotrop vositalari)

1. Vazomotor markazlar tonusini kamaytiruvchi dori vositalari: Klofelin Guanfasin Metildosa Moksonidin;
2. Vegetativ gangliylarni bloklaydigan dori vositalari (*ganglioblokatorlar*): Pentamin Gigroni;
3. Presinaptik oxirlari sathida adrenergik nevronlarni bostiruvchi dori vositalari (simpatolitiklar): Rezerpin;
4. A. adrenozeptorlarini bloklaydigan dori vositalari (adrenoblokatorlar) α-adrenoblokatorlar.

14.10-rasm. Neyrotrop va miotrop gipotenziv dori vositalarning ta'sir qilish joylari (chizma).

Endogen moddalarning (katexolamin, angiotenzin II) bostiruvchi ta'sirini bartaraf qilish yoki vazodilatatorlar (bradikinin va hokazo) ta'sirini kuchaytirish imkoniyati katta qiziqish uyg'otmoqda. Bundan tashqari, tomirlarning periferik qarshiligini, ularning silliq mushaklariga ta'sir qilish orqali



a) Post- va presinaptik α -adrenoblokatorlarni bloklaydigan dori vositalari: Fentolamin Tropafen;

b) Postsinaptik α -adrenoreseptorlarni bloklaydigan dori vositalari Prazozin

B. β -адреноблокаторлар

a) β_1 - va β_2 -адреноресепторларни bloklaydigan dori vositalari: Anaprilin;

b) asosan β_1 -адреноресепторни falajlovchilar: Atenolol, Talinolol, Metoprolol; V. β -, α -Adrenoblokatorlar:

Labetalol.

II. Umumiyl arterial bosimni gumoral boshqarilishiga ta'sir etuvchi vositalar

A. Renin-angiotenzin tizimiga ta'sir qiluvchilar:

I. Angiotenzin II sintezini susaytiruvchilar (APF-angiotenzin faollashtiruvchi ferment ingibitorlari): Kaptopril, Enalapril;

2. Angiotenzin reseptorlarini susaytiruvchilar (ATI): Lozartan,

B. Vazopeptidazalarini falajlovchilar: Omapatrilat.

III. Miotrop ta'sir etuvchi vositalar (miotrop vositalar):

I. Ion kanallariga ta'sir etuvchilar

a) Kalsiy kanali blokatorlari: Fenigidin, Diltiazem

b) Kaliy kanallarini faollashtiruvchilar: Minoksidil, Diazoksid.

2. Azot oksidi donatorlari (*NO*) Natriy nitroprussid.

3. Turli vositalar:

Apressin. Dibazol. Magniy sulfat.

IV. Suv-tuz almashinuviga ta'sir etuvchi vositalar (diuretiklar):

Dixlotiazid, Furosemid, Spironolakton.

Tasnidda faqat asosiy gipotenziv vositalar keltirilgan. Hozirgi kunda ham talab yuqoriligi uchun yangi, yuqori samarali va kam zaharli vositalarni turli xil sintetik birikmalar, o'simliklar alkaloidlari orasidan izlab topish ishlari keng davom etmoqda.

Tomirlar tonusini ushlab turishning fiziologik va biokimyoviy mexanizmlarini ushbu murakkab tizimning turli funksional darajalarida o'rghanish ham katta ahamiyatga ega. Bunday izlanishlar yangi gipotenziv vositalarni maqsadga muvofiq ravishda qidirish, mavjud preparatlarni yanada rasional ishlatish imkoniyatini beradi.

NEYROTROP GIPOTENZIV VOSITALAR

Gipertoniya kasalligini, ayniqsa, boshlang'ich shakllarini davolashda ba'zan tinchlantiruvchi vositalardan ham soydalaniladi. Bular kichik dozada anksiolitiklar yoki narkotik tipdagи uxlatuvchi vositalar bo'lishi mumkin. Odatda, ularni ruhiyatni tez o'zgaruvchan bemorlarga tayinlanadi. Lekin ular sedativ ta'sir bilan birga vazomotor markazlarga susaytiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Markaziy ta'sir ko'rsatuvchi gipotenziv vositalarga imidazolin hosilasi – klofelin (katapresan, klonidina gidroxlorid, gemiton) kiradi. Uning gipotenziv ta'siri neyronlarning postsinaptik α_2 -adrenoreseptorlarni va imidazolin μ -reseptorlarini ragbatlantirishi bilan bog'liq. Ochiq imidazolin reseptorlari geterogen hisoblanadi. μ -reseptorlar miya o'zagi, xrommasin hujayralari, buyraklar, trombositlar hujayra membranalarida aniqlanadi. δ -reseptorlar miya po'stlogi, buyraklar, jigar, trombositlar, yo'ldosh va boshqa a'zolar mitoxondriyalari va plazmatik membranalarida joylashgan. Imidazolin reseptorlari bilan maxsus birikadigan endogen digandlar ajratilgan. Shularday birikmalardan biri *agmatin* (dekarboksillangan arginin) hisoblanadi.

Uzunchoq miya rostral ventrolateral qismi solitar yo'li yadroklari. Bu o'z navbatida uzunchoq miya vazomotor markazlari neyronlari susayishiga va simpatik boshqariluvni tonusi pasayishiga olib keladi (14.11). Buning natijasida preganglionar simpatik tolalarda spontan efferent impulslar o'tishini susayishi ro'y beradi. Bir vaqtida adashgan nervlar tonusi oshadi. Yaqqol va turg'un gipotenziya yurak ishining (bradikardiya) va tomirlar periferik qarshiligining susayishi bilan bog'liq. Simpatik nervlar tonusi pasayishi bilan renin ajralishi kamayadi. Klofelin periferik presinaptik α_2 adrenoreseptorlarni rag'batlantirib varikoz kengaymalardan mediator noradrenalinni ajralishini kamaytiradi. Lekin bu preparatni asosiy markaziy ta'siriga qo'shimcha xolos. Arterial bosim tushishidan oldin qisqa muddatli gipotenziya bo'lishi mumkin (preparat tomonidan sinapsdan tashqari tomirlar α_2 adrenoreseptorlarini qo'zg'alishi hisobiga, lekin oxirgiga klofelinda past affinitet mavjud).

Klofelli MNSga susaytiruvchi ta'siri natijalari sedativ, uxlaturvchi, haroratni tushiruvchi samaralar bo'ladi.

Klofelin hazm yo'llarida yaxshi suriladi. Yuqori gipotenziv samaraga 2-4 soatda erishadi. Ta'sir davomiyligi odatda 6-12 soat. Asosan buyraklar orqali chiqariladi.

Klofelin gipertoniya kasalligida va gipertonik krizlarda ishlatiladi. Ichishga va parenteral yuborishga beriladi.

Markaziy ta'sir etuvchi gipotenziv vositalarni asosiy ta'sir yo'nalishlari. α_2 - α_2 -adrenoreseptor; II - II-imidazolin reseptori. Klofelin glaukomani davolashda ko'z tomehilari sifatida ishlatiladi. U ko'z ichki suyuqligi ishlanishini kamaytiradi va chiqib ketishini yengillashtiradi. Bu holda mioz kelib chiqmaydi. Klofelli narkotik tipdag'i uxlaturchilar, susaytiruvchi ta'sirga ega psixotrop vositalar, etil sperti bilan birga qo'llashda ehtiyoj bo'lish kerak, chunki ularning markaziy ta'sirlari kuchayishi mumkin. Klofelin ishtahani ochadi, so'lak bezlari va me'da sekretor faolligini kamaytiradi (og'iz qurishi kuzatiladi). Qabziyat bo'lishi mumkin. Klofelin tanada suv va natriy ionlarini ushlab qoladi, shuning uchun peshob haydovchilar bilan odatda qo'shib ishlatiladi. Bekor qilish sindromi (gipertonik kriz, uyqusizlik)

kelib chiqmasligi uchun klofelin bilan davolashni tugatishda dozasi asta-sekin pasaytirib boriladi.

Klofelinni transdermal shakli yaratilgan bo'lib, u 1 haftada 1 marta qo'llanadi.

Guanfasin (estulik) klofelinga o'xshash preparat. ta'siri davomli. $t_{1/2} = 12-24$ s. Kuniga 1 marta beriladi.

Imidazolin II-reseptorlari agonistlari hisoblanuvchi dori vositalari sintezlangan. Shulardan biri maksonidin (fizioteks). U sezilarli gipotenziv faollikkaga. Umumiy periferik qarshilikni kamaytirish, renin ishlaniшини va yurak ishini susaytirish orqali arterial bosimni tushiradi. Maksonidinda klofelin va metildosaga xos bo'lgan sedativ ta'sir yo'q. Kuniga 1 mahal beriladi. Asosiy nojo'ya ta'siri og'iz qurishi.

Ushbu guruhga rilmenden ham kiradi. Arterial bosimning markaziy mexanizmlarining boshqarilishiga ta'sir etuvchi moddalarga metildopa (metildopa, aldomet, dopegit) kiradi. Metildopa α -metilnoradrenalinga aylanib, MNSdagi postsinaptik α_2 -adrenoreseptorlarni rag'batlantirib, arterial bosimni boshqaruvchi neyronlar faolligini susaytiradi. Preparat MNSga sedativ ta'sir ko'rsatadi va uyquchanlik chaqiradi. Metildosani uzoq muddat yuborilganda kuzatiladigan gipotensiya preparat dastlab yurak hajmini kamaytirgani bilan asosan umumiy tomirlar periferik qarshiligining kamayishiga bog'liq.

Ichishga berilganda preparatning 20 % i hazm yo'llarida so'rildi. Samarasi 4-6 soatda boshlanadi va 1 sutka davom etadi. Zarur hollarda metildosa venaga yuboriladi. O'rganib qolish kam kuzatiladi. O'zgarmagan holda va metabolitlar holida buyraklar orqali chiqariladi. Metildosa odatda yaxshi qabul qilinadi. Lekin turli xil nojo'ya ta'sirlar kam bo'lsa-da kelib chiqishi mumkin. MNSga susaytiruvchi ta'sir ko'rsatishi oldin ham eslatilgan. Gohida depressiya, parkinsonizm kelib chiqadi. Ortostatik kollaps oktadinni va ganglioblokatorlarni qo'llagandagiga nisbatan kam uchraydi. Ba'zan dispeptik buzilishlar, og'iz qurishi, tanada suv va natriyni ushlanib qolishi, terida toshmalar, impotensiya, agronulositoz, trombositopeniya, gemolitik kamqonlik uchraydi.

Avval qayd etilgandek, simpatik innervasiya periferik qismida – gangliylar, postganglionar tolalar oxirlari va adrenoreseptorlar darajasida ganglioblokatorlar, simpatolitiklar, adrenoblokatorlar yordamida tusilishi mumkin.

Ganglioblokator vositalar (pentamin, benzogeksoniy va b) – samarali gipotenziv vositalar hisoblanadi. Lekin ular gipertonik kasallikkarni davolashda ishlataladigan dori vositalari sifatida hozirgi davrda o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Bu ganglioblokatorlarning faqat simpatik ganliylarga tanlab ta’sir qilmasdan, bir vaqtda parasimpatik gangliylarni ham falajlashi bilan tushuntiriladi. Bu bir qator nojo‘ya ta’sirlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Parasimpatik gangliylarni falajlanishi natijasida ichaklar tonusi susayib, qabziyat rivojlanadi, og‘ir hollarda ichak tutilishi kelib chiqishi mumkin. Gohida peshob qopni mushaklari tonusi susayishi, akkomadasiya buzilishi, og‘iz bo‘sning i shilliq qavati qurishi mumkin. Ganglioblokatorlarni qo’llashda tipik asorat simpatik gangliylarni susayishi va kompensator reaksiyalarni buzilishi bilan bog‘liq holda kelib chiqadigan ortostatik gipotenziyadir. Bu moddalarga o‘rganib qolish tez rivojlanadi. Ganglioblokatorlarni asosan, jarrohlik amaliyotlari o‘tkazilayotganda boshqariluvchi gipotensiya uchun ishlataladi. Bu maqsadda ko‘proq qisqa ta’sir etuvchi preparatlar (gigroni, arfonad) ishlataladi. Bundan tashqari, ganglioblokatorlar gipertonik krizlarda, o‘pka va miya shishida ham foydalanilishi mumkin (ularning latent davri qisqa, gipotenziv samarasini yuqori).

Gipertoniya kasalligini davolashda ba'zan adrenergik innervasiyani tanlab to'suvchi simpatolitiklar ishlataladi. Ular periferik adrenergik oxirlari darajasida noradrenalin mediatori zahirasini kamaytirib, efferent impulslarni to'sadi. Bu yurak ishini va periferik tomirlar tonusini kamaytiradi. Arterial bosimni turg'un pasaytiruvchi faol simpatolitiklarga oktadin va rezerpin kiradi. Rezerpin antipsixotik ta'sirga ham ega bo'lib, samarasida markaziy komponentlar yetakchilik qiladi (sedativ ta'sir). Oktadin MNSga o'tmaydi. Ikkala simpatolitiklar uchun ham ma'lum latent davr xos. Enteral yuborilganda arterial bosimning maksimal pasayishi 1-3 kun ichida rivojlanadi. Ganglioblokatorlarning ta'siri o'rtacha bir necha soatlar bilan o'chansa, simpatolitiklar chaqirgan gipotensiya davomiyligi kunlar bilan

o'lehanadi. Oktadin va rezerpinni qabul qilish to'xtatilgandan so'ng yuqori arterial bosimi 1-3 haftada tiklanadi. Hazm yo'llarida ikkala preparat nisbatan yaxshi suriladi. Ularga o'r ganib qolish deyarli kuzatilmaydi. Lekin ikkala preparatning ham ko'plab nojoya ta'sirlari bo'lib, bu ularni ishlatilishini cheklaydi. Adrenoreseptorlarni falajlochchi moddalar ichida β -adrenoblokatorlar e'tiborga molik. Ularning gipotenziv ta'siri bir necha komponentlardan iborat. Ular yurak hajmini kamaytiradi, doimiy qabul qilinganda tomirlarning umumiy periferik qarshiligini ham kamaytiradi. β -adrenoblokatorlar presinaptik β_2 -adrenoreseptorlarni susaytirib (noradrenalin ajralishiga nisbatan ularning rag'batlantiruvchi ta'sirini tusadi), shuningdek, renin ajralishini kamaytiradi (β_1 -adrenoreseptorlarni falajlanishi). Bundan tashqari, ularning gipotenziv ta'siri MNSni susaytiruvchi ta'siri bilan ham bog'lanadi. β -adrenoblokatorlarni uzoq vaqt davomida qu llaganda arterial bosimning yaqqol pasayishi kuzatiladi. Shu sababli gipertoniya kasalligida ham qo'llash tavsiya etiladi. Turli xil ta'sir spektriga ega preparatlar borligini nazarda tutish kerak: noselektiv – anaprilin β_1 - va β_2 -adrenoreseptorlarni falajlaydi; selektiv ta'sirli (talinolol, metoprolol, atenolol asosan β_1 -adrenoreseptorlarni falajlaydi, shuningdek, bir vaqtida ham α , β -adrenoreseptorlarni falajlochilar mavjud (labetalol). 4.2 bobda to'liq yoritilgan β -adrenoblokatorlardan labetalol (trandat) birmuncha farqlanadi. Unda noselektiv β -adrenobloklovchi va α -adrenobloklovchi ta'sir qo'shilib keladi (taxminan 3:1). Bir marta yuborilganda labetalol umumiy periferik qarshilikni kamaytiradi va arterial bosimni pasaytiradi. yurak hajmiga sezilarli ta'sir etmaydi (shu bilan β -adrenoblokatorlardan farqlanadi). Uzoq ishlatilganda yurak qisqarishlari sonini kamaytiradi. ruhiy va jismoniy zo'riqishda yurak hajmini ortishini oldini oladi. Renin ishlanishini kamaytiradi.

1 β -adrenoblokatorlarning gipotenziv ta'siri mexanizmi yetarli darajada aniq emas.

2 Terapevtik dozalarda β -adrenoblokatorlarning ba'zilari o'tkazuvchanlikni pasaytirmaydi.

1.abetalol gipertoniya kasalligining turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. U ichish uchun qo'llaniladi va ba'zan tomir ichiga yuboriladi (gipertoniq krizlarda). nojo'ya ta'siridan bosh aylanishi, ortostatik gipotensiya, ba'zida jinsiy ojizlik kuzatiladi. Aralash ta'sirli adrenoblokatorlarga kearvedilol ham (Dilatrend; 4.2.3-bobga qarang) kiradi.

Bir vaqtning o'zida ham pre(α_2)-, ham postsinaptik α -adrenoreseptorlarni bloklaydigan α -adrenoblokatorlar (fentolamin va boshqalar) yilda) adrenalin konsentrasiyasi qonda yuqori bo'lishi bilan bog'liq qon bosimining ko'tarilishida (seoxromositomada) tavsiya qilinishi mumkin. Ular muntazam qo'llash uchun ishlatilmaydi, chunki barqaror gipotenziyani ta'minlamaydilar (ba'zan ular gipertoniq krizlarda ishlatiladi).

Shu bilan birga, asosan postsinaptik α_1 -adrenoreseptorlar bloklab, presinaptik α_2 -adrenoreseptorlar (masalan, prazozin) ga deyarli hech qanday ta'sir qilmaydigan α -adrenoblokatorlar yaratilgan. Prazozin ta'sir qilganda adrenergik sinapslarda teskari salbiy aloqa mexanizmi saqlanib qoladi va noradrenalining ortiqcha ajralishi (kuchli ifodalangan taxikardiya sodir bo'lmaydi) ro'y bermaydi. Prazozinning gipotenziv ta'siri (u sig'imi katta tomirlarga kam ta'sir qiladi) chidamlilarning kengayishi oqibatida umumiy periferik qarshilikning pasayishi bilan bog'liq. Renin sekresiyasini oshirmaydi.

Prazozin ichakdan yaxshi so'rildi. Eng yuqori ta'siri 4-5 soat ichida rivojlanadi va deyarli 10 soat saqlanadi. Ba'zan gipotenziv ta'sir rivojlanishi kechikadi. Prazozin, asosan, metabolitlar ko'rinishida ichak orqali chiqariladi.

Ushbu dori gipertoniya kasalligi, yurak yetishmovchiligi hamda prostata bezining yaxshi sisatlari giperplaziyasida qo'llaniladi (4.2.1-bo'limga qarang). Mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlari: bosh og'rig'i, tez yurak urishi, uyquchanlik, ortostatik gipotensiya, bosh aylanishi; to'qimalarda suv yig'ilib qolishi.

α_1 -adrenoblokatorlarga, shuningdek, prazozindan gipotenziv ta'sirining uzoqligi bilan ustun turuvchi, Doksazozin (Kardura) kiradi (prazozin uchun t_{1/2} ~ 2-3 soat va Doksazozin uchun esa - 22 soat).

Renin-angiotenzin tizimiga ta'sir qiluvchi dori vositalari

Ma'lumki, angiotenzin II eng faol endogen vasopressor dori vositalari qatoriga kiradi va shu bilan bir qatorda, aldosteron ishlab chiqarilishini boshqarishda (14.12-rasm) ishtirok etadi. Shuning uchun renin-angiotenzin tizimini bostiruvchi dori vositalarini yaratish g'oyasi vujudga kelgan.

Tadqiqotlarning bitta yo'nalishi, angiotenzinogenni angiotenzin I ga aylanishini ta'minlaydigan (ikkala modda ham faol emas), proteolitik ferment reninning (buyrakning yukstaglomerular hujayralarida hosil bo'ladi) plazmadagi miqdorini kamaytiruvchi moddalarini izlash bilan bog'liq. Keyinchalik angiotenzin I dan vazoaktiv angiotenzin II¹ hosil bo'ladi (quyidagiga qarang).

Tabiiyki, renin ishlab chiqarilishini bostiruvchi moddalar, uning ko'p miqdorda ajralishida eng samarali bo'lislari lozim. Oxirgisi quyidagi hollarda amalga oshadi:

- Buyrak kalavasining afferent arteriolalarida bosimning pasayishi va qon hajmining kamayishida

- buyraklar distal naychalarida NaCl miqdorining kamayishida (signal zinch dog' – macula densa – ning epitelial hujayralaridan, ular bilan aloqada bo'lgan yukstaglomerular hujayralarga o'tadi);

- adrenergik innervasiya tonusining oshishida;

- prostasiklin va prostaglandin E2 ishlab chiqarilishi oshganda.

Ushbu ma'lumotlar asosida, adrenergik innervasiyaning tonusini pasaytirish orqali renin ishlab chiqarilishini kamaytirish mumkin. Buni, ham markaziy simpatik tonusni pasaytirish (klofelin, metildofa), ham presinaptik oxirlar (oktadin, rezerpin) va β_1 -adrenozeptor (anaprilin va boshqalar) darajasida impulslar o'tkazilishini bloklash yo'li bilan amalga oshirish mumkin. Mazkur neyrotropik vositalarning gipotenziv ta'sirida renin ajratilishining kamayishi aniq bir ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, lekin, odatda, u katta emas.

Renin ishlab chiqarilishining kamayishi, shuningdek, renin hosil bo'lishi va ajratilishini tuzlashtiruvchi prostaglandinlar sintezining (prostasiklin, PGE2), bostirilishida ham kuzatiladi. Bunday ta'sirga nosteroid yallig'anishga qarshi vositalar (indometasin va boshqalar) ega bo'ladi. ular sikloksigenazani bostirib, shu

tufayli prostaglandinlar biosinteziga to'sqinlik qiladi. Reninga bevosita bostiruvchi ta'sir ko'rsatadigan dorilar bor (enalkiren, remikiren). Biroq, bu moddalar yetarli darajada o'rganilmagan va ularning istiqbollarini baholash qiyin.

I Angiotenzin II dan angiotenzin III hosil bo'ladi. Ikkala birikma o'xshash ta'sir doirasiga esa. Biroq, angiotenzin II vasopressor ta'siri bo'yicha angiotenzin III dan 4 baravar ustun turadi. Shu bilan bir vaqtida, aldosteron ishlab chiqarilishiga rag'batlantiruvchi ta'sir bo'yicha, ular bir xil.

Angiotenzin-aylantiruvchi fermentni susaytiruvchi dorilar katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu ferment - peptidildipeptidgidrolaza (kininaza II). U qon tomirlar endoteliysi, o'pkalar, buyraklar va boshqa periferik to'qimalarda hosil bo'ladi. Bu ferment angiotenzin I ni eng faol angiotenzin II ga aylanishini ta'minlaydi.

Angiotenzin-aylantiruvchi fermentning birinchi noopeptid ingibitori kaptopril (Kapoten) edi, u bugungi kunda ham ishlatiladi. U angiotenzin-aylantiruvchi ferment bilan yuqori yaqinligi (affiniteti) bo'lib, bu singari xususiyati angiotenzin I ga nisbatan ancha yuqori. Markaziy va vegetativ nerv sistemalariga Kaptopril ta'sir qilmaydi.

Uning asosiy ta'siri angiotenzin II hosil bo'lishini kamaytirish bilan bog'liq. Bu tomirlar va buyrak usti bezlarining po'stlog'idagi angiotenzin reseptorlarining kam darajada faollashishi bilan hamda simpatik innervasiyaga kuchaytiruvchi ta'sirining (MNS da va periferiyada) kamayishi bilan namoyon bo'ladi. Bunda tomirlar tonusining qarshiligi pasayadi. Ba'zi venalarning kengayishi kuzatilgan. Mineralokortikoid aldosteronning ajralishi kamayadi. natijada tanada natriy ionlari kam miqdorda ushlanadi va hujayradan tashqari suyuqlik hajmi kamayadi. Bularning barchasi umumiy periferik qarshilikning pasayishiga sabab bo'ladi. Yurak otqini va yurak urishlari soni sezilarli darajada (yurak otqini Kaptoprili uzoq muddat qabul qilganda o'zgarishi mumkin) o'zgarmaydi.

Shuni yodda tutish kerakki, angiotenzin-aylantiruvchi fermentni (kininaza II ni) susaytirib, kaptopril tomirni kengaytiradigan ta'siri chaqiruvchi bradikininning faolsizlanishini sekinlashtiradi (14.13-rasm). Ma'lumki, bradikinin prostatosiklin, prostaglandin E2 va boshqa tomirlarni kengaytiruvchi moddalar ajralishini

kuchaytiradi. Kaptoprilning gipotenziv ta'sirida prostaglandinlarning ahamiyati, prostaglandinlar va prostaniklin (masalan, indometasin) sintezida ishtirok etuvchi siklooksigenaza ingibitorlarini yuborish. Kaptoprilning gipotenziv ta'sirini kamaytirishi yoki qisqartirishi bilan isbotlangan. Biroq, barcha bu ta'sirlar ikkilamchi ahamiyatga ega. Asosiysi – angiotenzin II sintezini susaytirish hisoblanadi.

Oshqozon-ichak yo'llaridan Kaptopril yaxshi so'rildi, tez metabolizmga uchraydi. MNS ga kirmaydi. Yo'ldoshdan o'tmaydi. Kaptopril va uning metabolitlari buyraklar orqali ajratiladi.

Kaptopril arterial gipertoniyada qo'llaniladi. U ayniqsa, reninning yuqori miqdorlarida samarali hisoblanadi. Kaptopril diuretikler, β -adrenoblokatorlar, miotrop ta'sirli vazodilatatorlar bilan birga ishlatalishi mumkin. Shuningdek, kaptopril turg'un yurak yetishmovchiligi va yurak ishemik kasalligida qo'llaniladi.

15-BOB. GORMONAL DORI VOSITALARI


Qalqonsimon bez gormonlari va qalqonsimon bezga qarshi dorilar. Kalsitonin dorilar

Qalqonsimon bezlar L-tiroksin (L-tetraiodotironin) va L-triiodotironin garmonlarini ishlab chiqadi (20.4-jadval; 20.6-rasmni ko'ring). Yod ovqat bilan iste'mol qilinib, ularning sintezida qatnashadi. Yodidlar qonda aylanib, qalqonsimon bezga yetkazib beriladi. U yerda ular yodga oksidlanadi va tirosin amino kislotalar bilan o'zaro bog'lanadi. Shu paytning o'zida monotirosin va diiodotirosin ishlab chiqariladi va qalqonsimon bez gormonlari alomati sisatida xizmat qiladi. Tiroksin va triiodotironin sintez yo'li bilan ulardan olinadi va tiroglobulin bilan bog'langan qalqonsimon bez folikullarida saqlanadi. Gormonlar keyin qonga chiqarilib, ularni tiroglobulindan xalos etadi. Gipofizaning old qismi bo'lgan tirotropik gormonlar yodidlarning qalqonsimon bez tomonidan singishini, gormon sintezini va ularning qonga chiqishini nazorat qiladi.


Qalqonsimon bez garmonlari, paratiroid bezlar va oshqozonosti bezi, ularning preparatlari, sintetik o'rnnini bosuvchilari va gormon ishlab chiqarilishini kamaytiruvchi dorilar.

| Endokrin bezlar | Gormonlar | Gormon preparatlari | gormonlarning sintetik o'rmini bosuvchilari | Gormon ishlab chiqarilishini qisqartiruvchi dorilar |
|-------------------|--------------------------------|--|--|--|
| Qalqonsimon bez | Tiroksin Triiodotironin | Tiroksin Triiodotironin Tirodinium (gormonlar qorishmasidan tashkil topgan) | | Metitiouraksil Tiamazol (mercazolilum) Propiltiouraksil Diiiodotirozin Potassium yodid Yod |
| | Kalsitonin (tirokalsitonin) | Kalsitonin Kalsitrimun | | |
| Paratiroid | Paratgormon | Paratireoidin | | |
| Oshqozonosti bezi | Insulin | Inson va hayvon insulin preparatlari | Glibenklamid Butamid Xlorpropamid Metformin | |
| | Glukagon | Glukagon | | |

Antitiroid dorilar



Thiamazole



Diiodotyrosine

Qalqonsimon bez gormonlari strukturasi va ayrim antitiroid dorilar.

Qonda aylanadigan L-tiroksin globulin bilan to'liq bog'langan; L-triiodotironin kamroq darajada bog'langan. Tiroksin progormon deb hisoblanib, hujayralarda asosan triiodotironinga aylanadi qaysiki hujayra yadrosida maxsus reseptorlar bilan o'zaro bog'lanadi. Reseptorlar tiroksinga nisbatan triiodotironin ko'proq o'xshashlikka ega.



Qalqonsimon bez gormonlari metabolizmni kuchaytirish ta'siriga ega. Asosiy modda almashinushi oshadi; ko'plab to'qimalarning kislород iste'moli mos ravishda oshadi, tana harorati oshadi. Proteinlar, uglevodlar va yog'lar parchalanishi tezlashadi va qondagi xolesterol darajasi kamayadi. Tana vazn yo'qotishini mumkin. Qalqonsimon bez gormonlari epinefrin ta'sirini tezlashtiradi. Kasallik taxikardiya sifatida namoyon bo'ladi.

Qalqonsimon bez gormonlari o'sish va tana rivojlanishini tartibga solishda qatnashadi. Ular miyaning, suyaklarning va boshqa organ va tizimlarning shakllanishiga ta'sir etadi.

Qalqonsimon bez gormonlarining bola organizmida taqchil bo'lishi kretinizmning rivojlanishiga olib keladi. YOshi katta odamlarda qalqonsimon bez yetishmovchiligi metabolik jarayonlarning supressiyasiga olib keladi, fizik va ong unumdorligining kamayayishiga, apatiyaga, to'qimalarning shishishiga (mucoïd infiltration) va yurak yetishmovchiligi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu sindrom "miksedema"¹⁰ deb aytildi.

Quyidagi qalqonsimon bez preparatlari tibbiy amaliyotda qo'llaniladi: tiroksin, triiodotironin va tiroidinum.

E.S.KENDAL (1886-1972)

Tiroksin va kortikosteroidlarni (kortizon, kortikosteron, boshqalar) ajratib qo'ygan Amerikalik bioximik Shu paytning o'zida Shveytsariyalik fizik T.Rayxstem (1897-1996) va Amerikalik fizik P.S.Xen (1896-1965) kortikosteroidlarni ajratishgan, o'rGANISHGAN va amaliyotga tadbiq etishgan. Hammasi Nobel mukofoti (1950) olishgan.

taqchil bo'lishi kretinizmning rivojlanishiga olib keladi. YOshi katta odamlarda qalqonsimon bez yetishmovchiligi metabolik jarayonlarning supressiyasiga olib keladi, fizik va ong unumdorligining kamayayishiga, apatiyaga, to'qimalarning shishishiga (mucoïd infiltration) va yurak yetishmovchiligi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu sindrom "miksedema"¹⁰ deb aytildi.

Quyidagi qalqonsimon bez preparatlari tibbiy amaliyotda qo'llaniladi: tiroksin, triiodotironin va tiroidinum.

¹⁰ Grek tilidan olingen bo'lib, myxa- mukus, oidema- yutish ma'nosini bildiradi.

L-tiroksin odatda og'iz bo'shligi orqali qabul qilinadi yoki yana hem kam hollarda vena osti orqali qabul qilinadi. Tiroksin ta'siri sekin-asta rivojlanadi va o'zining maksimumiga 8-10 kunda chiqadi. Ta'siri bir necha hafta davom etadi. Shunday qilib, bir dona siroksin qabul qilgandan so'ng asosiy metabolizmdagi oshish 2-3 hastada ko'rildi.

Triiodotironin (liothyronine) tiroksinga nisbatan tezroq boshlaydi (kuzatuv yordamida maksimal effekti 24-28 soat o'rtaida ekanligi aniqlangan) va bir necha kun davom etadi. Uning tiroksinga nisbatan metabolizmga ta'siri 3-5 barobar kuchliroq. Triiodotironin og'iz bo'shligi orqali qabul qilinadi.

Tiroidinum uy hayvonlarining quritilgan qalqonsimon bezidan tayyorlangan preparat. U qalqonsimon bez gormonlari qorishmasidan tarkib topgan. Dorining faoliyati yetarli darajada stabil bo'lib, uning standartlanishi mukammal emas (yod tarkibiga ko'ra kimyoviy ishlab chiqilgan). Qalqonsimon bez gormonlari preparatlarini qabul qilish indikatori gipotiroidizm deyiladi. Tiroksin va tiroidinum odatda ushbu holatni davolashda qo'llaniladi.

Triiodotironin eng tez faoliyat ko'rsatuvchi dori bo'lib, shoshilinch holatlarda qabul qilinadi. Masalan, miksedema koma holatida. Qalqonsimon bez gormonlari preparatlarining keragidan ortiqcha ishlatalishi jizzakilikni, terlashni, taxikardiyani, qaltirashni (mushaklar qaltirashini) vazn yo'qotishini va boshqa simptomlarni keltirib chiqaradi. Gipotiroidizmda, ya'ni oziqlanishda yod yetishmovchiligi kuzatilganda uni davolash yo'li oziq-ovqatga (odatda tuzga) yod qo'shish hisoblanadi.

ANTITIROID DORILAR

Qalqonsimon bezlarning giperfunksiyasida (gipertiroidizm, Basedov kasalligi) quyidagi mexanizmdagi dorilar qo'llaniladi:

- *Gipofiza old qismida tirotpropik gormon ishlab chiqarilishini sekinlashtiradiganlar:*
 - ✓ Yod
 - ✓ Diiodotirosin
- *Qalqonsimon bez gormonlarining qalqonsimon bezdagji sintez:*

- ✓ Tiamazol (merkazolilum)
- ✓ Propiltiourasil
- *Qalqonsimon bez yordamida yodning singishini oldini olish:*
- ✓ Potassium perxlorat
- Qalqonsimon bez folikulyar hujayralarining buzilishi
- ✓ Radioaktiv yod

Yod molekulyar yod yoki yodidlar sifatida ishlataladi. Gastrointestinal traktida yaxshi singib boradi. U tiroliberinni sekinlashtiradi va gipofizning tirotropik gormonini ishlab chiqarishini ham sekinlashtiradi. Qalqonsimon bez gormonlari ishlab chiqarilishi mos ravishda kamayib boradi. Bu qalqonsimon bez hajmining kamayishiga olib keladi. Dorining ta'siri 2-3 hafta davom etadi.

Diidotirozin (ditirin) qabul qilingandan so'ng tirotropik goromonlar chiqishining sekinlashuvi aniqlangan.

Tiamazol (merkazolilum, metimazol, metotirin) to'g'ridan-to'g'ri qalqonsimon bezdag'i tiroksin va triiodotironin sintezini yomonlaydi. Tiamazol og'iz bo'shlig'i orqali qabul qilinadi.

Tiamazolning eng qattiq nojo'ya ta'siri bu – leykopeniya va agranulositosis.

Bunga ko'ra, tiamazol tez-tez qon tahlil qilish bilan qabul qilinishi kerak. Ayrim payt dispeptik kelishmovchilik yuzaga keladi. Bo'qoq rivojlanishi mumkin. Bu adenogipofiz tirotropik gormonlarining ishlab chiqishining oshishi bilan birikadi (qalqonsimon bez gormonlari plazma konsentrasiyasining kamayishiga reaksiya). Bo'qoqdan saqlanish uchun yod preparatlari va diiodotirosin ishlatalishi mumkin.

Tiamazoldan tashqari bir necha tiourea derivatlari antitiroid dorilar sifatida ishlataladi: masalan **karbimazol, propiltiourasil**.

Potassium perxlorat (xlorogen, $KClO_4$) qalqonsimon bez tomonidan yodni singishi kamayadi. U nisbatan kam ishlataladi. Asosan yengil va o'rtacha tirotoksikosisni davolashda ishlataladi. U shu jumladan, leykopeniya va agranulositosisni keltirib chiqaradi.

Radioaktiv yod (^{131}I (yarim umr bu 8 kun) yoki ^{132}I (yarim umr bu 2-3 soat) gipertiroidizmning ayrim formalarini davolashda ishlataligan. Qalqonsimon bez

hujayralarining buzilishi asosan β -nurlanishi(90%-radiasiya), yoki kamroq miqdorda γ -nurlanishi ta'siri oqibatida amalga yuzaga keladi. Efekt asta-sekin(1-3 oydan so'ng) rivojlanib boradi. Bir necha kasallarda miksedema kerakgidan ortiqcha qo'llanilishi oqibatida yuzaga keladi. Dori og'iz bo'shlig'i orqali millikyurida dozalanib, natriy tuzi shaklida qabul qilinadi.

Antitiroid dorilar tirotoksikosis (Basedov kasalligi)ni davolashda ishlatiladi, shu jumladan kasallarning qalqonsimon bezini jarrohlik yo'li bilan kesib tashlash uchun tayyorlaydi(ularning holatini yaxshilash uchun).

KALSITONIN (TIROKALSITONIN)

Kalsitonin asosan qalqonsimon bezda maxsus hujayralar yordamida ishlab chiqariladi. U 32 ta aminokislotadan iborat polipeptit hisoblanadi. Kalsitonin sekresiyasi kalsiy plazma darajasiga bog'liq. Kalsitonin kalsiy metabolizmini boshqarishda ishtirok etadi (20.7-rasm). Uning asosiy ta'siri bu suyaklarning dekalsifikasiyasini sekinlashtirishdan iborat. Natijada kalsium ionlarining plazma konsentrasiyasi kamayadi. Kalsitonin ichaklar tomonidan kalsium ionlarining singishiga va buyrakda yo'qolib ketishiga rostakam ta'sir qilmaydi. Sintetik inson kalsitonini olindi (**sibakalsin**).

Losos balig'i kalsitonini sintezlanadi va **miakalsik** nomida ishlab chiqariladi. U inson kalsitoniniga nisbatan 30-40 ko'proq aktiv va uzoq muddatli ta'sirga ega.

Cho'chqalarning qalqonsimon bezidan olingan tarkibida kalsitonin mavjud bo'lgan dari **kalsitrinum** deyiladi.

Kalsitonin osteoporozni davolashda ishlatiladi (masalan, uzoq muddat immobilizasiya tufayli, katta yoshda, uzoq muddatli glukokortikoid terapiyada) shu jumladan nefrokalsinosisni ham davolashda ishlatiladi.

PARATIROID GORMONLARI VA ULARNING DORILARI

Paratiroid bezlar paratgormon ajratadi. Bu 84 ta aminokislotada qoldig'idan tarkib topgan polipepetid hisoblanadi. Qondagi kalsium ionlari darajasi uning ishlab chiqarilishini bildiradi.


Paratgormon ta'sirining asosiy ko'rinishi bu uning kalsiy metabolizmi va fosforni nazorat qilishni bildiradi. U suyaklarning dekalsifikasiyasini va qon

tarkibida kalsiyning ajralishini bildiradi. Shu jumladan, u gastrointestinal trakt tomonidan kalsiyning singishini osonlashtiradi. Paratgormonning ichak tomonidan kalsiy singishini tezlashtiruvchi effekti uning to'g'ridan to'g'ri ta'sirga emas, balki kalsitrol ishlab chiqarilishini kuchaytirishi bilan assosiasiyalanadi. Oxirgisi vitamin D₃ (xolikalsiferol)ning eng aktiv metaboliti hisoblanadi. Paratgormon kalsium ionlarning buyrak kanlalarida qayta singishini oshiradi (20.7-rasm). Bu plazmada kalsiy darajasining oshishiga olib keladi. Qon tarkibida fosfor darajasi kamayadi¹¹, bu buyrak kanallarida uning qayta singishini kamayishi bilan izohlanadi.

Paratiroidin tibbiyoda qo'llanib kelinayotgan, hayvonlarning paratiroid bezlaridan olingan dori hisoblanadi.

Uning biologik faoliyatি itlarda kalsiyda qon miqdorining oshirish qobiliyatи yordamida o'lchangan.

Paratiroidin ta'siri taxminan 4 soatdan keyin boshlanib 24 soat davom etadi. U asosan, gipoparatiroidizm va sapzmofoliani¹² davolashda ishlatiladi. Dori teri



boshqaradigan dori ta'sirining asosiy yo'nalishlari.

osti va mushak osti orqali qabul qilinadi. Ta'sir birligi bo'yicha dozalanadi. O'tkir gipoparatiroidizin (tetani) vena ichi kalsiyi yoki paratiroidin kombinasiyasi yordamida davolanishi kerak. Paratiroidin uzoq yashirin ta'sir muddati borligi sababli bir o'zi bu holatda foydali boilmaydi.

Paratgormon(teriparatid; RTN 1-34)ning aktiv parchalari tibbiyotda ham qo'llaniladi.

Kalsiy

metabolizmini

¹¹ Ko'plab mualliflar fosforli metabolizmdagi(fosphates ko'zda tutilgan) alieratsiyani asosiy deb bilishadi.
¹² Bolalardagi kasallik gipokalsemiya va konvulsiv reaksiya bilan assotsiatsiyalanadi.

SINTETIK ANTIDIABETIK DORILAR

Pankreatik gormonlar karbogidrat metabolizmining nazoratida muhim o'rinni egallaydi. Langerans bo'laklarining (pankreatik bo'laklar) V-hujayralari proinsulinni sintez qiladi va proinsulinni insulinga aylantiradi. Aytib o'tilgan yaqqol gipoglikaemik¹³ ta'sirga ega.

A-hujayralari giperglikaemiyani¹⁴ keltirib chiqaruvchi glukagonni ishlab chiqadi.

Insulin, diabetus mellitusni davolashda ishlatiladigan pankreatik gormon, klinik tibbiyotda alohida qiziqish uyg'otadi. Shunday bo'lsa ham, hozirgi kunda ko'plab boshqa dorilar ushbu kasallikni davolashda ishlatiladi.

1. O'rnnini bosuvechi terapiya dorilar:

Insulin.

2. Endogen insulin ishlab chiqarishini stimullovchi dorilar:

Sulfonilmochevina hosilalari:

Xlorpropamid

Glibenklamid

Glipezid

3. To'qimalarda glyukoza qayta ushlab qolinishini kuchaytiruvchi va glyukoneogenezni tormozlovchi dorilar:

Biguanidlar:

Metformin

4. To'qimalarni insulinga sezuvchanligini oshiruvchi dorilar:

Tiazolidinideonlar:

Roziglitazon

Pioglitazon

¹³ Qonda shakar konsentratsiisining kamayishi. Grek tilidan olingan bo'lib gipo-ostda, pastroq, glikis-shakar, gama-qon ma'nosini bildiradi.

¹⁴ Langerian bo'laklari quyidagi endokrin hijayralardan iborat

A (α_2) -hujayralari - glukagon ishlab chiqishadi;

V (β) -hujayralari - insulin ishlab chiqishadi (shu jumladan polipeptid amilin);

D ($\delta\alpha$) -hujayralari - stomastotatin ishlab chiqishadi;

F (PP) -hujayralari - pankreatik polipeptid ishlab chiqishadi.

5. Ingichka ichakda glyukoza so'rilishini tormozlovchi dorilar (a-glyukozidaza ingibitorlari):

Akarboza.

Insulin universal hamda diabetga qarshi eng samarador dori vositasidir. U disulfid bog'lari bilan bog'langan 2ta polipeptid (21ta va 20ta aminokislotalardan iborat zanjirlar) zanjiridan tashkil topgandir. Odam va ba'zi hayvonlar insulinini sintezi amalga oshirilgan. Hozirda odam insulinini gen injeneriyasi yordamida sintezlanadi. Odam va tirik hayvonlar (cho'chqa yoki qoramol) oshqozon osti bezidan olingan insulin dori vositalari sifatida qo'llaniladi va faol birliklar ko'rinishida dozalanadi.

Ba'zi ma'lumotlarga qaragnda insulin sekresiyasi kalsiy ionlariga bog'liqdir. Glyukoza bu jarayonni ishga tushiradi. V-hujayralar ichida glyukoza almashinuv jarayonida qatnashadi va shu orqali hujayra ichi ATP miqdori oshishiga o'z hissasini qo'shadi. Bu o'z navbatida ATF ga bog'liq kalsiy kanallari ishini to'xtatilishiga va hujayra membranasi depolyarizasiyasiga olib keladi. Bu kalsiy ionlarini V-hujayralar ichiga kirishini (kuchlanishga bog'liq kalsiy kanallari ochilganda) va insulin ajralishini ta'minlaydi. Aminokislotalar ham insulin hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Jigarda insulin insulinaza fermenti yordamida faolsizlantiriladi.

Insulin gipoglikemik faolligining mexanizmi hozirgacha aniq emas. Taxminlarga ko'ra, u a- va v-subbirliklardan iborat bo'lgan hujayralar yuzasida joylashgan maxsus reseptorlar bilan bog'lanib, hosil bo'lgan "insulin-reseptor" majmuasi hujayra ichiga kiradi va insulin ajratilgan holda shu ta'sirni amalga oshiradi. Bundan tashqari, membrana reseptorlari bilan o'zaro bog'langanda tirozinkinaza faolligiga ega bo'lgan v-subbirlik faollashtiriladi.

Insulin glyukozani membrana¹ orqali transportini faollashtiradi hamda uni mushak va yog' to'qimalarida o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Glikogen sintezi oshadi. U jigarda va skelet mushaklarida glikogenolizni kamaytirib, aminokislotalardan glyukoza hosil bo'lishini tormozlaydi. U oqsil sintezigi kuchaytiradi va yog' to'qimalarida trigliseridlarni saqlanishini qo'llab-quvvatlaydi.




Fig. 2

Insulin tomonidan boshqariluvchi glyukoza almashinuvi yo'llari.

Qandli diabetda insulinni qabul qilinishi qondagi qand miqdorini va to¹qimalarda glikogen to²planishi kamayishiga olib keladi. Qonda qand miqdorini kamayishi glyukozuriya va u bilan bog³langan poliuriya² va polidipsiya³ ni kamaytirishga olib keladi. Karbonsuvlar almashinuvining meyorlashuvi natijasida oqsil almashinuvi (siydikdagi azot birikmalari miqdori ham kamayadi) hamda yog⁴ almashinuvi (keton tanachalari qon siydikda yo⁵qoladi) jarayonlari ham meyorga keladi. Yog⁴ parchalanishining va oqsillarning glyukozaga aylanishining kuchayishi bilan bog⁶liq bo⁷lgan vazn yo⁸qotish va doimiy ochlik (bulimiya⁴) holatlariga chek qo⁹yiladi. Insulin har qanday og¹⁰irlikdagi qandli diabetni davolashda samaradordir.

1 – maxsus transport tizimi orqali (Glut 4)

2 – grekchada poly kō p, uron siydik

3 – grekchada dipsa chanoq

4 – grekchada bis buqa, limos ochlik

Hozirda qandli diabetni davolashda rekombinant insulinidan keng miqyosda qo¹¹llanilmoqda. Ammo, hayvonlar to¹²qimalaridan olingan (xususan, cho¹³chqadan) insulinidan ham keng foydalaniлmoqda. Bunda uning tozalangan (MR, ashyoning

xromatografik tozalanishish) hamda yuqori darajada tozalangan (monokomponent) holdagi dori shakllaridan foydalaniladi. Insulinning analogi bo'l mish Xumalog (insulin lizpro) ni ham qo'llash mumkin. U qisqa ta'sirga ega bo'lgan boshqa odam insulini dori vositalaridan ko'ra tezroq va qisqaroq ta'sirga egadir.

Hozirgacha ko'p miqdorda insulin dori vositalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'sirining boshlanish vaqt, davomiyligi hamda allergiya chaqirish kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.

Zamonaviy insulin dorilari quyidagicha tasniflanishi mumkin:

Qisqa muddatli (4-8 soat) hamda tez boshlanadigan (1-4 soat) ta'sirga ega dorilar;
O'rtacha davomiylikka (18-24 soat) hamda o'rtacha muddatda boshlanadigan (6-12 soat) ta'sirga ega dorilar;

Uzoq davomiylikka (24-40 soat) hamda maksimal ta'siri uzoq muddatda boshlanadigan (12-18 soat) dorilar.

Ba'zi insulin dorilari 20.3-jadvalda ko'rsatilgan. Ko'pincha, insulin dori vositalari maxsus ixcham qalam kattaligidagi inyektorlar ichiga joylashtirilgan holda ishlab chiqariladi.

Insulin preparatlari odatda parenteral qabul qilindi, ko'pincha, teri ostiga yoki mushak orasiga va kam hollarda vena ichiga yuboriladi (og'iz orqali qabul qilinganda insulin hazm fermentlari ta'sirida parchalanib ketadi¹). Qisqa ta'sirga ega insulinlarning ta'siri tez boshlanadi, ayniqsa, vena ichiga yuborilganda va bundan koma va prekoma holatlarini davolashda qo'llaniladi.

Uzoq ta'sir etuvchi insulinlar yuborilgan joydan uzoq muddat davomida so'rilib boradi. Yagona inyeksiya orqali uzoq muddatli ta'sirga erishiladi va bu albatta, shu insulinlarning yaqqol ijobjiy xususiyati hisoblanadi.

Gly
 Ile
 Val
 Gln
 Glu(NH₂)
 Cys
 Cys — S — S — Cys
 Thr
 Ser
 Ile
 S — Cys
 Ser
 Leu
 Tyr
 Glu(NH₂)
 Ile
 Glu
 Asp(NH₂)
 Tyr
 Cys — S — Cys
 Asp(NH₂)
 Glu
 Arg
 Gly
 Phe
 Phe
 Insulin
 Tyr
 Thr
 Pro
 Lys
 Thr

Phe
Val

Asp(NH₂)
Glu(NH₂)

His
Leu

Gly
Ser

His
Leu

Val
Glu

Tyr
Ala

Leu

Tyr

Leu

Val

Cys

Gly

Glu

Arg

Gly

Phe


Phe

Tyr


Thr

Pro

Lys



Biguanide derivatives



Ba'zi diabetga qarshi vositalarning kimyoviy tuzilishi

— nafas yo'llari (ingalyasion). til osti/lunj orqali qabul qilinadigan insulin preparatlari ustidan klinik tadqiqotlar o'tkazilmog'ida.

Ammo, shu insulinlar qo'llanilgandan so'ng sezilarli gipoglikemiya holati rivojilansa, uni orqaga qaytarish juda murakkab bo'ladi.

Uzoq muddat ta'sir qiladigan insulinlarning ta'siri sekin rivojlangani uchun ularni shoshilinch holatlarda qo'llash naf bermaydi. Ba'zi shunday dori vositalarida

protamin oqsilining mavjudligi keng tarqalgan allergik reaksiyalarning rivojlanishi sababi deb hisoblanadi.

Uzoq ta'sir etuvchi insulinlar teri ostiga yoki mushaklar orasiga yuboriladi. Bu insulinlar asosan o'rta yoki og'ir darajadagi qandli diabet holatlarida beriladi.

Insulin dorilari bir qator yetishmovchiliklarga ega. Masalan, insulin inyeksiyalari og'riqli bo'ladi. Aseptik sharoitlarda bajarilishiga qaramasdan nisulin inyeksiyalari joyida yallig'lanish reaksiyalari (infiltrat va boshqalar) vujudga kelishi mumkin. Bundan tashqari, har bir odamda insulinga sezgirlik har xil bo'lishini hisobga olish lozim. Insulinga rezistentlik insulin reseptorlari sonining kamayishi, reseptorlar insulinga affinligining pasayib ketishi va shu kabi boshqa holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Insulinga nisbatan antitanalarni hosil bo'lishi uning samaradorligining pasayishi yoki umuman yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Insulinlar allergik reaksiyalar chaqirishi mumkin. Odam insulinini dori vositalari kamroq allergik reaksiyalar chaqiradi.

Og'iz orqali qabil qilinganda samarador bo'lgan gipoglikemik dori vositalari alohida e'tiborga sazovordir. Ular sun'iy yo'l bilan olinib, 2 xil kimyoviy birikmalar guruhibiga bo'linadi:

Sulfanilmochevina hosilalari

O'rtacha ta'sir davomiyligiga ega (8-24 soat):

Tolbutamid

Uzoq ta'sir davomiyligiga ega (24-60 soat):

Xlorpropamid

Glibenklamid

Glipezid

Biguanidlari

Metformin

Sulfonilmochevina hosilalari gipoglikemik ta'siri mexanizmi ATF ga bog'liq K kanallarini bloklash qobiliyati bilan bog'liqdir (20.10-rasm). Bu o'z navbatida, kuchlanishga bog'liq kalsiy kanallarini ochilishiga, hujayra ichi kalsiy ionlari miqdorini oshishiga va V-hujayralardan insulin ajralishiga olib kejadi.

Aminokislotalar va glikozaga nisbatan V-hujayralarning sezgirligini oshishi ham insulin sintezini kuchaytirishi mumkinligi aniqlangan. Shunday qilib, bu guruh dorilar bilvosita, ya'ni insulin sintezini kuchaytirish orqali ta'sir qiladi. Bundan tashqari sulfonilmochevina preparatlari insulinning hujayralar ichi glikoza transportiga (yog' va mushak to'qimasi) bo'lgan ta'sirini kuchaytiradi.

Sulfonilmochevina preparatlari oshqozon-ichak yo'llaridan nisbatan tez va to'liq so'rildi. Ko'p qismi plazma oqsillari bilan bog'lanadi (70-99%). Odatda, ular jigarda nofaol metabolitlar hosil bo'lguncha parchalanadi. Faol metabolitlarga ega bo'lgan xlorpropamid bundan mustasnodir. Bu dori vositalari va ularning metabolitlari asosan buyraklar orqali (sekresiya); ma'lum bir qismi o't orqali ajraladi.

Birinchi preparatlardan biri bu – Tolbutamiddir. U og'iz orqali qabul qilingandan so'ng yaxshi so'rildi. Eng yuqori qondagi konsntrasiyasi 3-4 soat ichida bo'ladi. Qonda u oqsillar bilan bog'lanadi. Gipoglikemik ta'siri 12 soat davom etadi. Tolbutamid jigarda oksidlanib buyraklar orqali o'zgargan mahsulotlari ko'rinishida ajraladi.

Tolbutamid, odatda yaxshi o'zlashtiriladi. Ammo nojo'ya ta'sirlari ham kuzatilishi mumkin (dispepsiya, allergik reaksiyalar, kam hollarda – leykopeniya, trombositopeniya, jigar faoliyatining susayishi). Tolbutamidga o'rganish rivojlanishi mumkin.

Xlorpropamid (diabarin, oradian) tolbutamidga nisbatan samaraliroq hamda uzoqroq ta'sirga ega. U organizmda biotransformasiyaga uchrab, faol metabolitlar hosil qiladi. U va uning o'zgargan mahsulotlari buyraklar orqali ajraladi. Xlorpropamid guruhidagi eng ko'p nojo'ya ta'sirga ega bo'lgan preparatdir. Etil spirtiga nisbatan ko'tara olmaslik holatlari, giponatriemiya natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan shishlar, dispepsiya, teridagi allergik reaksiyalar, holestaz va kamroq hollarda gemopoezning susayishi kabi nojo'ya ta'sirlari kuzatilishi mumkin.

Glibenklamid (maninil) va glipizid ham uzoq ta'sirga ega dori vositalariga kiradi. Ta'sir mexanizmi bo'yicha tolbutamid va xlorpropamidga o'xshash. Farmakokinetikasi jihtidan tolbutamiddan farq qiladi. U kuniga 1 mahal ovqatdan 30 daq oldin qabul qilinadi. Glipizid ta'siri eng tez boshlanadigan dori vositasi

Бир қатор сульфонилмочевина препаратларининг фармакокинетикаси

| | Tolbutamide | Clofibrate | Glibenclamide | Glipizide |
|--|--|--|----------------------|----------------------|
| Нисбий фаоллиги ¹ | 1 | 4-5 | 150-200 | 100 |
| Гипогликемик таъсир ривожланиш частотаси | 3-5 | 3-5 | 3-5 | 1-3 |
| Ўзластирилиши, % | 45-75 | 50 | 62-95 | 95 |
| Таъсир давомийлиги, соат | 4-8 | 30-36 | 1-12 | 2-4 |
| Binding with the plasma proteins, % | 6-12 | 24-72 | 12-24 | 10-24 |
| Formation of active metabolites | 96 | 96 | 97-98 | 98-99 |
| Notes | Can impair absorption of iodine by the thyroid gland | Water retention, hyponatraemia, ethyl alcohol oxidation disorder | Mild diuretic effect | Mild diuretic effect |

hisoblanadi.

1 – faoliq o'rsha terapevlik dozalarni taqqoslash asosida hisoblandi. Eng maksimal gipoglikemik ta'siriga binoan (terapevlik dozaiarda) xlorpropamid, glibenklamid va glipizid samaradorligi bir-biriga yaxin, tolbutamidniki esa pastroq

2 – qondagi dori konsentrasiyasini 50% ga kamayishi

| ESLATMA | Qalqonsimon bezda yod so'rilishini buzishi mumkin | Suvning ushlaniши (ishish), giponatriemiya, etil spirti oksidlanishini buzilishi | Yengil diuretik ta'siri | Yengil diuretik ta'sri |
|---------------------------------------|---|--|-------------------------|------------------------|
| Qondagi oqsillar bilan bog'lanishi, % | Faol metabolitlar hosil qilishi | | | |

Dorilar yaxshi o'zlashtiriladi. Ba'zi hollarda dispepsiya (ko'ngil aynish, quşish, diareya va hok.), terida allergik reaksiyalar va gemopoezning buzilishi kabi nojo'ya ta'sirlar vujudga kelishi mumkin.

Glikolazid (diabeton) ham sulfonilmochevina hosilalariga kiradi. U qondagi glyukoza miqdorini keskin tushiradi hamda ovqat yeyilishi va insulin ajralishi jarayonlari orasidagi vaqt ni qisqartiradi. Glikolazid shunisi bilan qiziqliki, u gipoglikemik ta'siri bilan birga mikrosirkulyasiyanı yaxshilash kabi xususiyatga

ham egadir. Bu ta'siri trombositlarning adgeziya va agregasiyasini kamaytirishi hamda tomirlar o'tkazuvchanligini meyorlashuvi hisobiga vujudga keladi. U semirishga olib kelmasdan, xattoki vazn yo'qotish kabi holatlarga olib kelishi mumkin (to'g'ri ovqatlanishga rioya qilinganda).

Dori OITdan yaxshi so'rildi. 4 soat ichida qonda maksimal konsentrasiyada paydo bo'ladi. Asosiy qismi plazma oqsillari bilan bog'lanadi. Jigarda almashinuvga uchraydi. Yarim ajralish davri 12 soat. Glikolazid asosan buyraklar orqali metabolitlar ko'rinishida ajraladi. Rivojlanishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlarga dispepsiya, leykopeniya, trombositopeniya va kam hollarda allergik reaksiyalar bo'lishi mumkin.

Sulfonilmochevina preparatlari II turdag'i qandli diabetni (insulinga bog'liq bo'lmanan) davolashda qo'llaniladi.

Shunga o'xshash yana bir insulin sekresiyasini oshiradigan dorilarga Repaglinid (benzoy kislotasi hosilasi) kiradi.

D-fenilalanin hosilasi bo'lmissiz yangi peroral qabul qilinadigan dori vositasi Nateglinid ishlab chiqilgan. U oshqozon osti bezidagi V-hujayralarning ATFga bog'liq K kanalarini ham bloklaydi. Bu kalsiy kanallarini ochilishi va insulin sekresiyasiga olib keladi. U ovqatdan oldin qabul qilinadi. Ta'siri tez boshlanib, qisqa vaqt davom etadi. O'zlashtirilishi 73%, yarim ajralish davri 1,5 soatdir. U jigarda almashinuvga uchraydi va ko'p qismi birinchi 6 soat ichida metabolitlar shaklida asosan buyraklar orqali ajraladi.

U II turdag'i qandli diabetni davolashda qo'llanilib, u ovqatdan so'ng insulin sekresiyasini I-fazasini stimullaydi (postprandial, ya'ni ovqatdan keyingi giperglikemiyani oldini olish uchun). Dori yaxshi o'zlashtiriladi. Gipoglikemiya holatlari kam kuzatiladi.

Ovqat iste'mol qilinishiga javoban ingichka ichakda *glyukozaga bog'liq insulinotrop polipeptid* (*GIP*) va *glyukagona o'xshash etid* (*GLP-1*) kabi glyukoza miqdorini nazorat qiluvchi gormonlar ishlab chiqarilishi kuzatilgan. Bular *inkretinlar* deb ataladi. Tibbiyot amaliyotida qo'llanishi mumkin bo'lgan *GLP-1* gormoni vazifasini bajara oladigan sun'iy moddalar yaratilgan bo'lib, bulardan

birinchisi Eksenatiddir. U II turdag'i qandli diabetni davolash uchun tavsiya etilgan. U GLP-1 reseptorlari agonisti bo'lib, gipoglikemiyaga javoban insulin sekresiyasini oshiradi.

Eksenatid kuniga 2 mahal teri ostiga qilinadi, yarim ajralish davri 2.4 soat. U siyidik orqali ajraladi. Asosiy nojo'ya ta'sirlariga dispepsiya va gipoglikemiya kiradi.

Metformin (siosfor) bigaunidlar guruhiiga kiruvchi dori vositasidir. Uning aniq ta'sir mexanizmi hozirgacha aniqlanmagan. Uning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, jigarda glikogen sintezini kamaytirishi hisoblanadi. Bundan tashqari u mushak to'qimalarida glyukozani o'zlashtirilishini yaxshilaydi. Sut kislotasi mushaklarda to'planadi (anaerob glikolizning kuchayishi natijasida). YOg' to'qimasi hujayralarda ham glyukozaning o'zlashtirilishi oshadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, metformin ingichka ichakda karbonsuvlarning so'rilibishi kamaytirishi kabi xususiyatga ham ega ekan.

Anoreksigen ta'siri natijasida metformin vazn yo'qitilishiga sabab bo'lishi mumkin. U noaniq sabablarga ko'ra qondagi trigliseridlari va xolesterol miqdorini kamaytiradi.

Dori ichakda yaxshi so'rildi. O'zlashtirilishi 50-60%. U organizmda almashinuvga uchramaydi va plazma oqsillari bilan bog'lanmaydi. Asosan buyraklar oqali o'zgarmagan holda ajraladi. Yarim ajralish davri 1.5-3 soat. Kuniga 2-3 mahal qabul qilinadi.

Metformin gastrointestinal nojo'ya ta'sirlar chaqiradi (ko'ngil aynishi, quisish, diareya, og'ir metal ta'mini paydo bo'lishi va hok.). Sulfonilmochevina preparatlardan farqli o'laroq kamdan-kam hollarda gipoglikemiyaga sababchi bo'lishi mumkin. Laktal asidoz holati faqatgina bir necha bemorlarda kuzatilgan bo'lib, og'ir nojo'ya ta'sir hisoblanadi. Uni oldini olish uchun dori eng kam samarador dozalarda berilishi va buyrak yetishmovchiligi bor kasallarga berilmasligi zarur.

Metformin II turdag'i qandli diabetni davolash uchun tavsiya etilgan. Metformin ko'pincha boshqa ta'sir mexanizmiga ega bo'lgan gipoglikemik dori

vositalari bilan bирgalikda qo'llaniladi. Masalan, Glibomet degan dori o'z tarkibida metformin va glibenklamidni saqlaydi.

Gipoglikemik vositalarni dozalash qon va siydkdagи qand miqdorini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Har bir bemor uchun dozalar individual bo'lib, bunda qondagi qand miqdori kerak bo'lgan konsentrasiyadan turg'un ravishda ozgina past bo'lisi zarurligini inobatga olish lozim. Gipoglikemik vositalar bilan davolash jarayonida ovqatlanish tartibi to'g'ri va undagi karbonsuvlар miqdori cheklangan bo'lisi lozim.

Barcha diabetga qarshi vositalar uchun xos bo'lgan asorat bu gipoglikemiyadir. Bu holat dori dozasini oshirib yuborish hamda noregulyar ovqatlanish natijasida sodir bo'lisi mumkin. Og'ir hollarda gipoglikemik shok rivojlanishi mumkin, yengil gipoglikemiya qand va karbonsuvlarga boy taomlarni iste'mol qilishi yo'li bilan davolanadi. Ba'zi hollarda parenteral glyukoza yuborilishi mumkin. Glyukagon va adrenalin ham gipergilkemiya chaqirish xususiyatiga ega.

Hozirgi davrda yangi turdagи diabetga qarshi dori vositalari, ya'ni *insulinga nisbatan hujayralar sezuvchanligini oshiruvchi vositalar* klinik amaliyatga kiritilmoqda. Bu dorilarni (tiazolidinedion hosilalari bo'lmish Roziglitazon va Pioglitazon) ham endogen insulin sintezi kamaygan holatlarda ham unga nisbatan rezistentlik rivojlangan holatlarda qo'llash mumkindir¹. Bu dorilar maxsus yadro reseptorlarini faollashtirib, karbonsuvlар va lipid almashinuvini nazorat qiluvchi insulinga bog'liq genlar transkripsiyasini kuchaytiradi va bu holat insulinga bo'lgan rezistentlikni kamaytiradi. To'qimalarda glyukoza va yog' kislotalarning o'zlashtirilishi oshadi, lipogenez kuchayadi va glyukonegenez kamayadi.

Diabetni davolashda yangi trend bo'lib *ingichka ichakda glyukoza so'riliшини kamaytiruvchi vositalarni* yaratilishi hisoblanadi. Shulardan biri Akarbozadir. U ichakdagи a-glikozidaza faolligini pasaytiradi. Bunda ko'p turdagи karbonsuvlarning (laktozani ham) ichak orqali so'riliishi pasayadi. Ko'p miqdordagi hazm bo'lmagan karbonsuvlар yo'g'on ichakka tushib, u yerdagi mikroflora tomonidan parchalanadi va buning natijasida ichakda gazlar hosil bo'ladi. Meteorizm holati 20-30%

bemorlarda kuzatiladi. 3% ga yaqin bemorlarda kuchli diareya kuzatiladi. Akarboza bilan monoterapiyada gipoglikemiya holati kuzatilmaydi. Lekin, u insulin yoki sulfonilmochevina preparatlari bilan birlgilikda qo'llanilganda sezilarli gipoglikemiya haloti vujudga kelishi mumkin. Akarboza ichakdan yomon so'rildi.


1 – bu guruhning 1-preparati Troglitazon bo'lib, u idiosinkratik reaksiyaga bog'liq bo'lgan gepatotoksiklik xususiyatiga ega Shuning uchun hozirda bu dorining qo'llanilishi to'xtatilgan

Akarbozani metformin bilan qo'llash maqsadga muvofiq emas, chunki u metforminning so'rishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar yo'nalishlarining muhimlaridan biri bu qandli diabetda glyukozaning to'qimalarga zaharli ta'sirini (neyropatiya, retinopatiya, nefropatiya va hok.) kamaytirishni ta'minlovchi dorilarni yaratilishidir. Bunda asosiy vazifa bo'lib glyukozaning fruktozaga va sorbitolga aylanish mexanizmini to'xtatish hisoblanadi. Bu maqsad uchun birinchi aldoza reduktaza ingibitorlari ishlab chiqilgan, ammo hozirda ushbu vositalarning samaradorligi o'rganilmoqda.

Glyukagon – oshqozon osti bezi A-orolcha xujalarini tomonidan ishlab chiqariluvchi goromon hisoblanadi. 29 aminokislotalardan tashkil topgan polipeptid. Enteroglyukagon oshqozon, 12 barmoq ichak va och ichak devorlarida topilgan. Glyukagon ishlab chiqarilishi qondagi glyukoza, ovqat tarkibi va ichak gormonlari tomonidan boshqariladi. Glyukagon ta'siri qisqa vaqt davom etib, bu gormon jigar, buyraklar va qondagi glyukagonaza fermenti ta'sirida parchalanadi (qondagi konsentrasiyasi 7 daq. ichida 50%ga tushadi).

Glyukagonning karbonsuylar almashinuviga ta'siri giperglykemiya bilan namoyon bo'ladi. Bu ta'siri jigarda glikogenoliz va glyukoneogenezning kuchayishi natijasida vujudga keladi. Glyukagonning ta'siri uning G_s oqsil bilan bog'langan maxsus reseptorlar o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi.



20.11- rasm. Adrenalin va glyukagonning glikogenolitik ta'siri (chizma).

Bir vaqtning o'zida adenilat siklaza faolligi oshib, sAMF miqdori osha boshlaydi (20.11-rasm). Jigardan glyukozaning ajralishi oshadi. Bir vaqtning o'zida glyukoneogenez, ya'ni har xil karbonsuv bo'limgan moddalardan (aminoksilotalar, priuvat va boshqalar) glyukoza sintezi ham oshadi.

Glyukagon yurak-qon tomir tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Asosiyisi musbat inotrop ta'sir bo'lib, bunda u taxikardiya chaqiradi va atrioventrikulyar o'tkazuvanlik oshishini ta'minlaydi. U miokardning qisqaruvchanlik qobiliyatini oshiib, bunda yurak qsiqarishida otiladigan qon hajmi ham oshadi. Glyukagon qo'llanilganda qorinchalar aritmiyasi kabibi holatlar rivojlanmaydi.

Glyukagon miokarddagi sAMF miqdorini oshirib yuboradi. Uning bu ta'sirini a-adrenoblokatorlar qo'llash bilan to'xtatib bo'lmaydi, bu esa o'z navbatida alohida glyukagon va katekolmain larga sezuvchi reseptorlar bor bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, glyukagon buyrak usi bezlari tomonidan adrenalin ajralishini oshiradi hamda o'sish gormoni va kalsitonin ajralishini stimullaydi.

Glyukagon kam hollarda qo'llaniladi. U gipoglikemik koma, yurak yetishmovchiligi va kardiogen shok holatlarini davolashda parenteral yo'l bilan yuboriladi. Uning kamchiliklaridan biri bo'lib, bu kardiogen shok va yurak yetishmovchiligi kabi holatlarni davolashdagi qisqa muddatli ta'siri hisoblanadi. Bundan tashqari uning ta'siri natijasida yurak tomonidan kislorodga bo'lgan talab oshadi.

Buyrak ustı bezi po'stloq qismi 40 dan ortiq steroid gormon ishlab chiqaradi. Ularning ba'zilari juda muhim ahamiyatga egadir (gidrokortizon, kortikosteron, aldosteron). Odatta, buyrak ustı bezi gormonlari 3 guruhg'a bo'linadi: *glyukokortikoidlar* (gidrokortizon, kortikosteron), *mineralokortikoidlar* (aldosteron) va *jinsiy gormonlar* (kam miqdorda, 20.7-bob).

Bu gormonlar xolesteroldan sintezlanadi. Gipofizning AKTG teskarı aloqa prinsipi orqali ushbu gormonlar sintezini boshqaradi. Mineralokortikoidlar sintezi hujayradan tashqi suyuqlik hajmi va qondagi natriy ionlari konsentrasiyasiga bog'liqidir. Renin-angiotenzin tizimi ham muhim ahamiyatga ega. AKTG esa kamroq ahamiyatga egadir.

Ko'p kortikosteroidlar jigarda o'zgarishlarga uchrab, u yerda glyukuron va oltингugurt kislotalari bilan konyugatlar hosil qiladi va siyidik orqali ajraladi.

Jinsiy gormonlar haqida ma'lumot darslikning 20.7-bobida batafsil berilgan.

GLYUKOKORTIKOIDLAR.

Glyukokortikoidlar hujayra ichida ta'sir ko'rsatadi. Ular hujayralar sitoplazmadagi maxsus reseptorlar bilan bog'lanib, ularni faollashtiradi va buning natijasida hujayrada struktur o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. "Gormon+reseptor" majmuasi hujayra yadrosi ichiga kiradi va DNK bilan bog'lanib, ma'lum bir genlar transkripsiyasini boshqaradi.

U oqsillar va fermentlar sinteziga ta'sir qiluvchi maxsus mRNA hosil bo'lishiga turkti bo'ladi.

Glyukokortikoidlar moddalar almashinuviga sezilarli va xilma-xil ta'sir ko'rsatadi. Karbonsuvarlar almashinuviga ta'siri qondagi glyukoza miqdorini oshishi va bir vaqtda jigarda glyukoneogenezning kuchayishi bilan namoyon bo'ladi.

Aminokislotalarning glyukoneogenet jarayonida o'zlashtirilishi oqsillar sintezining pasayib ketishi hamda organizmda katabolizm jarayonining jadallashuviga olib keladi (mantiy azot balansi). Shu sababli regenerativ jarayonlarning susayishi kuzatiladi. Bolalarda to'qimalarning rivojlanishida (suyak to'qimalari ham) nomuvofiqliklar paydo bo'ladi va ularning o'sishi orqada qoladi.

Yog' almashinuviga ta'siri natijasida ularning qayta taqsimoti amalga oshiriladi. Surunkali qo'llanilganda yog' to'qimasining yuzda (oysimon yuz), bo'yin va yelka sohalarida to'planishi kuzatiladi.

Suv-tuz almashinuvida ham o'zgarishlar kuzatiladi. Glyukokortikoidlar mineralokortikoid ta'sirga ham ega bo'lib, uning natijasida organizmda natriy va suvning buyrak kanalchalaridagi reabsorbsiyasini kuchaytirishi natijasida ushlanib qolishi va aksincha kaliy ionlarining ekskresiyasini kuchayishi kuzatiladi. Buning natijasida qon hajmining, qon bosimining va to'qimalar gidrofilligining oshishi kuzatiladi. Kalsiy ekskresiyasi oshishi natijasida osteoporoz ham rivojlanishi mumkin.

Glyukokortikoidlar yallig'lanishga qarshi va immunosupressiv ta'sirga ega (26-27-boblar).

Glyukokortikoidlarning yallig'lanishga qarshi ta'siri ularning yallig'lanish mediatorlari ishlab chiqilishiga, tomir komponentga va yallig'lanishda qatnashadigan hujayralar faoliyatiga ta'sir qilishi bilan bog'liqdır. Ular ta'sirida mayda qon tomirlar qisqarishi va ekssudasiya jarayoning kamayishi kuzatiladi. Leykositlar infiltrasiyası, makrofaglar faollashishi va yallig'lanish mediatorlarining hosil bo'lishi kamayadi. Bu ta'siri bilvosita bo'lib, fosfolipaza A₂ ingibirlashi hisobi amalga oshadi.

Ular leykositlarni maxsus oqsil *anneksin (lipokorin)* sintezlashga undaydi. Bu oqsil fosfolipaza A₂ ingibitorini hisoblanadi. Bundan tashqari glyukokortikoidlar SOX-2 faoliyatini susaytiradi.

Glyukokortikoidlarning immunosupressiv ta'siri ularning T- va V-limfositlar faolligini tushirishi, bir qator interleykinlar, sitokinlar va plazma komplementlari

hosil bo'lishini kamaytirishi bilan bog'liqdir. Glyukokortikoidlar bundan tashqari qonda aylanib yurgan limfositlar va makrofaglar sonini kamaytiradi.

Glyukokortikoidlar gemopoezga ham ta'sir ko'rsatadi. Ular odatda limfositlar va eozinofillar ulushini kamaytiradi. SHular bilan bir vaqtda eritrositlar, neutrofillar va retikulositlar sonining oshishi kuzatiladi. Glyukokortikoidlar gipotalamo-gipoftiz buyrak usti bezi tizimining ishini teskari aloqa prinsipi asosida susaytiradi, ya'ni AKTG sintezi kamayadi. Buyrak usti ezi yetishmovchiligi holatlari kuzatilishi mumkin va bu holat glyukokortikoidlarning birlaniga to'xtatilishi natijasida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Oliy nerv faoliyatida har xil nuqsonlar paydo bo'lishi mumkin. Bular eyforiya, psixomotor qo'zg'alish va psixotik reaksiyalar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Tabiiy Gidrokortizon va uning esirlari (asetat, suksinat) dorivositalari sifatida qo'llaniladi. Gidrokortizon preparatlari ko'proq parenteral dori yoki mahalliy surtmalar ko'rinishida bo'lib, peroral va mushak orasiga qilinadigan shakllari kam uchraydi. Buyrak usti bezi yetishmovchiligidagi va boshqa shoshilinch holatlarda suvda eruvchi preparat Gidrokortizon gemisuksinatni (sopolkort) qo'llash mumkin.

Klinik amaliyotda qo'llanilayotgan boshqa glyukokortikoidlar tabiiy gormonlar hosilalari yoki analoglari hisoblanadi. Ular farmakologik xususiyatlari bo'yicha gidrokortizonga o'xshashdir. Ularning ba'zilari gidrokortizondan glyukokortikoid va mineralokortikoid ta'sirlarining o'zaro nisbati bilan, ba'zilari teri orqali yomon so'riliishi (Fluosinolon asetonid, Flumetazon pivalat) bilan farqlanadi.

Prednizolon gidrokortizonga nisbatan 3-4 barobar kuchliroq yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. U sezilarli natriyning ushlanib qolinishga sabab bo'lmaydi. Uning suvda eruvchi Prednizolon gemisuksinat vositasini tomir ichiga yuborib qo'llash mumkin.

Metilprednizolon nomi bilan qo'llaniladigan prednizolon hosilasi ham mayjud. Uning minerokortikoid ta'siri sostroqdir. Metilprednizolonning uzoq davomli ta'sirga ega dorilari ham ishlab chiqilgan.

Metilprednizolon aseponat (advantan) mahalliy surtmalar, kremlar yoki emulsiyalar shaklida qo'llaniladi. U teri muguz qavatidan yaxshi o'tadi. U prednizolondan sezilarli darajada kuchliroq bo'lgan yallig'lanishga va allergiyaga qarshi ta'sirga ega. Vositani kuniga 1 mahal qo'llaniladi.

Teri orqali 1% dan kam miqdorda so'rilganligi uchun uning tizimli ta'siri deyarli yo'qdir. Bundan tashqari u qisqa muddat ichida jigarda almashinuvga uchraydi.

Uni qo'llash kam hollarda teri atrofiasiga olib kelishi mumkin va u shu jihatni bilan boshqa fitor glyukokortikoidlardan ustun turadi.

Yallig'lanishga qarshi ta'sir bilan mineralokortikoid ta'sir orasidagi bog'lilik prednizolonning fitorli hosilalari bo'lmish Deksametazon va Triamsinolonda yaqqol namoyon bo'ladi. Deksametazon (Deksazon) yallig'lanishga qarshi vosita bo'lib. Gidrokortizonga nisbatan 30 marta faol, ammo suv-tuz almashinuviga ta'siri juda ozdir. Deksametazonning mushak orasiga va vena ichiga yuborish mumkin bo'lgan suvli eritmasi mavjuddir. Betametazon Deksametazoniga o'xshash ta'sir ko'rsatadi.

Triamsinolon (polkortolon) yallig'lanishga qarshi vosita bo'lib, uning faolligi Gidrokortizondan 5 marta yugoridir. U suv va minerallar almashinuviga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Ammo u boshqa nojo'ya ta'sirlar keltirib chiqarishi mumkin: mushaklar atrofiasasi, ishtaha yo'qolishi va depressiya.

Glyukokortikoid vositalarning buyurilishiga to'g'ridan to'g'ri ko'rsatma bu buyrak usti bezi yetishmovchiligidir. Lekin, ular ko'proq yallig'lanishga va allergiyaga qarshi vositalar sifatida qo'llaniladi. Ulardan kollagenozlar, revmatizm, teri yallig'lanish kasallikkleri (ekzema), allergik holatlar (bronzial astma) va bir qator ko'z kasallikklerida (keratit, irit) samarali soydalanim kelinmoqda. Glyukokortikoidlar bundan tashqari o'tkir leykoz va shok holatlarida ham qo'llaniladi. Organ va to'qimalar transplantasiyasidan so'ng ular immunosuppressorlar sifatida qo'llaniladi.

Glyukokortikoidlar keskin yallig'lanish komponentli teri kasallikklerini davolashda keng qo'llanilmoqda. Biroq, ko'p vositalar teri yuzasidan so'rilib, tizimli nojo'ya ta'sirlarini yuzaga keltirish mumkin. Shuning uchun teridan yomon

so'rildigan mahalliy qo'llaniladigan vositalarni kashf qilish zaruriyati tug'ildi va bunday vositalar sintezlandi. Bular o'z molekulasida 2 atom fтор saqlovchi prednizolon hosilalari: Sinaflan va Flumetazon pivalatdir. Ular kuchli yallig'lanish, allergiya va qichishga qarshi xususiyatga egadir. Ular faqat surtmalar¹ va kremlar ko'rinishida bo'ladi va teridan yomon so'riltganligi sababli tizimli ta'sir ko'rsatmaydi. Ammo, shuni nazarda tutish kerakki, bu vositalar teri va shilliq qavatlar mahalliy immunitetini tushirishga va uning natijasida superinfeksiya rivojlanishiga olib kelishi ham mumkin. Shuning uchun ularning ba'zilari tarkibida antibakterial vositalar (masalan, Neomisin) ham mavjud (Sinalar-N, Lokakorten-N surtmalari).

Surtma va krem shaklida ishlab chiqariladigan glyukokortikoid vosita Budezonid mahalliy qo'llash uchun mo'ljallangan. Surtma shaklidagi vosita vazelin asosida bo'lganligi uchun krem shaklidagiga nisbatan sekinroq so'rildi va ta'siri davomiyroq bo'ladi. Budezonidning ingalyasion qo'llash uchun vositasi kukun shaklida bo'ladi (Benakort).

Glyukokortikoidlarning tizimli ta'siriga ega bo'limgan vositalariga Beklometazon propionat² ham kirib, u ingalyasiya shaklida bo'ladi va asosan bronxial astma va vazomotor rinitlarni (pollinoz) davolashda qo'llaniladi. Deyarli tizimli ta'sirga ega bo'limgan yana bir ingalyasion glyukokortikoid vositasi Flyutikazon propionatdir (ingalyasion qo'llanilganda atigi 1% miqdori qon aylanish tizimiga tushishi mumkin). Vosita sprey yoki yaxshi disperslangan kukun ko'rinishida maxsus dozalashtirish moslamasi bor ingalyatorlar tarkibida ishlab chiqariladi. U bronxial astmani davolashda kuniga 2 mahal qo'llaniladi.³

Glyukokortikoidlarning nojo'ya ta'sirlariga odatda ularning kerakli mineralokortikoid nojo'ya ta'siri natijasida ionlar muvozanati buzilishi, ko'p arterial bosimning oshishi kuzatiladi. Steroidlar qondagi qand miqdorini oshib ketishiga va yog'lar taqsimlanishining buzilishiga ham olib kelishi mumkin.

Regenerasiya jarayonining susayishi. OIT shilliq qavatida yaralar hosil bo'lishi, osteoproz rivojlanishi mumkin.

1 - Sinalafan (fluosinolon asetonid) "Sinalar", "Sinalar-N", "Flusinar" kabi surtmalarning asosiy faoliy qismi hisoblanadi. Flumetazon pivalat esa "Lokakorten", "Lorinden-S" takribiga kiradi

2 - doni vositalari bundan tashqari dozalash moslamasi bor ingalyatorlar tarkibida kukun shaklida ishlab chiqariladi (bekotid, bekodisk, bekloforte)

3 - mahalliy ta'sirga ega bo'lgan glyukokortikoid vositalarni ishlab chiqishdagi yangi trend bo'lib. ularni so'rilgandan so'ng tanadagi fermentlar tomonidan tezda parchalanadigan shakllarni yaratish hisoblanadi. Bunday vositalar kam tizimli ta'sirga va uning natijasida nojoya ta'sirga ega bo'ladi. Bu kabi dorilar o'z ichiga Yoteprednoal (oftalmologiyada allergik reaksiyalarni davolashda qo'llaniladi) va bronxial astmani davolashda qo'llaniluvchi Siklezonidni oladi. Bu guruh "toza steroidlar" deb ataladi.

Infeksiyalarga chidamlilik pasayadi. Aqliy faoliyatning, hayz siklining buzilishlari va boshqa noxush ta'sirlar kuzatiladi.

Glyukokortikoidlarning antagonistlari mavjuddir. Ba'zi dorilar ularning sintezini susaytiradi (metirapon, mitotan); ba'zilari reseptorlarini bloklaydi (mifepriston). Ular ba'zida Kushing sindromini¹ davolashda hamda kortikotropin sintezini o'rGANISHDA qo'llaniladi (metirapon). Mitotan zaharli vosita bo'lib, faqatgina davolanmaydigan buyrak usi bezi po'stlog'i o'sma kasalliklarida qo'llaniladi.

MINERALOKORTIKOIDLAR.

Tabiiy mineralokortikoidlarga aldosteron va 11-dezoksikortikosteron kiradi. Aldosteron asosiy mineralokortikoid bo'lib. 11-dezoksikortikosterondan ta'siri jihatidan 20-30 marta kuchliroqdir. Mineralokortikoidlar fiziologik faolligining asosiy namoyon bo'lishi organizmdagi suv-tuz almashinuvida ishtirok orqali amalga oshadi. Ular ta'sirida buyrak nefronalari distal kanalchalarida natriy va izoosmolyar suv reabsorbsiyasi kuchayadi. SHu vaqtning o'zida kaliyning ekskresiyasi ham kuchayadi (16-boq).

Mineralokortikoidlar karbonsuvarlar almashinuviga kuchsiz ta'sir ko'rsatadi. Ular sust yallig'lanishga va allergiyaga qarshi xususiyatlarga egadir.

Ilgari aldosteron olinishi murakkab bo'lgan paytlarda. Dezoksikortikosteron asetat asosiy mineralokortikoid ta'sirga ega bo'lgan vosita sifatida qo'llanilar edi. Dezoksikortikosteron asosan mushak orasiga qilinuvchi shaklda yoki teri ostiga implantasiya qilinuvchi plastinkalar ko'rinishida qabul qilinadi. Dezoksikortikosteron trimetil asetat davomiyroq ta'sirga egadir. Hozirda mineralokortikoid ta'sirga ega bo'lgan vosita sifatida asosan Florgidrokortizon asetat (ftorkortizon, florinef) qo'llanilmoqda. Bundan tashqari u yaqqol yallig'lanishga qarshi ta'sirga egadir. U og'iz orqali qabul qilinadi.

Mineralokortikoidlar buyrak usti bezi surunkali yetishmovchiligi holatlarini (Addison kasalligi) davolashda qo'llaniladi. Bundan tashqari ular miasteniya, adinamiya holatlarini davolashda qo'llaniladi, chunki ular mushaklar tonusini va harakat samaradorligini oshiradi.

Ularning nojo'ya ta'sirlari odam tanasida ko'p miqdorda natriy va suvning ushlanib qolishi bilan bog'liqidir. To'qimalarda shishlar, assit² paydo bo'ladi. Qon bosimi oshadi. Og'ir hollarda yurak chap qorinchasi yetishmovchiligi va o'pka shishi rivojlanishi mumkin.

Klinik amaliyotda *mineralokotikoidlarning antagonistlaridan* foydalilanadi. Ularning ba'zilari mineralokotikoidlarning sintezini kamaytiradi (metirapon), bunda glyukokortikoidlarning sinteziga ham shunday ta'sir ko'rsatiladi. Bundan tashqari mineralokotikoidlarning maxsus reseptorlarini buyrak kanalchalarida bloklab tanlab minerallar almashinuviga bo'lgan ta'sirni kamaytiradigan antagonistlar ham mavjud. Shulardan biri Spirinolakton bo'lib, undan diuretik sifatida foydalilanadi (16-bob).

1 – bu holat buyrak ustti bezi giperfunksiyasida yoki uzoq muddatlari kortikosteroidlar bilan davolashda yuzaga keladi
Bunda semizlik rivojlanadi (qonm, bo'yinda yog' toplanadi)

2 – qorin bo'shilg'ida suyuqlikning yig ilishi Grekenada askos – ^{SUV} saqlaydigan teri xalta.

JINSIY GORMONLAR. ULARNING HOSILALARI VA DORILARI.

SINTETIK O'RNNINI BOSUVCHILARI VA ANTAGONISTLARI

AYOLLAR JINSIY GORMONLARI VA ULARNING DORILARI

Tuxumdon follikulalarida estrogen va progesteronlar (sariq tana gestagenlari) sintezlanadi. Asosiy follikula gormoni etradiol bo'lib, u tuxum hujayra rivojlanishi davomida ishlab chiqariladi. Estron va estriol organizmda estradioldan hosil bo'lib (asosan jigarda), qon va siydkda aniqlanadi. Kimyoviy tuzilishiga ko'ra ushbu gormonlar steroidlar guruhiga kiradi. Estrogenlar ayollarda reproduktiv organlarning hamda ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi. Hayz siklining birinchi yarmida kuzatiladigan endometriy proliferasiyasi ham ushbu gormon ta'sirida amalga oshadi.

Tuxum hujayra etilganidan so'ng follikuladan ajralib chiqadi va shu orqali ovulyasiya sodir bo'ladi. Yorilgan follikul o'rniда sariq tana hosil bo'ladi va u progesteron gormonini ishlab chiqqa boshlaydi. Jigarda u pregnandiolga aylanadi va siydk orqali ajraladi¹. Gestagenlar ham estrogenlarga o'xshab steroidlar guruhiga kiradi. Gestagenlar hayz siklining ikkinchi yarmida bachadon shilliq qavatida sodir bo'ladiqan o'zgarishlarga (sekretor) o'z hissasini qo'shadi. Tuxum hujayra urug'langandan so'ng ular desidual membrana va yo'ldosh hosil bo'lishida ishtirot etadi. Shu yo'l bilan bachadon ichida homila rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratiladi. Shuning uchun sariq tana gormoni boshqachasiga "hoiladorlik gormoni" deb nomlanadi. Yo'ldosh ham estrogen va gestagenlar ishlab chiqaradi. U xorionik gonadotropin (lyuteinlovchi) ishlab chiqarib, ta'siri jihatida gipofiz oldi qismidan chiqadigan L.G bilan o'xshash hisoblanadi. Agar tuxum hujayra urug'lanmasa, sariq tana involyusiyaga uchraydi va hayz boshlanadi. Hayz vaqtida bachadon shilliq qavati ajraladi va bachadondan tashqariga chiqariladi. Gipofiz oldi qismi gormonlari gonadotropinlar jinsiy gormonlar ishlab chiqarilishni nazorat qiladi.

Estrogen va gestagenlar hujayra ichi maxsus reseptorlari bilan o'zaro bog'lanib ta'sir ko'rsatadi. Estrogen va gestagen ta'sirining asosiy sohsasi bo'lib hujayra yadroviy DNK yadrosi hisoblanadi. Bunda ular gormon-reseptor majmuasi shaklida yadroviy DNK

bilan bog'lanib, oqsil sinteziga ta'sir ko'rsatadi. Estrogen va gestagen reseptorlarining eng ko'p joylashgan a'zolari bo'lib, bachadon, qin, sut bezlari hamda gipofiz old qismi va gipotalamus hisoblanadi.

Ayollar gormonal vositalarining alohida ta'sirlari ba'zi hollarda biologik standartlashtirilgan usullar yordamida aniqlanadi. Estrogenlarni kastrasiya qilingan oq sichqon va kalamushlarda estrus ("oqish") chaqirish qobiliyatiga qarab o'rjaniladi. Hayvonlar qinidan chiqadigan surtmalar olinadi, unda tinch davrida (anestrus) shilliq, leykositlar, yadroli bir necha epiteliy hujayralari topiladi. "Oqish" davrida surtmada ko'p miqdorda yadrosiz shoxlangan epiteliy hujayralari aniqlanadi. Bir ta'sir birligi 1 µg estron ta'siriga teng bo'ladi.

Gestagenlarning biologik standartlashtirilishi pubertat oldi davrida bo'lgan urg'ochi quyonlarda amalga oshiriladi. Bayonnomaga asosan hayvonlarga birinchi bo'lib estron, keyin esa progesteron inyeksiyasi amalga oshiriladi. Bunda "yolg'on" homiladorlik rivojlanadi. Bachadon shilliq qavatidagi o'zgarishlar homiladorlikning 8-kunidagi o'zgarishlarga (gistologik aniqlanganda) mos bo'lishi kerak. Bir ta'sir birligi 1 mg kristallangan progesteron ta'siriga teng bo'ladi.

1 – buyraklar estrogen va gestagenlar hosilalarini glyukuron va sulfat kisloclar bilan bog'langan shaklda ajratadi

A) Estrogen va estrogenga qarshi vositalar.

Estrogenning kimyoiy preparatlari¹ steroid (tabiiy gormonlar va ularning hosilalari) va nosteroid tuzilishli birikmalarga (sintetik vositalar) bo'linadi (20.8-jadval, 20.13-rasm.).

| 20.8-jadval. Jinsiy gormonlar, ularning preparatlari, sun'iy analoglari, o'rnini bosuvchilari va antagonistlari | | | |
|---|--|--|---|
| Guruh | Estrogen and their antagonists | Gestagens and their antagonists | Androgens and their antagonists |
| Tabiiy gormonlar va ularning o'zgarish mahsulotlari (steroid) | Estriol Estrone Estradiol Estriol Estrone Estradiol Demoprednolon Uthymisteroid | Progesterone Progesterone, epinephrine Hydroxyprogesterone congesto | Testosterone Progesterone Testosterone enanthate Methyltestosterone |
| Jinsiy gormonlar preparatlari va analoglari (steroidlar) | | | |
| Gormonal faol sun'iy dorilar (nosteroid) | Hexestrol Dienestrol | | |
| Jinsiy gormonlar antagonistlari | Clofospine Terazosine | Mideprazine GRL-223 | Fluaprostone Flutamide Flutamide |

* - har xil to'qimalarda tamoksifen etsrogenga qarshi (ko'krak bezlarida) yoki estrogen (suyaklar va hok.) ta'sir ko'rsatadi. Shunday aralash ta'sir qiluvchi estrogen vositalariga *estrogen reseptorlari modulyatorlari* deyiladi. Klomifen toza antagonist hisoblanadi.

** - digidrotestosteron sintezi ingibitori.

Estron (follikulin) (homilador ayol yoki homilador hayvon siydigidan olinadi) va Estradiol kabi steroid tuzilishga ega bo'lgan estrogenlar klinik amaliyotda keng qo'llaniladi. Estradiol dipropionat estrondan faolroq bo'lib, ko'proq muddat ta'sir qiladi. Shuning uchun estron kuniga 1 mahal berilsa, Estradiol dipropionat har 2-4 kunda beriladi. Estron va estradiol efirlari mushak orasiga yog'lar shaklida yuboriladi. Ular og'iz orqali qabul qilinganda samarası past bo'ladi, chunki jigar tomonidan tez orada parchalanib yuboriladi.

Yarim sun'iy vosita Etinilestradiol (mikrofollin) yuqorida aytib o'tilgan vositalardan keskin farq qiladi. U eng faol estrogendir. U estrondan 50 marta faolroqdir. Bundan tashqari uni peroral ham qabul qilish mumkin, chunki tarkibidagi etil guruhi uni jigarda parchalanishdan saqlaydi. Ta'siri uzoq davom etmaydi (kuniga 1-2 mahal ichiladi).

Mestranol yarim sintetik estrogeni odam organizmida Etinilestradiolga aylanadi. U og'iz orqali qabul qilinadi va kontrasepsiya dorı vositalari tarkibiga kiradi.

Estrogen ta'sirga ega (nosteroid tuzilishli) sun'iy vositalar ham mavjuddir. Ulardan biri geksan hosilasi Geksestroldir (sinestrol). Faolligi jihatidan estronga yaqin. U peroral yoki mushak orasiga qabul qilinishi mumkin.

1 - Estrus issiqlik (oqish) Grechadan oistros-ehtiros, o'chlik, genos-tug'ilish

Estrogenlar tuxumdon faoliyati buzilganda (hayz sikli buzilishlarida – amenorreya¹, dismenorreya², kastrasiyadan keyingi buzilishlar) va tug'ruqdan keyingi laktasiyani to'xtatish maqsadida qo'llaniladi. Estrogenlar (masalan, geksestrol) prostata bezi raki (34-bob) va ko'krak bezi raki (60 yoshdan oshgan ayollarda) kompleks terapiyasida beriladi.

1 - jinsi yetish davrida hayzning yo'qligi Grechada a – yo'qkl, men – oy, rheo – oqim

Estrogenlar kontraseptiv vositaler tarkibida ham boʻladi.

Gormonal oʻrnini bosuvchi terapiyadan klimaks davridagi buzilishlarda yeki tuxumdonlarni olib tashlash operasiyalaridan soʻng keng soydalaniladi. Progynova-21 (estrogen valerat), Klimara (tarkibida estradiol saqlovchi 7 kun davomida taʼsri qiluvchi elim qogʼoz) kabi faqat estrogen tarkibli vositalar yoki ularni gestagenlar bilan kombinasiyali (gestagenlar estrogenlar tomonidan chaqiriladigan endometriy giperplaziyasini oldini olish maqsadida qoʼshiladi) vositalaridan shu holatlarni davolashda qoʼllaniladi. Shu dorilardan biri Klimonormdir (tabletkalar estradiol valerat + levonorgestrel saqlaydi). Bu vositada estrogen va gestagenlar dozalari shunday moslashtirilganki, bunda estrogenlarning markaziy asab tizimiga, yogʼlar almashinuviga, suyaklar rezorbsiyasiga ijobiy taʼsiri saqlanishi taʼminlangan boʼlib, bir vaqtning oʼzida endometriyni giperplastik jarayonlardan himoyalash taʼminlangan.

Premenopauzada yoki yosh ayoilarda tuxumdoalari olib tashlanishi holatlarda 2 bosqichli terapiyadan oʼtuvchi rejimga asoslangan holda soydalaniladi. Postmenopauzada davomiy terapiya rejimidан (umrbod) soydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu maqsadda Klimoden nomli oʼz tarkibida teng miqdorda estradiol valerat va vositani qoʼllash maqsadga muvofiq boʼladi.

Klimakterik estrogen yetishmovchiligi holatlarda Divina, Divitren, Indivina (estradiol valerat + medroksiprogesteron har xil dozalarida) va Divigel (transdermal gel shakiidagi estradiol gemigidrat) vositalaridan ham soydalanilsa boʼladi.

Oʼrnini bosuvchi gormonal terapiya nafaqat klimaks simptomlarini yengillashtiradi, balki estrogenlar yetishmovchiligi natijasida vujudga kelishi mumkin boʼlgan osteoporoz holatini ham oldini oladi.

Uzoq muddat estrogenlarni qoʼllash davomida bachadondan qon ketish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu vaqtning oʼzida estrogenlar qon ivishini kuchaytirishi hisobiga tromboemboliya holatlariga ham sababchi boʼlishi mumkin. Baʼzida shishlar ham kuzatiladi. Ogʼiz orqali qabul qilinganda estrogenlar koʼngil aynishi, quisish, diareya kabi nojor ya taʼsirlarga sabab boʼlishi mumkin. Estrogenlar

erkaklarda qo'llanilganda feminizasiya¹, libidoning va jinsiy potensiyaning pasayishiga olib keladi.


Estrogenlar 60 yoshdan kichik bo'lgan ko'krak bezi va jinsiy a'zolar raki bilan og'rigan ayollarga buyurilmaydi. Endometritlar va bachelondan qon ketish holatlarida ham bu dorilarni qabul qilish mumkin emas. Jigar va buyraklar kasalliklarida estrogenlar ehtiyojkorlik bilan qabul qilinadi.

Oxirgi yillarda klinik amaliyotga yangi guruh, ya'ni *estrogenga qarshi doris vositalari* kirib keldi. Ular nosteroid tuzilishga ega bo'lgan sintetik moddalardir. Ularning ta'siri mexanizmi maxsus reseptorlarni bloklash orqali estrogen ta'siri kamaytirish (20.14-rasm). Ular ayniqsa, gipotalamus (gonadoliberinlar ishlab chiqarish faoliyatini) va gipofiz (gonadotrop gormonlar ishlab chiqarishini) faoliyatini boshqaruvida ishtirok etuvchi reseptorlarni bloklaydi. Bir vaqtning o'zida teskari aloqa prinsipi buzilishi kuzatilib tizim yana faollahadi. Buning natijasida gonadotrop gormonlar ishlab chiqarishi oshadi, bu esa o'z navbatda tuxumdonlar o'lchamining kattalashishiga va faoliyatining kuchayishiga olib keladi.

1 - erkaklarda ikkilomchi ayl jinsiy belgilarining rivojlansishi

2 - iouncha libido - jinsiy chuyoj, va

Gipofiz



Bunday dorilar, masalan, Klomifen ayollar bepushtligini davolashda beriladi. Bundan tashqari, antiestrogen vositalar bo'lmish Tamoksifen va Toremifen (fareston) ko'krak bezi rakini davolashda qo'llaniladi (34-bob).

Gestagen (progestagen) va atigestagen vositalari.

Barcha gestagenlar¹ steroidlardir. Gidroksiprogesteron kaproat, Medroksiprogesteron va Etisteron kabi progesteron hosilalari va uning o'zi dori vositalari sifatida qo'llanililib kelmoqda. Bundan tashqari, gestagen faollikkaga ega bo'lgan testosterone hosilalari ham mavjud bo'lib, ularga Nogestrel, Noretindron, Noretisteron, Dimetisteron va hok. kiradi.

1 – lotinchadan gesto olib ketmoq (homiladorlikni qo'llab-quvvatlamoq)

2 – u davolash maqsadida sun'iy ravishda olinigan

Progesteron endometriyni tuxum hujayraning implantasiyasiga tayyorlaydi (proliferasiya bosqichi sekretor bosqichga o'tadi). U miometriy qisqaruvchanligini kamaytiradi, ovulyasiyani oldini oladi va ko'krak bezlarini rivojlanishini ta'minlaydi. U har kuni mushak orasiga yuboriladi. Og'iz orqali qabul qilinganda samarasiz hisoblanadi.

Gidroksiprogesteron kaproat (Gormofort) uzoq ta'sir etuvchi gestagendir. Uning ta'siri 7-14 kun davom etadi. U yog shaklida bo'lib, mushak orasiga yuboriladi. Medroksiprogesteron ham uzoq ta'sir etuvchi gestagendir. U har 14 kunda mushak orasiga yuboriladi. Bu vosita peroral ham qabul qilinishi mumkin.

Etisteron (pregnинum) progesteronga nisbatan ta'sir kuchiga qarab 5-15 marta kuchsizroqdir. U og'iz orqali qabul qilinadi. U til ostida to'liq so'rilib ketguncha shimiladi.

Gestagen ta'sirga ega bo'lgan testosterone hosilalari (Noretinodrel) peroral qabul qilishga mo'ljallangan. Ularning ta'siri 1-3 kun davom etadi.

Gestagenlar sariq tana disfunksiyasi holatlari bola tushib qolishini oldini olish (homiladorlikning I-yarmida) va hayz siklini tartibga solishi maqsadida qo'llaniladi. Ulardan kontraseptiv vositalar sifatida keng qo'llanilmoqda.

Gestagenga qarshi vositalar, ya'ni antigestagenlar ham mavjuddir. Ularning ba'zilari klinik amaliyotda qo'llanilmoqda. Shulardan biri steroid tabiatli vosita

Mifepristondir. U gestagen reseptorlarni bloklash orqali gestagenlar ta'sirini yuzaga chiqarmaydi. Mifepriston gestagen ta'sirga ega emas. Mifepristonning asosiy klinik xususiyatlaridan biri bu uning abort chaqira olishidir. Bunday hollarda uni vaqtli qo'llash afzalroqdir. Tibbiy ko'rsatmalarga asosan abort chaqirishi uchun Mifepriston prostaglandinlar bilan birga qo'llaniladi. Buning maqsadi shuki. Mifepriston miometriyning prostaglandinlarga nisbatan sezuvchanligini oshiradi. Ikkala vosita ham nojo'ya ta'sirlarini kamaytirish maqsadida kam dozalarda beriladi. Antigestagen vositalar hayz siklini meyorlashtirish uchun ham qo'llaniladi.

Peroral va implantasion kontraseptivlar.

Bu guruh preparatlari bola tug'ilishni nazorat qilish maqsadida ishlataladi. Ular nafaqat rejalashtirilmagan homiladorlikni olini olish uchun, balki har xil vaziyatlardan kelib chiqqan holda homiladorlikni rejalashtirish (tuhruqlar soni, homiladorliklar orasidagi vaqt va hok.) maqsadida qo'llaniladi. Turli xil kontraseptiv vositalar va ularning peroral qabul qilish sxemalari mavjud. Eng qulay, saaradorligi yaxshi va kamroq nojo'ya ta'sirga ega kontraseptivlar quyidagilardir:

- Qo'shma estrogen-gestagen vositalari;
- Gestagenlarning mikrodozalarini saqlavchi dorilar.

Etinilestradiol eng ko'p qo'llaniladigan estroegen vositasidir. Gestagenlar turli xil bo'lishi mumkin. Ularning ko'pchiligi testosterone hosilalaridir (noretindron, norgestrel, levonorgestrel). Monofazali (bunda estrogen va gestagen doimiy ta'sirga ega, masalan, mikroginon, diane-35, minisiston, femoden, regulon, novinet) hamda ikki- va uchfazali dori vositalari mavjud. Ohirgi 2 holatda bermorlar hayz sikli davomida estrogen va gestagen miqdorlarini nazorat qilib har xil vositalarni (xab dori) qabul qiladi. Bu orqali hayz sikli davomida jinsiy gormonlarning miqdorini flyuktuasiysi ta'minlash uchun dorilarni optimal dozalash imkonini beradi. Bundan tashqari bunda dorilarning nojo'ya ta'sirlari kamayadi. 2 bosqichli dorilarga anteovin, 3 bosqichliga trikvilar, triziston, tiregol va hok. kiradi.

Ushbu dorilarning ta'siri ovulyasiyani to'xtatishga qaratilgandir. Bu gipofiszdagi FSG va LG gormonlari hamda gipotalamusdagi gonadoliberinlar sintezini ingibitorlash orqali amalga oshiriladi. Ular tuxumdonga menopauzadagi

ta'sirga o'xshab ta'sir qiladi. Endometriyda o'zgarishlar bo'lib (proliferasiya fazasidagi regressiya va hok.), tuxum hujayraning endometriya implantasiyasiga sodir bo'lishini oldi olinadi. Bachadon bo'yni shilliq qavati suyuqligi tarkibi ham o'zgarib, bu o'z navbatida spermatozoidlar harakatchanligi susayishiga olib keladi.

Estrogen-gestagen vositalar deyarli 100% samaraga ega. 28 kunli hayz siklida ular 5 kunidan boshlab 21 kun davomida ichiladi. Bu dorilarni qabul qilish to'xtatilgandan so'ng reproduktiv faoliyat yana tiklanadi. Tiklanish davri kontrasepsiya davomiyligiga va organizm holatiga bog'liq bo'ladi. Uzoq muddatli kontrasepsiya vositalari qabul qilinganida tiklanish davri bir necha oylarga borishi mumkin. Bu dorilarni homiladorlikdan oldin berilishi ma'lumotlarga qaraganda homilaga zararli ta'sir ko'rsatmaydi.

Ushbu dorilarning nojo'ya ta'sirlari asosan qo'llanilishining birinchi 2 oyligida yuzaga keladi. Keyinchalik bu son kamayib 5-10% atrofida bo'ladi. Xos nojo'ya ta'sirlar o'z ichiga: qon ivishining kuchayishi (venoz trombozlar va tromboemboliyalar havfi), jigar yetishmovchiligi, bosh og'rig'i, qichish, ko'kraklarning qattiqlashishi, ko'ngil aynishi, quşish, hayzlar orasida qonli ajralmalar, semirish va hok.

Estrogen-gestagen kontraseptiv vositalarni qo'llash tromboemboliyalar, bosh miyada qon aylanishini buzilishi, jinsiy a'zolar o'sma kasalliklari, ko'krak bezi raki, og'ir jigar yetishmovchiligi, qandli diabet va psixozlarda ma'n etiladi. SHuni nazarda tutmoq lozimki, estrogen-gestagen vositalar nafaqat kontrasepsiya maqsadida, balki davolash uchun ham foydalaniлади. Masalan, ular hayz sikli buzilishlarida, polipoz va endometrioz va boshqa ginekologik kasalliklarda beriladi.

Ikkinci guruh tug'ruqni nazorat qilish vositalariga past dozalardagi gestagenlar kiradi. Kontinuin, Mikrolat va boshqalar shu guruh preparatlariiga kiradi. Ularning ta'siri mexanizmi hozirgacha aniqlanmagan. Taxminlarga ko'ra, gestagenlar bachadon shilliq qavati suyuqligiga ta'sir qilib, spermatozoidlar penetrasiya qobiliyatini susaytiradi. Bachadon naylaridan tuxum hujayraning transportining susayishi ham kuzatiladi. Tuxum hujayraning implantasiyasiga to'sqinlik qiluvechi endometriydagи o'zgarishlar ham kuzatiladi. SHu vaqtning o'zida

gipotalamo-gipofizar tizimni faoliyatini pasay tiruvechi ta'siri ham klinik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bularning kontraseptivlik samarasi estrogen-gestagen vositalarnikidan sustroq. Estrogenlarning yo'qligi hamda gestagenlarning past dozalarda bo'lishi ularning nojo'ya ta'sirlarini estrogen-gestagen vositalarga nisbatan kam bo'lishini izohlaydi (masalan, metabolizmiga ta'sir ko'rsatmaydi va tromboslebit chaqirmaydi).

Asosiy nojo'ya ta'sirlari bu noregulyar hayz sikli va hayzlar orasida qonli ajralmalarning bo'lishi hisoblanadi. Ba'zida ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i, depressiya va boshqa holatlar kuzatilishi mumkin. Biroq, umuman olganda, u vositalarning nojo'ya ta'sirlari estrogen-gestagen vositalarnikidan kamroq hisoblanadi.

Reproduktiv faoliyat odatda kontraseptivlarni qabul qilinishi to'xtatilganidan so'ng 3 oy ichida tiklanadi.

Gestagenlarning tizimli nojo'ya ta'sirlarini kamaytirish maqsadida Mirena vositasi ishlab chiqilgan. U bachardon ichi gormon ajratuvchi tizim hisoblanadi. U tarkibida maxsus idish bo'lib, 5 yildan ortiq muddat davomida uning ichidan Levonorgestrel vositasi ajralib turadi. U mahalliy kontraseptiv ta'sirga ega bo'lib, bu bachardon yuo'yni shilliq qavati suqligining quyuqlashishi va tuxum hujayrani implantasiyasiga to'sqinlik qilishi kabi holatlar bilan namoyon bo'ladi. Mirena juda yuqori ishонchli kontraseptiv vosita bo'lib, u ayniqsa, menorragiya, dismenorreya kabi buzilishlari bor ayollar uchun qulay hisoblanadi, chunki, u hayz davomida qon ketishlar uehrashini va hajmini kamaytirdai.

Jinsiy aloqadan 24-48 soatdan keyin (postkoital kontraseptivlar) qabul qilinadigan o'zida ko'p miqdorda estrogen-gestagen¹ saqlagan dori vositalari ham mavjud bo'lib, ularga Postinor (tarkibida Levonorgestrel saqlovchi) kiradi.

Kontrasepsiya vositalarini samarasini yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi vositalarning nojo'ya ta'sirlarini kamaytirish, kontraseptiv samarasini 100%ga yetkuzish va har xil muddatlai ta'sirga ega bo'igan dorilarni yaratishdan iboratdir. Uzoq muddatlai ta'sirga ega bo'lgan kontraseptiv depo-dorilar (masalan, Medroksiprogesteron asetat, 3 oyda 1 marta

qabul qilinadi) ayniqsa e'tiborga molikdir. Til ostiga implantasiya qilinuvchi silastik kapsulalar ham mavjuddir (Levonorgestrel saqlovchi vosita Norplant. 1 kapsula 5 yil davomida samara beradi).

Erkaklar uchun kontraseptiv vositalarni o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Bu dorilar spermatogenezni va spermatozoidlar etilishini ingibirlaydi. Xususan, Gossipol paxta chigit yo'idan olingen bo'lib, uni qabul qilinishi davomida rivojlanadigan nojo'ya ta'sirlari soni ko'p bo'lib, 20% *hollarda bu erkaklarda* qaytarib bo'lmas bepushtlik rivojlanadi. Erkaklar jinsiy faoliyatini nazorat qiluvchi gipotalamo-gipofizar tizimga ta'sir qiluvchi vositalar ham ishlab chiqarilgan. Alovida e'tibor spermatogenezni stimullovchi va testosteron ishlab chiqarilishiga ta'sir qilmaydigan gormon faqat FSG ni ajralishini kamaytirishga yo'naltirilgan vositalarni yaratishga qaratilgan (20.3-rasm). Erkaklar urug' suyuqligidan olinadigan Ingibin ham o'ziga yarasha e'tiborga molik.

ERKAKLAR JINSIY GORMONLARI (ANDROGENLAR²). ULARNING DORILARI VA ANTIANDROGENLAR.

Erkaklar jinsiy a'zoladagi interstisial Leydig hujayralari testosteron (steroid tuzilishi) nomli gormon ishlab chiqaradi. Ko'p a'zolarda testosteronning katta qismi hujayra ichidagi androgen reseptorlarga moyilligi juda ko'p bo'lgan digidrotestosteronga aylanadi. Androgen reseptori ta'siri prinsipi boshqa steroidlar ta'siri prinsipi bilan bir xildir.

Testosteron ta'siri natijasida jinsiy a'zolar va ikkilamchi jinsiy belgilar rivojlanadi va spermatogenez nazorati amalga oshiriladi.

1 – shuning uchun bu vositalarni qabul qilganda yo'rionnomaga qat'iy rioya qilish lozim (1 oyda 4 mahalgacha). Aks holda kuchli gormonal disbalans sodir bo'lishi mumkin.

2 – Grekchada andros erkak, genos – jins.

Testosteron bundan tashqari, oqsillar sinteziga ham kuchli ta'sir ko'rsatib. Ularning sintezini kuchaytiradi (anabolik¹ ta'sir). U bundan tashqari suv, xlor, kalsiy, natriy va boshqa ionlarni buyrak kanalchalaridagi reabsorbsiyasini kuchaytiradi. Testosteron ishlab chiqarilishi gipofiz old qismidan ajraluvchi gonadotrop gormon (lyuteinlovchi) orqali boshqariladi. Jigarda testosterondan androsteron (faolligi 10

marta kamroq) hosil bo'lib, siydiq orqali ajraladi. Qonda aylanib yuruvchi 65% testosteron jiga'da sintezlangan maxsus globulin bilan bog'langan holda bo'ladi.

Androgen faoliyatida biologik yo'l bilan baholanadi. O'rganilayotgan dori vositasi kastrasiyadan so'ng toji atrofiyaga uehragan xo'rozlarga berilib, ularda tejning qayta o'z holatiga qaytish jarayoni kuzatildi. I ta'sir birligi 0,1 mg kristallangan androsteron ta'siriga egadir.

Klinik amaliyotda testosteronning Testosteron propionat va Testenat (testosteron enantat + testosteron propionat) kabi efirlari keng qo'llanilmoqda (20.15-rasm). Ikkala dorilar ham kuchli androgen va anabolik ta'sirga ega. Testenat Testosteron proiponatdan ta'sirining sekinroq boshlanishi ammo sezilarli darajada uzoqroq muddat davom yetishi bilan farqlanadi. Testosteron propionat har 2 kunda buyurilsa, Testenat har 2 haftada qilinadi. Ikkala vosita ham mushak orasiga qilinadigan yog'li suyuqlik bo'ladi. Og'iz orqali qabul qilish samara bermaydi, chunki ular jiga'da tez orada parchalanadi.

Metiltestosteron nomli sun'iy androgen vosita ko'p jihatlari bilan testosteronga yaqin bo'lib, ta'siri jihatidan undan bir necha marta sustroqdir. Metiltestosteronning ustun tarafsi bu peroral qabul qilinganda samaradorligidadir. Uni xab dorilar ko'rinishida til ostiga qo'yib to'la so'rilmuncha shimib qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Androgen ta'sirga ega bo'lgan vositalar erkaklar jinsiy a'zolari faoliyati buzilganda (etilishning buzilishi, erektil disfunksiya va hok.) hamda ayollarda sut bezi va tuxumdon raki (60 yoshgacha bo'lgan ayollarda), dismenoreya va klimaks buzilishlari holatlarini davolashda qo'llanilishi mumkin.

Androgenlarni qo'llash davomida noyo'ya ta'sirlar vujudga kelishi mumkin. Ayollarda quyidagi ko'rinishdagi maskulinizasiya² (virilizm³) belgilari, ya'ni ovozning do'rillashishi, tanadagi tuklarning erkaklarnikiga o'xshab o'sa boshlashi kabi belgilari kuzatiladi. Organizmda ortiqcha miqdorda suv va natriyning ushlanib qolishi kuzatiladi. Metiltestosteron sariqlik chaqirishi mumkin.

Androgen gormonlar antagonislari ham sintezlangan. Testosteron ishlab chiqarilishini gipofizning Gonadorelin yoki uning sintetik hosilasi

Leyprorelinlarning doimiy yuqori konsentrasiyalarini ushlab turilishi hisobiga kamaytirish mumkin (bunday yo'l bilan dozalashda gipofiz old qismida ishlab chiqariladigan gonadotropinlarning hosil bo'lishi kamayadi). Bu dorilar prostata bezi havfsiz giperplaziyasini davolashda qo'llanilishi mumkin.


Androgenlar biosintezi ketokonazol va uning hosilalari ta'siri natijasida ham (steroidlar sintezida qatnashuvchi R-450 sitoxrom ishini to'xtatilishi hisobiga) kamaytirilishi mumkin.

Biroq, androgen antagonistlari sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi 2 guruh dorilari kiradi:

16-BOB.

VITAMINLAR

Piridoksin, uning hosilalari, koenzim shakllari, folic kislotasi.



Vitamin V12ni olish uchun tabiiy yo'lga o'xshash yo'ldan foydalaniлади. Bu vitamining mikroorganizmlar tomonidan yo'g'on ichakda sintezlanishi katta ahamiyatga ega emas, chunki uning so'riliши asosen ingichka ichakda ketadi.

Vitamin V12 faol shakllarining (koenzim V12¹ va metilkobalamin²) asosiy vazifasi bu metil guruhlari (transmetillash jarayonidan hosil bo'lgan) va vodorodni tashishdir. Ushbu vazifasi orqali vitamin V12 oqsillar va nuklein kisloatlari almashinuviga ta'sir qiladi.

Sianokobalamin tanqisligida (sianokobalamin¹ so'riliшining buzilishiga olib keluvchi oshqozon va ingichka ichak kasalliklarida) megaloblastik anemiya (pernisioz yoki yomon sifatli anemiya, Addison-Birmer anemiyasi) rivojlanadi.

Oshqozon-ichak trakti (OIT) ham zararkanadi (til yaqqol qizil rangga kiradi, silliq bo'ladi hamda kimyoviy qo'zg'atuvchilarga o'sta sezgir bo'slib qoladi; oshqozon shilliq qavati atrofiyasi va axiliya kuzatiladi). Asab tizimida ham o'zgarishlar kuzatiladi (paresteziyalar, og'riqlar, yurishning o'zgarishi).

Sianokobalamin ingichka ichakda so'rildi. Bu oshqozondagi ichki omil bilan o'zaro ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Ichki omil sianokobalamin so'riliши uchun juda muhim bo'lgan glikopeptiddir. Agar ma'lum bir sabablarga ko'ra (masalan, oshqozon rezeksiyasidan keyin) ichki omil bo'lmasa, bu holda sianokobalamin parenteral yo'il bilan berilishi lozim. Plazmada sianokobalamin oqsillar bilan bog'langan holda bo'ladi. U jigarda ko'p miqdorda saqlanadi hamda ko'proq oshqozon-ichak bezlari orqali (ayniqsa, o't bilan), hamda buyrak orqali ajraladi.

Sianokobalamin yaxshi qabul qilinadi. Ba'zi hollarda u qon ivishini kuchaytirishi mumkin. Agar qonda eritrositlar va leykositlar sonining moyoridan ortishish kuzatilsa, bu holda vitamin dozasini kamaytirish lozim.

Ba'zi olimlar pangam kislotasi va holin xloridni V vitaminlari kompleksiga kiritishadi. Vaholinki, bu birikmalarni vitaminsimon moddalar yoki biologik faol birikmalar deb hisoblash maqsadga muvoziq bo'ladi. Bu moddalarning ovqatdagи yetishmovchiligi hech qanday gipo- yoki avitaminozlarga olib kelmaydi. Bu

birikmalarning koenzim shakllari aniqlanmagan. Ushbu birikmalarning biokimyoviy jarayonlardagi roli metil guruhlarining donatorligidir. Bular jigar kasalliklarida (sirroz, gepatit), ateroskleroz va alkogolga qaramlik holatlariда qo'llaniladi. Pangam kislotasi miokardiodistrofiya hamda ko'krak anginasi (stenokardiya) holatlariда qo'llaniladi. Pangam kislotasining farmakologik shakli peroral bo'ilib, bu uning kalsiy tuzidir (kalsiy pangamat).

Askorbin kislotasi (Vitamin S) juda muhim biologik ahamiyatga ega. U juda ko'p miqdorda mevalar, sabzavotlar, na'matak, rezavor mevalar, archa ignalari, qoraqat barglarida aniqlanadi. Askorbin kislotasi oksidlanishda, qizishda, og'ir metallar (ayniqsa, mis ta'sirida), askorbatoksidaza ta'sirida parchalanadi. U odam organizmida sintezlanmaydi.

Askorbin kislotasining asosiy ta'sir mexanizmi uning oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida qatanshishi bilan bog'liqdir. Bunda askorbin kislotasi degidroaskorbin kislotasigacha oksidlanadi. Bu jarayon qaytar bo'lib, vodorod ionlarini ko'chishi bilan kechadi.

¹ – Alimentar V12 avitaminozi vegetarianlarda sodir bo'lishi mumkin.



N. NEMES SZENT GYÖRGYI
NAGYRÁPOLY 1895-1969

Vengriyalik olim. Vitamin S ni ajratib olgan va o'rgangan. Nobel mukofoti sovrindori (1937).

Askorbin kislotasi biriktiruvchi to'qima hujayra ichi matriksi (xususan, mukopolisaxaridlar – gialuron kislotasi hamda xondroitin sulfat) hosil bo'lishida hamda kollagen sintezida ishtirok etadi. Ushbu moddalarning tanqisligi tomirlarning mo'rashishiga va to'qimalardagi regenerasiya jarayonlarining susayishiga olib keladi. Askorbin kislotasi kortikosteroidlar sintezi, tirozin almashinushi, foli kislotasining faol shakliga (tetragidrofoli kislotasi) o'tishi hamda bir qator fermentlarning faollashishi uchun zarurdir.

Askorbin kislotasi yetishmovchiligi gipovitaminoz va og'ir darajadagi avitaminoz, ya'ni singa (skorbutiga olib kelishi mumkin. Singa kasalligi holsizlik, terining quruqligi (kseroderma), gemorragik toshmalar (ko'pincha perifollikulyar),

milklarning qonashi bilan kechadigan gingivit, tish oraliqlarining kengayishi, tish to'kilishi, mushaklararo qon ketish, oyoq-qo'llardagi og'riq hamda ichki a'zolar patologiyalari (gemorragik enterokolit, plevrit, gipotensiya, jigar va yurak muammolari va hok.) belgilari bilan namoyon bo'ladi. Immun tizimdag'i buzilishlar organizmning infeksiyaga qarshi kurashish qobiliyatini susaytirib yuboradi.

Askorbin kislotasi ingichka ichakda so'rildi. U qisman to'qimalarda to'planib, juda ko'p miqdorda buyrak usti bezlarida saqlanadi. Asosan metabolitlari (oksalatlar) ko'rinishida, ba'zan o'zgarmagan holda siyidik orqali ajralib chiqadi.

Askorbin kislotasi asosan ushbu vitamin yetishmovchiligin oldini olish maqsadida, qon ketish, infeksiya, kimyoviy moddalar bilan zaharlanish holatlarida, ateroskleroz, nur kasalligi, to'qima qayta tiklanish xususiyatlarining susayishi hamda ish sharoitida o'ta zo'riqish holatlarida qo'llaniladi. Ushbu vitamin ham parenteral ham peroral holda qo'llaniladi.

Askorbin kislotasi teapevtik dozalarda yaxsht qabul qilinadi va hech qanday nojo'ya ta'sirga ega emas. Yuqori dozalarni uzoq muddat qabul qilish oshqozon osti bezi orolchalarini shikastlanishiga hamda bilvosita yo'l orqali (kortikosteroidlarning meyordan ko'p ishlab chiqarilishi orqali) buyrak shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Vitamin B atamasi o'z ichiga *bioflavonoidlar*¹ (flavon kimyoviy hosilalari) guruhiга kiruvchi moddalarni o'z ichiga oladi. Bu vitamin sitrus mevalar, chetan (ryabina), na'matak, ko'k choy barglari va boshqa mahsulotlarda aniqlanadi.

Vitamin Rning asosiy ta'siri qon tomirlar o'tkazuvchanligi va mo'rtligini kamaytirishdan iboratdir. Askorbin kislotasi bilan birgalikda ushbu vitamin oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida qatnashadi. Vitamin R yetishmovchiligi holatlarida kapillyar qon tomirlar mustahkamligini kamayishi kuzatiladi. Ushbu holatni vitamin R aktivligiga ega bo'lgan dori vositalarini qo'llash orqali qaytarish mumkin. Bu dori vositalari quyidagilardir:

Rutin (grechixa o'simligidan olinadigan 3-rutinozid kversetin). **Kversetin**, **choy barglaridan olingan vitamin R** (katexinlarni o'z ichida saqlovchi) va boshqa o'simliklar.

Vitamin R preparatlari qon tomirlar o'tkazuvchanligining oshishi bilan kechadigan patologik holatlarni (gemorragik diatez, kapillyarlar toksikozi) davolashda qo'llaniladi. Ular peroral qo'llaniladi. Vitamin R ni askorbin kislotasi bilan qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Vitamin U ham suvda eruvchi vitaminsimon moddadir. Bu metilmetioninsulfoniyl xloriddir. Vitamin U ning asosiy manbalari barra tomat, karam, selderey, sparjalar hisoblanadi.

Vitamin U yara hosil bo'lishiga qarshi ta'sirga ega bo'lib, bu ta'sir taxminlarga ko'ra ushbu moddaning metil guruh donori bo'lishi bilan bog'liq. Undan oshqozon-12 barmoq ichak yara kasalliklari, gastrit hamda yarali kolitni davolashda foydalaniladi.

YOG'DA ERUVCHI VITAMINLAR

Bu guruhg'a A, D, E, K vitaminlari kiradi

Vitamin A retinol (vitamin A-alkogol, vitamin A₁, akseroptol), degidroretinol (vitamin A₂), retinal (retinen, vitamin A-aldegid), retin kislotasi (vitamin A-kislotasi) hamda ularning murakkab esirlari va stereoizomerlari ko'rinishida ishlataladi. Vitamin A baliq jigari yog'i (treska, paltus, dengiz olabug'asi (okun)), jigar, saryog' va boshqa kundalik hayvonot mahsulotlarida hosil bo'ladi.

Bir xil o'simliklar va ba'zi hayvonot mahsulotlarida provitamin A – karotin² (α -, β - va γ -izomerlari) mavjud bo'ladi. Odam tanasida bular vitamin A ga aylantiriladi. Eng ko'p tarqalgani va eng faoli bu β -karotindir.

Yog'da eruvchi vitaminlar

| Harflarda ifodalanishi | Nomi va sinonimlari | Yoshi kattlarda taxminiy kunlik talab | Dori vositasi |
|------------------------|---|---------------------------------------|----------------|
| A | Retinol (akseroptol, kserofalimga qarshi vitamin) | 0,8-1,0 mg (4000-5000 X.B.) | Retinol asetat |
| D ₂ | Ergokalsiferol (raxitga qarshi vitamin) | -10 µg (400 X.B. *) | |
| D ₃ | Xolekalsiferol (raxitga qarshi vitamin) | | |
| E | Tokoferol (antisteril vitamin) | | |
| K ₁ | Fitomenadion (filloxinon, fitonadeon, gemorragiyaga qarshi vitamin) | | |
| K ₂ | Menaxinon (gemorragiyaga qarshi vitamin farnoxinon) | | |

•- 10 µg ergokalsiferol 400 X.B.ga to'g'ri keladi. Vitamin D₂ va D₃ lar organizmiga bir xil ta'sir ko'rsatadi. X.B. – xalqaro birlik.

Bir molekula β-karotinni fermentativ parchalanishi (gidroliz) natijasida ikki molekula vitamin A hosil bo'ladi. Petrushka, sabzi, shavel, ismaloq, dengiz topalak (oblepixa) mevalari, na'matak va o'rak vitamin A ning eng muhim manbalari hisoblanadi.

Vitamin A ning moddalar almashinuviga ta'siri mexanizmi noaniqdird. Taxminlarga ko'ra u oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi (juda ko'p miqdorda to'yinmagan aloqalar (birikishlarga) ega bo'lganligi hisobiga). Vitamin A ning oqsillar, mukopolisaxaridlar va yog'lar sintezida qatnashishi ko'rsatib o'tilgan bir necha ma'lumotlar mavjud.

Vitamin A fotoresepsiyada (yorug'lik nurini qabul qila olish) juda muhim rol o'ynaydi. Bu holat vitamin A yetishmovechiligidagi rivojlanadigan tunda ko'rishning yomonlashishi, ya'ni niktalopiyaning (bu holat yana "tungi ko'rlik" yoki generalopiyaga deb ham ataladi) vujudga kelishi kabi dalillar isbotlangan. Bu holat lo'r parda hujayralarining (tayoqchalar) past yorug'likka sezgirligini buzilishi

natijasida sodir bo'ladi. Bu hujayralar o'z tarkibida yorug'likka sezgir maxsus pigment rodopsinni saqlashadi, bu esa o'z navbatida, oqsil opsin bilan bog'langan retinaldan (vitamin A aldegidi) tuzilgan. Yorug'lik ta'sirida bu kompleks parchalanib neyronal impulslar generasiyasi vujudga kelishini ta'minlaydi. Boshida bir necha oraliq mahsulotlar paydo bo'ladi. Parchalanish jarayoni retinal va opsin hosil bo'lishi bilan tugaydi. So'ng degidrogenaza yordamida retinal vitamin A ga aylanadi. Tunda vitamin A dan ko'p miqdorda rodopsin sintezlanadi va bu o'z navbatda kam yorug'lik sharoitida ko'rishni yaxshilaydi. Rodopsin transformasiyasining asosiy bosqichlari 21.6-rasmida sodda shaklda ko'rsatilgan.

Infeksiyaga qarshi kurashish qobiliyatini oshishi vitamin A ning immun tizimini qo'zg'atishi natijasi bo'lishi mumkin. Ushbu mexanizm o'smalar rivojlanishini oldini olishda ham o'z ijobiyligi ta'sirini namoyon qilishi mumkin.

Gemeralopiyadan tashqari teri va shilliq qavatlarining shikastlanishi ham vitamin A yetishmovchiligidagi xosdir. Buning asosida har xil turdag'i epiteliy qavatni ko'p qavatli yassi epiteliyga transformasiyasi yotadi. Bunda keng tarqalgan muguzlanish, terining quruqligi, papulyar toshmalar va qipiqlanish kuzatiladi. Ko'z shilliq qavati ham shikastlanadi. So'lak bezlarining sekretor funksiyasi susayadi. Shox pardasining quruqlashishi (kserostalm¹), og'ir holatarda esa shox pardanining yumshashi va nekrozi (keratomalyasiya²) va xattoki ko'rlikgacha olib kelishi mumkin. Bundan tashqari ba'zi hollarda yuqori nafas yo'llari, oshqozon-ichak trakti va siydik-tanosil organlari ham shikastlanishi mumkin.

Vitamin A yetishmovchiligidagi teri va shilliq qavatdag'i tabiiy to'siqlarning shikastlanishi ulardan mikroorganizmlar o'tishini yengillashtirib, yallig'lanish jarayonlariga olib keladi. Jarohatlarning bitishi, granulyasiyasi, epitelizasiyasi juda sustlashadi. Avitaminoz A gipoxrom anemiyaga olib kelishi mumkin.

Vitamin A asosan ingichka ichakda so'rildi. Uning erishi va so'riliishi uchun o't kislotalari juda muhimdir. SHuning uchun o't ishlab chiqishning susayishi gipovitaminoz A ga olib kelishi mumkin.

Bunday hollarda vitamin A ni parenteral holda berish lozim. So'rildigandan so'ng vitamin limfa tomirlari orqali jigarga etib boradi. Jigarda u ko'p miqdorda

retinil palmitat¹ shaklida saqlanadi. Qonga tushgandan so'ng retinol oqsillar bilan bog'lanib to'qimalarga yetib horadi. Odam organizmida vitamin A to'liq kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi. Hosil bo'lgan metabolitlar va birikmalar buyrak va ichak orqali ajratiladi.

Antiseptiklarni faolligini baholashda eng ko'p tarqalgan mezon bo'lib fenol koefesenti (bir xil antimikrob ta'sir ko'rsatuvchi fenol konsentrasiyasining sinalayotgan modda konsentrasiyasiga nisbati) hisoblanadi.

Antiseptik va dezinfeksiyalash vositalarinin ta'sir mexanizmi bir xil emas va u oqsil denaturasiyasi, plazmatik membrana o'tkazuvchanligini buzilishi, mikroorganizmlarning xayoti uchun o'ta muhim bo'lgan fermentlari faolligini susayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kimyoiy tuzilishiga bo'yicha ko'rilibayotgan preparatlar quyidagi guruhlarga mansubdir:

Detergentlar

Serigel.

Nitrosuran unumlari

Furasillin.

Fenol va uning hosilalari

Toza fenol, Rezorsin, Qayin qatroni.

Bo'yoqlar

Brilliant yashili, Metilen ko'ki, Etakridin laktat.

Galogen tutuvchi birikmalar

Xlorgeksidin, Xloramin B, Yodning spirtli eritmasi.

Metall birikmalar

Simob ikki xloridi, Simobning sariq oksidi.

Kumush nitrat, Mis sulfat.

Rux oksidi, Rux sulfat.

Oksidlovchilar

Vodorod perekisining eritmasi, Permanganat kalij.

Aldegid va spirtlar

Formaldegid eritmasi, Etil spirt.

Kislotva ishqorlar

Bor kislotasi. Ammiak eritmasi.

*Detergentlar*¹. yoki kationli sovunlar yuvish va antiseptik xossalariiga egadirlar. Ular ko'pgina bakteriyalar va zamburug'larga ta'sir etadir.

Shunday preparatlardan biri *serigel*. Uning tarkibida detergent-setilpiridinily-xloridning mono-to'rt ammoniyli tuzi hamda polivinil-butiral va etil spiriti bor. Ushbu guruhgaga yuqori darajada sirt faolligiga ega bo'lgan *rakkal* ham kiradi. U mono-to'rt ammoniy tuzidir. Detergentlarning bakteriosid ta'siri hujayra memebranasining tuzilishi, oqsillar denaturasiyasi va fermentlar faolligini susayishi bilan bog'liq. Detergentlarni jarrohlari qo'lliga ishlov berish, apparatlar va asboblarni² sterilizasiyalash uchun qo'llashadi. Odatdag'i konsentrasiyalarda to'qimalarga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Detergentlarni anionli sovunlar bilan birligida qo'llash mumkin ema, chunki bunda ularning mikroblarga qarshi ta'siri yo'qoladi. Detergentlarning ta'siri organik moddalaar bo'lganda ham susayadi.

Nitrosuran unumlari antiseptiklarning muhim guruhi hisoblanadi. Ularga *furasillin* (nitrosuran, nitrosurazon)³lar mansubdir. Nitrosuranlar keng ta'sir spektriga egadirlar. Ular grammusbat va grammanfiv bakteriyalar va sodda jonivorlarga xalokatlari ta'sir ko'rsatadilar. Furasillin, asosan sirtga ishlatiladi, ya'ni jarohatlarga, teri va shilliq qavatlarga ishlov berish, seroz va bo'g'in bo'shliqlarini yuvish uchun. Furasillinni bemorlar asosan yaxshi qabul qilishadi. Ba'zan u sensibilizasiya, dermatit rivojlantiradi.

Fenol guruhi va uning ko'pgina mashhur bo'lgan aromatik qatordag'i antiseptiklarni o'z ichiga olgan. Ularga oksibenzollar (toza fenol) va dioksibenzollar (rezorsin va boshqalar) mansub. Fenol asosan, bakteriyalar va zamburug'larni vegetativ shakllariga ta'sir etadi.

Fenol eritmalari asboblari, uy ro'zg'or anjomlarini dezinfeksiyalash uchun qo'llaniladi.

Fenol zaharli va yuqori darajada liposiflikga ega ekanligi tufayli teri va shilliq qavatlardan eson so'rilibini yodda tutmoq lozim. *Rezorsin* antiseptik ta'siri

bo'yicha fenoldan sustroq. Kichik konsentrasiyalarda rezorsin keratoplastik, katta dozalarda keratolitik xossaga ega. Uni ba'zi teri kasallikkarda (ekzema, seboreya va boshqalar), konyuktivitda qo'llashadi.

Qayin qatroni tarkibida fenol va uning hosilalari, yelim va boshqa birikmalar bor. Preparat qayn po'stlog'ini quruq haydash yo'l bilan olinadi. Qayin qatroni mikroblarga qarshi, keratoplastik, keratolitik va yallig'lantirish ta'siriga ega. Uni ko'pgina teri xastaliklari va qo'tirni davolashda qo'llashadi.

Qayin qatroni yaralar va jarohatlarni davolashda ishlatalidigan A.V.Vishnevskiyning balzamik linimenti (*Vishnevskiy surtmasi*) hamda qo'tir va terini zamburug'lar bilan jarohatlanishida qo'llaniladigan *Vilkinson* surtmasini asosiy tarkibiy qismlarida biri bo'lib hisoblanadi.

Bo'yoqlar guruhi xar-xil kimyoviy tuzilishiga ega bo'lgan ko'pgina birikmalar kiradi. Trifenilmetan hosilasi bo'lgan *brilliant yashili* eng ko'p qo'llaniladi. Ba'zan fenotiazin hosilasi *metilen ko'ki* va akridin hosilasi *etakridin laktat* ishlataladi.

Bo'yoqlarga eng sezgir gramm musbat koklardir. *Brilliant yashili* yuqori faollikka ega va nishbatan tez ta'sir etuvchi antisептик hisoblanadi. Oqsillar ularni samaradorligini susaytiradi. Asosan terining yiringli jarohatlanishida (piodermiyalarda) sirtga qo'llaniladi.

Metilen ko'ki (metiltioniy xlorid) faolligi bo'yicha brilliant yashilidan sustroq. Uni sirtga antisептик sifatida va peshob yo'llari infeksiyalarida ichishga, hamda sianidlar bilan zaharlanganda tomirga kiritish tavsiya etilgan. Metilen ko'ki (katta dozalarda) gemoglobinni metgemoglobiniga aylantiradi, u esa sianidlar bilan bog'lanib zaharligi past bo'lgan sianmetglobin hosil qiladi.

Etakridin laktat (rivanol) sariq rangga ega. Uni faolligi ancha yuqori bo'lsa ham ta'siri sekin rivojlanadi. Uni sirtga va infeksiyalangan bo'shliqlar (plevra, qorin), peshob xaltasi, bachadonni yuvish uchun qo'llashadi.

Tarkibida *galogenlarni tutgan preparatlar* asosan xlor yoki yod birikmalardan iborat. Eng faol antisептикler elementar galogen tutgan yoki uni ajratuvchi hisoblanadi. Kuchli oksidlovchi xossasiga ega bo'lgan gipoklorid (NOSI) kislotasini

hosil bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Xlorni ajratuvchi preparatlardan biri antiseptik va dezodorantlik¹ xossasiga ega bo'lgan *xloramin B* hisoblanadi. Uni bemorni ajratmalari (masalan, qorin tifi vabo, sil va boshqalar), uy - ro'zg'or buyumlari, metall bo'limgan asboblar, hamda qo'llarni va infeksiyalar tushgan yara yuzalarini zararsizlantirish uchun qo'llaniladi.

Biguanid hosilasi *xlorgeksidin (xibiton)* tarkibida xlor tutgan samarador antiseptiklardan hisoblanadi. U antibakterial va fungisid ta'sir ko'rsatadi. jarrohlarni qo'li, operasiya maydoni, jarohatlarni, peshob xaltasini hamda asboblarni sterilizasiyasida qo'llaniladi. jarroh qo'lliga ishlov berilganda terining qurishi, dermatitlar rivojlanishi mumkin. Suvni zararsizlantirish uchun qo'llaniladigan *pantosid* ham tarkibida xlor tutgan preparatlarga kiradi. Mahalliy ta'sirlantiruvchi va chalg'ituvchi xossasiga ega bo'lgan *yodning spiritli eritmasi* antiseptik sifatida keng qo'llaniladi. Xalqumni va xiqildoq shilliq qavatining yallig'lanishlarida qo'llaniladigan *lyugol eritmasi* (1 qism yod, 2 qism kaliy yodid va 17 qism suv) ham tarkibida elementar yod bo'lgan preparatlarga mansubdir.

Antiseptiklarni ko'pgina qisimi og'ir metall tuzlari bilan ifodalangan. Og'ir metall tuzlarining kichik konsentrasiyalarda mikroblarga qarshi ta'sir mexanizmi mikroorganizmlar fermentlarining sulfgidril guruhlarini qamallanishi bilan bog'liq deb hisoblanadi. Katta konsentrasiyada metall, kislota qoldig'i xarakteri, tuzning konsentrasiyasi, uning dissosiasiyanish va eruvchanlik darajasiga qarab turli xil mahalliy ta'sirlar yuzaga kelishi mumkin (burishtiruvchi, kuydiruvchi – nekrozga olib keluvchi, ta'sirlantiruvchi). Metall tuzlarining mahally ta'siri oqsillar denaturasiyasi bilan bog'liq. Bunda hosil bo'layotgan albuminatlar zich va g'ovak bo'lishi mumkin. Birinchi holda to'qima yuzasida yupqa parda hosil bo'ladi, to'qima zichlashadi, yallig'lanish kamayadi. Bunday o'zgarishlar burishtiruvchi ta'sirga xosdir. Moddani chuqurroq qatlamlarga kirib borishi hujayra va nerv oxirlarini ta'sirlantiradi. Metall tuzlarining kuydiruvchi ta'siri eng keskin natija hisoblanadi. U albuminatlarning eruvchanligi qancha yuqori bo'lsa, shuncha kuchli namoyon bo'ladi. Hosil bo'ladiigan albuminatlarni suvda va biologik suyuqliklarda eruvchanligiga qarab metallarni quyidagi tartibda joylashtirish mumkin: Pb... Al,

Zn, Cu, Ag, Hg. Qo'rg'oshinda burishtiruvchi ta'sir (zich albuminatlar hosil qiladi), simobda kuydiruvi ta'sir eng ko'p namoyon bo'ladi. Bir yo'la ushbu qatorda qo'rg'oshindan simobga qarab antimikrob faollik ortib boradi.

Antiseptik sifatida qatorning o'ng tarafda joylashgan metallar ayniqsa, kumush va simob tuzlari eng ko'p ahamiyatga egadirlar.

Antiseptik sifatida simob tuzlaridan quyidagi preparatlar qo'llaniladi:

- a) suvda yaxshi eruvchan simob ikki xlorid (sulema) – $Hg Cl_2$
- b) suvda erimaydigan simob amidoxlorid (oq cho'kma hosil qiluvchi simob) – $Hg NH_2Cl$

Simobning sariq oksidi (sariq cho'kma hosil qiluvechi simob)- HgO .

Yaxshi eruvchan va dissosiasiyalanadigan simob ikki xlorid yuqori darajada mikroblarga qarshи faollikkа ega. Preparatni qo'l terisini, idish-tovoqlar, xonalar va boshqalarga ishlov berish uchun qo'llaniladi. Metall buyumlarni dezinfeksiyalash uchun u yaroqsizdir, chunki metallarni korroziyaga olib keladi. Bemorlarning ajratmalarini zararsizlantirish uchun preparat qo'llanilmaydi, chunki oqsillar simob ikki xlorid faolligini kamaytiradi. Preparat kuchli darajada mahalliy ta'sirlantiruvchi xossaga ega bo'lganligidan, qo'lga ishlov berish uchun onda-sonda qo'llaniladi. Simob ikki xlorid juda zaharli ekanligini e'tiborga olish lozim. Moddani teri va shilliq qavatlardan oson o'ta olish xossasi noxush asoratlarni rivojlaniruvchi omillardandir.

Simob sariq oksidini ko'proq ko'zni infektion jarohatlanishda (kon'yuktivit, keratit) qo'llashadi. Simob amidoxloridini odatda, piidermiya kabi teri xastaliklarida qo'llash uchun ko'rsatma beriladi.

Simob birikmalari bilan o'tkir zaharlanish, odatda simob ikki xloridini tasodisan yoki maqsadli ravishda ichish bilan bog'liqidir. U qorin soxasida og'riq-qayt qilish, diareya (ovqat hazm trakti shilliq qavatiga kuydiruvechi ta'sir tufayli), hamda MNS va yurak-tomir sistemasi (o'tkir yurak yetishmovchiligi, kollaps) tomonidan bo'ladi. 2-4 kundan keyin buyrak ("sulemali buyrak") va ovqat hazm trakti (stomatit, yazvali kolit) tomonidan nekroz bilan bog'liq belgilar rivojlanishi kuchayadi. Jarohatlarning aynan shu u'zolarda joylashishi simob

birikmalarini organizmdan ajralishini asosiy yo'llari buyrak hamda yo'g'on ichak va so'lak bezlari bilan bog'liqligi bilan tushuntiriladi.

Simob ikki xlorid bilan o'tkir zaharlanishni davolash avvalambor preparatni so'riliشining oldini olishdan iboratdir. Ushbu maqsadda me'da yuviladi, unga simob birikmalarini antidoti bo'l mish unitiol (simobni bog'lab oluvechi sulfgidril guruhlari bor) kiritiladi. Ba'zida faollashtirilgan ko'mir, burishtiruvchi moddalar eritmasini, tuxum oqsilini kichik hajmda kiritiladi. Me'dani yuvishni juda extiyotkorlik bilan amalga oshirish lozim, chunki simob ikki xlorid qizilo'ngach va me'da shilliq qavatini jarohatlaydi. Shundan keyin surgi dorilari beriladi, hamda unitiol eritmasi bilan sifon xuqna qilinadi. Qonga so'rilgan preparatni faolsizlantirish uchun unitiolni tomirga kiritiladi.

Yengil va o'rta darajadagi zaharlanishda peshob ajralishini shiddatli kuchaytirish samaralidir. Kuchli zaharlanishda, ayniqsa buyrak faoliyatini buzilishi bilan kechishida tomirga unitiol va tetasin-kalsiy¹ (NaNa_2EDTA) kiritib gemodializ va peritonial dializni qo'llashga to'g'ri keladi. Simob preparati bilan surunkali zaharlanishda (merkuzalizm²) og'iz bo'shlig'i shilliq qavati (stomatit), hamda MNS, qon hosil qilish a'zolari va boshqalar shikastlanadi. Bu ko'proq kasb bilan bog'liq simob preparatlari bilan ishlash tusayli yuzaga keluvchi zaharlanish natijasidir. Shu sababli zaharlanish manbasini bartaraf etish birinchi va asosiy tadbir bo'slib hisoblanadi. Antidot sifatida unitiol hamda tetasin-kalsiy, natriy tiosulfat qo'llashadi. Bundan tashqari organizmdan moddani tezroq chiqarib tashlash uchun tadbirlar hamda symptomatik terapiya amalga oshiriladi.

Kumush preparatlaridan *kumush nitrat* (lyapis: AgNO_3), *protargol* (kumush proteinat) va *kollargol* (kumush kolloid eritmasi). Ular mikroblarga qarshi, burishtiruvchi va yallig'lanishga qarshi ta'sirlarga ega. Ularni oftalmologiyada (konyunktivit, blennoreya), yaralarni ho'llash, peshob yo'llari va peshob xaltasini yuvish uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari kumush nitrat katta konsentrasiyalarda va qalamchalar sifatida eroziyalar, yazvalar, ortiqcha granulyasiyalarda hamda traxomada qo'llaniladi.

Antiseptik va burishtiruvchi vosita sifatida oftalmologiyada *mis sulfatni* (mis kuporos: $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$), *rux sulfatni* (ZnSO_4) qo'llashadi. Traxomada tarkibida mis sulfat, nitrat kaliya, aicheq tosh va kamfora bo'lgan maxsus ko'z qalamini qo'llashadi. Eruvehan tuzlar (mis sulfat va rux sulfat) peshob yo'llari va peshob xaltasini yuvish uchun qo'llanishi mumkin.


Oksidlovchilar guruhiga vodorod perekisi (H_2O_2) va kaliy permanganat (kaliy nordon margansovkasi, KMnO_4). Ular antiseptik va dezodorantlik ta'sirga ega. Ikkala preparatning ta'sir prinsipi kislородни ajratishdan iborat.

To'qimalardagi katalaza ta'sirida vodorod perekisi kislород molekulاسини ajralishi bilan parchalanadi.



Ammo molekulyar kislородning oksidlash, binobarin, mikroblarga qarshi faolligi juda past. Vodorod perekisini qo'llaganda yaralar, jarohatlar, bo'shliqlarni kislород pusakchalarini ajralishi va ko'pik hosil bo'lishi bilan bog'liq mexanik tozalanishi katta ahamiyatga ega. Vodorod perekisi dezodorantlik xossasiga ham ega. Preparat qisqa ta'sir etadi. Bundan tashqari vodorod perekisi qon oqishini to'xtashani osonlashtiradi.

Kaliy permanganat organik moddalar bilan aralashganda atomar kislородни ajratadi.



Atomar kislородning antiseptik ta'sir kuchi molekulyar kislородга nisbatan birmuncha ko'proq ifodalangan. Umikroblarga qarshi va dezo-dorantlik xossasini namoyon qiladi va hosil bo'layotgan marganes oksidi burishtiruvchi ta'sirga ega. Katta konsentrasiyalarda kaliy permanganat mahalliy ta'sirlantiruvchi va kuydiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Preparatni eritma ko'rinishida chayqash, yuvish, kuyish tufayli hosil bo'lgan yaralarga ishlov berish, jarohat yuzalarini xo'llash, morfin, fosfor va boshqalar bilan zaharlanganda me'dani chayqash uchun qo'llaniladi.

Antiseptiklarga *aldegidlar* va *spiritlar* guruhiga mansub bo'lgan ba'zi birikmalar kiradi.

Aldegidlarning namoyondalaridan biri bu formaldegid eritmasidir (formalin: tarkibida formaldegid – NSNO 36,5-37,5% ni tashkil etadi). U kuchli antimikrob va dezodorantlik xossalariга ega. Uni dezinfeksiyalash vositasi, hamda terlashni bartaraf etish maqsadida teriga ishlov berish uchun qo'llaniladi, chunki formaldegid eritmasi ta'sirida epidermisning zichligi ortadi (oqsillarni denaturasiyasi tufayli) va ter ajralishi kamayadi. Preparat kuchli darajada mahalliy ta'sirlantirish xususiyatiga ega. Etil spiriti kuchli darajada antimikrob xossaga ega. Uni asboblarni dezinfeksiyasi, jarroh qo'li va operatsiya maydoniga ishlov berish uchun qo'llaniladi. Etil spiritining antimikrob faolligi uning konsentrasiyasini ortishi bilan kuchayadi. Ammo terini zararsizlantirish uchun epidermisning chiqqurroq qatlamlariga kirib boruvchi 70% etil spirtidan soydalanish 95% ga nisbatan yaxshiroq.

Antiseptik sifatida qator kislotalar va ishqorlar ishlatalishi mumkin. Jumladan, shilliq qavatlarni yuvishda va og'iz bo'shlig'ini chayqash uchun bor kislotasi (N_3VO_3) tavsiya etiladi. Uni teri ustiga kukun ko'rinishida sepish va surtma ko'rinishida qo'llash mumkin. Ammo bor kislotasini antimikrob faolligi past.

Ishqorlar guruhidan antiseptiklarga (novshadil spiriti; NN_4ON ; 9,5-10,5% ammiak tutadi) ammiak eritmasi mansub. Uni 0,5% eritmasi jarroh qo'liga ishlov berishda qo'llaniladi. Bundan tashqari, u nafas markazini yuqori nafas yo'llaridagi reseptorlar orqali reflektor qo'zg'atish uchun ingalyasion yo'l bilan qo'llanishi mumkin.

Preparatlar

| Nomi | O'rtacha konsentrasiya va kiritish yo'li 1 2 | Chiqarish shakli 3 |
|--|---|--|
| Serigel — <i>Ceratium</i> | Sirtga (qo'lga ishlov berish uchun) 3- 4 g | Shisha idishda 400 ml dan |
| Rokkal - <i>Roccal</i> | Qo'lga ishlov berish uchun 0,1% li eritma; operasiya maydoniga ishlov berish uchun 1% li eritma; asbob-uskuna-larga ishlov berish uchun 0,1- | Turli xil hajmdagi idislarda 10% va 1% li eritmada 250 ml dan |
| Furasilin - <i>Furacilinum</i> | Suvli eritma 1:5000 sirtga; spirtli eritma 1:1500; 0,2% surtma; ichishga 0,1 g | Kukun; tabletkalar 0,1 g dan (ichishga), 0,02 g tablet-kalar (eritmalar tayorlash-ga); 0,2% |
| Toza Fenol - <i>Phenolum purum</i> | Dezinfeksiya uchun 3-5% eritma | Kukun |
| Rezorsin - <i>Resorcinum</i> | Sirtga 2-5% suvli va spirtli eritma, 5-20% surtma | Kukun |
| Qora qayin moyi - <i>Pix liquida Betulae</i> | Sirtga 10-30% surtma va liniment | |
| Brilliant yashili - <i>Luminosum</i> | Sirtga 1-2% suvli va spirtli eritma | Kukun; flakonlarda 1% va 2% spirtli eritma 10 ml dan |
| Metilen ko'ki – <i>Methylepit coeruleum</i> | Sirtga 1-3% spirtli eritma; uretra va peshob xaltasini yuvish uchun 0,02% suvli eritma; ichishga 0,1 g; tomirga kiritish uchun 1% eritmadan 50-100 Yaralarga ishlov berish uchun 0,05-0,2% eritma; tanadagi bo'shlqlarga kritisht uchun 0,05-0,1% : sirtga 2,5% sepki, 1% surtma, 5-10% | Kukun; 1% suvli eritma; 1% spirtli eritma; 20 va 50 ml 1% eritma tutgan ampulalar (25% li glyukoza eritmasida («Xromosmon»)) |
| Etakridin laktat — <i>Aethacridini lactas</i> | | Kukun; 0,01 g etakridin laktat va 0,09 g bor kislo-tasi tutgan tabletkalar; 0,1% spirtli eritma: 25 g dan 3% surtma |
| Xloramin B - <i>Chloraminum V</i> | Qo'l dezinfeksiyasi uchun 0,25-0,5% eritma; yaralarni yuvish uchun 1,5-2% eritma; metalldan bo'lmagan anjonlarni dezinfeksiyasi uchun 1- | Kukun |

| | | |
|---|---|--|
| Xlorgeksilin - <i>Chlorhexidinum</i> | Operasiya maydoniga ishlov berish uchun 0,5% suvli-spirtl eritma; jarohatlar, kuygan yarakarnidezinfeksiyasi uchun 0,5% suvli eritma, qo'l dezinfeksiyasi uchun 0,5% suvli-spirtl voki' 1% suvli eritma | Flakonlarda 0,5; 3 va 5 l 20% suvli eritma |
| Yodning spirtl eritmasi - <i>Solutio Iodi spirituosa</i> | Sirtga 5% eritma | Qora shisha idishlarda 5% spirtl eritmadan 10 va 25 ml; ampulda 5% li eritmadan 1 ml |
| Simob dixlorid - <i>Hydrargyri dichloridum</i> | Sirtga va dezinfeksiya uchun 1:500-1:1000 eritma | Kukun; 0,5 va 1 g tabletka-lar (eritma tayyorlash uchun) |
| Sariq simob oksidi - <i>Hydrar-gyri oxidum flavum</i> | Sirtga va konyunktiva qopchasiga 2% surtma. | 2% ofisinal surtma |
| Kumush nitrat - <i>Argenti nitras</i> | Sirtga 2-10% eritma, 1-2% surtma; shilliq avatlarga surtish uchun 0,25-2% li eritma, qalamchalar | Kukun |
| Mis sulfat - <i>Cupri sulfas</i> | Kon'yunktiva bo'shlig'i, uretra va qinni yuvishga 0,25% eritma | Kukun |
| Rux oksidi - <i>Zinci oxydum</i> | Sirtga 10-25% sepki, surtma, pasta, liniment | Kukun; 10% surtma va 25% pasta |
| Rux sulfat — <i>Zinci sulfas</i> | Oftalmologiyada 0,1- 0,5% eritma; otorinolaringolo-giyada 0,25-0,5% eritma; uretra va qinga 0,1-0,5% eritma; ichishga 0,1-0,3 g (qayt) | Kukun; ko'z tonichisi (0,25 va 0,5% rux sulfati eritma-si va 2% li bor kislotasi-ning eritmasi) flakonda 10 ml dan |
| Vodorod peroksining eritmasi — <i>Solutio Hydrogenii peroxydi</i> | Sirtga | 3% ofisinal eritma |
| Kaliy permanganat <i>Kalii permanganas</i> | Sirtga yarakarni yuvish uchun 0,1-0,5% li eritma; kuygan yuzalar uchun 2-5% eritma; chayish va yuvishga | Kukun |
| Formaldegid eritmasi - <i>Solutio Formaldehydi</i> | Sirtga 0,5-1% eritma; sprinsevaniya uchun 1:2000-1:3000 eritma; asboblarni dezinfeksiyalash uchun | 37% ofisinal eritma |

| | | |
|--|--|--|
| Bor kislotasi — <i>Acidum boricum</i> | Sirtga 2-4% eritma, 5 -10% surtma, seksi | Kukun, 0,5%, 1%, 2% va 3% spirli eritma 10 ml flakonlarda; 10% eritma glicerinda 25 ml |
| Ammiak eritmasi 10% - <i>Solutio Ammonii caustici 10%</i> | Xirurgiyada qo'l yuvish uchun (25 ml ni 5 liliq qaynagan suvga qo'shiladi) | 10, 40 va 100 ml dan flakon-larda |

23-BOB. ANTIBAKTERIAL XIMIOTERAPIYA VOSITALARI¹

Antibakterial ximioterapevtik vositalarga quyidagi ikkita sifat xosdir:

- 1) ma'lum turdag'i xastalik qo'zg'atuvchilarga tanlab ta'sir ko'rsatish, ya'ni muayyan antimikrob ta'sir spektriga egadirlar;
- 2) inson va jonivorlarga kam zahardirlar.

Ularni ko'proq rezorbtiv ta'sirga ega bo'lgan enteral va parenteral kiritiluvchi lozim bo'lgan preparatlar sistemali infeksiyalarda qo'llaniladi. Shu bilan bir qatorda ximioterapevtik vositalarni mahalliy ham qo'llashadi; bunda ular juda kam (minimal) so'riliishi kerak. Bu kuchli va turg'un antimikrob ta'sir olish va noxush ta'sirlar rivojlanishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Lokal (mahalliy) ta'sirni rivojlantirish maqsadida preparatni teri va shilliq qavatlarga surtiladi, hamda ichak infeksiyalarga ta'sir ko'rsatish uchun ichiladi (ovqat hazm qilish traktidan so'rilmaydigan moddalarni).

Antibakterial ximioterapevtik vositalarni qo'llashni o'ziga xos tomonlari mavjud. Avvalambor davolashni muvaffaqiyatini ta'minlash uchun xastalikni qo'zg'atuvchisi va qo'llash mumkin bo'lgan ximioterapevtik vositaga uni sezgirligini aniqlash lozim. Agar xastalik qo'zg'atuvchisi ma'lum bo'lsa, tegishli antibakterial spektrga ega bo'lgan preparat tanlanadi. Qo'zg'atuvchisi noma'lum bo'lgan holda ta'sir spektri keng bo'lgan moddalar yoki ikkita, yakuniy spektri taxmin qilinayotgan qo'zg'atuvchini qamragan preparatni birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Davolashni iloji boricha erta boshlash lozim. Xastalikning avvalida mikroblar soni kam va ular keskin ravishda rivojlanayotgan va ko'payayotgan holda bo'ladi. Bu bosqichda mikroorganizmlar ximioterapevtik vositalar ta'siriga eng sezgir

bo'ldi. Biologik suyuqliklarda va to'qimalarda preparatni bakteriostatik yoki bakteriosid konsentrasiyasini ta'minlash uchun preparat dozalari yetarlicha bo'lishi lozim. Davolash avvalida ba'zan preparatni keyingilaridan ko'proq bo'lgan katta dozalarda qo'llashadi.

Davolash muddati optimal bo'lishi o'ta muhim. Klinik holatni birmuncha yaxshilanishi (isitmani tushishi va boshqalar) preparatni qabul qilishni to'xtatishga yetarlicha asos bo'la olmaydi. Agar davolash zarur muddatda o'tkazilmasa, kasallik qaytalinishi mumkin. Ayrim yuqumli kasallikkarda qayta davolashni o'tkazishga zaruriyat tug'iladi. Ba'zi dorilarning me'da – ichak traktidan to'liq so'rilmasligi, gematoensefalik to'qimalardan yomon o'tishi va shunga o'xshashlarni nazarda tutgan holda moddalarni kiritishni eng samarador yo'lni tanlash katta ahamiyatga ega. Tez-tez bir vaqt ni o'zida ikki-uchta antibakterial vosita beriladi. Shuni inobatga olish lozimki. bunday preparatlarni birqalikda qo'llash yetarlicha asoslangan bo'lishi darkor, chunki birga qo'llashda antibakterial faoliytni ortishi bilan birga ularni zaharligini ham kuchayishi kuzatilishi mumkin. Bakterialarni ximioterapevtik vositalarga chidamlilik ortishlarini oldini olish maqsadida preparatlarni birqalikda qo'llash surunkali infeksiyalarda (masalan, silda) ayniqsa zarur.

Antibakterial ximioterapiya vositalari quyidagi guruhlardan iboratdir:

- antibiotiklar
- sulfanilamid preparatlari
- xinolin unumlari
- turli hil kimyoviy tuzilishli sintetik antibakterial vositalar
- zahmga qarshi vositalar
- silga qarshi vositalar

ANTIBIOTIKLAR

Antibiotiklar¹⁵ – biologik kelib chiqishga ega bo'lgan kimyoviy birikmalar bo'lib, mikroorganizmlarga tanlab jarohatlovchi yoki xalokatli ta'sir ko'rsatadilar. Tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan antibiotiklar aktinomisetlar (nursimon zamburug'lar), mog'or zamburug'lar hamda ba'zi bakteriyalardan olinadi. Bu guruh

¹⁵ Grekchadan anti - qarshi, bios – hayot

preparatlariga antibiotiklarni sintetik analoglari va ba'zi antibiotiklarni hosilalari mansub.

Antibakterial, zamburug'larga qarshi va o'smalarga qarshi ta'sirga ega bo'lgan antibiotiklar mavjud. Ushbu bo'limda asosan bakteriyalarga ta'sir ko'rsatuvchi antibiotiklar ko'rib chiqiladi. Ular quyidagi guruhlardan iborat:

1. Tuzilishida β -laktom xalqasiga ega bo'lgan antibiotiklar

Pensillinlar Sefalosporinlar Karbapenemlar Monobaktamlar

2. Makrolidlar- tuzilishida makrosiklik lakton halqasiga ega bo'lgan anibiotiklar (eritromisin va boshqalar) va azalidlar (azitromisin)

3. Tetrasiklinlar- tuzilishida bir-biri bilan birikkan 6 a'zoli 4 ta siklga ega bo'lgan antibiotiklar (tetrasiklin va boshqalar)

4. Dioksiaminofenilpropan hosilalarilari (levomiselin)

5. Aminoglikozidlar-molekulasida aminoqand tutgan antibiotiklar (streptomisin, gentamisin va boshqalar)

6. Sikliq polipeptidlar guruhidagi antibiotiklar (polimiksinlar)

7. Linkozamidlar (klindamisin)

8. Glikopeptidlar (vankomisin va boshqalar)

9. Fuzidiv kislotasni

10. Mahalliy qo'llaniladigan antibiotiklar (fyuzafyunjin va boshqalar)

Mikroblarga qarshi ta'sir spektri bo'yicha antibiotiklar jiddiy ravishda farqlanadilar. Ba'zilari asosan grammusbat bakteriyalarga (biosintetik penisillinlar, makrolidlar), boshqalari – asosan grammanfiy bakteriyalarga (masalan, polimiksinlar, aztreonam) ta'sir ko'rsatadilar. Bir qancha antibiotiklar grammusbat va grammanfiy bateriyalar va qator infeksiyalarni qo'zg'atuvchilarni o'z ichiga olgan keng ta'sir spektrga egadir (tetrasiklinlar, sefalosporinlar, levomiselin, aminoglikozidlar va boshqalar) (1-jadval, 1-rasm).

Antibiotiklarning antimikrob ta'sirining asosiy mexanizmlari va xarakteri.

| Guruh | Antibiotiklar | Antimikrob ta'sir mexanizmi | Antimikrob ta'sir xarakteri |
|--|---|---|--|
| Asosan grammusbat bakteriyalarga ta'sir ko'rsatuvchi antibiotiklar | Benzilpenisillin preparatlari Oksasillin Eritromisin | Hujayra devori sintezini susayishi Xuddi shunday Oqsil sintezini susayishi | Bakteriosid Bakteriosid Bakteriostatik |
| Grammanfiy bakteriyalarga ta'sir ko'rsatuvchi antibiotiklar | Polimiksinlar | Sitoplazmatik membrana o'tkazuvchanligini buzilishi | Bakteriosid |
| Ta'sir spektri keng antibiotiklar | Tetrasiklinlar Levomisetinlar Aminoglikozidlari Yarum sintetik penisillinlar Karbapenemlar Sefalosporinlar Rifampisin | Oqsil sintezini susayishi Xuddi shunday Hujayra devori sintezini susayishi Xuddi shunday Xuddi shunday RNK sintezini susayishi | Bakteriostaik Bakteriostatik Bakteriosid Bakteriosid Bakteriosid Bakteriosid Bakteriosid |

Har xil spektrli antibiotiklardan namunalar.

| | | | | | | |
|------------------------------------|--|-------------|-------------|--------|-------------|------------------|
| Patogen kokklar | Stafilocokklar, stoptokokklar, pnevmonokokklar, meningokokklar, gonokokklar | E R I | T R O | M I | A S I | K L I N |
| Korinebakteriyalar | Bo'g'ma qo'zg'atuvchisi | | | | | |
| Patogen anaeroblar (klostridii) | Gazli gangrena Qoqshol qo'zg'atuvchisi | | | | | |
| Basillalar | Kuydirgi qo'zg'atuvchisi | | | | | |
| Treponemalar, borreli | Zaxm qo'zg'atuvchisi Qaytalama tif qo'zg'atuvchisi | | | | | |
| Rikketsii | Toshmali tif qo'zg'atuvchisi | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|--|--|--|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Kapsulali bakteriyalar (klebsiellalar) | Kataral pnevmoniya qo'zg'atuvchisi | | | P | O | L | I | M | I | K | S | I | N | L | A | R |
| Brusellalar, pasterellalar | Qora oqsoq qo'zg'atuvchisi O'lat qo'zg'atuvchisi Tulyaremiya qo'zg'atuvchisi | | | | | | | | | | | | | | | |
| Ichak bakteriyaları oilasi | Ichak tayoqchasi, qorin tifi va paratiflar (salmonellalar), ich brug' (shigellalar) qo'zg'atuvchisi | | | | | | | | | | | | | | | |
| Gemofil bakteriyalar, bordetellalar | Inflyuens tayoqchasi Yumshoq shankr qo'zg'atuvchisi Ko'k yo'tal qo'zg'atuvchisi | | | | | | | | | | | | | | | |
| | Ko'k yiring tayoqcha | | | | | | | | | | | | | | | |
| Xlamidilar | Ornitoz qo'zg'atuvchisi Traxoma qo'zg'atuvchisi Venerik Limfogranulema qo'zg'atuvchisi | | | S | | | | | | | | | | L | A | R |
| Vibronlar | Vabo qo'zg'atuvchisi | | | | | | | | | | | | | | | |


Antibiotiklar mikroorganizmlarga ta'sir ko'rsatib, yularni ko'payishini (bakteriostatik) to'xtatadi, yularni halok etadi (bakteriosid).

Antibiotiklarning antimikrob asosiy ta'sir mexanizmlari quyidagicha (2-jadval):

- 1) bakteriyalarni hujayra devori sintezining buzilishi (penisillinlar, sefalosporinlar);
- 2) sitoplazmatik membrana o'tkazuvchanligini buzilishi (polimiksinlar);
- 3) hujayrada oqsil sintezini buzilishi (tetrasiklinlar, levomisitin, amino-glikozidlar va boshqalar);
- 4) RNK sintezining buzilishi (rifampisin).

Antibiotiklarning makroorganizm uchun nisbatan kam zaharli bo'lishi hamda mikroorganizmlarga yuqori darajada tanlab ta'sir ko'rsatishi, chamasi mikrob hujayralarining tuzilishlaridagi va funksional tashkil etilishidagi o'ziga hosiligi

bilan tushuntiriladi. Darhaqiqat, bakteriyalar devorining kimyoviy tarkibi sut emizuvchilar hujayrasи membranalaridan tubdan farq qiladi. Bakteriya hujayrasи devori mukoproteid bo'lgan mureindan – (N- asetil – glyukozamin, N- asetil – muramoy kislotasi va ba'zi L – va D – aminokislotalar iborat peptid zanjirlaridan) iborat.



Antibiotiklarning antimikrob ta'sirining asosiy mexanizmi

Shu sababli uni sintezining buzuvchilar (masalan, penisillinlar), kuchli darajada antimikrob ta'sir ko'rsatadilar va amaliy jihatdan makroorganizm hujayrasiga ta'sir etmaydilar. Antibiotiklar bog'lanishi mumkin bo'lgan markazlarni o'rab turuvchi membranalar sonining bir hil emasligi ham ma'lum ahamiyatga egaligi extimoldan holi emas. Jumladan, mikroorganizmlardan farq qilib sut emizuvchilar hujayralarida

umumiyl plazmatik membranadan tashqari, hujayra ichidagi organellalar o'z membranalariga (ba'zilarida ikki qavat) egadirlar.

Aftidan, hujayralarning ayrim qurilmalarining kimyoviy tarkibidagi farq muhim axamiyaga ega bo'ssa kerak. Makro- va mikroorganizmlarni o'sish va ko'payish tezligi va shu sababli, qurilmaga lozim bo'lgan materiallarni sintezini tezligidagi farqni ham inobatga olish zarur.

Umuman, antibiotiklarni, boshqa antimikrob vositalarni tanlab ta'sir ko'rsatishi muammosi, yana ham mukammalroq o'rganishga muhtojdir.

Antibiotiklarni qo'llash jarayonida mikroorganizmlarni ularga chidamliligi rivojlanishi mumkin. U streptomisin, oleandomisin, rifampisinga tezroq, penisillinlar, tetrasiklin va levomisitinga nisbatan sekinroq, polimikslnlarga – kamroq rivojlanadi. Chaparasta chidamlilik ham rivojlnishi mumkin. Bunda nafaqat qo'llanilayotgan, balki unga kimyoviy tuzilishi bo'yicha o'xshash bo'lgan boshqa antibiotiklarga ham chidamlilik rivojlanadi (masalan, barcha tetrasiklinlarga).

Agar preparatlarning dozalari va ularni qo'llash davomliligi to'g'ri tanlansa hamda antibiotiklarni rasional kombinasiyada qo'llansa, mikroorganizmlarni ularga chidamlilik ortish ehtimoli kamayadi. Agar asosiy antibiotikga chidamlilik rivojlansa, uni zahirada (rezerv)¹ antibiotikga almashtirish zarur.

Antibiotiklar yuqori darajada tanlab ta'sir etish hossasiga ega bo'lsalarda, ular makroorganizmga bir qator noxush ta'sirlar ko'rsatadilar. Jumladan, antibiotiklarni qo'llaganda ko'pgina tez va sekin rivojlanuvchi allergik reaksiyalar rivojlanadi (zardob xastaligi, eshakemi, angionevrotik shish, anafilaktik karaxtlik, kontakt dermatidlar va boshqalar).

Bundan tashqari allergik tabiatga ega bo'lмаган (noallergik) noxush ta'sirlarga ega bo'lishi mumkin. Antibiotiklarni bevosita mahalliy ta'sirlantirishi natijasida – dispepsik o'zgarishlar (ko'ngil aynish, qayt qilish, diareya), preparatni mushak ichiga kiritilgan joyda og'riq bo'lishi, tomir ichiga kiritilganda flebit va tromboslebidlarni rivojlanishidir. noxush ta'sirlar jigar, buyrak, qon hosil qiluvchi a'zolar, eshitish va vestibulyar apparat tomonidan ham bo'lishi mumkin (misollar 3-jadvalda keltirilgan).

Antibiotiklarning rivojlanishi mumkin bo'lgan noxush ta'sirlari.

| Antibiotiklar | Allergik reaksiyalar | Noallergik tabiatga ega noxush ta'sirlar | | | | | | | Super infek-siya (bak-terioz) |
|-------------------|----------------------|--|----------------------------------|-----------------------------------|------------------------------------|--|---|---|-------------------------------|
| | | mahally qitiqloveli | jigar funkstiya sining susayishi | buyrak funkstiya sining susayishi | qon hosil bo'li-shining susayis hi | bosh miyani nervi funksiy asining susayis hi | | | |
| Penisillinlar | + | + | | | | | | | + |
| Sefalosporinlar | + | + | | + | | | | | + |
| Makrolidlar | + | + | | | | | | | + |
| Aminoglikozid-lar | + | + | | + | | | + | + | + |
| Tetrasiklinlar | + | + | + | | | | | | + |
| Levomiseten | + | + | | | | + | | | + |
| Polimiksinlar | ± | + | | + | | | | | + |

¹ Asosan sefaloridinni qo'llaganda kuzatiladi.

Ko'pgina antibiotiklar superinfeksiya (disbakterioz) rivojlanishi uchun xos bo'lib, u antibiotiklar ta'sirida saprofit florani rivojlanishini to'xtatishi bilan bog'liq (masalan, ovqat hazm qilish traktida).

Bunday holat ushbu antibiotikka sezgir bo'limgan boshqa mikroorganizmlar va mo'g'orlarni (achitqisimon mo'g'orlar, Clostridium difficile, ko'k yiring tayoqchasi, protey, stafilakokklar) ko'payishi uchun qulay sharoit yaratishi mumkin.

Superinfeksiya ayniqsa ko'proq ta'sir spektri katta bo'lgan antibiotiklarni qo'llaganda yuzaga keladi.

Tibbiyot amaliyotida antibiotiklarni keng tarqalGANligiga qaramasdan bu tipda yana ham takomilroq preparatlarni yaratish borasida aneha katta miqyosda izianishlar olib borilmoqda. Ilmiy izianishlarning asosiy harakati ijobiy sifatlari yuqori bo'lib, noxush ta'sirlari bo'limgan antibiotiklarni yaratishga yo'naltirilgan.

Bunday "ideal" preparatlar yuqori darajada faoliyka, tanlab ta'sir ko'rsatish, kerakli mikroblarga qarshi ta'sir spektriga, bakteriosid ta'sir ko'rsatish xarakteriga, biologik membranalardan o'ta olish xossasiga (shu jumladan, gematoensefyalik baryerdan) ega bo'lib, turli hil biologik muhitlarda ham samarador bo'lishlari kerak. Ular mikroorganizmlarda tez turg'unlik rivojlantirmasliklari va makroorganizmni sensibilizasiyalamasliklari kerak. Noxush ta'sirlar va asoratlarni yo'qligi, zaharlilikni juda past bo'lishi va terapeutik ta'sir kengligini katta bo'lishi yangi antibiotiklardan talab qilanayotgan asosiy talablarga kiradi. Bundan tashqari antibiotiklar preparatinining farmasevtik korxonalarda ishlab chivarish texnologiyasi oson bo'lib, tannarxi arzon bo'lishi kerak.

PENISILLINLAR

Hozirgi vaqtda penisillinlar guruhi katta miqdordagi preparatlarda namoyon bo'lgan. Ularni bir qismini penisillin hosil qiluvechi mog'or zamburug'larning (*Penicillium*), ma'lum shtammlari o'sayotgan muhit suyuqligidan ajratib olinadi. Shundaylari biosintetik penisillinlar deb ataladi. Bundan tashqari biosintetik penisillinlarning asosi bo'lgan 6-aminopenisillan kislotasini kimyoviy o'zgartirish (modifikasiya) yo'li bilan qator yarim sintetik penisillinlar yaratilgan. Quyidagi tasnif penisillinlarni olish yo'llarini hamda ularning turli xossalariiga asoslangan.

I. Biosintetik pensillinlar (biologik sintez usuli bilan olingan pensillin preparatlari)

1. Parenteral kiritish uchun (me'daning kislotali muhitida parchalanadi)

a) Davomli ta'sir etmaydiganlar

Benzilpenisillinning natriyli tuzi

Benzilpensillinning kaliyli tuzi

b) Davomli ta'sir etuvchilar

Benzilpensillinning novokainli tuzi

Bisillin-1

Bisillin-5

2. Enteral kiritish uchun (me'daning kislotali muhiti ta'siriga chidamli).

Fenoksimentilpenisillin

II. Yarim sintetik penisillinlar

1. Parenteral va enteral kiritish uchun (javharlar ta'siriga chidamli)

a) Penisillinaza ta'siriga chidamli

Oksasilinni natriyli tuzi

Nafillin

b) Ta'sir spektri keng

Ampisillin

Amoksisillin

2. Parenteral kiritish uchun (me'daning kislotali muhitida parchalanadi)

Ta'sir spektri keng (shu jumladan ko'k yiring tayoqchasiga xam)

Karbenisillinning ikki natriyli tuzi

Tikarsillin

Azlosillin

3. Enteral kiritish uchun (javharlar ta'siriga chidamli)

Karbenisillin indanil natriy

Karsesillin

Penisillinlar bakteriosid ta'sir ko'rsatadilar. Ular faqat bo'linayotgan hujayralargagina ta'sir etadilar. Antibakterial ta'sir mexanizmi hujayra devorining tarkibiy qismlari sintezini buzilishi bilan bog'liq. Penisillinlar transpeptidaza fermenti faolligini susaytirish hisobiga peptid bog'larini hosil bo'l shiga to'sqinlik qilib, hujayra devori sintezining kechki bosqichlarini buzadilar, deb hisoblashadi.

a) biosintetik penisillinlar

Mog'or zamburug'lari hosil qiluvchi tabiiy penisillnlarni bir qancha xillari mavjud. Amaliy tabobatda turli xil tuzlar shaklida ishlab chiqariluvchi benzil-penisillinlar keng tarqalgan. Ishlab chiqarish sharoitida benzilpenisillinlarni fermentatorlarda suyuq ozuqa muhitidan olinadi. Uni Penicilliumning ma'lum shtammlari ishlab chiqaradilar.


Benzilpenisillin bir asosli javhar bo'lib, uning tuzilishiga β -laktam (I) va tiazolidinli (II) sikllar kiradi(tuzilishiga qarang). Tabiatidagi bo'yicha bu siklik

dipeptiddir (L- sistein va D- valin). Benzilpenisillinniñ faolligini (boshqa antibiotiklarniki kabi) agarda diffuziya usuli bilan aniqlanishi mumkin. Bunda agar solingan Petri idishiga benzilpenisillinni har-xil konsentrasiyada quyiladi (shisha silindrga yoki chuqurchalarga) va standart bilan solishtirgan holda sinayotgan namunalar uchun test-kulturani o'sish doirasini kamayishi aniqlanadi. Bir ta'sir birligi (1TB) 0.6 mkg toza kristallik benzilpenisillin (natriyli tuzi) faolligiga muvofiq keladi.

Benzilpenisillin yuqori antibakterial faollikka ega, lekin uning ta'sir spektri cheklangan. Preparat asosan grammusbat bakteriyalarga ta'sir ko'rsatuvchi antibiotiklarga mansub. Unga grammusbat kokklar (penisillinaza ishlab chiqarmaydigan stafilakokklar, streptakokklar, pnevmokokklar, grammanfiykokklar (miningokokklar, gonokokklar) difteriya tayoqchasi (korinebakteriyalar), kuydirgi tayoqchasi, gazli gangrena va qoqshol (klostridiya) qo'zg'atuvehisi, spiroxetalar (shu jumladan, rangi oqargan spiroxetalar), ba'zi patogen zamburug'lari (masalan, aksinomisetlar). Benzilpenisillinlarga ichak bakteriyalari, javharlarga turg'un bo'lgan sil mikobakteriyasi, viruslar, rikketsiyalar, sodda jonivorlar, achitqisimon zamburug'lari chidamlidir.

Benzilpenisillinlarni barcha tuzlari parenteral qo'llash uchun mo'ljallangan, chunki ular me'danining javharli muhitida parchalanadi.

Ba'zi penisillinlarning kimyoviy tuzilishi



ajralishiga asoslangan edi. Sekresiya jarayonini susaytirib, benzilpenisillinni organizmda ushlanib qolishiga va shu tufayli uni ta'sirini uzaytiruvchi birikmalar (masalan, probenesid) sintezlangan edi. Ammo bunday moddalarning samaradorligi cheklanganligi tufayli ushbu maqsadda ular deyarli qo'llanilmaydi.

Davomli ta'sir etuvechi preparatlar sifatida benzilpenisillining yomon eruvchi tuzlari (benzilpenisillining novokainli tuzi, bisillinlar) katta ahamiyatga kashf etdilar. Ular mushak ichiga kiritiladi va u yerdan sekin so'rildilar. Mushak to'qimasida preparatlarni deposini hosil qilish qonda antibiotiklarni zarur konsentrasiyasini uzoq vaqt ta'minlash imkoniyatini beradi (2-rasm). Gematoensefalik to'siq (GET) orqali benzilpenisillinlar odatdag'i sharoitda o'tmaydilar.

Yaxshi eruvchi benzilpenisillinning natriyli va kaliyli tuzi nisbatan qisqa (3-4 s) ta'sir ko'rsatadilar. Shu sababli preparatni tez-tez inyeksiya qilish kerak bo'ladi. Bu o'z navbatida, preparatni qo'llashni mushkullashtiradi. Ushbu holat tufayli benzilpenisillinni davomli ta'sir etuvechi preparatlarini yaratish g'oyasini paydo bo'ldi. Izlanishlar ikki yo'nalishda rivojlandi. Ulardan biri benzilpenisillinlar organizmlar asosan buyrak naychalari epiteliysi orqali sekresiya yo'li bilan

Ba'zi penisillinlar va sefalosparinlarni asosiy ta'sir spektri.

| | | | | | | |
|-------------------------|---|-------------------|---|---|---|---|
| | | | Penisilinaza ishlab chiqaruvchi stafilakokklar | | | |
| B | E | O | Penisilinaza ishlab chiqarmaydigan stafilakokklar | | A | S |
| N | K | | Streptokokklar | | M | E |
| Z | S | | Pnevkokokklar | | | F |
| I | A | | Meningokokklar | | P | A |
| L | S | | Gonokokklar | | | L |
| P | I | | Klostridilar | | I | O |
| E | L | | Kuydirgi tayoqchalar | | | T |
| N | L | | | | S | I |
| S | I | | | | I | N |
| I | N | | Bo'g'ma korinebakteriyasi | | | |
| Treponema va borrelilar | | | | | | |
| | | Ichak tayoqchasi | | L | | |
| | | Shigellalar | | I | | |
| | | Salmonellalar | | N | | |
| | | Klebsiellalar | | | | |
| | | Proteus mirabilis | | | | |

Davomli ta'sir etuvchi benzilpenisillin preparatlari.

| Preparat | Tarkibi | Mushakka kiritish oraliqi ¹ |
|---|-------------------------------------|--|
| Benzilpenisillining novokainli tuzi (prosillin) | Benzilpenisillining novokainli tuzi | Bir kunda 2-3 marla |

| | | |
|-----------------------------------|--|---|
| Bisillin-1 (benzatin, benzasilin) | Benzilpenisillining N,N'-dibenziletilendiaminli tuzi. | 7 kunda 1 marta (300000-600000 TB) yoki 14 kunda bir marta (1200000TB). |
| Bisillin-5 | 4 qism bisillin-1 (1200000TB) va 1 qism Benzilpenisillining novokainli tuzi (300000TB) ning aralashmasi. | 1 oyda 1 marta. |

b) yarimsintetik penisilinlar

Penisillnlarni takomillashtirishning katta imkoniyatlari ularning kimyoviy tuzilishining asosi bo'lgan 6-aminopenisillan kislotasini ajratilib olingandan so'ng 6-aminopenisillan kislotasi benzilpenisillinni fermentativ yo'l bilan (imidazalar yordamida) parchalash hamda kimyoviy deaselash usuli bilan olinadi. 6-aminopenisillin kislotasini kimyoviy o'zgartirish uni amino guruhiga turli radikallarni briktilish hisobiga amalga oshirilgan. Izlanishlar ma'lum xossalarga ega bo'lgan yarim sintetik penisillnlarni yaratishga qaratilgan edi (4-jadval):

a) qator mikroorganizmlar ishlab chiqaruvchi penisillinaza (β -laktamaza) ta'siriga chidamli;

b) kislotalar ta'siriga chidamligi tufayli ichilganda ham samarador preparatlar;

v) ta'sir spektri keng penisillinlar,

Penisillinlar qatorining solishtirma bahosi.

| Preparat | Me'daning kislotali muhitiga chidamligi | Ovqat hazm traktidan so'rishi % | Penisillina-zaga chidamligi | Mikroblarga qarshi ta'sir spektri | |
|------------------|---|---------------------------------|-----------------------------|-----------------------------------|-------------------------------|
| | | | | Gramm musbat mikroorganizmlar | Gramm mansiy mikroorganizmlar |
| Benzilpenisillin | - | 20-30 | - | + | |
| Oksasillin | + | 20-30 | + | + | |
| Ampisillin | + | 30-40 | - | + | + |

| | | | | | |
|---------------|---|----------|---|---|----|
| Karbenisillin | - | ≥ 0 | - | + | ++ |
| Tikarsillin | - | ≥ 0 | - | + | ++ |
| Azlosillin | - | ≥ 0 | - | + | ++ |

1 Ko'k yiring tayoqchasiga qarshi faol (*Pseudomonas aeruginosa*) va protevning har xil tur-lariga indol muhsat (*P. vulgaris*, *P. morganii*, *P. Rettgeri*)lariga ham, indol manfiylariga ham (*P. mirabilis*)

Izoh. plus- borligi, minus- bunday xossani yo'qligi.

Penisillinazaga chidamli bo'lgan penisillinlarni olinishi muhim qadam bo'ldi. Bunday xossaga ega bo'lgan yarimsintetik penisillinlarga oksasillinni natriyli tuzi, dikloksasillin va boshqalar mansubdir. Ushbu preparatlarning qimmati shundan iboratki ular benzilpenisillinga chidamlilik orttirgan stafilokokklar shtamplariga (ular penisillinaza ishlab chiqaradilar) qarshi samarador. Oksasillinda penisillinazaga barqarorlik xossasi kislotalilikka chidamlilik bilan mujassamlangan.

Mikroblarga qarshi ta'sir spektri bo'yicha u benzilpenisillindek. Preparatning salmoqli qismi zardob oqsillari bilan bog'lanadi (90%). Gematoensefalik to'siqdan preparat o'tmaydi. Asosan buyrak orqali ajraladi. Preparatni har 4-6 soatda qabul qilish kerak.

Penisillinaza ta'siriga chidamli preparatlar guruhiga yuqori antibakterial faollikka ega bo'lgan va gematoensefalik to'siqdan o'ta oladigan nafillin ham kiradi. U asosan safro, kamroq darajada buyrak orqali ajraladi. Enteral va parenteral yo'llar bilan kiritiladi.

Ta'sir spektri keng bo'lgan yarimsintetik penisillinlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

I. Ko'k yiring tayoqchaga ta'sir etmaydigan preparatlar:

Aminopenisillinlar

Ampisillin, Amoksisillin

II. Ko'k yiring tayoqchasiga qarshi faol preparatlar.

Karboksipenisillinlar

Karbenisillin, Tikarsillin

Ureidopenisillinlar

Piperasillin Azlosillin Mezlosillin

Ampisillin tabobat amaliyotida keng qo'llaniladigan aminopenisillinlardan hisoblanadi. U nafaqat gramm musbat, balki gramm mansiy mikroorganizmlarga (salmonellalar, shigellalar, proteyning ba'zi shtamlari, iehak tayoqchasi, fridlendr tayoqchasi, inflyuensa tayoqchasi) ham ta'sir etadi. Gramm musbat bakteriyalarga ta'sir faoliyati bo'yicha benzilpenisillindan kuchsizroq (boshqa yarim sintetik penisillinlar kabi), ammo oksasillindan ustunroq. Penisillinaza ta'sirida parchalanadi va shu sababli penisillinaza hosil qiluvechi stafilokokklarga qarshi samarasiz. Ampisillin kislotalar ta'siriga chidamli. Me'da-iehak traktidan kamroq (biologik o'zlashtirish darajasi ≈ 40%) va sekin so'rildi. Zardob oqsillari bilan kamroq darajada (10-30%) bog'lanadi. Gematoensefalik to'siqdan, oksassinga nisbatan yaxshiroq o'tadi. Asosan buyrak orqali ajraladi. Ampisillinni har 4-8 soatda kiritiladi. Preparat kam zahar va be'morlar uni yaxshi qabul qiladilar. Ampioks ampisillin va oksasillindan iborat preparat shaklida ishlab chiqariladi. Amoksisillin faolligi va ta'sir spektri bo'yicha ampisillindek bo'lsada iehakdan to'la so'rildi. U faqat enteral qo'llaniladi. Qayd etilgan keng ta'sir spektrli, ko'k yiring tayoqchasiga qarshi faol bo'lgan yarim sintetik penisillinlar penisillinaza ta'sirida parchalanadi.

Karbenisillin (piopen) mikroblarga qarshi ta'sir spektri bo'yicha ampisillinga o'xshash. Undan farqi shundan iboratki, u proteyning barcha turlariga va ko'k yiring tayoqchasiga (*Pseudomonas aeruginosa*) faol ta'sir etadi. Me'danligi kislotali muhitida preparat parchalanadi, juda kam so'rildi. Shu sababli uni mushak va tomir iehiga kiritiladi. Preparatning 80% ga yaqinroq qismi zardob oqsillari bilan bog'lanadi.

Gematoensefalik to'siqdan u yomon o'tadi. Buyrak orqali (sekresiya va filtrasiya) va qisman jigar orqali ajraladi. Ta'sir davomiyligi 4-6 soat. Kislotali muhitga chidamli va enteral kiritish uchun mo'ljallangan (peshob yo'llari infeksiyalarida) yangi preparat-karbenisillin indanil natriy yaratilgan.

Karfesillin va tikarsillin preparatlari o‘z nossalari bo‘yicha karbenisillinga o‘xshash. Karfesillin karbenisillindan farq qilib, kislotali muhit ta’siriga chidamli va ichiladi. Tikarsillin karbenisillinga nisbatan birmuncha faolroq, ayniqsa ko‘k yiring tayoqchasiga ta’siri bo‘yicha.

Ureidopenisillinlarning antibakterial faolligi karboksipenisillinlarnikidek *klebsiellaga* nisbatan ureidopenisillinlar faolroqdirlar. Ko‘k yiring tayoqchasiga ta’siri bo‘yicha preparatlarni quyidagi (faolligi kamayib boruvechi) ketma-ketlik qatoriga qo‘yish mumkin: azlosillin = piperasillin > mezlosillin = tikarsillin > karbenisillin.

Qator mikroorganizmlarning ma’ium shtammlarini β -laktamaza ishlab chiqara olishi bilan bog‘liq β -laktamli antibiotiklarga chidamliligini engib chiqish muhim ahamiyatga ega. shunga e’tiboran ushbu antibiotiklar guruhini parchalanishdan saqlovchi β -laktomazani faolligini tanlab ingibisiyalovechi moddalar (klavulan kislotasi, sulbaktam, tazobaktam) sintezlangan. β -laktamaza ingibitorlari ko‘pincha kombinirlangan preparatlar tarkibiga kiradi (β -laktamli antibiotiklar va β -laktamaza ingibitori). Augmentin (amoksisillin + klavulan kislotasi) keng qo‘llanilayotgan preparatlardan hisoblanadi. Yuqorida qayd etilganidek, amoksisillin-ta’sir spektri keng bo‘lgan β -laktamli antibiotik. Klavulan kislotasi (*Streptomyces clavuligerus*) ham β -laktam hosilasiga mansubdir, ammo uning antibakterial ta’siri juda kuchsiz darajada namoyon bo‘ladi. Asosiy ta’siri bu qator β -laktamazalarni qaytmas ingibisiyalashdan iboratdir. Ba’zi Enterobacteriaceaelar ishlab chiqaruvchi β -laktamazalarga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Augmentin keng antibakterial spektriga ega, jumladan β -laktamaza ishlab chiqaruvchi gramm musbat bakteriyalar (stafilokokklar va ko‘pgina streptokokklar, shu jumladan, enterokokklar) va gramm manfiy bakteriyalar (N. gonozrhoeae, N. meningitides, N. influenza, Gardenetla vaginalis, Bordetella pertussis, E. coli, Klebsiella pneumonia, Proteus mirabilis, Salmonella). β -laktamaza ishiab chiqaruvchi anaerob bakteriyalarni ko‘pgina shtammlariga qarshi yuqori so‘riladi (74-92%). Biologik o‘zlashtirish darajasi 70% atrofida. Moddaning o‘zi va

ularning metabolitlari buyrak orqali ajraladi. Nafas yo'llari, jinsiy-peshob yo'li infeksiyasi, teri va yumshoq to'qimalarni, suyaklar, bo'g'imlarni bakterial jarohatlanishida, septik holatlarda qo'llaniladi. Boshqa kombinasiyalangan preparatlar ham yaratilgan: unazin (ampisillin+subaktam), amoksiklav (amoksisillin+klavulan kislotasi), tafosin (piperasillin+tafobaktam).

Asosan gramm mansiy bakteriyalarga ta'sir etuvchi "penisillining atipik" preparati pevmasillinam sintezlangan. Undan organizmda mesillinam hosil bo'ladi. Ichishga tavsiya etilgan, ammo yomon so'rildi.

Yarim sintetik penisillinlar bo'lmish oksasillin, dikloksasillin, nafsillin penisillinaza ishlab chiqaruvchi, ya'ni benzilpenisillinga chidamlilik ortirgan stafilokokklar bilan chiqarilgan infeksiyalarda qo'llanilishi mumkin. Oksasillinni ichish va mushak ichiga kiritish, nafsillinni ichish, mushak va tomir ichiga kiritish mumkin.

Keng ta'sir spektriga ega bo'lgan ampisillin gramm mansiy mikroorganizmlar yoki aralash flora bilan chaqirilgan xastaliklarni davolash vositasi sisatida katta ahamiyatga ega. Uni peshob, safro, nafas yo'llari, me'da-ichak trakti, yiringli jarrohlik infeksiyalarida enteral qo'llaniladi (ichiladi). Ampisillinni natriyli tuzini (pentreksil) mushak va tomir ichiga kiritiladi. Amoksisillin ham xuddi shunday ko'rsatmalarga ega. Uni enteral kiritiladi. Karbenisillin, karfesillin, tikarsillin, azlosillin va shu guruhining boshqa preparatlarini ayniqsa ko'k yiring tayoqchasi, Protey, ichak tayoqchasi (pielonefritlar, pnevmoniya, septisemiya, peritonit va boshqalar) bilan chaqirilgan infeksiyalarda qo'llanish uchun ko'rsatma berilgan.

v) penisillinlarni noxush va zaharli ta'sirlari.

Penisillinlarning zaharliigi past, terapeutik ta'sir kengligi katta. Asosiy noxush ta'siri allergik reaksiyalar bo'lib, u ko'pincha (-10%)¹ be'morlarda kuzatiladi.

Ular organizmda antitelalar hosil bo'lishi bilan bog'liq. Odatda, allergik reaksiyalar penisillinlarni qo'llashni boshlagandan bir qancha vaqt o'tgach yuzaga keladi. Ammo ushbu muddat, katta oraliqda bo'ladi (daqiqalardan- haftagacha). Penisillinlar dozasi bilan allergik reaksiya rivojlanadigan vaqt, uning darajasi orasida karrelyasiya aniqlanmagan. Allergik reaksiyalar turlicha bo'lishi mumkin.

Ko'pincha allergik reaksiyalar terida toshmalar, dermatit, istmalash bilan cheklanishi mumkin. Birmuncha og'irroq shakkari shilliq qavatlarning shishishi, ***artritlar***, ***artralgiyalar***, ***buyraklarni shikastlanishi***, eritrodermiya va boshqa o'zgarishlar bilan kechishi mumkin.

Og'ir kechuvchi va tez rivojlanadigan, ba'zan o'limga olib keluvchi allergik reaksiya-allergik shok¹ hisoblanadi (qon bosimi tushadi, bronxospazm, qorin sohasida og'riqlar, bosh miya shishi, es-xushni yo'qotish va boshqa ko'pgina o'zgarishlar kuzatilishi mumkin).

Allergik reaksiyalarni davolash penisillin preparatlarini qo'llashni to'xtatish hamda glyukokortikoidlarni (kuchli yallig'lanishga qarshi va desensibilizasiyalash ta'siriga ega) gistaminga qarshi vositalar (allergik reaksiyalarni rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan H₁-gistaminning reseptorlarini qamallab gistaminning ta'sirini bartaraf etadi) kalsiy xlorid va boshqa vositalarni qo'llashdan iborat bo'ladi.

Anafilaktik shokda α- va β-adrenoreseptorlarni rag'batlantiruvchi adrenomimetiklarni (qon bosimini oshiradi, bronxospazmnı bartaraf etadi) – adrenalin gidroxlorid yoki efedrin gidroxlorid hamda gidrokortizon, dimedrol, kalsiy xlorid tomirga kiritiladi. Bundan tashqari penisillinlar noallergik tabiatiga ega bo'lgan ba'zi noxush va toksik ta'sir ko'rsatadilar. Ularga penisillinlarni mahalliy qitiqlovchi ta'siri kiradi.

Penisillin preparatini ichilganda ular til (glossit), og'iz bo'shlig'i (stomatit) shilliq qavatlarni yallig'lanishi, ko'ngil aynish, diareya kuzatilishi mumkin.

1 Penisillin preparatiga allergik reaksiyalar ularni qo'llovchi tibbiyot hodimlari hamda ishib chiqeruvchi, qadoqlashda qatnashuvchi ishehilarda ham kuzatilishi mumkin

Mushak ichiga kiritilganda og'riq, infiltratlar hosil bo'lishi va mushaklarni aseptik nekrozi, tomirga kiritilganda esa – flebitlar va tromboflebitlar kuzatilishi mumkin.

Benzilpenisillining natriyli tuzini haddan tashqari katta dozalarda qo'llansa (ayniqsa orqa miya kanaliga-endolyumbal) neytrotoksik ta'sir yuzaga kelishi

mumkin (araxnoidit, encefalopatiya). Bunday usorat ba'zan preparatni buyrak yetishmovchiligidagi qo'llanganda ham rivojanishi mumkin.

Penisillinlarni toksik ta'siri ayrim hollarda yurak faoliyatida salbiy o'zgarishlar chaqiradi. Kamdan-kam hollarda oksasillinni jigar fermentlariga susaytiruvechi ta'siri kuzatilgan. Kislotalar ta'siriga chidamli penisillinlarning ichilishi (ayniqsa keng ta'sir spektrilari masalan, ampisillin) disbakterioz rivojanishining sababi bo'lishi mumkin (ko'proq Kandidamikoz).

SEFALOSPORINLAR

Cephalosporinum aceremonium zamburug'idan qator antibiotiklar ajratilgan, shu jumladan sefalosporin S. Uni yarim sintetik hosilalari "sefalosporinlar" nomini olgan. Ularga sefalon, sefaleksin, sefaklor, sefotaksim, sefuroksim, sefoperazon, sefepim, seftiakson va boshqalar (5-jadval) kiradi. Ushbu birikmalarning kimyoviy asosi bo'lib, 7-aminosefalosporan kislotasi hisoblanadi.

7-aminosefalosporan kislotasining kimyoviy tuzilishi



Tuzilishi jihatidan sefalosporinlar penisillinga o'xshashdirlar. Jumladan, ikkala guruh antibiotiklar tarkibida β -laktam halqasi (I) bor.

Penisillinlar tuzilishida tiazolidin halqasi, sefalosporinlarda esa- ditidrotiazin (d) halqasi bor. Sefalosporinlar bakteriosid ta'sir ko'rsatadilar. Chunki hujayra devorini hosil bo'lishini susaytiradilar. Penisillinlar kabi ular bakteriyalarning hujayra devorini biosintezida ishtirok etuvechi transpeptidaza fermenti faolligini kamaytiradilar. Mikroblarga qarshi ta'sir spektriga ko'ra sefalosporinlar ta'sir spektri keng antibiotiklarga mansubdirlar. Ular stafilokokklarning penisillinazasiga chidamli bo'lsalar ham, ba'zi gramm manfiy mikroorganizmlar (masalan, *Pseudomonas aeruginosa*, *Enterobacter aerogenes*; ko'pineha β -laktomazalarning ushbu tipini sefalosporinazalar deb ataladi) ishlab chiqaruvchi β -laktomazalar ta'sirida parchalanadi.

Sefalosiorinlar¹

| Kiritish yo'li | Sefalosiorinlar avlod | | | | |
|--|--|--|---|----|----------------------------------|
| | I | II | III | IV | |
| Parenteral (tomir ichiga, mushak ichiga) | Sefazolin Sefalotin Sefapirin Sefaloridin Sefradin | Sefuroksim ² Sefamandol Sefoksitin Sefonsid Sefprozil Sefmetazol Sefotetan Seforanid | Sefotaksim Seftriaxson ⁴ Seftrizoksim Sefoperazon ⁵ Seftadizim ⁶ Seftizoksim Moksalaktam | | Sefepim ⁶ Sespirem |
| Enteral (peros) | Sefaleksin Sefadroksil ² Sefradin | Sefaklor Sefuroksimaksetil Lorakarbef Sefprozil | Sefiksim Sefpodoksim-proksetil Sestibuten Sefetamet-pivoksil | | |

¹ Shu guruhga juda xos bo'lgan qator preparatlar keltirilgan. Boshqalarini maxsus adabiyotlarida va ma'lumotlar to'plamida o'qish mumkin.

² Sinonimi: durasef.

³ Sinonimlari: inyeksiya uchun preparat (sefuroksim natriy)-zinasef, enteral kiritish uchun preparat (sefuroksim aksetil)-zinnat.

⁴ Sinonimi: rosefin.

⁵ Sinonimi: sefobit

⁶ Sinonimi: fortum.

⁷ Sinonimi: maksipim.

Sefalosporinlar shartli ravishda 4 ta avlodga bo'lingan (6-jadval). I-avlod namoyondalari ayniqsa, gramm musbat kokklarga qarshi samarador (pnevmonokokklar, streptokokklar, stafilokokklar). Ularga ba'zi gramm manfiy bakteriyalar (*Escherichia coli*, *Klebsiella pneumonia*, *Proteus mirabilis*) ham sezgirdirlar. Ular amaliy jihatdan ko'k yiring tayoqchasi, *Enterobacter*, *Serratia*

marcescens, indol ijobiy protey, bakteriodlar (*Bacteroides fragilis*)ga ta'sir etmaydilar.

Sefalosporinlarning antimikrob ta'sir spektri.

| Mikroorganizmlar | Sefalosporinlar avlodti | | | | | |
|---|-------------------------|-------------|-------------|--------------|-------------|----------|
| | I | II | | III | | IV |
| | sefalotin | sefok-sitin | sefu-roksim | sefo-perazon | sefta-zidim | sefe-pim |
| <u>Grammatusbat kokklar</u> | | | | | | |
| <i>Streptococcus pyogenes</i> | + | + | + | + | + | + |
| <i>Streptococcus pneumoniae</i> | + | + | + | + | + | + |
| <i>Streptococcus viridians</i> | + | + | + | + | + | + |
| <i>Enterococcus faecalis</i> | + | + | - | + | - | - |
| <i>Straphylococcus aureus</i> (metisillinga sezgir) | - | - | + | + | + | + |
| <i>Streptococcus</i> | + | + | + | + | + | + |
| <u>Grammansiiv kokklar</u> | | | | | | |
| <i>Neisseria gonorrhoeae</i> | + | + | + | + | + | + |
| <i>Neisseria meningitidis</i> | + | + | + | + | + | + |
| <i>Acinetobacter</i> <i>calcoaceticus</i> ¹ | - | - | - | - | + | ± |
| <i>Moraxella catarrhalis</i> | + | + | + | + | + | + |
| <u>Grammansiiv</u> | | | | | | |
| <u>tavoqchalar</u> | | | | | | |
| <i>Escherichia coli</i> | + | + | + | + | + | + |
| <i>Salmonella typhi</i> | + | + | + | + | + | + |
| <i>Salmonella enteritidis</i> | + | + | + | + | + | + |
| <i>Shigella dysenteriae</i> | + | + | + | + | + | + |
| <i>Klebsiella pneumoniae</i> | - | - | ± | + | + | + |
| <i>Enterobacter aerogenes</i> | - | - | - | + | + | + |
| <i>Serratia marcescens</i> ² | + | + | + | + | + | + |
| <i>Proteus mirabilis</i> (indol manfiy) | - | + | - | + | + | + |
| <i>Proteus vulgaris</i> (indol ijobiy) | - | - | - | + | + | ± |

| | | | | | | | |
|--|---|---|---|---|---|---|---|
| <i>Pseudomonas aeruginosa</i> | + | - | + | - | - | + | - |
| <i>Haemophilus influenza</i> | - | + | - | - | - | - | - |
| <i>Bacteroides fragilis</i> ³ | | | | | | | |
| <u>Gramm musbat</u> | | | | | | | |
| <u>tayoqchaları</u> | + | + | + | + | + | + | + |
| <i>Clostridium botulinum</i> | + | + | + | + | + | + | + |
| <i>Clostridium tetani</i> | | | | | | | |

¹ *Acinetobacter calcoaceticus* - shartli patogen gramm manfiy bakteriya: yirincli yallig-lanishning qo'zg'atuvchisi (sepsis, endokardit, absesslar, peshob yo'llari infeksiyasi va boshqalar).

² *Serratia marcescens* (*Bacterium prodigiosum*) – shartli patogen gramm manfiy bakteriya. yirincli yallig-lanish qo'zg'atuvchisi (Yaralar infeksiyasi, osteomielit, nafas va peshob yo'llari infeksiyasi va boshqalar).

³ *Bacteroides fragilis* - spora hosil qilmaydigan gramm manfiy bakteriya: operasiyadan keyingi davrdagi yirincli asoratlarni, sepsis, absesslar (o'pka, miya va boshqalar) qo'zg'atuvchisi.

Izoh. Plyus ta'siriga sezgir: (±)-hamma vaqt ham sezgir emas; minus-ta'siriga chidamlı.

Sefalosporinlarning II-avlodni ta'sir spektri I-avlod preparatlari kabi bo'sib, ulardan tashqari *Enterobacter*, indol ijobiy proteylarga ham ta'sir ko'rsatadi. Qator preparatlari *Bacteroides fragilis* va *Serratia* ningba'zi bir shtamlariga qarshi samaradordir (sefoksitin, sesametazol, sefotetan). Ushbu guruh preparatlari gramm musbat kokklarga ta'siri bo'yicha I-avlod preparatlariiga nisbatan faolsizroqdirlar. Ko'k yiring tayoqchasi ularga sezgir emaslar. III-avlod sefalosporinlarga anchagina katta ta'sir spektri xosdir, ayniqsa gramm manfiy bakteriyalarga nisbatan. Gramm

musbat kokklarga ular II-avlod sefalosporinlariga ko'ra kamroq darajada ta'sir ko'rsatadilar. Sefazidim va Sefoperazonning *Pseudomonas aeruginosa* ga qarshi kuchli ta'sir yetishi aniqlangan. Sefotaksim ham ushbu qo'zg' atuvechiga qarshi ta'sirga ega, ammo biroz kamroq darajada. Sefizoksim va moksalaktam *Bacteroides fragilis* ga nisbatan antibakterial faollikka egalar. Sefalosporinlarning bu guruhni *Enterobacter*, *Serratia* hamda *Haemophilus* va *Neisseria* larning β -laktamaza ishlab chiqaruvchi shtammlariga ta'sir ko'rsatadi. Ko'pineha III-avlod sefalosporinlarning muhim xossalardan bo'lib ularning gematoenseflik to'siqdan o'ta olish qobiliyati hisoblanadi (sefoperazon va sefiksimdan tashqari).

IV-avlod sefalosporinlarning antimikrob ta'sir spektri III-avlod preparatlari kiga nisbatan yanada kengroq. Ular gramm musbat kokklarga nisbatan anche samaradorlar. Ko'k yiring tayoqchasi va boshqa gramm manfiy bakteriyalar, shu jumladan β -laktamaza ishlab chiqaruvchilarga nisbatan yuqori faollikka egalar. Bakteroidlarga arzimaydigan ta'sir ko'rsatadilar.

Kiritish yo'lga qarab sefalosporinlar 2 guruhga bo'linadi.

1. *Parenteral kiritish uchun:* Sefalotin Sefuroksim Sefotaksim Sefepim va boshqalar.

2. *Enteral kiritish uchun:* Sefaleksin Sefaklor Sefiksim va boshqalar.

Ko'pgina sefalosporinlar ovqat hazm qilish traktidan yomon so'rildilar, ammo bir qism preparatlar anchagina yaxshi absorbsiyalanadi va shu sababli ularni enteral yo'l bilan kiritiladi. Bunda ularning biologik o'zlashtirilish darajasi 50-90% ni tashkil etadi. Ularning qonda bakteriosid konsentrasiyada to'planishlari, kerakli farmakologik ta'sirni ta'minlaydi. Gematoensefalik to'siqdan I va II avlod preparatlar deyarli o'tmaydilar. Shu bilan bir qatorda III-avlod sefalosporinlarning ko'plari bosh miya to'qimasiga o'tadi. Qonda sefalosporinlar zardob oqsillari bilan qisman bog'lanadilar. Ko'pgina preparatlar buyrak orqali (filtrasiya va sekresiya yo'li bilan) ajraladilar, ayrim preparatlar asosan safro bilan ichakga tushadilar (sefoperazon, seftriakson). Har xil avlodning muayan preparatlarining yarim ajralish davri ($t_{1/2}$) va dozalarini ajratish tubdan farq qiladi. Umumiy tushuncha uchun 7-jadvaldagagi ma'lumotlarga qarang.

Ba'zi sefalosporinlarni β -laktamaza inhibitori sulbaktam bilan birgalikda (kombinasiya) qo'llashadi. Bu ularning bakterial infeksiyani davolashda samaradorligini oshiradi. Shunday preparalrandan biri sulperazon (sefoperazon+sulbaktam) hisoblanadi. Sefalosporinlarni gramm manfiy mikroorganizmlar qo'zg'atadigan xastaliklarda (masalan, peshob yo'llari infeksiyasi), penisillinlar samara bermagan yoki ularni qo'llash mumkin bo'lmasan, gramm musbat bakteriyalar qo'zg'atgan infeksiyalarni davolashda qo'llaniladi. Katalal pnevmoniyada (qo'zg'atuvchisi fridlender tayoqchasi-*Klebsiella pneumoniae*) seforosporinlar tanlangan preparat hisoblanadi.

Enteral kiritiladigan sefalosporinlarning farmakokinetikasi






| Avlod | Preparat | Biologik o'zlashtirish darajasi (%) | Qon zardobi oqsillari bilan bog'lanish (%) | t _{1/2} soat | Kun davomida qabul qilish davriyligi |
|-------|-----------------------|-------------------------------------|--|-----------------------|--|
| I | Sefadroksil | 90 | 20 | 1,1 – 1,5 | 1g dan kuniga 1marta yoki 0,5g dan har 12 soatda |
| | Sefaleksin | 90 | 5 – 15 | 0,9 – 1,3 | 1g dan har 6soatda |
| II | Sefaklor | 50 | 20 – 25 | 0,7 – 0,8 | 0,25-0,5g dan har 8-12soatda |
| | Sefuroksim-aksetil | 52 | \approx 50 | 1,2 – 1,7 | |
| III | Sefiksim | 50 | 65 | 2,6 – 3,4 | 0,2g dan har 12soatda yoki 0,4g dan kuniga 1 marotaba. |
| | Sefpodoksim-proksetil | 52 | 40 | 2,2 – 2,5 | 0,2-0,4g dan har 12soatda |

Ko'k yiring tayoqchasi bilan bog'liq infeksiyalarda seftazidim va sefoperazon qo'llaniladi. So'zak xastaligida tanlangan preparat bo'lib seftriakson hisoblanadi. Meningokok yoki pnevmokokklar bilan chaqirilgan meningitda gematoensefalik

to'siqdan o'tadigan preparatlarin qo'llash lozim, masalan sefuroksim, III-avlod sefalosporinlar (sefoperazon va sesiksimdan tashqari). Qator preparatlar (sesoksitin, seftizoksim) bakterioiddar (*Bacteroides fragilis*) qo'zg'atgan infeksiyalardan samaradordirlar.

Sefalosporinlar ko'pgina be'morlarda allergik reaksiyalarga olib keladilar. Ba'zan benzilpenisillinlar bilan birga qo'llanilganda sensibilizasiya kuzatiladi. Noallergik asoratlardan buyrakni shikastlanish kuzatilishi mumkin (asosan sefaporidin va sefradimni qo'llaganda kuzatiladi). Kuchsiz leykopeniya rivojlanishi mumkin. Bundan tashqari ko'pgina preparatlar mahalliy ta'sirlantiruvchi xossaga egadirlar (ayniqsa sefalotim). Shu sababli mushak ichiga kiritilganda og'riq, infiltratlar, tomirga kiritilganda flebitlar rivojlanishi mumkin. Superinfeksiya bo'lishi mumkinligini ham inobatga olish zarur. Enteral qo'llanuvchi preparatlar dispepsik o'zgarishlar chaqirishlari mumkin. Ba'zi preparatlarni (sefoperazon va boshqalar) qo'llanganda ba'zan gipoprotrobinemiya kuzatiladi.

Ba'zi sesfalosporinlarning kimyoviy tuzilishi




*TUZILISHIDA B-LAKTAM HALQASIGA EGA
BO'LGAN BOSHQA ANTIBIOTIKLAR
KARBAPENEMLAR*

Bu guruhga yuqori faoliyetta ega bo'lgan ta'sir spektri keng yarim sintetik antibiotik – imipenem mansub. U *Streptomyces cattleya* ishlab chiqaruvchi tienamisin hosilasidir. Ko'pgina aerob va anaerob bakteriyalarga qarshi samarador. Hujayra devorining sintezini susaytirganligi sababidan bakteriosid ta'sir ko'rsatadi. β -laktamaza ta'siriga chidamli, ammo buyrakning proksimal naychalarining degidropeptidaza-1 fermenti ta'sirida parchalanadi. Shu sababli, peshobda preparatni konsentrasiyasi past bo'ladi. Bunday holatni bartaraf etish maqsadida degidro peptitaza-1 fermentining ingibitori sintezlangan - Silastatin nomi bilan atalgan. Hozirgi vaqtida imipenem silastatin bilan birlgilikda qo'llanmoqda. Ana

shunday preparatlardan biri – tienam (primaksin) hisoblanadi. Uni tomirga har 6soatda kiritiladi. Me'da-ichak traktidan imipenem so'rilmaydi. Noxush ta'sir sifatida ko'ngil aynish, qayt qilish, tirishish, allergik reaksiyalar kuzatilishi mumkin.

Ba'zi karbapenem va monobaktamlarning kimyoiy tuzilishi



Karbapenemlar guruhiga meropenem (meronem) antibiotigi ham mansub.

Imipenemdan digidropeptidaza-I ta'siriga yuqori darajada turg'unligi bilan farq qiladi, shu sababli ushbu ferment ingibitori bilan birlgilikda qo'llash zaruriyati yo'q. Ko'pgina

β -laktamzalar ta'siriga chidamli. Ta'sir mexanizmi, antimikrob ta'sir spektri va xarakteri bo'yicha imipenemga o'xshash. $t_{1/2} \approx 1.5$ e. Taxminan 2% qon zardobi oqsillari bilan bog'lanadi. To'qima to'siqlaridan yaxshi o'tadi. Jigarda metabolizmga uchraydi. Asosan ($\approx 98\%$) buyrak orqali ajraladi. Turlicha joylashgan og'ir infeksiyalarda: pnevmoniya, peritonit, meningit, sepsislarda qo'llaniladi. Surunkali bakterial bronxitni zo'rayishida, peshob yo'llari, teri va ularning o'simtalarining asoratsiz infeksiyalarida ham preparat qo'llashga ko'rsatma berilgan. Har 8 yoki 12soatda mushak va tomirga kiritiladi. Noxush ta'sir sifatida allergik reaksiyalar, kiritilgan joyda yallig'anish, dispepsik o'zgarishlar, leykopoezni qaytar buzilishi, bosh og'rig'i, disbakterioz bo'lishi mumkin.

MONOBAKTAMLAR

Bu guruhga *Chromobacterium violaceum* kulturasidan ajratib olingan aztreonam mansub. *Klebsiella*, *Pseudomonas*, *Serratia* guruhlariga mansub qator gramm manfiy bakteriyalar ishlab eniqaravchi β -laktamzalar ta'siriga chidamli. Gramm musbat bakteriyalar va anaeroblarga u ta'sir etmaydi. Hujayra devori


sintezini susaytirganligidan bakteriosid ta'sirga ega. Aztreonam parenteral kiritiladi, $t_{1/2} \approx 1.7$ s. Buyrak orqali (sekresiya) ajraladi. Peshob ajratish trakti, nafas yo'llari, teri va boshqalar infeksiyalarda qo'llaniladi. Noxush ta'sirlar sifatida dispepsik buzilishlar, terida allergik reaksiyalar, bosh og'rig'i, kamdan-kam hollarda gepatotoksik ta'sir kuzatiladi, superinfeksiya bo'lishi mumkin.

MAKROLIDLAR VA AZALIDLAR

Antibiotiklarning ushbu guruhi o'zining molekulasi asosida turli xil qandlar bilan bog'langan makrosiklik laktон harqasini tutadi. Makrolidlardan namoyondasi bo'lib eritromisin, oleandomisin, roksitromisin, klaritromisin va azalidlarniki bo'lib esa - azitromisin hisoblanadi.

Eritromisin (eritran, eritrosin)ni *Streptomyces erythreus* ishlab chiqaradi. Unga gramm mushbat kokklar va patogen spiroxetalar eng sezgirlar. Ammo uning ta'sir spektriga gramm manfiy kokklar, bo'g'ma tayoqchasi, patogen anaeroblar, rikketsiyalar, xlamidiyalar, mikroplazmalar, dizenteriya qo'zg'atuvchi amyobalar va boshqalar ham kiradi. Binobarin turli mikroorganizmlarga ta'siri bo'yicha eritromisin benzilpenisillinni eslatadi, ammo uning ta'sir spektri birmuncha keng. Eritromisining ta'sir mexanizmi bakteriyalar ribosomalarida oqsil sintezini susaytirishdan iborat. Bu peptidtranslokaza fermeti faolligini keskin pasayishi bilan bog'liq. Me'da-ichak traktidan preparat to'liq bo'lmasa-da qonda va to'qimalarda bakteriostatik konsentrasiya hosil qilish uchun yetarlicha so'rildi. Me'da kislotali muhitda eritromisin qisman parchalanishini nazarda tutib uni kislota ta'siriga chidamlı kapsula yoki eritromisinni faqat ichakda ajralishini ta'minlovchi maxsus qoplamlali tabletkalar (draje) shaklida qo'llash lozim. Preparat turli to'qimalarga oson o'tadi, shu jumladan yo'ldosh orqali. Fagositlarda juda katta konsentrasiyada to'planadi (boshqa makrolidlarga o'xshab). Bosh miya to'qimasiga odatdagi sharoitda o'tmaydi.

Ba'zi makroliddar va azaliddlarning kimyoviy tuzilishi



Ta'sir davomiyligi 4-6 soat. Safro bilan va qisman buyrak orqali ajraladi.

Eritromisinni qo'llash cheklangan, chunki unga mikroorganizmlar tez chidamlilik ortiradilar. Shu sababli u rezerv (zahiradagi) antibiotiklar qatoridan joy olgan va uni penisillin va boshqa antibiotiklar samara bermagan hollardagina qo'llashadi.

Eritromisinni ichish va mahalliy qo'llash tavsiya etiladi.

Eritromisin – kam zahar antibiotik va

kamdan-kam hollarda noxush ta'sir ko'rsatadi. Ba'zida dispepsik buzilishlar, allergik reaksiyalar rivojlanadi. Superinfeksiya bo'lishi mumkin. Huddi shunday xossalalar va qo'llashga ko'rsatmalarga oleandomisin ega. Uni *Streptomyces antibioticus* ishlab chiqaradi.

Oleandomisin faolligi bo'yicha eritromisindan kuchsiz. Ularning antimikrob ta'sir spektri va mexanizmi bir xil. Oleandomisining ta'sir davomiyligi 6 soat chamasida. Zaharliligi past. U eritromisinga nisbatan kuchliroq mahalliy

ta'sirlantirish xossasiga ega. Rezerv antibiotiklarga kiradi. Tabobat amaliyotida oleandomisin fosfat (oleandosin, romisil) enteral qo'llaniladi (ichiladi).

Oleandomisin fosfatni tetrasiklin (oletetrin), tetrasiklin gidroxlorid (sigmamisin, tetraolean) bilan qo'shib chiqarilmoqda. Keyingi yillarda tibbiyot amaliyotiga klaritromisin, roksitromisin va boshqalar kabi qator yarim sintetik makrolidlardan tadbiqu etildi. Ta'sir mexanizmi bo'yicha ular eritromisindan farq qilmaydi.

Klaritromisin (klasid) stafilokokklarga nisbatan eritromisinga nisbatan 2-4 marta faolroq. *Microbacterium avium intracellulare* va *Helicobacter pylory* bilan chaqirilgan infeksiyalarda samarador. Me'da-ichak traktidan yaxshi so'rildi, ovqatdan keyin ham. Miya to'qimasiga o'tmaydi. Jigarda faol metabolit hosil qilish bilan qisman metabolizmga uchraydi. Buyrak orqali ajralishi eritromisinga nisbatan davomliroq ta'sir ta'sir etadi. Klaritromisining to'qmasini eritromisininkiga nisbatan 3 marta kattaroq. Samarador yarim sintetik makrolidlardan yana biri roksitromisindir (rulid). U keng antibakterial ta'sir spektriga ega. Ichilganda yaxshi so'rildi.

Azalidlar¹ makrolidlardan kimyoiy tuzilishi bo'yicha farq qiladilar, ammo asosiy xossalari ularnikiga o'xshash. Ushbu guruh preparatlaridan biri azitromisin (sumamed) stafilokokk va streptokokklarga ta'siri bo'yicha eritromisinga nisbatan 2-4 marta kuchsizroq (faolsizroq), ammo *Haemophilus influenza* hamda gramm manfiy kokklarga ta'siri bo'yicha undan ustun keladi. Ichakdan yomon so'rildi ayniqsa unda ovqat bo'lganda. Hujayralarda katta konsentrasiyada to'planish – qon zardobidagiga nisbatan 10-100 marta ko'proq azitromisinga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Ta'siri davomiyligi $t_{1/2} = 2-4$ kun (eritromisinniki 2-5 soat). Gematoensefalik to'siqdan o'tmaydi, o'zgarmagan holda buyrak orqali ajraladi. Enteral qo'llaniladi. Noxush ta'sirlar sifatida ko'ngil aynish, diareya, kamdan-kamn hollarda eshitishni susayishi kuzatiladi. Tannarxi eritromisindan yuqori. Makreliidlardan yangi antibiotik – diozalin (vilprafen) yaratilgan. *Streptomyces nazbonensis var. josamycetics* ishlab chiqariladi. Boshqa makrolidlardan asosiy farqi unga mikroorganizmlarni chidamliliginini kamroq rivojlanishidir.

Ta'kidlash joizki makrolidlar va azalidlar "atipik" pnevmoniyaning qo'zg'atuvchisi bo'lishi mumkin bo'lgan hujayra ichidagi obligat mikroorganizmlar-xlamidiy, mikeplazmlar va legionellarga qarshi samaradordirlar.

TETRASIKLINLAR

Tetrasiklinlar tuzilish asosida 4 ta 6 a'zoli sikllarni kondensasiyalanishidan hosil bo'lgan guruh antibiotiklaridan iborat.

Biosintetik yo'l bilan (fermentasiya) quyidagi preparatlar olinadi: oksitetrasklin digidrat (terramisin, tetrin, tarxosin)- *Streptomyces rimosus* ishlab chiqaradi, tetrasiklin (desxlorbiomisin)- *Streptomyces aureofaciens*² ishlab chiqaradi. Demeklosiklin *Streptomyces aureofaciens*ning mutant shtammi ishlab chiqaradi. Yarim sintetik tetrasiklinlarga metasiklin gidroxlorid (rondonisin), doksisiklin gidroxlorid (vibramisin), minosiklin va boshqalar mansub.

Tetrasiklinlar keng ta'sir spektriga ega. Ular gramm musbat va gramm manfiy kokklar, basillyar ich burug', qorin tiʃi, zaxm, juda xavfli infeksiyalar-qora o'lat, tulyaremiya, brusellez vabo, qo'zg'atuvchilariga, xlamidiy, ba'zi sodda hayvonlar (amyobali ichburug' qo'zg'atuvchisi) qarshi faollikkka egadir.

Protey, ko'k yiring tayoqchasi, haqiqiy viruslar va patogen zamburug'larga tetrasiklinlar ta'sir ko'rsatmaydi. Gramm musbat mikroorganizmlarga ta'siriga ko'ra ular penisillinlardan kuchsiz. Tetrasiklinlarga mikroorganizmlar chidamlilikni sekin orttiradi.

Ularning mikroblarga qarshi ta'sir mexanizmi bakteriyalar ribosomalarida hujayra ichida oqsil sintezini susayishi bilan bog'liq. Bundan tashqari tetrasiklinlar metallar (Mg^{2+} , Ca^{2+}) bilan xelat birikmalar hosil qiladilar va ferment sistemalarini susaytiradilar. Tetrasiklinlar bakteriostatik ta'sir ko'rsatadilar. Ular ayniqsa, ko'payotgan bakteriyalarga nisbatan faoldirlar. Faolliklari bo'yicha bareha tetrasiklinlar o'xshash. Tetrasiklinlar me'da va ichakdan so'rildi. Absorbsiya to'liq bo'masada (ayniqsa, ovqatdan so'ng ichilganda), organizmda bakteriostatik konsentrasiya hosil qilish uchun yetarlidir. Ichilganda qon zardobida eng katta konsentrasiya 2-4 soatdan keyin hosil bo'ladi. Tetrasiklinlar kalsiy, temir, elyuminiy ionlari bilan xelat birikmalar hosil qiladilar va ular so'rilmaydi. Shu sababli ovqat

mahsulotlarida (masalan sut va sut mahsulotlarida kalsiy ionlarini bo'lishi) yoki tarkibida ushbu ionlar bo'lган moddalarning (masalan antasid vositalar) bo'lishi tetrasiklinlarning so'riliшини бузади. Bu ma'noda kalsiy ionlari bilan kam xelat birikmalar hosil qiluvchi doksisiklin va minosiklin alohida o'rın tutadi. Chunki ularni so'riliшiga ovqat hazм traktida ovqat mahsulotlarini bo'lishi ta'sir ko'rsatmaydi va ular to'liq va tez so'rildilar.


Sirkulyasiyadagi qonda tetrasiklinlarni anchagina qismi (20-80%) oqsillar bilan bog'lanadi. Demeklosillin, doksisillin va metasiklin eng davomli ta'sir ko'rsatadilar. Ta'sir davomliligi bo'yicha tetrasiklinlar quyidagi tartibda joylashadilar: demeklosiklin > doksisiklin > metasiklin > oksitetrasiklin > tetrasiklin.

Tetrasiklinlar ko'pgina to'qima to'siqlaridan, shu jumladan yo'ldoshnikidan ham yaxshi o'tadilar. Ularning ma'lum miqdori gematoensefalik to'siqdan ham o'tadi, ammo ichilganda orqa miya suyuqligida (likvor) tetrasiklinlarning bakteriostatik konsentrasiyasi hosil bo'lmaydi. Uni hosil qilish uchun antibiotikning qondagi konsentrasiyasi juda yuqori bo'lishi kerak. Bunday holatda preparatlarni parenteral (ayniqsa tomirga) yo'l bilan kiritib hosil qilish osonroq (masalan, doksisiklin, gidroxloridni). Minosiklin amaliy jihatdan bosh miya to'qimasiga o'tmaydi. Tetrasiklinlarning oz miqdori jigar va suyaklarda ancha uzoq vaqt aniqlanadi.

Tetrasiklinlar peshob va safro tarkibida ajraladi. Safro tarkibida ajralgan tetrasiklinlarning bir qismi ingichka ichakda qayta so'rildi. Doksisillin asosan safro tarkibida ajraladi. Najasda 90% gacha preparat aniqlanadi.

Tetrasiklinlar qo'llashga keng ko'rsatmalarga egadirlar. Ular rikketsiozlar, toshmali tif, mikoplazmalar qo'zg'atgan zotiljam, xlamidiyalar qo'zg'atgan infeksiyalarda (zotiljam, psittakoz, traxoma va boshqalar) va amyobali ich burug', kokklar qo'zg'atgan infeksiyalarda, leptospirozalarda samaradordir. Tetrasiklinlarni penisillin va streptomisinga chidamlilik ortirgan mikroorganizmlarni yoki ushbu antibiotiklarga sensibilizasiyalangan bemorlarda qo'llaniladi. Odatda, ularni har 4-8 soatda ichish tavsiyi etiladi.

Ba'zi tetrasiklinlar va levomisetinning kimyoviy tuzilishi



ko'z xastaliklarida (ayniqsa traxomada) mahalliy qo'llaniladi.

Tetrasiklinlar qator noxush ta'sirlar ko'rsatadilar. Jumladan, ular allergik reaksiyalar rivojlantirishi mumkin. Bunda teri jarohatlanishi, yengil isitmalash va boshqalar kuzatilishi mumkin. Tetrasiklinlarga allergiya penisillin va sefalosporinlarga nisbatan anchagina kam rivojlanadi.

Noallergik tabiatli noxush ta'sirlardan avvalam bor mahalliy qitiqlovechi ta'siri ko'rsatish kerak (ayniqsa u oksitetrasiklinda kuchli namoyon bo'ladi). Ichilganda preparatning ana shu xossa dispepsik buzilishlar (ko'ngil aynishi, qayt qilish, diareya), glossit, stomatit va ovqat hazm qilish trakti shilliq qavati tomonidan boshqa o'zgarishlarning asosiy sababi hisoblanadi. Mahalliy qitiqlovechi ta'siri tufayli mushak ichiga kiritilganda og'riq, tomirga kiritilsa tromboslebitlar rivojlanishi mumkin.

Tetrasiklinlar biroz geopolatotaksiklik xossasiga egadirler (asosan oksitetrasiklin). Tetrasiklinlarni homiladorlikning ikkinchi yarimida va bolalarda ehtiyyot choralarini ko'rib qo'llash lozim. Bu tetrasiklinlarning suyak to'qimasida jumladan, tish to'qimasida kalsiy tuzlari bilan xelat birikmalar hosil qilishi tufayli depolanishi bilan bog'liq. Shu tufayli skeletning shakllenishi buziladi. Tishlarning rangi o'zgaradi va jarohatlanadi. Tetrasiklinlarning noxush ta'sirlaridan biri bo'lib ularni fetosensibilizasiya¹ chaqirish va u bilan bog'liq dermatitlar rivojlanish hisoblanadi.

Bundan tashqari suvda eriydigan tuzlarini parenteral (tomir, mushak, bo'shliliklar ichiga) kiritiladi. Kuchli mahalliy qo'zg'atuvchilik xossasiga ega bo'lganidan tetrasiklinlarni bosh miya qobiqlari ostiga kiritmaydilar. Surtma sifatida ularni ko'proq

(ayniqsa demeklosiklin). Modda almashinuviga ta'sir tetrasiklar uchun oddiy hol hisoblanadi. Ular oqsil sintezini susaytiradilar (antianabolik ta'sir), organizmdan natriy ionlari, suv, aminokislotalarni, ayrim vitaminlarni va boshqa birikmalarini ajralishini kuchaytiradilar.

Minosiklin vestibulyar buzilishlarni rivojlanitirishi mumkin. Superinfeksiya vujudga kelishi tetrasiklinlar bilan davolashga juda xos asoratdir, ta'sir spektri keng bo'lgan antibiotiklardan hisoblangan tetrasiklinlar ovqat hazm qilish traktining saprofit florasini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kandidamikoz, stafilokokklar, protey, ko'k yiring tayoqchasi bilan chaqirilgan superinfeksiyanı yuzaga kelishiga imkoniyat tug'diradilar. Eng ko'p xavf tug'diradigan asoratlari bu stafilokokklar qo'zg'atgan enterokolit va zotiljam bo'lib juda og'ir kechishi mumkin. Saprofit flora rivojlanishiga salbiy ta'sir be'morlarda V guruhi vitaminlarini (saprofitlar ularning sintezida qatnashadilar) yetishmovchiligining sabablaridan biri bo'lib, ovqat hazm qilish trakti shilliq qavatining tetrasiklinlarning mahalliy qitiqlovchi ta'siri va superinfeksiya ta'siridagi jarohatlanishini chiqurlashtiradi. Kandidamikozni oldini olish va davolash uchun tetrasiklinlarni zamburug'larga qarshi antibiotik nistatin bilan birga qo'llaniladi. Bundan tashqari tetrasiklinlar bilan bir vaqtida V guruhi vitaminlarini berish maqsadga muvofiqdir. Kamdan-kam hollarda psevdomembranoz² kolit rivojlanishi mumkin. Uni vankomisin bilan davolanadi. Stafilokokk, protey yoki ko'k yiring tayoqchasi qo'zg'atgan superinfeksiyanı bartaraf etish maqsadga tegishli spektrga ega bo'lgan zamburug'larga qarshi vositalar qo'llaniladi.

Ma'lum bo'lgan tetrasiklinlarga mikroorganizmlarning chidamliligi rivojlanishi tusayli ushbu guruhning yangi hosilalarini izlash qonuniyidir. Glisilsiklinlarni yaratilishi bu boradagi eng keyingi yutuqlardan biridir. Bu qatorning istiqbolli birikmalaridan biri bo'lib tigesiklin hisoblanadi. U tetrasiklinning hosilalariga mansub. Gramm musbat va gramm manfiy bakteriyalarga nisbatan yuqori faoliikkka ega.

Tigesiklin ta'siriga ko'pgina ko'k yiring tayoqchasi va protey chidamlilidirlar. Preparatni boshqa antimikrob vositalarning rezistentlik rivojlanishi tufayli samarasiz bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

LEVOMISETIN GURUHI

Antibiotik levomisetinni *Streptomyces venezuelae* ishlab chiqaradi. Uni kultural suyuqlikdan ajratiladi hamda sintetik yo'l bilan olinadi.

Levomiselin (xloramfenikol) keng ta'sir spektriga ega, ya'ni gramm musbat va gramm manfiy bakteriyalar, shu jumladan ichak bakteriyalari oilasi, influyens tayoqchalari hamda riketsiyalar, xlamidiyalar, bruselyoz, tulermiya qo'zg'atuvechisiga ta'sir ko'rsatadi. Kislotaga chidamli mikobakteriyalar, ko'k yiring tayoqchisi, protey, sodda jonivorlar levomisetinga kam sezuvchan yoki umuman sezuvchan emas.

Levomesitining antimikrob ta'sir mexanizmi uning ribosomalarga ta'siri va oqsil sintezini kamaytirish hamda peptidiltransferaza faolligini susaytirish bilan bog'liq bo'lib, asosan bakteriostatik ta'sirni yuzaga chiqishida namoyon bo'ladi. Mikroorganizmlar levomisitinga nisbatan chidamlilik orttirishlari sekin rivojlanadi.

Me'da ichak tizimidan levomisitin yaxshi so'rildi qon zardobida eng yuqori konsentiratsiyasi taxminan 2 soatdan keyin yuzaga keladi. Levomisetinni qonda bakteriostatik konsentiratsiyasini saqlash uchun har 6 soatda beriladi. Antibiotikning talaygina qismi qon zardobidagi albuminlar bilan bog'lanadi. Levomisitin har xil to'qimalardan shu jumladan gematoensefalik baryerdan yaxshi o'tadi. Orqa miya suyuqligida (likvor)da levomisetinni konsentiratsiyasi qon zardobiga nisbatan 2 marta kam. Uning asosiy miqdori jigarda kimyoviy o'zgarishga uchraydi. Hosil marta kam. Uning asosiy miqdori jigarda kimyoviy o'zgarishga uchraydi. Hosil bo'lgan konyugatlar va taxminan 10% o'zgarmagan holda buyurak orqali ajraladi.

Qon hosil qilish jarayoniga bo'lgan jiddiy salbiy ta'siri tufayli levomisitin zaxira antibiotiklari safiga kiritilgan faqat boshqa antibiotiklar samarasiz bo'lgan hollardagina qo'llaniladi (8-jedvalga qaralsin). Uni qo'llanishga ko'rsatmalar asosan qorin tifi salmonellyozlar (ovqat-toksiqo infeksiyasi) va rikketsiozlar. B'azan uni influyens tayoqchasi chaqirgan xastaliklarda (meningit, peshob ajratish yo'llarining infeksiyasi) qora oqseqda va bosiqqa infeksiyalarda qo'llaniladi. Odatda

levomisetin ichiladi. Levomisetinning eritmaları va linimentini mahalliy¹ qo'llashadi. Parenteral kiritish uchun eruvchan levomisetin suksinat (klorosid) ishlab chiqarilmoqda. Uni teri ostiga mushakga va tomirga kiritiladi. Avval qayd etilganidek, levomisetin retikulositopeniya, granulositopeniya va og'ir holatlarda aplastik anemiya bilan kechuvchi qon hosil bo'lishini susaytiradi². Shu tufayli levomisetinni qo'llash qon holatini muntazam nazorat qilishni talab etadi.

Asosiy va rezerv antibiotiklarni qo'llashga ko'rsatmalar

| Infeksiyalar | Asosiy antibiotiklar | Rezerv antibiotiklar |
|---|--|---|
| 1 | 2 | 3 |
| Stafilokoklar (benzilpenisilinga sezgirlari) | Benzilpenisilin Fenoksimetilpenisilin | Sefolosporinlar Makrolidlar Vankomitsin Imipenem |
| Stafilokoklar (benzilpenisilinga turg'unlari) | Oksasillin Vankomisin Amoksilin | Sefolosporinlar Makrolidlar |
| Streptokokklar | Benzilpenisilin Ampisilin Aminoglikozidlar | Sefolosporinlar Makrolidlar Tetrasiklinlar |
| Pnevmonokokklar | Benzilpenisilin Ampitsilin Vankomisin | Sefolosporinlar Makrolidlar |
| Enterokokklar | Ampisilin Benzilpenisilin Gentamisin | Vankomisin Aminoglikozidlar |
| So'zak | Amoksilin Ampisilin Benzilpenisilin Seftriakson | Sefolosporinlar |
| Meningokokklar | Benzilpenisilin Ampisilin | Levomisetin, Sefalosporinlar |
| Gazli gangrena | Benzilpenisilin | Tetrasiklinlar Levomisetin |

| | | |
|--|---|--|
| | | Sefalosporinlar Klindamisin |
| Qoqshol | Benzil penisilin | Tetrasiklinlar Sefalosporinlar Klindomisin |
| Bo'g'ma | Makrolidlar Benzilpenisilin | Amoksilin Klindamisin |
| Protey qo'zg'atadigan infeksiyalar | Ampisilin Sefalosporinlar | Levomisetin Gentamisin |
| Proteus mirabilis | Gentomisin | Sefalosporinlar |
| Proteus vulgaris | Kanamisin | Imipenem |
| Proteus rettgeri | Amikasin | |
| Proteus morganii | Karbpenisilin | |
| Ichak tayoqchasi qo'zg'atadigan infeksiyalar | Ampisilin Sefalosporinlar Aminoglikozidlar | Tikarsillin Azlosilin, Siprofloxasin ¹⁶ |
| Qorin tifi | Siprofloxasin ¹ | Levomisetin Ampisilin Tetrasiklinlar |
| Bakterial ichburug' | Siprofloxasin ¹ | Levomisetin Ampisilin Tetrasiklinlar |
| Qora oqsoq | Tetrasiklin + Streptomisin | Rifampisin Levomisetin Streptomisin |
| Tulyaruniya | Tetrasiklinlar | Levomisetin Aminoglikozidlar |
| Ko'k tayoqcha qo'zg'atuvchi infeksiyalar | Aminoglikozidlar Karbokspenisillinlar Uredopensillinlar | Aztreonom Imipenem Seftazidim Sefoperazon |
| Vabo | Tetrasiklinlar | Levomisetin Siprofloxasin ¹ |
| Chuma | Streptomisin + Tetrasiklinlar | Tetrasiklinlar Levomisetin Aminoglikozidlar |

| | | |
|---------------|-----------------|-------------------------------|
| Rekkitsiozlar | Tetrasiklinlar | Levomiselin |
| Zaxm | Benzilpenisilin | Makrolidlar Tetrasiklinlar |

Floroxinolonlar guruhiga mansub sintetik antibaterial preparat

Qon hosil bo'lishini susaytiruvchi ehtimolini kamaytirish maqsadida antibiotikni imkonli boricha qisqa muddat qo'llash lozim. Qayta davolash kursi tavsiya etilmaydi. Ko'pchilik hollarda terida toshmalar, istimalash va boshqalar bilan kechuvchi allergik reaksiyalar kuzatiladi. Noallergik noxush ta'sirlardan ko'pincha silliq qavatlarni ta'sirlanishi ko'ngil aynish, diareya shu jumladan anarektal sindrom kuzatiladi. Ba'zan psixomator buzilishlar, miokardga susaytiruvchi ta'surot kuzatiladi. Chaqaloqlarda va ularning 1 oylik xayotida ko'pincha yurak tomir kollapsi bilan kechuvchi kuchli zaharlanish kuzatiladi. Bunday holat bolalarda antibiotikni buyrak orqali ajralishini sustligi va jigar fermentlarining keraklicha faoliyitiga ega emasligi bilan bog'lidir. Levomisettini qo'llaganda superinfeksiya, masalan kandidamikoz, stafilokokk yoki protey bilan chaqirilgan infeksiyalar rivojlannishi mumkin.

AMINOGLIKOZIDLAR GURUHII

Ushbu guruhnинг asosiy vakillari bo'lib streptomisin, neomisin, kanomisin, gentamisin, amikasin, tobramisin, sizomisin, monomisin va boshqalar hisoblanadi.

Amminoglikozidlarning antibaterial ta'sir mexanizmi ularni bevosita ribosomalarga ta'sir etib oqsil sintezini susaytirishdan iborat deb hisoblanadi. Aminoglikozidlар uchun bakteriosid ta'sir hosdir. Streptomisin *Actinomycetes globisporus* streptomycini ishlab chiqaruvchi antibiotikdir. Tabobat amaliyotida streptomisin sulfat qo'llaniladi (kimyoviy tuzilishiga qarang). Sterptomisining faoliyi ta'sir birligida (TB) va og'irlik birligida aniqlanadi. 1 TB streptomisin asosi 1mkg mos keladi. Streptomisin mikroblarga qarshi keng ta'sirga ega. Uni sil mikrobakteriyasiga, tulyaremiya va o'rnat (tovun) qo'zg'atuvchisiga ta'siri ayniqsa ahamiyatlidir. Bunday tashqari u patogen kokklar, proteyning ba'zi shtamlariga ko'k yiring tayoqchasi, brusellalar va boshqa gramm mansiy va gramm musbat

bakteriyalarga xalokatli ta'sir etadi. Streptomisinga anaeroblar spiroxetalar, rikketsiyalar, viruslar, patogen zamburug'lar, sodda jonivorlar sezgir emas.

Ushbu antibiotika nisbatan tez chidamlilik rivojlanadi. Ba'zi hollarda stereptomisinga tobe bo'lgan shtamlar uehraydi, ya'ni ularni yashashi va ko'payishi uchun streptomisin zarur. Me'da-ichak yo'llaridan preparat yomon so'rildi. Mushak ichiga kiritilgandan 2 soatdan keyin qon zardobida maksimal konsentratsiyada to'planadi. U asosan, ekstrasellyular taqsimlanadi. Qorin va plevra bo'shilig'iga, homiladorlikda esa homila to'qimasiga o'tadi. Gematoensefalistik to'siqdan, odatda o'tmaydi, ammo meningitda gematoensifalistik to'siqni streptomisin uchun o'tkazuvchanligini ortadi. $T_{1/2} \approx 2-4$ soat. Sterptomisingning ko'p qismi buyrak orqali (filtrasiya yo'li bilan) o'zgarmagan holda ajraladi. Juda oz qismi ichak orqali ajratiladi. Steptomisin sulfat asosan silni davolashda qo'llaniladi. Bundan tashqari uni tulyaremiya, o'lat (tovun), qora oqsoq, peshob yo'llarining infeksiyalarida, nafas a'zolarining kasaliklarida hamda boshqa kasaliklarda qo'llashadi. Ko'pincha preparatni mushak ichiga (kuniga 1-2 marta), hamda tana bo'shilqlariga kiritishadi. Ichakning mikroflorasiga ta'sir ko'rsatish uchun streptomisin sulfatni ichishga buyuriladi. Meningitda bosh miya pardalarining ostiga inyeksiya qilish uchun faqat streptomisinni xlor kalsiyili kompleksini (streptomisingning gidroxloridni qo'sh tuzi va kalsiy xlorid) qo'llashadi, chunki u streptomisingning boshqa komplekslariga nisbatan kamroq ta'sirlantiruvchi xossaga ega. Ammo streptomisin xlor kalsiyili kompleksi zaharliligi ancha yuqori.

Streptomisingning noxush ta'sirlari noallergik va allergik tabiatga ega. Ulardan eng jiddysi vestibulyar azolar va YII-just bosh miya nervlari chig'anog'ining sezgir hujayralarini jarohatlanishi bilan bog'liq bo'lgan ototoksik ta'siridir. Vestibulyar orzgarishlar va eshitishni susayishi (karlik) yuzaga keladi. Ba'zi olimlarning sikricha, kalyiy pantotenatni berish, qayd etilgan noxush ta'sirlarni kamaytirishi mumkin. Streptomisin nefrotoksik ta'sirga ega. Nerv-mushak sinapslariga susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Bu nafas olish qiyinlashuviga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, mahalliy ta'sirga ega bo'iganligi tufayli inyeksiya qilingan joylarda og'riq rivojlanadi.

Streptomisin preparatlarini qo'llaganda allergik reaksiyalar ham (isitmalash, terining jarohatlanish, cozinofiliya, kamdan-kam hollarda anafilaktik shok va boshqalar) rivojlanishi mumkin. Streptomisin ta'sirida superinfeksiya ham rivojlanishi mumkin.

Neomisin actinomyuces fradiae ishlab chiqaradigan A, B va S neomisinklar aralashmasidan iborat. Neomisin sulfat preparati shaklida chiqariladi. Keng ta'sir spektriga ega. Unga ham gramm mushat, ham gramm manfiy mikroorganizmlar sezgirdirlar. Anaeroblar, spirochetalar, patogen zamburug'lar va viruslarga ta'sir etmaydilar. Mikroorganizmlar neomisinga nisbatan chidamliligi nisbatan sekin rivojlanadi. Ichilganda yomon so'rilganligidan, bu yo'l bilan qo'llanganda uning ta'siri asosan ovqat hazm qilish trakti bilan cheklanadi. Neomisin unga sezgir bo'lgan mikroorganizmlar qo'zg'atadigan enteritlarni davolashda qo'llaniladi.

Xastalik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlarni boshqa antibiotiklarga chidamlilik orttirgan hollarda uni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bemorlarni me'da-ichak traktida bo'ladijan operasiyaga tayyorlashda (ichakni qisman "sterilizsiyalash") neomisin foydali bo'lishi mumkin. Ichak tayoqchasi, proteyning ba'zi shtammlari va ko'k yiring tayoqchasiga qarshi yuqori faollikka ega ekanligi uning ijobiy xossasidir. Uni qo'llaganda dispepsik buzilishlar, allergik reaksiyalar, kandidamikoz rivojlanishi mumkin. Neomisinni ko'pincha mahalliy qo'llaniladi. Uni infeksiya tushgan yaralar, ko'pincha teri xastaliklari (piodermiya va boshqalar), ko'z xastaliklari (masalan, konyuktivitlar)ni davolashda qo'llashadi. Jarohatlanmagan teri va shilliq qavatlar yuzasidan juda kam so'rildi. Neomisinni ko'p hollarda glyukokortikoidlar bilan birgalikda qo'llashadi (masalan: sinaflan yoki flumetazon pivalat)¹. Bunda mikroblarga qarshi ta'sir yallig'lanishga qarshi ta'sir bilan uyg'unlashadi.



Neomisin buyrak (peshobda oqsil paydo bo'ladi) va eshitish nervi (qulog'ni shang'illashi kuzatilib karlik rivojlanadi)ga yuqori zaharlilikka ega bo'lganligidan parenteral qo'llanilmaydi. Bundan tashqari neomisin kuraresimon faollikka ega (nafasni susaytirish) xatto to'xtatish mumkin. Buyrak va eshituv nervi xastaliklarida neomisinni qo'llash man etiladi.

Gentamisinni – micromonospora purpurea M.echinospora hosil qildi. Gendamisin sulfat (garamisin) shaklda chiqariladi. Gram musbat va gram mansiy bakteriyalarni qamrab oluvchi keng ta'sir spektriga ega. Amaliy nuqtai nazardan uning kork yiring tayoqchasi, protey ichak tayoqchasi hamda benzilpenisilinga chidamlilik ortganda stafilokokklarga ta'siri katta qiziqish uyg'otadi. Gentamisinga chidamlilik sekin rivojlanadi.

Me'da-ichak traktidsa preparat to'liq so'rilmaganligidan preparatni sistemali ta'sirini yuzaga chiqarish uchun uni mushak ichiga kiritiladi. Bunda qon zardobida gentamisin va 60 daqiqada keyin maksimal miqdorda to'planadi. Mikroblarga qarshi konsentrasiyasi ortganda 8-12 soat mobaynida saqlanadi. Odatdag'i sharoitda gentamisin gematoensefalik baryerdan o'tmaydi. Meningitda orqa miya suyuqligida uncha katta bo'limgan konsentrasiyasi aniqlanadi. Buyrak orqali asosan o'zgarmagan holda chiqariladi. Gentamisin asosan, grammansiy bakteriyalar qo'zg'atgan kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Preparat ayniqsa, peshob yo'llari infeksiyalari, sepsis, yaralar infeksiyasi, kuyishda ahamiyatlidir. Mushak ichiga yoki mahalliy qo'llaniladi. Gentamisin neomisinga nisbatan kam zaharli. Ammo aminoglikazidlarga xos bo'lgan asosiy noxush ta'sirlar gentamisinni ham qo'llaganda rivijlanadi. Ulardan biri ototoksik ta'sirdir. Gentamisin asosan VIII bosh miya nervining vestibulyar tarmog'ini karaxtlaydi. Shu tufayli eshitish qobiliyatini buzilishi kamroq bo'ladi. Nefrotoksik ta'siri ham neomisinga nisbatan kamroq. Kuraresimon xossaga ega.

Aminoglikozidlar guruhiга tobramisin (brulamisin) ham kiradi. Str. tenebrarius ishlab chiqaradi. Keng ta'sir spektriga ega. Ko'k yiring tayoqchasiga qarshi kuchli faollikka ega. Bir marta kiritilgandan keyin antimikrob konseentratsiyasi 6-8 soat mobaynida saqlanadi. Preparatni tomirga va mushaklarga kiritiladi. Asosan, buyrak orqali ajratiladi. Qo'llashga ko'rsatmalar preparatni ta'sir spektridan kelib chiqadi. Gentamisinga o'xshash nefro- va ototoksiklikga ega bo'lsa ham ularning dozasi gentamisinga nisbatan kamroq.

Aminoglikozidlar guruhiga mansub ba'zi antibiotiklarning kimyoviy tuzilishi



Aminoglikozidlarga sizomisin antibioticki ham mansub. Micromonospora inyoensis hosil qiladi. Gentamisinga o'xshab keng antimikrob ta'sir spektriga ega. Proteyning har xil turlari ko'k yiring tayoqchasi, klebsiellalar, enterobakteriyaga ta'siri gentamisinga nisbatan kuchliroq. Sizomisinga chidamlilik sekin rivojlanadi. Bunda aminoglikozidlarga chaparasta chidamlilik ham rivojlanadi.

Me'da-ichak traktidan preparat yomon so'rigan uchun uni mushakga va tomirga kirtildi. 25% gacha qon zardobi oqsillari bilan bog'lanadi. Klinik sharoitda preparatni xar 8 soatda kritiladi. Qo'llashga ko'rsatmalar va nojo'ya ta'sirlar gentamisinga o'xshash.

Amikasin (amikin)¹ eng samarador aminoglikozidlardan hisoblanadi. U kanamisining hosilasi hisoblanadi. Bareha aminoglikozidlar ichida eng katta ta'sir spektriga ega bo'lib, gramm manfiy aerob bakteriyalar (shu jumladan ko'k yiring tayoqchasi, protey, klebsella, ichak tayoqchasi) va sil mikobakteriyasini qamrab olgan. Ko'pincha gramm musbat anaerob bakteryalarga ta'sir ko'rsatmaydi.

Ko'pgina bakteriyalarning aminoglikozidlarni faolsizlantiruvchi fermentlari ta'siriga chidamlili. Ototoksik va nefrotoksik ta'siriga ega. Amikasin mushak va tomir ichiga kiritiladi.

SIKLIK POLIPEPTIDLAR (POLIMIKSINLAR VA BOSHQALAR)

Kimyoviy tuzilishi jihatdan polimiksinlar siklik polipeptidlardan guruhini tashkil etadi. MDH davlatlarida Bas. polymyxal Ross² polimiksin M sulfat ko'rinishida qo'llaniladi.

Polimiksin M sulfatni antimikrob ta'siri asosan gramm mansiy bakteriyalarga; ko'k yiring tayoqchasi, ichak bakteriyalar oilasi (ichak tayoqchasi, shigellalar, solmanellalar) hamda kapsulali bakteriyalar, pasterellalar va brutselyozlar, inflyuens tayoqchasiiga qaratilgan. Patogen koklar, protey, patogen anaerobler, kislotaga chidamli mikobakteriyalar, disteriya tayoqchasi va boshqa qo'zg'atuvchilar polimiksin M ga chidamlidirlar.

Mikroblarga qarshi ta'sir mexanizmi polimiksin M ni sitoplazmatik membranani jarohatlash bilan bog'liq. Uning o'tkazuvchanligini buzib polimiksin M sitoplazmani ko'gina tarkibiy qismlarini atrof muhitga chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Bakteriosid ta'sir bakteriyalarning tinch holatida ham, ko'payishi va o'sishi holatida ham namoyon bo'ladi. Polimiksin M faqat hujayra tashqarisida joylashgan mikroblargagina ta'sir etadi. Chidamliligi, sekin rivojlanishi Polimiksin M ning shubhasiz, afzalligi hisoblanadi.

Polimiksin M ni ichish (ichakda preparat kata konsentrasiyada to'planadi, me'da ichak traktida yomon so'rildi) va mahalliy qo'llash tavsiya etiladi. U parenteral qo'llanilmaydi. Chunki bu yo'l bilan qo'llanilsa kuchli darajada neyro-parenteral qo'llanilmaydi. Preparatni ko'k yiring tayoqchasi, ichak va nefrotonik ta'sir yuzaga chiqadi. Preparatni ko'k yiring tayoqchasi, ichak tayoqchasi shgellalar qo'zg'atgan enterokolitlar hamda operasiyadan oldin ichakni sanasiya qilish uchun qo'llaniladi. Polimiksin M mahalliy, unga sezgirligi yuqori bo'lgan mikroorganizmlar (asosan gramm mansiy mikroblarga shu jumladan ko'k yiring tayoqchasi) rivojlangan ta'sirida yiringli jarayonlarini davolashda samaradordir. Polimiksin M ni enteral va mahalliy qo'llanilganda noxush ta'sirlar kamdan-kam rivojlanadi.

Ichilganda preparatni mahalliy ta'sirovchi xossasi bo'lganligidan dispeptik o'zgarishlar ko'rsatishi mumkin. Ba'zan superinfeksiya rivojlanadi. Allergik reaksiyalar amaliy jihatdan kuzatilmaydi.

Polimiksin M sulfatni qo'llash mumkin bo'limgan holat sifatida buyraklar xastaliklari hisoblanadi.

Antibiotikni kuchli neyrotoksiq ta'sirini inobatga olib, uni hattoki, enteral yoki mahalliy qo'llaganda ham buyraklarlar funksiyasini muntazam nazorat qilish zarur.

Yangi antibiotik gentamisin kimyoviy tuzilishi bo'yicha polimiksinni eslatadi. Siklik lipopeptidlarga mansub. *Streptomyces roseasporus* fermentasiyalanish mahsulotlaridan olinuvchi yarim sintetik antibiotik hisoblanadi. Bakteriyalarning sitoplazmatik membranalari bilan bog'lanadi, ularni nobud bo'lishiga olib keladi. Gramm mansiy va gramm musbat bakteriyalarga bakteriosid ta'sir etish xossasiga ega. Anaerob bakteriyalarga juda kam ta'sir ko'rsatadi. Nojo'ya ta'sirlar sifatida ko'ngil aynish, qayt qilish, mushaklarda og'riq, miopatiya va boshqalar yuzaga kelishi mumkin. Tomirga kiritiladi. Boshqa antimikrob vositalar samarasiz bo'lganda qo'llaniladi.

LINKOZAMIDLAR

Ushbu guruhga klindomisin mansub. U bakteriyalarda oqsil sintezini susaytiradi, odatda, bakteriostatik ta'sir ko'rsatadi. Asosan anaeroblar (*Vacteroides fragilis* va boshqalar) streptakoklar va stafilakoklarga qarshi faoldir. Ichakdan yaxshi so'rildi. Gematoensefalitik to'siqdan yomon o'tadi. Jigarda metabolizmga uchraydi. Buyrak orgali va safro tarkibida ajraladi.

Asosan bakteroidlar qo'zg'atgan infeksiyalar ayniqsa *Vacteroides fragilis* bilan qorin bo'shlig'ining jarohatlanishida qo'llaniladi.

Eng hafli noxush ta'siri bu psevdOMEMBRANOZ kolit (shilliq va qon aralash ajratmalardan iborat diareya rivojlanadi va qorinda og'riq, isitmalash) hisoblanadi. Bu ichakda bo'lishi mumkin bo'lgan *Clostridium difficile* toksini bilan bog'liq disbakteriozning bir ko'rinishidir. Ushbu asoratni vankomisin va metronidazol bilan davolanadi. Kamdan-kam hollarda allergik reaksiyalar, jigarning jarohatlanishi, leykopeniya kuzatiladi.

GLIKOPEPTIDLAR

Ushbu guruhning asosiy preparati murakkab glikopeptid bo'lgan vankomisindir. Uni *Streptomyces orientalis* aktinomiseti hosil qiladi. Bakteriyalar

hujayra devori sintezini buzadi va bakteriosid ta'sir ko'rsatadi. Grammusbat kokklar shu jumladan, metasillinga chidamlilik orttirgan, β -laktamaza hosil qiluvchi stafilokokklarga qarshi yuqori faoliyetta ega klostridiyalarga shu jumladan, *Clostridium difficile* hamda korinobakteriyalarga ta'sir ko'rsatadi. Me'da-ichak traktidan yomon so'rildi. Agarda sistemali ta'sir lozim bo'lsa, preparatni tomirga kiritiladi. Gematoensefalitik baryerdan, ayniqsa meningitda o'tadi.

Vankomisin grammusbat, penisillinga chidamlilik orttirgan kokklar qo'zg'otgan infeksiyalarda, enterokolitlarda, shu jumladan psevdomenbranoz kolitlarda qo'llaniladi. Preparat zaharlilikka ega ekanligi uni qo'llashni cheklaydi. U ototoksik va nefrotoksik ta'sirga ega. Nlebitlar rivojlantirishi mumkin. Kamdan-kam hollarda allergik reaksiyalar, neyopeniya, trombositopeniya rivojlanadi.

Bundan tashqari, vankomisin sitoplazmatik membrana o'tkazuvchanligiga va RNK sinteziga ta'sir ko'rsatishi haqidagi malumotlar mavjud.

Bu guruhg'a teykoplanin antibiotigi ham kiradi. Nossalari bo'yicha vankomisinga oxshash. Davomli ta'sir etadi. Bir kunda bir marta mushak yoki tomirga kiritiladi.

FUZIDIEV KISLOTA

Bu ta'sir spektri tor antibiotikdir. Natriyli tuz ko'rinishida qo'llanadi. Asosan grammusbat bakteriyalarga ta'sir ko'rsatadi. Bakteriyalarda oqsil sintezini grammusbat bakteriyalarga ta'sir ko'rsatadi. Bakteriyalarda oqsil sintezini susaytiradi. Bakteriostatik ta'sir etadi. Enteral kiritilganda yaxshi so'rildi. Katta miqdorda suyak to'qimasida to'planadi. Jigarda metabolizmiga uchraydi. Safro tarkibida ajraladi. Penisillinga chidamlilik orttirgan, stafilokoklli infeksiyalarda, ayniqsa, osteomielitlarda qo'llaniladi. Dispepsiya, sariqlik, terida toshmalar kabi noxush ta'sirlarga ega.

MAHALLIY QO'LLANADIGAN ANTIBIOTIKLAR

Mahalliy ta'sir etuvchi antibiotik sisatida antimikrob va yallig'lanishga qarshi xossalarga ega bo'lgan fuuzafyunjin (bioparoks) taklif etilgan. Zamburug'larning maxsus *Fusarium lateritium* WR shtami ishlab chiqaradi.

Kimyoviy tuzilishi bo'yicha peptidlarga mansub. Preparat ingalyasiya uchun aerozol shaklida ishlab chiqariladi. U ko'pgina kokklar, ba'zi anaerob

mikoplazmalar. *Candida* oиласига мансуб замбуруғларга саларадор та'сир ко'рсаатди. Ҳалқум ва нифас ўйларининг инфексиyalарда қо'llашга тавсиya etilgan. Noxush та'сир сифатида ба'zan mahalliy shikastloveli та'siri кузатилади.

Mupirosin (baktroban) antibiotigi ham mahalliy қо'llashga тавсиya etilgan. *Pseudomonas fluorescens* хосил қилиди. Оqsil sintezini то'xtatadi. Кичик концентрацияларда бактериостатик, кетталарада esa бактериосид та'сир этади. Shikastlanmagan теридан жуда паст даражада (0,25-0,3%) со'ррилади. Тері ва буруннинг шиллиқ qavatlarni стафилококклар (шу жумладан, метасиллинга chidamlilik orttirgan) ва β-гемолитик стрептококклар билан jarohatlanishida суртма сифатида қо'llанилади.

Preparatlar

| Nomi | Kattalar uchun o'rtacha terapevtik dozasi. Kiritish yo'llari | Chiqarilish shakli |
|--|--|--|
| 1 | 2 | 3 |
| Benzilpenisillining natriyli tuzi – Benzylpenicillinum sodium | Mushakka, томирга аста-секин, томичилаб, endolyumbal; ингалиясиya uchun; ко'з, улоq va burunga томизиш uchun 1 ml еритмада 10000-100000 TB, тана бо'shtiqlariga киритиш uchun 1 mld 20000 TB bo'lган еритмалар | Flakonlarda 250000, 500000 va 1000000 TB |
| Benzilpenisillining kaliyli tuzi – Benzylpenicillinum potassium | Mushakka 250000-500000 TB, 1 mld 10000-100000 TB bo'lган еритма mahalliy қо'llash uchun | 250000, 500000 va 1000000 TB tutgan flakonlar |
| Benzilpenisillining novokainli tuzi – Benzylpenicillinum novocainum | Mushakka 300000 TB | 300000, 600000 va 1200000 TB tutgan flakonlar |
| Bisillin – 1 Bicillinum - 1 | Mushakka 300000-600000 TB dan 1 haftada 1 марта yoki 1200000-2400000 TB dan 2 haftada 1 марта | 300000, 600000, 1200000 va 2400000 TB tutgan flakonlar |
| Bisillin – 5 Bicillinum - 5 | Mushakka 1500000 TB 4 haftada 1 марта | 1500000 TB tutgan flakonlar |
| Fenoksimetilpenisillin- | 0,25 g dan ichish uchun | 0,1 va 0,25 g tabletkalar |

| | | |
|--|---|---|
| Phenoxyethylpenicillin | | 0,1 g dan drajeler |
| Oksasillin natriyli tuzi – Oxacillimum sodium | Mushakka, tomirga va ichish uchun 0,25- 0,5 g | 0,25 va 0,5 g dan tabletalar, 0,25 g dan kapsulalar, 0,25 va 0,5 g tutgan flakonlar |
| Ampisillin– Ampicillinum | Ichishga 0,5 g | 0,25 g tutgan tabletka va kapsulalar |
| Karbenisillin ikki natriy tuzi – Carbencillimum dinatrisum | Mushakka 1-1,5 g, tomirga 4-5 g | 1 g tutgan flakonlar |
| Azlosillin – Azlocillin | Mushak va tomirga 5 g dan | Mushakka kiritish uchun 0,5, 1 va 2 g tutgan flakon, tomirga kiritish uchun 4, 5 va 10 g tutgan flakonlar |
| Sefalotin natriyli tuzi – Cefalotinum sodium | Mushakka va tomirga 4-5 g dan | 1 g tutgan flakonlar |
| Sefaleksin – Cefalexinum | Ichishga 0,25-0,5 g | 0,25 g dan kapsulalar 0,5 g dan tabletalar |
| Sefaklor – Cefaclor | Ichishga 0,25 g dan | 0,25 va 0,5 g tutgan kapsulalar |
| Sefatoksin – Cefatoxin | Mushak va tomirga 0,5-1 g | 0,5, 1 va 2 g tutgan flakonlar |
| Sefoksitin – Cefoxitin | Mushak va tomirga 1-2 g | 1 va 2 g liofilizsiyalangan kukun tutgan flakonlar |
| Eritromisin– Erythromycinum | Ichishga 0,1-0,25 g, kon'yunktiva bo'shlig'iga qo'yish uchun 1% surtma | 0,1 va 0,25 g tabletka, 1 g da 0,01 g n-t tutgan surtma |
| Oleandomisin– Oleandomycinum | Ichishga 0,25 dan | 0,125 tutgan ust qoplangan tabletalar |
| Roksitromisin– Roxithromycinum | Ichishga 0,15 dan | 0,15 tutgan tabletalar |


| | | |
|---|--|--|
| Azitromisin- Azithromycinum | Ichishga 0,25-0,5 dan | 0,125 va 0,25 tutgan kapsulalar, 0,5 tutgan tabletkalar |
| Imipenem – Imipenem | Tomirga 2 g | |
| Aztreonam – Aztreonam | 0,5-1 va 2 g dan tomirga va mushakka | 0,5 va 1 g tutgan flakon |
| Tetrasiklin- Tetracyclinum | Ichishga 0,2-0,25 g, kon'yunktiva bo'shilg'iga 1% surtma | 0,05, 0,1 va 0,25 g tutgan ustı qoplangan tabletkalar, 1 g da 0,01 g preparat tutgan surtma |
| Metasiklin gpdroxlorid- Methacyclini hydrochloridum | Ichishga 0,3 g | 0,15 va 0,3 g tutgan kapsulalar |
| Levomisetin- Laevomyeetinum | Ichishga 0,25-0,5 g, 1-10% liniment, kon'yunktiva bo'shilg'iga 0,25% eritma va 1% liniment | 0,25 va 0,5 g tabletkalar |
| Sintomisin- Synthomycinum | 1-10% liniment sirtga, qin ichiga 0,25 g | 1-5% va 10% liniment, 0,25 g dan vaginal suppozitoriyalar |
| Streptomisin sulfat – Streptomycini sulfas | 0,5 g mushakka | 0,25, 0,5 v 1 g tutgan flakonlar |
| Neomisin sulfat – Neomycini sulfas | 0,1-0,2 g ichishga; 0,5% eritma sirtga; 0,5% va 2% surtma | 0,1 va 0,25 g tutgan tabletkalar, 0,5 g tutgan flakonlar, 0,5% va 2% surtmalar (15 va 30 t tubalarda) |
| Amikasin sulfat – Amicacini sulfas | Mushakka va tomirga 0,5 g | 0,1; 0,25 va 0,5 g tutgan flakonlar |
| Gentamisin sulfat – Gentamycini sulfas | Mushakka va tomirga 0,0004 g/kg, 0,1% surtma yoki ko'zga 0,3% eritma, krem | 0,08 g tutgan flakon ampulalarda 1-2 ml 4% eritma, 0,1% surtmalar, 10 va 15 t tutgan tyubalar, 0,3% eritmalar (ko'zga) |

| | | |
|--|---|---|
| Polimiksin M sulfat – Polymixini M sulfas | Ichishga 500000 TB, 1 g da 10000 TB tutgan liniment sırtga, 1 ml da 10000- 20000 TB tutgan eritma | 500000 va 1000000 TB tutgan flakonlar, 500000 TB tutgan tabletkalar, 1 g da 10000 TB polimiksin tutgan 30 g li tubalarda liniment |
|--|---|---|

SULFANILAMID PREPARATLAR

Sulfanilamidlar tabobat amaliyotida qo'llanila boshlagan, ta'sir spektri keng bo'lган antibakterial ximioterapevtik vositalarning birinchisi bo'lgan. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha ular sulfanilamidlarning (sulfanil kislotasining amidi) hosilalaridir.

Sulfanilamidning kimyoviy tuzilishi:



Eng samarador, davomli ta'sir etuvechi va kam zahar sulfanilamidlarni yaratish, amid guruhidagi (N^1) vodorod atomi o'rmini almashtirishga asoslangan. Antimikrob ta'sirning yuzaga chiqishi uchun para holatda joylashgan erkin amino guruh ($-N^4H_2$) bo'lishi shart. Shu sababli N^4 dagi vodorod atomining o'rin almashtirilishi kamdan-kam hollarda qo'llaniladi. Bunday o'ilish mumkin agar organizmda radikal ajralib aminogruppa erkin holatga kelsa (masalan stalazolda). Qo'shimcha radikalni benzol halqasiga kiritish birikmalarni faolligini kamaytiradi.

Sulfanilamidlar quyidagi guruhlarda namoyon etilishi mumkin:

I Rezorbtiv ta'sir uchun qo'llaniladigan preparatlar (me'da-ichak traktidan yaxshi so'rildiganlar

A. Ta'sir davomligi o'rtacha bo'lganlar (4-6 soat)

Sulfadimizin, etazol, sulfazin, urasulfan

B. Ta'siri davomli bo'lganlar (12-24 soat)

Sulfapiridazin, sulfadimetoksin

V. Ta'siri juda davomli bo'lganlar (2 kundan ko'proq)

Sulfalen

II Ta'siri ichak ichida namoyon bo'ladigan preparatlar (me'da-ichak traktidan yomon so'rila'diganlar)

Ftalazol

III Mahalliy qo'llaniladigan preparatlar.

Sulfasil-natriy, sulfazinni kumushli tuzi

Sulfanilmidlarni ta'sir spektri anchagina katta. U quyidagi yuqumli xastaliklar qo'zg'atuvchilarini qamrab olgan:

1) Bakteriyalar – patogen kokklar (grammusbat va grammansiy), ichak tayoqchasi, ichburug' qo'zg'atuvchisi (shigellalar) vabo vibrioni, gazli gangrena (klostridiylar), kuydirgi, bo'g'ma, kataral zotiljam, inflyuenslar qo'zg'atuvchisi;

2) Xlamidiyalar – traxomalar, ornitoz, chov limfogranulomasining qo'zg'atuvchilari;


3) aktinomisetlar;

4) sodda jonivorlar – toksoplazmoz, bezgak qo'zg'atuvchilari;

Sulfanilamidlar ayniqsa, pnevmakokklar, meningakokklar, gonokokklar, gemolitik streptokokklarning ba'zi tiplari hamda bakterial ichburug'ga qarshi faol guruhlar. Sulfanilamidlarni antimikrob ta'sir mexanizimi paraaminobenzoy kislotasi bilan raqabotdosh antagonizm bilan bog'liqidir. Ma'lumki ko'pgina mikroorganizmlar tarkibida para-aminobenzoy kislotasi bo'lgan digidrofoliev kislotasini sintezlaydilar. Inson to'qimalarida bunday jarayon bo'lmaydi chunki ular tayyor digidro foliev kislotasini ishlata dilar.

Ana shu holat sulfanilamidlarni tanlab ta'sir yetishini izohlaydi. Kimyoviy tuzilishi jihatidan para-aminobenzoat kislotaga o'xshaganligidan, sulfanilamidlar uni digidrofoliev kislotasi tarkibiga kirishiga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, ular digidropteroat sintetaza raqobat asosida faolligini susaytiradilar. Digidro-foliev kislotasini sintezlanishni buzilishini undan purin va pirimidin asoslarini yaratishida zarur bo'lgan tetragidrofoliev kislotasini hosil bo'lishini kamaytiradi (I-chizma).

I-chizma.



Sulfanilamidlar va trimetoprin ta'sir yetishi.

Natijasida nuklein kislotalarini sintezi susayadi va shu sababdan mikroorganizmlarni ko'payish va rivojlanishi to'xtaydi

(bakteriostatik ta'sir). Davomli qo'llanganda mikroorganizmlarni sulfanilamidlarga chidamliligi asta-sekin rivojlanadi. Buning sababi mikroorganizmlarda digidrofoliev kislotasini sintezini jadallashi bilan bog'liqdir, degan taxmin mavjud. SHuni yodda tutish lozimki, bunda chidamlilik barcha sulfanilamidlarga rivojlanadi(ya'ni chaparasta turg'unlik).


REZORBTIV TA'SIR UCHUN QO'LLANILADIGAN

SULFANILAMIDLAR








Bu guruh preparatlari me'da-iehak traktidan tez va to'liq so'rildilar. Qon tarkibidagi albuminlar bilan sulfanilamidlар qisman bog'lanadilar. Barcha to'qimalarda taqsimlanadilar shu jumladan, gematoensefalitik to'siq, yo'ldoshdan o'tadilar. Tanadagi seroz bo'shliqlarda yig'iladilar. Organizmda sulfanilamidlarni asosiy o'zgarish yo'li bu asetilin (N^3) bo'lib, u jigarda kechadi. Bunda hosil bo'ladicidan birikmalarning antibakterial faolligi bo'lmaydi. Ba'zi asetillangan hosilalar sulfanilamidlarga nisbatan yomonroq eriydilar va peshobda kristallar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi (kristalluriya). Har-xil preparatlarni asetillanish formasiga turlicha. Urosulfan, sulfasil-natriy, etazol eng kam asetillanadi. Sulfanilamidlар va ularning metabolitlari asosan buyrak orqali filtrasiyalanib ajratiladi. Sulfanilamidlarning ba'zilari reabsorbsiyaga uchraydi. Juda oz miqdorda iehak, ter va so'lak beziali orqali ajratiladi. Rezorbтив ta'siri uchun qo'llaniladigan

sulfanilamidlar antibakterial ta'sirning davomiyligi bilan ajratilgan. Ta'sir davomiyligi o'rtacha preparatlardan yaxshi so'rildilar va nisbatan tez ajratiladilar. **Enteral kiritilgandan** keyin qon zardobida ularning maksimal konsentrasiyalari 2-3 soatdan keyin hosil bo'ladi. Bakteriostatik konsentrasiyasi saqlanib turishi uchun ularni har 4-6 soatda beriladi. Ta'sir davomligi o'rtacha bo'lgan sulfanilamidlardan sulfadimezin (sulfametazin), etazol (sulfaetiltiodiazol), sulfazin (sulfadiazin), urosulfan (sulfokarbamid) eng ko'p qo'llaniladi. Bu guruhga streptosid (oq streptosid, sulfanilamid) ham mansub. Ammo hozirgi vaqtida streptosid deyarli qo'llanilmaydi, chunki u kuchsiz va boshqa sulfanilamidlarga nisbatan ko'proq noxush ta'sirlar chaqiradi. Davomli ta'sirga ega bo'lgan preparatlarga sulfapiridazin (sulfometoksipiridazin, spofadazin) va sulfadimetoksin (madribon, madroksin).

Digidrofoliev kislotasining kimyoiy tuzilishi



Ba'zi sulfanilamidlarning kimyoiy tuzilishi. Ular me'da ichak traktidan



zardobi oqsilari bilan yuqori darajada bog'lanishi ham ahamiyatli bo'lса kerak (masalan, sulfapiridazinning 85% bog'lanadi).

Shunday qilib, davomli ta'sir etuvechi preparatlar qo'llanganda organizmda muddaning turg'un konsentrasiyasi hosil bo'ladi. Ushbu holat antibakterial terapiya o'tkazilganda preparatlarni shubhasiz ustunligidir. Ammo noxush ta'sirlar rivojlansa, ta'sirning davomligi salbiy o'rин tutadi. Chunki preparatni qabul qilish to'xtatilgandan keyin ham uning ta'sirini to'xtatish uchun bir necha kun kerak bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki sulfapiridazin va sulfadimetoksining konsentrasiyasi orqa miya suyuqligida yuqori bo'lmaydi (qondagi konsentrasiyasining 5-10%). Ana shu bilan ular likvorda anchagina katta konsentrasiyada to'planadigan (qonda konsentrasiyasi 50-80%) davomligi o'rtacha bo'lgan preparatlardan farq qiladilar. Sulfapiridazin va sulfadimetoksinni kuniga 1-2 marta beriladi. Sulfalen ta'siri juda davomli bo'lgan preparatlar hisoblanadi. Uning (kelfizin, sulfametoksi-piridazin) bakteriostatik konsentrasiyasi organizmda 1 haftagacha saqlanadi. Mikroblarga qarshi faolligi bo'yicha sulfanilamidlar antibiotiklarga nisbatan anchea kuchsiz bo'lganliklari uchun ularni qo'llash doirasi cheklangan. Ularni asosan antibiotiklarni

yarxhi so'rildilar va sekin ajraladilar. Qon tarkibida ularning maksimal konsentrasiyasi 3-6 soatdan keyin aniqlanadi. Organda preparatlarning bakteriostatik konsentrasiyasini uzoq vaqt saqlanishi ularni buyraklarda samaradorli reabsorbsiyasi bilan bog'liq bo'lса kerak. Bunda qon

ko'tarolmaslik yoki ularga ko'nikish rivojlanganda qo'llaniladi. Tez-tez sulfanilamidlarni ba'zi antibiotiklar bilan birgalikda qo'llaniladi (kombinasiya).

Rezorbtiv ta'sirga ega bo'lgan sulfanilamidlarni¹ kokklar qo'zg'atgan infeksiyalarda ayniqsa meningokokkli meningitda, nafas a'zolari xastaliklariда peshob va safro ajratish yo'lining infeksiyalari va boshqalarda qo'llaniladi. Peshob yo'llari infeksiyalarini davolashda (pielonefrit, pielit, sistit) ayniqsa buyrak orqali asosan o'zgarmagan holda tez ajraluvchi urosulfan qo'llash ko'rsatilgan. Bunda peshobda uni yuqori konsentrasiyalari hosil bo'ladi. Buyrak funksiyasiga urosulfan amaliy jihatdan salbiy ta'sir etmaydi. Davomli ta'sir etuvchi preparatlarni surunkali infeksiyalar va infeksiyalarni oldini olish uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. Sulfanilamidlар rezorbtiv ta'sirida ko'p noxush ta'sirlarni yuzaga keltiradi. Jumladan, ularni qo'llaganda dispepsiya, bosh og'riq, holsizlik, MNS tomonidan o'zgarishlar, qon sistemyasi shikastlanishi (gemolitikanemiya, trombositopeniya, metgemoglobin hosil bo'lishi). Kristalluriya rivojlanishi mumkin. Buyraklarda kristallarni cho'kmaga tushish ehtimoloni ko'p miqdorda suyuqlik, ayniqsa-ishqoriy, chunki kislotali muhit sulfanilamidlarni va ularning asetillangan unumlarini cho'kmaga tushish imkoniyatini yaratadi kiritish bilan kamaytirish mumkin.

Allergik reaksiyalar nisbatan juda kam bo'ladi, shunga qaramay ba'zan ular rivojlanadi va ularning darajasi har xil bo'lishi mumkin. Terida toshmalar, isitmalash, ba'zan gepatit, agranulositoz, aplasticheskaya anemiya kuzatiladi. Anamnezda sulfanilamidlarga allergik reaksiyalar bo'lganligi ularni qayta qo'llash mumkin emasligiga asos bo'ladi.

ICHAK ICHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SULFANILAMIDLAR

Ushbu preparatlarni asosiy farqi ularni me'da-ichak traktidan so'riliishi yomon bo'lganligidan ichakda yuqori konsentrasiya hosil qilishlaridir. Ftalazol eng ko'p qo'llaniladi. Ichakdan preparatni juda kam miqdorda so'riliadi. Peshobda kiritilgan moddaning o'zgarmagan holda faqat 5% ajraladi, ftalazolning antimikrob ta'siri undan ftol kislotasini (N^3 -dan) ajralib chiqishi va erkin aminoguruhn bo'lib qolishidan so'ng rivojlanadi. Buning natijasida ajralib chiqqan norsulfazol ta'sir

ko'rsatadi. Ftalazolni ichak infeksiyalari - basillyar dizenteriya enterokolit, kolit, operasiyadan keyingi davrda ichak infeksiyasini oldini olish uchun qo'llaniladi. Ushbu xastaliklarda mikroorganizmlar nafaqat ichak ichida, balki ichak devorida joylashishini inobatga olib, ftalazolni ichakdan yaxshi so'rildigan sulfanilamidlar – sulfadimezin, etazol va boshqalar bilan birga qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ftalazolni tez-tez antibiotiklar bilan (masalan, tetrasiklin bilan) birga qo'llaniladi. Uni har 4-6 soatda ichiladi. Ftalazolni bemorlar yaxshi qabul qiladilar. Zaharliligi past.

Tuzilishida sulfanilamidlar va salisilat kislotasining qoldiqlarini tutgan preparatlar yaratilgan – salazosulfapiridin (sulfasalazin), salazopiridazin (salazodin).

Ftalazolni V guruhi vitaminlar bilan birgalikda qo'llash ma'qul. Chunki ftalazol ana shu vitaminlar sintezida qatnashuvchi ichak tayoqchasini rivojlanishi va ko'payishini to'xtatadi. Ichak infeksiyalarini davolashda yomon so'rildigan sulgin (sulfaguanizin), ftazin kabi bir qator boshqa preparatlar ham qo'llaniladi.

MAHALLIY QO'LLANILADIGAN SULFANILAMIDLAR

Ko'z infeksiyalarini davolash va oldini olishda sulfanilamidlar mahalliy qo'llaniladi. Ushbu maqsadda ko'proq suvdagi eruvchi sulfasil-natriyni qo'llashadi. U kerakliha samarador va mahalliy ta'sirlash xossasiga ega emas. Uni chaqaloqlar va katta yoshdagilar ko'zini so'zak bilan jarohatlanishini davolash va oldini olish uchun, konyunktivit, blefarit': shoh qavatini yaralari (yazvalarda) va boshqalarda qo'llaniladi. Sulfanilamidlarni yara infeksiyalarida ham qo'llash mumkin (odatda, yara ustiga sepiлади). Bunda yiring, yara ajratmalarini nekrotik massalar, tarkibida ko'p miqdorda paraaminobenzoy kislotasi mavjudligi tusayli sulfanilamidlar kam yoki umuman samarasiz bo'lishini e'tiborga olish lozim. Ularni yaralarga birlamchi ishlov bergach yoki "toza" yaralarda ishlatalish kerak. Molekulasida kumush atomi bo'lgan sulfazinnning kumushli tuzi sintezlangan. Preparat saqat kuygan yaralarga mahalliy qo'llaniladi. Preparatdan ajralgan kumush sulfazinni antimikrob ta'siri ni kuchaytiradi hamda yarani bitishiga imkon yaratadi. "Sulfargin" surtimasi tarkibiga kiradi

TRIMETOPRIN BILAN KOMBINASIYALANGAN SULFANILAMID PREPARATLARI

Sulfanilamidlarning degidrofolat reduktaza faolligi susaytirishi hisobiga degidrofolat kislotasini tetragidrofol kislotasiga o'tishini bloklovchi preparatlar bilan birga qo'llash qiziqish uyg'otadi. Trimetoprin ana shunday moddalarga mansub.

Shunday kombinasiyaning nuklein kislotalarini prekurzorlari biosintezini ikki har xil bosqichda susaytiruvchi ta'sirini yuzaga chiqishi antimikrob faolligini salmoqli darajada oshiradi va bakteriosid ta'sir yuzaga keladi.

Sulfanilamidlar va trimetoprin ta'siri yo'nalishi I-chizmada keltirilgan. Trimetoprin va sulfometoksazol tutgan preparat baktrim (biseptol, kotrimoksazol, septrin) preparati ishlab chiqarilgan. U yuqori antibakterial faollikkha ega. Bakteriosid ta'sir ko'rsatadi. MIT dan yaxshi so'rildi. Qon zardobida maksimal konsentrasiyasi 3 soatdan keyin aniqlanadi. Ta'siri 6-8 soat davom etadi. Baktrim tarkibiy qismlarining ikkalasi ham buyrak orqali ajratiladi. Baktrimni qo'llaganda turli xil noxush ta'sir rivojlanadi. Ko'proq dispepsiya (ko'ngil aynishi, qayt qilish, anoreksiya, diareya) va allergik reaksiyalar (terida eritematoz toshma, eshak emi, qichishish) kuzatiladi. Qon hosil bo'lismeni susayishi (leykopeniya, agronulasitoz, trombositopeniya, metablastik anemiya va boshqalar) rivojlanishi mumkin. Ba'zan jigar, buyrak funksiyasini buzishi mumkin. Superinfeksiya (og'iz bo'shilig'i kandidomikozi) holatlari kuzatilgan. Baktrimni davomli qo'llaganda periferik qon tarkibini nazorat qilish darkor. Jigar, buyrak funksiyalarini va qon hosil bo'lismeni kuchli darajada buzilish holatlarda baktrimni qo'llash taqiqilanadi.

Qovoq chetlarini yallig'anishi. Grekchadan blepharon – qovoq.

Homiladorlar va 6 yoshgacha bo'lgan bolalarda uni qo'llash mumkin emas. Lidaprim (sulfametrol+trimetoprim), sulfaton (sulfamonometoksin + trimetoprim) hamda potesep til (sulfadimezin+trimetoprim) baktrimga o'xshash preparatlardan hisoblanadi. Ularni qo'llashdagi ko'rsatmalar, noxush ta'sirlari va qo'llash mumkin bo'lmagan holatlар baktrimnikidek.

Preparatlar


| Nomi | Kattalar uchun o'rtacha terapeutik doza, kiritish yo'li | Chiqarish shakli |
|--|---|--|
| Sulfadimezin – <i>Sulfadimezum</i> | Ichishga 1 g | Tabl.0,25 va 0,5 g dan |
| Etazol – <i>Aethazolum</i> | Ichishga 1 g | Tabl.0,25 va 0,5 g dan |
| Urosulfan – <i>Urosulfamum</i> | Ichishga 0,5-1 g | Tabl. 0,5 g dan |
| Sulfapiridazin – <i>Sulfapyridazinut</i> | Ichishga 0,5-1 g | Tabl. 0,5 g dan |
| Sulfadimetoksin – <i>Sulfadimethoxnum</i> | Ichishga 0,5-1 g | Tabl.0,2 va 0,5 g dan |
| Ftalazol – <i>Phthalazolum</i> | Ichishga 1 g | Tabl. 0,5 g dan |
| Natriy sulfamil – <i>Sulfacylum- sodium</i> | Ichishga 0,5-1 g Tomirga 0,9-1,5 g Kon'yuktivaga 10-30% eritmasi 1-2 g 10-30% surtma | 30% - 5ml eritma amp. 10-30% eritma 5-10 ml. Tyubik-kapelnisalarda 1,5 ml dan 20% eritma (qo'z tomchi) 30% surtma 10 g dan |
| Baktrim – <i>Bactrumum</i> | 2 tab. | Tabl. (tabletkada 0,4 g sulfametoksazol va 0,08 g trimetoprim) |

XINOLON UNUMLARI

Nalidikson kislotasi (neviramon, negram) amaliyotda qo'llanila boshlagan xinolen unumlarining birinchisi hisoblanadi. Ta'sir spektri asosini grammansiy bakteriyalar tashkil etadi ("negram" deb atalishi shundan kelib chiqadi). U ichak tayoqchasi, protey, kapsulali bakteriyalar (klebsiellalar), shigellalar, salmonellalarga qarshi samarador. Ko'k yiring tayoqchasi nalidiksiv kislota ta'siriga chidamli. Uning antimikrob mexanizmini DNK sintezini keskin susayishi bilan bog'lashadi. Bakteriyalarning preparatga chidamliligi anchagina tez rivojlanadi (ba'zan davolash boshlanganidan bir necha kundan keyin). MITdan preparat yaxshi so'riladi. Kiritilgan modda dozasining taxminan 20% kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi.

Nalidiksiv kislota va uning metabolitlari asosan buyrak orqali ajralgani uchun peshobda moddaning anchagina katta konsentrasiyasi hosil bo'ladi. Qo'llashga asosiy ko'rsatmalar – peshob yo'llarining ichak tayoqchasi, protey va boshqa nalidiksiv kislotasiga sezgir bo'lgan mikroorganizmlar bilan chaqirilgan infeksiyalari. Preparatning qimmatli sifati shundan iboratki, u antibiotiklar va sulfanilamid preparatlariga chidamlilik orttirgan mikroorganizm shtammlariga qarshi faollikka ega. Noxush ta'sirlar sifatida dispepsiya, allergik reaksiyalar, fotodermatozlar, tez o'tib ketuvchi (qisqa vaqtli) ko'rishning buzilishlari (ko'rish kuchining kamayishi, yorug'likdan qo'rqish), bosh og'riq bo'lishi mumkin. Preparatni jigar va buyrak funksiyalarining kuchli darajada buzilishi bilan kechadigan xastaliklarda qo'llash man etiladi. Preparatni homilador ayollarda (homiladorlikning boshlang'ich 3 oyida) va 2 yoshga yetmagan bolalarga berish mumkin emas. Keyingi yillarda tarkibida fitor atomi tutgan xinolonning hosilalari – fitorxinolonlar e'tiborni jalb qilmoqda. Bunday preparatlarning katta miqdori sintezlangan: siprofloxasin (sipro bay), norfloksasin, pefloksasin, lomefloxasin, ofloksasin (tarivid) va boshqalar. Ular yuqori faollikka ega bo'lgan, ta'sir spektri keng antibakterial vositalardir. Grammanfiy bakteriyalarga, shu jumladan, gonokokklar, ichak tayoqchasi, shigellalar, salmonellalar, *Klebsiella pneumoniae*, *Enterobacter*, *Haemophilus influenzae*, ko'k yiring tayoqchasi¹, mikoplazmalar, xlamidiylar va boshqalarga bakterisid ta'sir ko'rsatadi. Grammusbat bakteriyalarga nisbatan kamroq faoldirlar. Fitorxinololarning antibakterial ta'sir mexanizmi (4-rasm) bakteriyalarning fermentlari bo'l mish topoizomeraza II va IV (shu jumladan, topoizomeraza II ning DNK-girazasi) faolligini susaytirishdan iborat. Shu tufayli DNK replikasiyasi va mos ravishda RNK hosil bo'lishi buziladi. Bularni barchasi bakteriyalarni ko'payishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Ovgat hazm qilish traktidan fitorxinolonlar yaxshi so'rildilar. Ko'pincha to'qimalarga kiradilar. Gematoensefalik bar'erdan kerakli konsentrasiyalarda faqat ma'lum preparatlar o'tadi (oflaksasin, pefloksasin, siprofloxasin) u ham bo'lsa miya qobig'i yallig'langanda. Zardob oqsillari bilan o'rtamiyona darajada bog'lanadilar. Asosan buyrak orqali (filtrasiya va faol sekresiya bilan) ajraladilar.



4-rasm. Sintetik antimikrob vositalarning ta'sir prinsipi

¹Ko'k yiring tayoqchasiqa qarshi eng samarador preparat siprofloksasin hisoblanadi.

9-jadvalda ftxorxinololarning qiyosiy farmokinetikasi keltirilgan. Ular ftxorxinololarga sezgir bo'lgan mikroorganizmlar chaqirgan peshob, nafas yo'llari, MIT infeksiyalarida qo'llaniladi.

9-jadval. Ftxorxinololarning farmakokinetikasi

| Preparat | Kiritish yo'lli | Zardob oqsillari bilan bog'lanish % | t _{1/2} , soat | GEBdan o'tishi | Ajratilish yo'lli | Bir kunda qabul qilish soni |
|----------------|------------------|-------------------------------------|-------------------------|----------------|-------------------|-----------------------------|
| Siprofloksasin | Enteral, tomirga | 50-80 | 20-40 | 3-4,5 | + | Buyraklar 2 |
| Norfloksasin | Enteral | 30-40 | 10-35 | 4-5 | ± | Buyraklar 2 |
| Oftoksasin | Enteral | > 90 | 8-32 | 5-7 | + | Buyraklar 2 |
| Pefleksasin | Enteral, tomirga | 100 | 20-30 | 9 | + | Buyraklar 2 |
| Lomefloxacin | Enteral | ≥95 | 10 | 8 | ± | Buyraklar 1-2 |
| Enoksasin | Enteral | 80-90 | 40 | 3-6 | | Buyraklar 2 |

| | | | | | | | |
|----------------|---------|----|----|------|--|---------------------|---|
| Rufloksasin | Enteral | 60 | 60 | 33 | | | 1 |
| Gatifloksasin | Enteral | 96 | 20 | 8 | | Buyraklar | 1 |
| Gemifloksasin | Enteral | 70 | 60 | 8 | | | 1 |
| Levofloksasin | Enteral | 99 | 31 | 6 9 | | Buyraklar | 1 |
| Moksifloksasin | Enteral | 86 | 48 | 12 1 | | Buyraklar, ichak | 1 |

Izoh. GEB-gematoensefalik baryer. (+) - faqat yallig'lanish bo'lgandagina yaxshi o'tadi, (\pm) - yomon o'tadi (yallig'lanishda ham).

Ftorxinolonlarga mikroorganizmlarning chidamlilik ortirishi nisbatan sekin rivojlanadi. Noxush ta'sirlar sifatida dispepsiya, terida toshmalar va boshqa allergik reaksiyalar, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, uyqusizlik, fotosensibilizasiya kuzatiladi. Superinfeksiya bo'lishi mumkin. Ftorxinolonlarni umuman yaxshi qabul qiladilar.

Homilador va emizuvchi ayollar hamda 18 yoshga kirmagan hemorlarda qo'llash mumkin emas.

Yangi ftorxinolonlarni yaratishning ahamiyatli yo'nalishlaridan biri bu grammusbat bakteriyalar, jumladan *Streptococcus pneumoniae* va boshqa streptokokklar, atipik va anaerob xastalik qo'zg'atuvchilariga ta'sirini yanada yuqori darajaga ko'tarishdir. Ana shunday preparatlarga streptokokklar, stafilakokklar, listeriyl, korinobakteriy va kamroq darajada – enterokokklarga qarshi yuqori bakteriosid faollikka ega bo'lgan *moksifloksasin* (*aveloks*) mansubdir. Masalan, pnevmokokklarga (va bakterioidlarga) in vitro sharoitida ta'siri jihatdan moksifloksasin siprofloxacin va ofloksasinga nisbatan 4-16 marta faolroq. Ta'kidlash joizki, moksifloksasin ko'pgina antibakterial vositalarga chidamlilik orttirgan grammusbat bakteriyalar bilan chaqirilgan infeksiyalarda ham samaradordir. Bundan tashqari, moksifloksasin xlamidiy, mikoplazmalar, ureaplasma va anaeroblarga ham antibakterial ta'sir bo'yicha yuqori faollikka ega. Moksifloksasining anaeroblarga farshi faolligi metronidazol, klindamisin va imipenam darajasidadir.

Ichakdan preparat yaxshi so'rildi. Biologik o'zlashtirish darajasi taxminan 90 %. Zardob oqsillari bilan 48% chasi bog'lanadi. Moddaning 50 % chasi jiggarda

metabolizmga uchraydi. Moksifloksasin va uning metabolitlari peshob va safro tarkibida ajraladi. Preparat kuniga 1 marta beriladi.

Moksifloksasinni bermorlar yaxshi qabul qiladilar. Boshqa fltorxinolonlarga o'xshash noxush ta'sirlarga ega (fotosensibilizasiyalash ta'siri yo'q, ko'proq ko'ngil aynishi, bosh aylanishi kuzatiladi)

Yangi fltorxinolonlarga gatifloksasin, gemifloksasin, levofloksasinlar ham mansubdir. Ularning barchasi enteral qo'llanganda ham samarador, yuqori darajada biologik o'zlashtirilishga ega, grammansiy bakteriyalarga bakteriosid ta'siri saqlangan holda, grammusbat bakteriyalarga qarshi yuqori samaradorlikka egadirlar. *Streptococcus pneumoniae* va nafas yo'llarining boshqa infeksiyalari – *Naemophilus influenzae*, *Moraxella catarrhalis* qarshi juda ham yuqori samaradorlikka egadirlar. Buning asosiy sababi ular nafas a'zolari va to*qimalarida (qon zardobiga nisbatan ko'proq) katta konsentrasiyalarda to'planadilar. Ularni moksifloksasin kabi kuniga 1 marta kiritiladi.

Moksifloksasin va gatifloksasin M.tuberculosis ga qarshi kuchli faoliyka ega ekanliklari aniqlangan.

TURLI KIMYOVII TUZILISHGA EGA BO'LGAN SINTETIK ANTIBAKTERIAL VOSITALAR 8-OKSIXINOLIN UNUMLARI

Ushbu qator preparatlari antibakterial va antiprotozoy ta'sirga egadirlar. 5-nitro-8-oksixinolin - *nitroksolin* (5-NOK) ushbu guruhning antimikrob preparatlaridan hisoblanadi. Preperat keng antibakterial ta'sir spektrga ega. Bundan tashqari, u ba'zi zamburug'lar (achitqisimon va boshqalar)ga ham susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Nitroksolin ichakdan tez so'rildi. O'zgarmagan holda peshob tarkibida ajraladi, peshobda bakteriostatik konsentrasiyada to'planadi.

Turli xil mikroorganizmlar bilan chaqirilgan peshob yo'llari infeksiyalarida qo'llaniladi. Enteral kiritiladi. Noxush ta'siri dispepsiya kabi holatlar bo'lishi


mumkin. Nitroksolinni qabul qilinganda peshob yorqin-sariq rangga ega bo'lishi nazarda tutmoq lozim.

NITROFURAN UNUMLARI

Bu guruh birikmalarga ko'p preparatlar mansub. Ba'zilari asosan antiseptik sifatida sirtga ishlataladi (masalan, furasillin), ba'zilari – asosan ichak va peshob yo'llarining infeksiyalarini davolashda qo'llaniladi (furazolidon, furadonin, furagin). Nitrofuranlar antibiotik va sulfanilamidlarga chidamlilik orttirgan mikroorganizmlarni bartaraf etishda ham samarador. Furazolidonni ichak infeksiyalarida hamda basilyar dizenteriya, trixomonadalar qo'zg'atgan kolpit¹da va lyambliozlarda qo'llanadi. Uni enteral, intravaginal, rektal kiritiladi.

¹ Qin shilliq qavatining yallig'lanishi. Grekchadan "colpos" – qin (diloq)

Ba'zi mikroblarga qarshi vositalarning kimyoviy tuzilishi



Dispepsiya o'xshash holatlar, allergik reaksiyalar rivojlantirishi mumkin. Peshob yo'llari infeksiyasini davolashda furadonin (nitrofurantoin) samarador preparatdir. Uni enteral kiritish uchun beriladi.

U tez so'rildi va juda katta miqdorda buyrak orqali ajraladi va peshobda bakteriostatik va bakteriosid konsentrasiya hosil boladi. Furazolidon kabi u ishtahani buzishi, ko'ngil aynish, qayt qilishga olib kelishi mumkin. Ba'zi bermorlarda u allergik reaksiyalar rivojiantiradi. Furaginni peshob yo'llarining infeksiyalarida hamda mahalliy

aynish, qayt qilishga olib kelishi mumkin. Ba'zi bermorlarda u allergik reaksiyalar rivojiantiradi. Furaginni peshob yo'llarining infeksiyalarida hamda mahalliy

qo'llashadi. Noxush ta'sirlarni kamaytirish maqsadida nitrofururlarni qabul qilish davrida ko'p suyuqlik ichish. N₁-gistamin reseptorlari blokatorlari, V guruhiga vitaminlarini berish tavsiya etiladi.

XINOKSALIN UNUMLARI

Antibakterial vositalarning bu guruhiga xinoksidin va dioksidin bilan ifoda etilgan. Ular ko'k yiring tayoqchasi, patogen anaeroblarni ham qamrab olgan keng antimikrob ta'sir spektriga ega. Boshqa antimikrob vositalari ta'siriga turg'un bo'lgan bakteriyalarga faol ta'sir etadi. Og'ir yiringli-yallig'lanish jarayonlarida qo'llanadi. Katta yoshdagi bemorlargagina faqat stasionar sharoitida shifokor nazorati ostida qo'llanadi. Preparatlar zaharlilikga ega va qo'pineha noxush ta'sirlar rivojlantiradi. Ya'ni dispepsiya, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, istmalash, mushaklarni tirishishi va boshqalar.

OKSAZOLIDINONLAR

Oksazolidinonlar faol antimikrob vositalarning yangi sinfi hisoblanadi. Bu guruhning birinchi preparati bo'lmissiz *linezolid* (*zivoks*) xastalik qo'zg'atuvchilarining keng spektriga – grammusbat anaeroblar, ba'zi grammanifiy bakteriyalar va ko'pgina anaeroblarga qarshi samarador. Linezolid boshqa preparatlarga chidamlilik orttirgan infeksiyalarda qo'llaniladi.

Antimikrob ta'sir mexanizmi oqsil sintezini boshlang'ich bosqichlarini ingibirlash (pasaytirish) bilan bog'liq. Butun organizm sharoitida boshlang'ich preparat bakteriosid ta'sir ko'rsatishi haqida taxmin bor (in vitro sharoitida preparat bakteriostatik ta'sir ko'rsatadi). Enteral va parenteral yo'l bilan qo'llanganda ham samarador. Asosan, grammusbat bakteriyalar qo'zg'atgan og'ir infeksiyalarni davolash uchun tavsiya etilgan.

Preparatlar

| Preparat nomi | Kattalar uchun o'rtacha terapevtik dozasi va kiritish yo'li | Chiqarish shakli |
|---|---|---------------------------|
| Nalidiksiv kislotosi — <i>Lisdum nalidixicum</i> | Enteral 0,5 g | Kapsula va tabletka 0,5 g |

| | | |
|--|---|--|
| Siprofloksasin – <i>Ciprofloxacin</i> | Enteral va tomir ichiga 0,125 - 0,75 g | Tabletka 0,25, 0,5 va 0,75 g. 0,2% li eritma infuziya uchun 50 va 100 ml, 1% li eritma am- |
| Moksifloksasin — <i>Moxifloxacin</i> | Enteral 0,4 g | Tabletka 0,4 g |
| Ofloksasin – <i>Oflloxacin</i> | Enteral 0,2 g | Tabletka 0,2 g |
| Norfloksasin — <i>Norfloxacin</i> | Enteral 0,4 g | Tabletka 0,4 g |
| Nitroksolin — <i>Nitrofurantoinum</i> | Enteral 0,1 g | Tabletka 0,05 g |
| Furazolidon – <i>Furazolidonium</i> | Enteral 0,1-0,15 g | Tabletka 0,05 g |
| Furadonin – <i>Furadomnum</i> | Enteral 0,1-0,15 g | Tabletka 0,05 g, ichakda etuvchi tabletkasi 0,1 g |
| Furagin – <i>Furagmum</i> | Enteral 0,1-0,2 g, konyunktivaga 1:13000 eritma 1-2 tomchi | Kukun, tabletka 0,05 g |

ZAXMGA QASHI VOSITALAR

Zaxmnı davolashda asosiy o'rinni *benzilpenisillin* preparatlari egallaydi. Bu maqsadda qisqa (benzilpenisillining natriyli yoki kaliyli tuzlari) va davomli ta'sir etuvchi (benzilpenisillining novakainli tuzi, bisilliniar) penisillinlar qo'llaniladi. Benzilpenisillinlar tez va kuchli treponemosid ta'sir ko'rsatadilar. Ularga tperonemalarning chidamliligi rivojlanganligi qayd etilmagan. Benzilpenisillining preparatlari zaxmnning hamma bosqichlar (davrлari)da ham samarador. Ukkuning dozasi va qo'llash davomiyligi xastalikning shakli va bosqichiga qarab belgilanadi.

Benzilpenisillinlarni ko'tara olmaganda (masalan, allergik reaksiyalar bilan bog'liq holatlarda) zaxmnı davolash uchun boshqa antibiotiklar – tetrasiklinlar, eritromisinlar, azitromisin, seftrioksonlarni qo'llash mumkin. Ammo ular samaradorlilik bo'yicha benzilpenisillinlardan kuchsizdirlar.

Antibiotiklardan tashqari zaxmnı davolashda vismut preparatlarini qo'llashadi. Jumladan, *biyoxinol* (yod vismut xininning neytral shaftoli moyida 8% aralashmasi) va *bismoverol* (monovismut sharob kislotasining asosli vismut tuzining neytrallangan shaftoli moyidagi aralashmasi). Antibiotiklardan farqli o'laroq, vismut preparatlarining ta'sir spektri zaxm qo'zg'atuvchisi bilan cheklanadi.

Faollikkari bo'yicha benzilpenisillindan kuchsizdirlar. Ularning treponemastatik ta'sirini sulligidril guruh tutgan fermentlar faolligini susayishi bilan bog'lashadi. Preparatlarning shifobaxsh ta'siri benzilpenisillintarnikiga nisbatan ancha sekin rivojlanadi. MITdan vismut preparatlari so'rilmagani uchun ularni mushak ichiga kiritiladi. Asosan buyrak orqali peshob tarkibida hamda kam miqdorda ichak va ter bezlari orqali ajraladi. Vismut preparatlarini zaxmning hamma shaklida qo'llashadi.

Noxush ta'sirlar nisbatan kam kuzatiladi. Ushbu preparatlarga xos bo'lган noxush o'zgarishlar bu tishning emal qismida milkni qirg'og'i bo'ylab qora dog'ning hosil bo'lishi hisoblanadi. Gingivit¹, stomatit², kolit, diareya, dermatit rivojlanishi mumkin. Buyrak va jigarni shikastlashi kamdan-kam kuzatiladi. Vismut preparatlarini qo'llaganda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining holati, buyrak va jigar faoliyatlarini kuzatish lozim.

Zaxmning kech bosqichlarida gummalarni so'rilib ketishini tezlashtirish uchun yod birikmalari (kaliy yodid) qo'llaniladi.

Preparatlar

| Nomi | Kattalar uchun o'rtacha terapevtik doza kiritish yo'lli | Chiqarish shakli |
|--------------------------------|---|--------------------|
| <i>Biyoxinol-Biochinolum</i> | Mushak ichiga 2 ml (2-3 kunda 1 marta) | 100 ml flakonlarda |
| <i>Bismoverol-Bismoverolum</i> | Mushak ichiga 1,5 ml (1 haftada 2 marta) | 100 ml flakonlarda |

¹ Milklni yallig'lanishi. Lotinchada gingiva – milk

² Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining yallig'lanishi. Grekchada stoma-og'iz

SILGA QARSHI VOSITALAR

Silni medikamentoz davolashda asosiy o'rinni ximioterapeutik vositalar egallaydi. Ularga quyidagi preparatlar mansub:

A. Sintetik vositalar

Izonizid, Etionamid

Etambutol, Protionamid

Natriy para-aminosalismlat kislotasi (PASK) Pirazinamid

Bepask, Tioasetazon

B. Antibiotiklar

Rifampisin, Sikloserin

Streptomisin sulfat, Kanamisin sulfat

Streptomisining xlor kalsiyli kompleksi, Florimisin sulfat

Antimikrob ta'sir spektri bo'yicha qayd etilgan guruhlar bir-biridan jiddiy ravishda farq qiladilar. Sintetik vositalar faqat sil mikobakteriyasiga ta'sir ko'rsatadi (ba'zi birikmalar moxov qo'zg'atuvchisiga ham ta'sir etadi). Boshqa mikroorganizmga ular ta'sir etmaydilar. Shu bilan bir qatorda, silni davolashda qo'llaniladigan antibiotiklar keng antimikrob ta'sir spektriga egadirlar (1- rasm)

Silga qarshi vositalar asosan bakteriostatik ta'sir ko'rsatadi. Ammo, ba'zi preparatlar ma'lum konsentrasiyada bakteriosid ta'sir etadilar (izoniazid, rifampisin, streptomisin).



Silga qarshi vositalarning ta'sir spektri. Qizil rang I guruh preparatlari, binafsha rang II guruh preparatlari, yashil rang III guruh preparatlari.

Sil ximioterapiyasining davomli bo'lishidan kelib chiqqan holda uning qo'zg'atuvchisining dorilarga chidamlilik orttirish muammosi katta ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, sil mikobakteriyasi hamma preparatlarga chidamlilik orttiradi. Ammo ba'zilari (rifampisin, streptomisin)ga tez rivojlanadi, ba'zilariga esa nisbatan sekinroq rivojlanadi (masalan, para-aminosalisilat natriyga). Chidamlilikni rivojlanishini sekinlashtirish maqsadida odatda, 2-3 ta preparatlarni birgalikda (kombinasiya) qo'llashadi.

Davolashning avvalida 2-3 ta preparatni shunday birga qo'llashning yana bir zaruriyati shundan iboratki, kasallikni qo'zg'atuvchisining dorilarga bo'lgan sezgirligi hali noma'lum bo'ladi va uni aniqlash faqat 1-2 haftadan keyin amalga oshirilishi mumkin. Shu sabab, ximioterapiyanı bateriologik tekshirishlar natijasini kutmay boshlab yuboriladi.

Odatda bu yaxshi, kerakli natija beradi, chunki sil mikobakteriyasining bir vaqtida 2-3 ta preparatga chidamlilik orttirgan shtamlari nisbatan juda kam uchraydi. Silni dori vositalari bilan davolashning mushkullashtiradigan yana bir jihatni noxush ta'sirlarning rivojlanishidir. Ular tabiatiga ko'ra allergik va noallergik bo'lishi mumkin (1-jadval).

Bundan tashqari, antibiotiklarni qo'llaganda superinfeksiya yuzaga kelishi mumkin. Afsuski, ma'lum silga qarshi vositalarni deyarli hammasi noxush ta'sir rivojlantiradilar, faqat ularning yo'nalishlari va soni bir xil emasligi bilan farqlanadi. Ba'zilari taxdidli bo'lib (gepatotoksik, nevrotoksik, qon hosil bo'lishini susayishi, nevrotoksik) preparatni qo'llashni to'xtatishga asos bo'ladi.

Silga qarshi vositalarni¹ quyidagi tasnifi taklif etilgan:

I-guruh – eng samarador preparatlar: izoniazid va rifampisin.

II-guruh – samaradorligi o'rtacha preparatlar: etambutol, streptomisin, etionamid, pirazinamid, kanamisin, sikloserin, florimisin

III-guruh – samaradorligi kamroq preparatlar: PASK, tioasetazon

Silga qarshi yangi preparatlarni izlash davom etmoqda. Masala yuqori faollikka ega va kam zahar, noxush ta'sirlari bo'lmagan preparatlarni yaratishdan iborat. Ularga sil mikobakteriyasining chidamliligini imkonli boricha sekinroq rivojlanishi ahamiyatga ega. Iqtisodiy tomonini ham yodda tutmoq lozim. Bunday preparatlarni tabobat olamida keng qo'llashga imkoniyat - tannarxi arzon bo'lqidir, chunki ular bilan davolanish ancha davomli bo'ladi.

SILGA QARSHI I-GURUH VOSITALARI

a) Sintetik vositalar

Izonikotin kislotosi gidrazidlari (GINK) guruhining asosiy namoyondasi bo'lib izoniazid (tubazid, izoniozid) hisoblanadi. Sil mikobakteriyasiga qarshi u yuqori faollikka ega (streptomisindan ustun keladi). Streptomisindan farq qilib, hujayra ichida joylashgan sil mikobakteriyalariga ham ta'sir etadi. Moxov qo'zg'atuvchisiga ham susayituvchi ta'sir ko'rsatadi. Boshqa mikroorganizmlar izoniazid ta'siriga chidamlidirlar.

Izoniazid sil mikobakteriyasiga mexanizmi, hozirgacha aniqlanmagan bakteriostatik yoki bakterisid ta'sir ko'rsatadi. Sil mikobakteriyasi devorining juda muhim tarkibiy qismi bo'lgan mikolev kislotosining sintezini susayirishi haqida ma'lumot bor. Bu bilan izoniazidni sil mikobacteriyasiga tanlab ta'sir yetishini tushuntirsada bo'ladi. Chunki boshqa mikroorganizmlarda mikolev kislotosi yo'q.


Bunda nuklein kislotalari sintezini keskin susayishi ham ahamiyatli bo'lishi mumkin.

Izoniazidga sil mikobakteriyasining chidamliligi streptomisin va rifampisinga nisbatan ancha sekinroq rivojlanadi.

Me'da-ichak traktidan izoniazid yaxshi so'rildi. To'qima bar'erlaridan preparat oson o'tadi va barcha to'qimalarga bir tekis tarqaladi. Seroz bo'shilqlarda va orqa miya suyuqliklarida (likvor) bakteriostatik konsentrasiyalarda aniqlanadi. Izoniazidning ko'p qismi kimyoviy o'zgarishlarga uchrab, metabolitlar hamda konyugatlar hosil qiladi. Izoniazidni organizmda inaktivasiyasining (faolligini yo'qotilishi) muhim yo'llaridan bo'lib asetillanish hisoblanadi. Bu jarayonning tezligi nasliy belgilanganligi isbotlangan. Ba'zi insonlarda² izoniazid sekin

inaktivasiyalanadi va shu sababli organizmda uning konsentrasiyasining kamayishi preparatni tez inaktivasiyalanish holatiga nisbatan anchagini sekinroq kechadi.

Ba'zi silga qarshi vositalarning kimyoviy tuzilishi



Qon zardobida
izoniazid miqdori 50 %
kamayish (t_{1/2})
guruhlarda 2,5
baravargacha farq qilishi
mumkin. Tabiiyki,
izoniazidni bunday
or'ziga xosligi preparatni
dozasini belgilashda
inobatga olinishi zarur,
chunki bu bilan nafaqt
moddaning
bakteriostatik
konsentrasiyasi, balki
noxush ta'sirlari yuzaga

kelishi ham bog'liq.

Izoniazidlarning asosiy miqdori va uning o'zgarishidan hosil bo'lgan mahsulotlar 1 kun davomida asosan buyrak orqali ajraladi.


Izoniazidni silming barcha shakllarida qo'llashadi. Preparatni odatda ichishga beriladi, ba'zan to'g'ri ichakka kiritiladi (rektal). Zaruriyat tug'ilganda uni tomir yoki mushak ichiga kiritish mumkin (u suvda yaxshi eriydi). Izoniazid eritmalarini seroz bo'shliqlar va yiring yo'llarini (oqimalarni) chayish uchun ham ishlataladi.

Izoniazidlarni qo'llash xilma-xil noxush ta'sirlar rivojlanishi bilan kechadi. Izoniazidning asosiy salbiy xossasi bu uning neyrotoksikligidir. U asosan nevritlarda, shu jumladan, ko'rish nervini jarohatlanishida namoyon bo'ladi. MNS tomonidan ham noxush o'zgarishlar kuzatilishi mumkin (uyqusizlik, ruhiy buzilishlar, xotirani buzilishi, muvozanatni buzilishi). Ba'zi bemorlarda og'iz

qurish, ko'ngil aynish, qayt qilish, qabziyat, yengil anemiya yuzaga keladi. Allergik reaksiyalar nisbatan kam uchraydi. Ba'zi holatlarda terida o'zgarishlar, istmalash, eozinofiliya bo'ladi.

Izoniazidning ko'p noxush ta'sirlari aminokislotalarning xilma-xil almashinuviga uchun koenzim bo'lgan piridoksalfosfatni (2-chizma) hosil bo'lish jarayonining susayishi bilan bog'liqidir. Shundan kelib chiqqan holda, noxush ta'sirlarning oldini olish uchun (masalan nevritlarni) izoniazid bilan birgalikda piridoksin (vitamin V_b) beriladi.

Allergik reaksiyalarni allergiyaga qarshi vositalarni qo'llash orqali bartaraf etiladi.



(+) – rag'batlantiruvchi ta'sir (-) – susaytiruvchi ta'sir

2-chizma. Izoniazid ta'sirining yo'nalishi

Izonikotin kislotasini gidrozidi unumlariga ftivazid, metazid, eruvchan salyuzid ham mansub. Ularning barchasi izoniazidlarga nisbatan faolsizroq va unga nisbatan hech qanday ustunlikka ega emaslar. Ularni kamdan-kam izoniazidni ko'tara olmaslik holatlarida qo'llashadi.

b) Antibiotiklar

Rifamisin guruhি

Rifamisin (rifosin) Streptomyces mediterranei ishlab chiqaruvchi antibiotikdir. U murakkab makrosiklik tuzilishga ega. Ushbu guruhga yarimsintetik preparat rifampisin (rifampin, rifadin, rimakton) ham tegishli. Ikkala birikma ham sil va moxov mikobakteriyalariga hamda grammusbat bakteriyalarga kuchli ta'sir ko'rsatadilar. Katta konsentrasiyalarda grammansiy mikroorganizmalarga (ichak tayoqchasi, kapsulali bakteriyalar, ko'k yiring tayoqchasinining ba'zi shtammlari, shigellalar, salmonellalar) va proteyning ba'zi turlariga qarshi faoldirlar.

Rifamisin guruhi antibiotiklarining antimikrob ta'siri RNK-polimerazaning susayishi bilan bog'liq bo'lsa kerak (hoynahoy DNK ga bog'liq RNK-polimeraza faolligining susayishi hisobiga bo'lsa kerak). Ular bakteriostatik, katta konsentrasiyalarda esa – bakteriosid ta'sir ko'rsatadi. Ichilganda o'zining faolligi bo'yicha izoniazidga tenglashadigan rifampisin juda katta qiziqish uyg'atadi.

Rifampisin MITdan yaxshi so'rildi. To'qima to'siqlaridan, shu jumladan, GEB dan oson o'tadi. Terapevtik ta'siri 8-12 soat davomida saqlanadi. Preparat safro, qisman pebosh, bronx va ko'z yosh bezlari mahsuloti tarkibida ajraladi.

Qo'llashga asosiy ko'rsatma bu silning barcha shakllaridir. Ammo rifampisinga sil mikobakteriyasi anchagini tez chidamlilik orttirgani sababli uni boshqa silga qarshi vositalar bilan birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Rifampisinni boshqa preparatlar samarasiz bo'lgan holatlarda ham qo'llaniladi.

Rifampisinni enteral va tomir ichiga kiritiladi, rifamisinni mushak va tomir ichiga hamda mahalliy qo'llashadi.

Rifampisin guruhi preparatlari jigar funksiyasiga salbiy ta'sir etishlari mumkin (ayniqsa, mavjud bo'lgan xastalik sonida yoki preparatlarni davomli qo'llaganda). Leykopeniya rivojlanishi mumkin. Bir qator bemonlarda dispeptik buzilishlar kuzatiladi. Ba'zan allergik reaksiyalar qayd etiladi. Homiladorlikning I-uch oyida (homilaga zararli ta'siri bo'lishi mumkin) ushbu antibiotiklarni qo'llash tavsiya etilmaydi.

Rifampisin peshob, so'lak va ko'z yoshini qizil ranggga bo'yaydi. Rifampisinning kamchiliklaridan biri bu tannarxinining yuqoriligidir.

Silga qarshi vositalarning farmakokinetikasi

| Preparatlar | Ichilganda so'riliishi | Qon zardobida maksimal konsentrasiya a hosil bo'lishi vaqtiga (soat) | Zardob oqsillari bilan bog'lanishi (%) | Qon zardobida konsentrasiyasi 50 % ga kamayish vaqtiga ($t_{1/2}$) soat | Preparat va uning metabolitlarining buyrak orqali ajralishi (%) |
|-------------|------------------------|--|--|---|---|
| Izoniazid | To'liq | 1-1.5 | <10 | 1-4 | 10 (90) |

| Rifampisin | To'liq | 1-3 | 80-90 | 2-5 | 13 (17) |
|------------------------|--------------------|-------------|-------|-------|----------------------|
| Streptomisin sulfat | YOmon ¹ | 0,5-2 (m/i) | 10-30 | -2,5 | 95 |
| Etambutol | 70-85% | 2-4 | 20-30 | 3-4 | 50 (15) |
| Pirazinamid | To'liq | 2-8 | 10-20 | 9-10 | 15 (70) ² |
| Sikloserin | 70-90% | 3-4 | 0 | 10-12 | 100 |
| Paraamino salisilat Na | to'liq | 1-1,5 | ~15 | ~1 | 25-30 (50) |

¹ parenteral kiritiladi

² Qavs ichida ajratilayotgan metabolitlar % da ko'rsatilgan

³ 24 soat davomida

m/i - mushak ichiga

SILGA QARSHI II GURUH VOSITALARI

a) Sintetik vositalar

Etambutol (diambutol, miambutol) yuqori darajada silga qarshi faollikkha ega. Eksperimental tadqiqotlar natijasiga ko'ra enteral qo'llaganda etambutolning faolligi izoniazidnikiga teng. Boshqa mikroorganizmlarga ta'sir etmaydi. Etambutolning ta'sir mexanizmi hujayra qobig'inining sintezini susaytirish bilan bog'liq deb hisoblashadi. Mikobakteriyalarning etambutolga chidamliligi nisbatan sekin rivojlanadi. MITdan preparat to'liq bo'lmasada (taxminan $\frac{3}{4}$ qismi) bakteriostatik ta'sir etish uchun yetarli miqdorda so'rildi.

Asosan buyrak orqali 1 sutka davomida ajraladi. Peshobda o'zgarmagan etambutol va uning metabolitlari aniqlanadi. Ularning kamroq qismi ichak orqali ajraladi.

Etambutolni silning har-xil shakllarida, odatda boshqa preparatlar bilan birgalikda (masalan, rifampisin+etambutol+izoniazid; rifampisin+etambutol: izoniazid+etambutol) qo'llaniladi.

Etambutolning noxush ta'sirlari sifatida ko'rishning buzilishi eng xos hisoblanadi (shu jumladan, rang ajratish, ayniqsa, yashil va qizil ranglarni ajratish). Agar ko'z nervining yallig'lanishi boshlansa bu asorat og'ir kechadi. Ko'rishning

buzilishlari odatda etambutol bilan davolash boshlangandan 2-6 oydan keyin yuzaga chiqadi va preparatning dozasiga bog'liq. O'z vaqtida preparatni qabul qilish to'xtatilsa ko'rish asta-sekin tiklanadi. Etambutol bilan davolashda ana shunday asorat yuzaga chiqish ehtimoli mavjudligidan ko'zning funksiyasini muntazam nazorat qilib turish lozim. Etambutol ta'sirida allergik reaksiyalar kamdan-kam bo'ladi.

Etionamid (tionid, trekator)ning ta'sir spektri sil mikobakteriyasiga va moxov qo'zg'atuvchisi bilan cheklangan. Unga sil mikobakteriyasi tez ko'nikish (chidamlilik) orttirganligidan uni har doim boshqa preparatlar bilan qo'shib ishlataladi.

MIT dan yaxshi so'rildi. Etionamid GEB dan yaxshi o'tadi. Jigarda tez parchalanib faolsizlanadi va peshob tarkibida asosan metabolitlar tarzida ajraladi. Preparat ichishga va rektal kiritishga tavsiya etiladi. Tomirga kiritish uchun etionamid gidroxloridini qo'llashadi.

Etionamid tez-tez noxush ta'sirlar rivojlantiradi. Mahalliy ta'sirlantiruvchi xossasi unda juda kuchli. Shu sababli ichilganda taxminan 50% bemonlarda dispepsiya (ba'zan og'ir kechadi) rivojlanadi. Ularni kamaytirish uchun nikotinamid beriladi. Shu bilan bir qatorda allergik reaksiyalar ham uchraydi. Ba'zida gepatit, ortostatik kollaps, periferik va markaziy nerv sistemasida buzilishlar va boshqa noxush ta'sirlar rivojlanadi.

Pirazinamid (treventiks) etionamidga o'xshash preparat. U kam zahar-roq ekanligi xaqida ma'lumotlar mavjud. Pirazinamid tuberkulostatik (sil qo'zg'aiuvchini rivojlanishini to'xtatish) faolligi bo'yicha PASKdan ustun bo'lsa ham, izoniazid, rifampisin va streptomisindan kuchsizroq. Boshqa mikroorganizmlarga ta'sir etmaydi. Faqat pirazinamidni o'zini qo'llaganda sil mikobakteriyalarining unga chidamliligi tez rivojlanadi.

MIT dan yaxshi so'rildi. Gematoensefalik baryerdan o'tadi. Pirazinamidning asosiy mədori va uning metabolitlari buyrak orqali ajraladi. Boshqa preparatlar bilan birgalikda qo'llaniladi. Pirazinamidni kuniga 3-4 martadan enteral qo'llashga (ichishga) beriladi. Noxush ta'sirlardan eng jiddiysi gepatotoksiklidir. SHu sababli (ichishga) beriladi.

pirazinamidni qo'llaganda jigar funksiyasini muntazam nazorat qilish darkor. Jigar funksiyasining buzilishi preparatni qo'llashni to'xtatishga asos bo'ladi. Ko'pgina bemonlarda dispeptik o'zgarishlar ham kuzatiladi. Pirazinamid ta'sirida organizmda peshob kislotasini to'planib qolishi podagra xastaligi xurujlarini rivojlanishiga olib keladi. Allergik reaksiyalar rivojlanishi mumkin (istmalash, dermatitlar, cozinofiliya va boshqalar)

b) Antibiotiklar

Sikloserinni turli turdag'i aktinomisitlar ishlab chiqaradi. Sintetik yo'l bilan ham olingan.

Keng ta'sir spektriga ega. Dori preparati sifatida sikloserinni D-izomeri ishlataladi. Hujayra tashqarisida va hujayra ichkarisida joylashgan sil mikobakteriyasiga qarshi eng samarador (faolligi bo'yicha izoniazid, rifanpisin, streptomisindan kuchsizroq). Boshqa mikroorganizmlarga katta konsentrasiyada ta'sir ko'rsatadi. Hujayra devori sintezini buzib sikloserin bakteriosid ta'sir etadi. Sikloserin kimyoviy tuzilishi jihatdan D-alanining o'xshash bo'lganidan raqobatdoshlik asosida D-alaninrasemaza va D-alaninsintetaza fermentlarni faolligini susaytiradi (ingibisiyalaydi). Natijada ko'pgina bakteriyalar hujayra devorini tuzilishi uchun zarur bo'lgan D-alanil-D-alanin dipeptidini hosil bo'lishi buziladi.



Sil mikobakteriyasini sikloseringa chidamliligi nisbatan sekin rivojlanadi. MIT dan yaxshi so'rildi. Orqa miya suyuqligiga (likvor) oson o'tadi, undagi preparatning konsentrasiyasi qon zardobidagiga yaqin. Kiritilgan sikloserinning taxminan 1/3 kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi. Preparat buyrak orqali ajraladi (1 sutka davomida taxminan 50 %).

Sikloserinni qo'llashga ko'rsatma bu boshqa silga qarshi vositalarni ko'tara olmaslik yoki ular samarasiz bo'lgan holatlardir. I va II-guruh preparatlar bilan

sikloserinni birgalikda qo'llash eng yaxshi natija beradi. Preparat enteral qo'llaniladi (ichish tavsiya etilgan).

Sikloserinni qo'llaganda tez-tez noxush ta'sirlar yuzaga keladi. Asosan bular asab-ruhiy buzilishlar, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, tremor, tirishish, qo'zg'alish yoki depressiv psixozlar, ba'zida dispepsiya kabi buzilishlar kuzatiladi. Allergik reaksiyalar juda kam bo'ladi.

MNS funksiyalarini buzilishlarini bartaraf etish uchun piridoksin, glyutamin kislotasi, ATP preparatlari kiritiladi.

Kanamisinni Streptomyces Kanamyceticus ishlab chiqaradi. Preparat aminoglikozidlar guruhidagi antibiotiklarga mansub. Sulfat shaklida chiqariladi.

Kanamisin keng antibakterial ta'sir spektriga ega. Jumladan sil mikobakteriyasi, ko'pgina grammusbat va grammansiy bakteriyalarga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Streptokokklar (enterokokklardan tashqari), pnevmokokklar ulaming ta'siriga kam sezgirlar. U ko'k yiring tayoqehasi, anaeroblarga, spiroxetalarga, patogen zamburug'larga va haqiqiy viruslarga ta'sir etmaydi. Uning antimikrob ta'sir mexanizmi bakteriyalarda oqsil sintezini susaytirishi bilan bog'liq. Kanamisin bakteriostatik hamda bakteriosid ta'sirga ega. Bakteriyalar kanamisinga tez turg'unlik orttiradilar. MIT dan preparat juda oz miqdorda so'rildi, rezorbтив ta'siridan foydalanish uchun prerapatni mushak ichiga kiritiladi. Shu yo'l bilan ta'siridan foydalanish uchun prerapatni maksimal konsentrasiyasi taxminan 1 soatdan so'ng aniqlanadi. Antibakterial ta'siri 6-12 soatgacha saqlanadi. GEB dan kanamisin amaliy jihatdan o'tmaydi. Buyrak orqali ajraladi.

Tibbiyot amaliyotida kanamisin II-guruh silga qarshi vositalar preparatlari sisatida hamda grammansiy mikroorganizmlar (ichak tayoqehasi, kapsula) bakteriyalar va boshqalar), protey, tilla stafilokokk va boshqa kanamisin ta'siriga sezgir bo'lgan qo'zg'atuvchilar bilan chaqirilgan infeksiyalarda qo'llaniladi. Boshqa antibiotiklarning samarasiz ekanligi kanamisinni qo'llashga asosdir.

Mushaklar ichiga inyeksiya qilishdan tashqari preparat tana bo'shliglariga kiritilishi mumkin. Bundan tashqari, uni ba'zida enteral qo'llashga tavsiya etiladi (ichak mikroflorasini qo'piyishini to'xtatish uchun).

Kanamisin yuqori zaharlilik bilan xarakterlanadi. Jumladan, u gentamisin va streptomisinga nisbatan kuchliroq (lekin neomisindan kamroq) ototoksiklikga ega.

Qulqoqda shang'illash (shovqin)ni paydo bo'lishi preparatni qo'llashni to'xtatishga asos bo'ladi, chunki u eshituv nervini jarohatlab, eshitishni qaytmas susayishiga, hattoki gunqlikka olib kelishi mumkin. Kanamisinni ototoksik ta'siri, ayniqsa, uni uzoq muddat qo'llaganda xavfli (silni davolashda). Vestibulyar buzilishlar nisbatan kam uchraydi. Kanamisin yaqqol ko'zga tashlanadigan nefrotoksik ta'sirga ham ega. Shu sababli davolash davrida muntazam nafaqat eshitish holatini, balki buyrak funksiyasini ham nazorat qilish darkor. Bundan tashqari, jigarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zan allergik reaksiyalar kuzatiladi.

Qo'llash mumkin bo'limgan holatlar va ehtiyoj choralar neomisin va gentamisinniga o'xshash.

II guruh silga qarshi antibiotiklarga kapreomisin va florimisin sulfat (viomisin)lar ham tegishli.

SILGA QARSHI III GURUH VOSITALARI

a) Sintetik vositalar

Bu silga qarshi zahira vositalar har xil kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan birikmalar bilan namoyish etilgan. Ularga PASK va tioasetazon (moddalarning tuzilisha qarang) taalluqli. Ushbu moddalarni har birini boshqa preparatlar bilan birgalikda qo'llashadi.

Para-aminosalisilat natriy (PASK) sil mikobakteriyasiga bakteriostatik ta'sir ko'rsatadi. Uning ta'sir mexanizmi sil mikobakteriyasining rivojlanishi va ko'payishi uchun zarur bo'lgan paraaminobenzoy kislotosi bilan raqobatiga asoslangan. Boshqa mikroorganizmlarga u ta'sir etmaydi. PASK ning faolligi yuqori emas. Shu sababli uning faqat boshqa, unga nisbatan faolroq bo'lgan preparatlar bilan birgalikda (kombinasiya) qo'llashadi. Qayd etilganidek, PASK ga turg'unlik sekin rivojlanadi.

PASK ovqat hazm qilish traktidan yaxshi so'riladi. Seroz bo'shliqlarida keraklicha miqdorda to'planadi. GEБ dan oz darajada o'tadi. Qon zardobida 6 soatdan keyin juda kichik konsentrasiyada aniqlanadi. Organizmdan o'zgarmagan holda hamda metabolitlar va konyugatlar (asosan PASK ning asetillangan hosilasi) ko'rinishida buyrak orqali ajraladi. Kiritilgan dozani 6 soat mobaynida taxminan 60 %, 24 soat ichida esa taxminan 90 % ajraladi.

Silning hamma shakllarida qo'llaniladi. Odatda ichiladi, ba'zida tomirga kiritishning zaruriyatini tug'iladi.

Noxush ta'sirlaridan eng ko'p uchraydigani, mahalliy qo'zg'atuvchanlik xossasi bilan bog'liq dispepsiyaadir. Bunda ko'ngil aynish, qayt qilish, diareya, qorin sohasida og'riq, ishtahani buzilishi, kamdan-kam hollarda, agrulositoz, gepatit, kristalluriya rivojlanadi. Ko'pgina bermorlarda gipotireoz belgilari bilan kechuvechi bo'qoq aniqlanadi. Allergiya bilan bog'liq terida o'zgarishlar, istmalash, artritlar, eozinofiliya va boshqalar bo'lish mumkin.

Tioasetazon (tibon, konteben)ning mikroblarga qarshi ta'sir spektri sil mikrobakteriyasi va moxov qo'zg'atuvchisi bilan chegaralangan. Silga qarshi faolligi bo'yicha tioasetazon I va II guruh preparatlardan kuchsiz. Tioasetazonga sil mikrobakteriyasining chidamliligi nisbatan sekin rivojlanadi.

MIT dan preparat yaxshi so'riladi. Qisman jigarda faolsizlanadi. Organizmdan I sutka davomida ajraladi. Preparatning ko'p qismi buyrak orqali chiqariladi.

Tioasetazonni enteral yo'l bilan asosan o'pkadan tashqaridagi silni davolashda (shilliq qavatlar va seroz pardalar, limfatik tugunlar sili) qo'llaniladi. Bir qator hollarda tioasetazonni moxovni davolash uchun buyuriladi.

Tioasetazonning zaharliligi anche yuqori. U qon hosil qilish (anemiya, leykopeniya, agrulositoz), buyrak (albuminuriya, silindruriya) va jigar (sariq atrofiyagacha) tomonida nisbatan ko'p noxush o'zgarishlar rivojlantiradi. Bundan tashqari uni qo'llaganda dispepsiya, allergiya va boshqa salbiy ta'sirlar yuzaga keladi.

Tioasetazonni qo'llash qon hosil qilish, jigar va buyrak funksiyalarining holatini muntazam nazorat qilib borishni talab qiladi.

Preparatlar

| Nomi | Kattalar uchun o'rtacha terapevtik doza, kiritish yo'li | CHiqarish shakllari |
|---|--|--|
| Izoniazid - Isoniazidum | Enteral 0,3 g Tomirga tomchilab 0,02-0,15 g/kg (0,2% eritma) | Sochma,tabletka - 0,1, 0,2 va 0,3 g 10 % eritma amp. 5 ml dan |
| Rifampisin -Rifampicinum | Enteral 0,45 g Tomirga 0,3-0,9 g | Kaps. 0,05 va 0,15 g Amp. 0,15 g (ex tempora) |
| Etambutol - Ethambutolum | Enteral 0,025 g/kg | Tabl. 0,1; 0,2 va 0,4 g |
| Etionamid - Ethionamide | Enteral 0,25 g | Tabl. 0,25 g (qobiqli) |
| Protonamid - Protonamide | Enteral 0,25 g | Tabl.(draje) 0,25 g |
| Sikloserin - Cycloserinum | Enteral 0,25 g | Tabl. kapsula - 0,25 g |
| Pirazinamid - Pirazinamide | Enteral 1 g | Tabl. 0,5 va 0,75 g |
| Kanamisin sulfat - Kanamycini sulfas | Mushakga 1 g Ingalyasiya 0,25-0,5 g | Flakonda 0,5 va 1 g (ex tempora) Ampulada 5% - 5 va 10 ml |
| Florinisn sulfat – Florimycini sulfas | Mushakga 0,5-1 g | Flakonda 0,5 va 1 g |
| Para-aminosalisilat natriy – Natrii para-aminosalicylas | Enteral 3-4 Tomirga 3 % - 250 ml | Tabl. 0,5 g Flakonda 3%-250 va 500 ml |
| Tioasetazon - Thioacetozonum | Enteral 0,05 g | Tabl. 0,025 va 0,05 g |

24-BOB VIRUSLARGA QARSHI VOSITALAR

Viruslarga qarshi vositalarni yaratish infeksiyalar ximioterapiyasining eng murakkab vazifalaridan biri. Bu RNK va DNK tutgan viruslar hujayra ichidagi obligat parazitlar bo'lganliklari bilan bog'liq. Viruslar ko'payish jarayonida asosan makroogganizm hujayrasining biosintez apparatini ma'lum darajada modifikasiyalab ishlata dilar. Shu sababli, xo'jayin hujayrasini jarohatlamay faqat viruslarga tanlab ta'sir etuvchi vositalarni yaratish juda qiyin. Ammo ba'zi viruslar

(masalan, oddiy herpes virusi, o'rab oluvchi lishay virusi va boshqalar) hujayra ichiga kirkach o'zlarini fermentlarini hosil qiladilar va bu fermentlar hujayraning shu kabi fermentlaridan farq qilishi mumkin. Ana shunday fermentlar qatoriga DNK-polimeraza tegishli. Jumladan, asikloguanozin (asiklovir) hujayraga kirkach fosforlanadi va trifosfat ko'rinishida oddiy chechak virusining DNK-polimerazasini susaytiradi (hujayraning polimerazasiga nisbatan katta darajada). Bundan tashqari ushbu birikma virusning DNK tarkibiga kirib oladi. Ribavirin 5-trifosfat ko'rinishida viruslarning RNK-polimerazasini susaytiradi. Azidotimidin VICH infeksiyasi virionlarining teskari transkriptazasini susaytirishi aniqlangan. Peptid tuzilishiga ega bo'lgan preperatlar (sakvinavir) VICH proteazasini qaytmash ingibisiyalaydi. Viruslarning neyraminidazasini ingibisiyalovchi viruslarga qarshi vositalar yaratilgan. Olingan ma'lumotlar yangi tanlab ta'sir ko'rsatuvchi viruslarga qarshi vositalarni yaratishda nihoyatda katta kelajakka ega.

Viruslarga qarshi vositalarning ta'sir yo'nalishi har xil va hujayra bilan virusning o'zaro ta'sirini turli bosqichiga taalluqlidir. Jumladan, quyidagi larda susaytiruvchi ta'sirga ega bo'lgan moddalar ma'lum:

- 1) virusni hujayraga adsorbsiyalanishi yoki uni hujayraga kirishi (enfuvirtin, γ-globulin);
- 2) virus genomini ozodlikka chiqish ("deproteinizasiya") jarayoni (midantan, remantadin);
- 3) viruslarning erta oqsil-fermentlarini sintezi (guanidin);
- 4) nuklein kislotalarini sintezi (zidovudin, asiklovir, vidarabin, idoksuridin va boshqa nukleozid analoglari);
- 5) viruslarni "kechki" oqsillarining sintezi (sakvinavir);
- 6) virionlarni yig'ilishi (metisazan).

Bundan tashqari organizmga tushgach viruslar hujayrada biologik farq bo'lgan glikoprotein – interferonlarni hosil bo'lishiga olib keladi va ular orqali immunitetni gumoral hamda hujayra bo'g'imlarini ishga tushiradi.

Virus oqsillari kuchli antigen bo'lganliklaridan viruslarni neytrallovchi antitelalar hosil bo'lishiga olib keladi. Interferonlar sintezini va antitelalar hosil

bo'lishini rag'batlantiruvchi dori vositalarini yaratish ham virusli infeksiyalar bilan kurashishda ulkan kelajakka ega, deb hisoblanadi.

Dori vositalari sifatida qo'llanilayotgan viruslarga qarshi moddalar quyidagi guruhlardan iborat bo'lishlari mumkin (3-jadvalga qarang).

Sintetik vositalar:

Nukleozidlar analoglari – zidovudin, asiklovir, vidarabin, gansiklovir, trifluridin, idoksuridin

Peptidlar umumlari – sakvinavir

Adamantan unumlari – midantan, remantadin

Indolkarbon kislota unumlari – arbidol

Fosfono chumoli kislota unumlari – foskanet

Tiosemikarbazon unumlari – metisazon

Makroorganizm hujayralari ishlab chiqaruvchi biologik moddalar – interferonlar.

3-jadval. Viruslarga qarshi preparatlarni qo'llashga ko'rsatmalar

| <i>Viruslar oilasi</i> | <i>Virus / xastalik</i> | <i>Preparat</i> |
|--------------------------------------|---|--|
| DNK tutgan viruslar | | |
| Gerpes viruslar (uchuq viruslari) | Oddiy uchuq virusi: teri, shilliq qavatlar, jinsiy a'zolar uchug'i, uchuqli ensefalit, uchuqli keratit | asiklovir valasiklovir, foskarnet, vidarabin, trifluridin, idoksuridin |
| | Sitomegaloviruslar: retinit, kolit, zotiljam va boshqa-lar ¹ | gansiklovir, foskarnet, vitraven |
| | Varicella zoster virusi: o'rab oluvchi lishay, suvchechak | asiklovir, foskarnet |
| Poksviruslar | Tabiiy chechak virusi: chechak | metisazon |
| Gepadnaviruslar | Gepatit Bva C: surunkali faol gepatit | interferon- α -2 β |
| RNK tutgan viruslar | | |
| Retroviruslar | Inson immun tanqisligi virusi (VICH, HTV): | zidevudin, didanovin, zalsitabin, stavudin, |

| | | |
|-------------------|---|--|
| | VICH-infeksiya (shu jumladan SPID ham) | sakvinavir, ritonavir, indinavir, nelfinavir, nevirapin, delavirdin |
| Ortomiksoviruslar | Gripp virusi: Gripp: a) A tipdagli gripp virusi b) B tipdagli gripp virusi | remantadin, midantan (amantadin) arbidol, zanamivir, oseltamivir, ribavirin |
| Paramiksoviruslar | Respirator-sinsstitial virus: bronxiolit, zotiljam | ribavirin |

¹Sitomegalovirusli infeksiyalarning klinik belgilari xilma-xil.

Sitomegaloviruslar ba'zida og'ir oqibatli homila va perinatal infeksiyalarni tez-tez sababehisidirlar. Ushbu viruslar sitostatinlarni qo'llash sababli rivojlangan immunodepressiyalarda hamda VICH-infeksiya (OITS)da faollashadi.

Samarador viruslarga qarshi vositalarning katta guruhi purin va pirimidin nukleozidlari bilan namoyon etilgan. Ular nuklein kislotalarini sintezini ingibisiyalovchi antimetabolitlardir (3-jadvalga qarang).

Keyingi yillarda ayniqsa katta e'tibor retroviruslarga qarshi teskari transkriptaza va proteazalar ingibitorlari bo'lgan preparatlarga qaratilgan. Bu guruh moddalariga bunday katta qiziqish ularni OITS¹ni davolashda qo'llanishi bilan bog'liq. OITSni maxsus retrovirus – inson immuntanqisligi virusi (IIV; HIV¹⁷) rivojlantiradi. OITSni davolash retroviruslarga qarshi va simptomatik davolash vositalarini qo'llashni talab qiladi.

IIV infeksiyasini davolashda samarador bo'lgan retroviruslarga qarshi preparatlar quyidagi guruhlardan iborat:

1) Teskari transkriptaza ingibitorlari:

A) Nukleozidlari:

Zidovudin

Didanozin

¹Инглиз азабиётида – AIDS (Acquired immunodeficiency syndrome)
² HIV – Human immunodeficiency virus. ИИВнинг икки тури ажратилиши: ИИВ-1 (HIV-1) – ИИВ инфекшиясини ва ОИТС чакиради. Шимолий ва Жанубий Америка, Европа, Осн. ва Африкада тарқалган. Биринчи марта Марказий Африкада топилган. ИИВ-2 (HIV-2) ИИВ-1 ga ўхшаш, аммо вирулентлиги камрок. ИИВ инфекшиясини ривожлантиради. ОИТСга хос бўлан ўзгаришларини камдан-кам юзага келтиради. Асосан Гарбий Африкада учрайди.

Zalsitabin

Stavudin

B) Nukleozid bo'lmagan birikmalar

Nevirapin

Delavirdin

Efavirens

2) HIV proteazalarining ingibitorlari:

Indinavir

Ritonavir

Sakvinavir

Nelfinavir

Retroviruslarga qarshi birikmalardan biri nukleozidlarning hosilasi bo'lgan zidovudin (azidotimidin, retrovir, 3-azido-2-dezoksimidin) hisoblanadi. Uning ta'siri prinsipi shundan iboratki, u hujayralarda fosforlanib trifosfatga aylanadi va virionlarning teskari transkriptazasini ingibisiyalaydi. Shu tufayli, viruslarning RNKsidan DNK hosil bo'lismiga to'sqinlik qiladi. Natijada, iRNK va virus oqsillarini sintezi to'xtaydi. Ana shu jarayon preparatning shifobaxsh ta'siri zaminida yotadi. Preparat yaxshi so'rildi, biologik o'zlashtirilish darajasi anchagina katta. Gematoensefalik baryerdan oson o'tadi. Preparatning taxminan 75% ijigarda metabolizmga uchraydi (azidotimidinning glyukuronidi hosil bo'ladi). Zidovudinning bir qismi buyrak orqali o'zgarmagan holda ajraladi (4-jadval).

Zidovudinni qo'llash imkonii boricha erta boshlanmog'i kerak. Uning terapevtik ta'siri davolashning birinchi 6-8 oylarida yuzaga keladi. Zidovudin bemorlarni xastalikdan halos eta olmaydi, faqat uni rivojlanishini to'xtatadi. Retroviruslarni unga chidamliligi rivojlanishini e'tiborga olmoq darkor.

Noxush ta'sirlari ichida birinchi o'rinda gematolitik buzilishlar: anemiya, neytropeniya, trombositopeniya, pansitemiya teradi. Bosh og'rig'i, uyqusizlik, mialgiya, buyrak funksiyasini buzilishi bo'lishi mumkin.

HIV ga qarshi stavudin (zertil) ham samarador. U timidinning sintetik analogidir. Organizmda trifosfatga aylanadi va u teskari transkriptazani ingibisiyalashi va DNK, iRNK va virus oqsilini sintezini susaytirishi hisobiga HIV replikasiyasini bostiradi.


4-jadval. Teskari transkriptaza ingibitorlarini qiyosiy tasviri.

| Preparat | Viruslarga qarshi samaradorligi | Biologik o'zlashtirilish darajasi, % | Preparatning qon zardobida maksimal konsetrasiyada to'planish vaqt (T _{max}), soat | Yarim ajralish davri (t _{1/2}), soat | Qon o'irdobi oqsillari bilan bog'lanishi, % | Jigarda metabolizmga uchrashi, % | Buyrak orqali o'zgartagan preparatni ajralishi, % |
|------------------------------|---------------------------------|---|--|--|--|-------------------------------------|--|
| Nukleozidlar: | | | | | | | |
| Zidovudin | ++ | 60-70 | 0,5-1 | 0,8-1,9 | 20-38 | 60-80 | 15 |
| Didanozin | ++ | 40 | 0,5-0,75 | 1,0 | <5 | 50 | 20-50 |
| Zalsitabin | + | ~90 | 0,8 | 1-2 | <5 | 20 | 60-70 |
| Stavudin | ++ | 80-90 | 0,5-0,75 | 1,4 | <5 | 80 | 40 |
| Lamivudin | ++ | 80 | 0,5-1,5 | 5-7 | <35 | 20-30 | 50-85 |
| Abakavir | +++ | >70 | 0,5-0,63 | 0,8-1,5 | ~50 | >80 | <5 |
| Nukleozid birikmalar: | | | | | | | |
| Nevirapin | +++ | 90 | 2-4 | 25-30 | 60 | >97 | <3 |
| Delaverdin | +++ | 85 | 0,5 | 2-11 | 40-50 | >97 | <3 |
| Efavirens | +++ | 50 | 3,5-5 | 40-50 | 99 | >97 | <1 |

Enteral yo'l bilan kiritilganda tez va yaxshi so'rildi. biologik o'zlashtirilish miqdorda bog'lanadi. Preparatning asosiy qismi va uning metabolitlari buyrak bilan ajratiladi.

HIV bilan zararlangan bemorlarni zidovudinni davomli qo'llab bo'lgandan so'ng davolash uchun qo'llaniladi. Enteral qo'l bilan kiritiladi.

Ba'zi viruslarga qarshi vositalarning kimyoviy tuzilishi



Noxush ta'sirlar
sifatida periferik
neyropatiya, bosh og'rig'i,
isitmalash, dispepsiya,
anoreksiya, uyqusizlik,
allergik reaksiyalar
kuzatiladi.

HIV infeksiyalarni,
shu jumladan OITSni
davolash uchun didanozin
(vireks) va zalsitabin
(xivid) taklif qilingan.
Ikkala preparat
viruslarning teskari
transkriptazasini
ingibirlaydi. Noxush ta'sir

sifatida ko'proq periferik neyropatiya kuzatiladi. Surunkali pankreatitni kuchayishi, anemiya, leykopeniya, trombositopeniya, dispepsiya, jigar funksiyalarini buzilishi (didanozin uchun) rivojlanishi mumkin. Ushbu preparatni zidovudindan so'ng yoki uni samarasiz bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Enteral kiritiladi.

Ushbu guruhg'a lamivudin, abakavir (4-jadvalga qarang) ham tegishli. Nukleozid bo'lmanagan retroviruslarga qarshi preparatlarga neviramin (viramun), delavirdin (reskriptor), efavirens (sustiva) tegishli. Ular teskari transkriptazaga bevosita raqobatsiz ingibirlovchi ta'sir ko'rsatadilar. Nukleozid birikmalarga nisbatan ushbu fermentning boshqa joyi bilan birikadilar. Ushbu moddalar DNK-polimerazaga bloklovchi ta'sir ko'rsatishi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Jigarda faol metabolizmga uchraydi. Metabolitlari buyrak orqali ajraladi. Faqat HIV-I bilan

xastalanganlardagina qo'llaniladi. Noxush ta'sir sifatida ko'pincha terida toshmalar paydo bo'ladi, transaminazalarning ko'rsatgichlari ortadi.

HIV infeksiyalarini davolash uchun preparatlarning yangi guruhi – HIV proteazalarining ingibitorlari taklif etilgan. Tuzilish oqsillari va HIV virionlar fermentlarini hosil bo'lishi boshqaruvi retroviruslarning ko'payishi uchun zarurdirlar. Ushbu fermentlarning yetishmasligida viruslarning etilmagan o'tmishdoshi hosil bo'ladi, bu esa o'z navbatida infeksiyani avj olishini to'xtatadi. HIV aspartat proteazasi tuzilishi bo'yicha insonlarning ana shunday fermentidan jiddiy farqi bo'lganligi yuqori darajada tanlab ta'sir etuvchi viruslarga qarshi qayd etilgan tipdag'i preparatni yaratishga imkon beradi.

Bu guruhg'a peptidlar unumi bo'lgan – sakvinavir (inviraza), nelfinavir (virasept), indinavir, ribonavir va boshqalar tegishlidir. Ma'lum bo'lgan klinik sinovlar natijalari sintezlangan HIV proteazasi ingibitorlarining kuchli darajada retroviruslarga qarshi faollikka ega ekanligidan darak berdi.

Klinikada sakvinavir ancha keng miqyosda sinalgan. U HIV-1 va HIV-2 proteazalarining yuqori darajada va tanlab ingibisiyalovchisidir. Preparatning biologik o'zlashtirilish darajasi past bo'lishiga qaramasdan (~4%)¹ qon zardobida retroviruslami ko'payishini to'xtatuvchi konsentrasiyani hosil qiladi. Moddaning katta qismi qon zardobi oqsillari bilan bog'lanadi. Preparat enteral qo'llaniladi. Noxush ta'sirlar sifatida dispeptik buzilishlar, jigar transaminazalari faolligini ortishi, yog' almashinuvining buzilishlari, giperglikemiya kuzatiladi. Viruslar sakvinavirga chidamlilik ortirishlari mumkin.

Boshqa preparatlarning farmakokinetikasi 5-jadvalda keltirilgan. HIV infeksiyalarini davolashda HIV proteazalari ingibitorlarini boshqa preparatlar bilan qo'shib ishlatalish eng samarador hisoblanadi (masalan, sakvinavir + zidovudin; sakvinavir + zidovudin + zalsitabin). Nukleozidlarni sintetik hosilasi bo'lgan tanlab ta'sir ko'rsatuvchi uchuqqa qarshi vositalarni yaratilishi yuksak yutuq bo'ldi.

Ushbu guruhg'a mansub bo'lgan yuqori darajada samarador preparat – asiklovir (zoviraks)dir. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha u purin nukleozidlarning analogidir.

Hujayrada asiklovir fosforlanadi. Zararlangan (ya'ni infeksiya yuqqan) hujayralarga trifosfat shaklida¹ ta'sir ko'rsatib viruslar DNKsi o'sishini buzadi.

5-jadval. Ba'zi HIV-proteazasi ingibitorlarining qiyosiy tavsifnomasi.

| Preparat | Viruslarga qarshi camardanadi | Biologik o'zlashtirilish darajasi, % | Preparating qon zardobiha maksimal konsentrasiyada to'xtanish surʼati $\text{LT}_{\text{to'xtanish}} \text{ min}^{-1}$ | Yayrim ajralish davri (t_{d}), soat | Qon zardobi oqsillari bilan bog'lanishi, % | Jigarda metabolizma uchrashi, % | Orqa miya suyuqligidagi miqdori, % | Buyrak orqali o'zgarmagan preparatni ajralishi, % |
|------------|----------------------------------|---|--|--|---|------------------------------------|---------------------------------------|--|
| Sakvinavir | ++ | <4-12 | 2-4 | 7-12 | 98 | >97 | <1 | <1 |
| Nelfinavir | +++ | >78 | 2-4 | 3,5-5 | >98 | >78 | <1 | 1-2 |
| Indinavir | +++ | 60-65 | 0,8 | 1,8 | 60-65 | 88-90 | <12 | 5-12 |
| Ritonavir | +++ | 66-75 | 2-4 | 3-5 | 98-99 | >95 | 1 | 3,5-5 |

¹Sakvinavirning anchagini kattaroq biologik o'zlashtirilish darajasiga ega bo'lgan (~20%) preparati fortoviza sintezlangan

Bundan tashqari, viruslarning DNK-polimerezasiga bevosita ingibisiyalovchi ta'sir ko'rsatadi va viruslarning DNKsi replikasiyasini to'xtatadi (susaytiradi). Avval qayd etilgandek, viruslarning DNK-polimerazasi asiklovirga makroorganizmning ana shunday fermentlariga nisbatan ancha yuqori (10 martadan ko'proq) sezgirlikka ega.

Asiklovir MITdan to'liq so'rilmaydi. Maksimal konsentrasiyasi 1-2 soatdan keyin aniqlanadi. Biologik o'zlashtirilish darajasi 20%. Qon zardobi oqsillari bilan muddaning 12-15% bog'lanadi. Gematoensefalik baryerdan qoniqarli darajada o'tadi.

Preparatni asosan, oddiy uchuq (Herpes simplex)da ko'z, genitaliy va uchuq bilan boshqa joylarni shikastlanishida, ba'zan o'rab oluvchi lishay (Varicella zoster) hamda sitomegalovirusli infeksiyalarda beriladi. Asiklovirni enteral, tomirga (natriyli tuzi ko'rinishida) va mahalliy qo'llaniladi. Mahalliy qo'llanganda kuchsiz ta'sirlantiruvchi ta'sir bo'lishi mumkin. Asiklovirni tomirga kiritilganda ba'zan

buyrak funksiyalarini buzilishi, ensefalopatiya, flebit, terida toshmalar kuzatilishi mumkin. Enteral kiritilganda ko'ngil aynishi, qayt qilish, diareya, bosh oq'tig'i rivojlanadi.

Yangi uchuqqa qarshi preparat – valasiklovir (valtreks) – asiklovirning L-valietiri –asiklovirdan enteral qo'llaganda kattaroq biologik o'zlashtirilish darajasi bilan farq qiladi. Valasiklovirning biologik o'zlashtirilish darajasi ~54% bo'lib, asiklovirkidan ancha kattadir. Undan ichakda va jigardan birinchi o'tishida asiklovirkidan ajraladi va u uchuqqa qarshi ta'sirni ta'minlaydi.

Ushbu guruhg'a famsiklovir va uning faol metaboliti – gansiklovir mansub bo'lib, asiklovirga xos bo'lgan farmakodinamikaga egadirlar.

Vidarabin (adenin arabinozid) ham samarador preparatlardan hisoblanadi. Hujayraga kirgach, fosforlanadi. Viruslarning DNK-polimerazasi faolligini susaytiradi. Bunda katta – DNK tetgan viruslar replikasiyasi toxtaydi.

Organizmda qisman viruslarga qarshi kamroq faollilikka ega boigan, arabinozidni gipoksantiniga aylanadi.

Vidarabin gerpetik ensefalitda (tomir ichiga kiritiladi) muvaffaqiyatli qo'llanilmogda. Ushbu xastalikda o'limni 30-70% ga kamaytiradi. Ba'zan uni asorat bilan kechuvchi o'rab oluvchi lishayni davolashda qo'llashadi. Gerpetik konyunktivitlarda (surtima ko'rinishida mahalliy qo'llaniladi) samarador. Bunda u idoksuridingga nisbatan kamroq ta'sirlantiladi va shoh qavatni bilsini kamroq susaytiradi. To'qimaning chuqr qavatlariga osongina kiradi. Vidarabinni idoksuridrnga allergik reaksiyalar rivojlanganda va u samarasiz bo'lgan hollarda qo'llash mumkin.

Noxush ta'sir sifatida dispeptik o'zgarishlar (ko'ngil aynishi, qayt qilish, diareya), terida toshmalar, MNS tomonidan o'zgarishlar (gallyusinasiya, psixozlar, tremor va boshqalar), kiritilgan joyda tromboslebit kuzatilishi mumkin. Mahalliy trifluridin va idoksuridin qo'llaniladi.

Trifluridin va idoksuridin qo'llaniladi. Trifluridin storlangan pirimidin nukleozididir. DNK sintezini susaytiradi. Oddiy herpes (uchuq) virusi (1 va 2 tipdagii) qo'zg'atgan birlamchi keratokonyunktivitlar va qaytalovchi epithelial keratitda qo'llaniladi. Trifluridin

eritmasini ko'zni shilliq qavatiga mahalliy tomiziladi. O'tib ketuvchi mahalliy ta'sirlantiruvechi ta'sir, qovoqlar shishi kuzatilishi mumkin.

Idoksuridin (keresid, iduridin, oftan-IDU) timidinni analogi bo'lib, DNK molekulasiga kirib oladi. Shu sababli, ba'zi DNK tutgan viruslar replikasiyasini to'xtatadi. Idoksuridinni ko'zni gerpetik infeksiyalarida (keratitda) qo'llaniladi.

Qovoqlarni shishi va mahalliy ta'sirlanish bo'lishi mumkin. Preparat rezorbtiv ta'siridan foydalanishga yaramaydi. chunki uning zaharliligi juda yuqori (leykopoezni susaytiradi).

Sitomegalovirusli infeksiyalarda gansiklovir va foskarnetni qo'llashadi. Gansiklovir (simeven) 2-dezoksiguanozin nukleozidining sintetik analogidir. Ta'sir mexanizmi bo'yicha asiklovirga o'xshash. Viruslar DNKsi sintezini susaytiradi. Preparatni sitomegalovirusli rinitlarda va konyunktiva bo'shlig'iga kiritishda qo'llashadi. Tomirga noxush ta'sirlari tez-tez kuzatiladi.

Ularni ko'pchiligi har xil a'zolar va sistemalar funksiyalarini kuchli darajada buzilishiga olib keladi. Jumladan, 20-40% bemorlarda granulositopeniya, trombositopeniya kuzatiladi. Noxush nevrologik o'zgarishlar ham kam emas: bosh og'rig'i, o'tkir psixoz va boshqalar. Anemiya, terida allergik reaksiyalar, gepatotoksik ta'sir kuzatilishi mumkin. Jonivorlarda o'tkazilgan eksperimentlarda uni mutagen va teratogen ta'siri aniqlangan.

Enteral kiritilganda gansiklovir yomon so'rilganligi sababli valgansiklovir (valsit) yaratilgan. U ovqat hazm qilish sistemasidan yaxshi va tez so'rildi. Ichakdagdi enterazalar ta'sirida gansiklovirga aylanadi va u viruslarga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Ichilganda gansiklovirni biologik o'zlashtirilish darajasi 5-9% ga teng bo'lsa valgansiklovirni qo'llaganda 60% ni tashkil etadi.

Foskarnet (foskarvir) – fosfonchumoli kislotasi hosilasi. Viruslarning DNK-polimerazasini ingibisiyalaydi. OITS bilan xastalangan bemorlarda sitomegalovirusli rinitlarni davolashda qo'llaniladi. Oddiy gerpes va o'rab oluvechi lishayda asiklovir samara bermagan hollarda ham qo'llaniladi. Ovqat hazm qilish sistemasidan yomon so'rilganligi uchun tomirga kiritiladi. Gerpes (uchuq)da ham surtma sifatida qo'llaniladi, ammo asiklovirga nisbatan samarasizroqdir. Umuman

foskarnetni bemorlar gansiklovirga nisbatan yomonroq qabul qiladilar. Ammo leykopoezni kamroq susaytiradi. Preparat nefrotoksik xossasiga ega. Ko'ngil aynishi, qayt qilish, diareya, bosh og'rig'i, tirishish kuzatiladi.

"Antisensonlik oligonukleozidlar"ni yaratish fikridan kelib chiqqan holda bu tipdagi I-preparat – vitraven sitomegalovirusli infeksiyalardagi renitlarni davolashga tavsiya etilgan.

Qator preparatlar grippga qarshi vositalar sifatida samaradordirlar. Gripp infeksiyasida samarador bo'lган viruslarga qarshi preparatlar quyidagi guruhlarga bo'lingan holda namoyon bhlishi mumkin:

1) Virusning M₂ oqsili ingibitorlari:

Remantadin, midantan (amantadin)

2) Virusning neyraminidaza fermenti ingibitorlari:

Zanamivir, oseltamivir

3) Viruslarni RNK-polimerazasi ingibitorlari:

Ribavirin

4) Har xil preparatlar:

Arbidol, oksolin

Birinchi guruh M₂-oqsil ingibitorlariga tegishli ion kanali sifatida faoliyat ko'rsatuvchi membrana oqsili bo'lmish M₂ faqat A tipdagi gripp virusida topilgan. Ushbu oqsil ingibitorlari virusning "yechinish" jarayonini buzzadi va hujayrada virus genomini ajralishiga to'sqinlik qiladilar. Natijada, viruslarni replikasiyasi to'xtaydi. Bu guruhga midantan (adamantan amingidroxloridi, amantadin, simmetrel) mansub. MITdan yaxshi so'rildi. Asosan buyrak orqali ajratiladi.

Ba'zida preparatni A tipidagi grippni profilaktikasi uchun qo'llaniladi. Davolash vositasi sifatida samaradorligi kam. Midantan ko'proq parkinsonizm xastaligini davolash vositasi sifatida qo'llaniladi. Enteral qo'llaniladi (ichiladi).

Midantan MNSga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (qo'zg'aliuvchanlikning ortishi, uyquchanlik, tremor, ataksiya). Dispepsik o'zgarishlar, terini jarohatlanishi kuzatilishi mumkin.

Kimyoviy tuzilishi bhyicha midantanga o'xshagan remantadin (remantadin gidroxlorid) xuddi xuddi yuqorida keltirilgan xossalar, qo'llashga ko'rsatmalar, noxush ta'sirlarga ega. Remantadinning $t_{1/2}$ midantanga nisbatan 2 marta kattaroq va 24-30 soat ta'sir etadi. Preparat midantanga nisbatan MNSga kamroq ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli unga ko'ra anchagina ko'proq qo'llaniladi.

Ikkala preparatga ham viruslarning glikoproteidlarga mansub bo'lган. A va B tipdag'i gripp viruslarining yuzasida hosil bo'luvchi neyraminidaza fermentini ingibisiyalaydi. Ushbu ferment virusni respirator (nafas olish) traktidagi "nishon" hujayraga kirishiga yordam beradi. Neyraminidazaning spesifik ingibitorlari (raqobatdosh, qayta ta'sirli) viruslarni zararlangan hujayralardan boshqalariga tarqalishiga to'sqinlik qiladilar. Viruslarning replikasiysi buziladi.

Ushbu fermentni ingibitorlaridan biri bo'lib zanamivir (relensa) hisoblanadi. Uni intranasal yoki ingalyasion (kukunda) qo'llashadi. Ingalyasiya qilinganda preparatni biologik o'zlashtirilish darajasi taxminan 15% ni tashkil etadi. $t_{1/2} \sim 2$ soat. Preparat buyrak orqali ajratiladi. Mahalliy qo'llanganda noxush ta'sirlar aniqlanmagan. Kamdan-kam hollarda nafas yo'llari patologiyasi bo'lganda bronxospazm kuzatiladi.

Ikkinci preparat – oseltamivir (tamiflu) – etil efiri ko'rinishida qo'llaniladi. U ovqat hazm qilish sistemasidan yaxshi so'riladi, tez gidrolizlanadi (ichakda, jigarda, qonda). Faol metabolitining biologik o'zlashtirilish darajasi 80% ga yaqin. Qon zardobida maksimal konsentrasiysi 3-4 soatdan keyin aniqlanadi. $t_{1/2} \sim 6-10$ soat. Buyrak orqali ajratiladi. Preparatni bemorlar yaxshi qabul qiladilar. Ammo ularning 15%ida ko'ngil aynishi, kamroq qayt qilish kuzatiladi. Dispepsik o'zgarishlarni kamaytirish uchun preparatni ovqatlanish vaqtida qabul qilish tavsiya etiladi.

Gripp va boshqa virusli infeksiyalarda qo'llaniladigan preparatlar yaratilgan. Nuklein kislotalari sintezini ingibisiyalovchi sintetik preparatlar guruhiga ribavirin (ribamidil) mansub. U guanozin analogidir. Preparat organizmda fosforlanadi. Ribavirinning monofosfati guaninli nukleotidlar sintezini susaytiradi, uchfosfati esa viruslarning RNK-polimerazasini ingibisiyalab iRNK hosil bo'lishini buzadi.

A va B tipdagi grippda, og'ir kechuvchi respirator sinsital virusli infeksiyalar (ingalyasion kiritiladi), buyrak sindromi bilan kechuvchi gemorragik isitmalash va Lass isitmalashida (tomirga kiritiladi) samaradordir. Noxush ta'sir sifatida terida toshmalar, konyunktivit kuzatiladi. Eksperimentda ribavirin mutagen, teratogen va kanserogen ta'sirlarga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Har xil preparatlarga arbidol mansub. U indol unumidir. A va B tipidagi viruslar qo'zg'atgan grippni hamda o'tkir respirator virusli infeksiyalarni davolash va oldini olish uchun qo'llaniladi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra arbidol o'rtamiyon antivirus ta'siridan tashqari, interferonogen faollikka ega. Bundan tashqari u hujayra va gumoral immunitetni rag'batlantiradi. Preparat ichiladi. Bemorlar uni yaxshi qabul qiladilar.

Bu guruhga virumisid ta'sir ko'rsatuvchi oksolini ham kiritish mumkin. U gripp, virus etiologiyali rinitlar, adenovirusli¹ keratokonyunktivit, gerpetik keratit, terining ba'zi virusli xastaliklari (oddiy pufakli va oddiy temiratki)ni

Pikarnaviruslar, jumladan, rinoviruslarga (RNK tutgan viruslarga kiradi) qarshi vositalarni yaratish juda muhim muammo hisoblanadi. Ushbu viruslar shamollash nomli xastalik sifatida ma'lum bo'lgan o'tkir respirator virusli infeksiyalar (ORVI)ni sababehisidir. Ushbu patologiya juda ko'p uchraydi. Vaksinalash bu holda samara bermaydi, chunki rinoviruslarni 100 dan ortiq serotiplari mayjud. Shu sababli, rinoviruslarni har qanday shtammlariga halokatli ta'sir ko'rsatuvchi dori preparatlari zarur. Bu borada keyingi vaqtarda ma'lum yutuqlarga erishildi. Samarador birikmalarni yaratish bo'yicha izlanishlar quyidagi yo'nalishlarda olib borildi;

- 1) "Nishon" hujayra sirtidagi reseptorlar bilan viruslarni bog'lanishiga qarshilik qiluvchi moddalarni yaratish.
- 2) Viruslarning replikasiyasi uchun zarur bo'lgan, oqsil sinteziga qatnashuvchi proteazalarni ingibitorlarini izlash.
- 3) Viruslarni "nishon" hujayra reseptorlarida viruslarning fiksasiyasiga, hujayra ichiga kirishi va RNK ajralishini ta'minlaydigan deproteinizasiya jarayoniga

qarshilik qiluvchi, virus kapsidi oqsil qobig'ining funksiyasini ingibisiyalovchilarini yaratish.

Ushbu yo'nalishlarning har birida samarador moddalar olingen bo'lsada, ammolular xossalaring jamiga ko'ra klinikada qo'llanishga yetarlicha mukammal bo'lmadilar.

Kelajagi bor bo'lgan birikmalardan bitta plekonaril (kapsid funksiyasini ingibitori) bo'ldi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, u yuqori samaradorlikka, yaxshi biologik o'zlashtirilish darajasiga va keraklicha xavfsizlikka ega.

Plektonaril hozirda tekshirish jarayonida bo'lib, uni kelajagi borligi to'g'risida fikr bildirish qiyinroq. Amмо, u birinchi o'ziga xos pikarnaviruslarga qarshi birikma¹ sifatida ta'kidlashga arziydi.

Metisazon (marboran) kuchli antivirus faoliyikka ega. U chechak virusiga qarshi samarador. Uning ta'sir mexanizmi chamasi viruslarning struktur oqsilini sintezini susaytirib virionlarni yig'ish jarayonini buzish bo'lsa kerak.

Preparatni chechak xastaligi oldini olish hamda chechakka qarshi emlash asoratlarini kamaytirish uchun qo'llashadi. Metisazonni ichishga tavsiya etishadi.

Noxush ta'sirlar sifatida ko'proq dispepsik o'zgarishlar (ko'ngil aynishi, qayt qilish) kuzatiladi. Metisazonni jigar, buyrak, me'da-ichak traktining og'ir xastaliklarida qo'llash taqiqlanadi.

Keltirilgan preparatlar sintetik birikmalarga oid. Shu bilan bir qatorda viruslarga qarshi terapiyada biogen moddalar, ayniqsa interferon ham qo'llaniladi.

Interferonni virusli infeksiyalarni profilaktikasi uchun qo'llashadi. Ular past molekulyar glikoproteidlarga mansub bo'lib, organizm hujayralari tomonidan ularga viruslar va boshqa endo- va ekzogen biologik faol moddalar ta'sir ko'rsatganda ishlab chiqariladi. Interferonlar infeksiyanini eng avvalgi davrida hosil bo'ladi. Ular viruslarning jarohatlovchi ta'siriga hujayralar turg'unligini oshiradilar. Viruslarga qarshi keng spektrga ega ekanliklari bilan ajralib turadilar.

Ma'lum viruslarga qarshi spesifik ta'sir ko'rsatish xossaliga ega emas, ammolar makroorganizm hujayralariga nishbatan kuchli darajada turga xoslikka egadir.

Viruslarda interferonlarga qarshi chidamlilik rivojlanmaydi. Sog'ayib ketgandan bir necha haftadan so'ng qonda interferonlar aniqlanmaydi.

Inson interferonlarining 1^u tomirga kiritilganda 2-4 soatga teng. Gematoensefalik baryerdan interferonlar amaliy jihatdan o'tmaydilar.

3 xil interferonlar ma'lum: α (leykositlarniki; IFN- α), β (fibroblastlarniki; IFN- β) va γ (immun interferoni, asosan T-limfositlar ishlab chiqaradi; IFN- γ). Hozirdi vaqtida gen muhandisligi usuli bilan inson interferonlarining uchala xili olingan. Viruslarga qarshi vosita sifatida asosan tabiiy va rekombinant (intron-A, roferon-A, alferon va boshqalar) α -interferon preparatlari (α -2a va α -2b) qo'llaniladi.

Virusli infeksiyalarni davolashda interferonlarni tutgan o'miga aniqlik kiritish lozim. Gerpetik keratitda, teri va jinsiy a'zolarni gerpetik jarohatlanishida, o'tkir respirator virusli infeksiyalarda, o'rabi oluvchi temiratki, B va C virusli hepatitda, OITSda ozmi-ko'pmi darajada interferonlarning samaradorligi kuzatilgan. Interferonlarni mahalliy va parenteral (tomirga, teri ostiga, mushakka) qo'llashadi.

Noxush ta'sirlar sifatida tana haroratini oshishi, eritemalarni hosil bo'lishi va preparat kiritilgan joyda og'riq bo'lishi mumkin. Kuchayuvchi holsizlik (charchoq) kuzatiladi. Interferonlar katta dozalarda qon hosil bo'lishini susaytirishi mumkin (granulositopeniya va trombositopeniya rivojlanadi). Ayrim hollarda allergik reaksiyalar qayd etilgan.

Interferon α -2ani bis-monometoksipolietenglikol bilan konyugati bo'lgan pegasus preparati tavsiya etilgan. Haftada 1 marta teri ostiga kiritiladi. Kattalarda sirrozsiz yoki kompensasiyalangan sirrozli surunkali hepatit Cni davolash uchun tavsiya etilgan.

Interferonlar viruslarga qarshi ta'siridan tashqari hujayralarga qarshi, o'simtalarga qarshi va immunomodulyatorlik faollikka egadirlar. Ular normal va o'simta hujayralarini ko'payishini to'xtatadilar. Ehtimol, bu hujayralarni bo'linishini susaytirishi bilan bog'liq o'lishi mumkin.

Asosan T-limfositlar ishlab chiqaruvchi immun interferoni (γ -interferon, T-interferon) sitokindir. U antiproliferativ faollikka ega hamda makrofaglar va tabiiy killer hujayralarning sitotoksikligini oshiradi.

Interferonlar hosil bo'lishini nafaqat viruslar, balki ko'pgina bakteriyalar, rikketsiyalar, zamburug'lar va mog'orlarning ekstraktlari hamda turli kimyoviy birikmalar ham kuchaytirish xossasiga egadirlar. Ba'zi interferonogenlarni tabobat amaliyotida qo'llashadi. Jumladan, ko'zning virusli infeksiyalarida poludan nomi bilan atalgan interferonogen qo'llaniladi. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha u poliadeniluridil kislotasidir. Preparatni kon'yunktiva qopchasiga tomiziladi hamda subkon'yunktivaga kiritiladi. Ichish uchun endogen interferon induktori – amiksin yaratilgan. U fluorenlar guruhiga mansub past molekulalı sintetik birikma bo'lib, T-hujayralarni interferon ishlab chiqarishini kuchaytiradi. Bundan tashqari, immunostimulyator va bevosita antivirus ta'sir ko'rsatadi.

Grippda va boshqa ortkir respirator virusli infeksiyalar, Ava Bgepatitida, neyrovirusli infeksiyalar, uchuq, sitomegalovirusli infeksiyalarda qo'llaniladi. Preparatni bemorlar yaxshi o'zlashtiradilar. 1-2 marta qo'llanganda noxush ta'sirlar rivojlanmaydi. Ammo ko'p marta qo'llansa kumulyasiyalanadi. Ximioterapevtik ta'sir kengligi katta emas (xavfsizlik koeffisienti 2-4 ga teng). Individual ko'tara olmaslik ehtimol mavjud. Homiladorlikda qo'llash mumkin emas. Interferon- β ni nerv sistemasini surunkali demielinizasiyalanuvchi xastaliklari guruhiga mansub bo'lgan tarqoq sklerozda qo'llanishi yangi yo'nalishdir. Ushbu patologiya anchagina ko'p uchraydi, ayniqsa, yoshlarda va tez nogironlikka olib keladi. Yaqinda tarqoq sklerozda qo'llash uchun gen muhandisligi usuli bilan yaratilgan interferon β -1b taklif etildi. Ushbu preparatga betaferon nomi berildi. Viruslar tarqoq sklerozni rivojlanishida ma'lum ahamiyatga ega ekanligi (ehtimol, trigger omili sifatida) to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu sitokinni qo'llashga yo'llanma bo'ldi. Ushbu xastalikni zamонавиy davolash asosini immunoterapiya tashkil etadi. Ammo, kompleks davolash vositalari ichida faqat betaferon haqiqiy samarador ekan. U bemorlarni xastalikdan halos eta olmaydi. Ilek sezilarli darajada xastalik kattalashishi soni va uning og'irligini kamaytiradi hamda xastalikni rivojlanishini sekinlashtiradi. Remittirlanuvchi va ikkilamchi kuchayib ketuvchi tarqoq sklerozni davolashda betaferon birinchi davo vositasidir. Preparatni teri ostiga kiritiladi. Xalqaro ta'sir birligida dozalanadi. Bemorlar preparatni yaxshi o'zlashtiradilar.

ammotez-tez uni kiritilgan joyida mahalliy reaksiya (terini qizarishi, og'riq) kuzatiladi. Shu sababli kiritiladigan joyni o'zgartirib turiladi. Ko'pineha isitmalash, umumiy holsizlik, mushaklarda og'riq (grippga o'xshash holat). Ba'zida limfopeniya, anemiya, neytropeniya, trombositopeniya rivojlanadi. Hayz ko'rish sikli buzilishi mumkin. Uzil-kesil betaferonning samaradorligi va xavfsizligi to'g'risida hulosa chiqarish uchun davomli va keng miqyosli tekshirishlar zarurdir.

Preparatlar:

| Nomi | Kiritish yo'lli | Chiqarish shakli |
|-----------------------------|---|---|
| Midantan –Midantanum | Enteral, 0,1 g | Qobiqli tabletkalar, 0,1 g |
| Remantadin – Remantadimum | Enteral, 0,05-0,1 g | Tabletkalar, 0,05 g |
| Idoksuridin –Idoxuridine | Konyunktivaga, shilliq qavatlar, sirtga | Sochma: 0,25%, 0,5%, 1%, 2% va 3% surtmalar |
| Oksolin –Oxolinum | Konyunktivaga, shilliq qavatlar, sirtga | Sochma: 0,25%, 0,5%, 1%, 2% va 3% surtmalar |
| Asiklovir –Acyclovir | Enteral, 0,2 g, tomirga, sirtga | Tabletkalar 0,2 g, 5% surtma 3% surtma ko'zga, 0,25 g dan flakonlarda |
| Valasiklovir – Valacyclovir | Enteral, 0,5-1 g | Tabletkalar 0,5 g |
| Gansiklovir –Gancyclovir | Tomirga 0,005-0,006 g/kg | 0,546 g gansiklovir natriy kukunini tutgan flakonlar |
| Ribavirin –Ribavirin | Enteral | Tabletkalar, 0,25 |
| Zidovudin –Zidovudine | Enteral | Kapsulalar, 0,1 g |
| Arbidol –Arbidolum | Enteral | Tabletkalar 0,025; 0,05 va 0,1 g |
| Amiksin - Amixinum | Enteral | Tabletkalar 0,125 |

25-BOB . ZAMBURUG'LARGA QARSHI VOSITALAR

Patogen va shartli patogen zamburug'lar keng tarqalgan xastaliklarni (mikozlar¹) rivojlantiradilar. Xastalikni qo'zg'atuvchisiga qarab, ularga mos keluvchi ta'sir spektriga ega bo'lgan zamburug'larga qarshi vosita beriladi. Bundan tashqari preparatni tanlashda ularni o'zlariga xos farmakokinetikasi va zaharliligi ahamiyatlidir.

1. Patogen zamburug'lar bilan qo'zg'atgan xastaliklarni davolashda qo'llaniladigan vositalar:

1) Chuqur yoki sistemali mikozlarda (koksidiodomikoz, parakoksidiomikoz, gisto-plazmoz, kriptokokkoz, blastomikoz)

Antibiotiklar – amfoterisin B, mikogeptan

Imidazol umumlari – mikonazol, ketokonazol

|Grechka mykes - zamburug'

Triazol umumlari – itrakonazol, flukonazol

2) Epidermomikozlarda (dermatomikozlarda)

Antibiotiklar – grizeofulvin

N-metilnaftalin umumlari – terbinafin (lamizil, terbizil)

Nitrofenol umumlari – nitrosfungin

Yod preparatlari – yodning spirtli eritmasi, kaliy yodid

2. Shartli patogen zamburug'lar qo'zg'atgan xastaliklarni davolashda qo'llaniladigan vositalar (masalan, kandidomikoz):

Antibiotiklar – nistatin, levorin, amfoterisin B

Imidazol umumlari – mikonazol, klotrimazol

Bis-to'rt ammoniy tuzi – dekamin

Sistemali mikozlarda (gistoplazmoz, kriptokokkoz, blastomikoz, koxsidiodomikozlarda) asosiy davolash preparati – amfoterisin B (amfostatin, fungizon)dir. U Streptomyces nodosum ishlab chiqaradigan polien antibiotigi hisoblanadi. Bakteriyalar, rikketsiy va viruslarga ta'sir ko'rsatmaydi. Asosan, zamburug'lar hujayra membranasi o'tkazuvchanligini va uning transport funksiyasini bузilishi bilan bog'liq bo'lgan fungistatik ta'sirga ega. Amfoterisin Bning zamburug'larga qarshi tanlab ta'sir ko'rsatishining sababi shundan iboratki, u zamburug'lar devorining asosiy lipidini bo'lmish ergostero! bilan bog'lanadi, (inson va bakteriyalarda asosiy lipid holesterin hisoblanadi). Amfoterisin Bga chidamlilik sekin rivojlanadi.

Me'da-ichak traktidan preparat yomon so'rilganligi uchun tomir ichiga kiritiladi. Gematoensefalik baryerdan amfoterisin B o'tmaganligidan uni miya pardalari ostiga kiritiladi. Bundan tashqari uni tana bo'shliliklariga ingalyasion kiritiladi va mahalliy qo'llashadi. Organizmdan buyrak orgali ajraladi. Preparatni ajratilishi juda sekin kechadi (bir haftada 20-40%).

Amfoterisin B yuqori zaharlilikka ega. Uni kumulyasiyalanish xossasi buni yana chiqurlashtiradi. Noxush ta'siri tez-tez kuzatiladi, ularni ko'pchiligi yetarlicha jiddiy. Amfoterisin Bni qo'llaganda dispepsik o'zgarishlar, isitmalash, qon bosimini tushishi, nefrotoksik ta'sirlar, anemiya, gipokalsiemiya, neyrotoksik buzilishlar, tromboflebitlar, turli xil allergik reaksiyalar kuzatiladi.

Amfoterisin B bilan davolash stasionar sharoitda jigar, buyrak faoliyatini, qon tarkibini va qonda ionlar miqdori muntazam nazorat qilib turish bilan o'tkaziladi. Jigar va buyrak xastaliklarida amfoterisin B ni qo'llash man etilgan.

Sistemali mikozlarni davolashda qo'llaniladigan imidazol va triazol unumi bo'lgan sintetik birikmalar zamburug'lар hujayra membranalarida ergosterol sintezini buzadilar. Bu o'z navbatida, hujayra membranasi funksiyasini buzadi va zamburug'lар replikasiyasini susaytiradi.

Sistemali ta'sirga ega bo'lgan imidazol unumlariga mikonazol, ketokonazol mansub.

Mikonazolni tomir ichiga, enteral, kamdan-kam bosh miya pardalari ostiga (gematoensefalik baryerdan yomon o'tadi) kiritiladi. Koksidioidomikoz, kriptokokkoz, parakoksidiomikoz, blastomikoz hamda disseminirlangan kandidomikozlarda mikonazolni parenteral qo'llashadi. Mikonazolni qinning shilliq qavatini jarohatlanishida va dermatomikozlarda mahalliy qo'llashadi. Preparat ko'p noxush ta'sirlr rivojlantiradi: tromboflebit, ko'ngil aynishi, anemiya, giperlipidemiya, giponatriemiya, kamdan-kam holatlarda leykopeniya, allergik reaksiyalar va boshqalar. Tez-tez rivojlanadigan noxush asoratlari mikonazolni qo'llashni cheklaydi. Preparat amfoterisinga nisbatan kamzaharroq.

Ketokonazol ichiladi. U ovqat hazm qilish traktidan yaxshi so'rildi va ko'pgina to'qimalarga tarqaladi. Ammo MNSga yomon o'tadi. Uning taxminan 90%

qon zardobi oqsillari bilan bog'lanadi. Ketokonazol jigarda metabolizmga uchraydi. Peshob va safro tarkibida ajraladi. $t_{1/2} \sim 8$ soat. Preparatni blastomikoz, gistoplazmoz, parakoksiomikoz, anixomikoz, ko'pgina shilliq qavatlarni Candida bilan jarohatlanishida qo'llashadi. Yuqori darajadagi zaharliligi bilan xarakterlanadi. Gepatotoksik ta'sirga ega. Ko'ngil aynishi, qayt qilish kuzatilishi mumkin.

Triazol unumlaridan sistemali mikozlarda flukonazol, itrakonazolni qo'llashadi.

Flukonazol (diflukan, maksosist) enteral kiritilganda yaxshi so'rildi. Gematoensefalik baryerdan kerakli miqdorda o'tadi. $t_{1/2} \sim 30$ soat. Buyrak orqali o'zgarmagan holda ajraladi. Zamburug'lар rivojlantirgan meningit (masalan, kriptokokkozda)larda, koxsidioidomikoz, kandidomikozlarda qo'llashadi. Noxush ta'sirlari: dispepsiya, jigar funksiyasini susayishi, terida toshmalar va boshqalar.

Ushbu kimyoviy guruhgа itrakonazol ham mansub. Uni enteral qo'llashadi. Qoniqarli darajada so'rildi. Gematoensefalik to'siqdan o'tmaydi. Preparat jigarda metabolizmga uchraydi. $t_{1/2} \sim 36$ soat. Buyrak orqali ajratiladi. Gistoplazmoz, blastomikoz, koxsidioidomikozlarda qo'llanadi. Noxush ta'sirlari: dispepsik buzilishlar, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, jigar funksiyasining susayishi, terida allergik toshmalarda namoyon bo'ladi.

Dermatomikozlarni davolashda qo'llaniladigan preparatlarga antibiotik grizeofulvin va sintetik preparatlar guruhi kiradi.

Grizeofulvin (grisin, grifulvin)ni Penicillium griseofulvinum ishlab chiqaradi. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha zamburug'larga qarshi qo'llaniladigan antibiotiklardan farq qiladi. Grizeofulvinni fungistatik ta'siri chamasи nuklein kislotalarini sintezini susayishi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Sistemali (tarqalgan) mikozlarni rivojlantiruvchi Candida, aktinomisetlar va boshqa zamburug'larga, bakteriyalar, rikketsiyalar va viruslarga u ta'sir ko'rsatmaydi. Dermatomikozlarni grizeofulvin bilan davolashda unga chidamlilik rivojlanmaydi.

Me'da-ichak traktidan preparat yaxshi so'rildi. Qonda 3-4 soatdan so'ng eng katta konsentrasiyasi aniqlanadi. Grizeofulvin ko'p miqdorda kerattini mujassamlashtiruvchi hujayralarda ko'p miqdorda to'planadi va shu sababli terining

muguz qavati, tuklar va tirmoqlar dermatomiset zamburug'larga qarshi chidamlilik orttiradilar. Grizeofulvin organizmdan sekin ajraladi. Qon zardobidagi miqdorini 50% kamayishi taxminan 20 soatlarda kuzatiladi. Preparatning kattagina qismi organizmda metabolizmga uchraydi (jigarda). Bunda hosil bo'lgan birikmalar va o'zgarmagan grizeofulvin buyrak va ichak orqali chiqariladi.


Dermatomikozlarda rezorbтив ta'sir uchun preparat ichiladi. Surtma sisfatida dimetilsulfoksid (DMSO) bilan birga mahalliy qo'llashadi. Grizeofulvin bilan davolashni boshqa zamburug'larga qarshi vositalarni birgalikda mahalliy qo'llash yaxshi natija beradi.

Terbinafin (lamizil, terbizil) samarador sintetik preparatdir. U zamburug'larning hujayta qobig'i hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan ergosterol sintezini susaytiradi. Fungisid ta'sir ko'rsatadi. Enteral kiritiladi. Terida, *teri osti* yog'to'qimasida yig'iladi. Jigarda metabolizmga uchraydi.

BA'ZI ZAMBURUG'LARGA QARSHI VOSITALARNING KIMYOVIY TUZILISHI

Metabolitlari buyrak bilan ajraladi. Asosan onixomikozda (tirnoqlarning jarohatlanishi) qo'llaniladi. Boshqa dermatomikozlarda (trixosigiya, mikrosporiya), terini Candida bilan jarohatlanishida, kepakli temiratkida ham samarador.

Preparatni enteral qo'llaganda ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i, terida toshmalar, ba'zida mushaklar va



bo'g'img'larda og'riq, kamdan-kam hollarda jigar funksiyasida salbiy o'zgarishlar kabi noxush ta'sirlar kuzatiladi. Terbinasinni krem ko'rinishida mahalliy ham qo'llashadi.

Terining zamburug'li xastaliklarda bir qator dorilarni mahalliy qo'llashadi. Mikonazol, klotrimazol, undesilen kislotasi preparatlari va uning tuzlari (masalan, "sinkundan", "undesin", mikoseptin surtmalari), nitrofungin, yod preparatlari va boshqalar.

Kandidomikozlarni¹ davolashda nistatin (fungistatin, mikostatin) antibiotigini ayniqsa ko'p qo'llashadi. Uni Streptomyces noursei ishlab chiqaradi. Amfoterisin B kabi polien tuzilishli antibiotiklarga mansub. Nistatinning fungistatik va fungisid

ta'siri Candida tipidagi zamburug'larning hujayra qobig'i o'tkazuvchanligini buzilishi bilan bog'liqidir. Kandidomikozlarni davolashda nistatinga chidamlilik odatda rivojlanmaydi. Bakteriyalarga preparat juda katta konsentrasiyalardagina ta'sir etganligidan u amaliy ahamiyatga ega emas.

Kandidomikoz bilan me'da-ichak trakti jarohatlanganda nistatin enteral qo'llaniladi. U ichakdan yomon so'rildi. Uni mahalliy ham qo'llashadi.

Septik shaklida nistatin ichilganda qonda fungistatik konsentrasiya hosil qiladigan juda katta dozalarda qo'llanganda samarador. Keng tarqalgan kandidomikozda nistatinning samaradorligi *yeterlicha bo'lmasa*, uni amfoterisin B bilan almashtirishadi.

Bemorlar nistatinni yaxshi qabul qiladilar. Uning zaharliligi past. Noxush ta'sirlar sifatida ba'zan dispepsik orzgarishlar (ko'ngil aynishi, diareya)ni kuzatishadi.

Kandidomikozlarni davolashda levorin yoki uni natriyli tuzini qo'llashadi. Levorin polien guruhi antibiotiklariga mansub. Streptomyces levoris mahsulotidir. Nistatinga nisbatan zaharliroq. Noxush ta'sirlarni ko'proq rivojlantiradi. Nistatin samarasiz bo'lgan ba'zi holatlarda shisobaxsh ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu zamburug'larga qarshi preparatlar guruhiga mikonazol kabi imidazol hosilasi bo'lgan klotrimazol ham mansub. Asosan, polien antibiotiklariga chidamlilik ortirgan kandidomikozlarda mahalliy qo'llashadi. Preparatning zaharliligi yuqori bo'lganligidan uni boshqa yo'l bilan kiritish mumkin emas.

Kandidomikozlarni davolashda ba'zan bis-to'rtlik birikma dekaminni mahalliy qiladilar.

Preparatlar

| Nomi | Kiritish yo'li | Chiqarish shakli |
|-------------------------------------|---|--|
| Amfoterisin B – Amphotericinum B | Tomir ichiga tomchilab, sirtga surtma, ingalyasiya | Flakonlar 50000 TB, 15 va 30 g surtma (1 g da 30000 TB) |
| Ketokonazol – Ketoconazole | Ichish uchun | 0,2 g tabletkalar |
| Flukonazol – Fluconazole | Tomir ichiga, ichish uchun | 0,2% eritma ampulalarda, kapsula 0,05; 0,1 va 0,2 g dan; 0,5% sirop |
| Grizeofulvin – Griseofulvinum | Ichish uchun | 0,125 g tabletkalar |
| Terbinafin – Terbinafine | Ichish uchun, sirtga | 0,125 va 0,25 g tabletkalar; 1% surtma |
| Nitrofungin – Nitrofungine | Sirtga | 25 ml dan flakonlarda |
| Nistatin – Nystatinum | Ichish uchun, rektal, intravaginal, sirtga | 250000 va 500000 TB tabletkalar; shamchalar, 15 va 30 g surtma (1 g da 100000 TB) |
| Levorin – Levorinum | Ichish uchun, sirtga, lunjga, intravaginal | 500000 TB tabletkalar, shimalidigan tabletkalar, 1 g da 500000 TB bo'lgan surtma 30 va 50g |
| Dekamin – Decaminum | Til ostiga, lunjga, sirtga | 0,00015 li karamel; 0,5% va 1% surtma 30 va 60 g dan |

26-BOB. SODDA JONIVORLARGA QARSHI VOSITALAR

Patogen sodda jonivorlar qo'zg'atadigan xastaliklarni davolash uchun juda ko'p preparatlar taklif etilgan. Quyida keltirilgan tasnifda ularni asosiy guruqlariga tegishli ximioterapevtik vositalar ko'rsatilgan.

1) Bezgakni profilaktikasi va davolash vositalari

Xingamin, primaxin, xloridin, xinin, mefloxin, sulfanilamidlar va sulfonlar

2) Amebiozni davolash vositalari

Metronidazol, xingamin, tetrasiklinlar, xiniofon, emetin gidroxlorid

3) Lyambliozni davolash vositalari

Metronidazol, furazolidon, akrixin

- 4) Trixomonozni davolash vositalari
Metronidazol, tinidazol, trixomonosid, furazolidon
- 5) Toksoplazmozni davolash vositalari
Xloridin, sulfadimizin
- 6) Balantidiozni davolash vositalari
Tetrasiklinlar, monomisin, xinioson
- 7) Leyshmaniozni davolash vositalari
Solyusurmin, natriy stigoglyukonat, metronidazol.

BEZGAKNING OLDINI OLİSH VA DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Iqlimi issiq bo'lgan ko'pgina davlatlarda bezgak hozirgacha eng ko'p uchraydigan xastalik bo'lib qolmoqda. Bizni davlatimizda bezgak juda kam uchraydi. Bezugakni qo'zg'atuvchisi plazmositlardir. Uch kunlik bezgakni Plasmodium vivax va P. ovale, tropik bezgakni P. falciparum, to'rt kunlikni P. Malariae rivojlanadir. Bezugakni eng ko'p qo'zg'atuvehi P. vivax va P. falciparum hisoblanadi. Bezugak plazmodiysi rivojlanishi ikkita sikldan iborat. Inson organizmida jinssiz (shizogoniya) sikli, chivin tanasida jinsiy (sporogoniya) sikli kechadi.

Chivin chaqqanda inson organizmiga sporozoitlar tushib tezda jigar hujayralariga o'mashadi. U yerda ular rivojlanish siklini (plazmositlarni preeritrositar shakkllari) o'tab, keyin bo'linib to'qima merozoitlariga aylanadilar. Merozoitlar qonga o'tib eritrositlar ichiga kiradilar va u yerda eritrositar shakkllarini rivojlanishi kechadi. Ularda shizontlar yetilgach, uning yuqori darajada bo'linishi (merulyasiya) kuzatiladi. Bunda hosil bo'lgan eritrositar merozoitlar (morulalar) qonga chiqib boshqa eritrositlarga kiradilar va shizogoniya sikli yana qaytalanadi. Eritrositlarning yorilishi va merozoitlarni qonga chiqish vaqtি isitmalash xurujida namoyon bo'ladi.

- 4) Trixomonozni davolash vositalari
Metronidazol, tinidazol, trixomonosid, furazolidon
- 5) Toksoplazmozni davolash vositalari
Xloridin, sulfadimizin
- 6) Balantidiozni davolash vositalari
Tetrasiklinlar, monomisin, xinioson
- 7) Leyshmaniozni davolash vositalari
Solyusurmin, natriy stigoglyukonat, metronidazol.

BEZGAKNING OLDINI OLİSH VA DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Iqlimi issiq bo'lgan ko'pgina davlatlarda bezgak hozirgacha eng ko'p uchraydigan xastalik bo'lib qolmoqda. Bizni davlatimizda bezgak juda kam uchraydi. Bezgakni qo'zg'atuvehisi plazmositlardir. Uch kunlik bezgakni *P. Plasmodium vivax* va *P. ovale*, tropik bezgakni *P. Falciparum*, to'rt kunlikni *P. Malariae* rivojlaniradi. Bezgakni eng ko'p qo'zg'atuvchi *P. vivax* va *P. falciparum* hisoblanadi. Bezgak plazmodiysi rivojlanishi ikkita sikldan iborat. Inson organizmida jinssiz (shizogoniya) sikli, chivin tanasida jinsiy (sporogoniya) sikli kechadi.

Chivin chaqqanda inson organizmiga sporozoitlar tushib tezda jigar hujayralariga o'rnatshadi. U yerda ular rivojlanish siklini (plazmositlarni preeritrositar shakkllari) o'tab, keyin bo'linib to'qima merozoitlariga aylanadilar. Merozoitlar qonga o'tib eritrositlar ichiga kiradilar va u yerda eritrositar shakkllarini rivojlanishi kechadi. Ularda shizontlar yetilgach, uning yuqori darajada bo'linishi (merulyasiya) kuzatiladi. Bunda hosil bo'lgan eritrositar merozoitlar (morulalar) qonga chiqib boshqa eritrositlarga kiradilar va shizogoniya sikli yana qaytalanadi. Eritrositlarning yorilishi va merozoitlami qonga chiqish vaqtি isitmalash xurujida namoyon bo'ladi.

Eritrositar merozoitlarning bir qismidan jinsiy hujayralar – gamontlar hosil bo'ladi. Ularni urchishi faqat chivin tanasida kechadi. Jinsiy sikl sporozoitlarni hosil bo'lishi bilan tugallanadi va ular chivin chaqqanda uning so'lagi orqali inson qoniga o'tadi va bezgak plazmodiyalarining yangitdan jinssiz rivojlanish sikli boshlanishiga sabab bo'ladi.

Uch kunlik, balki to'rt kunlik bezgakda preeritrositar sikl nihoyasida to'qima merozoitlarining bir qismi yana jigar hujayralariga kiradilar va u yerda davomli muddatda rivojlanish, klinik belgilarni yuzaga chiqarmagan holda, sikni qaytaradilar. Plazmodiyarlari bu shakli paraeritrositar, deb nomlangan. Ular plazmodiyarning rivojlanish eritrositar shaklini va xastalikni kech qaytalanishini ta'minlaydilar. Tropik bezgakda paraeritrositar shakli bo'lmaydi.

Bezgak ximioterapiyasida birinchi marta xin daraxti po'stlog'idan ajratilgan xinin qo'llangan. Keyinchalik juda ko'p sintetik preparatlar yaratilgan.

Kimyoviy tuzilishi bo'yicha bezgakka qarshi vositalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

A) Xinolin unumlari

4-o'rin olgan xinolinlar Xingamin (xlorkin), xinin, mefloxin

8-aminoxinolinlar Primaxin

B) Pirimidin¹ unumlari Xloridin (pirimetamin)

(kimyoviy tuzilishlariga qarang)


Bezgakka qarshi vositalar bir-biridan inson organizmida plazmodiyarni rivojlanish shakllariga nisbatan ta'sir yetishi bo'yicha farq qiladilar. SHunga asosan quyidagilarga ajratilgan:

- 1) Gematoshizotrop vositalar (eritrositar shizontlarga ta'sir etadilar)
- 2) Gistoshizotrop vositalar (to'qima shizontlariga ta'sir etadilar)
 - a) preeritrositar (birlamchi to'qima) shakllariga ta'sir ko'rsatuvchilar
 - b) paraeritrositar (ikkilamchi to'qima) shakllariga ta'sir ko'rsatuvchilar
- 3) gamontotrop vositalar (jinsiy shakllarga ta'sir ko'rsatadilar).

Bezgakka qarshi vositalarni ta'sir yo'nalishini bilish ularni bezgakni davolash va oldini olishda qo'llash samaradorligi uchun katta ahamiyatga ega.

GEMATOSHIZOTROP VOSITALAR

Xingamin (xloroxin, delagil, rezoxin) keng qo'llaniladi. U 4-aminoxinolin hosilasidir. Plazmodiyarni eritrositar shakllariga yo'naltirilgan gematoshizotrop ta'sir ko'rsatishi uning bezgakka qarshi ta'sirida bog'langandir. Bu asnoda u boshqa bezgakka qarshi preparatlardan ustun keladi. P. vivax ni jinsiy hujayralariga kuchsiz darajada ta'sir ko'rsatadi. Plazmodiyarni xingaminga chidamlilik orttirishi nisbatan sekin kechadi. Xingamin amebisid ta'sir ham ko'rsatadi. Bundan tashqari unda immunodepressiv va antiaritmik ta'sir ko'rsatish so'rildi. Ushbu yo'l bilan kiritilganda qon zardobida preparat maksimal konsentrasiyada 1-2 soatdan so'ng to'planadi. Moddaning yarmiga yaqini zardob oqsillari bilan bog'lanadi. Xingamin to'qimalarda ham katta konsentrasiyada aniqlanadi. Organizmdan sekin ajraladi. Uni qon zardobidagi konsentrasiyasini 50% ga kamayishi uchun 3 kun vaqt kerak bo'ladi. Xingamin va uni



metabolitlarini ajralishining asosiy yo'li bu buyrak orqalidir. Preparatni 70% ga

yaqini o'zgarmagan holda ajraladi.

Eliminasiya tezligi peshobni kislotali muhitida ortadi va ishqoriy muhitida kamayadi. Xingaminni bezgakni **hamma** turida hamda ichakdan tashqari u kollagenozlar (masalan, revmatizm va revmatoидli artritlar)da ham sa'marador olishda va amiloidozda ham tavsiya etishadi. Xingamin odatda ichishga buyuriladi. ba'zan parenteral kiritiladi.

Bezgakni davolashda xingamin yaxshi o'zlashtiriladi. Noxush ta'sirlari asosan uni katta dozalarda davomli qo'llaganda yuzaga chiqadi (kollagenozlarni davolaganda). Ular dermatit, dispepsik o'zgarishlar, bosh aylanishi kabilarda namoyon bo'ladi. Eng og'ir asorati bu ko'rishni buzilishi (retinopatiyani ham qo'shganda). Kamdan-kam hollarda leykopeniya, jigar funksiyasini buzilishi qayd qilinadi. Xingaminni davomli qo'llaganda ko'rish, jigar funksiyalari va qon hosil bo'lish jarayonini nazoratga olish zarur.

Farmakologik xossalari va qo'llashga ko'rsatmalar bo'yicha galoxin (sikloxin), gidroksixlorixin (plakvenil), amodaxin (kamoxin) preparatlari xingaminga juda o'xshashdir.

Xloridin (pirimetamin) ham gematoshizotrop vositalarga mansub. U digidrofolatreduktazaning ingibitori bo'lganligidan digidrofolat kislotasi' almashinuvini buzuvchi modalarga mansub. To'qimalarda kuchli darajada ammo xingaminga nisbatan kamroq to'planish (depolanish) va davomli ta'sir ko'rsatish xossasiga ega. Ta'siri sekin rivojlanganligidan xloridinni asosan bezgakni shaxsiy profilaktikasi uchun qo'llashadi. Bezgak plazmodiyilari ushbu preparatga juda tez chidamlilik orttiradilar. Xingaminga chidamlilik orttirgan tropik bezgakda xloridinni sulfanilamidlar bilan birga (kombinasiya) qo'llashadi. Xloridinni sulfanilamidlar bilan birgalikda nafaqat bezgakni, balki toksoplazmozni ham davolashda qo'llashadi.

Eritrositar shizontlarga halokatli ta'sirni xin daraxti po'stlog'idan olinadigan alkaloid bo'l mish xinin ham ko'rsatadi. U nisbatan kuchsiz bezgakka qarshi ta'sir etadi. Xinining katta ustunligi uning ta'sirini tez rivojlanishidadir. Xinin ancha katta zaharlilikka ega ekanligi bilan ajralib turadi. Uni qo'llaganda turli xil noxush ta'sirlar (bosh aylanishi, ko'rish va eshitishning buzilishi, buyrak funksiyasini susayishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, diareya, allergik reaksiyalar) tez-tez kuzatiladi. Xingaminga va ko'pgina dori vositalariga chidamlilik orttirgan tropik bezgak hurujlarini bartaraf etish va uni davolashda xinin katta ahamiyatga ega. Dori preparatlari sifatida xininni sulfati, gidroxloridi va digidroxloridi qo'llaniladi.

4-xinolinmetanol hosilasi guruhiga sintetik preparat metloxin mansub. Xininga o'xshab u gematoshizotrop ta'sir ko'rsatadi. Ta'sirining davomiligi bilan ajralib turadi. $t_{1/2} > 6$ kun (xininniki $t_{1/2} \sim 10$ soat) faqat ichiladi. Mahalliy ta'sirlovochi xossaga ega. Xininga nisbatan kam zaharli. Dispepsik buzilishlar, terida toshmalar, bosh og'rig'i, bosh aylanishi kuzatilishi mumkin. Preparatni katta dozalarda qo'llaganda nevrologik buzilishlar, tiritishish rivojlanishi mumkin.

Sulfanilamidlar va sulfonlar ham gematoshizotrop faollikka egadirlar. Ularning samaradorligi bezgak plazmodiylarining paraaminobenzoy kislotasini o'zlashtirishlarini buzilishi bilan bog'liq.

Sulfanilamidlardan sulfazin, sulfapiridazin, sulfadimetoksin, sulfalen, sulfadoksinlarni qo'llashadi. Sulfonlar guruhidan moxovga qarshi vositalar sifatida topilgan diafenilsulfon (dapson) bezgakni davolash va oldini olishda qo'llaniladi.

Sulfanilamidlar va sulfonlarni gematoshizotrop faolligi nisbatan katta emas. Ularning ta'siri sekin rivojlanadi. Ushbu preparatni yakka o'zini qo'llashmaydi. Ularni odatda boshqa bezgakka qarshi vositalar bilan birga, masalan, xinin, digidrofolatreduktazaning ingibitori bo'l mish xloridin, trimetoprim va boshqalar bilan qo'llashadi.

Tez-tez kombinasiyalashtirilgan preparatlarni, masalan, fansidar (xloridin + sulfadoksin) qo'llashadi.

Xingaminga chidamlilik orturilgan hollarda, ba'zan tetrasiklin qatoridagi antibiotik doksisiklin qo'llaniladi.

GISTOSHIZOTROP VOSITALAR

Plazmodiylarni preeritrositar shakllarini rivojlanishini to'xtatuvchi preparatlarga yuqorida ko'rib chiqilgan xloridin mansubdir (31.1-rasmga qarang).

Plazmodiylarning paraeritrositar shakllariga 8-aminoxinolin hosilasi bo'lgan p rimaxin halokatli ta'sir ko'rsatadi. U plazmodiylarni jinsiyl shakllariga ham ta'sir ko'rsatadi (gamontosid ta'sir). Me'da-ichak traktidan yaxshi so'rildi. Qon zardobida maksimal konsentrasiyasi 2 soatdan keyin hosil bo'ladi. Organizmda

preparat tez kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi. Buyrak orqali asosan metabolitlar ko'rinishida ajraladi (1 sutka davomida).

Uch kunlik bezgakning kech qaytalanishi hamda bezgakni vositachi orqali tarqalishini oldini olish uni qo'llashga asosiy ko'rsatma (gamontotrop ta'sirga ega ekanligidan) hisoblanadi.

Noxush ta'sirlar sifatida dispepsik o'zgarishlar, metgemoglobinuriya, leykopeniya, ba'zida agranulositoz kuzatilishi mumkin. Nasliy enzimopatiya (eritrositlarda glyukoza-6-fosfat yetishmasligi)si bo'lgan shakllarda o'tkir gemoliz va gemoglobinuriya rivojlanadi.

Primaxinni boshqa preparatlar bilan qo'shib (bir vaqtida va ketma-ket) ishlatalish mumkin.

GAMONTOTROP VOSITALAR

Jinsiy hujayralarga ta'sir ko'rsatuvchi preparatlar gamontosid (primaxin) yoki gamontostatik (xloridin) xossaga ega bo'lislari mumkin. Gamontosid vositalar ta'sirida plazmodiyarning jinsiy hujayralari inson organizmida halok bo'ladi. Gamontostatik vositalar jinsiy hujayralarni faqat jarohatlaydilar va shuning natijasida sporogoniya (turli bosqichlarida) jarayoni buziladi.

BEZGAKKA QARSHI VOSITALARNI QO'LLASH PRINSIPLARI


Bezgakka qarshi vositalarni bezgakni oldini olish va davolash maqsadida qo'llashadi.

Shaxsiy ximioprofilaktika sog'lom odamni bezgak bilan kasallanib qolish xavfi bor tumanda bezgakni oldini olishni nazarda tutadi. Eng maqbul vosita sporozoitosid ta'sir ko'rsatishi kurak edi. Ammo bunday preparat yo'q, shu sababli preeritrositar (birlamchi to'qima) shakllariga ta'sir etuvehi moddalarni qo'llashadi. Shunday preparatlardan xloridin yuqorida qayd etilgan edi. Shaxsiy kimyoprofilaktika maqsadida ko'pincha gematoshizotrop vositalardan xingamin, mefloxin hamda doksisiklin'ni qo'llashadi. Ular isitmalash hurujini rivojlanishini oldini oladilar.

Bezgakni davolash enteral qo'llaniladigan plazmodiylarni eritrositar shakkilariga ta'sir etuvechi gematoshizotrop vositalar (xingamin) bilan amalga oshiriladi.

¹Malaronni (atovakvon + proguanil) ham qo'llashadi.

Ba'zi bezgakga qarshi vositalarning kimyoviy tuzilishi



Xingamin va unga o'xshash preparatlarga chidamlilik orttirgan bezgakni davolashda ko'pincha xinin, xloridin, sulfamilamidlar va sulfonlar yaxshi natija beradi. Ko'proq ta'sir mexanizmi turliha bo'lgan bezgakka qarshi vositalarni birgalikda (kombinasiya) qo'llashadi. Tez rivojlanuvchi bezgakda, ayniqsa, bezgak komasida (*tropik bezgak asorati*) gematoshizotrop moddalarni (masalan, xinin, xingamin)

odatda katta dozada parenteral kiritiladi.

Uch va to'rt kunlik bezgakda to'liq davolanishni faqat gematoshizotrop vositalarni o'zi ta'minlay olmaydi, chunki paraeritrositar shakkilarni *rivojlanishi* tufayli xastalik qaytalanishi mumkin. Shu sababli, xastalikni kech qaytalanishini (epidemiyadan oldin) kimyoprotiflaktikasi maqsadida paraeritrositar shakkiliga ta'sir ko'rsatuvchi preparatlarni berish lozim (primaxin). *Tropik bezgak bundan istisno*, chunki avval qayd etilganidek, u plazmodiylarni *rivojlanishi*da paraeritrositar shakkilarni bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib, tropik bezgakni xloridinni o'zi bilan to'liq davolash mumkin.

Jamoat kimyoprofilaktikasining asosiy vazifasi (kollektiv epidemiologik kimyoprofilaktika) bezgakni bemor odamdan boshqalarga o'tishini oldini olishdir. Bu maqsadda gamontotrop vositalar (primaxin, xloridin)ni qo'llash tavsiya etiladi. Bunda chivin tanasida sporozoitlar hosil bo'lmaydi.

Binobarin, bezgakka qarshi vositalarning ta'sir spektri ularni qo'llashga ko'rsatmalarini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

AMYOBIOZNI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Issiq o'lka davlatlarida keng tarqalgan amebiozni qo'zg'atuvchi Entamoeba histolytica hisoblanadi. Amebioz ko'proq yo'g'on ichakni jarohatlaydi (amyobali dizenteriya). Bunda amyobalar ham ichak ichida, ham ichak devorida joylashgan bo'ladi. Ammo ichakdan tashqarida joylashgan jarohat o'choqlariga ega bo'lgan sistemali amebioz ham bo'lishi mumkin. Ichakdan darvoza venasi (v.portae) orqali tarqalib amyobalar gepatit va absesslarni jigarda rivojlantirishlari mumkin. Ba'zida o'pka va boshqa a'zolarda absesslar kuzatiladi.

Amebioz qo'zg'atuvchisini joylashgan joyiga bog'liq holda u yoki bu amebiozga qarshi vositalar zarur bo'ladi. Ular quyidagi asosiy guruhlar¹dan iborat bo'lishlari mumkin:

1. Patologik jarayonni har qanday joylashishida ham samarador bo'lgan amebisidlari (metronidazol);
2. Asosan ichak ichida joylashgan amyobalarga bevochita ta'sir ko'rsatuvchi samarador amebisidlari (xiniofon);
3. Ichak ichida va uning devorida joylashgan amyobalarga bilvosita ta'sir etuvchi amebisidlari (tetrasiklinlar);
4. Ichak devori va jigarda o'rashgan amyobalarga ta'sir etuvchi to'qima amebisidlari (emetin gidroxlorid);
5. Asosan, jigarda joylashgan amyobalarga samarador ta'sir ko'rsatuvchi to'qima amebisidlari (xingamin).

(kimyoviy tuzilishlariga qarang)

Tasnidda ko'rsatilganidek ichak va ichakdan tashqarida joylashgan amebiozlarni davolashda universal vosita bu metronidazol hisoblanadi. Ichak ichida joylashgan amebiozlarga nisbatan uning samaradorligi pastroq.

Shu sababli, uni amyobali dizenteriyada xinioson yoki yodoxinolin bilan birga qo'llashadi. Metronidazol sistalarga ta'sir etmaydi.

Amebiozdan batamom sog'ayish, uni residivlarini va reinfeksiyasini oldini olishda ichak ichida joylashgan amyobalarga faol ta'sir etuvchi amebisidlar katta ahamiyatga ega. Ana shunday yo'nalish ta'siriga 8-oksixinolin hosilasi xinioson egadir (31.1-jadval).

31.1-jadval. Amyobalarga qarshi vositalar ta'sirini asosiy yo'nalishlari.

| Preparat | Ichak amebiozida qo'llaniladigan vositalar | | | Ichakdan tashqaridagi amebiozda qo'llaniladigan amebisidlar |
|--------------------|--|---|---|---|
| | Ichak ichida ta'sir etuvchi amebisidlar | Ichak shilliq qavatida ta'sir etuvchi amebisidlar | Ichak bakterial florasini daf etuvchi vositalar | |
| Metronidazol | + | + | | + |
| Emetin gidroxlorid | | + | | + |
| Xinioson | + | | | + |
| Xingamin | | | | |
| Tetrasiklinlar | | | + | |

¹Tasnidga asos qilib JSST (VOZ) taklif qilgan tasnid olingan

Xinioson (yatren)ni bor yo'g'i 10-15% me'da-ichakdan so'rildi. Shu sababli, ichakda moddaning amebisid ta'siri yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lган katta konsentrasiyasi hosil bo'ladi. Preparat kam zaharli. Noxush ta'siriga diareya xos. Ko'z nervining nevriti bo'lishi mumkin.

Xiniosonga tuzilish va ta'sir yo'nalishi o'xshash bo'lган preparat yodoxinol hisoblanadi.

Amebiozni davolashda ipekakuana (*Cephaelis ipecacuanha*) ildizidan ajratilgan alkaloid emetin qo'llash anchagina keng tarqalgan. Dori prearati sifatida emetin gidroxloridni qo'llashadi. Uni mushak ichiga kiritiladi, chunki ichilganda u me'da-ichak traktining shilliq qavatini kuchli qo'zg'atadi (ko'pincha, reflektor qayt qilish kuzatiladi).

Emetin ichakdan tashqarida (masalan, jigarda) katta konsentrasiyada to'planadi va ichak devorida o'mashgan amyobalarga preparat ta'sir ko'rsatadi.

Emetin buyrak orqali uzoq vaqt oralig'ida (1 oydan ko'p) ajraladi. Shu sababli u kumulyasiyalanadi va bu xossasi dozasini haddan oshib ketishi tufayli zaharlanishga sabab bo'ladi.

Noxush ta'siri yurak-tomir sistemasi (taxikardiya, aritmiya, yurak sohasida og'tiq, gipotoniya), me'da-ichak trakti (ko'ngil aynishi, diareya, qayt qilish), asab-mushak sistemasi (mushaklar holsizligi, tremor, nevralgiya) tomonidan yuzaga chiqadi. Buyrak va jigar tomonidan ham buzilishlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun emetin bilan davolash vaqtida, yurak, buyrak va jigar funksiyalarini nazorat qilish shart. Yurak va buyrakning organik xastaliklarida preparatni qo'llash man etilgan.

Jigarda o'mashgan amyobalarga ta'sir ko'rsatish maqsadida jigar to'qimasida katta konsentrasiyada to'planuvchi xingamin muvaffaqiyat bilan qo'llaniladi.

Yuqorida qayd etilgan preparatlar ameboioz qo'zg'atuvchisiga bevosita ta'sir etuvchi amebisidlarga mansubdirlar. Shu bilan bir qatorda, ichak ambiozini amaliy jihatdan amyobalarga bevosita ta'sir ko'rsatmaydigan tetrasiklinlar bilan davolash mumkin. Ma'lumki, Entamoeba histolytica anaerobdir. Uni ichakda yashashi uchun zarur bo'lgan sharoitni kislorodni yutuvechi bakteriyalar tashkil etadi.

Tetrasiklinlarni qo'llaganda ichak florasi nobud bo'ladi va bu holat ichak ichida va uning devorida o'mashgan amyobalarni rivojlanishi va ko'payishiga bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday preparatni bilvosita ta'sir ko'rsatuvechi amyobalarga qarshi vositalar deb atash mumkin. Amebiozni davolashdagi samaradorligi bo'yicha tetrasiklinlar bevosita ta'sir ko'rsatuvechi amebisidlardan kuchsizdirlar. O'tkir ichak amebozini davolashda ba'zan monomisin qo'llaniladi (ichiladi).

Amebiozni davolashda ko'rgina holatlarda metronidazolni qo'llash bilan cheklansa bo'ladi. Shu bilan bir qatorda tez-tez dori moddalarini birga (kombinasiya) qo'llashadi. Jumladan, amyobali dizenteriyada ichak ichida, uni devorida joylashgan amyobalarga ta'sir ko'rsatuvchi hamda ularni jigarga kirib joylashishini oldini oluvchi preparatlarni birlgilikda qo'llash maqsadga muvoſiqdir (masalan, metronidazol + xiniosfon, emetin gidroxilid + tetrasiklin + xiniosfon).

LYAMBLOZNI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Lyambliozi qo'zg'atuvcisi Giardia (lamblia) intestinalis hisoblanadi. Ichakda lyambliya bolganda uning disfunksiyasi kuzatiladi (duodenit, enterit). Lyambliozi davolashda metronidazol, aminoxinol va furazolidonni qo'llashadi (31.2-rasm; 31.2-jadval)



Sodda jonivorlarga qarshi vositalarni qo'llashga asosiy ko'rsatmalar.

Sodda jonivorlar chaqirgan qator xastaliklar farmakoterapiyasi.

| Qo'zg'atuuchi | Xastalik | Preparatlar |
|--|----------|---|
| 1 | 2 | 3 |
| Plasmodium vivax, P.ovale, P.falciparum, P.malariae | Bezgak | Xingamin, xloridin, xinin, mefloxin, primaxin, fansidar, doksisiklin, klindamisin |

| | | |
|---|--|--|
| Entamoebahystolytica | Amebioz | Metronidazol, timidazol, ornidazol (tiberal), ximifon, yodoxinol, xingamin, doksitsiklin, emetin gidroxlorid, diloksanid-furoat, paramomisin |
| Giardia (lamblia) intestinalis | Lyamblioz | Metronidazol, timidazol, aminoxinol, akrixin, furazolidon |
| Trichomonasvaginalis | Trixomonoz | Metronidazol, timidazol, nitazol, furazolidon, ornidazol (tiberal), trixomonosid, xloridin+sulfazin |
| Toxoplasma gondii | Toksoplazmoz | Xloridin, sulfazin, pentamidin, klindamisin, spiramisin |
| Balantidium coli | Balantidiaz | Tetrasiklinlar, ximifon, yodoxinol, monomisin, metronidazol |
| Leishmanisdonovani, L.tropicava boshqalar | Leyshmanioz | Solyusurinin, metronidazol, natry stuboglyukonat, meglumin antimoniat, ketokonazol, pentamidin, amfoterisin B, monomisin |
| Triponosoma gambiense, T.rhodesiense | Uyqu xastaligi (janubiy afrika triponosomozi) | Melarsoprol, suramin, pentamidin, esflornitin |
| Triponosoma cruzi | CHagas xastaligi (janubiy amerika triponosomozi) | Nisurtimoks, benznidazol, primaxin, puromisin |

Izoh. Sodda jonivorlar chaqirgan xastaliklarni davolashda va oldini olishda qo'llaniladigan ko'p preparatlar ma'lumot uchun keltirilgan. Ba'zi preparatlar matnda eslatilmagan. Bunday hollarda qo'shimcha adabiyot va spravochniklardan foydalanish zarur bo'ladi.

Aminoxinol xinolin unumidir. U lyamblioz, toksoplazmoz, teri leyshmaniozi hamda ba'zi kollagenozlarni davolashda samarador. Ko'p holatlarda preparatni bemorlar yaxshi o'zlashtiradilar. Dispepsik buzilishlar, bosh og'rig'i, quloq shang'illashi, allergik reaksiyalar kuzatilishi mumkin.

TRIXOMONOZNI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Trichomonas vaginalis chaqiradigan trixomonozda (ayollarda kolpit va vaginit, erkaklarda uretrit ko'rinishida namoyon bo'ladi) tanlab olingan preparat – metronidazoldir.

Metronidazol (flagil, klion, trixopol vagimid) – nitroimidazol unumidir (tuzilishiga qarang). Uz nafaqat trixomonadalarga, balki amyobalar va lyambliyalarga ham halokatli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari metronidazol spora hosil qilmaydigan anaeroblarga qarshi samarador¹.

Me'da-ichak traktidan yaxshi so'rildi. Organizmda yuqori darajada kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi. Metronidazol uning metabolitlari va konyugatlari asosan buyrak orqali pesho tarkibida ajratiladi. Preparatning kam miqdori so'lak bezlari, ichak, emizish davrida ko'krak bezlari orqali ajratiladi.


Metronidazolni ichishga mahalliy (intravaginal²) qo'llash va tomirga³ kiritish buyuriladi. Odadta preparatni bemorlar yaxshi o'zlashtiradilar. Noxush ta'sirlari sifatida ko'proq dispepsik o'zgarishlar (ishtahani buzilishi, og'izda metall massasi, ko'ngil aynishi, diareya) kuzatiladi. MNS tomonidan kuzatiladigan buzilishlar qayd etilganda (tremor, koordinasiyani o'zgarishi) preparat qabul qilishni to'xtatish lozim. Teri va shilliq qavatlarni jarohatlanishi bo'lishi mumkin.

¹Спора хосил кимайдиган (облигат) анаэробларга *Bacteroides fragilis*, *Bacteroides melaninogenicus* манеубдир.

²Метронидазолни замбуругяларга карини препарат миконазол нитрат (клион Д) билан биргаликка кинга киритиладиган (вагинал) таблеткалар инъекцияни чиқарилмоқда.

³Метронидазолни томирга киригини учун "клион" (инфузия учи эритма) ва "метронидазол гемисукиннат" номли препаратлар чиқарилмоқда. Уларни спора хосил кимайдиган анаэроблар чакирадиган инфекцияларда, амёбалар кўзгатган турли хил локализацияни абцессларда, оғир кечувчи лямблиозларда кўлланади.

BA'ZI SODDA JONIVORLARGA QARSHI VOSITALARNING KIMYOVİY TUZILISHİ



Nitroimidazollar
guruhiba
metronidazoldan
tashqari tinidazol
(fasijin) ham kiradi.
U trixomonoz,
amebioz va
lyambliozlarda
yuqori
samaradorlikka ega.
Bundan tashqari
qator obligat
anaeroblarga
bakrteriosid ta'sir
ko'rsatadi. Me'da-
ichak traktidan
yaxshi so'rildi.
Tinidazolni
qo'llaganda qon

zardobida metronidazolni qo'llagandagiga nisbatan yuqoriroq konsentrasiya yaratiladi. Tinidazol metronidazolga nisbatan davomliroq ta'sir ko'rsatadi.

Trixomonozda qo'llaniladigan preparatlarga trixomonosid ham kiradi. Aminoxinolin hosilasidir. Uni enteral va mahalliy qo'llashadi. SHilliq qavatlarga ta'sirlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Trixomonozda nitazol va furazolidonlar ham samaradordir.

TOKSOPLAZMOZNI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Toksoplazmozni qo'zg'atuvchisi Toxoplasma gandii hisoblanadi. Xastalikni limfa tugunlari, ichak, o'pka va boshqa ichki a'zolar, ko'z, MNSni jarohatlanishi bilan kechuvchi turli xillari mavjud. Toksoplazmani yuqtirish vaqtidan oldin tug'ish, o'z-o'zidan homilani tushishi, majruhliklarni sababi bo'lishi mumkin. Ushbu xastalikda qo'llaniladigan asosiy preparatlar xloridin va sulfanilamidlar hisoblanadi.

Digidrofolat kislotasini tetragidrofolat kislotasiga aylanishini susaytiruvchi xloridinni homiladorlikni birinchi yarmida berish mumkin emas (homilaga salbiy ta'sir ko'rsatadi). Bunday hollarda homilaga infeksiya o'tishini oldini olish maqsadida sulfanilamidlar qo'llaniladi. Toksoplazmozda pentamidinni ham qo'llashadi.

BALANTIDIOZNI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Balantidiozni qo'zg'atuvchisi yo'g'on ichakni jarohatlovchi Balantidium coli infuzoriyasidir. Balantidiozni davolash asosan monomisin, tetrasiklin, xinioson bilan amalga oshiriladi.

LEYSHMANIOZLARNI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Teri leyshmaniozi (qo'zg'atuvchilaridan biri – Leishmania tropica) va visseral leyshmanioz (qo'zg'atuvchisi – Leishmania donovani)lar tafovut etilgan.

Visseral leyshmaniozni (kala-azar) davolashda besh valentli surma preparati solyusurmin eng ko'p qo'llaniladi (MDH, Rossiya davlatlarida). Preparat parenteral kiritiladi. Ko'pgina bemorlar uni yaxshi o'zlashtiradilar. Noxush ta'sirlar sifatida ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i, terida toshmalar, kamdan-kam agranulositoz kuzatilishi mumkin. Solyusurminni dozasi oshirib yuborilganda uning antidoti sifatida unitiol qo'llanishi mumkin.

Besh valentli surma preparatlaridan leyshmaniozda stiboglyukonat natriy ham qo'llaniladi. Uni mushak va tomir ichiga kiritishadi. Noxush ta'sirlar sifatida qayt qilish, ishtahani buzilishi, bradikardiya, gipotensiya, to'sh orgasida og'riq rivojlanishi mumkin. Leyshmaniyalarni surma preparatlariiga chidamliligi rivojlanishi mumkinligini nazarda tutmoq lozim.

Surmaning ikkala preparati ham teri leyshmaniozida samaradordir. Teri leyshmaniozida mahalliy davolash infiltratlarni akrixin eritmasi bilan shimdirilishdan iboratdir.

Rezorbтив ta'sir uchun aminoglikozidlar guruhiga mansub, leyshmanioz larga qarshi yuqori darajada faollikka ega bo'lgan antibiotik monomisinni qo'llashadi. Teri leyshmaniozida samaradorligi bilan bir qatorda u anchagina keng antibakterial ta'sir spektriga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Buyrakka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan eshitish nervini yallig'lanishiga olib keladi. Neomisinga nisbatan kamzaharli. Leyshmaniozni bu shaklida metronidazolni ham qo'llashadi.

TRIPANOSOMOZNI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Uyqu xastaligini rivojlantiruvchi *Tripanosoma gambiense* va *Tripanosoma rhodesiense* hamda Chagas xastaligi bilan bog'liq *Tripanosoma cruzi* tripanosomozni qo'zg'atuvchisi hisoblanadi.

Uyqu xastaligini (Janubiy Afrikada tarqalgan) davolashda margimushni organik birikmalaridan gematoensefalik baryerdan oson o'tadigan va ushbu xastalikni davolashda tanlash mumkin bo'lган preparat melarsoprolni qo'llashadi.

Bundan tashqari, aromatik diamidin bo'lgan pentamidin va polianionli birikma suraminni qo'llashadi. Ammo, keyingi ikki preparat bosh miyaga o'tmaydi va shu sababli ularni xastalikni erta bosqichlarida, hali MNS jarayonga jalb etilmagan vaqtida qo'llaniladi. Ushbu preparatlarni zaharliligi anchagina yuqori va katta noxush ta'sirlami rivojlantridi.

Chagas xastaligida (Janubiy Amerika) primaxinni, puromisin antibiotigini va boshqa preparatlarni qo'llashadi.

Preparatlar

| Nomi | Kiritish yo'li | Chiqarish shakli |
|--|---|--|
| Xingamin – Chingaminum | Enteral, mushakka va tomirga 0,5 g | Sochma, tabletka 0,25 dan, 5% 5 ml eritma ampulalarda |
| Xloridin – Chloradimum | Enteral 0,01 | Sochma, tabletka 0,005 va 0,01 dan |
| Ximin gidrochlorid – Chinin hydrochloridum | Enteral 0,25-0,5, teri ostiga 1,0, tomirga 0,5 | Sochma, tabletka 0,025 va 0,05 dan, 5% 1 ml eritma ampulalarda |
| Primaxin – Prinachinum | Enteral 0,009 | Tabletka 0,003 va 0,009 dan |
| Metronidazol – Metronidazolum | Enteral 0,25-0,5, intervaginal 0,5 | Tabletka 0,25 va 0,5, suppozitoriya vaginal tabletka 0,5 dan |
| Xintofon – Chinifonum | Enteral 0,5 | Sochma, tabletka 0,25 dan |
| Emetin gidrochlorid – Emetini hydrochloridum | Teri ostiga va mushakka 0,015 g | Sochma, 1% 1 ml eritma ampulalarda |
| Trixomonasid – Trichomonaeidum | Enteral 0,1-0,15, intervaginal 0,05 | Qin tabletkasi va shamdotisi 0,05 |
| Monomisin – Monomyeinum | Enteral va mushakka 0,25, 2- 3% surtina | Tabletka 0,25 dan, 0,25 va 0,5 preparat bo'lgan flakonlar (ishlatishdan oldin eritiladi) |
| Solyusurmin – Solusurminum | Tomirga 0,05-0,075 | 20% 10 ml eritma ampulalarda |
| Aminoxinol – Aminochinolum | Enteral 0,15 | Sochma, tabletka 0,025 va 0,05 |

ADABIYOTLAR

Asosiy:

- 1.Azizova C.C. Farmakologiya. darslik, T.;2005.
- 2.Faxruddinov,S.F. Farmakologiya. darslik, T.;1997.
3. Xarkevich D.A. Farmakologiya. - M.; Meditsina, 2009.

Qo'shimcha:

- 1.Katso'ng B.G. Bazisnaya i klinicheskaya farmakologiya. Monografiya. Sankt-Peterburg – Moskva. 1998.
2. ://www.cibis.ru/catalogue/pharmacology_pharmacy_toxicology/a/sites/52185.html; ://medvedev-ma.narod.ru/farmakologija/0.htm;
- 3.<http://max.lgb.ru/farm/>;
4. ://nmu-student.narod.ru/farmacology;
5. ://www.ronl.ru/formakologiya/; ://www.evrocet.ru/cshop/book-18921;
6. ://www.vsma.ac.ru/~pharm/; ://WWW.JEDI.RU/book-189216-115.html.

